V.U. YODGOROV, D.YA. BUTUNOV

UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGI IQTISODIYOTI VA BOSHQARUVI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT ARXITEKTURA QURILISH INSTITUTI

V. Yodgarov, D. Butunov

UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGI IQTISODIYOTI VA BOSHQARUVI

Oliy o‘quv yurtlarining muhandislik-qurilish sohasi:
534900- Ko‘chmas mulk ekspertizasi va uni boshqarish va
5610100 -Servis (uy-joy communal xo‘jaligi sohasi) ta’lim yo‘nalishlari
«Uy-joy kommunal xo‘jaligi iqtisodiyoti va boshqaruvi»
sohasi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalar uchun
darslik sifatida tavsiya etilgan

«NOSHIR»
TOSHKENT
2012

УДК: 903.48:72(075)
ББК: 65.441 9(2)441
Y-55 322

Taqrizchilar:

O‘z.R. Bank-moliya akademiyasi prorektori,
i.f..d., prof. ***M.Q. Ziyayev;***

O‘z.R. «O‘zkommunxizmat» agentligi Bosh direktori
o‘rinbosari ***O. Axmedov;***

TAQI «Menejment» kafedrasi dotsenti t.f.n., dots. ***R.I. Gimush***

Mazkur darslik «Uy-joy kommunal xo‘jaligi iqtisodiyoti va boshqaruvi» fanidan amaldagi fan dasturiga muvofiq tayyorlangan. Darslikda fanning predmeti, nazariy va amaliy masalalari, Respublikamiz uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasining tashkiliy tuzilmasi hamda faoliyatining iqtisodiy mexanizmi o‘rganilgan. Darslikda bozor iqtisodiyoti sharoitida respublikamizda uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida olib borilayotgan islohotlarning va tarkibiy o‘zgarishlarning pirovard maqsadlarini ochib berishga harakat qilingan.

Darslik oliy ta’lim muassasalarida «Ko‘chmas mulk ekspertizasi va uni boshqarish» bakalavriat ta’lim yo‘nalishida «Uy-joy kommunal xo‘jaligi iqtisodiyoti va boshqaruvi» fanini o‘zlashtirishda foydalanish uchun mo‘ljallangan. Shuningdek, darslik Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari va kommunal xo‘jaligi tizimi korxonalarida faoliyat ko‘rsatuvchi xodimlar foydalanishlari uchun tavsiya etiladi.

ISBN 978-9943-353-86-2
© «Noshir» nashriyoti, 2012-y.

KIRISH

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so‘ng o‘tgan qisqa vaqt mobaynida iqtisodiyotning barcha sohalari kabi, uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida ham ulkan qayta qurishlar amalga oshirildi. Eng avvalo uy-joy fondi xususiylashtirildi. Uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida amalga oshirilayotgan tarkibiy o‘zgarishlarning qonuniy-huquqiy asoslari shakllantirildi. Kommunal xo‘jaligini boshqarish tizimi isloh qilindi. Sohadagi korxona va tashkilotlar faoliyati erkin bozor tamoyillari asosida tashkil etildi. Iste’molchi va xizmat ko‘rsatuvchilar o‘rtasida shartnomaviy munosabatlar joriy etildi. Kommunal xizmatlar sohasida bahoni shakllantirish va yoqilg‘i resurslarni iqtisod qilish bo‘yicha ijobiy natijalarga erishildi.

Respublikamizda turar joylarni boshqarish, ularga xizmat ko‘rsatish va ularni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishning aniq bozorini shakllantirish ishlarini tubdan yaxshilash, aholining ko‘p kvartirali uylarni saqlash va mukammal ta’mirlashdan manfaatdorligini oshirish, shuningdek uy-joy mulkdorlari shirkatlarining o‘zini o‘zi boshqarish instituti sifatida shirkatlarning nufuzini, tashkiliy va moliyaviy mustaqilligini hamda ular faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida 2006-yil 12-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlarini yanada rivojlantirish va turar joylarga xizmatlar ko‘rsatishning aniq bozorini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 64-sonli Qarori qabul qilindi. Mazkur Qarorga muvofiq uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasini rivojlantirishning keng qamrovli dasturi ishlab chiqildi va amalga oshirilmoqda. Jumladan, mazkur dasturga muvofiq sohada malakali kadrlarga bo‘lgan o‘tkir ehtiyojdan kelib chiqib, «Servis (uy-joy va kommunal, maishiy xizmatlar)» va «Ko‘chmas mulk ekspertizasi

...SODIYOT
...STITUTI
...S MARKAZI

va uni boshqarish» bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. «Servis (kommunal xo'jaligi sohasi), «Ko'chmas mulk ekspertizasi va uni boshqarish», «Iqtisodiyot (qurilish)», va «Menejment (qurilish)» ta'lim yo'nalishlarida «Uy-joy kommunal xo'jaligi iqtisodiyoti va boshqaruvi» fani kiritildi.

Kommunal xo'jaligi iqtisodiyoti faniga soha uchun malakali kadrlar tayyorlashda asosiy va muhim fan sifatida qaralib, unda kommunal xo'jaligi sohasi faoliyatini ta'minlayotgan iqtisodiy tizimni, unda amal qilayotgan iqtisodiy qonuniyatlarni, sohani rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini, amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlarning mohiyatini, sof raqobat muhitida kommunal xizmatlar bozorini shakllantirish va uy-joy fondidan foydalanishni tashkil etishda xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati faoliyati bilan bog'liq iqtisodiy masalalarni ochib berishga alohida e'tibor qaratildi.

Darslikda uy-joy kommunal xo'jaligi sohasiga yagona tizim sifatida qaralib, tizimda xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarishni tashkil etish jarayonlari oddiy va tushunarli tilda bayon etilgan. Respublikamizda uy-joy qurilishi, kommunal xo'jaligi sohasida olib borilayotgan islohotlarning o'z vaqtida, to'g'ri va maqsadli amalga oshirilayotganligini asoslab berishga harakat qilindi.

Mazkur darslik kirish, beshta bo'lim va xulosadan iborat. Darslikning birinchi bo'limida uy-joy kommunal xo'jaligi tizimi, uning aholi turmush darajasini yaxshilashdagi ahamiyati va respublikamizda kommunal xo'jaligi tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar to'g'risida so'z yuritiladi. Ikkinchi bo'limda uy-joy fondi va turarjoy binolari tarkibiy tuzilishi o'rganilsa, uchinchi bo'limda kommunal xizmatlar va ularni tashkiliy-iqtisodiy asoslari yoritib beriladi. To'rtinchi bo'limda kommunal xo'jaligi korxonalari faoliyatini tashkil etish, resurslardan samarali foydalanish va tejamkorlik masalalari o'rganiladi. Beshinchi bo'limda respublikamizda xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari va uy-joy fondidan foydalanishni tashkil etish bilan bog'liq jarayonlar yoritilgan.

Darslik bakalavriatning «Ko'chmas mulk ekspertizasi va uni boshqarish» ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi «Uy-joy kommunal xo'jaligi iqtisodiyoti va boshqaruvi» fani dasturiga muvofiq

tayyorlandi va u mazkur yo'nalishda ta'lim olayotgan talabalar va kommunal xo'jaligi sohasida kadrlar tayyorlovchi kasb-hunar ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun mo'ljallangan. Shuningdek, darslikdan uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlar foydalanishlari uchun tavsiya etiladi.

Kommunal xo'jaligi iqtisodiyoti fanidan darslik birinchi marta o'zbek tilida, O'zbekiston Respublikasi kommunal xo'jaligi tizimi misolida tayyorlangan bo'lib, unda kamchiliklar bo'lishi tabiiy holdir. Shu sababli mualliflar darslikni takomillashtirish yuzasidan taklif va mulohazalarni kutib qoladilar.

Mualliflar mazkur darslikni tayyorlashda yaqindan yordam bergan professor A.Abdugaffarovga, professor M.Ziyaevga hamda O'zbekiston Respublikasi «O'zkommunxizmat» agentligi va Toshkent arxitektura qurilish instituti rahbariyatiga o'z minnatdorchiliklarini bildiradilar.

1-BO‘LIM. JAMIYAT TARAQQIYOTIDA UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGI SOHASINING RO’LI

Bo‘limda keltirilgan mavzularni o‘zlashtirganlaridan so‘ng talabalarda:

— kommunal xo‘jaligi tizimi;

— kommunal xo‘jaligi sohasining jamiyatdagi ro’li va uning rivojlanish tarixi;

— respublikamizda uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasini isloh qilishning o‘ziga xos xususiyatlari;

— mamlkatimizda Davlatning uy-joy siyosati;

— uy-joy fondi va shahar xo‘jaligi infratuzilmasini rivojlantirishda kommunal xo‘jaligining ahamiyati to‘g‘risida tushuncha va tasavvur hosil bo‘ladi.

Talabalar:

— respublikamizda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish yo‘llari;

— uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida amalga oshirilgan iqtisodiy islohatlar;

— kommunal xo‘jaligi tizimida islohatlarni yanada rivojlantirib borishi hamda sohada islohatlarni amalga oshirish to‘g‘risida bilimga ega bo‘ladilar.

Talabalarda:

— Kommunal xo‘jaligi korxonalari faoliyatini tashkil etish sohasida islohatlarni amalga oshirish to‘g‘risida malaka va ko‘nikma shakllanadi.

I BOB. UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGI TIZIMI VA UNING AHOLI TURMUSH DARAJASINI YAXSHILASHDAGI ROLI

1.1. Kommunal xo'jaligi iqtisodiyoti fanining predmeti va vazifalari

Respublikamiz mustaqillikka erishganining dastlabki kunlaridan boshlab hozirgi kunga qadar iqtisodiyotning barcha sohalarida erkin bozor munosabatlarini joriy etish va erkin raqobat muhitiga asoslangan shartnomaviy munosabatlarni rivojlantirish ishlari jadal amalga oshirilmoqda. Respublikamizda o'tgan qisqa vaqt mobaynida mahalliy xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan va pirovard natijada aholining turmush darajasini yuksaltirishga hamda xalq farovonligini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy mexanizm shakllantirildi hamda Prezidentimiz I.A.Karimov boshchiliklarida mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning uzoq yillarga mo'ljallangan istiqbol dasturi ishlab chiqildi. Mazkur asarda, shuningdek, Prezidentimizning ko'plab asarlarida milliy iqtisodiyotimizni va uning turli tarmoqlarini, yo'nalishlari va tarkibiy qismlarini isloh qilishga qaratilgan g'oyalar talqin qilinib, ularning mazmun-mohiyatida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan kutilayotgan natija erkin bozor munosabatlari va sof raqobat muhitida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish bo'lsa-da, uning pirovard natijasi, Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek, «Respublikamiz iqtisodiy salohiyatining yuksalishi, xalqimizning farovon hayot kechirishi, yoshlarimizni yetuk va barkamol insonlar bo'lib yetishishlari uchun munosib shart-sharoitlarni yaratishdir»[1].

[1] I.A.Karimov «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida»: Toshkent, O'zbekiston nashriyoti.

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islolhotlarning tub mazmun-mohiyati xalq farovonligini ta'minlashdan iborat ekan, eng avvalo ijtimoiy soha rivojini ta'minlash, uning muhim qismi bo'lgan uy-joy kommunal xo'jaligi sohasini rivojlantirish asosiy vazifalardan biri bo'lib qoladi.

So'nggi yillarda respublikada servis va xizmat ko'rsatish sohalarini qo'llab-quvatlash borasida hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan izchil tadbirlar, bu sohadagi alohida olingan tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha qabul qilinayotgan qator dasturiy yo'nalishlar provardida xizmat ko'rsatish va servis sohasining rivojlanishiga, shuningdek uy-joy xo'jaligiga xizmat ko'rsatish sohasining yuqori sur'atlar bilan o'sishiga olib kelmoqda. Buning qonuniy asosi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 17- maydagi «Xizmat ko'rsatish va servis sohasini 2006-2010-yillarda rivojlantirish haqida»gi PQ-325-sonli, 2007-yil 21-maydagi «O'zbekiston Respublikasida 2010-yilga qadar xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar haqida»gi PQ-640-sonli va 2001-yil 17-apreldagi «Kommunal xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning yangi bosqichi to'g'risida»gi PF-2832-sonli Farmonlarini va mazkur hujjatlar ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlarni misol qilib keltirish mumkin.

Jamiyatda ijtimoiy sohaning rivojlanish darajasi aholining uy-joy xo'jaligi, turmush sharoiti va kommunal xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanganlik darajasiga bevosta bog'liq. Uy-joy kommunal xo'jaligi tizimining rivojlanish darajasi aholi turmush sharoitining ichki tashkillashtirilishi va hayot tarzini belgilab beradi. Shuning uchun ham, respublikamizda aynan uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tarmog'ini isloh qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasi iqtisodiyotning turli tarmoqlariga tegishli bo'lgan uyushmalar, korxonalar va tash-kilotlarning yig'indisidan tashkil topadi va ular umumiy qonu-niyatlar hamda oldilariga qo'yilgan maqsadga asoslangan holda yagona tizim sifatida faoliyat ko'rsatadilar.

Kommunal xo'jaligi iqtisodiyoti fani uy-joy kommunal xo'jaligi sohasini yagona bir tizim sifatida o'rganadi va ushbu tizim

kommunal xo'jaligi iqtisodiyoti fanining predmeti bo'lib hisoblanadi.

Respublikamizda iqtisodiyotning barcha sohalari kabi uy-joy kommunal xo'jaligi sohasiga eski tizimdan konstruktiv ijro jihatidan nomukammal bo'lgan ko'p xonadonli uylar va ularni saqlash hamda ta'mirlashning samarasiz tizimi, sohani boshqarishning ma'muriy buyruqbozlik uslubiga asoslangan, budjet mablag'lari hisobidan boqimanda kun ko'rishga o'rganib qolgan iqtisodiy samarasiz tizim meros bo'lib qoldi. Respublikamizda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab kommunal xizmat ko'rsatish tizimini isloh qilishga kirishildi. Davlat tasarrufida bo'lgan uy-joy fondi xususiylashtirildi, tarmoqning asosiy Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksi[1] qabul qilindi, kommunal xo'jaligi tizimi faoliyatini bozor mexanizmi tamoyillari asosida tashkil etishni ta'minlovchi qonuniy-me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi va uni kompleks rivojlantirishga qaratilgan aholiga kommunal xizmat ko'rsatish tizimida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish Kontseptsiyasi[2] hamda tegishli dasturlar ishlab chiqildi. Mazkur hujjatlar asosida respublika uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Kommunal xo'jaligi sohasida hozirgi kunda olib borilayotgan islohotlarni o'rganib, ilmiy tahlil qilib bormasdan turib bu sohada ulkan muvaffaqiyatlarga erishib bo'lmaydi. Tarmoqda amalga oshirilayotgan jarayonlarni o'rganish va ilmiy tahlil qilib borishda hamda sohaga amaliy bilimlarga ega bo'lgan, yuqori malakali kadrlar tayyorlashda kommunal xo'jaligi iqtisodiyoti fanining ahamiyati katta.

Kommunal xo'jaligi iqtisodiyoti fani quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshiradi va mavjud muammolarni ilmiy asoslangan holda hal etishga xizmat qiladi:

— Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasining yagona tizim sifatida aholi hayot darajasini yaxshilashdagi rolini o'rganadi, uning nazariy va amaliy asoslarini shakllantiradi;

---

[1] O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 24-dekabrdagi 713-I-soni Qonuni bilan tasdiqlangan, 1999 yil 1 apreldan amalga kiritilgan.

[2] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 3-noyabrdagi 461-son Qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi aholiga kommunal xizmat ko'rsatish tizimida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish Konsepsiyasi".

— kommunal xo'jaligi sohasida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va uni rivojlantirish yo'llarini belgilaydi hamda sohada yuzaga keladigan muammolarni hal qilishning ilmiy asoslangan yo'llarini belgilaydi;

— uy-joy kommunal xo'jaligi tizimini boshqarish mexanizmini takomillashtirish va samaradorligini oshirish yo'llarini ishlab chiqadi;

— kommunal xizmatlar narxini shakllantirish, tannarxni kamaytirish va to'lov tizimini takomillashtirish masalalarini o'rganadi;

— kommunal xizmatlar ko'rsatishda shartnomaviy munosabatlarni keng joriy etish, turarjoy va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish tizimini takomillashtirishi yo'llarini o'rganadi;

— uy-joy mulkdorlari shirkatlarining tashkiliy va iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirish va uy-joy fondini boshqarishda progressiv usullar hamda fan va texnika yutuqlarini keng joriy etish masalalarini o'rganadi;

— xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari moliyaviy-xo'jalik faoliyatini rejalashtirish hamda yuzaga kelgan ehtiyojlar uchun moliyaviy mablag'larni (kredit, grantlar, homiylar mablag'larini) jalb etish yo'llarini izlab topish va boshqa uy-joy xo'jaligini boshqarish bilan bog'liq iqtisodiy masalalarni o'rganadi.

Uy-joy kommunal xo'jaligi iqtisodiyoti fani mazkur tizimning shakllanishi va uning faoliyati bilan bog'liq iqtisodiy masalalarni o'rganishda Iqtisodiyot nazariyasi, Mikroiqtisodiyot, Tarmoqlar iqtisodiyoti, Qurilish iqtisodiyoti, Ijtimoiy sohalar iqtisodiyoti, Statistika, Investitsiyalar va boshqa iqtisodiy fanlarning nazariy bilimlariga asoslaniladi.

1.2. Kommunal xo'jaligi sohasining jamiyatdagi roli va tarixi

Insoniyatning tarixiy rivojlanishi davomida asosiy va muhim vazifalardan biri aholining turmush darajasini yaxshilash masalasi bo'lib kelgan. Aholining turmush darajasi, hayot kechirishi bilan bog'liq bo'lgan moddiy ne'matlar mavjudligi va ijtimoiy sohada ko'rsatilayotgan xizmatlarning tashkil etilish darajasiga bog'liq.

O‘z navbatida ma’naviy va moddiy ne’matlar inson tafakkurining mahsuli, samarali mehnati natijasi hisoblanadi. Hozirgi kunda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan uslubga muvofiq dunyodagi mamlakatlarning taraqqiyot darajasi reytingi ularning iqtisodiy salohiyati yoki harbiy qudratiga qarab emas, balki, aholi turmush madaniyati va inson resurslarining rivojlanish darajasiga qarab belgilanadi.

Aholining turmush darajasi mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy siyosat va ijtimoiy sohaning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘ladi. O‘z navbatida ijtimoiy soha aholiga moddiy va ma’naviy ne’matlar yetkazib beruvchi infratuzilmalardan tashkil topadi. Ta’lim, madaniyat, san’at, sport va sog‘liqni saqlash kabi sohalar aholini komil inson qilib tarbiyalash uchun xizmat qilsa, uy-joy xo‘jaligi va kommunal xizmatlar tizimining rivojlanishi aholining farovon hayot kechirishi va munosib turmush tarzining shakllanishi uchun sharoit yaratadi.

Dunyoda aholi statistikasi ma’lumotlari o‘rganilganda, bundan bir asr oldin, 1900-yilda yer yuzida 1608 million aholi yashaganligi qayd etilgan bo‘lsa, oradan bir asr o‘tib, 2000-yilda esa yer yuzida aholi soni 5 mlrd. 300 million kishiga yetkanligini ko‘rish mumkin. Albatta aholi sonining ko‘payib borishiga fan va texnika taraqqiyoti, tibbiyot sohasining rivojlanishi natijasida aholiga qirg‘in soluvchi epidemiyalarni davolash imkoniyati topilganligi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan bo‘lsa, aholining yashashi uchun shart-sharoitni yaxshilanishi, turmush darajasining yuksalib borishi va sog‘lom farzand tarbiyasi uchun qulay imkoniyatni yaratib berishda uy-joy-kommunal xo‘jaligi sohasi muhim o‘rin egallaydi.

Uy-joy qurilishi va kommunal xo‘jaligi tarixiga nazar solganimizda bu sohada mamlakatimizda uzoq tarixga va cheksiz manbaga ega bo‘lgan maktab mavjudligining guvohi bo‘lamiz. Hattoki, ajdodlarimiz tomonidan bunyod etilgan, O‘rta Osiyoda eng qadimgi hisoblanuvchi (X-asr, 980-yillarda) bunyod etilgan tarixiy obida — Samoniylar maqbarasiga nazar tashlar ekanmiz,

uning noyob san'at asari darajasida yaratilgan arxitektura yodgorligi ekanligi bilan birga unda yog'ingarchiliklardan himoyalovchi tarnov yo'li, oqovasuv tizimi va havo aylanishini ta'minlovchi kommunikatsiyalarning mavjudligini ko'ramiz. Bu esa o'sha davrda O'rta Osiyoda muxandislik tarmoqlari qurilishi sohasida ma'lum tajriba mavjud ekanligini ko'rsatadi.

O'zbek-yapon olimlari tomonidan, O'rta Osiyodagi eng qadimiy hisoblangan, Surxandaryo viloyatidagi Dalvarzintepa shahri hududida o'tkazilgan arxeologik qazishmalar natijasiga ko'ra ushbu shaharga suv ta'minoti maxsus sopol quvurlar orqali amalga oshirilganligi ma'lum bo'ldi.

Shahrisabzda ulug' bobomiz Amir Temir tomonidan bunyod etilgan Oqsaroy inshooti tomida ko'rkam bog' bunyod etilgan va bog' o'rtasidagi favora (fontan)dan zilol suv taralib turgan. Mazkur favvoraga suv tog' qoyasidan chiquvchi buloqdan sopol quvurlar orqali olib kelingan bo'lib, quvurlar bir-biriga qo'rg'oshinni eritib quyish orqali payvandlangan. Shuningdek, suv ta'minoti va oqova quvur tarmoqlarini Buxoro, Samarqand, Xiva kabi qadimiy shaharlarimizda saqlanib kelayotgan har bir tarixiy obidada uchratish mumkin. Ammo, mamlakatimizda ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan tarixiy obidalarda saqlanib qolgan muxandislik-kommunikatsiya tizimlarining ilmiy jihatlari hozirgi kunga qadar mukammal o'rganilmagan.

Samarqand viloyatining Nurota tumanida XV–XVI asrlarda bunyod etilgan, umumiy uzunligi 10 km.dan ortiq yer yuzasidan 10–35 metrgacha chuqurlikda o'tkazilgan suv ta'minoti inshooti hozirgi kunga qadar faoliyat ko'rsatmoqda.

Qadim zamonlardan (XI–XVII asrlar) O'rta Osiyo hududida suv manbalarining taqchilligi va tabiiy iqlim sharoitining quruq va issiqligi, suv resurslaridan oqilona foydalanish, tabiiy yog'ingarchilik davrlarida suv zahiralarini katta miqdorda to'plash va uzoq muddatga saqlab turishga mo'ljallangan muxandislik inshootlari yaratilishiga olib kelgan. Qadimiy Buyuk ipak yo'li xaritasi bo'ylab olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida ushbu tarixiy yo'lning aynan Markaziy Osiyo cho'llari bo'ylab o'tgan qismida

Sardoba deb nomlangan, savdo karvonlarini ichimlik suvi bilan ta'minlashga xizmat qiluvchi inshootlarining barpo etilganligi aniqlangan. Hozirgi kungacha saqlanib qolgan sardobalarni ilmiy tadqiq etish natijalari ularda aynan bahorgi yog'ingarchiliklar mavsumi tugagunga qadar, keyingi, kuzgi yomg'irlar mavsumigacha yetarli suv miqdorini yig'ilishi, quyosh nuri va ifloslanishdan himoyalash, yuqumli kasallik va zararli bakteriyalar tarqalishining oldini olish imkoniyatlarining mujassamligi bu inshootlar qurilishi o'ta mukammal ekanligidan va ilmiy asoslanganligidan dalolat beradi.

Markaziy Osiyo hududida tarixiy manbalarda qurib ishga tushirilgan muddatlari oldingi ming yillikgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oluvchi, o'nlab muxandislik inshootlari mavjud bo'lib, ularning barchasi uzoq o'tmishda O'rta Osiyo hududidagi qadimiy shaharlar va doimiy (o'troq) aholi yashash manzillarida uy-joy xo'jaligi va dehqonchilikda suv ta'minoti inshootlari barpo etilganligidan va uy-joy-kommunal xo'jaligi sohasining yaratilishida aynan O'rta Osiyoda asos solinganligidan dalolat beradi.

1.3. O'zbekiston Respublikasida Davlatning uy-joy siyosati

Respublikamizda davlatning uy-joy siyosati O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksida aks ettirilgan bo'lib, u 1998-yil 24 dekabrdagi 713-I-sonli O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan qabul qilingan va Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 24 dekabrdagi 714-I-son Qaroriga muvofiq 1999-yil 1-apreldan amalga kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi 11 ta bo'lim va 141 ta moddadan iborat.

O'zbekiston Respublikasida uy-joy siyosati uy-joy to'g'risidagi qonun hujjatlari asosida tartibga solinadi[1]. Uy-joy to'g'risidagi qonun hujjatlari Uy-joy kodeksidan hamda boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

---

[1] O'zR.Uy-joy kodeksi, 1-moddasi.

Ayrim uy-joy munosabatlari uy-joy to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida tartibga solinmagan bo‘lsa, ularni respublikamizda yerga oid qonun hujjatlari hamda arxitektura va shaharsozlik sohasidagi qonun hujjatlarining ana shu munosabatlarni tartibga solishga taalluqli qismi qo‘llanadi.

Uy-joy to‘g‘risidagi qonun hujjatlari fuqarolar, yuridik shaxslar, davlat boshqaruv organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining quyidagi masalalar bo‘yicha munosabatlarini tartibga soladi[1]:

— turar joylarga mulk huquqi, egalik qilish va foydalanish huquqining yuzaga kelishi, amalga oshirilishi, o‘zgarishi hamda bekor bo‘lishi;

— uy-joy fondini hisobga olish;

— uy-joy fondini saqlash, qarash va ta’mirlashni ta’minlash;

— fuqarolarning uy-joy huquqlariga rioya etilishi va uy-joy fondidan maqsadli foydalanish ustidan nazorat qilish.

Uylarni qurish, turar joylarni qayta qurish va o‘zgartirish, muhandislik qurilmalaridan foydalanish, kommunal xizmatlar bilan ta’minlash munosabatlari Uy-joy kodeks va boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Agar, qonunda yoki O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, uy-joy to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining qoidalari chet el fuqarolari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, chet el yuridik shaxslari ishtirokidagi uy-joy munosabatlariga nisbatan qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining uy-joy munosabatlarini tartibga solish sohasidagi vakolatlariga[2] quyidagilar kiradi:

— uy-joy fondidan foydalanish va uning asralishini ta’minlash sohasidagi davlat siyosatini yuritadi, uy-joy sohasini rivojlantirishning davlat kompleks dasturlarini qabul qiladi[3];

---

[1] O‘zR.Uy-joy kodeksi, 2-moddasi.

[2] O‘zR.Uy-joy kodeksi, 3-moddasi.

[3] O‘zR 12.05.2001 y. 220-II-son Qonuniga muvofiq.

— uy-joy xo'jaligi va kommunal xizmat ko'rsatish bo'yicha davlat boshqaruv organlari faoliyatiga rahbarlik qiladi;

— turar joylarni taqsimlash hamda ijara shartnomalari bo'yicha fuqarolarga berish, shuningdek ularni almashtirish hamda sotish tartibini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

— uy-joy va kommunal xizmatlar uchun haq to'lash tizimini tartibga soladi;

— kompensatsiya, kredit hamda ssudalar berish tartibi va shartlarini tartibga soladi;

— qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining uy-joy munosabatlarini tartibga solish sohasidagi vakolatlariga quyidagilar kiradi[1]:

— uy-joy to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijrosini ta'minlash;

— uy-joy fondini va kommunal ob'yektlarni boshqarishni tashkil etish;

— o'z tasarrufidagi hududda kommunal xizmatlarga oid tarif siyosatini belgilangan tartibda shakllantirish;

— uy-joy fondini hisobga olish;

— davlat uy-joy fondidagi turar joylarni taqsimlash va fuqarolarga ijara shartnomasi shartlari asosida berish;

— davlat uy-joy fondidagi turar joylarni ulardan belgilangan maqsadda foydalanish uchun yuridik shaxslarga ijara shartnomasi shartlari asosida berish;

— uy-joy fondidan foydalanilishi va uning asralishi, aholiga ko'rsatiladigan kommunal xizmatlar sifati ustidan nazoratni ta'minlash;

— aholining ijtimoiy jihatdan himoyalanmagan va kam ta'minlangan toifalar orasidan uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lgan fuqarolarni hisobga olish hamda ularni aniq maqsadli kommunal uy-joy fondidan uy-joy bilan ta'minlash;

---

[1] O'zR.Uy-joy kodeksi, 5-moddasi.

— fuqarolarning ijtimoiy jihatdan himoyalanmagan va kam ta'minlangan toifalari uchun uy-joy qurish;

— uy-joy quruvchilarga uy-joy qurish uchun, shuningdek xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlariga doimiy foydalanishga belgilangan tartibda yer uchastkalari berish;

— uy-joy fondiga xizmat ko'rsatuvchi kommunal xizmat ko'rsatish, ijtimoiy va transport infratuzilmasi obyektlarining lozim darajada saqlanishi hamda rivojlantirilishini ta'minlash;

— davlat uy-joy fondining turar joylarini bronlashtirish va almashtirish;

— qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari uy-joy munosabatlarini tartibga solish sohasida[1]:

— fuqarolarga uy-joy fondidan foydalanishda hamda uning saqlanishini ta'minlashda ko'maklashadi;

— qurish va uy yon atrofini saqlash qoidalariga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

— fuqarolarning maishiy-uy-joy sharoitlarini yaxshilash to'g'risida tegishli organlarga takliflar kiritadi va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

1.4. Shahar xo'jaligi infratuzilmasini rivojlantirishda kommunal xo'jaligining o'rni

Uy-joy kommunal xo'jaligi — bu murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim bo'lib, u aholi hayotiy ehtiyojlarini qondiradi. Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida iqtisodiyotning turli tarmoqlariga tegishli bo'lgan korxona va tashkilotlar tomonidan aholi turmushida gaz, suv, issiqlik energiyasi kabi zarur bo'lgan resurslar yetkazib berilishi bilan birga ularda katta miqdordagi mehnatga layoqatli aholini ish o'rinlari bilan ta'minlaydi.

---

[1] O'zR.Uy-joy kodeksi, 6-moddasi.

joy kommunal xo'jaligi tizimi aholi turar joylari, ma'muriy
va ...b chiqarish binolari, noishlabchiqarish va ijtimoiy sohada
fo ...layotgan binolar, inshootlar, hududlar va uzatuvchi
m ...larga xizmat ko'rsatuvchi, foydalanishni tashkil etuvchi,
qu ...'mirlash, transport, energiya ishlab chiqaruvchi va bosh-
qa ...tovar va xizmatlarni amalga oshiruvchi korxonalardan
ta ...toqqan, keng qamrovli faoliyatining pirovard natijasi inson
h... faoliyatini tashkil etuvchi, shahar infratuzilmasini rivoj-
fa ...uvchi va ekologik muhitni yaxshilashga xizmat qiluvchi soha
hi ...adi.

...joy kommunal xo'jaligi tizimining o'ziga xos xususiyati
un ... ko'p tarmoqliligi va turli-tuman xizmatlardan tashkil top-
ga ...adir. Ko'p soha va tarmoqlardan tashkil topgan uy-joy
ko ...unal xo'jaligi tizimi o'z navbatida, turli tashkiliy-huquqiy
va ...sodiy asosdagi ishlab chiqarish va noishlabchiqarish sohasi
ko ...a va tashkilotlariga xizmat ko'rsatadi, ular faoliyatini tashkil
et...da muhim ahamiyat kasb etadi.

Uy-joy kommunal xo'jaligi aholini farovon hayot kechirishi
uchun shart-sharoitlarni yaratish bilan bog'liq ekan albatta, aholi
yashayotgan shahar va qishloqlarda turli xildagi kommunal xiz-
matlarga ehtiyoj mavjud bo'ladi. Doimiy yashash joylarida aholi
sonining ko'payib borishi o'z navbatida kommunal xizmatlarga
ehtiyojning ortib borishiga olib keladi. Masalan, hozirgi kunda
chekka hududlarda joylashgan kichik qishloqda faqat elektr
energiyasi ta'minoti tashkil etilgan, qishloq joylari va aholi
yashash markazlarida (posyolkalar) elektr energiyasi, gaz va
ichimlik suvi ta'minoti tizimi faoliyat ko'rsatsa, shaharlarda esa
kommunal xizmatlarning turli-tuman shakllari mavjud. Kom-
munal xo'jalik tizimi va kommunal xizmatlarning tashkil etilish
darajasi aholiga farovon yashash uchun yaratilgan shart-sharoitni
ko'rsatadi. Aholi sonining ko'payib borishi ma'lum hudud che-
garalarining kengayib borishiga, kommunal xizmatlar tizimining
takomillashib borishiga va vaqt o'tishi bilan qishloq joylarining
aholi yashash markazlariga, aholi yashash markazlarining esa
shaharlarga aylanishiga olib keladi.

SAMARQAND IQTISODIYOT
VA SERVIS INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
460906

Shahar bu yirik aholi yashovchi ma'muriy hudud bo'lib, u ishlab chiqarish, savdo va madaniyat markazi hisoblanadi. Shahar kommunal xo'jalik tizimi nafaqat aholining farovon yashashi uchun shart-sharoit yaratuvchi, balki barcha turdagi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalari, ijtimoiy soha va ma'muriy boshqaruv tizimi korxona va tashkilotlariga turli kommunal xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar majmuasidan tashkil topadi. Yuridik mavq'ega ega bo'lgan har qanday korxona o'z faoliyatida kommunal xizmatlarning u yoki bu turlaridan foydalanadi.

Uy-joy kommunal xo'jaligi tizimi tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlar, ko'rsatadigan xizmat turlaridan kelib chiqib, asosan quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1) Uy-joy majmuasiga xizmat ko'rsatish va uy-joy fondini ta'mirlash-qurilish tashkilotlari;

2) Issiqlik energiyasi ta'minoti xo'jaligi;

3) Gaz ta'minoti xo'jaligi;

4) Elektr energetika ta'minoti va ko'chalarni yoritish xo'jaligi;

5) Suv ta'minoti va oqova-quvur xo'jaligi;

6) Muxandislik tizimlari va inshootlari (lift, havoni shamollatish - sovitish va boshqalar)ga xizmat ko'rsatish korxonalari.

Uy-joy kommunal xo'jaligi shahar xo'jaligining asosiy qismini tashkil etib, shahar xo'jaligi infratuzilmasida uy-joy kommunal xo'jaligi bilan bevosita bog'liq bo'lgan va kommunal xo'jaligi tizimining ajralmas qismi hisoblanuvchi sohalarga quyidagilar kiradi:

1. Yo'l xo'jaligi va shahar aholi tashish transporti;

2. Aloqa xizmati va muhandislik kommunikatsiyalari, xabar beruvchi va yong'in xavfsizligini ta'minlovchi xizmatlar;

3. Ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish;

4. Sanitariya-gigiyena va ekologik himoyani ta'minlash hamda nazorat qilish xizmatlari;

5. Istirohat bog'lari, xiyobonlar, cho'milish havzalari va basseynlari;

6. Haykallar va tarixiy obidalarni saqlash;

7. Mehmonxona xo'jaligi;



1.1- rasm. Asosiy kommunal xizmatlar turlari.

8. Hammomxona va kir yuvish xo'jaligi;

9. Ijtimoiy soha va maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari.

Aholiga bevosta shartnoma asosida ko'rsatilayotgan xizmat turlari tarkibidan kelib chiqib kommunal xo'jaligi tizimi tashkilotlari asosan 8 guruhga bo'linadi (1.1-rasm).

Shaharlar — bu iqtisodiy aloqalar, ko'p tarmoqli tarkibiy tuzulmalar va o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, ijtimoiy va boshqa obyektlar yig'indisidan iborat murakkab tizim hisoblanadi.

Bunday murakkab tizimning faoliyat ko'rsatishi uchun har xil turdagi tarqoq, idoraviy va iqtisodiy tuzilmasi turli-tuman bo'lgan korxona va tashkilotlarni yagona xo'jalik mexanizmiga uyiantirish zarur.

Shaharning hududiy yaxlitligi barcha turdagi korxonalar, tashkilotlar va xo'jalik subyektlarini, ularning idoraviy tasarrufidan qat'iy nazar, yagona ishlab chiqarish va ijtimoiy infra-

struktura sifatida birlashtiradi. Mehnat va tabiiy resurslar, hudud, yo'llar, kommunikatsiyalar, xizmat ko'rsatish obyektlaridan hamkorlikda foydalanish jarayonlari shahardagi umumiy yaxlitligini ta'minlaydi.

Ishlab chiqarish kuchlari, turar joy hududlari va transport tizimlarining joylashishi kommunal xo'jaligi korxonalarining tashkil etilishi va samarali faoliyat ko'rsatishga ta'sir qiladi. Shu sababli har bir shaharda o'ziga xos kommunal xo'jaligi tizimi shakllanadi. Mazkur tizim faoliyati samaradorligini oshirish joylarda boshqaruv mexanizmining tashkil etilganligiga bog'liq bog'ladi. Amaliyotda kommunal-xo'jaligi tizimi faoliyati mahalliy hokimiyat tomonidan koordinatsiya qilinadi. Har bir shahar, tuman hokimiyati huzurida uy-joy kommunal xo'jaligi sohasi faoliyatini tartibga soluvchi va muvofiqlashtiruvchi xizmatlar faoliyat ko'rsatadi. Masalan, Toshkent shahrida kommunal xo'jaligi tizimi faoliyati Toshkent shahar hokimiyati qoshidagi Kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi tomonidan tartibga solinadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mazkur xizmatlar faoliyati kommunal xo'jaligi tizimini ma'muriy boshqarishga emas, balki sohadagi korxona va tashkilotlar o'rtasida raqobat muhitini shakllantirishga, ular faoliyatini shartnoma munosabatlari asosida tashkil etishga yo'naltirilgan.

Tayanch iboralar

Ijtimoiy soha, davlatning uy-joy siyosati, Uy-joy kodeksi, uy-joy sohasi, uy-joy fondi, uy-joy munosabatlari, kommunal xo'jalik tizimi, kommunal xizmatlar, elektr energiya ta'minoti, gaz ta'minoti, suv ta'minoti, issiqlik ta'minoti, muhandislik xizmatlari, uy-joyni obodonlashtirish, uy-joy fondini ta'mirlash, shahar xo'jaligi, infratuzilma, xizmat ko'rsatish obyektlari.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Kommunal xo'jaligi iqtisodiyoti fanining predmeti va vazifalari nimalardan iborat?

2. Kommunal xo'jaligi sohasining O'rta Osiyoda kelib chiqish tarixi qanday?

3. Kommunal xo'jaligi sohasining jamiyatdagi roli nimadan iborat?

4. Uy-joy kommunal xo'jaligi tizimi tarkibi nimalardan tashkil topgan?

5. Uy-joy kommunal xo'jaligi tizimi qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega?

6. Shahar xo'jaligi infratuzilmasi tarkibiga nimalar kiradi?

7. Uy-joy kommunal xo'jaligi tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlar ko'rsatadigan xizmat turlaridan kelib chiqib qanday guruhlarga bo'linadi?

8. Kommunal xizmatlar asosan qanday turlarga bo'linadi?

9. Uy-joy kommunal xo'jaligi bilan bevosita bog'liq bo'lgan sohalarga nimalar kiradi?

10. Kommunal-xo'jaligi tizimi faoliyati koordinatsiyasini qanday amalga oshiriladi?

II BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGINI ISLOH QILISH

2.1. O‘zbekiston Respublikasida uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasini isloh qilishning o‘ziga xos xususiyatlari

Sobiq ittifoq parchalanishi natijasida barcha respublikalar kabi mamlakatimizga ham ma’muriy buyruqbozlik asosida boshqarishga asoslangan, asosiy xarajatlari budjet mablag‘lari hisobidan qoplanib kelgan, markazlashgan ta’minot tashkilotlari tomonidan xomashyo resurslari bilan ta’minlanib kelgan kommunal xo‘jaligi sohasi meros bo‘lib qoldi.

Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida bozor munosabatlarining joriy etilishi uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasini ham to‘liq isloh qilish zaruratini keltirib chiqardi. Bu tizimni isloh qilish va uning faoliyatini bozor munosabatlari asosida tashkil etish uchun asosan quyidagilar ta’sir ko‘rsatardi:

— uy-joy kommunal xo‘jaligi tizimida barcha resurslar markazlashgan tartibda taqsimlanardi, shu jumladan yangi qurilib ishga tushirilayotgan uy-joy fondlari ham aholining turar-joyga bo‘lgan ehtiyojidan kelib chiqib tashkil etilgan navbat asosida taqsimlanardi;

— uy-joy fondini ekspluatatsiya qilish va kommunal xizmatlar ko‘rsatish ishlari monopol davlat korxonalari tomonidan amalga oshirilardi. Ish va xizmatlar uchun yuqoridan begilangan narxlar nomutanosib bo‘lib korxona va tashkilotlar olgan foyda markazlashtirilar edi hamda ular tomonidan zarar ko‘rilgan taqdirda, bu zararni qoplash uchun davlat tomonidan dotatsiya ajratilardi;

— shaxsiy uy-joy mulkiga egalik qilish huquqi davlat uy-joy fondidan ajratilgan kvartiradan foydalanish huquqidan amalda kamdan kam farqqa ega edi;

— davlat korxona va tashkilotlariga o‘z xodimlarini uy-joy bilan ta’minlash va tegishli uy-joy fondini ekspluatatsiya qilish vazifalari yuklatilgan bo‘lib, shahar (hudud) kommunal xo‘jaligi sohasini alohida tizimi sifatida boshqarish imkonini bermasdi;

— asosiy xarajatlarning budjet tomonidan ajratilishi, tushum va xarajatlarning to‘liq rejalashtirilishi, iqtisodiy manfaatdor bo‘lish imkoniyati mavjud emasligi kommunal xo‘jaligi tizimi korxonalarining samarali faoliyat ko‘rsatishiga to‘sqinlik qilar edi;

— 1991- yilda aholidan 1 kv.m uy-joy fondidan foydalanganligi uchun belgilangan to‘lov (kvartplata) haqiqiy xarajatning 4-5 %ni tashkil etar edi, shuningdek 40% ortiq aholiga kommunal to‘lovlardan imtiyozlar joriy etilgan edi. Bunday holat aholida boqimandalik kayfiyatini yanada kuchaytirar edi;

— kommunal xo‘jaligi sohasi va xizmat ko‘rsatuvchi korxona va tashkilotlarning mahalliy hokimiyat (partiya tashkilotlari) tomonidan boshqarilishi ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatiga aholining tasir ko‘rsatishi uchun imkon bermas edi.

Ushbu ko‘rsatkichlarni inobatga olgan holda respublikamiz kommunal xo‘jaligi tizimida islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish va islohotlarning asosiy mohiyatini quyidagilarga qaratish lozim edi:

— fuqarolarda mulkka egalik hissini uyg‘otish - davlat mulki bo‘lgan uy-joy fondini xususiylashtirish, mulkka egalik huquqini beruvchi qonuniy me’yoriy hujjatlar paketini shakllantirish;

— kommunal xizmatlar ko‘rsatuvchi korxona va tashkilotlarni davlat tasarrufidan chiqarish, kommunal xo‘jaligi sohasida tabiiy monopoliyani tartibga solish, xizmat ko‘rsatuvchilar o‘rtasida sof raqobatni rivojlantirish, kommunal xo‘jalik sohasini davlat budjeti mablag‘lari hisobidan faoliyat ko‘rsatishini tugatish, sohaga ajratilayotgan dotatsiya miqdorini bosqichma bosqich kamaytirib borish;

— uy-joy xo‘jaligini boshqarishni takomillashtirish, turarjoy binolarini saqlash va ta’mirlashda uy-joy mulkdorlar faolligini

oshirish, mulkdorlarning o‘z-o‘zini boshqarish tamoyiliga asoslangan birlashma va shirkatlarini tashkil etish.

2.2. O‘zbekistonda uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasining isloh qilinishi

Eski tuzumdan ko‘p kvartirali uylar va ulardan foydalanish, saqlash hamda ta’mirlashning samarasiz tizimini meros qilib olgan mustaqil respublikamizda 90-yillarning o‘rtalariga kelib kommunal tarmog‘ni isloh qilishga kirishildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 1- martdagi 114-sonli Qarori bilan «O‘zbekiston Respublikasidagi davlat uy-joy fondini xususiylashtirish, uni saqlash va undan foydalanish to‘g‘risidagi Nizom» tasdiqlangan. 1993-yil 7- mayda «O‘zbekiston Respublikasida davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to‘g‘risida»gi Qonun qabul qilindi. Mazkur Qonunga muvofiq davlat uy-joy fondini xususiylashtirish 1994-yilning may oyiga qadar asosan yakunlandi. Shu davrda respublikadagi davlat ko‘p xonadonli uy-joy fondining deyarli 98 %i xususiylashtirildi.

1990-yillarning boshida boshlangan uy-joy kommunal xujaligi islohoti o‘tish davrining dastlabki kunlaridan davlatimiz ijtimoiy va iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. O‘tish davrida uy-joy sohalarini isloh qilish jarayoni me’yoriy-huquqiy jihatdan va xo‘jalik yuritishning yangi mexanizmlarini sinovdan o‘tkazish bo‘yicha etarli darajada izchil va samarali tashkil etildi. Dastlabki bosqichda, 1990-2001-yillar davomida iqtisodiyotning ushbu sohasidagi o‘zgarishlarning asosiy maqsadlari belgilandi, qonunchilik va me’yoriy-huquqiy asos shakllantirildi va bozor tamoyillariga o‘tishning zarur sharoitlari yaratildi. Sohada ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifatini kafolatlangan holda fuqarolarning kam daromadli toifalarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari ishlab chiqildi.

Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasidagi munosabatlarning davlat tomonidan tartibga solinishi va har tomonlama mukammal me'yoriy-huquqiy asosning shakllantirilishi quyidagilarni ta'minlaydi:

— fuqarolarga ularning ehtiyojlari va imkoniyatlariga ko'ra uy-joy qurish, uni xususiy mulk qilib sotib olish, ijaraga olish (xususiylashtirish, erkin tarzda uy-joyni sotib olish, aholining kam ta'minlangan qatlamlariga ijtimoiy ijara shartlari asosida kommunal uy-joy berish, qurilish uchun yer maydonlarini berish orqali va hokazo);

— fuqarolarning uy-joy fondida yashash xavfsizligi (uy-joy fondlari texnik holatlarining davlat standartlarini belgilash, sanitariya, ekologik yong'in xavfsizligi qoidalarini qabul qilish va hokazolar hamda ularni nazorat qilish orqali);

— kommunal xizmatlarga bo'lgan zarur ehtiyojlarning qondirilishi imkoniyati va ularni iste'mol qilish xavfsizligi (kommunal xizmatlarni iste'mol qilish me'yorlarini, ular sifat andozalari va foydalanish qoidalarini belgilash);

— kam daromadli oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash;

— uy-joy kommunal xizmatlar bozorining rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

— tabiiy monopoliyalar xizmatlari narxlarini tartibga solish.

Uy-joy xo'jaligini isloh qilishning dastlabki bosqichida islohotlarning **qonunchilik asosini** quyidagilar tashkil etadi:

1993-yil 7-maydagi «O'zbekiston Respublikasi davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risida»gi qonun;

O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrdagi «Davlat uy-joy siyosatining asoslari to'g'risida»gi qonun;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 25-apreldagi «Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida aholiga kommunal xizmat ko'rsatishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'grisida»gi 211-sonli Qarori;

O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 30-iyuldagi «Uy-joy-kommunal xizmatlarning o'z xarajatlarini o'zi qoplashiga

bosqichma-bosqich o'tish munosabati bilan normativ hujjatlarni tasdiqlash haqida»gi 271-sonli Qarori;

O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 1-martda qabul qilingan Fuqarolik kodeksi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 3- noyabrda 461-sonli «Aholiga kommunal xizmat ko'rsatish tizimida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish kontseptsiyasi to'rg'isida»gi Qarori bilan tasdiqlangan «Aholiga kommunal xizmat ko'rsatish tizimida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish Konsepsiyasi»;

O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 1-aprelda qabul qilingan «Uy-joy kodeksi»;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 19-dekabrdagi «Kommunal xizmatni boshqarish tizimini yanada isloh qilish to'g'risida»gi Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 18-yanvardagi «Ko'p kvartirali uylarni kapital ta'mirlash uchun mablag'lar to'plash (yig'ish) va ulardan foydalanish to'g'risidagi Vaqtinchalik Nizomni tasdiqlash haqida»gi 16-son Qarori)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 11-fevraldagi «Uy-joy-kommunal xizmatlarning o'z xarajatlarini o'zi qoplashiga bosqichma-bosqich o'tish munosabati bilan normativ hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida» 1996-yil 30-iyuldagi 271-son qaroriga qo'shimchalar kiritish haqida»gi 65-sonli Qarori;

Shuningdek, boshqa O'zbekiston Respublikasida uy-joy fondidan foydalanish va kommunal xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari.

Islohotlarning dastlabki bosqichida qabul qilingan qonun hujjatlariga asoslangan holda respublikada aholiga kommunal xizmat ko'rsatish tizimidagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish Kontseptsiyasi hamda bozor munosabatlarini joriy etishga qaratilgan tegishli mintaqaviy keng qamrovli dasturlar ishlab chiqildi va ularning asosida xususiylashtirish, monopo-

liyadan chiqarish hamda kommunal xizmat ko'rsatishni boshqarish tizimini isloh qilish chora-tadbirlari amalga oshirildi.

Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida islohotlarni amalga oshirish jarayonida dastlab amalga oshirilgan asosiy vazifalar quyidagilar bo'ldi:

— uy-joyga mulkdorlik huquqi fuqarolarning o'ziga topshirildi va bu bilan xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarini tuzish orqali ko'p kvartirali uylardagi umumiy mulkni saqlash uchun mas'uliyat ularning zimmasiga yuklandi. Ko'p kvartirali uylardagi turar joy xonalari egalarining yangi sinfini shakllantirishning huquqiy maqomi O'zbekiston Respublikasining «Davlat tasarrufidagi uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risida»gi Qonuni (1993-y.), Fuqarolik kodeksi (1996-y.) va Uy-joy kodeksiga (1999-y.) muvofiq belgilandi;

— Respublikamizda uy-joy kommunal xo'jaligi sohasidagi islohotlar uy-joy fondini davlat tasarrufidan chiqarishdan boshlandi. Ushbu jarayon tez va qisqa muddatda amalga oshirildi. 1993-yil 7-maydagi «O'zbekiston Respublikasi davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risida»gi qonun chiqarilib, uning ijrosi respublikada davlat uy-joy fondini xususiylashtirish jarayonining asosan tugallanishini ta'minladi. Davlat uy-joy fondining qariyb 99,0% fuqarolarga xususiy mulk qilib berildi. Umumiy maydoni 57 mln. m^2 bo'lgan 990,6 ming kvartira shu kvartirada yashovchi fuqarolarga sotildi. Fuqarolarda mulkka egalik hissini hosil qilish maqsadida kvartiralarning qiymati arzon baholarda belgilandi;

— Xonadonlar qiymatini turarjoy binolarining qurib ishga tushirilgan yilidan kelib chiqqan holda belgilashda tabaqalarga bo'lindi;

Shuningdek, umumiy maydoni 18,87 mln. m^2 bo'lgan 318,7 ming xonadon bepul xususiy mulk qilib berildi. Kvartiralar asosan nafaqada bo'lgan fuqarolarga, budjet hisobidan moliyalashtiriluvchi tarmoqlarda (ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, san'at sohalarida) faoliyat ko'rsatayotgan fuqarolarga bepul xususiy mulk qilib berildi.

Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasidagi islohotning ikkinchi muhim bosqichi xususiy uy-joy fondlaridan foydalanish va kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarining xususiy tizimini tashkil etish bo'ldi.

Bu bosqichda uy-joy mulkdorlari shirkatlarini tuzish tartibi, ularning huquqiy maqomi va davlat, uy-joy mulkdorlari shirkatlari, ular a'zolarining huquqi hamda burchlari va uy-joy mulkdorlari shirkatlarining faoliyati bilan bog'liq boshqa masalalar O'zbekiston Respublikasining «Uy-joy mulkdorlari shirkatlari to'g'risida»gi Qonunida (1999-y.) o'z aksini topdi.

Uy-joy mulkdorlari shirkatlarining tashkil qilinishi binolarni saqlash va ta'mirlashni boshqarishning yangi va samaraliroq uslubini vujudga keltirdi: endi binolarda yashovchilar ularga o'z mablag'lari hisobidan birgalikda xizmat ko'rsatadigan bo'lishdi.

Uy-joy mulkdorlari shirkatlari shakllantirilishining muhim jihati o'zini o'zi boshqarish demokratik tamoyillar asosida ish olib boradigan yangi turdagi ijtimoiy tashkilot yuzaga kelganligi bo'ldi. Negaki, uy-joy mulkdorlari shirkatlari istiqomat qiluvchilarga o'z rahbarlarini o'zlari saylash, o'zlarining mablag'laridan foydalanish haqida o'zlari qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, shirkatlar rahbarlari mulkdorlarga shirkat faoliyati to'g'risida va moliyaviy hisobot beradigan bo'ldi.

Mulkdorlarni uy-joy mulkdorlari shirkatlari tuzishga uyushtirish ancha murakkab va mashaqqatli jarayon bo'lib chiqdi, chunki ularda kommunal xizmat ko'rsatishning eski tizimidan foydalanish ko'nikmasi saqlanib qolgan edi.

O'zbekistan Respublikasi aholisiga kommunal xizmat ko'rsatish tizimini keng ko'lamli isloh qilish jarayoni 1999-yili «Uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risida»gi Qonun qabul qilingandan so'ng boshlandi. Fuqarolar, xonadondan tashqari, bino va inshootlarning umumiy mulkida (tomlar, zinalar, muhandislik kommunikatsiyalari, elektr-texnikaviy, mexanikaviy jihozlar va boshqalar) tegishli ulushga ham ega

bo‘ldilar. Ushbu yuridik holat uy-joy mulkdorlari shirkatlarini, ya’ni umumiy mulkni boshqarish uchun mulkchilikning turli shakllaridagi kvartiralar egalarining o‘zlari tashkil qiladigan tashkilotlarni tuzish uchun asos bo‘ldi.

Mulkdorlik huquqi fuqarolarga o‘tkazilgan bo‘lishiga qaramay, turar joy uylarini saqlash va ta’mirlash masalasi uzil-kesil hal etilmagan edi. Uy-joydan foydalanish bo‘yicha davlatga qarashli eski xizmatlar asosan davlat tomonidan mablag‘ bilan ta’minlanardi. Uy-joy kommunal xizmatlarning o‘z xarajatlarini o‘zi qoplashga bosqichma-bosqich o‘tilishi munosabati bilan uy-joy fondidan foydalanish xarajatlari 2000-yildan boshlab uy-joy egalari mablag‘i hisobidan to‘lanadigan bo‘ldi.

Uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasidagi islohotlarning ikkinchi bosqichida ko‘p kvartirali uy-joy fondi muammolari va fuqarolarga qarashli xususiylashtirilgan binolarning umumiy mulkini saqlash vakolatlarini o‘z egalariga o‘tkazish masalasi O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining diqqat markazida bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi aholisiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini isloh qilish boshlangan paytdan o‘tgan davr ichida aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tarmog‘ini isloh qilishni muvofiqlashtirishga oid Prezidentning farmonlari, Vazirlar Mahkamasining o‘nlab Qarorlari, 60 dan ortiq me’-yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi hukumati uy-joyni boshqarishning eng samarali tizimi bo‘lmish uy-joy mulkdorlari shirkatlarini tuzish g‘oyasini ilgari siljitishda sobitqadamlik bilan ish olib bordi.

Kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini bozor munosabatlariga o‘tkazishning birinchi (1991-2001-yillar) bosqichida katta ishlar amalga oshirildi. Jumladan, zarur qonunchilik va normativ-huquqiy baza yaratildi — Uy-joy kodeksi, «Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to‘g‘risida», «Uy-joy mulkdorlari shirkatlari to‘g‘risida»gi qonunlar va boshqalar qabul qilindi.

Aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida iqtisodiy is-lohotlarni chuqurlashtirish Kontseptsiyasi hamda bozor me-

xanizmlarini joriy etishga qaratilgan tegishli mintaqaviy kompleks dasturlar ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda.

Kommunal xizmat ko'rsatish sohasida boshqarish tizimini isloh qilish, monopoliyadan chiqarish va xususiylashtirish chora-tadbirlari amalga oshirildi. Kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi tugatildi va uning negizida «O'zkommunxizmat» agentligi tashkil etildi. Hududiy kommunal-foydalanish birlashmalari bevosita Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari ixtiyoriga berildi. Uy-joy fondidan foydalanishni boshqarishning turli shakllari tashkil etilib, sinovdan o'tkazildi. Uy -joy mulkdorlari shirkatlari va o'zini o'zi boshqarish jamoatchilik organlari uy-joy egalari kengashlari shakllantirildi.

Iste'molchilar bilan shartnomaviy munosabatlar joriy etildi. Suv, gaz va issiqlik energiyasini hisobga oluvchi asboblarni ishlab chiqarish tashkil qilindi, ularni ko'p xonali uy-joy binolariga o'rnatish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Ammo, 2000-yillar arafasida bozor iqtisodiyoti munosabatlarining yangi bosqichga ko'tarilishi natijasida, iqtisodiyotning barcha sohalari kabi, aholiga kommunal xizmat ko'rsatish tizimida ham sohasini isloh qilish jarayonlari va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha keskin o'zgarishlarni amalga oshirishni, iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichini boshlash zaruratini keltirib chiqardi.

2.3. Kommunal xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning yangi bosqichi

2000-yillar arafasida aholiga kommunal xizmat ko'rsatish sohasini isloh qilish jarayonlari va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha yuzaga kelgan bir qator muammolar sohada keskin o'zgarishlarni amalga oshirishni, iqtisodiy islohotlarni yangi bosqichini boshlash zaruratini keltirib chiqardi.

Jumladan, shu davrga kelib, tizimda erkin bozor munosabatlarini joriy etish jarayonida quyidagi kamchiliklar yaqqol ko'zga tashlanib qoldi:

— sohada xizmat ko‘rsatishni bozor tamoyillari asosida tashkil etish, erkin bahoni shakllantirish muammolarini hal etish borasidagi ishlar sust olib borildi. Sarf-xarajatlarni kamaytirish bo‘yicha amalda hech qanday ishlar amalga oshirilmadi. Kommunal xizmatlarga tariflarning oshirilishi ko‘rsatilayotgan xizmatlar turini tegishli ravishda kengaytirish va eng muhimi, ularning sifatini oshirish bilan birga qo‘shib olib borilmayotganligi ko‘zga tashlanib qoldi;

— mehnat munosabatlarini takomillashtirish, kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida band bo‘lgan xodimlarning mehnatini rag‘batlantirish mexanizmlari ishlab chiqilmadi. Soha xodimlarining mehnat unumdorligini oshirish uchun stimul yaratilmadi. Odamlarning ehtiyojlariga to‘ralarcha qo‘pol munosabatda bo‘lish hollariga barham berilmadi;

— Iste’molchilarga etkazib berilgan tovar va xizmatlar uchun to‘lov intizomi pastligicha qoldi, resurslar sarfining hisobga olinishi zarur darajada ta’minlanmadi, tarmoqdagi bir qator korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy ahvoli murakkabligicha qoldi, bu esa ta’mirlash-tiklash ishlarini o‘z vaqtida o‘tkazish, yangi texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini cheklab qo‘ydi. Joylarda kommunal xizmat ko‘rsatishni o‘zini o‘zi qoplashga o‘tkazish va budjetdan dotatsiyalarni qisqartirish bo‘yicha belgilangan topshiriqlar bajarilmadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 17-apreldagi «Kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning yangi bosqichi to‘g‘risida»gi PF-2832 sonli Farmoni uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasidagi islohotlarni amalga oshirishning yangi bosqichini boshlab berdi. Farmonga muvofiq sohada sifat o‘zgarishlarini amalga oshirish, kommunal xizmatlar sohasida bahoni shakllantirish, uy-joy fondidan foydalanishni tashkil etishda uy-joy mulkdorlari va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotlari faoliyatini faollashtirish choralarini ko‘rish vazifalari qo‘yildi.

Kommunal xo‘jaligini isloh qilishning yangi bosqichida islohotlarni amalga oshirishning qonunchilik asoslarini asosan quyidagilar tashkil etdi:

— O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning yangi bosqichi to‘g‘risida»gi 2001-yil 17- apreldagi PF-2832-son Farmoni;

— O‘zbekiston Respublikasining «Aholiga kommunal xizmat ko‘rsatishni takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2001-yil 18-apreldagi 178-son Qarori;

— O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 10-fevraldagi «Uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyatini takomillashtirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PP-3 sonli Qarori;

— O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-fevraldagi «Kommunal xizmatlar tariflarining asossiz ravishda o‘sib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik hamda ular uchun o‘z vaqtida va to‘liq hisob-qitob qilinishi uchun iste’molchilarning mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-5-sonli Qarori;

— O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 26-fevraldagi PF-3038-sonli «Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining faoliyatini rivojlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni;

— O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 11-fevraldagi «Kommunal xizmat ko‘rsatish sohasiga zamonaviy hisobga olish jihozlarini va resurslarni tejovchi texnologiyalarni joriy etish dasturi to‘g‘risida»gi 61-sonli Qarori;

— O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 5-noyabrdagi «Kommunal xo‘jaligida energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy etish kompleks dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 241-sonli Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 23- sentyabrdagi «Aholini ijtimoiy muhofaza qilish va kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-3662-sonli Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasining 2006-yil 22-fevraldagi «Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati to‘g‘risida»gi Qonuni;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 17-yanvardagi «Respublika budjetidan va mahalliy budjetlardan moliyalashtiriladigan korxonalar va tashkilotlarning ma’naviy eskirgan va tejamsiz bug‘ qozoni agregatlarini 2007-2008-yillarda respublika mintaqalari bo‘yicha almashtirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 7-sonli Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 17-avgustdagi «O‘zbekiston «O‘zkommunxizmat» agentligi faoliyatini takomillashtirish va kommunal xo‘jalik korxonalarini moliyaviy sog‘lomlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-445 sonli Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘ztransgaz» aktsionerlik kompaniyasi faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2006-yil 8- avgustdagi PQ-438-sonli Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 3-yanvardagi «O‘zbekiston Respublikasi uy-joy fondini sovuq va issiq suv hisoblagich asbob-uskunalari bilan jihozlash» investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-553 sonli Qarori va boshqalar.

Islohotlarning yangi bosqichida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 18-apreldagi «Aholiga kommunal xizmat ko‘rsatishni takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘grisida»gi 178-sonli Qaroriga muvofiq:

— uy-joy mulkdorlari shirkatlari tashkil etilishiga ko‘ra uy-joylardan foydalanish boshqarmalari va tashkilotlari tugatildi yoki ularni uy-joy mulkdorlari shirkatlari bilan shartnomalar bo‘yicha uy-joylarga xizmat ko‘rsatuvchi xususiy va boshqa nodavlat pudrat tashkilotlariga aylantirildi;

— uy-joy mulkdorlari shirkatlari tashkil etilishini ta’minlash uchun 1991-yilgacha qurilgan ko‘p kvartirali uy-joylarni dastavval mukammal ta’mirlash chora-tadbirlarini ko‘rish, ta’mirlashni mahalliy budjet va budjetdan tashqari man’balar hisobiga mablag‘ bilan ta’minlash belgilandi;

— uy-joy mulkdorlari shirkatlarini omborxonalar va xo'jalik ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan turar joyga mo'ljallanmagan binolar, shuningdek moddiy-texnika resurslari va jihozlar bilan ta'minlash choralari ko'rildi;

— uy-joy mulkdorlari shirkatlarnining yer uchastkasi chegaralarini belgilab berilmoqda va ularga belgilangan tartibda uchastkadan foydalanish huquqi yuzasidan davlat dalolatnomasi berilmoqda. Yangi tashkil etilgan uy-joy mulkdorlari shirkatlariga yer uchastkalaridan foydalanish huquqi yuzasidan davlat dalolatnomasi ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin ikki oy mobaynida berilishi belgilab qo'yildi;

— joylardagi «Kommunal-foydalanish boshqarmalari» tugatildi va ular negizida uy-joy mulkdorlari shirkatlariga, korxonalar va tashkilotlarga shartnoma asosida xizmat ko'rsatuvchi xo'jalik hisobidagi avariya-tiklash xizmatlari tashkil etildi.

— yangidan tashkil etilayotgan uy-joy mulkdorlari shirkatlari ro'yxatdan o'tkazilayotganda va hisobga qo'yilayotganda belgilangan yig'imlar va to'lovlardan ozod etildi;

Uy-joy mulkdorlari shirkatlari balansida bo'lgan turar joyga mo'ljallanmagan binolarni va boshqa mol-mulkni ijaraga berishdan, shuningdek uy-joy mulkdorlari shirkatlariga tegishli bo'lgan hududdagi yakka tartibdagi garajlar va boshqa imoratlar egalaridan foydalanish xarajatlari uchun tushadigan mablag'lar, ulardan keyinchalik aylanma mablag'larni to'ldirishda, uy-joyni mukammal tuzatish uchun moddiy-texnika resurslari zahirasini yaratishda foydalanish uchun shirkatlarning depozit hisob raqamlariga o'tkazishga ruxsat etildi.

Tijorat banklariga uy-joy mulkdorlari shirkatlariga joriy va mukammal ta'mirlashni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnika resurslari, asbob-anjomlar va jihozlar sotib olish uchun mahalliy hokimliklari kafilligi ostida imtiyozli kreditlar berish tavsiya etildi.

Mamlakatning barcha hududi uchun kommunal xizmatlar tarifi siyosatining yagona printsiplarini joriy etish maqsadida

«O‘zkommunxizmat» agentligi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi bilan birgalikda kommunal xizmatlarga tariflarni shakllantirishda xarajatlar tarkibini aniqlash metodikasini qayta ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi. Shuningdek, gaz, suv, issiqlik ta’minoti, markaziy isitish va kanalizatsiya xizmatlari ko‘rsatishda texnologik nobudgarchiliklarning cheklangan normativlarini ishlab chiqish belgilandi.

Islohotlar davomida aholiga ko‘rsatilayotgan markaziy isitish va issiq suv ta’minoti xizmatlarini moliyaviy o‘zini o‘zi qoplashga bosqichma-bosqich o‘tkazish choralari ko‘rildi. Joylarda kommunal xizmat ko‘rsatishni o‘zini o‘zi qoplashga o‘tkazish hisobiga budjetdan dotatsiyalarni qisqartirib borish va 2006-yilga kelib 100% o‘zini o‘zi moliyaviy ta’minlashga o‘tkazilishi belgilandi.

Uy-joy mulkdorlari shirkatlari, uy-joy egalari kengashlarini shakllantirish chora-tadbirlari kompleksi ishlab chiqildi, shuningdek ularga kreditlar hamda sponsorlik (homiylik) mablag‘lari berish hisobiga aylanma mablag‘larni to‘ldirish manbalarini izlab topish, zarur omborxonalarni berish bilan bog‘liq hamda boshqa har tomonlama yordam ko‘rsatish chora-tadbirlarni ishlab chiqildi.

Kommunal xizmatlar ko‘rsatuvchi korxona va tashkilotlar kommunal xizmatlarga aholidan mablag‘larni yig‘ishda ko‘maklashish uchun fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organi (mahalla qo‘mitasi) bilan yoki uy-joy mulkdorlari shirkatlari bilan shartnomalar tuzishlari uchun imkoniyatlar yaratildi.

Kommunal xizmatlar haqini aholi tomonidan o‘z vaqtida va to‘la hajmda to‘lanishini ta’minlash uchun fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarini (mahalla qo‘mitalarini) rag‘batlantirish imkoniyati yaratildi, kommunal xizmatlar uchun joriy to‘lovlar bo‘yicha tushumlar rejasi 100 foiz bajarilgan taqdirda xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar tomonidan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga (mahalla

qo‘mitalariga) tushgan to‘lovlar summasining 10 foizi miqdorida ajratmalar berilishi belgilandi.

Uy-joy xo‘jaligi va kommunal xizmatlarga sarf-xarajatlarni kamaytirish maqsadida kommunal (gaz ta’minoti, issiq suv ta’minoti, markaziy isitish, suv ta’minoti, kanalizatsiya, sanitariyaviy tozalash kabi) xizmatlarni ko‘rsatuvchi hamda foydalanish xizmatini amalga oshiruvchi korxonalar uchun rentabellikning cheklangan darajasi 10 foiz miqdorida belgilab qo‘yildi.

Uy-joylardan foydalanish hamda kommunal xizmatlarning narxlari va tariflarini tasdiqlash yoki keyinchalik qayta ko‘rib chiqish vaqtida oshirilgan narxlar va tariflarning 10 foizi kommunal xizmat ko‘rsatuvchi va uy-joylardan foydalanish xizmatini amalga oshiruvchi korxonalarning o‘z daromadlari hisobidan qoplanishi belgilab qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 11-fevraldagi «Kommunal xizmat ko‘rsatish sohasiga zamonaviy hisobga olish priborlarini va resurslarni tejovchi texnologiyalarni joriy etish dasturi to‘g‘risida»gi 61-sonli Qaroriga asosan aholiga ko‘rsatiladigan kommunal xizmatlarni hisobga olishning zamonaviy tizimini joriy etish dasturi tasdiqlandi va aholi turar joylarida gaz, sovuq suv, issiq suv va issiqlik energiyalarini hisobga olish priborlari o‘rnatishni to‘liq tugallash belgilandi.

Mazkur qarorda hisobga olish priborlarini o‘rnatish yo‘li bilan aholiga ko‘rsatiladigan kommunal xizmatlarni to‘liq hisobga olishni joriy etish dasturini belgilangan muddatlarda amalga oshirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb etish, hisobga olish priborlarini O‘zbekiston Respublikasining ularni o‘rnatish va almashtirishga bo‘lgan joriy ehtiyojini to‘liq ta’minlaydigan miqdorda keng ko‘lamda ishlab chiqarish bo‘yicha qo‘shma korxonalar tashkil etish belgilandi.

Shuningdek, Respublikamizda energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy etish kompleks dasturi ishlab chiqilib, unda:

— bug‘ agregatlarini ishlab chiqarish hamda ma’naviy eskirgan va iqtisodiy jihatdan tejamsiz bug‘ agregatlarini almashtirish ishlarini 2008-yil 1-yanvargacha tugallash;

— eskirgan issiqlik va suv quvurlari tarmoqlarini almashtirish ishlarini 2010-yil 1-yanvargacha bo'lgan muddatda tugallash;

— mahalliy sharoitlardan kelib chiqqan holda 2005-2008-yillar mobaynida hamma joyda issiqlik bilan ta'minlashning yopiq sxemasiga yoki markazlashtirilmagan holda (mahalliy sxema bo'yicha) issiqlik bilan ta'minlashga o'tish rejalashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 8-avgustdagi 166-sonli Qaroriga muvofiq «Uy-joy fondini (ko'p qavatli uylar va shaxsiy xonadonlarni) sovuq va issiq suv hisoblagich asbob-uskunalari bilan ta'minlash dasturi» qabul qilingan. Mazkur Dastur ijrosini ta'minlash maqsadida Xitoy Xalq Respublikasidan SHHT mamlakatlariga beriladigan imtiyozli kredit mablag'laridan 17293502,35 AQSH dollariga teng imtiyozli kredit liniyasini ajratdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi uy-joy fondini sovuq va issiq suv hisoblagich asbob-uskunalari bilan jihozlash» investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-553 sonli Qarori mazkur loyihani amalga oshirilishini jadallashtirishga va qisqa muddatlarda yakunlashga qaratilgan.

Respublikamizda kommunal xo'jaligi tizimini rivojlantirish va aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash masalasida ichki imkoniyatlardan foydalanish bilan bir qatorda xorijiy investitsiyalar va xalqaro moliyaviy institutlar kreditlaridan keng foydalanilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi hukumati kafolati ostida kommunal sohada rejalashtirilgan loyihalar amalga oshirishga 330 mln. AQSH dollaridan ortiq xorijiy investitsiyalar va kreditlar kiritilib 8 ta yirik loyihalar (2.1-jadval) amalga oshirilmoqda. Shuningdek, yaqin yillarda respublikamiz kommunal xo'jaligi sohasida xalqaro moliyaviy institutlarning investitsiyalari va imtiyozli kreditlarini jalb etish hisobiga qiymati 993,8 mln. AQSH dollari qiymatiga teng bo'lgan 7 ta ustivor investitsion loyihalarni (2.2-jadval) amalga oshirilish rejalashtirilmoqda.

2.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi hukumati kafolati ostida olingan xorijiy invetitsiyalar va kreditlar hisobiga amalga oshirilayotgan kommunal sohadagi investitsion loyihalar

№	Loyiha nomi	Amalga oshirilish muddati	Investitsiya/ Kreditlar-ning taxminiy summasi	Moliyalashtirish manbalari (xorijiy hamkorlar)
I. SUV TA'MINOTI SEKTORI				
1	Buxoro va Samarqand shaharlarining suv ta'minoti tizimini rekonstruktsiya qilish	2004-2010 yillar	54.5	Xalqaro rekonstruktsiya va taraqqiyot banki (MBRR)
2	Guliston, Jizzax va Qarshi shaharlarining suv ta'minotini mukammallashtirish	2003-2010 yillar	36.0	Osiyo taraqqiyot banki (ABR)
3	Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarining qishloq aholi punktlarining suv ta'minoti va sanitariya holatini yaxshilash	2007-2011 yillar	25.0	Osiyo taraqqiyot banki (ABR)
4	Farg‘ona, Marg‘ilon shaharlari va suv tarmog‘iga yaqin joylashgan aholi punktlarining suv ta'mingotini tubdan yaxshilash	2008-2011 yillar	44.9	XXR Eksimbanki
5	Surxandaryo viloyati suv ta'minoti va sanitariya holatini yaxshilash	2009-2010 yillar	30.0	Osiyo taraqqiyot banki (ABR)
6	Damxo‘ja hududlararo suv tarmog‘iga Navoiy va Buxoro viloyatlari qishloq aholi punktlari va tuman markazlarini ulash va modernizatsiya qilish va Termiz shahar kanalizatsiya, tozalash inshootlarini rekonstruktsiya qilish	2010-2015 yillar	60.7	Osiyo taraqqiyot banki (ABR)

II KANALIZATSIYA SEKTORI				
7	Buxoro va Samarqand shaharlarining tozalash qurilmalari va kanalizatsion tizimlarini rekonstruktsiya qilish	2010-2014 yillar	55.0	Xalqaro Taraqqiyot Assotsiatsiyasi (MAR)
8	Namangan shahar kanalizatsion qurilmalarini rekonstruktsiya qilish	2010-2013 yillar	25.0	XXR Eksimbanki

2.2-jadval

Kommunal xo'jaligi sohasida xalqaro moliyaviy institutlarning investitsiyalari va kreditlari hisobiga amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan ustivor investitsion loyihalar (mln. AQSH dollarida)

№	Loyiha nomi	Amalga oshirilish muddati	Investitsiya/ Kreditlar ning taxminiy summasi	Moliyalash tirish manbalari (xorijiy hamkorlar)
I. SUV TA'MINOTI SEKTORI				
1	Sirdaryo viloyati tuman markazlari va aholi punktlarining suv ta'minotini yaxshilash	2009-2014 yillar	88.0	Xalqaro rekonstruktsiya va taraqqiyot banki (MBRR)
2	Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tuman aholisini Oqsu-Dehqonobod suv tarmog'idan suv bilan ta'minlash	2009-2013 yillar	39.4	Shanxay hamkorlik ittifoqi doirasida XXR imtiyozli krediti
3	"Tuyabuguz-Bekabod" hududlararo suv tarmog'ining qurilishi	2009-2011 yillar	35.0	XXR Eksimbanki
4	Toshkent viloyati, Chinoz, Zangiota, Toshkent va Yangiyo'l tumanlari qishloq aholisini suv ta'minoti uchun suv yetkazib berish qurilmalarini rekonstruktsiya qilish	2009-2011 yillar	26.9	XXR Eksimbanki

5	Namangan shahar markazini ichimlik suv bilan ta'minlashni yaxshilash	2010-2012 yillar	13.5	Shanxay hamkorlik ittifoqi doirasida XXR imtiyozli krediti
6	Namangan shahar o'rta zonasini ichimlik suvi bilan uzluksiz ta'minlash	2010-2012 yillar	16.0	Xalqaro moliyaviy institutlar ishtirokida moliyalashtirish o'rganilmoqda (XMI)
II KANALIZATSIYA SEKTORI				
7	Chimyon, Chorbog' damolish zonasining rivojlanishini hisobga olgan holda Chirchiq shahrining kangalizatsiya inshootlarini rekonstruktsiya qilish va kengaytirish	2011-2015 yillar	75.0	Xalqaro moliyaviy institutlar ishtirokida moliyalashtirish o'rganilmoqda (XMI)

2.4. Kommunal xo'jaligi sohasida islohotlarni yanada chuqurlashtirish mamlakatda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy ustivor yo'nalishi

Aholi turmush darajasini oshirish va farovonligini yuksaltirishda ijtimoiy infratuzilma, jumladan kommunal xizmatlarining roli beqiyosdir. Shunga ko'ra, mamlakatimizda ushbu sohani rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Keyingi yillarda uy-joy kommunal xo'jaligi borasida respublikamizda ahamiyatli yutuq va muvaffaqiyatlarga erishilmoqda.

Aholini uy-joy bilan ta'minlash borasida 2007-yilda 6964,5 ming kv.m hajmdagi uy-joy foydalanishga topshirilgan bo'lsa, 2008-yilda bu ko'rsatkich 7239,8 ming kv.m ga etdi (2.1-rasm). 2010-yila esa faqat qishloq joylarida maxsus loyihalar asosida 6000 ortiq uy-joylar qurilishi rejalashtirilgan.



2.1-rasm. Foydalanishga topshirilgan uy-joy umumiy maydoni, mln. kv.m.

Aholi turmush farovonligini oshirishning muhim ko‘rsatkichlaridan biri sifatida uy-joylarni qurish va foydalanishga topshirish ishlarining jadallashuvi natijasida yillar davomida umumiy uy-joy fondi hajmi va shinamligi oshib bormoqda. 2002-yilda uy-joy fondi 360,9 mln. kv.m dan iborat bo‘lsa, 2009-yilga kelib bu ko‘rsatkich 390 mln. kv.m ga, o‘rtacha har bir yashovchiga hisoblaganda esa 14,3 kv.m dan 14,7 kv.m. ga qadar oshdi.

Ayni paytda, shuni ham e’tiborda tutish lozimki, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yuksalishi bilan uy-joy fondi bilan ta’minlanganlikning o‘zi aholi farovonligi darajasi to‘g‘risida yetarli tasavvur bera olmaydi. Bu o‘rinda uy-joy fondini obodonlashtirish darajasi, ya’ni, uy-joy fondining umumiy hajmida suv ta’minoti, kanalizatsiya, markaziy isitish vositalari, vanna, tabiiy gaz, issiq suv ta’minoti kabilar bilan jihozlangan uy-joy maydoni ulushi ahamiyatli rol o‘ynaydi.

Shu maqsadda turar-joy fondini, uning idoraviy mansubligidan qat’i nazar, foydalanilmayotgan avariya holatidagi va eskirgan uy-joylarni, ko‘pqavatli uylardagi bo‘sh turgan xonalarni, jumladan, yotoqxona va qurilishi tugallanmagan ob’ektlarni aniqlash uchun to‘liq inventarizatsiyadan o‘tkazish kerak. Aniqlangan holatlar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilish, bunda mazkur binolarni mahalliy hokimiyat idoralari tasarrufiga berishni ko‘zda tutish,

rekonstruktsiya qilish va kapital ta'mirlash bo'yicha konkret dasturlar ishlab chiqish kerak. Ushbu dasturlarning amalga oshirilishi pudrat ishlarini bajarish uchun qo'shimcha ravishda o'n minglab ishchilarni jalb qilish, odamlarimizning uy-joy sharoitlarini sezilarli darajada yaxshilash imkonini beradi.

Hozirgi kunga qadar, sohada uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida ko'pgina o'z yechimini kutayotgan muammolar saqlanib qolib, ularning echimini topishda asosiy e'tibor sohada boshqaruv tizimini takomillashtirish, uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyati mexanizmini mustahkamlash, ta'mirlash va kommunal xizmatlarning haqiqiy bozorini shakllantirish, bu sohadagi monopoliyalarni tugatish va eng asosiysi aholining turmush darajasini yaxshilash va farovonligini oshirishga qaratilmog'i lozim.

Mazkur uy-joy kommunal xo'jaligi sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uy-joy xo'jaligini boshqarishda uy-joy mulkdorlari bo'lgan fuqarolarning ishtirokini kuchaytirish bo'yicha dolzarb masalalar va hal etilishi lozim bo'lgan vazifalar 2005-2010-yillar mobaynida mamlakatimizda ustuvor vazifalar qatorida alohida e'tiborda bo'ldi.

Prezidentimiz I.Karimov 2006-yil 10-fevralda Vazirlar Mahkamasida «2005-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2006-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlari"ga bag'ishlangan majlisida 2006-yilda alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan oltinchi ustuvor masala bu — uy-joy kommunal xo'jaligidagi islohotlarni chuqurlashtirish ekanini ko'rsatib bu boradagi asosiy vazifalarni belgilab berdi.

Kommunal xo'jaligidagi islohotlarni chuqurlashtirishda avvalo, uy-joy-kommunal xo'jaligi sohasidagi boshqaruvni tubdan yaxshilash, uy-joy mulkdorlari shirkatlari maqomini, ularning tashkiliy va moliyaviy mustaqilligini, faoliyatining samaradorligini oshirish masalalarini o'z ichiga oldi.

Bundan ko'zlangan asosiy maqsad avvalambor shirkatlarni yetarli darajada vakolatga, zarur imtiyoz va preferentsiyalarga ega bo'lgan uy-joy mulkdorlarining haqiqiy o'zini o'zi boshqarish institutlariga aylantirishdan iborat.

Prezidentimiz I. Karimov tomonidan 2006-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisida belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida respublikamizda Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hamda «O'zkommunxizmat» agentligi, Hukumat manfaatdor tuzilmalar bilan birgalikda 2006-yil va undan keyingi davrlarda uy-joy mulkdorlari shirkatlarini mustahkamlash, ularga real mablag'lar ajratish, bu sohadagi monopoliyalarni tugatish, ta'mirlash va kommunal xizmatlarning haqiqiy bozorini shakllantirish bo'yicha dastur ishlab chiqildi va ular amalga oshirildi. Mazkur dastur bajarilishi bo'yicha hisobot Vazirlar Mahkamasining tegishli yig'ilishlarida muhokama qilinib bu soha 2007-yilda ham mamlakatda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari tarkibiga kiritildi.

Jumladan, 2007-yilda ham Prezidentimiz I.Karimov Vazirlar Mahkamasining 2006-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2007-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisidagi ma'ruzasida «bizning doimiy e'tiborimizni jalb qiladigan yettinchi ustuvor yo'nalish — bu kommunal xo'jalik sohasida islohotlarni yanada chuqurlashtirish bilan bog'liq»[1] ekanligiga alohida e'tibor qaratdilar.

Prezidentimiz ma'ruzasida quyidagi muammolar va ular yechimini topish bo'yicha vazifalar belgilandi:

— uy-joy kommunal xo'jaligida ro'y berayotgan jarayonlarni yana va yana bir bor tanqidiy baholab, barchamiz uchun muhim hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan ushbu sohada hamon saqlanib qolayotgan jiddiy muammolarning ildiziga etish va ularni bartaraf qilish.

Bu borada qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksi, «Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari to'g'risida»gi Qonun va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga to'liq amal

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 2007-yil 13-fevralda Vazirlar Mahkamasida o'tkazilgan yig'ilishda so'zlagan ma'ruzasidan.

qilinishiga erishish lozim. Shirkatlar bilan ularga kommunal va ta'mirlash-qurilish xizmatlari ko'rsatadigan korxonalar o'rtasidagi shartnomaviy-huquqiy munosabatlarni tubdan qayta ko'rib chiqish va yanada mustahkamlash, aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati uchun har ikki tomonning mas'uliyatini oshirish lozim.

Bitta shirkat tomonidan xizmat ko'rsatiladigan uylar sonini eng maqbul holga keltirish bo'yicha boshlangan ishlarni nihoyasiga yetkazish lozim. Toki ular turarjoylarni ekspluatatsiya qilish va saqlash muammolarini hal etish bilan aniq va bevosita shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'lsin.

Shuningdek, issiqlik bilan ta'minlash va uni boshqarishning butun tizimini keskin o'zgartirish darkor. Ma'lumki, bu masalada mavjud qozonxonalar va issiqlik ta'minoti tarmoqlarining texnik holati eng zaif bo'g'in hisoblanadi.

Muqobil yoqilg'i manbalaridan foydalangan holda, lokal issiqlik va issiq suv ta'minoti tizimlariga bosqichma-bosqich o'tishni ta'minlash hamda eskirgan, yoqilg'ini ko'p sarf qiladigan qozonxonalarni tabiiy gazni tejab sarflaydigan uskunalarga almashtirish masalalarini yechish uchun chuqur o'ylab ish olib borish kerak.

Issiqlik va suv ta'minoti korxonalari xodimlarining mas'uliyatini oshirish, ularning mehnatini rag'batlantirish bo'yicha puxta va aniq o'ylangan mexanizmni joriy etish masalasi bugungi kunda printsipial muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu soha uchun javob beradigan tuzulmalar faoliyatini baholashda, ularning mehnatiga haq to'lash darajasini belgilashda iste'molchilar, birinchi navbatda, shahar va posyolkalar aholisi issiqlik va suv bilan qanchalik uzluksiz va eng muhimi, sifatli ta'minlangani asosiy mezon bo'lmog'i kerak.

Bu masalada suv va issiqlik ta'minoti korxonalari, mahalliy hokimiyat organlari, shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish idoralarining roli va mas'uliyatini belgilab qo'yish lozimligi ko'rsatib o'tildi.

Prezidentimiz I. Karimov tomonidan belgilab berilgan vazifalarni og'ishmay amalga oshirish maqsadida respublikamizda Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hamda «O'zkom-

munxizmat» agentligi va Hukumat manfaatdor tuzulmalar bilan birgalikda 2007-yilda kommunal sohadagi islohotlarni izchil davom ettirish, energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish va boshqarish tizimini takomillashtirish, qozonxonalar, issiqlik va suv ta'minoti hamda oqava quvur tizimlarini modernizatsiyalash bo'yicha ustuvor vazifalarni amalga oshirish rejasi ishlab chiqildi va ular amalga oshirildi.

2.5. Respublikamizda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va aholining turmush farovonligini oshirish chora-tadbirlari

Aholi turmush darajasi va farovonligi ijtimoiy infratuzilma xizmatlarining rivojlanish darajasiga qarab belgilanadi. Mamlakatimizda so'nggi yillarda aynan ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu sababli keyingi yillarda respublikamizda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishildi.

Prezidentimiz «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» asarlarida 2009-yildagi yana bir eng muhim ustuvor vazifa — **bu mamlakatimizni modernizatsiya qilish va aholi bandligini oshirishning muhim omili sifatida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirishdan iborat** ekanligini belgilab berdilar.

Mazkur ustuvor vazifaga alohida e'tibor qaratishning bir qator sabablari mavjud. Jumladan:

Birinchidan, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish yangi korxonalarni joylashtirish va butun iqtisodiyotni taraqqiy ettirish uchun zarur qulay shart-sharoitlar yaratadi, mamlakatimizning boy mineral-xomashyo resurslarini o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ikkinchidan, ishlab chiqarish infratuzilmasi, avvalambor, avtomobil va temir yo'llarning rivojlangan tizimi, ularning samarali faoliyati ishlab chiqarishdagi umumiy xarajatlarni kamaytirishning muhim sharti va omilidir. Bu esa, o'z navbatida, ishlab chiqarilayotgan mahsulot va butun iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini oshiradi.

Uchinchidan, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, aholini toza ichimlik suvi, energiya bilan ta'minlash, ijtimoiy soha ob'ektlarini barpo etish, pirovard natijada aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, infratuzilmani rivojlantirish ko'p mehnat talab qiladigan keng ko'lamli soha hisoblanadi. Bu yangi ish o'rinlarini tashkil etish, aholining, ayniqsa, yoshlarning ish bilan bandligini ta'minlash, odamlarning daromadi va farovonligini oshirish imkonini beradi.

Bundan ko'rinadiki, mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, iqtisodiyotning real sektorini yanada rivojlantirish ko'p jihatdan xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish infratuzilmasi bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq.

Zamonaviy ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmani jadal rivojlantirishni ta'minlash, shu asosda iqtisodiyotni izchil va barqaror yuksaltirish uchun qulay shart-sharoit yaratish maqsadida «2009-yilda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» maxsus dastur qabul qilindi va hozirgi kunda uning bajarilishi keskin nazoratga olingan.

Mamlakatimizda faqatgina uy-joy qurilishiga alohida e'tibor berilibgina qolmay ijtimoiy infratuzilmaning barcha ob'yektlarini rivojlanib borishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ijtimoiy infratuzilma ob'yektlari to'g'risida so'z borganda aholining salomatligini bevosita tiklovchi va ta'minlovchi muassasalar — kasalxonalar, sanatoriya va dam olish muassasalari, pansionatlar, sanatoriya-profilaktoriyalar, dam olish uylari va boshqalarni rivojlantirish muhimligini e'tirof etish lozim.

Ijtimoiy soha obyektlari qatorida ta'lim muassasalarining ham ahamiyati katta. Mamlakatimizda ta'lim muassasalarini rivojlantirish, ularning mazmunini sifat jihatidan takomillashtirish borasida ahamiyatli ishlar amalga oshirilmoqda. Natijada 2005-2008-yillar mobaynida maktabgacha ta'lim muassasalarida 5-6 yoshdagi bolalarni qamrab olish ko'rsatkichlari 19% dan 21,2%

gacha, shu jumladan shahar joylarida 36,2% dan 39,5% ga, qishloq joylarida esa 11,3% dan 13,2% gacha oshdi (2.2-rasm).



2.2-rasm. 2005-2008 yillar mobaynida maktabgacha ta'lim muassasalarida 5-6 yoshdagi bolalarni qamrab olish ko'rsatkichlari.

2009-yilda 767 ta (shundan 733 tasi yoki 96,5% qishloq joylarida) umumta'lim maktablari, 196 ta kasb-hunar kollejlari, 18 akademik litsey foydalanishga topshirilishi ko'zda tutilmoqda (2.3-rasm).



2.3-rasm. 2009-yilda yangi qurilish va kapital rekonstruktsiya bo'yicha foydalanishga topshirilishi ko'zda tutilgan maktablar, kasb-hunar kollejlari va litseylar.

Eng muhimi, mamlakatimizda ijtimoiy infratuzilma ob'yektlarini jadal rivojlantirish, aholi punktlarini obodonlashtirish, uy-joy qurilishini rivojlantirish va kommunal xizmatlar ko'rsatishni tubdan yaxshilash orqali qo'shimcha ish o'rinlari yaratilib, aholi ish bilan ta'minlanmoqda.

2.6. «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» davlat dasturi va kommunal xo'jaligi sohasidagi asosiy vazifalar

Ma'lumki, Prezidentimiz tomonidan 2009-yil «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» deb e'lon qilindi. Prezidentimiz ma'ruzalarida qishloqda taraqqiyot va farovonlikni ta'minlashda eng avvalo ijtimoiy soha va uy-joy kommunal xo'jaligini rivojlantirish bilan bog'liq quyidagi asosiy yo'nalishlar belgilab berildi:

— qishloqda turmush darajasini oshirish;

— qishloq ahlining manfaatlarini yanada to'liq ta'minlashga qaratilgan huquqiy bazani mustahkamlash;

— qishloq joylardagi infratuzilma tarmoqlarini yanada rivojlantirish;

— qishloq hayotining saviyasi va madaniyatini yangi pog'onaga ko'tarish;

— qishloq aholisi, eng avvalo, yoshlarni ish bilan ta'minlash, odamlarning daromadi va farovonligini oshirish[1].

Belgilangan chora-tadbirlarni izchil va tizimli amalga oshirish maqsadida «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturi ishlab chiqildi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 26-yanvardagi PP-1046 sonli Qarori asosida kuchga kiritildi. Dastur asosiy yo'nalishlari 9 ta bo'lim, 105 ta bandan tashkil topgan bo'lib shundan 5 ta bo'limda qishloqda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va kommunal xizmatlar ko'rsatishni yaxshilash bilan bog'liq vazifalar belgilab olindi (2.1-jadval).

---

[1] Prezident Islom Karimovning 2008-yil 5-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 16 yilligiga bag'ishlangan yig'ilishda so'zlagan ma'ruzasidan.

Alohida e'tibor qaratish lozim bo'lgan eng muhim ustuvor vazifalardan biri **«qishloqda turmush darajasini yuksaltirishga, qishloqlarimiz qiyofasini o'zgartirishga qaratilgan uzoq muddatli va bir-biri bilan chambarchas bog'liq keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiy soha va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni jadallashtirish»**[1] hisoblanadi.

2.3-jadval

«Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturida ijtimoiy infratuzilmani va uy-joy kommunal xo'jaligini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari

Bo'lim-lar	Dasturning asosiy yo'nalishlari
I	Qishloqda yashovchilarning manfaatlarini yanada to'liqroq ta'minlash uchun qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish va mustahkamlash
II	Qishloqda uy-joy va ijtimoiy soha ob'ektlarini qurishni loyihalashtirish, qishloq aholi punktlarini arxitekturaviy reja-lashtirishni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish
III	Qishloq joylarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmani rivojlantirish asosida qishloqda turmush sifatini oshirish
V	Elektr energiyasi bilan ta'minlovchi mavjud korxonalarni rekonstruktsiya qilish va yangilarini qurish hisobidan qishloqni kafolatlangan elektr energiyasi bilan to'xtovsiz ta'minlash uchun sharoitlar yaratish
IX	Fuqarolarning sog'ligini himoya qilishni yaxshilash, aholining tibbiy madaniyatini oshirish, qishloqda maorif tizimining sifatini yanada yaxshilash, yangi pog'onaga ko'tarish, qishloq joylarda maktab va kasb-hunar kollejlarining moddiy-texnika bazasini mutahkamlash

[1] Mamlakatimizni modernizasiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi, 2009-yil 14-fevral.

Respublikamizda qishloq obodonligini hamda uning aholisi farovonligini ta'minlash davlatimiz iqtisodiy siyosatining diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Ayniqsa, qishloq aholisini uy-joy bilan ta'minlashning ahamiyatli chora-tadbirlari amalga oshirilishi natijasida mazkur ko'rsatkich sezilardi darajada o'sib bormoqda. Umuman olganda, 1996-2009-yillar davomida respublika bo'yicha jami uy-joy fondining o'sish darajasi 128,1% ni tashkil etgani holda, bu ko'rsatkich shaharda 118,9% ni, qishloqda 138,5% ni tashkil etgan. Bu esa qishloq farovonligi va obodonchiligining oshishida muhim shart-sharoit yaratadi.

«Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturi doirasida ham qishloq aholisining uy-joy sharoitini yaxshilash chora-tadbirlarini kuchaytirish ko'zda tutilgan. Buning uchun eng avvalo yakka tartibda uy-joy qurish dasturini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Davlat dasturi asosda qishloq joylarida 7100 ming kv.m uy-joy qurilishi amalga oshiriladi. Albatta, bu jarayonlarni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash uchun imtiyozli kreditlar ajratilmoqda. Shunga ko'ra, 2009-yildan boshlab qishloq yashash joylarini to'la intentarizatsiyadan o'tkazilmoqda.

Keyingi yillarda qishloqdagi aholining har 1 kishi hisobiga uy-joy bilan o'rtacha ta'minlanganligi oshib bormoqda. Ayni paytda, obodonchilik darajasining oshishiga ta'sir qiluvchi shart-sharoitlar ham yaxshilanib bormoqda. Masalan, tabiiy gaz bilan ta'minlanganlik darajasi 1996-yildagi 58,6% dan 2009-yilda 76,4% ga, vodoprovod bilan ta'minlanganlik darajasi 23,9% dan 45,1% gacha oshgan. Biroq, hali qishloq obodonchiligini ta'minlashda hal etilishi lozim bo'lgan muammolar ham mavjud. Jumladan, yillar davomida oshib borayotganligiga qaramay, bugungi kunda qishloqdagi uy-joylarning markaziy isitish vositalari (17%), kanalizatsiya (9%), issiq suv ta'minoti (2,3%), vanna (2%) bilan ta'minlanish darajasi juda past.

2.4-jadval

«Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» davlat dasturi doirasida uy-joy va kommunal xo‘jaligi sohasida amalga oshiriladigan asosiy vazifalar

№	Tadbir nomi	Umumiy hajmi
1.	Qishloq joylarida yangi uy-joylar qurish	7100 ming kv.m.
2.	Yakka tartibdagi uy-joylarni kreditlashtirish asosida kapital remont qilish	500 ming kv.m.
3.	Qishloq joylarda yangi suv o‘tkazgich quvurlari va suv tarmoqlarini qurish	1836 km
4.	Aholi punktlaridagi suv bilan ta’minlash ob’yektlarini ta’mirlash	304 ta
5.	Yangi ish o‘rinlarini yaratish	140 ming
6.	Elektr ta’minoti tarmoqlarini kapital ta’mirlash	2558,3 km
7.	Avtomobil yo‘llarini remont qilish	1913,9 km
8.	Qo‘shimcha avtobus marshrutlarini ochish	67 ta yo‘nalish

Shunga ko‘ra, hozirda qishloq hududlarini suv bilan barqaror ta’minlash bo‘yicha 1836 km yangi suv tizimini qurish, 304 ta obyektni rekonstruktsiya qilish, bu boradagi 2010-2015-yillarga mo‘ljallangan dasturni ishlab chiqish tadbirlarini ham o‘z ichiga oladi. Shu qatorda 2009-yilda uzunligi qariyb 700 kilometrlik tabiiy gaz tarmoqlarini ishga tushirish, chekka tumanlarni suyultirilgan gaz bilan ta’minlashni tubdan yaxshilash belgilangan.

Qishloq joylarining obodonligi va aholisining farovonligini avtomobil yo‘llari va transport vositalari tizimisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra, 2009-yilda qishloq joylarda avtomobil yo‘llarini rivojlantirish va transport xizmatini yaxshilash maqsadida 67 ta yangi avtomobil marshrutini yo‘lga qo‘yish va 1913,9 km mahalliy yo‘llarni ta’mirlash ko‘zda tutilgan.

Aholi turmush darajasi ko‘p jihatdan xizmat ko‘rsatish va servis sohasining rivojiga bog‘liq. Ayniqsa, aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish darajasi qishloqdagi turmush farovonligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. 2009-yilda xizmat ko‘rsatish va servisni yangi sifat

darajasiga ko‘tarish, jumladan, qishloqda xizmatlar sohasida 140 ming yangi ish joylari tashkil etish, 452 ta savdo magazinlari, 1856 ta maishiy xizmat korxonalari, 500 dan ortiq minibanklar tashkil etish, qishloq aholi yashayotgan joylarda telefon va aloqa tizimini tubdan yaxshilash, sport va turizmni rivojlantirish tadbirlari belgilangan.

Shuningdek, qishloq joylarni obodonlashtirish ishlarini izchil tizimga solish, ularni muntazam ravishda olib borish maqsadida obodonlashtirish moddiy texnika bazasini mustahkamlashning 2009-2011-yillarga mo‘ljallangan dasturini ishlab chiqish, obodonlashtirish ishlari tashkil qilish va rag‘batlantirish qoidalarini tayyorlash jarayonlari amalga oshirilmoqda.

Qishloqni yoqilg‘i energetika zaxiralari bilan barqaror ta’minlash uchun qulay sharoitni yaratish borasida mavjud elektr va gaz tarmoqlarini to‘la inventarizatsiya qilish, yangi elektr va gaz tarmoqlarini qurish, mavjudlarini kapital ta’mirlash va rekonstruktsiya qilish, uzoq joylarda joylashgan qishloqlarni gaz va ko‘mir bilan ta’minlashga mo‘ljallangan servis markazlarini tashkil etish belgilangan.

Tayanch iboralar

Davlat siyosatida ustuvor yo‘nalishlar, uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida islohotlar, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning yangi bosqichi, qo‘shimcha chora-tadbirlar, qonunchilik asoslari, mahalliy budjet, budjetdan tashqari man’balar, ustuvor investitsiya loyihalari, aholi turmush darajasini oshirish, aholini uy-joy bilan ta’minlash, iqtisodiyot modernizatsiya qilish, aholi bandligi, ijtimoiy soha obyektlari, qishloq taraqqiyoti va farovon yili Davlat dasturi, qishloqda turmush darajasini yuksaltirish.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Kommunal xo‘jaligi sohasini isloh qilishdan asosiy maqsadi nima?

2. Respublikamizda kommunal xo‘jaligi sohasini isloh qilishning o‘zga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

3. Uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida islohotlar nimadan boshlandi?

4. Uy-joy kommunal xo‘jaligi tizimini isloh qilishning birinchi bosqichida qanday ishlar amalga oshirildi.

5. Uy-joy kommunal xo'jaligi tizimining qonuniy-me'yoriy asoslari shakllantirish jarayonini va qabul qilingan asosiy hujjatlarni sanab o'ting.

6. Uy-joy kommunal xo'jaligi tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlar faoliyatini bozor tamoyillari asosida rivojlantirish jarayonini qanday kechdi?

7. Kommunal xo'jaligi sohasida islohotlarni yangi bosqichida qanday vazifalarni hal etilishi maqsad qilib qo'yilgan?

8. Kommunal xo'jaligi sohasida islohotlarni yangi bosqichida qanday qonuniy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi?

9. Mamlakatimizda 2006-2007 yillarda kommunal xo'jaligi sohasida islohotlarni amalga oshirishning asosiy ustivor yo'nalishi qilib belgilanishidan maqsad nima?

10. Kommunal xo'jaligi sohasida 2006-2007 yillarda qanday asosiy ishlar amalga oshirildi?

11. Ijtimoiy infratizilmani rivojlantirishda uy-joy kammunal xo'jaligining vazifalari nimalar?

12. So'nggi yillarda respublikamizda ijtimoiy infratizilmani rivojlantirish maqsadida qanday ishlar amalga oshirildi?

13. «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» dasturida ijtimoiy sohaning rivojlanishi qanday yo'nalishlarda amalga oshiriladi?

14. «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» davlat dasturi doirasida 2009-2012 yillarga qanday asosiy vazifalarni amalga oshirish reja-lashtirilgan?

2-BO‘LIM. UY-JOY FONDI VA TURARJOY BINOLARI TUZILISHI

Bo‘limda keltirilgan mavzularni o‘zlashtirganlaridan so‘ng talabalarda:

— turar joy binolari va ularning tasnifi;

— turarjoy binolarining asosiy konstruktiv tuzilishi;

— binolarning asosiy muhandislik jihozlari;

— bino va inshootlardan foydalanish muddatlari va ularning eskirishi;

— bino va inshootlarning iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari faoliyatiga ixtisoslashuvi va tarmoq xususiyatlari;

— turarjoy binolarining jismoniy qayta tiklash ishlari to‘g‘risida **tasavvur hosil bo‘ladi.**

Talabalar:

— uy-joy fondi va turarjoy binolari tuzilishi;

— uy-joy fondini texnik ekspluatatsiya qilish;

— uy-joy qurilishida tejamkorlikka erishish;

— binolardan foydalanishni samarali tashkil etish;

— binolarning obodonlashganlik darajasini oshirish va ularga servis xizmatini tashkil etish to‘g‘risida **bilimga ega bo‘ladilar.**

Talabalarda:

— Uy-joy qurilishini tashkil etish;

— Uy-joy fondini ta’mirlash ishlarini tashkil etish;

— Turarjoy binolarini rekonstruktsiya qilish va obodonlashtirish;

— Binolarni yangidan jihozlash va servisni tashkil etish;

— Binolarni ta’mirlash jarayonida bajarilgan ishlar hajmi va sifatini nazorat qilish;

— Qurilish va ta’mirlash ishlarini bajarish jarayonida pudratchi tashkilotlarga to‘lanayotgan mablag‘lar monitoringini olib borish **to‘g‘risida malaka va ko‘nikma shakllanadi.**

III BOB. TURARJOY BINOLARI VA ULARNING ASOSIY KONSTRUKTIV TUZILISHI

3.1. Foydalanish maqsadlariga ko'ra binolar va inshootlar klassifikatsiyasi

Foydalanish maqsadlariga ko'ra bino va inshootlar ikki guruhga, ishlab chiqarish va noishlabchiqarish ob'yektlariga bo'linadi. Noishlabchiqarish maqsadlarida foydalanilayotgan bino va inshootlarning asosiy qismini ijtimoiy soha bino va inshootlar tashkil etadi va ular qurilish tarmog'i me'yoriy hujjatlarida **turarjoy-fuqarolik maqsadlarida foydalanilayotgan ob'yektlar** deb nomlanadi.

Turarjoy-fuqarolik maqsadlarida foydalanilayotgan binolar o'z navbatida uch guruhga bo'linadi. Bular:

— turarjoy binolari;

— jamoatchilik-fuqarolik bino va inshootlari;

— ijtimoiy va madaniy-maishiy maqsadlarda foydalanilayotgan bino va inshootlar.

1. **Turarjoy binolariga**:

a) doimiy yashash uchun mo'ljallangan hovli va ko'p xonadonli uylar;

b) o'qish va ishlash davrida yashab turish uchun yotoqxonalar;

v) qisqa muddatda turish uchun mo'ljallangan mehmonxonalar;

g) mehribonlik uylari va qariyalar uylari binolari kiradi.

2. **Jamoatchilik-fuqarolik bino va inshootlariga**:

a) san'at muassasalari binolari;

b) ilmiy izlanish va ilmiy xizmatlar ko'rsatish maqsadlarida foydalanilayotgan binolar;

v) moliyaviy institutlar (bank, sug'urta va boshqa) binolari;

g) jamoatchilik tashkilotlari binolari;

d) xizmat ko'rsatish sohasida foydalanilayotgan (umumiy ovqatlanish, savdo, aloqa va boshqa) bino va inshootlar;

e) qurilish sohasi tashkilot va muassasalari (loyiha, qidiruv, ekspertiza va nazorat) bino va inshootlari kiradi.

3. **Ijtimoiy va madaniy-maishiy bino va inshootlarga:**

a) ta'lim muassasalari bino va inshootlari;

b) sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minot tashkilotlari bino va inshootlari;

v) madaniy-oqartuv muassasalari;

g) kommunal xo'jaligi tashkilotlari korxona va muassasalari;

d) aholiga maishiy xizmat ko'rsatish bino va inshootlari kiradi.

Ijtimoiy va madaniy-maishiy sohada foydalanilayotgan binolar turli ko'rinishi, kattaligi, hajmi, qavatlari sonidan qat'iy nazar qurilish texnologiyasiga ko'ra asosan uch guruhga bo'linadi:

1. An'anaviy usulublarda qurilgan binolar;
2. Yig'ma karkasli binolar;
3. Quyma temir-beton (monolit) binolar.

An'anaviy uslubdagi binolarga murakkab texnologiyalar asosida tayyorlangan qurilish konstruktsiyalari va qurilish materiallaridan foydalanilmagan holda turli uslubda (shu jumladan milliy uslubda) qurilgan binolar kiradi. Ananaviy binolarning devor qismi qurilishida asosan pishiq g'isht, qum, tsement va ohak eritmasidan tayyorlangan qorishmadan hamda bog'lovchi metal sterjenlar (armatura)dan foydalanilgan bo'lsa, tom yopqich material sifatida g'ovakli (pustotka), qavariqli, qovirg'ali temirbeton plitalar, yengil konstruktsiyali tom yopqich panellar, to'sinlar, shvelerlar, bruslar va boshqa yog'och materiallaridan foydalaniladi. Qurilishda xom g'isht, paxsa va yog'och hamda boshqa turdagi mahalliy homashyolardan foydalanib qurilgan binolar ham an'anaviy uslubdagi binolar turkimiga kiritiladi.

Ikki va undan ortiq qavatli an'anaviy uslubdagi binolar qurilishida poydevorda, devorlar birlashuvchi burchaklarda va qavatlarning tutashuvchi qatlamlarida bino mustahkamligini oshiruvchi metal asosli (belbog'li) beton qovurg'alar quyiladi.

Yig'ma karkasli binolar qurilishi texnologiyasi va tarkibiy tuzilishiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi.

Birinchi guruhga qurilishda ananaviy usuldan hamda maxsus tayyorlangan karkaslardan foydalanilgan binolar kiradi. Bunday binolar mustahkam tuzilishdagi tayanch armokarkas (nesushiy chast)ga ega bo'lib, yig'ma panellar va konstruktiv elementlar shu tayanch armokarkaslarga biriktiriladi.

Ikkinchi guruhga binoning barcha konstruktiv elementlari uysozlik kombinatlarida va temirbeton mahsulotlari zavodlarida tayyorlangan yig'ma temirbeton qismlardan iborat bo'lgan binolar kiradi. To'liq yig'ma karkasli (panelli) binolar bir xil standartdagi tuzilishga ega bo'lib seriyali tartibda quriladi.

Quyma temir-beton binolar asosan ko'p qavatli bo'lib yuqori mustahkamlikka ega bo'lgan binolar hisoblanadi. Quyma temir beton uylar ham ikki guruhga, qisman monolit va to'liq monolit uylarga bo'linadi. Qisman monolit uylarnining bir qism detallari (tom yopqich plitalar, zinapoyalar, devor to'siqlari va boshqalar) yagona standartda zavodlarda tayyorlangan va montaj qilingan bo'ladi. Bunday binolarning asosiy qismlari (tayanch qismlari va devorlari) maxsus tayyorlangan temir karkaslar sirtiga qolip (opalubka)lar o'rnatilib beton qorishmasi bilan quyib tiklanadi.

To'liq monolit uylar qurilishida yig'ma panellardan deyarli foydalanilmaydi. Bunday binolar issiq va quriq iqlimga ega bo'lgan mahalliy sharoitga mos kelmaydi. Bunga sabab monolit uylarning beton devorlari issiq haroratda qo'shimcha namlikni talab etadi hamda issiq va sovuq haroratni ko'p o'tkazadi. Shu sababli monolit binolar maxsus murakkab arxitekturaviy-loyihaviy yechimlarni talab etuvchi va seysmik rayonlarda quriladi.

Ijtimoiy sohada foydalanilayotgan binolar loyihaviy shakllantirish tizimlariga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Umumiy karidorli loyiha tizimi;
2. Anfilad loyiha tizimi;
3. Zal asosli loyiha tizimi;
4. Yacheykali loyiha tizimi;
5. Aralash loyiha tizimlari qo'llanilgan binolar.

Umumiy karidorli loyiha tizimida binoning alohida xonalari umumiy devor bilan karidorga birlashgan bo'lib, har bir xonani umumiy karidorga chiquvchi kamida bitta eshik birlashtirib turadi. Bunday binolarga misol qilib uzun karidor atrofida joylashgan xonalardan tashkil topgan o'quv muassasalari, shifoxona binolarini keltirish mumkin.

Anfilad loyiha tizimida binoning xonalari bo'g'in-bo'g'in shaklida joylashtirilgan bo'lib ularni xonadan xonaga o'tish eshiklari tutashtiradi. Bunday binolar murakkab anfilad va chiziqli anfilad shaklida bo'lishi mumkin. Murakkab anfilad loyihada bir necha xonalar yagona tom ostida joylashgan va tutash devorlarga ega bo'lsada ularni bir eshik (yoki o'tish joyi) birlashtiradi. Murakkab anfilad binoga yagona yirik zali bo'lmagan muzey binosini keltirish mumkin. Chiziqli anfilad loyiha tizim asosida qurilgan bino xonalari poezd vagonlari kabi joylashib xonalarga ketma-ket o'tib boriladi.

Zal asosli loyiha tizimida binoning barcha xonalari yagona katta xona (zal) atrofida joylashadi. Bunday loyiha tizimida zal bino umumiy maydonining asosiy qismini egallaydi. Zal asosli loyiha tizimiga kinoteatrlar, kontsert zallari, sport zallari binolarini misol keltirish mumkin.

Yacheykali loyiha tizimida alohida kirish va chiqish joylariga ega bo'lgan bir necha bo'limlardan tashkil topgan yagona bino shakllantiriladi. Bunday binolarda har bir bo'lim boshqasi bilan yagona devorda birlashsada, bo'limlar o'rtasida umumiy o'tish joyiga ega bo'lmaydi. Binoning har bir bo'linmasining muhandislik qurilmalari (suv, gaz, issiqlik ta'minoti va boshqalar) ham alohida shakllantiriladi. Bunday binolarga ko'p podezdli turarjoy binolarini keltirish mumkin.

Aralash loyiha tizimlari qo'llanilgan binoda yuqorida keltirilgan loyiha tizimlarining kamida ikkitasidan foydalanilgan bo'ladi. Unga misol qilib umumiy karidorga ega bo'lgan o'quv binosini davom ettiruvchi sport zali joylashgan binoni keltirish mumkin.

3.2. Binoning konstruktiv elementlari asosida qismlarga ajratish

Ananaviy usulda g'ishtdan qurilgan to'rt qavatli erto'lasi mavjud bo'lmagan binoning konstruktiv elementlari va muxandislik kommunikatsiyalarining umumiy hajmiga nisbatan o'rtacha ulushi 3.1-jadvalda keltirilgan.

3.1-jadval

Binoning konstruktiv elementlari va muhandislik kommunikatsiyalarining umumiy hajmiga nisbatan o'rtacha ulushi

№	Guruhi	Nomi	Umumiy hajmiga nisbatan ulushi (foizda)
1.	Konstruktiv elementlar	1.1. Poydevorlar	6,0
		1.2. Devorlar va to'siqlar	43,0
		1.3. Qavatlar o'rtasidagi gorizontal to'siq (perikritiya)	11,0
		1.4. Tom konstruksiyalari va krovlya	7,0
		1.5. Pollar	11,0
		1.6. Deraza va eshiklar	7,0
		1.7. Zinapoya, balkon va boshqa elementlar	5,0
2.	Muhandislik kommunikatsiyalari	2.1. Isitish tizimi	2,9
		2.2. Issiq, sovuq suv ta'minoti	2,5
		2.3. Kanalizatsiya	1,2
		2.4. Elektr tizimlari	2,3
		2.5. Gaz ta'minoti	0,6
		2.6. Boshqa kommunikatsiyalar (ventilyatsiya, yong'in xavfsizligi, aloqa)	0,5
	Jami:		100%

Ijtimoiy sohada noishlabchiqarish va fuqarolik sohalarida foydalanilayotgan binolarning poydevorlari, tayanch devorlari va tomi qurilishida ishlatilgan qurilish materiallari sifatidan kelib chiqib kapitallilik darajasi bo'yicha quyidagi guruhlarga ajrtiladi (3.2-jadval).

3.2-jadval

Binolarning kapitallilik darajasiga ko‘ra guruhlanishi

Binoning konstruktiv elementlari	Binolarning kapitallilik guruhlari					
	I-guruh	II-guruh	III-guruh	VI-guruh	V-guruh	VI-guruh
Poydevorlari	Temirbetonli, betonli, beton blokli, g‘ishtli				Yog‘ochli, toshli, xarsang-tosh qotish-mali, stolbali	Shag‘alli, gruntli
Devorlari	G‘ishtli, toshli va panelli		Shlako-blokli, yengil g‘isht va yengil toshli	Yog‘och qovurg‘ali aralash (yog‘och-g‘ishtli)	Shitsimon karkasli, somonli yoki bog‘lovchi qo‘shilgan paxsa	Paxsa devorli, xom g‘isht devorli, guvala devorli
Tomi stropilasi (qovur-g‘asi)	Temir-betonli, metal stropila	Metal, yog‘och aralash stropilali	Yog‘och stropilali			

Poydevorlar bino og‘irligini erga o‘tkazib beruvchi tayanch hisoblanib bino mustahkamligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Poydevor binoning ostki qismida, asosan yer ostida yotqiziladi hamda binoni ko‘tarib turuvchi asos va seysmik himoyalovchi vosita vazifasini bajaradi.

Poydevorlar foydalanilgan qurilish materiallari, konstruktsiyasi va qurish texnologiyasidan kelib chiqib quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1. **Yog‘och poydevor** — Yengil vaznli yog‘och binolar qurilishida uzun to‘sinlardan lentasimon tuzilishda devorlarning ostki qismida yotqiziladi. Odatda yog‘och poydevor ostiga g‘isht yoki namga chidamli materiallardan asos yotqiziladi va namlikni qaytaruvchi bitumli qog‘oz bilan himoyalanadi.

2. **Tosh poydevor** — mahalliy sharoitda xarsang toshlar, ohak, gips, dolomit va qum aralashmasidan (lentasimon va botiq stolba shaklida) quriladi.

3. **Tosh-beton poydevor** — ananaviy usuldagi qurilishlarda ko'p qo'llaniladi. Xomashyo sifatida tog' parodalari, daryo tonlari va tabiiy xarsang toshlardan foydalaniladi. Poydevor o'rni ariqsimon qazilib, toshlar tsement qorishmasi bilan loyihadagi balandlikda teriladi.

4. **G'isht poydevor** — yer osti sizov suvlari uzoq bo'lgan va yerning sho'rlanish darajasi past bo'lgan joylarda quriladi. G'isht poydevor lentasimon shaklda, tsementli va ohakli qorishma bilan teriladi. Poydevorning burchak va kesishgan joylariga bog'lovchilar qo'yilishi mumkin. Poydevor qurilishida ishlatiladigan turli sifatli g'ishtlar (suvga chidamli-kvartsli, o'tga chidamli-silikat va boshqa) mavjud.

5. **Beton qorishmali poydevor** — shag'al-tosh va beton qorishmasidan qolip-taxtalar (opalubka) o'rnatib quyiladi.

6. **Monolit-temirbeton poydevorlar** — sanoat-fuqaro qurilishida keng qo'llaniladi. Bunday poydevorga loyiha bo'yicha armatura karkaslar tayyorlanib beton qorishmasi bilan quyiladi.

7. **Beton blokli poydevor** — standart razmerlardagi plitalar shaklida zavod usulida tayyorlangan beton bloklardan quriladi. Beton bloklar ikki shaklda, orasida g'ovak qoldirilgan engil bloklar va monolit quyilgan og'ir bloklarga bo'linadi. Zarur hollarda maxsus tayyorlangan zichligi 1,8 t/m.kub.dan yuqori bo'lgan og'ir bloklar ishlatiladi.

8. **Yig'ma temirbeton poybevorlar** — asosan to'liq yoki qisman zavod usulida tayyorlangan temirbeton detallardan quriladi. Ular binolar loyihasiga muvofiq montaj qilinadi. Yig'ma temirbeton poydevorlar turli shakllarda jumladan, lentasimon, stakan asosga o'rnatiluvchi, qoziq shaklida vertikal asosga o'rnatiluvchi (svayniy), ryumka ko'rinishidagi keng taklikka ega bo'lgan va boshqa shakllarda bo'lishi mumkin.

Yirik, ko'p qavatli binolarda asosan lentasimon yig'ma temirbeton poydevorlardan keng foydalaniladi.

Poydevor bino og'irligini o'tkazadigan qatlam poydevor asosi deyiladi. Poydevor asosi talab darajasidagi zichlikka ega bo'lsa

(yer ustki yumshoq qatlami olib tashlanib) to‘g‘ridan to‘g‘ri poydevor yotqiziladi. Yer zichligi va tuproq tarkibi talabga javob bermasa poydevor asosi qaziladi va shag‘al, tosh va boshqa zichlikni oshiruvchi materiallar yotqiziladi. Ayrim hollarda maxsus moslamali texnika yordamida zichlashtiriladi. Tuproq qatlami yumshoq, zichligi past, sizov suvlari juda yaqin joylashgan va botqoqlik yerlarda poydevor asosining uzunligi 6-28 metrgacha bo‘lgan vertikal beton to‘sinlarni yerga qoqib hosil qilinadi.

Devorlar va to‘siqlar (pardevorlar) — binoning asosiy qismini tashkil qiladi. Devorlar bino konstruktsiyasida joylashgan o‘rniga ko‘ra ikki guruhga, ichki va tashqi devorlarga bo‘linadi. Tashqi devorlar binoning tashqi ko‘rinishini tashkil etadi va fasad (ko‘rinish) deb ataladi. Ichki devorlar va to‘siqlar binoni xonalarga, bo‘limlarga ajratish uchun xizmat qiladi.

Konstruktiv jihatidan bino devorlari **tayanch** (ko‘tarib turuvchi-nesushie) devor va to‘suvchi (pardevor-nenesushie) devorlarga bo‘linadi.

Tayanch devorlar bino tomidan poydevorgacha bo‘lgan og‘irlikni qabul qilib poydevorga o‘tkazib beradi.

Bino konstruktsiyasida **to‘suvchi** devorlarga qo‘shimcha og‘irlik tushishi ko‘zda tutilmaydi va ular binoning qavati doirasida katta xonalarni bo‘luvchi sifatida quriladi. Shu sababli binoni qayta rekonstruktsiya qilganda to‘suvchi devorlarga o‘zgartirishlar kiritish mumkin.

Binolarning tashqi devorlari asosiy tayanch devorlar hisoblanganligi sababli aynan devorlar qurilishiga ishlatilgan materiallar binoning turi va kapitallik darajasini belgilaydi. Binolar devorlari asosan quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

— paxsa devorlar (somonli va somonsiz loydan tayyorlanadi);

— to‘sinlardan tayyorlangan yog‘och devor;

— taxta qoplamli karkasli devorlar (o‘rtasi to‘ldiriluvchi yoki ko‘p qavatli);

— g‘isht devor (loydan tayyorlangan samonli va samonsiz xom g‘isht, turli pishiq g‘ishtlar, silikat g‘isht, tsement qorishmali, kvartsli g‘isht va boshqalar);

— shlakoblokli devor (g'ovak tuzilishli shlak yoki boshqa engil materiallarning tsementli qorishmasidan tayyorlanadi, odatda mag'zida bo'sh joylar qoldiriladi;

— beton blokli (turli razmerdagi penabeton, keramzit, shag'al aralashmali bloklardan) devor;

— panel devorlar (zavod usulida tayyorlangan, metal karkasli, panellardan yig'iladi).

Bino tashqi devorlarining yuzasi **fasad** deb ataladi. Fasad o'zida binoning umumiy arxitekturaviy-estetik ko'rinishini mujassamlashtirishi bilan bir qatorda uni tashqi ta'sirlardan (iqlim, yog'ingarchiliklar va boshqalar) himoyalovchi qobiq hisoblanadi.

Bino tashqi devorlarining pastki qismi tsokol deb nomlanadi. Sokol bino poydevorini tashqi devor bilan birlashgan qismi hisoblanib eng katta tashqi ta'sirga (yerning zax qaytarishi, yog'ingarchiliklar, tomdan tushuvchi suvlarning erga urilib qayta sachrashi va boshqalar) uchraydi. Shu sababli tsokol o'ta mustahkam qurilish materiallari (maydalangan toshdan tayyorlangan qorishma-kroshka, keramik plitkalar, mramor va granit toshlar va boshqalar) bilan qoplanadi.

To'siqlar (peregorodki) binoning tayanch devorlari hosil qilgan xonalarni bo'lish, kichik xonalarga ajratish va foydalanish uchun qulay holga keltirish uchun quriladi. To'siq devorlar qalinligi odatda bir g'isht yoki yarim g'isht qalinligida -g'ishtdan va shlakoblokdan teriladi. Shuningdek, tusiqlar yog'och karkasga qoplangan gipsokarton, fanera, metall qoplamali bo'ladi. To'siqlar bino qavatlarida pastki qavatning tom qoplamasi ustida quriladi va to'siq ostida tayanch poydevor mavjud bo'lmaydi.

Binoning qavatlar o'rtasidagi va tomidagi gorizotal to'siq (perekritiya) tayanch konstruktsiya hisoblanib, ularga doimiy va vaqtinchalik tushuvchi og'irliklarni binoning tayanch devorlari va ustunlariga o'tkazishini inobatga olib o'rnatiladi. Gorizontal to'siqlar binoni qavatlarga ajratadi.

Gorizantal to'siqlar binodagi o'rniga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

— yerto'la usti — binoning birinchi qavati va podval o'rtasida;

— qavatlararo — ketma-ket joylashgan ikki qavat orasida;

— ustki yopqich — binoning oxirgi qavati va cherdak o'rtasida.

Foydalanilgan qurilish materiallariga ko'ra gorizontal to'siqlar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

— yog'och to'sinli va yumshoq qoplamali;

— aralash qoplamali (metall balkalarga, shvelerlarga biriktirilgan yog'ochdan);

— yig'ma temirbeton konstruktsiyali (plitali, gorizontal qovurg'ali panel, armokarkasli tekist va boshqalar),

Ijtimoiy sohalarda foydalanilayotgan binolarda asosan yengil gorizontal to'siqlar (g'ovakli plitalar)dan keng foydalaniladi.

Tom bino va uning konstruktsiyalarini yog'ingarchiliklardan va atmosfera ta'siridan himoya qiladi. Cherdakli binoning tomi ikki qismdan, tayanch konstruktsiyasi va himoya qoplamasidan tashkil topadi. Tayanch konstruktsiyasi storopila deyiladi. Stropila asosini tashqi va ichki tayanch devorlarga biriktirilgan fermalar tashkil qiladi. Fermalarning ustki tomoniga qoplama (krovlya) biriktiriladigan yog'och yoki metal tutqich panjara (obreshetka)lar yotqiziladi. Tomning himoya qoplamasi **krovlya** deb ataladi. Krovlya doimiy atmosfera harorati va yog'ingarchiliklar ta'sirida bo'lganligi sababli yuqori himoyani ta'minlashi lozim. Stropilali tomlarga qattiq asosli krovlya va yassi tomlarga esa yumshoq krovlya yotqiziladi.

Stropilali asosga yopiladigan krovlya uchun ishlatiladigan tomyopqichlarga:

— asbotsementli shifer;

— metall qoplama — maxsus ishlov berilgan, sinkali, zanglamaydigan, karroziyaga chidamli, turli qalinlikdagi metal prokatlar;

— cherepitsalar — sopol, metall, plastmassa, turli polimer va polietelin qorishmali cherepitsalar;

— shishatolali, plastmassa aralashmali shifersimon to'lqinli listlar va boshqa quyosh harorati va namgarchilikka chidamli qattiq yuzali materiallar.

Yumshoq krovlya uchun ishlatiladigan tomyopqichlarga:

— tol;

— pergamin;

— ruberoid;

— maxsus qoplamali sintetik tolali to‘qimali materiallar.

Yumshoq krovlyalar bitum, smola yoki boshqa yelimlovchi materiallar yordamida bir necha qatlamda yotqiziladi. Yumshoq krovlyali tomlarda kam nishabli suv qochirish qiyaligi hosil qilinadi va chiqish suv yo‘llariga nov yoki har xil trubadan ochiq va yopiq usulda suv tushuvchi tarnovlar o‘rnatiladi.

Yassi tomli ko‘p qavatli binolarda oxirgi qavatdan keyin balandligi katta bo‘lmagan texnik qavat mavjud bo‘ladi. Texnik qavat binoning turli muxandislik jihozlarini joylashtirish va tomdan chakki o‘tishidan qo‘shimcha himoyalash uchun xizmat qiladi.

Pol — bino xonalari va karidorlarining tagligiga yotqizilgan yuza qatlam bo‘lib ularda mavjud jihozlar vaznini va faoliyat jarayonida yuzaga keladigan og‘irlikni binoning tayanch asoslariga o‘tqazib beradi.

Ijtimoiy sohada foydalanilayotgan binolarda ishlatilgan qurilish materiallaridan kelib chiqib pollarning asosan quyidagi turlari mavjud:

— **taxta pollar** — taxtadan yotqizilgan va yuza qatlamiga silliq qilib ishlov berilgan bo‘ladi. Taxta pollar yog‘och to‘sin yoki bruslardan tayyorlangan asos ustiga yotqiziladi. Pol o‘rnatilgan asos laga deb nomlanadi. Pollar qurilish texnologiyasiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi. Birinchi turida taxtalar jipslashtiruvchi moslama yordamida o‘zidan oldingisiga juftlab qoqiladi. Ikkinchi turda taxtalarning bir chekkasiga qavariq va ikkinchi chekkasiga botiq yo‘lak hosil qilinib o‘rnatganda taxta chekalari bir-biriga kirib turadi. Yog‘och polli binolarning birinchi qavatida poydevordan laga ostini shamollatuvchi teshiklar ochilishi shart. Aks holda pastdan ko‘tariluvchi nam 3-4 yilga yetmasdan pol va lagani chiritadi.

— **parket pollar** — yog‘och pol yoki laga ustiga yotqizilgan (DSP, reyka, brus va boshqa) qattiq yuzaga yuqori sifatli (sada, qayin, kedr, yong‘oq, chinor va boshqa) yog‘ochlardan tayyorlangan taxtachalardan maxsus kley yordamida yotqiziladi. Hozirgi kunda turli sun’iy parketlar (tarketlar) keng qo‘llanilmoqda. Tarketlar asosini DVP yoki tarkibini selyuloza tashkil etuvchi

materiallardan tayyorlanganligi uchun yuvganda va ho'llab tozalaganda tez ishdan chiqadi.

— **linoleum-parket** singari qattiq yuzaga yotqiziladi. Qattiq yuza lagaga ustiga yotqizilgan yoki sementli qorishmada tekslangan (styajka) bo'lishi mumkin. Linoleum ikki guruhga ajratiladi, birinchi guruhga turli qalinlik va keglikdagi bir qavatli linoleumlar kirsa ikkinchi guruh linoleumlar ikki qavatli ya'ni maxsus issiqlikni ushlab qoluvchi yumshoq asosga ega bo'ladi. Yumshoq asosga ega bo'lmagan linoleumlar turli kley va mastikalar yordamida yotqiziladi. Asosli linoleumlar kleysiz yotqiziladi. Ikkala guruh linoleumlarni ham yotqizish jarayonida tutashuvchi chekalari maxsus laminatorda bir-biriga payvandlanadi.

— **kovrolan** — gilam singari yumshoq qobig'li bo'lib turli asoslarga ega bo'ladi. Kavrolanlar ham linoleum singari qattiq va tekist asosga (pol yoki sementli styajkaga) yotqiziladi.

— **plitkalar (kafellar)** — binolarning yordamchi (zinapoya, oshxona, hojatxona) va xo'jalik xonalariga yotqiziladi. Plitkalar turli texnologiyalarda tayyorlangan (chinni, sopol, metlax, mramor, polixlorvinilli va boshqalar) va turli sifatli bo'ladi. Pol yotqizishda yuzasi sirpanchiq bo'lmagan (metlax, marmar va polixlorvinilli kabi) plitkalarni tanlash lozim.

Proyom (teshik)lar — binoning tashqi va ichki devorida deraza va eshiklar o'rnatilgan va o'rnatilmagan teshiklardir. Odatda zinapoyalarga, karidordan xolga, karidordan karidorga o'tish joylarida eshik o'rnatilmagan proem bo'lishi mumkin.

Derazalar — xona yorig'ligini ta'minlash va shamollatish uchun xizmat qiladi. Xonani yetarli darajada yoriq bo'lishi va havo almashinishini ta'minlash derazalar yuzasining kattaligi muhim ahamiyatga ega. Ta'lim muassasalari o'quv xonalarining yorug'lik darajasiga qo'yiladigan talab «Idoraviy qurilish me'yorlari va qoidalari» asosida me'yorlanadi. O'quv xonalarida derazalarning kamida bittasidan xonaga quyosh nuri tushishi lozim. Quyosh nuri ko'pgina kasallik viruslarini o'ldiradi. Shuningdek, binodagi haroratni yo'qotilishini kamaytirish uchun shimol tomondagi devorlarga kamroq va janub, yoki quyosh ko'proq tushib turuvchi tomoniga ko'proq deraza o'rnatish maqsadga muvofiq.

Eshiklar — binoga va xonalarga kirib chiqishni ta'minlash va zarur hollarda yetarli darajada izolyatsiya qilish vazifasini bajaradi. Eshiklar kattaligi kirib chiqish tezligi va miqdoriga va xonaning hajmiga bog'liq bo'ladi. Ta'lim muassasalarida o'quv xonalariga o'rnatiladigan eshiklar soni va kattaligi «Idoraviy qurilish me'yorlari va qoidalari» asosida me'yorlanadi. Bunda yong'in xavfsizligi va favqulotda hodisalardan muhofazalanish inobatga olinadi.

Binoning bosh kirish joyida eshik(lar) o'rnatilishiga alohida talablar mavjud. Bu talablar binoning dizayni va kirib chiqish tezligining bino ichkrisidagi haroratga ta'sirini o'rgangan holda belgilanadi. Ko'p qavatli yirik binolarda alohida, bino sathidan bo'rtib chiquvchi bosh kirish joylari quriladi.

Binoning boshqa konstruktiv qismlariga bosh kirish joyi, zinapoyalar, balkonlar, lodjalar, mansardalar va boshqalar kiradi.

3.3. Binolarning asosiy muhandislik jihozlari

Muhandislik jihozlari binolarga kommunal xizmatlar ko'rsatish va ulardan maqsadli foydalanishni tashkil etish bilan bog'liq barcha vazifalarni bajarish uchun xizmat qiladi.

Suv ta'minoti tizimi (vodoprovod) — ijtimoiy sohada foydalanilayotgan binolarda sanitar-gigiyenik holatni ta'minlash, suv iste'moliga bo'lgan ehtiyojni qondirish, yong'in xavfsizligini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Binolarda sovuq va issiq suv ta'minoti tarmoqlari va yong'in xavfsizligi suv tarmog'i mavjud bo'ladi.

Sovuq suv ta'minoti tizimi uch xil sxemada montaj qilinishi mumkin:

1. Pastdan tarqatiluvchi ananaviy sxema (shahar tarmog'ida suv bosimi yetarli bo'lgan hollarda). Bu sxemada suv yo'lining oxiri berk yoki aylanma harakatlanuvchi bo'lishi mumkin.

2. Yuqoridan tarqatiluvchi sxema. Yuqori qavatli va shahar tarmog'ida suv bosimi doimiy yetarli bo'lmagan binolarda ushbu sxemada montaj qilinib binoning tomida (suv ta'minotidagi uzilishlarni qoplash imkoniga ega bo'lgan) suv yig'ish baki o'rnatiladi.

3. Nasosli markazlashgan ta'minot sxemasi. Bunday sxema suv bosimi surunkali yetishmaydigan, yuqori qavatlarga suv yetib bormaydigan hududlarda qo'llaniladi. Bunday sxemada suv ta'minoti nasos yordamida tortish va suv yig'ish baklarida yetarli suv miqdorini hosil qilib turish hisobiga amalga oshiriladi.

Yirik shaharlarda va yangi qurilishlarda binolarda va bino atrofida yong'in xavfsizligi suv tarmoqlari (gidrantlar) alohida quriladi.

Issiq suv ta'minoti — yetkazib berish manbasiga ko'ra ikki guruhga, markaziy yoki alohida (lokal) ta'minot tarmog'iga bo'linadi. Markaziy tarmoqqa yirik qozonxonalar, issiqlik elektr stantsiyalari yoki ishab chiqarish jarayonida ortiqcha issiqlik hosil qilinuvchi korxonalardan yetkazib beriladi. Binoga issiq suv ta'minoti tizimi turli sxemalarda, alohida aylanma harakatlanuvi tarmoq, aralash yoki qisman isitish funktsiyasi qo'shilgan (dush yoki oshxonalardan o'tuvchi stoyaklarda sochiq quritgichlari mavjud bo'lgan) va boshqa.

Alohida issiqlik ta'minoti ikki usulda, markazlashgan va ichki issiq suv hosil qilish manbalaridan ta'minlanadi. Markazlashgan ta'minotda bino yoki bir necha bino uchun issiq suv etkazib beruvchi kichik qozonxonalardan foydalaniladi.

Ichki issiq suv ta'minoti iste'mol nuqtalarida titanlar, suv qizdirgichlar, quyosh batareyalari, oshxona kombaynlari, kir yuvish mashinalari va boshqa man'balar orqali ta'minlanadi. Bunday energiyani iqtisod qilishga yo'naltirilgan issiq suv yetkazib berish texnologiyalari so'nggi paytlarda jadal rivojlanmoqda.

Suv qochirish tizimi (kanalizatsiya) sovuq suv ta'minoti tizimiga parallel ravishda pastdan tepaga tomon montaj qilinadi. Har bir stoyakning yerto'ladagi markaziy quvurga ulangan joyida chiqindi yig'uvchilar (gryazoviklar) o'rnatiladi va ular vaqti-vaqti bilan tozalab turiladi. Suv qochirish trubalarining tepa qismi bino tomidan chiqib turuvchi shamollatish trubalariga ulanadi. Bino yoki bino bo'limlaridan chiquvchi markaziy quvur hududdagi binolar orasidan o'tuvchi magistralga borib qo'shiladi.

Isitish tizimi binoda inson yashashi va faoliyati uchun zarur haroratni ta'minlashga xizmat qiladi. Isitish tizimi issiqlik

manbalaridan kelib chiqib ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga markaziy isitish tarmog'idan issiqlik bilan ta'minlanuvchi tizimlar kiradi. Har bir binoning isitish tizimi issiqlik kiritish nuqtasi (elevator) orqali magistralga ulanadi. Binodagi isitish tizimiga isitkichlar vertikal, parallel va qavatlar kesimida ulanishi mumkin. Amaliyotda uch va undan ortiq qavatli binolarda vertikal yopiq aylanish tizimi keng qo'llanilsa bir va ikki qavatli binolarda parallel va qavatlar kesimidagi isitish tizimi qo'llaniladi.

Ikkinchi guruh isitish tizimiga mahalliy (lokal) va induvidual qozonxonalardan issiqlik bilan ta'minlanuvchi tizimlar va isitish pechlari orqali isitish kiradi. Hozirgi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida yoqilg'ini tejash imkoniyati keng bo'lgan lokal isitish tizimlaridan foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Gaz ta'minoti tizimi — ijtimoiy sohadagi binolarda ma'ishiy ehtiyojni qondirish uchun xizmat qiladi. Gaz ta'minoti asosan uy-joy binolarida, mehmonxonalarda, talabalar turar joylarida, umumiy ovqatlanish uchun xizmat qiluvchi binolarda mavjud. Gaz taqsimlagich (GRP) uskunalaridan binolarga past bosimli (0,5A gacha) gaz etkazib beriladi. Gaz taqsimlagichdan binoga gaz yetkazib beruvchi tarmoqda binodan kamida 3-5 m uzoqlikda, favqulotda holatlarda gazni yopib qo'yadigan kran o'rnatilishi shart.

Binolarga elektr energiyasi ta'minoti markaziy tok taqsimlagich (transformator)dan amalga oshiriladi. Ko'p qavatli binolarga asosan to'rt yo'lakli kabellar orqali uch fazali, 380/220 volt kuchlanishli elektr energiyasi yetkazib beriladi. Elektr energiyasi tizimi binodan foydalanish maqsadiga qarab tayyorlangan loyiha asosida montaj qilinadi. Binoning elektr energetika tizimi ishga tushurishdan oldin loyihada ta'minlanishi lozim bo'lgan kuchlanishli quvvat ostida to'liq sinovdan o'tkaziladi. Binodan foydalanish davomida elektr energetika tizimi har yili bir marta maxsus elektr energiyasidan foydalanishni nazorat qiluvchi tashkilotlari tomonidan tekshiruvdan o'tkazib boriladi.

Ijtimoiy yo'nalishda foydalanilayotgan binolarda yuqorida keltirilgan muxandislik kommunikatsiyalaridan tashqari liftlar, shamollatish uskunalari (ventilyatsiya), qattiq ma'ishiy chiqin-

dilarni tashlash quvurlari (musoroprovod) bo'ladi. Ularning o'rnatish ishlari va sxemasi binoning loyiha-smeta hujjatlarda keltirilgan tartibda amalga oshiriladi.

3.4. Bino va inshootlardan foydalanish muddatlari va ularning eskirishi

Bino va inshootlar qurib ishga tushurilganidan tugatilguniga (buzib tashlangunga) qadar bo'lgan vaqt oralig'i ularning **faoliyati davomiyligi**ni bildiradi. Bino faoliyatining davomiylik muddati ularning kapitallilik darajasi, loyiha hujjatlari va me'yorlari ko'rsatkichlari asosida belgilanadi.

Bino va inshootlar faoliyati davomiyligining sifat ko'rsatkichlariga bog'liq holda, ularning kapitallilik darajasidan kelib chiqib o'rtacha xizmat muddatlari me'yorlanadi. Binoning **kapitallilik darajasi**: poydevori, devorlari, to'siqlari, tomi va boshqa asosiy konstruktsiyalarining sifati va xizmat muddatidan kelib chiqib belgilanadi. Odatda bino va inshootlarning kapitallilik darajasi olti guruhga bo'linadi (3.3-jadval).

Bino va inshootlardan foydalanish davomiyligi ikki guruhga: **jismoniy va funktsional** xizmat muddatlariga bo'linadi.

Jismoniy xizmat muddati — bino konstruktsiyalarining jismoniy-texnik tasnifiga bog'liq bo'lib, ular jumlasiga binoning tayanch konstruktiv elementlarining baquvvatligi, tebranishga chidamliligi, bog'lovchilarning sifati, issiqlik, namlik va ovoz o'tkazishidan himoyalanganligi kabilar kiradi.

3.3-jadval

Binolarning kapitallilik darajasi bo'yicha o'rtacha xizmat muddatlari me'yorlari

Bino turlari	Kapitallilik guruhlari					
	I	II	III	IV	V	VI
	Xizmat muddati					
Turarjoy binolari	150	125	100	50	30	15
Jamoatchilik binolari	175	150	100	50	25	15

Funktsional xizmat muddati deganda binoning arxitekturaviy tuzilishi, hajmi, umumiy maydoni, obodonlashtirilganlik darajasining binodan foydalanish bo'yicha qo'yilgan funktsional talablarga javob beradigan muddat tushuniladi.

Bino va inshootlar jismoniy xizmat muddati davomida eskirib boradi.

Binoning jismoniy eskirishi deganda uning konstruktiv elementlari va muhandislik jihozlarini asta sekinlik bilan dastlabki quvvatini va qiymatini yo'qotib borishi tushuniladi. Binolarning konstruktiv elementlari va muhandislik jihozlarni tashkil etuvchi qurilish materiallarining sifat ko'rsatkichlariga hamda ularga ta'sir etuvchi tashqi va ichki faktorlarga bog'liq ravishda jismoniy eskirishi jarayoni bir xil tezlikda kechmaydi.

Bino va inshootlarning jismoniy eskirishi rivojlanish darajasiga ko'ra uch bosqichga bo'linadi.

Birinchi bosqichga bino qurib ishga tushirilishi birinchi o'n yilligi kirib, ayniqsa dastlabki 3-5 yil faol kechadi. Bu davrda bino og'irligi ta'sirida ostki asosi va yer qatlamlaridagi cho'kish, tutashish joylarining zichlashuvi, qurilish konstruktsiyalari va materiallarining (to'liq texnologik xususiyatini egallashi hisobiga) joylashuvi kuzatiladi.

Ikkinchi bosqich jismoniy eskirishning bir maromda (stabil) kechish davri hisoblanib, bino xizmat muddatining 50-60 % ini tashkil etadi.

Uchinchi bosqichda bino resurslarining xizmat muddati o'tib borishi hisobiga sifat ko'rsatkichlarning pasayib borishi kuzatiladi va bu o'z navbatida eskirish darajasining o'sish suratini jadallashib borishiga olib keladi (3.1-rasm).

Binoning jismoniy eskirishi tashqi va ichki ko'rsatkichlar ta'sirida sodir bo'ladi.

Tashqi ta'sir ko'rsatuvchi faktorlarga:

— atmosfera (namgarliklar, yog'ingarchiliklar) ta'sir:

— yer osti sizov suvlari;

— havo harorati (yuqori issiqlik va muzlash);



3.1-rasm. Binoda jismoniy eskirishi darajasining rivojlanishi.

— texnologik jarayonlar (temir yo'l, aeroport, kuchli tebranish hosil qiluvchi ishlab chiqarish jarayoni) va boshqalar.

Ichki ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarga:

— binodan loyihada belgilanganidan boshqa maqsadlarda foydalanilganda;

— kapital va joriy ta'mirlash ishlari (muddatidan oldin yoki kechiktirib, yoki texnologiyaga rioya qilinmasdan) bajarilishi;

— sanitar gigiyenik talablar buzilganda;

— loyihada belgilanganidan ko'p foydalanuvchilar (yashovchilar, xodimlar) joylashtirilganda va boshqalar.

Bino va inshootlarning asosini tashkil etuvchi (kapitallilik darajasini belgilovchi) texnologik konstruktsiyalarining jismoniy eskirishini (kapital yoki joriy ta'mirlash orqali) to'liq qayta tiklab yoki ularni almashtirib bo'lmaydi. Bularga binoning poydevori, tayanch devorlar, tayanch ustunlar va kolonnalarni kiritish mumkin.

Binoning barcha konstruktiv elementlari va muxandislik jihozlarini ma'lum darajada jismoniy eskirishidan keyin qayta tiklab bo'lmaydi. Binodagi konstruktiv elementlar va muxandislik jihozlarini ta'mirlash orqali qayta tiklash mumkin bo'lgan darajasi 3.4-jadvalda keltiriladi.

3.4-jadval

Kapitallik darajasi 1-2 guruhga kiruvchi binolardagi konstruktiv elementlar va muxandislik jihozlarining eskirishni qayta tiklash imkoniyatlari

Konstruktiv element va muxandislik jihozlar nomi	Me'yoriy xizmat muddati (yilda)	Qayta tiklanishi mumkin bo'lgan jismoniy eskirish (% da)	Qayta tiklanishi mumkin bo'lmagan jismoniy eskirishning maksimal chegarasi (% da)
Poydevorlar	100	5	35
Devor va to'siqlar	100	5	35
Tom (temir-beton, yumshoq qoplama)	100	20	35
Stropila	100	5	35
Krovlya	25	30	60
Pollar	60	25	33
Deraza va eshiklar	50	15	30
Ichki bezaklar	20	30	50
Boshqa konstruktsiyalar	80	10	44
Sovuq suv tarmog'i	15	10	50
Suv chetlatish oqova quvurlar	30	10	50
Issiq suv tarmog'i	15	10	50
Isitish tizimi	30	15	50
Gaz tarmog'i	75	10	20
Elektr-yoritish tizimi	67	15	30

Tayanch iboralar

Binolar va inshootlar klassifikatsiyasi, funktsional xizmat muddati, jamoatchilik-fuqarolik binolari, binolarning kapitallilik darajasi, ijtimoiy va madaniy - maishiy binolar, binoning muhandislik jihozlari, binoning konstruktiv elementlari, bino va inshootlardan foydalanish muddatlari, jismoniy xizmat muddati, binoning kapitallilik darajasi, muxandislik kommunikatsiyalari, binoning jismoniy eskirishi.

Nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Bino va inshootlar foydalanish maqsadlariga ko'ra qanday klassifikatsiyalanadi?

2. Ijtimoiy va madaniy-maishiy sohada foydalanilayotgan binolarning loyihaviy shakllantirish tizimlariga ko'ra qanday guruhlarga bo'linadi?

3. Bino tarkibi qanday asosiy qsimlarga bo'linadi?

4. Binoning konstruktiv elementlari asosida qismlarga ajratish mumkin?

5. Binolarning kapitallilik darajasiga ko'ra qanday guruhlarga ajratish mumkin?

6. Binolarning asosiy muhandislik jihozlariga nimalar kiradi?

7. Bino va inshootlar foydalanish muddatlariga ko'ra qanday guruhlarga bo'linadi?

8. Bino va inshootlarning eskirishi qanday guruhlarga bo'linadi?

9. Bino va inshootlarga qanday faktorlar tashqi ta'sir ko'rsatadi?

IV BOB. UY-JOY FONDI VA UNING KLASSIFIKATSIYASI

4.1. Bino va inshootlarning iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari faoliyatiga ixtisoslashuvi va tarmoq xususiyati

Iqtisodiyotning turli tarmoqlari va sohalarida foydalaniladigan bino va inshootlar mazkur tarmoqlarning ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlari xususiyatidan kelib chiqqan holda o'ziga xos konstruktiv-loyihaviy xususiyatlarga ega bo'ladi. Har qanday bino va inshootlar foydalanish maqsadidan kelib chiqqan holda ixtisoslashadi. Shu sababli bino va inshootlar qurilishini rejalashtirish va ulardan foydalanishni tashkil etishda ularning ixtisoslik xususiyatlarini inobatga olish muhim ahamiyatga ega. Binolar ixtisoslik xususiyatlariga ko'ra to'la ixtisoslashgan, qisman ixtisoslashgan va foydalanishga ixtisoslashtirilgan bo'ladi. To'la ixtisoslashgan binolarni qurish odatda, loyiha-qurilish tashilotlari tomonidan maxsus loyihalanadi. To'la va mukammal ixtisoslashgan binolarng qurish uchun tayyorlangan loyihalar qurilish jarayoniga takror va takror qo'llaniladi va ular *tipavoy* (bir xil tuzilishdagi) binolar deyiladi. Bir xil tuzilishdagi binolar qurilishini hamda ularga ishlatiladigan qurilish materiallari va konstruktsiyalarini ko'p miqdorda ishlab chiqarilishini yo'lga qo'yish va bunday jarayonda ko'plab binolar qurish seriyali binolar qurish deyiladi.

Bino va inshootlarning ixtisoslashuvi bilan bog'liq xususiyatlarini ijtimoiy sohada tarkibiga kiruvchi turarjoy binolari misolida ko'rib chiqamiz.

Ma'lumki turarjoy binolariga:

— doimiy yashash uchun xizmat qiladigan hovli va ko'p xonadonli uylar;

— ma'lum muddat yashab turish uchun mo'ljallangan yotoqxonalar;

— qisqa muddatda turishga mo'ljallangan mehmonxonalar;

— mehribonlik va qariyalar uylari binolari kiradi.

Doimiy yashash uchun xizmat qiladigan turarjoy binolarini **ixtisoslashuvi bilan bog'liq ko'rsatkichlar** o'rganilganda ular asosan ikki guruhga ajratiladi.

Birinchi guruhga fuqarolarning doimiy hayot kechirishlari davomida yuzaga keladigan uy-joy shart-sharoitlari bilan bog'liq ehtiyojlardan tashkil topadi.

Ikkinchi guruhga uy-joy fondidan foydalnishni tashkil etish va kommunal xizmatlar ko'rsatish uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan bog'liq ko'rsatkichlar kiradi.

Aholining hayot kechirishlari davomida uy-joy fondi bilan bog'liq holda yuzaga keladigan ehtiyojlarni qondirish maqsadida yaratilgan shart-sharoitlar turli guruhlarga bo'linadi. Bulardan asosiylari:

— uy-joyning obodonlashganlik darajasini belgilovchi (el. energiyasi, gaz ta'minoti, ichimlik suvi, issiq suv va istish tizimi, sanitar uzel, dush-vanna xona mavjudligi va boshqalar) ko'rsatkichlar;

— keng darajadagi ehtiyojlarni qondiruvchi va shinamlikni ko'rsatuvchi (hommom, yerto'la, yozgi oshxona, ayvon, avtogaraj va boshqalar) ko'rsatkichlar;

— yuqori darajadagi (roskoshniy, elitniy) ehtiyojlarni qondirish uchun shart-sharoitlar mavjud (keng mehmonxonalar, yozgi-qishgi oshxonalar, sport va sog'lomlashtirish xonalari, basseyn, xiyobon va boshqalar) ko'rsatkichlar;

— tashqi infratuzilma bilan bog'liq qulaylik (transport uchun qulayligi, savdo va xizmat ko'rsatish shaxobchalari yaqinligi, ijtimoiy va ma'naviy ma'rifiy obyektlar yaqinligi va boshqalar) ko'rsatkichlari;

— tabiiy iqlim sharoitiga moslashuvchanlik (sovuq va issiqdan himoyalovchi devorlar, shamolga, karroziyaga qarshi moslamalar, yer relefiga moslashuvchanlik, zilzilabardoshlik va boshqalar) ko'rsatkichlari;

— ekologik muhit bilan bog'liq (havo tozaligi, havo yo'li, atrofda ekologiyaga ta'sir etuvchi subyektlar mavjudligi, ichimlik suvi sifati va boshqalar) ko'rsatkichlar kiradi.

Aholining uy-joy fondi bilan bog'liq hayot kechirishlari davomida talab etiladigan ehtiyojlarini cheklab bo'lmaganiday, ularni guruhlashni ham cheksiz davom ettirish mumkin. Ammo, ko'p xonadonli va ko'p qavatli turarjoy binolarida asosan uy-joyni obodonlashganlik darajasini belgilovchi ko'rsatkichlar mavjud bo'ladi. Hozirgi kunda qurilayotgan uy-joy fondida turli yuqori shinamlik darajasiga kiruvchi ehtiyojlarni qondirish uchun imkoniyatlar yaratilmoqda. Ammo, bari-bir ko'p xonadonli turarjoy binolarida yuqorida keltirilgan ehtiyojlarning individual yaratilishi mumkin bo'lganlarini yaratib bo'lmaydi.

Alohida qurilgan hovli joylar (texnik-arxitekturaviy va geodezik talablarga javob bersa) aynan fuqaro hohlagan barcha ehtiyojlarni yaratish imkonini beradi. Hovli-joyida turli ehtiyojlarni qondirish uchun shart-sharoitni fuqarolarning o'zlari yaratishlari sababli ushbu sharoitlarni mavjudligi fuqarolarning moddiy imkoniyatlariga bog'liq.

Uy-joy fondidan foydalnishni tashkil etish va kommunal xizmatlar ko'rsatish uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan bog'liq ko'rsatkichlar shartli ikki guruhga bo'linadi:

Birinchi guruhga uy-joy fondidan yil davomida sifatli foydalanishni tashkil etish bilan bog'liq shart-sharoitlar kiradi. Ko'p xonadonli uy-joylarda ushbu vazifalar xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari tomonidan amalga oshiriladi va bularga asosan uy-joylarni mavsumiy ekspluatatsiyaga tayyorlash, muxandislik uskunalari (lift, nasos, konditsioner, markaziy teleantenna, gaz taqsimlash punkti (GRP), elektr taqsimlash podstantsiyalari, havo ventilyatsiyalari)ning uzluksiz faoliyatini ta'minlash, tozalikni saqlash, hududni ko'kalamzorlashtirish kabi xizmatlar kiradi. Hovli-joyida bu guruhga kiruvchi shart-sharoitlarning yaratilishini asosan hovli egalarining o'zlari tashkil qiladilar.

Ikkinchi guruhni kommunal xizmatlar ko'rsatish uchun yaratilgan shart-sharoitlar tashkil etilib unga uy-joyni obodonlashganlik darajasini belgilovchi ko'rsatkichlarga kiruvchi xizmat-

larni tashkil etilish bilan bog‘liq shart-sharoitlar kiradi. Bunda asosan uy-joyni markaziy elektr energiyasi ta’minoti, gaz ta’minoti, ichimlik suvi ta’minoti, issiqlik va issiq suv uzatish tizimiga va oqova suv quvuriga ulanganligini kiritish mumkin.

Ma’lum muddat yashab turish uchun mo‘ljallangan yotoqxonalar xizmat ko‘rsatish va ulardan foydalanish maqsadlariga ko‘ra uch guruhga bo‘linadi. Bular:

— ta’lim muassasalari yotoqxonalari;

— iqtisodiyotning real sektoridagi korxonalarga tegishli yotoqxonalar;

— harbiy hamda maxsus maqsadlarda xizmat qiluvchi yotoqxonalariga bo‘linadi.

Yotoqxonalar binolari umumiy karidorli yoki sektsiyali bo‘ladi. Binolar tuzilishi jihatidan asosan ikki qismga yotoq (spalniy) va xo‘jalik blokiga bo‘linadi.

Ijtimoiy sohada *jamoatchilik-fuqarolik* hamda *ijtimoiy va madaniy-maishiy maqsadlarda foydalanilayotgan binolar* ushbu sohalar faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha shart-sharoitlarni yaratish uchun xizmat qiladi. Binolar tuzilishi jihatidan ma’lum yo‘nalishda foydalanishga ixtisoslashgan bo‘ladi, ulardan ijtimoiy sohalarda aholiga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq barcha faoliyatini tashkil etishda turli maqsadlarda foydalaniladi.

Masalan, oliy ta’lim muassasasi binosini o‘rganadigan bo‘lsak, bir binoda o‘quv xonalari, laboratoriyalar, ma’muriy boshqaruv apparati, dekanat, kafedralar va boshqa o‘quv jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq bo‘limlar faoliyat ko‘rsatishi mumkin. Ammo bino uning asosiy funktsional vazifasi hamda bino maydonining asosiy qismidan qanday vazifada foydalanilishiga qarab nomlanadi.

Ta’lim muassasalarining binolari ulardan foydalanishning asosiy yo‘nalishlaridan kelib chiqib quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

O‘quv binolari (asosan talabalarga dars berish uchun xizmat qiluvchi auditoriyalar, ma’ruza zallari, mul’timedia, kompyuter xonalari va boshqalar

O‘quv yordamchi va o‘quv laboratoriya binolari (resurs markazlari, o‘quv va ilmiy laboratoriyalar hamda boshqa bevosita o‘quv jarayoniga xizmat qiluvchi binolar).

Ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda foydalanilayotgan binolar va inshootlar (ma'naviyat markazlari, zallar va boshqalar).

Ma'muriy binolar (Ta'lim muassasasi faoliyatini boshqarish bilan bog'liq barcha xizmatlar).

Sport-sog'lomlashtirish va umumiy ovqatlanish binolari (sport zallari, poliklinika, profilaktoriyalar, oshxonalar).

Talaba va o'quvchilar turar joylari binolari.

O'quv-ishlab chiqarish binolari va budjetdan tashqari daromad topish maqsadida faydalanilayotgan ishlab chiqarish binolari.

Ta'lim muassasalarida inshootlar asosan ikki guruhga bo'linadi.

Sport-sog'lomlashtirish inshootlari (sport maydonchalari, suzish havzalari, poligonlar va boshqalar).

Xo'jalik inshootlari (Qozonxonalar, garaj, avtomobil to'xtash joylari, issiqxonalar va boshqalar).

Ta'lim muassasalarida o'quv, o'quv yordamchi va laboratoriya maydonlari bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi ta'lim muassasasi yo'nalishi va bilim sohasidan kelib chiqib me'yorlanadi. Bunda har bir talaba hisobiga to'g'ri keladigan maydonning miqdori o'quv jarayonini ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik) Davlat ta'lim standartida belgilangan darajada tashkil etish uchun yetarli bo'lishi talab etiladi.

Sport-sog'lomlashtirish, umumiy ovqatlanish va talabalar turar joylariga bo'lgan talab darajasini o'rganishda talabalar sonidan kelib chiqiladi.

Umuman olganda ijtimoiy sohalarda foydalanilayotgan binolarni qurish ishlari va ularning asosiy texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari alohida ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Turarjoy-jamoatchilik bino va inshootlarini qurilishida asos bo'lib hisoblanuvchi quyidagi shaharsozlik va qurilish me'yoriy hajjatlarni misol keltirish mumkin:

SHNK 2.08.01-05 Turarjoy binolar;

KMK 2.08.02-96 Jamoatchilik bino va inshootlari;

SHNK 2.08.04-04 Ma'muriy binolar;

SHNK 4.13.51-05 Umumta'lim maktablari va maktab internatlar;

SHNK 4.13.51-05 O'rta maxsus ta'lim muassasalri

SHNK 4.13.51-05 Bolalar maktabgacha ta'lim muassasalari va boshqalar.

4.2. Turar joylarning tasnifi (klassifikattsiyasi)

Turarjoy sohasi tarkibiga kiruvchi uy-joylar ulardan **foydalanish xususiyatlariga ko'ra** aholini joylashtirish usuliga qarab va **binolar qurilishida yerdan foydalanish usuliga** qarab guruhlanadi[1].

Uy-joylar ularga aholini joylashtirish usuliga qarab ikki guruhga bo'linadi (4.1-rasm).

1. Oilaga daromad keltirishga yo'naltirilgan qishloq tipidagi hovlilar;
2. Yuqori shinamlikka ega bo'lgan shahar tipidagi hovlilar;
3. Kam qavatli uylar ikki va undan ortiq xonadonli uylar;
4. O'rta qavatli ko'p xonadonli uylar;
5. Ko'p qavatli obodonlik darajasi yuqori va shinam uylar;
6. Baland qavatli yuqori servisli uylar;
7. Bolalar internati;
8. Ta'lim muassasalariga qarashli yoshlar yotoqxonasi;



4.1-rasm. Turar joy binolarining tasnifi.

[1] X.M.Ubaydullayev M.M. Inog'omova, Turarjoy va jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslari, "Voris-nashriyot", Toshkent-2009., Darslik, 382 b.

9. Ta'lim muassasalari va ijtimoiy soha tashkilotlariga qarashli oilali yoshlar yotoqxonasi;

10. Maishiy imkoniyatlarga ega bo'lgan qariyalar uylari;

11. Shinamlik darajasi yuqori bo'lmagan, xizmat safaridagi ishchilarga mo'ljallangan past kategoriyali mehmonxonalar;

12. O'rtacha shinamlikdagi, o'rta toifali mehmonxonalar;

13. Yuqori darajadagi servisga ega, yuqori toifali mehmonxonalar;

14. Doimiy dam olishga ixtisoslashga dam olish uylari;

15. Mavsumiy dam olish imkoniyati yaratiladigan dam olish uylari;

16. Pansionatlar.

Turar uy-joylari konstruktiv tuzilishiga ko'ra quyidagi ikki guruhga bo'linadi:

1. *Xonadonlarga bo'lingan uy-joylar* oilalarni binoda to'siq devorlar bilan to'la chegaralangan, alohida kirish eshigiga ega bo'lgan va barcha imkoniyatlarga ega bo'lgan alohida xonadonlarga joylashtirishga mo'ljallangan bo'ladi.

2. *Xonalarga bo'lingan turar uy-joylar* esa yashovchilarni alohida xonalarga joylashtirishga mo'ljallangan bo'ladi. Bu uylarda sanitar-gigienik xonalar, oshxona va maishiy xizmat bo'limlari umumiy joylashtirilgan bo'ladi. Bunday turar joylarda yolg'iz ishchilar, talabalar, o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari va maktab-internatlar o'quvchilari yashaydilar. Bundan tashqari past kategoriyali mehmonxona va dam olish uylari binolarida ham xonalarga bo'linish saqlab qolinadi. Bu ikki guruhga taalluqli binolarning funktsional xususiyatlariga ko'ra bir-biriga o'xshash tomonlari mavjud bo'lib, ular binolardan foydalanishga qo'yilga asosiy talablar, vazifalar, funktsional foydalanishining o'xshashligi hamda yashovchilarning talablari bir xilligida nomoyon bo'ladi. O'rta Osiyo sharoitida hovli-kvartirali binolar eng ko'p tarqalgan bo'lib shahar va qishloqlarning asosiy turar joy fondini tashkil etadi.

Yerdan foydalanish usuliga qarab kvartirali uy-joy binolari quyidagi guruhlarga bo'linadi.

1. *Hovlili turarjoy binolarida.* Uy yoki xonadon egasi uy hovlisining ham egasi hisoblanadi, hovlili turar joylar bir xonali uy

xonadon va tutashtirilgan hovlili 2 yoki ko‘proq xonadon tutashtirilgan alohida hovligi bo‘ladi.

2. *Yer sathi umumiy bo‘lgan turar joy binolari.* Bu ko‘p kvartirali va asosan ko‘p qavatli umumiy (kommunal) tipidagi shaharlardagi binolardir. Bunday hududda yer sathidan hamma xonadonlar yoki bir guruh xonadonlar foydalanadilar. Bu guruhdagi ko‘p xonadonli uylarga aynan kommunal xizmatlar ko‘rsatishni tashkil etish va uy-joy fondini samarali boshqarish imkoniyati yuqori bo‘ladi.

Qavatlar miqdoriga ko‘ra turar joy binolari quyidagilarga bo‘linadi[1]:

1. *Kam qavatli* (1-2 qavatli) *uylar*, bunday uylarga asosan hovli- joylari shaklida qurilgan uylar kiradi. Bu turdagi uylar yer uchastkasida dehqonchilik qilish, meva yetishtirish, chorva va parranda boqish sharoitiga ega bo‘ladi va asosan qishloq joylarda, nafaqat qishloqlarda, balki, kichik shaharlarda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

2. *O‘rta qavatli uylar* (3-5 qavatli) umumiy zinapoyadan hamma foy-dalanadigan, liftsiz turar joydan iborat bo‘lib, O‘rta Osiyo shaharlarida juda ko‘p tarqalgan, ular o‘tgan asrning 60-80-yillarida iqtisodiy jihatdan foydali deb hisoblangan. Hozirgi kunda ham bunday turdagi uylarni qurish birinchidan, demografik o‘sish ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan mamlakatimizda aholini nisbatan zichroq joylashtirish imkonini bersa, ikkinchidan kommunal xizmatlar va servisni rivojlantirishda yaxshi samara beradi. Ammo, yirik shaharlarimizda eng asosiy masala, yer sathini tejash masalasi hisoblanib, bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini zich joylashtirish maqsadida o‘rta qavatli uylar qurilishi kamaytirilib, ularning o‘rniga ko‘p qavatli turar joy binolarini qurish kundan kunga ko‘payib bormoqda. Tibbiyot sohasida berilgan xulosalarga ko‘ra, O‘rta Osiyo tabiati va iqlimi sharoitida 5 qavatli uylarga zinapoyadan chiqib borish yoshi o‘tib qolgan odamlaminig sog‘ligiga zarar etkazadi. Shuning uchun O‘zbekiston sharoitida o‘rta qavatli liftsiz uylarning balandligi 4 qavatdan oshmasligi tavsiya etiladi.

---

[1] Змеул С.Г., Маханко Б.А. Архитектурное типология зданий и сооружений. — М., 2001.

3. *Ko'p qavatli* (6-9 qavatli) *uylar* umumiy foydalaniladigan zinapoyadan tashqari aholining vertikal harakatlanishi uchun lift bilan ta'minlangan bo'lishi lozim. Bunday uylar qurilishida iqtisodiy nuqtayi nazaridan qaralsa, uylar o'rta qavatli uylarga nisbatan qimmatroqqa tushadi, ammo cheklangan yer sathida ko'proq aholini joylashtirish imkonini beradi. Shuning uchun bunday uylarni katta shaharlarimizning nufuzli rayonlarida ko'plab qurish o'ta samarali hisoblanadi.

4. *Baland qavatli* (10 va undan ortiq qavatlari bo'lgan) *uylar* binolarning kiraverishida, podyezdida umumiy zinapoyadan tashqari 2 turdagi funktsiyani ya'ni, aholini va yukni tashiydigan liftlar bo'lishi lozim. Aholini yong'in paytida binodan tez chiqarib yuborish yoki evakuatsiya qilish uchun xonadonlar balkonlar (yozgi xonalar) orqali uzviy bog'langan bo'lishi va vertikal yoki ochiq havo oqimiga ega bo'lgan zinapoyalar orqali bog'langan bo'lishi lozim.

O'rta, ko'p va baland qavatli uylar 3 ta asosiy tarkibiy tuzilishga ega bo'ladi: bo'linmali, yo'lakli, galereyali[1].

O'rta Osiyoda bo'linmali (seksiya) tuzilmali uylar eng ko'p tarqalgan uylar bir tomondan, uyda ko'p kvartirali va kam kvartirali uy turlarini joylashtirishga imkon yaratsa, ikkinchi tomondan iste'mol qilingan kommunal xizmatlar hisobini har bir xonadon uchun alohida olib borishga qulay hisoblanadi.

Bo'linmali seksiya tuzilishiga ega bo'lgan uylar sobiq Ittifoq paytida turli iqlim sharoiti mavjud bo'lgan joylarda qurilgan. Yo'lakli va galereya turidagi uylar esa asosan kamxonali xonadonlarga mo'ljallangan bo'lib, yo'lakli uylar ko'proq sobiq Ittifoqning o'rta qismida, galereyali uylar esa janubiy qismida qurilgan. Shu sababli shaharlarimizda galereyali uylarni ko'proq uchratish mumkin.

O'zbekiston sharoitida turar uy-joylarqurilishini loyihalashda qo'yiladigan asosiy talablar tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. O'zbekistonning iqlim sharoitida xonadonni yer sathi va ochiq havo bilan bog'lash an'anaga aylanib qolgan. Shaharlarning

---

[1] Asomov R.Inog'amova M.M. Turar joy binolari tipologiyasi. –T.,2000.

tez o'sishi va yer sathini ehtiyot qilish o'rta va ko'p qavatli uylarning qurilishini talab etadi.

2. Xonadonlarni yer bilan bog'lash an'anasi yo'qoldi. Buning o'rnini almashtirish uchun xonadon tarkibiga har xil yozgi xonalarni loyihalash va uylarda kam qavatli uylarga nisbatan har xil qulayliklar, ya'ni markazlashgan issiq suv, isitish tizimi va elektr jihozlari hamda chiqindini olib ketish uchun qulayliklar o'rin olmoqda. Mazkur talablar asosida O'zbekistonning tabiatini, iqlim-sharoitini va urf-odatlarini inobatga olgan holda past, o'rta va ko'p qavatli uylar qurilishiga qo'yiladigan talablar ishlab chiqildi.

3. Yoz paytlaridagi issiq havo va nisbatan yumshoq, qisqa davrli qish xonadonlarni issiq havodan saqlashni taqozo etadi. Bu esa uylarni quyoshga nisbatan to'g'ri qaratish (oriyentatsiya) qilish, yaxshi shamollatish, konstruksiyalar xususiyatlaridan to'g'ri foydalanish, quyoshga qarshi himoya qurilmalaridan foydalanish orqali erishiladi.

4. Uy-joy kommunal xo'jaligida uylarning asosiy fasadini quyoshga to'g'ri qaratish dan maqsad shundaki, qish paytida xonadonlar quyosh nuridan ko'proq foydalangan holda isitish, yoz paytida esa xonalarga kamroq quyosh nuri tushishini ta'minlovchi himoya konstruktsiyalar orqali salqin saqlash imkoniyatini yaratish lozim. Bunga erishish uchun quyosh tikkadan o'tganligi sababli quyoshga qarshi kichkinagina qurilma, ya'ni (soyabon) derazalarni issiq quyosh nuridan saqlaydi. Qishda esa quyosh pastlab nur sochganligi sababli quyosh nuri to'g'ridan-to'g'ri janubga qaratilgan derazaga tushadi va xona «insolyasiya"si yuzaga keladi. Insolyasiya, ya'ni quyoshni to'g'ridan-to'g'ri tushishi faqat turar uy joylardagi xonalarga zarur bo'lib qolmay, u ijtimoiy sohada foydalaniladigan barcha (tibbiyot, ta'lim va tarbiya, tomosha ko'rsatiladigan) binolarga juda zarur hisoblanib nafaqat binoni isitish, shuningdek quyosh nuri orqali dizenfektsiyalash va yoritish imkonini beradi. Demak, turarjoy va ijtimoiy soha binolarini imkon qadar janub tomonga qaratish kerak. Bunda asosiy xonalar janub tomonga joylashtirilsa, yordamchi xonalar (tualet, hommom, oshxona va boshqalar) shimol tomonga joylashtirilishi kerak.

O‘rta Osiyo sharoitida binoni sovitishda yelvizak hosil qilish yo‘li bilan binoda kunduzgi issiq havoni kechki salqin havo bilan almashtirish mumkin. Buning uchun kunduz kuni xonalardagi derazalarni yopiq holda va aksincha kechqurinlari tashqaridagi salqin havoni kiritib, derazalarni ochib qo‘yish yo‘li bilan xonaning havosi salqinlatib turish mumkin.

Ammo xonani tezda salqinlatish uchun uni shamollatish zarur. Bu holatni to‘g‘ridan-to‘g‘ri burchakli yelvizak hosil qilish hisobiga tashkil qilinadi. Buning uchun esa uyning tarxini to‘g‘ri joylashtirish lozim, ya’ni uni shomol yo‘lini hisobga olgan holda ikki tarafga qaratish talab etiladi. O‘zbekiston sharoitida xonadonni bir tomonga qaratish yelvizak usulini hosil qilishga yordam berolmaydi va xonadonning isib ketishiga sabab bo‘ladi. Bunday tarxli turar uy-joylar O‘zbekiston iqlim sharoitida qoniqarsiz deb hisoblanadi va binoni salqinlatish uchun qo‘shimcha energiya sarflashga olib keladi.

Tabiiy iqlim sharoitidan kelib chiqib respublikamiz hududiy zonalarga bo‘linadi. Bu umumiy ko‘rsatkich, albatta O‘zbekiston tog‘li, voha va sahro hududlariga bo‘linadi hamda yillik o‘rtacha havo harorati bir-biridan keskin farq qiladi. Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro viloyatlari esa tez-tez esib turadigan issiq shamoli bilan boshqa viloyatlardan farq qiladi.

Respublikamizda uy-joylarni issiqlik energiyasi bilan ta’minlash va isitish mavsumini boshlash va tugatishni tartibga solish maqsadida Toshkent zonal ilmiy tekshirish eksperimental loyihalash instituti tomonidan respublikamiz hududlarida iqlim ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan bo‘lib, unga asosan O‘zbekiston hududi 3 qismga bo‘linadi:

1-qism sovuq va uzoq qishi hamda salqin yozi bilan ajralib turadi. Bunga Qoraqalpog‘iston, Xorazm va Buxoro viloyatlarining shimoliy qismi kiradi.

2-qismga asosiy talmikor va sanoat viloyatlari, ya’ni Farg‘ona vodiysi, Toshkent, Jizzax va Samarqand viloyatlari kiradi. Bu viloyatlar yumshoqroq qishi va issiq yozi bilan ajralib turadi. Bular juda keng hududli va aholisi zich joylashgan viloyatlardir.

3-qismga yozi juda issiq, qishi qisqa va yumshoqroq iqlimli viloyatlar kiradi. Bu hududa tez-tez janubiy issiq shamol esib turadi. Havoning issiqligi 45 darajagacha ko'tariladi. Bu hududda issiq kunlar ko'p bo'lganligi sababli qishda isitish tizimida juda qisqa muddat foydalaniladigan va yozda tabiiy yo'l bilan issiqdan saqlanish qiyin bo'lgan hududlar hisoblanadi.

4.3. Uy-joy qurilishida tejamkorlik va binolardan foydalanishni samarali tashkil etish

Iqtisodiy tomondan uy-joy qurilishida har yil sarflanadigan mablag'lardan tejamkorlik bilan foydalanib ko'proq foyda olishga harakat qilinadi, ammo iqtisodiy yondashuvdan ko'ra uy-joy binolari qurilishida bino sathidan unumli foydalanishni tashkil etish qurilish jarayonidagi iqtisodiy samaradan ko'ra bir necha marta katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Aynan qurilgan binoning mustahkam, chidamli, isitish uchun ko'p energiya sarf qilinmaydigan, kommunal resurslardan tejamli foydalanish imkonini buruvchi, tez-tez qayta ta'mirlashga ehtiyoj hosil qilmaydigan xususiyatga ega bo'lishi binoga qo'yiladigan zarur talablaridan biri bo'lib uning samarasi bino faoliyat ko'rsatib tugatilguniga qadar davom etadi. Shu ma'noda tejamkorlik va uydan samarali foydalanish masalalari bir-biriga qarama-qarshi kategoriyalardir. Shuning uchun uy-joy qurilishi va uning faoliyati davomida ushbu qarama-qarshi ko'rsatkichlarni bir-biriga ta'sirini kamaytirish, ya'ni tejamkor va ekspluatatsiya davrida kam mablag' talab etuvchi texnologiyalarni qo'llash o'ta muhim masala hisoblanadi.

Hozirgi fan va texnika taraqqiy etgan sharoitda qurilishni tejamkorlik bilan olib borishda qurilish jihozlarini va qurilmalarini to'g'ri tanlash, ya'ni foydalanish jarayonida eng tejamkor texnologiyalarni tanlash samaradorlikning asosiy manbayi hisoblanadi. Bundan tashqari binoning qavati va qurilish hajmini to'g'ri tanlash ham tejamkorlik omillaridan biridir.

Respublikamizda mutaqillikka erishilganidan keyin arxitektura-qurilish sohasida ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlarda mahalliy sharoitni va tejamkor texnologiyalarni qo'llashga alohida e'tibor

qaratilmoqda. Shuning uchun uy-joy sohasida bino qurilishi hamda kapital ta'mirlash va rekonstruktsiya qilish jarayonlarida arxitektura me'yorlaridan to'liq va unumli foydalanish zarur. Demak, loyiha tanlashda bir necha xil loyihalardan texnik va iqtisodiy tomon yuqori samaradorlikka ega bo'lganini tanlash yaxshi natija beradi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, O'zbekiston iqlimi sharoitida uylarni yaxshi shamollatish uchun derazalarni ikki tarafga o'rnatish, bo'limda (seksiyada) to'rt xonodon o'rniga ikki xonodonni joylashtirishni taqozo qiladi, bu esa zina kataklarining sonini oshib ketishi, katta-katta yozgi xonalardan foydalanish va quyoshga qarshi qurilmalarning o'rnatilishi, uy tannarxining oshib ketishiga sabab bo'ladi. O'zbekistonning seysmik darajasi yuqori, tez-tez yer qimirlab turuvchi zonaga kirganligi sababli uy-joy sohasida foydalaniladigan binolarni qurish, kapital ta'mirlash va rekonstruktsiya qilishda zilzilabardoshlik ko'rsatkichlariga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi. Bu esa, o'z navbatida, ortiqcha mablag' sarflanishiga olib keladi.

Turar uy-joy, jamoat binolarini muvaffaqiyat bilan aralashtirib kichik mikrorayon hududi va turar joy hududlari qurilishi kompozitsion har xil siluetlar hosil qilish, rang va fakturalardan to'la foydalanish, yer maydoni bilan to'la uyg'unlashib ketishi, ko'kalamzorlashtirish va suv bilan to'g'ri ta'minlash qurilishdagi noiqtisodiy ko'rinishlarni yo'qotishga olib keladi. Uylarni tipik loyihalarga har xil yangi usullarni kiritish yo'li bilan boyitish lozim. Shuningdek, har xil usullarni ishlab chiqish kerak. Me'morlar bu usullardan to'g'ri kompozitsion tizimga ega bo'lgan turar joy, bekatlar va uylar loyihasini tuzadilar. Shunday qilib, me'morlar muvaffaqiyatli loyihalar uchun har xil usullarni qo'llab turar joy binolarining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini boyitish, tejamli va optimal yondoshish orqali har xil kompozitsion vazifalarni hal etishlari mumkin.

Uy-joy, kommunal xo'jaligi sohasida binolardan foydalanishni samarali tashkil etish masalasi kommunal xizmatlar uchun to'lov miqdorini kamaytirish, uy xo'jaligi infratuzilmasini rivojlantirish, resurslardan oqilona foydalanish va uy-joy mulkdorlarining moli-

yaviy mablag'laridan samarali foydalanishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Binodan foydalanishni samarali tashkil etish masalasi bino qurilishi uchun loyiha tayyorlash jarayonida Texnik iqtisodiy asosnoma (APZ) tayyorlashdan boshlanadi.

Texnik iqtisodiy asosnomada binoga qo'yiladigan muhandislik va kommunal servis vazifalari yoritib beriladi. Aynan, bino qurilayotgan hudud va ushbu hududagi mahandislik kommunikatsiyalarining mavjudligi bino qurilishida xonadonlarning obodonlashganligini ta'minlash imkonini beradi. Bunda binoning joylashishi asosiy kommunal xizmatlar turlari tarkibiga kiruvchi kommunikatsiyalari mavjudligi va ularga binoni ulanish imkoniyati mavjudligidan kelib chiqqan holda asoslanishi lozim. Bu kommunikatsiyalarga ulanish imkoniyatini asoslash uchun mazkur xizmatlarni ko'rsatuvchi har bir kommunal xo'jaligi korxonalari bilan binoni qurilish joyini kelishish lozim bo'ladi.

Bino qurilishi joyini kelishish ishlari bino qurilishiga ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibiga asolangan holda amalga oshiriladi.

Bino qurilishiga ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 5-avgustdagi 305-son Qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasining 2001-yil 15-maydagi 1-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Investitsiya loyihasi uchun boshlang'ich-ruxsat berish hujjatlarining tarkibi, ularni ishlab chiqish, kelishtirish va tasdiqlash to'g'risidagi Nizom»ga muvofiq tayyorlanadi.

Bino va inshootlar qurilishi uchun boshlang'ich-ruxsat beruvchi hujjatlar kapital qurilish va arxitektura sohasida amal qiladigan qonunlar va me'yoriy hujjatlar asosida tayyorlanadigan loyiha va tender hujjatlarini ishlab chiqish uchun zarur hujjatlar paketidan iborat.

Boshlang'ich-ruxsat berish hujjatlari tarkibi quyidagilardan iborat:

a) Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 27-maydagi qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida noqishloq xo'jalik ehti-

yojlari uchun yer uchastkalarini olib qo'yish va berish bo'yicha materiallarni rasmiylashtirish tartibi to'g'risidagi nizomning II bo'limi 1-bandiga muvofiq hududiy taalluqliligi bo'yicha tegishli hokimiyatga yuridik va jismoniy shaxsning ob'yektni joylashtirishga ariza-xati;

b) ob'yekt qurilishi uchun yer uchastkasini (uchastkalar, variantlari bilan bo'lishi mumkin) tanlash to'g'risidagi dalolatnoma;

v) Qurilish uchun yer uchastkasini tanlash dalolatnomasini tasdiqlash vakolatiga ega davlat hukumati tegishli organining qaroridan ko'chirma nusxa;

g) Yer uchastkasining topografik-geodezik surati;

d) arxitektura-rejalashtirish topshirig'i, I qism (ARP-I);

e) muhandislik tarmoqlariga ulanish uchun texnik shartlar;

j) muhandislik kommunikatsiyalari trassalarini yotqizish uchun yer uchastkasini tanlash haqida dalolatnoma;

z) Muhandislik kommunikatsiyalari trassalarini yotqizish uchun yer uchastkasini tanlash dalolatnomasini tasdiqlash vakolatiga ega davlat hukumati tegishli organining qaroridan ko'chirma nusxa;

i) muhandislik kommunikatsiyalari trassalarining topografik-geodezik surati;

k) arxitektura-rejalashtirish topshirig'i, II qism (ARP-II).

Yuqorida keltirilgan bino va inshootlar qurilishi uchun boshlang'ich ruxsat beruvchi hujjatlarni tayyorlashda ochib berilishi lozim bo'lgan asosiy ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

1. Hududiy taalluqliligi bo'yicha tegishli hokimiyatga ob'yektni joylashtirishga ariza-xat. Xatda Nizomning II bo'limi 4-bandiga muvofiq ob'yektga uning joylashgan o'rni va yer uchastkasiga doir asosiy ko'rsatkichlar va unga qo'yiladigan talablarning qisqacha asoslanishi aks ettiriladi.

2. Yer uchastkasini tanlash dalolatnomasi. Dalolatnomada Nizomning II bo'limi 7-11-bandlariga muvofiq aholi punkti yoki boshqa hudud tuzilmasida tanlanadigan yer uchastkasining joylashishi, shu paytdagi holati, yerlar tavsifi va undan foydalanish, mavjud imoratlar, ko'chatlar, muhandislik kommunikatsiyalari va boshqa masalalar aks ettiriladi.

3. Yer uchastkasini tanlash dalolatnomasini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarordan ko‘chirma nusxa Nizomning II bo‘limi 17 va 18-bandlariga muvofiq bu hujjat yer uchastkasining asosiy o‘lchovlari va tavsiflari, avvalgi yerdan foydalanuvchidan yerlarni olib qo‘yish talablari, arxitektura-rejalashtirish topshirig‘i (ART-1)ni tayyorlash, yer uchastkasidan foydalanish bo‘yicha buyurtmachiga topshiriqlar va boshqa talablar ko‘rsatilgan holda tayyorlanishi mumkin.

4. Yer uchastkasining topografik-geodezik surati. Yer uchastkasini tanlash dalolatnomasiga binoan arxitektura va qurilish hududiy organlari bilan kelishilgan koordinatalar tizimi, masshtab va chegaralarda bajariladi.

5. Arxitektura-rejalashtirish topshirig‘i. 1-qism Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri arxitektura va qurilish bosh boshqarmalari (boshqarmalari va bo‘limlari) tomonidan ishlab chiqiladi va arxitektura-shaharsozlikning asosiy talablarini belgilaydi, unda quyidagilar ko‘rsatiladi:

a) arxitektura-rejalashtirish topshirig‘ini berish uchun asoslar;

b) aholi punkti (umumshahar markaz zonalari, turarjoy mavzesi, sanoat zonasi, shahar atrofidagi hudud va boshqalar) bosh rejasida loyihalashtirilayotgan ob’yektning joylashgan o‘rni;

v) hududning muhandislik-geologik tavsifi, seysmikligi (agar tumanning mikroseysmik xaritasi mavjud bo‘lsa, uning ma’lumotlari bo‘yicha ko‘rsatiladi)ga doir dastlabki ma’lumotlar, yerosti sizov suvlarining mavjudligi (joylashganlik darajasi va tebranish amplitudasi);

g) mavjud imoratlar (saqlanib qoladigan, buzib tashlanadigan), kelajakda bajariladigan qurilishlar va boshqalar;

d) yorug‘lik, shamol esishi tomonlarini hisobga olib aholi punktining bosh rejasida ob’yektlarni joylashtirishning vaziyatli rejasi;

e) loyihalashtirish obyekti, fasadlarni tashqi bezatish, obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish yechimlari va kichik arxitektura shakllari va boshqalarga qo‘yiladigan asosiy arxitektura-rejalashtirish talablari;

yo) davlat nazorati organlari (SES, yong‘indan saqlash xizmati, yo‘l xavfsizligi xizmati, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi

va boshqalar) talablarini bajarish bobida loyihasi, qurilish bosh rejasi va loyihalashtirilayotgan binoning arxitektura-rejalashtirish yechimini kelishtirish shartlari;

i) mazkur me'yoriy hujjatning 3-bandi «g» kichik bandida ko'rsatilgan topografik-geodezik surat bo'lmaganda topografik-geodezik va muhandislik-geologik ishlarini olib borishga qo'yiladigan talablar;

k) ko'chmas mulk kadastri xizmati tomonidan buziladigan noturarjoy binolar va inshootlarni hamda texnik inventarlash byurosi tomonidan buziladigan turarjoy imoratlari va ko'p yillik ko'chatlarni baholash zarurati.

6. Ob'yektning muhandislik tarmoqlariga ulanishi uchun texnik shartlar ob'yektning hisob-kitob qilingan talabdagi imkoniyatlaridan kelib chiqib, mavjud muhandislik tarmoqlariga, manbalariga ulanish, tarmoqlar manbalarining yangilarini qurish yoki ta'mirlash joyi va talablarini belgilaydi.

7. Muhandislik kommunikatsiyalari trassalarini yotqizish uchun yer uchastkasini tanlash dalolatnomasi tuziladi. Dalolatnomada Nizomning II bo'limi 7-15-bandlariga muvofiq aholi punkti yoki boshqa hudud tuzilmasida trassaning o'tishi, yerlarning shu paytdagi holati, mavjud imoratlar, ko'chatlar, muhandislik kommunikatsiyalari, yo'llar bilan tutashgan joylar va boshqa masalalar aks ettiriladi.

Loyiha-rejalashtirish hujjatlari bilan ta'minlangan aholi punktlarida obyekt qurilishi va muhandislik kommunikatsiyalari trassalarini yotqizish uchun yer uchastkasi bir vaqtda tanlanadi va bitta dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

8. Muhandislik kommunikatsiyalari trassasi uchun yer uchastkasini tanlash dalolatnomasini tasdiqlash haqidagi qarordan ko'chirma nusxa Nizomning II bo'limi 17-19-bandlariga muvofiq yer uchastkalari asosiy ko'rsatkichlari va tavsiflari, avvalgi yerdan foydalanuvchidan yerlarni olib qo'yish, arxitektura-rejalashtirish topshirig'i (ART-II)ni tayyorlash talablari, buyurtmachiga yer uchastkalaridan foydalanish bo'yicha topshiriqlar va boshqa talablarni ko'rsatgan holda tayyorlanadi.

9. Muhandislik kommunikatsiyalari trassasi topografik-geodezik surati muhandislik kommunikatsiyalari trassalarini yotqizish uchun yer uchastkasini tanlash dalolatnomasiga binoan hududiy arxitektura va qurilish organlari bilan kelishilgan koordinatalar tizimi, masshtabi va chegaralarda bajariladi.

Muhandislik kommunikatsiyalari trassalari va obyekt yer uchastkasining topografik-geodezik surati bir vaqtda amalga oshirilishi mumkin.

10. Arxitektura-rejalashtirish topshirig'i II-qismi muhandislik kommunikatsiyalari trassasi va uni yotqizishga asosiy talablarni belgilaydi va unda quyidagilar ko'rsatiladi:

1) kommunikatsiyalar ulangan, trassirovka qilingan joylar, magistrallar, ko'chalar va tor ko'chalar kesishgan joyda joylashganligi, tarmoqlar uzunligi;

2) foydalanuvchi tashkilotlar tomonidan berilgan texnik shartlar talablari, shuningdek aholi punkti bosh rejasi yoki batafsil loyihalashtirish, qurilish, mavzelarning loyihasi talablari, qurilish me'yorlari va qoidalari talablarining bajarilishi shartlari;

3) loyihalashtiriladigan kommunikatsiyalarni yotqizish shartlari;

4) mazkur me'yoriy hujjatning topografik-geodezik surati bo'lmaganda, mavjud yerosti kommunikatsiyalari ko'rsatilgan holda topogeodezik ishlar va muhandislik-geologik tadqiqotlarni bajarish zarurati.

Bino qurilishini loyihalashda muhandislik kommunikatsiyalari trassasi va ularga binoni bog'lovchi kommunikatsiyalarni optimal joylashtirish va qurilayotgan binoda eng so'nggi fan-texnika yutiqlari asosida ishlab chiqarilgan muhandislik uskunalarining o'rnatilish kommunal xizmatlar ko'rsatishda resurslardan eng optimal foydalanish imkonini beradi.

Shuningdek, binodan samarali foydalanishni tashkil etish binoni Davlat qabul komissiyasi tomonidan ekspluatatsiyaga qabul qilish jarayonida muhandislik tarmoqlarini to'la quvvatda va mukammal faoliyat ko'rsatayotgan holda qabul qilishga va ularni ekspluatatsiya qilish ishlarini binoning texnik pasportida keltirilgan me'yor va talablar asosida tashkil etishga bog'liq bo'ladi.

4.4. Uy-joy fondini texnik ekspluatatsiya qilish

Uy-joy fondi tarkibiga kiruvchi binolarni foydalanishga yaroqli holda saqlash, ularga yagona texnik xizmat ko'rsatish siyosatini amalga oshirish, binolarning konstruktsiyalarini muhandislik tizimlarini va qurilmalarini, shuningdek, ularga tegishli hududlarni saqlash va ta'mirlash bo'yicha amaldagi me'yorlarning bajarilishini ta'minlash ishlari binolarni texnik ekspluatatsiya qilish bilan bog'liq tadbirlar majmuasini tashkil etadi.

Har bir binoni texnik ekspluatatsiya qilish ishlari uning texnik iqtisodiy va muhandislik-loyihaviy ko'rsatkichlaridan kelib chiqqan holda tashkil etiladi. Ekspulatatsiyani tashkil etish bilan bog'liq texnik iqtisodiy va muxandislik- loyihaviy ko'rsatkichlari binoning texnik pasportidan olinadi.

Binoning texnik pasporti bino va inshootlarni foydalanishga qabul qilib olinganidan keyin Davlat qabul komissiyasi tomonidan bino egasiga doimiy saqlash uchun taqdim etilgan hujjatlar asosida tayyorlanadi.

Har bir alohida hududa joylashgan, tayanch konstruktiv elementlari orqali boshqa bino bilan tutashmagan bino uchun alohida Binoning texnik pasporti tayyorlanadi. Bino bir nechta tutash korpuslardan, bo'limlardan tashkil topgan bo'lishi mumkin. Shuningdek, mavjud binoga qo'shimcha (tutash) qurilish qilingan bo'lishi mumkin. Bunday qo'shimcha qurilish to'g'risidagi ma'lumotlar asosiy binoning texnik pasportiga kiritiladi.

Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida foydalanilayotgan bino va inshootlarning texnik pasportidagi ma'lumotlar tarmoqlar xususiyatidan hamda bino va inshootlarning tuzilishidan kelib chiqqan holda turlicha bo'ladi.

Binolarning texnik pasportida keltiriladigan ma'lumotlar asosan uch qismga bo'linadi:

1. Bino yoki inshoot to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar;
2. Binoning tuzilishi, undagi foydalaniladigan maydonlar va o'rnatilgan uskuna va jihozlar to'g'risida ma'lumotlar;
3. Binodan foydalanishda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ma'lumotlar.

1) Bino yoki inshoot to‘g‘risidagi umumiy ma’lumotlarga:

— bino qurilishi to‘g‘risida chiqarilgan qaror va uni chiqargan organ, chiqarilgan sanasi;

— binoning qurilgan va ishga tushirilgan sanalari;

— bino joylashgan umumiy maydon va uning tarkibiy bo‘linishi;

— binoning texnik quvvatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar (umumiy maydoni, o‘quv maydoni, yordamchi maydon, mavjud o‘quvchi o‘rinlari va boshqalar);

— bosh loyihachi va loyihalashtirish ishida ishtirok etgan tashkilotlar;

— bosh pudratchi va bino qurilishida ishtirok etgan tashkilotlar va ular tomonidan bajarilgan ishlar to‘g‘risida ma’lumotlar;

— binoning texnik va arxitekturaviy qurilishi bo‘yicha xulosalar;

— binoning balans qiymati (qurilish ishlari qiymati, o‘rnatilgan uskuna va jihozlar qiymati alohida ko‘rsatilgan holda) va boshqalar moliyaviy ko‘rsatkichlar kiritiladi.

2) Binoning tuzilishi va undagi foydalaniladigan maydonlar to‘g‘risida ma’lumotlarga quyidagilar kiradi:

— Yer maydoni va unda joylashgan binoning kadastr chizmasi, aniq chegaralari (yo‘l va yo‘laklar, yer, ekinzor, daraxtzor va boshqalar) ko‘rsatilgan holda;

— binoning qavatlar kesimidagi kadastr chizmasi;

— binoning uskuna va inventarlar bilan jihozlanishi chizmasi (qavatlar kesimida);

— binoda o‘rnatilgan uskuna, mashina va mexanizmlarning har biriga alohida texnik—ekspluatatsion xarakteristika berilgan va doimiy foydalanish uchun texnik xizmat ko‘rsatish texnologiyasi keltirilgan dalolatnomalar;

— binoning ichki muxandislik tizimlari chizmasi (tarmoq va qavatlar bo‘yicha);

— binoning tashqa muxandislik tizimlari chizmasi va boshqalar.

3) Binodan foydalanishda xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha ma’lumotlarga:

— binodagi yong‘in xavfsizligi tizimi va uning tuzilishi;

— binodagi xabar berish (signalizatsiya) tizimi va ishlash printsipi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

— binoning seysmik chidamliligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar va boshqalar kiritiladi.

Binoning texnik pasportiga binoda amalga oshirilgan kapital ta’mirlash va rekonstruktsiya ishlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar kiritib boriladi. Binolarning texnik pasportini saqlanishi va to‘lbirib borilishi uchun bosh muhandis mas’ul hisoblanadi.

Binolarni texnik ekspluatatsiya qilish o‘z tarkibiga quyidagi vazifalarni oladi:

1. **Binolardan foydalanishni boshqarish**:

a) binolarning ekspluatatsiyasini tashkil etish;

b) turli xizmat ko‘rsatuvchi va mol etkazib beruvchi tashkilotlar bilan munosabatlarni olib borish;

v) binolardan foydalanuvchilar va xizmat ko‘rsatuvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni tashkil etish.

2. **Binoning qurilish konstruktsiyalari va muxandislik konstruktsiyalariga texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash:**

a). texnik xizmat ko‘rsatish hamda dispetcherlik va avariya xizmati;

b) binoni rejali nazoratdan o‘tkazish;

v) mavsumiy ekspluatatsiyaga tayyorgarlik;

g) joriy ta’mirlash;

d) kapital ta’mirlash.

3. **Tozalik sanitariya ishlari**:

a) umumiy foydalanish maydonlarida tozalikni ta’minlash;

b) bino hududida tozalikni ta’minlash;

g) ko‘kalamzorlashtirish va daraxtlarga ishlov berish.

O‘zbekiston Respublikasida uy-joy fondi tarkibiga kiruvchi ko‘p xonadonli binolardan foydalanishni tashkil etish va boshqarish Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari (XUJMSH) tomonidan amalga oshiriladi. XUJMSHlar nodavlat va notijorat tashkilot hisoblanib o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 30 maydagi 100-sonli Qarori bilan

tasdiqlangan «Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining namunaviy Ustavi»[1] ga muvofiq tashkil etadi.

Mahallar va qishloq joylaridagi alohida hovli joylardan foydalanishni tashkil etish va boshqarish bevosta uy egasining zimmasida bo'ladi.

a. XUJMSHlar binolarning ekspluatatsiyasini tashkil etish ishlari binoning texnik pasportida belgilangan me'yorlar va O'zbekiston Respublikasida «Turar joylar, kommunal va ijtimoiy-madaniy soha obyektlarida ta'mirlash, qayta tiklash va ularga texnik xizmat ko'rsatish ishlarini tashkil qilish» to'g'risidagi SHNQ 1.04.03-05 ga asosan amalga oshiriladi.

Binolarning ekspluatatsiyasini tashkil etishda bajariladigan ishlar ikki guruhga bo'linadi, birinchi guruhga domimiy: har kunlik va hafta davomida bajariladigan ishlarga kiradi. Bunday ishlar tarkibiga binoning umumiy foydalaniladigan maydonlari va hududni tozalash, sanitar ishlov berish, obodonlashtirish, tarnov va gryazoviklarni tozalash, qattiq maishiy chiqindilarni olib ketish kabilar kiradi. Ikkinchi guruhga muddatli va mavsumiy ishlarni amalga oshiruvchi tashkilotlar bilan shartnomalar tuzish kirib, ularga isitish tizimini yuvish va bosim ostida sinash, yong'in xavfsizligi va elektr tarmoqlarini sinovdan o'tkazish, kuch beruvchi va xizmat ko'rsatuvchi usukna va qurilmalar (lift, nasos, kompressor, ventelyatorlar kabilar)ga xizmat ko'rsatish kiradi.

b. Turli xizmat ko'rsatuvchi va mol etkazib beruvchi tashkilotlar bilan munosabatlar uch tomonlama va ikki tomonlama shartnomalar tuzish orqali amalga oshiriladi. Bevosta uy-joyga ko'rsatilayotgan kommunal xizmatlar uchun uy-joy mulkdorlari va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar o'rtasida shartnomaiar tuziladi. Binoning umumiy foyladaniladigan maydonlariga sanitar ishlov berish, liftlar, uskuna jihozlar, ko'chalarni yoritish, hududni

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 30-may 100-sonli "Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining namunaviy Ustavini hamda xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati bilan ko'p kvartirali uydagi turar joyga mo'ljallanmagan bino mulkdori o'rtasidagi namunaviy shartnomani tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori.

tozalash va maishiy chiqindilarni olib ketish kabi ishlarni bajarish XUJMSHlar va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar o'rtasida tuzilgan shartnomalarga asosan amalga oshiriladi.

v. Uy-joy mulkdorlari xonadonlaridan tashqari turarjoy binosida va XUJMSH hududida joylashgan barcha ijarachilar, shu jumladan kommunal xizmatlar va resurslardan foydalanuvchilar hamda xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasidagi munosabatlar shartnoma asosida tashkil etish. Shartnomalar Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 30- maydagi 100-son qarori bilan tasdiqlangan «Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati bilan ko'p kvartirali uydagi turar joyga mo'ljallanmagan bino mulkdori o'rtasidagi namunaviy shartnoma» XUJMSH va foydalanuvchi tashkilotlar o'rtasida tuziladi.

Binoga texnik xizmat ko'rsatish bino elementlari va bino ichki tizimlarini soz holatda saqlash, uning konstruktsiyalarini, jihozlar va texnik qurilmalarini belgilangan ko'rsatkichlarda va rejimda saqlash bilan bog'liq ishlar majmuasidan tashkil topadi.

Binolarga texnik xizmat ko'rsatish tizimi belgilangan miqdordagi materiallar va moliyaviy mablag'lardan foydalangan holda bino va muhandislik tizimlarining o'rnatilgan xizmat ko'rsatish muddati davomida soz holatda faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi.

Binoga texnik xizmat ko'rsatish uning holatini nazorat qilish, texnik soz holatda bo'lishini ta'minlash, muxandislik tizimlarini ta'mirlash, sozlash va ishga yaroqliligini ta'minlash kabi ishlardan tashkil topadi. Binoning texnik holati rejali va rejadan tashqari tekshirishlar o'tkazish orqali nazorat qilinadi.

Rejali tekshiruv o'z navbatida ikki turga: umumiy rejali tekshiruv va qisman (binoni kuzatish rejalashtirilgan qismini) tekshirishga bo'linadi. Binoni umumiy tekshirish har yili ikki marta - bahorda va kuzda, isitish tizimini ishga tushirish oldidan o'tkaziladi.

Binoga texnik xizmat ko'rsatish bilan bog'lik ishlar binoning qurilish va muxandislik loyihasidan kelib chiqib, bajarilish muddatlari ko'rsatilgan holda rejalashtirilib, unda haftalik, oylik va yillik ish hajmi belgilab beriladi.

Tayanch iboralar

Binoning ixtisoslashuvi, binoning tarmoq xususiyati, binoning ixtisoslashuvi ko'rsatkichlar, jamoatchilik-fuqarolik binolari, ijtimoiy va madaniy-maishiy binolar, turar joylarning tasnifi, binolarni qavatlar miqdoriga ko'ra guruhlari, turar joy binolari, respubika hududlarida iqlim ko'rsatkichlari, uy-joy qurilishida tejamkorlik, binolardan foydalanishning samaradorligi, bino qurilishiga boshlang'ich ruxsat beruvchi hujjatlar, uy-joy fondini texnik ekspluatatsiya qilish, binolarning texnik pasporti.

Nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Bino va inshootlar iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari faoliyatiga qanday ixtisoslashadi?

2. Binolarning tarmoq xususiyati nimalardan iborat?

3. Binolarning ixtisoslashuvi qanday asosiy ko'rsatkichlar bilan o'rganiladi?

4. Turar joy binolari qanday tasniflanadi?

5. Binolar qurilishida yerdan samarali foydalanish qanday usullar bilan o'rganiladi?

6. Turar uy-joylar konstruktiv tuzilishiga ko'ra qanday guruhlarga bo'linadi?

7. Binolar ulardagi qavatlar miqdoriga ko'ra qanday guruhlanadi?

8. Turar joy binolari qanday toifalarga bo'linadi?

9. Uy-joy qurilishida qo'llaniladigan asosiy tejamkorlik yo'llarini ayting,

10. Binolardan foydalanishni tashkil etishning qanday samarali yo'llari mavjud?

11. Binolar qurilishiga boshlang'ich-ruxsat berish hujjatlari tarkibiga nimalar kiradi?

12. Uy-joy fondini texnik ekspluatatsiya qilish qanday amalga oshiriladi?

13. Binolarning texnik pasportida qanday tuziladi va unda qanday ma'lumotlar mavjud bo'ladi?

V BOB. UY-JOY FONDINI TA'MIRLASH ISHLARINING ASOSIY TURLARI

5.1. Bino va inshootlarning jismoniy qayta tiklash ishlari tasnifi

Binoning barcha konstruktiv elementlari va muxandislik jihozlari foydalanish davomida vaqt o'tishi bilan jismoniy eskirib boradi. Binolardagi konstruktiv elementlari va muxandislik jihozlarini xizmat jarayoni ishtirok etish hamda tashqi va ichki ta'sirlanishiga ko'ra turli darajada eskirib boradi. Ta'mirlash ishlarining tashkil etilishi va ta'mirlash jarayonida binoning eskirishini qayta tiklash darajasiga ko'ra ta'mirlash ishlari quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Joriy ta'mirlash;
2. Kapital ta'mirlash;
3. Rekonstruktsiya qilish;
4. Qayta uskunalash va fondlarni yangilash;
5. Yangidan jihozlash.

Ammo, bino va inshootlarni ta'mirlash ishlarga loyiha-smeta hujjatlarini shakllantirishda va turli manbalardan mablag' ajratish ta'mirlash ishlari asosan uch guruhga bo'linadi. Bunda tamirlash ishlari joriy ta'mirlash, kapital ta'mirlash va rekonstruktsiya qilish ishlariga bo'linadi.

Buxgalteriya hisobida bino va inshootlarning eskirishi ularning umumiy xizmat muddatidan kelib chiqqan holda yagona me'yorda hisoblanadi. Amalda esa, bino va inshootlarning konstruktiv elementlari va muhandislik jihozlari bino faoliyatida ishtirok etishi va turli vazifalarni bajarishidan kelib chiqib ulardagi eskirish jarayonlari turlicha rivojlanadi. Shuning bilan birga bino va inshootlarning turli konstruktiv elementlari va muhandislik jihozlarini eskirish miqdorini qayta tiklash imkoniyati turli darajada bo'ladi. Bino va inshootlarning qayta tiklanishi mumkin bo'lgan

jismoniy eskirishi optimal me'yoridan ortiq darajani tashkil etsa uni ta'mirlagandan ko'ra yangilash yoki to'liq almashtirish arzonga tushadi. Masalan, bino faoliyati davomida uning poydevori eskirishini ta'mirlash yo'li bilan 5% atrofida qayta tiklash mumkin bo'lsa, krovlya (tom qoplamasi)ni 60% ekirganda ham ta'mirlash ishlariga sarflangan mablag'lar samara birishi mumkin. Bino va inshootlarni qayta tiklanishi mumkin bo'lgan jismoniy eskirish me'yoridan ortiq eskirishini hamma turdagi konstruktiv elementlarga qo'llab bo'lmaydi. Masalan, bino poydevori va uning tayanch (nesushiy) devorlarini kapital ta'mirlash aynan shunday binoni yangi qurish uchun sarflanadigan mablag'dan ko'proq mablag' talab etadi. Shu sababli bino va inshootlarni jismoniy eskirishini qayta tiklashda ta'mirlashning turiga qarab qayta tiklash foizi chegaralanadi (5.1. jadval).

5.1-jadval

Kapitallik darajasi 1-2 guruhga kiruvchi binolar jismoniy eskirishni konstruktiv elementlari va muxandislik jihozlarini turiga ko'ra ta'mirlash orqali eskirishni qayta tiklash imkoniyatlari

Konstruktiv element va muhandislik jihozlar nomi	Qayta tiklanishi mumkin bo'lgan jismoniy eskirishning maksimal chegarasi (% da)	Joriy ta'mirlash orqali qayta tiklanishi mumkin bo'lgan jismoniy eskirish (% da)	Kapital ta'mirlash orqali qayta tiklanishi mumkin bo'lgan jismoniy eskirish (% da)
Poydevorlar	35	5	25
Tayanch (nesushiy) devorlar	35	5	25
Devor va to'siqlar	40	20	80
Tom va qavatlar oralig' (temir-beton, yog'och va metall to'sinli) qoplamasi	35	5	20
Stropila	35	5	30
Krovlya	60	30	100
Pollar	33	25	100

Deraza va eshiklar	30	15	100
Ichki bezaklar	50	30	100
Boshqa konstruktsiyalar	44	10	30
Sovuq suv tarmog'i	50	10	100
Suv chetlatish oqova quvurlar	50	10	100
Issiq suv tarmog'i	50	10	100
Isitish tizimi	50	15	100
Gaz tarmog'i	20	10	100
Elektr-yoritish tizimi	30	15	100

5.1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdikiy bino va inshootlarning ayrim konstruktiv elementlarining jismoniy eskirishini kapital ta'mirlash orqali ham to'liq qayta tiklab bo'lmaydi.

Binoning konstruktiv elementlari va muxandislik jihozlari ta'mirlash jarayonida qayta tiklash imkoniyatidan kelib chiqqan holda ikki guruhga bo'linadi.

Birinchi guruhga kapital ta'mirlash jarayonida boshlang'ich jismoniy qobiliyati to'liq qayta tiklanmaydigan konstruktiv elementlar (poydevor, tayanch devorlar, qavatlar orasi tom yopqichlari va boshqalar) kiradi. Masalan, binoning poydevori 35 foizga qadar eskirgunga qadar binodan foydalanish mumkin va mazkur chegaradan o'tgandan keyin bino avariya holatida yoki foydalanishga yaroqsiz deyiladi. Ammo, kapital ta'mirlash orqali poydevorning jismoniy eskirishini 25% qayta tiklash mumkin bo'ladi yoki maksimal darajada eskirgan poydevorni o'zining dastlabki quvvatini 90 foiz qayta tiklash mumkin bo'ladi va u hech qachon yangilik davridagi darajada qayta tiklanmaydi.

Ikkinchi guruhga jismoniy eskirishi maksimal darajasi chegaralangan ammo kapital ta'mirlash jarayonida ularni to'liq yangilash imkoniyati mavjud bo'lgan konstruktiv elementlar va muxandislik jihozlari kiradi. Masalan, pollar maksimal darajada (13 foiz) eskirsa texnika xavfsizligni taminlash maqsadida chirigan va sinib ketish ehtimoli katta bo'lgan poldan foydalanish taqiqlanadi. Kapital ta'mirlash jarayonida esa pollarni to'liq ko'chirib tashlab yangidan pol yotqazish imkoniyati mavjud. Polning

konstruktiv elementlari binoning boshqa konstruktiv elementlariga ziyon keltiradigan tarzda bog'liq bo'lmaganligi sababli yangidan pol yotqazish jarayoni ular faoliyatiga zarar yetkazmaydi. Xuddi shuningdek, bino va inshootlarning muxandislik jihozlarini (sovuq va issiq suv hamada suv chetlatish oqova quvur tarmoqlari, isitish tizimi, gaz tarmog'i) kapital ta'mirlash jarayonida to'liq yangilash imkoni mavjud bo'ladi. Bunday jihozlarni yangilagandan keyin binoda pardozlash guruhiga kiruvchi ta'mirlash ishlarini bajarish lozim bo'ladi.

5.2. Uy-joy fondini joriy ta'mirlash

Joriy ta'mirlash ishlari — bino va inshootlar hamda ularning konstruktiv elementlari va muhandislik tizimlaridan samarali foydalanishni ta'minlash bilan bog'liq ishlardan tashkil topadi.

Uy-joy fondini joriy ta'mirlash ishlari binoning qismlari, konstruktiv elementlari, jihozlari va muhandislik tizimlari faoliyatini ta'minlash va ularni ekspluatatsiya qilish ko'rsatkichlarini qoniqarli darajada saqlab qolish maqsadida amalga oshiriladigan qurilish va tashkiliy texnik tadbirlardan iborat.

Binoning joriy ta'mirlash ishlarini bajarishni binoning holati, jismoniy eskirish darajasi va mahalliy shart-sharoitlardan kelib chiqib uch yildan besh yilgacha rejalashtirish mumkin. Ayrim hollarda, binoning texnik holatidan kelib chiqib, rejadan tashqari joriy ta'mirlash ishlari bajariladi.

Odatda binolarda joriy ta'mirlash ishlari bajarilganda tom yopqich materiallari 50%gacha, pol va pol qoplamalari 20% gacha, binoning qolgan konstruktsiya va muhandislik jihozlari 15%ga qadar almashtirilishi mumkin.

Foydalanishga yaroqlilik muddati joriy ta'mirlash muddatidan ortiq bo'lmagan bino elementlari va tashqi obodonlashtirish jihozlari joriy ta'mirlash jarayonida to'liq almashtiriladi.

Joriy ta'mirlash ishlari bino va inshootlarni ishga tushurilganida yoki to'liq kapital ta'mirlanganida kamida uch yildan keyin amalga oshiriladi. Bunga sabab, SHNK 3.01.04-04 - «Qurilishi tugullangan ob'yektlarni foydalanishga qabul qilib olish.

Asosiy tushunchalar»ga muvofiq foydalanishga qabul qilib olingan binoda kafolat muddatida yuzaga keluvchi nosozlik va topilgan kamchiliklar bosh pudratchi tomonidan tuzatilishi ko‘rsatilgan. Kafolatni ta’minlash maqsadida qurib ishga tushurilgan binoning umumiy qiymatidan 5 foiziga teng mablag‘ binoning sinov muddati tugagunga qadar qurilish tashkilotiga to‘lab berilmaydi.

Favqulotda holat ro‘y berishi, yoki binodan foydalanish texnologiyasining buzilishi natijasida binodan foydalanish imkoniyatini cheklovchi holat yuzaga kelganda rejalashtirilmagan joriy ta’mirlash ishlari amalga oshirilishi mumkin.

Joriy ta’mirlash va kapital ta’mirlash ishlariga binoda bajariladigan ishlar hajmini o‘lchovdan o‘tkazish yo‘li bilan tuzilgan nosozlik dalolatnomalariga asosan, loyihalarsiz smeta hujjatlari tuzish mumkin. Kapital va joriy ta’mirlash ishlari nosozlik dalolatnomalariga asosan tuzilgan smeta asosida bajarilsa ta’mirlash jarayonida binoga rekonstruktsion o‘zgartirish kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

XUJMSHlari tomonidan ekspluatatsiya qilinayotgan bino va inshootlar har yili ikki marta (bahorda va kuzda) maxsus komissiya tomonidan texnik nazoratdan o‘tkaziladi. Joriy ta’mirlash ishlari hajmi binolarning texnik holatini nazoratdan o‘tkazish jarayonida aniqlanib «Nosozlik dalolatnomasi» tuziladi. Odatda binoni mavsumiy foydalanishga tayyorlash maqsadida bajariladigan ta’mirlash ishlari ham joriy ta’mirlash hisoblanadi.

5.3. Bino va inshootlarni kapital ta’mirlash

Kapital ta’mirlash — binoning eskirgan qismlarini qayta tiklash, shu jumladan muxandislik konstruktsiyalarini va jihozlarini ta’mirlash, yangisiga almashtirish hamda foydalanish ko‘rsatkichlarini yaxshilash orqali binodan foydalanish quvvatini uning yangi ishga tushurilgan paytdagi quvvatiga yaqinlashtirishdan iborat.

Binoni kapital ta’mirlash ishlari o‘ziga xos murakkab va ko‘p mehnat talab qiluvchi jarayon bo‘lib uning texnologiyasi qurilish-montaj ishlari texnologiyasidan birmuncha farq qiladi. Kapital

ta'mirlashda maksimal darajada jismoniy eskirganligi va nurayotganligi sababli, binoning alohida qismlari, konstruktsiyalari va muhandislik jihozlari to'liq almashtiriladi.

Kapital ta'mirlash ikki guruhga bo'linadi:

— **to'liq (kompleks)** kapital ta'mirlash;

— **qisman** kapital ta'mirlash

To'liq kapital ta'mirlashda binoning barcha qismlari, konstruktsiyalari va muhandislik jihozlari to'liq qamrab olinadi. Binoning jismoniy va ma'naviy eskirishi to'liq qayta tiklanadi.

Kompleks kapital ta'mirlash binolarni ta'mirlashning asosiy shakli hisoblanadi.

To'liq kapital ta'mirlash muddatlari binolarning kapitallilik darajasidan kelib chiqiladi. Kapital ta'mirlashda binodan foydalanish muddati bilan birga uning texnik holati muhim ahamiyatga ega. Binoning texnik holatini o'rganish uchun «Shaharsozlik qoidalari va me'yorlari"ga muvofiq texnik ekspertiza qilinadi.

5.2-jadval

Binolardan foydalanishning o'rtacha davomiyligi

Kapitallilik darajasiga ko'ra binolarning turlari	O'rtacha foydalanish muddati (yilda)	
	Joriy ta'mirlashgacha	Kapital ta'mirlashgacha
Oddiy sharoitda: Poydevori: Temirbetonli, betonli, beton blokli Devori: G'ishtli, panelli, toshli va yirik blokli Tomi: Temir- betonli, metall storopilali	3-5	20-25
Murakkab tabiiy-iqlim sharoitida Poydevori: Temirbetonli, betonli, beton blokli Devori: G'ishtli, panelli, toshli va yirik blokli Tomi: Temir- betonli, metall storopilali	3-5	15-20
Oddiy sharoitda: Poydevori: Temirbetonli, betonli, beton blokli, g'ishtli Devori: Shlako-blokli, engil g'isht va engil toshli Tomi: Yog'och storopilali	2-3	15-20

Murakkab tabiiy-iqlim sharoitida Poydevori: Temirbetonli, betonli, beton blokli, g'ishtli Devori: Shlako-blokli, yengil g'isht va yengil toshli Tomi: Yog'och storopilali	2-3	12-15
Oddiy sharoitda: Poydevori: G'ishtli, yog'ochli, toshli, xarsangtosh qotishmali, stolbali Devori: Yog'och qovurg'ali, aralash (yog'och-g'ishtli), paxsa devorli, xom g'isht Tomi: Yog'och stropilali	2-3	8-12
Murakkab tabiiy-iqlim sharoitida Poydevori: G'ishtli, yog'ochli, toshli, xarsangtosh qotishmali, stolbali Devori: Yog'och qovurg'ali, aralash (yog'och-g'ishtli), paxsa devorli, xom g'isht Tomi: Yog'och stropilali	1-2	6-8

Qisman kapital ta'mirlash — binoning ma'lum qismini yoki ma'lum bir turkumdagi muxandislik tizimini ta'mirlash ishlarini o'z ichiga oladi. Bunda binoning kapital ta'mirlashga muhtoj qismi tanlanadi. Tanlama kapital ta'mirlashda binoning ta'mirga muhtoj bo'lgan bir qismi, konstruktiv elementi, yoki jihozlari tanlab olinadi va ular to'liq qayta tiklanadi. Odatda bunday ta'mirlash ishlari binolarning konstruktiv elementlari va muxandislik tizimlari bo'yicha amalga oshiriladi. Shu sababli binolarning alohida konstruktiv elementi va muhandislik tizimlaridan foydalanish muddatini o'rganish muhim ahamiyatga ega (5.3- jadval).

5.3- jadval

Binolarning konstruktiv elementlari va muhandislik tizimlarining o'rtacha xizmat muddatlari

Konstruktiv elementlar va muhandislik tizimlar nomi	O'rtacha kapital ta'mirlash muddatlari (yilda)	
	Oddiy sharoitda	Murakkab (zax yuqori) tabiiy-iqlim sharoitida
1. Poydevorlar: *beton va temirbeton*	50-60	25-30
tosh va g'isht	40-50	20-25

yog'och, to'sin va boshqa	10-15	8-12
2. Devorlar: *g'isht, tosh va donali materillar*	20-25	15-18
yengil tosh va g'ovak materillar	12-15	8-12
yog'och, taxta	15-20	12-15
yog'och karkasli, shitli	12-15	8-12
loy, somonli	8-12	6-8
Ustunlar (kolonnalar) *Metall*	50-60	40-45
Temirbeton	50-60	40-45
G'isht	20-25	15-18
asosga o'rnatilgan yog'och	15-18	10-15
yerga o'rnatilgan yog'och	10-15	8-12
Fermalar *Metall*	25-30	15-20
Temirbeton	20-25	15-20
Yog'och	15-20	12-15
Qavatlar ustki to'siqlari *temirbeton plitalar*	40-50	25-30
Yog'och	20-25	15-20
Tom yopqichlar		
Metall	10-15	5-8
Shifer	15-20	15-20
Rulonli	8-10	4-8
Pol		
sement va betonli	5-8	2-5
Keramika	15-20	12-15
tosh terilgan	10-12	8-10
Yog'och	8-10	6-8
Parket	8-10	6-8
Linoleumli	5-6	5-6
Proem (eshik-deraza)lar		
metall asosli	30	20
yog'och asosli	15	10
Eshiklar	10	10
Darvoza	8	8
Ichki suvoq	15	10

metall asosli	30	20
yog'och asosli	15	10
Eshiklar	10	10
Darvoza	8	8
Ichki suvoq	15	10
Fasad suvog'i	10	8
Isitish tizimi	15	12
Issiq suv va kanalizatsiya	15	12
Elektr-yoritish tizimi	15	12

Bundan tashqari, bino va inshootlarning texnik holati, ularning loyihasi va rejalashtirilishi hamda obodonlashtirilganlik darajasidan kelib chiqib quyidagi ta'mirlash ishlari amalga oshiriladi:

— asosan muxandislik jihozlarini almashtirish ishlari bajariladigan kapital ta'mirlash;

— navbatdagi rejali kapital ta'mirlashgacha qoldirish chorasi bo'lmagan qisman kapital ta'mirlash, shuningdek, bino tomini, fasadini va muhandislik jihozlarini kapital ta'mirlash;

— kutilmagan holatlarda ro'y bergan avariya (muhandislik tizimlaridan kuchli suv toshishi, tabiiy ofatlar tufayli bino konstruktsiyasi va muxandislik jihozlariga ziyon yetishi) natijalarini bartaraf etish bo'yicha kapital ta'mirlash;

— yaqin vaqtlar mobaynida buzib tashlash imkoni bo'lmagan ammo xizmatini o'tab, avariya holiga kelgan binodan vaqtinchalik foydalanish uchun kapital ta'mirlash.

5.4. Bino va inshootlarni rekonstruktsiya qilish, qayta uskunalash va yangidan jihozlash

Binoning konstruktsiyasi va texnik loyihasiga o'zgartirish kiritish natijasida texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari o'zgarishiga (xonalar soni yoki maydoni, qo'shimcha foydalaniladigan maydon o'zgarishi, bino fasadi, qavatlari soni ko'payishi yoki kamayishi va hokazo) olib keladigan kapital ta'mirlash binoni rekonstruktsiya qilish deb ataladi.

Bino va inshootlarni rekonstruktsiya qilish jarayonida binoning eskirgan qismlarini to'liq qayta tiklash bilan birga uning konstruktiv

ko'rinishiga o'zgartirish kiritiladi va binoning iqtisodiy samaradorligini oshiruvchi ko'rsatkichlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritiladi. Rekonstruktsiya jarayonida binoning bir qismi yoki muhandislik tizimi buzilishi (demontaj qilinishi), yangidan qurilishi hamda binoga qo'shimcha qurilishi mumkin.

Rekonstruktsiya ishlarini amalga oshirish uchun binoning ishchi loyihalariga binoning tarxini o'zgartirish, arxitekturaviy dizaynini yaxshilash, muxandislik uskunalari samaradorligini oshirish bilan bog'liq o'zgartirishlar kiritiladi. O'zgartirilgan loyiha asosida smeta hujjatlari tayyorlanadi.

Binolarni rekonstruktsiya qilish ishlarini tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 5 avgustdagi 305-son Qaroriga muvofiq tayyorlangan va O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasining 2001-yil 15-maydagi 1-son Qarori bilan tasdiqlangan «Investitsiya loyihasi uchun boshlang'ich-ruxsat berish hujjatlarining tarkibi, ularni ishlab chiqish, kelishtirish va tasdiqlash to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq amalga oshiriladi. Rekonstruktsiya ishlariga boshlashga ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi yangi bino va inshootlarni qurish tartibiga asosan bajariladi.

Hozirgi fan va texnika jadal taraqqiy etib borayotgan bir sharoitda iqtisodiyotning barcha sohalari kabi qurilish va uy-joy, kommunal xo'jaligi sohalariga ham yangi texnika va texnologiyalar kirib kelmoqda. Buning oqibatida bino va inshootlardan foydalanish samaradorligini oshirish, kommunal xizmatlarni tashkil etish, uy joy fondida qo'shimcha qulayliklar yaratish va xonadonlarning obodonlashganlik va shinamlik darajalarini oshirish maqsadida hozirgi kun katta hajmdagi rekonstruktsiya, qayta uskunalash va yangidan jihozlash ishlarini amalga oshirilmoqda.

Rekonstruktsiya singari **binoni qayta uskunalash** ham kapital ta'mirlash ishlari guruhiga kiradi. Turarjoy binolarida asosan lift, kompressor, markazlashgan sovitish qurilmasi, ventelyatsiya va turli xildagi nasoslar singari uskunalardan foydalanilsa, kommunal xizmat ko'rsativchi korxonalarda ko'rsatilayotgan xizmat turidan kelib chiquvchi turli-tuman ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish mashina va uskunalaridan foydalaniladi. Qayta uskunalash

jarayonida binodagi mavjud (faoliyat ko‘rsatayotgan va ishga yaroqsiz) uskunalarni demontaj qilish, yangi uskunalarni o‘rnalish uchun maydonchalar (platforma) tayyorlash, uskunalarni o‘rnatish (montaj qilish) va ular faoliyatini ta’minlovchi kommunikatsiyalarni yaratish kabi qurilish ishlari amalga oshiriladi. Qayta uskunalash jarayonida alohida e’tiborni qaratilishi lozim bo‘lgan jarayon shundan iboratiki, uskunalarni demontaj qilish va maydonchani tayyorlash bilan bog‘liq ishlar qurilish ta’mirlash ishlari tarkibiga kirib bino qoldiq qiymatiga qo‘shiladi. Yangi uskunalarni o‘rnatish va ishga tushurish bilan bog‘liq xarajatlar esa bino qiymatiga emas o‘rnatilgan uskunalar qiymatiga qo‘shiladi va o‘rnatish-ishga tushurish (pusko-naladochnoy) xarajatlari deb ataladi.

Qayta uskunalashda eng avvalo energiya tejamkor texnika va texnologiyalarni joriy etishga erishiladi. Shu sababli mamlakatimizda kommunal xo‘jaligi korxonalari va uy-joy fondini qayta uskunalash ishlariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Buning misolini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 17-yanvardagi «Respublika budjetidan va mahalliy budjetlardan moliyalashtiriladigan korxonalar va tashkilotlarning ma’naviy eskirgan va tejamsiz bug‘ qozoni agregatlarini 2007–2008-yillarda respublika mintaqalari bo‘yicha almashtirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 7-sonli Qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 3 yanvardagi «O‘zbekiston Respublikasi uy-joy fondini sovuq va issiq suv hisoblagich asbob-uskunalari bilan jihozlash» investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-553 sonli Qarorlari ijrosini ta’minlash yuzasida olib borilayotgan ishlar misolida ko‘rish mumkin.

Bino va inshootlarni **yangidan jihozlash ishlari** kapital ta’mirlash ishlari tarkibiga kiritiladi. Bunga sabab har qanday binoda faqat kapital tamirlash ishlarini bajarish orqali uning yangi qurilganidagi to‘la quvatiga erishib bo‘lmaydi. Bunga sabab har qanday bino va inshootlar singari ulardagi jihozlar ham faoliyati davomida bino va inshootlardan tezroq eskiradi va ishdan chiqadi. Ko‘pgina hollarda binoni kapital ta’mirlash muddatini kutib o‘tirmasdan yangi jihozlar olinadi, ammo aksariyat hollarda bino va inshootlarning kapital loyiha smeta hujjatlarida ularni yangidan

jihozlash ko‘zda tutiladi. Yangidan jihozlash ham qo‘shimcha ta’mirlash (jihozlarni yangi modefikatsiyalarini tashib keltirish, yig‘ish, montaj qilish, o‘rnatish kabi) ishlarini talab etadi. Albatta yangi rekonstruktsiya qilingan va kapital ta’mirlangan kollej yoki o‘rta maktabni yangi jihozlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Jihozlar o‘z funktsional vazifalariga ega bo‘lishlari bilan bir qatorda binoga alohida fayz bag‘ishlaydilar. Albatta, binoni did bilan jihozlash o‘z navbatida undan foydalanish samaradorligini oshirilishiga olib keladi. Shu sababli binodan oqilona foydalnish va barcha qulayliklarni optimal qo‘llash alohida fan darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, bu fan «Ergonomika» deb ataladi. Ergonomik mutaxasislar binoda yorig‘lik tushishi, havo almashinishi, isitish tizimi, ko‘rinish (panarama), eshitish, texnika va yong‘in xavfsizliklar kabi ko‘plab omillarni inobatga olgan holda binodagi har bir xonani qulay va me’yor asosida jihozlashni ta’minlaydilar.

5.5. Ta’mirlash jarayonida bajarilgan ishlar hajmi va pudratchiga to‘lanayotgan mablag‘lar monitoringini olib borish

Ko‘p hollarda buyurtmachi va pudratchi tashkilotlar o‘rtasida bajarilgan ishlar uchun mablag‘ to‘lovi masalasida kelishmovchiliklar yuzaga keladi. Ta’mirlash jarayonini reja asosida borishi pudratchi tashkilotni doimo yetarli mablag‘ bilan ta’minlab turishga bog‘liq.

Pudratchini mablag‘ bilan ta’minlashda «Kapital qurilish jarayonida qatnashchilar o‘rtasida o‘zaro hisob-kitob qilish tartibi» to‘g‘risidagi Nizom talablaridan kelib chiqiladi. Ob’yektda ta’minlash ishalarining dastlabki bosqichida 30% va ob’yekt yakunlangunga qadar 50% miqdorida moliyalashtirish nazarda tutiladi. Qolgan 50% mablag‘ esa ob’yekt foydalanishga topshirilgandan keyin (bir oy muddatda 45%, kafolat muddati tugagach 5% miqdorda) to‘lanishi belgilangan.

Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari kabi uy-joy xo‘jaligida ham ko‘pgina hollarda pudratchi tashkilotlar tomonidan ajratilgan mablag‘ to‘la o‘zlashtirilmasdan yoki kam hajmdagi ishlarni

bajarib, bajarilgan ishlar to‘g‘risidagi dalaolatnomada katta miqdordagi mablag‘ni o‘zlashtirilganligini rasmiylashtirish hollari ko‘p uchraydi. Natijada mablag‘ yetishmovchiligi sababli qurilish-ta’mrlash ishlarida uzulishlar yuzaga keladi.

Uzoq davom etuvchi ta’mirlash jarayonida ajratilgan mablag‘dan samarali foydalanish qurilish-ta’mirlash ishlarini kalendar reja asosida to‘xtovsiz davom etishini ta’minlash zarur. Buning uchun buyurtmachi tomonidan bajarilgan ishlar va ajratilgan mablag‘lar ustidan doimiy nazorat olib borish lozim bo‘ladi.

Ta’mirlash jarayonida buyurtmachi va nazorat qiluvchi tashkilotlar tomonidan qurilish-ta’mirlash ishlarining kalendar reja ko‘rsatkichlarini haqiqatda bajarilgan ish hajmi bilan solishtirib borish lozim bo‘ladi.

Guruhlar bo‘yicha qurilish-ta’mirlash ishlarini kalendar rejaga nisbatan bajarilishini har kunlik (har haftalik, har dekadalik) va har oylik nazoratini olib borish mumkin.

Bunday tahlilni qurilish-ta’mirlash ishlarining har bir guruhiga kiruvchi ishlar bo‘yicha olib borish maqsadga muvofiq. Bunda qurilish ishlari guruhlarga bo‘linib, har bir guruhda umumiy ish hajmi aks ettiriladi. Buning uchun guruhdagi har bir ish turiga sarflanadigan kishi/soatlari miqdoridan foydalaniladi.

Ob’yektni qurilish yoki ta’mirlashga ajratilgan mablag‘ni kishi/soati hisobida bajarilgan ish hajmi bilan taqqoslash orqali pudrat tashkiloti tomonidan ajratilgan mablag‘ni o‘zlashtirish suratini nazorat qilish mumkin.

Bunda qurilish-tamirlash ishlarini bajarilganligi to‘g‘risida dalolatnoma rasmiylashtirilgan miqdorini haqiqatda bajarilgan ish hajmi bilan solishtirib boriladi. Dalolatnomada rasmiylashtirilgan va haqiqatda bajarilgan ish hajmi o‘rtasidagi tafovutni quruvchilarga ish haqi hisoblash uchun to‘ldirilgan tabellardagi jami bajarilgan ishlar vaqtini (kishi/soati, kishi/kunini) jamlab shu guruhdagi qurilish ishlarini bajarish uchun belgilangan umumiy vaqt fondiga nisbatan solishtirish orqali aniqlasa ham bo‘ladi.

Aytaylik qurilish ob’yektining loyiha-smetasi bo‘yicha umumiy qiymati 3 mlrd. 98 mln so‘m. Resurs smetalari bo‘yicha sarflanadigan vaqt birligi yig‘indisi 287808 kishi/soat.

5.4- jadval

_____ ning _____

(XUJMSH nomi) (binoning (ob'yekt) nomi)

Qurilish-ta'mirlash ishlari kalendar grafigi bo'yicha bajarilgan ishlar va ajratilgan mablag'lar monitoringi

№	Loyiha smeta bo'yicha belgilangan ishlar nomi	Smeta bo'yicha umumiy qiymati (ming so'mda)	Smeta bo'yicha ish hajmi (kishi soatida)	Yanvar				Fevral			
				Ajratilgan mablag'		Bajarilgan ish hajmi		Ajratilgan mablag'		Bajarilgan ish hajmi	
				Jami ajratilgan mablag' (ming so'mda)	Smeta bo'yicha umumiy qiymatiga nisbatan %da	Jami (kishi/soatda)	Smeta bo'yicha ish hajmiga nisbatan %da	Jami ajratilgan mablag' (ming so'mda)	Smeta bo'yicha umumiy qiymatiga nisbatan %da	Jami (kishi/soatda)	Smeta bo'yicha ish hajmiga nisbatan %da
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
1	Qurilish-ta'mirlash ishlari maydonchasini tayyorlash										
2	Poydevorni qurish-ta'mirlash ishlari										
3	Devor va to'siqlarni qurish-ta'mirlash ishlari										
4	Proemlar (deraza va eshiklar)										
5	Tom (krovlya) Ishlari										
6	Pol yotqizish, ta'mirlash ishlari										

7	Suv ta'minoti, kanalizatsiya va isitish tizimi, ventilyatsiyasi										
8	Elektromontaj tizimi ishlari										
9	Pardozlash ishlari										
10	Tashqi muhandislik kommunikatsiyalari										
11	Jihozlash ishlari										
12	Obodonlashtirish ishlari										
13	Boshqa ishlar (binoni foydalanishga tayyorlash)										
14	Jami ob'yekt bo'yicha:										

Mahalliy hokimiyat (injenerning kompaniya) vakili _____ muhr
(imzo)

_____ ning vakili _____ muhr
(XUJMSH nomi) (imzo)

Pudrat tashkiloti rahbari _____ muhr
(imzo)

Haqiqatda pudratchiga to‘langan mablag‘ 930 mln. so‘m. Barcha guruhlar bo‘yicha bajarilgan ishlar hajmi 63300 kishi/soatga teng.

Taqqoslash uchun to‘langan mablag‘ va bajarilgan ish hajmining foizdagi miqdorini quyidagi formulalardan foydalanib topamiz:

1) Mablag‘ hajmi:

— obyektining loyiha-smetasi bo‘yicha umumiy qiymati;

— haqiqatda to‘langan mablag‘.

2) Bajarilgan ish hajmi:

— Resurs smetalari bo‘yicha sarflanadigan vaqt yig‘indisi, kishi/soatda;

— bajarilgan ishlar hajmi, kishi/soatda.

Demak: To‘langan mablag‘:

Bajarilgan ish hajmi:

Ushbu natija pudrat tashkilotiga qurilish qiymatining 30% mablag‘ o‘tkazilganligini va amalda 22% ish bajarilganini ko‘rsatadi.

Pudrat tashkilotiga to‘langan mablag‘ miqdorini bajarilgan ishlar hajmi bilan har oyda bir marta, quruvchilar mehnatiga haq to‘lash bo‘yicha ta’bel to‘ldirilgan sanada tekshirib boriladi. Puratchi tashkilotning ajratilgan mablag‘larni o‘zlashtirishi va bajarilgan ishlar hajmi tahlili to‘g‘risidagi ma’lumot mas’ul xodimlar tomonidan o‘rnatilgan tartibda tasdiqlangan holda har oyda buyurtmachiga taqdim etib boriladi.

Qurilish ishlarini kalendar grafik bo‘yicha bajarilishi va ajratilgan mablag‘larning bajarilgan ishlar hajmiga muvofiqligi monitoringini 5.4-jadvalda keltirilgan shaklda olib boriladi.

Tayanch iboralar

Bino va inshootlarning jismoniy qayta tiklash, konstruktiv elementlar, muhandislik jihozlari, joriy ta’mirlash, kapital ta’mirlash, to‘liq kapital ta’mirlash, qisman kapital ta’mirlash, rekonstruktsiya qilish, qayta uskunalash, fondlarni yangilash, yangidan jihozlash kapitallik darajasi, binolardan foydalanishning o‘rtacha davomiyligi, o‘rtacha xizmat muddatlari, rekonstruktsiya ishlarini tashkil etish, binoni qayta uskunalash, bajarilgan ishlar hajmi, to‘lanayotgan mablag‘lar monitoringi.

Nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Bino va inshootlarning jismoniy qayta tiklash ishlari qanday tasniflanadi?

2. Ta'mirlash ishlari qanday guruhlarga bo'linadi?

3. Binoning konstruktiv elementlariga nimalar kiradi?

4. Binoning muhandislik jihozlariga nimalar kiradi?

5. Binolar kapitallik darajasi bo'yicha qanday guruhlanadi?

6. Qayta tiklanishi mumkin bo'lgan jismoniy eskirish nima?

7. Maksimal eskirish chegarasi qanday o'rganiladi?

8. Uy-joy fondini joriy ta'mirlash ishlariga nimalar kiradi?

9. Kapital ta'mirlash ishlariga nimalar kiradi?

10. Kapital ta'mirlash ishlari qamrovi jihatidan qanday guruhga bo'linadi?

11. Bino va inshootlarda qanday noananviy ta'mirlash ishlari amalga oshirilishi mumkin?

12. Bino va inshootlarni rekonstruktsiya qilish deganda nima tushuniladi?

13. Binoni qayta uskunalash nima?

14. Binoni yangidan jihozlashda qanday ishlar amalga oshiriladi?

15. Ta'mirlash jarayonida bajarilgan ishlar hajmi qanday o'rganiladi?

16. Pudratchidarga to'lanayotgan mablag'lar monitoringi qanday olib boriladi?

3-BO‘LIM. KOMMUNAL XIZMATLAR VA ULARNING TASHKILIY-IQTISODIY ASOSLARI

Bo‘limda keltirilgan mavzular talabalarda:

— kommunal xo‘jaligi tizimining tashkiliy tuzilishi va tarkibi;

— uy-joy fondiga ko‘rsatiladigan kommunal xizmatlarni tashkil etish;

— suv, elektr energiyasi, gaz ta’minotini tashkil etish;

— kommunal xo‘jaligi tizimida obodonlashtirish ishlari;

— ko‘kalamzorlashtirish xizmatlari va ularni tashkil etish to‘g‘risida **tasavvur hosil qiladi.**

Talabalar:

— uy-joy xo‘jaligida bahoni shakllantirish;

— aholining kommunal xizmatlardan foydalanish me’yorlari va ularni hisoblash uslublari;

— uy-joy xo‘jaligida suv, issiqlik energiyasi, tabiiy gaz iste’moli me’yorlarni aniqlash to‘g‘risida **bilimga ega bo‘ladilar.**

Talabalarda:

— aholining foydalangan kommunal xizmatlari uchun hisob-kitobni tashkil etish;

— iste’molchilarga suv, issiqlik energiyasi, tabiiy gaz, elektr energiyasi yetkazib berish bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish;

— yetkazib berilgan resurslar va energiya uchun XUJMSHIar va kommunal xo‘jaligi tashkilotlari bilan hisob-kitoblarni tashkil etish;

— maishiy abonentlar tomonidan foydalanilgan elektr energiyasi uchun hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi **to‘g‘risida malaka va ko‘nikma shakllanadi.**

VI BOB. KOMMUNAL XO‘JALIGI TARKIBI VA KOMMUNAL XIZMATLARNI TASHKIL ETISH

6.1. Kommunal xo‘jaligi tizimining tashkiliy tuzilishi va tarkibi

Kommunal xo‘jaligi ma’lum bir chegaraga ega bo‘lgan hududda (shahar, shaharcha, aholi yashash markazlari va boshqalar) shakllangan, ko‘p tarmoqli ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalari yig‘indisidan tashkil topadi. Uning tarkibiga aholi, korxona va tashkilotlar hayotiy ehtiyojini qondiruvchi muhandislik tizimlari (suv ta’minoti va oqovasuv tizimi, issiqlik, elektr energiyasi, gaz ta’minoti tizimlari), turarjoy binolari hududida sanitariya va ozodalikni ta’minlash (hududni tozalash, qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash, tashish va qayta ishlash), ta’mirlash, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish (bino va inshootlarni ta’mirlash, yo‘l va yo‘laklar qurish-ta’mirlash, hududni ko‘kalamzorlashtirish va boshqalar) xizmatlari kiradi.

Har bir shahar kommunal xo‘jaligining tarkibiy tuzilmasi o‘ziga xos, shahar xususiyatidan kelib chiqib har xil bo‘lib, uning tuzilishiga ko‘plab ko‘rsatkichlar ta’sir ko‘rsatadi. Kommunal xo‘jaligi tizimining tarkibiy tuzilishiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy ko‘rsatkichlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

— **iqtisodiy faktorlar** (moliyaviy mablag‘lar mavjudligi va aylanish tezligi, hududning iqtisodiy mustaqillik darajasi, iqtisodiy boqimandalik ko‘rsatkichlari, resurslar va ishlab chiqariladigan mahsulotlarga sarflanadigan o‘rtacha mehnat sig‘imi va ularning tannarxi, soliqlar va mahalliy yig‘imlarning miqdori, aholining o‘rtacha daromadi, korxonalarning moliyaviy imkoniyatlari va to‘lov qobiliyatlari, aholining to‘lov qobiliyati, kommunal xizmatlar qiymatini aholining o‘rtacha daromadidagi ulushi va boshqalar;

— **ijtimoiy faktorlar** (hududning ijtimoiy tinchligi, mehnatga layoqatli aholi tarkibida ishsizlik darajasi, aholining ijtimoiy tarkibi, milliy xususiyatlari, ananalari, urf-odatlari va boshqalar);

— **demografik holat** (aholining zichligi, yashash sharoitiga moslashganligi, ya'ni asosan ko'p qavatli uylar yoki mahallalarda yashashga ko'nikkanligi, yoshi va jinsi bo'yicha tabaqalanishi, oilalar soni, oilalarda o'rtacha farzandlar soni);

— **ishlab chiqarishning rivojlanganligi** (ishlab chiqarishning tarmoq tarkibi, ma'lum sohalarga yo'naltirilganligi, transport tarmoqlarining mavjudligi, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalarning rivojlanganligi va boshqalar;

— **geografik shart-sharoit** (shaharning hududiy joylashuvi, tabiiy-iqlim, hudud va shahar atrofida foydali qazilmalar va xomashyo boyliklarning joylashuvi, suv havzalari va daryolarning mavjudligi va joylashuvi, hududning ko'kalamzorlashganligi, tabiiy sharoit va boshqalar;

— **ekologik muhit** (atmosfera va suv havzalariga chiqarilayotgan kontsentratlarning mumkin bo'lgan me'yori, ishlab chiqarish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotga qo'yiladigan ekologik talab, atrof-muhitning ifloslanganlik darajasi, ichimlik suvi zahirasi hamda sifati va boshqalar).

Yuqorida sanab o'tilgan omillar aniq olingan shaharga nisbatan o'rganilganda ular faqatgina kommunal xo'jaligi infratuzilmasi shakllanishiga ta'sir ko'rsatib qolmay, balki uning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini ham belgilaydi.

Shahar uy-joy kommunal xo'jaligi tizimining o'ziga xosligi shundaki, u bir vaqtning o'zida ko'pgina chegaralangan imkoniyatlar majmuini qoniqtirishi zarur. Birinchidan, kommunal xo'jaligining hamma tarkibiy tuzilmasi mahalliy shart-sharoit, shaharning hududiy kattaligi va joylashuvidan kelib chiqqan holda shakllanadi. Ikkinchidan, amalga oshiriladigan xizmatlar va ishlab chiqariladigan tovarlar qurilishning texnik-iqtisodiy me'yorlari (QMQ), texnik va ekologik talablar bilan chegaralanadi, bu esa texnologiyaga qat'iy rioya etishni va muhandislik jihozlarining soz holda saqlanishini talab etadi. Uchinchidan, kommunal xo'jaligining rivojlanishi moliyaviy resurslarga bog'liq bo'lib, u o'z

navbatida aholining to'lov intizomi hamda korxona va tashkilotlarda moliyaviy muhitning yaxshiligiga bog'liq. Bozor iqtisodiyoti sharoitida o'z vaqtida to'lovning amalga oshirilmasligi tezda korxonaning ish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. O'z vaqtida muhandislik jihozlari, filtrlar, nasoslar yoki qozonxona jihozlarining almashtirilmasligi kommunal xo'jaligi korxonalarida mehnat samaradorligining pasayishiga, kommunal xizmatlar qiymatining oshib ketishiga va texnik avariya holatlarining yuzaga kelishiga olib keladi.

Zamonaviy shahar xo'jaligida uy-joy kommunal xo'jaligi sohasi tarkibiga kiruvchi xizmatlar yildan-yilga ko'payib borayotgan bo'lsa-da, kommunal xizmatlarning umumiy hajmida asosiy ulushni quyidagi xizmatlar tashkil etadi:

1. Suv ta'minoti va oqova-quvur xizmati;
2. Issiqlik energiyasi ta'minoti;
3. Gaz ta'minoti;
4. Elektr energiya ta'minoti;
5. Sanitariya va tozalikni ta'minlash xizmatlari;
6. Qattiq maishiy chiqindilarni tashish va qayta ishlash;
7. Muhandislik tizimlari va inshootlari (lift, havoni shamollatish-sovitish va boshqalar)ga xizmat ko'rsatish korxonalari;
8. Ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish.

Mazkur xizmatlarni ko'rsatuvchi korxonalar iqtisodiyotining turli tarmoqlari tasarrufida ekanligi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonining texnologik jihatidan bir-biriga mutlaqo o'xshash emasligi ularni ma'lum guruhlarga bo'lib iqtisodiy faoliyatini o'rganish imkonini bermaydi. Shu sababli kommunal xizmatlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda alohida-alohida o'rganish maqsadga muvofiq.

Respublikamizda kommunal xo'jaligi tizimining faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish «O'zkommunxizmat» agentligi tomonidan amalga oshiriladi.

Agentlik respulikamizda kommunal xizmat tizimida islohotlarni yanada chuqurlashtirish, aholini ichimlik suv, tabiiy gaz va kommunal xizmatlar bilan barqaror ta'minlash, aholiga kommunal xizmat ko'rsatish masalalarida mahalliy davlat boshqaruvi hamda

fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining ahamiyati va mas’uliyatini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 19-dekabrdagi PF-2791 sonli Farmoniga muvofiq tashkil etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 17-avgustdagi 445-sonli «O‘zkommunxizmat» agentligi faoliyatini takomillashtirish va kommunal xo‘jalik korxonalarini moliyaviy sog‘lomlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qaroriga muvofiq agentlik faoliyati takomillashtirildi. Agentlikning Mintaqalararo suv quvurlaridan foydalanish bosh direktsiyasi tugatilib uning tarkibiga kiruvchi Mintaqalararo suv quvurlaridan foydalanish boshqarmalari bevosita O‘zbekiston «O‘zkommunxizmat» agentligiga bo‘ysunadigan bo‘ldi.

O‘zbekiston «O‘zkommunxizmat» agentligining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

— kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, zamonaviy talablarga javob beradigan qonunchilik va normativ-huquqiy bazani shakllantirish bo‘yicha davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda qatnashish, xo‘jalik yurituvchi subyektlar va aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida raqobat muhitini yaratishga ko‘maklashish;

— kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida yagona texnikaviy siyosatni o‘tkazish, kommunal tarmoqlar va korxonalarni rivojlantirish, texnik qayta jihozlash va modernizatsiyalashga investitsiyalarni, shu jumladan xorijiy investitsiyalarni jalb etishga ko‘maklashish, ilg‘or zamonaviy texnologiyalar, mashina va uskunalarni tadbiq etish, suv va issiqlik energiyasini sotish hamda iste’mol qilish bo‘yicha hisoblagichlar va nazorat asbob-uskunalari bilan jihozlash;

— mintaqalararo suv quvurlari faoliyatini muvofiqlashtirish, ulardan samarali foydalanish, ishonchli va barqaror ishlashini ta’minlash, kommunal xo‘jalik tizimida tarmoqlar hamda asbob-uskunalarni kapital va joriy ta’mirlashni tashkil etish;

— kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish.



6.1- rasm. O'zbekiston «O'zkommunxizmat» agentligi tashkiliy tuzilmasi.

6.2. Uy-joy kommunal xo‘jaligida suv ta’minoti va oqova quvur xizmati

Suv bu hayot manbaidir. Uy-joy xo‘jaligini hamda korxona va tashkilotlarda ishlab chiqarish jarayonini suv ta’minotisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Suv xo‘jaligi tarkibiga suv yig‘ish havzalari, suvni tindirish va tozalash inshootlari, nasos stantsiyalari, artizan quduqlar, suv yig‘ish minoralari, suv magistrallari, uzatish tarmoqlari kiradi. Suv ta’minotida ushbu vazifalarni nisbatan alohida funktsiyalarni bajaruvchi mustaqil korxonalar amalga oshiradi. Ularning hamjihatlikdagi faoliyati uzluksiz suv ta’minotini amalga oshirish imkonini beradi.

Suv yetkazish tarmog‘ining asosiy ko‘rsatkichi iste’molchilarga suv yetkazishdir. Suv yetkazish tarmog‘ining ishlab chiqarish quvvati suv yetkazishning me’yorlashtiruvchi elementlari — suv yetkazib berish, birinchi va ikkinchi bosqich nasos stantsiyalari faoliyatini ta’minlash, tozalash inshootlari va suv yetkazish tarmog‘ining mehnat unumdorligi bo‘yicha aniqlanadi. Suv yetkazish tarmog‘ining quvvatini oshirish, suvning hosilaviy tartibga solish, yangi tarmoqlarni ishga tushirish va ishlayotganlarining quvvatini ulardan foydalanish koeffitsientini oshirish evaziga ko‘tarish, shuningdek alohida inshootlar quvvatidagi nomutanosiblikni yo‘qotish hisobiga amalga oshiriladi.

Tarmoqqa yetkazilayotgan suv miqdori suv yetkazish tarmog‘i quvvatini inobatga olib, shu quvvatdan foydalanish koeffitsienti va chetdan olinayotgan suv miqdori yordamida hisoblab chiqiladi. Iste’molchilarga yetkazilayotgan suv miqdori is’temolga yetkazib berilgan va texnik sabablarga ko‘ra hisobga olinmagan suv sarfi (yo‘qotishlar)ning miqdori bilan aniqlanadi. Bu ko‘rsatkich aholi va boshqa iste’molchilarning kommunal-maishiy ehtiyojlarini qondirish uchun va alohida sanoat korxonalarining ishlab chiqarish maqsadlari uchun korxonalarning spetsifik xususiyatlari va sanoat mahsulotlarini chiqarish bo‘yicha rejali topshiriqlarni hisobga olgan holda shartnomalar asosida rejalashtiriladi.

Aholi turarjoy binolarining suv ta'minoti tarmog'i bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichiga, uning quvvatidan tashqari ko'chalar bo'ylab yotqizilgan tarqatuvchi tarmoqlar kiritiladi.

Suv ta'minoti korxonalarining quvvati, joylashuvi va texnologik tarkibi quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

— suv manbalari;

— suv sifati;

— iste'mol me'yori;

— suv iste'moli grafigi (rejimi).

Suv manbalari suvni olish usuliga ko'ra ikki turga: yer ostidan va yer ustidan suv olish manbalariga bo'linadi;

Suv sifati suvning asosiy iste'molga yaroqlilik ko'rsatkichi hisoblanib, u suvning tarkibidagi mineral elementlarning miqdori, kimyoviy birikmalari, rangi va hidi kabi ko'plab ko'rsatkichlar tashkil topadi.

Suvning iste'mol me'yori ma'lum bir hududda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha sutkalik suv sarfi bilan o'lchanadi. Hozirgi kunda respublikamizda odam boshiga bir sutkada 300-550 litrgacha suv sarflanadi.

Suv iste'moli grafigi har bir suv ta'minoti alohida tizim hosil qiluvchi hudud uchun qo'llanilib, u sutka davomida suv iste'moli miqdorining o'zgarishiga qarab tuziladi. Ishlab chiqarish korxonalarida va uy-joy xo'jaligida sutka davomida bir me'yorda suv iste'mol qilinmaydi. Suv iste'moli grafigida keltirilgan suv iste'molining hajmiga qarab uni yetkazib berish me'yorlanadi.

Suv ta'minoti tizimining qurilishida uni loyihalashtirish jarayonida suv iste'moli hajmini to'liq rejalashtirish lozim. Suv iste'molining hajmini quyidagilar tashkil etadi:

— Suv ta'minoti korxonalarida xo'jalik iste'moli uchun ehtiyoj;

— Korxona va tashkilotlar xo'jalik faoliyati uchun ehtiyoj;

— Ko'cha va ko'kalamzorlashtirish ishlari uchun ehtiyoj;

— Texnologik ehtiyoj;

— Yong'inga qarshi suv ta'minoti tizimlari ehtiyoji;

— Favqulotda holatlarda sarf-xarajatlar uchun (suv ta'minoti tizimidagi avariyalar va boshqa yo'qotishlar) ehtiyoji.

Odatda shaharlarda markaziy suv tarmoqlari yagona bo'lib, ular vazifasini vaqtincha bajaruvchi tarmoqlar bo'lmaydi. Shu sababli yagona suv ta'minoti tizimi barcha sanitar-gigienik talablarga javob berishi hamda shaharning 10-15 yillik istiqboldagi qurilishi va taraqqiyotini ham hisobga olgan bo'lishi lozim.

Hozirgi kunda, yer sharining barcha qit'alarida industrial shaharlar atrofidagi hududlar ekologik ifloslanib bormoqda. Bu esa yer usti suv manbalaridan yetkazib beriladigan suvni ortiqcha tozalash xarajatlarini keltirib chiqarmoqda. Shu sababli rivojlangan mamlakatlarda ko'proq yer osti suv zahiralaridan foydalanish yo'lga qo'yilgan. Masalan: suv tarmoqlari AQSHda 67%, Germaniyada 92% suvni yer osti suv manbalaridan oladi.

Respublikamizda jami 120 ta shahar va 8544 ta qishloq, aholi yashash markazlari ichimlik suvi bilan ta'minlangan. Ichimlik suvi tarmoqlarining uzunligi shaharlarda 16214 km. va qishloq joylarida 32000 km.dan ortiq. Aholiga kommunal-maishiy ehtiyojlar uchun ichimlik suvi berishning o'rtacha yillik darajasi 1,8 mlrd.m^3 ni tashkil etmoqda. Hozirgi kunda, tarmoqlarning bir sutkalik quvvati 13562,1 ming. m^3 bo'lib, buning 43 %i qishloq joylariga to'g'ri keladi.

O'tgan asrning oxirlarida Orol mintaqasining ekologik inqirozi O'zbekiston Respublikasida ichimlik suv ta'minoti manbalarida hisobga olingan chuchuk suv zahiralarining 30 % ga yaqini ishdan chiqishiga olib keldi. Suv havzalariga sug'oriladigan yerlardagi zovur suvlari, yaxshi tozalanmagan sanoat va kommunal-maishiy oqova suvlarning tashlanishi natijasida daryolarning o'rta hamda quyi oqimlari suv havzalarida minerallar ko'paydi, uning qattiqligi ortdi, u fenol va pestitsidlar bilan ifloslandi. Ushbu daryolar va sug'orish kanallari suvining sizib chiqishi hisobiga yuzaga keluvchi yerosti suvlari tarkibida tuzlarning miqdori va suvning qattiqligi ortib ketdi.

Natijada Qoraqalopog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro hamda Navoiy viloyatlarida, shuningdek, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarining g'arbiy tumanlarida sifati O'zbekiston Respublikasi standartlariga javob beradigan mahalliy ichimlik suv ta'minoti manbalari deyarli yo'qolib ketdi. Bundan tashqari,

respublikamizdagi Jizzax, Sirdaryo, Surxandaryo, Farg'ona va Toshkent viloyatlarining ayrim tumanlaridagi suvning sifati va qattiqligi yuqorida aytilgan viloyatlardagidan ham birmuncha yomondir.

O'zbekiston hududida chuchuk suv zahiralarining notekis taqsimlanganligi suv ta'minotini rivojlantirishning dunyodagi boshqa mamlakatlarda qo'llaniladigan an'anaviy usulidan farqliroq o'ziga xos usulini yaratish zaruratini keltirib chiqardi. Xususan, O'zbekistonda mahalliy suv ta'minoti manbalari bilan bir qatorda mintaqalararo suv ta'minoti usuli ham keng qo'llanilmoqda. Bu usul bir manbadan sifatli ichimlik suvini magistral suv quvurlari tizimi orqali bir necha tuman, hatto bir necha viloyatlar aholisiga ichimlik suvini yetkazib berishga asoslangan. Hozirda respublikamizda Tuyamo'yin–Nukus–Taxtako'pir–Qo'ng'irot, Tuyamo'yin–Urganch–Mang'it, Damxo'ja–Navoyi–Buxoro, Dehqonobod–Guliston–Yangier, Xonobod–Yangier, Xonobod–Andijon, Uchqo'rg'on–Namangan, Shahrisabz–Qarshi–Muborak, Xojaipok–Termiz mintaqalararo suv quvurlari ishlab turibdi. Mazkur viloyatlar suv ta'minotining umumiy tizimida ushbu mintaqlararo suv quvurlarning ulushi 40% dan oshiqdir.

Qishloq aholisining ichimlik suv bilan eng ko'p ta'minlanganligi Sirdaryo viloyatida 92,1%, Toshkent viloyatida 91%, Andijonda 88,1%, Farg'ona 88,5 % va Namangan viloyatlarida 83,2 %ni tashkil etadi. Qishloq aholisining ichimlik suv bilan ta'minlanish darajasining past ko'rsatkichi Buxoro viloyatida 44,8 %ni, Xorazm viloyatida 64,2 % ni, Navoiy viloyatlarida 60,8 %ga, Qoraqalpog'iston Respublikasida 68 % ga to'g'ri kelmoqda.

Respublikamiz bo'yicha suv ta'minoti aholi jon boshiga hisoblaganda o'rtacha 180 litrni tashkil etadi. Ammo bu ko'rsatkich shaharlarda juda yuqori. Masalan, 2004-yilda eng ko'p suv sarflanib, sarflangan sovuq suv miqdori Toshkent shahrida 616.9 litrni tashkil etgan. Suv sarfi yilning turli fasllarida turlicha bo'lib, unga havo harorati katta ta'sir ko'rsatadi. Eng ko'p suv yoz faslida sarflanadi. Bu davrda aholi jon boshiga suv sarfi 900-1200 litrgacha yetgan. Aynan yoz faslida ko'proq suvning maqsadsiz sarflanishiga yo'l qo'yiladi. Bu esa suv ta'minoti

korxonalarda katta zahira quvvatlar mavjud bo'lishi zaruratini keltirib chiqaradi.

6.1- jadval

O'zbekiston Respublikasida suv ta'minoti (yil yakunida)

	2002	2004	2006	2008
Suv ta'minoti tarmog'i mavjud aholi punktlari: Shaharlar	120	120	120	120
Shahar tipidagi posyolkalar	112	112	112	112
Qishloqlar	8544	9213	9323	9346
Bir tarmoqli ko'cha suv tarmoqlari (ming km.)	47.2	48.8	49.5	51.3
Shu jumladan:				
Shaharlarda	16.2	16.1	16.1	16.2
qishloq joylarda	31.0	32.7	33.4	35.1
Suv tarmoqlari quvvati (mln.kub.metr sutkada)	13.6	12.7	12.4	13.1
shu jumladan:				
Shaharlarda	7,9	7,7	7.5	7.6
qishloq joylarda	5.8	5.0	4.9	5.5
Aholiga va kommunal uy-joy xo'jaligi ehtiyojlariga suv ta'minoti (mlrd. kub.metr.)	1.8	1.7	1.7	1.9
Aholiga va kommunal uy-joy xo'jaligi ehtiyojlari uchun bir sutkalik suv ta'minoti bir kishi hisobiga (litr.)	189.8	178.9	167,4	193,2
shu jumladan:				
Shaharlarda	317.0	325.7	324.4	322.4
qishloq joylarda	115.6	114.8	113.2	116.2

Respublikamizda so'nggi yillarda suv ta'minoti tizimida olib borilgan ishlar va suvdan tejamli foydalanishni tashkil etish natijasida suv sarfi me'yorlarini sezilarli darajada kamaytirilishiga erishildi. Masalan, Toshkent shahrida turarjoy binolarida aholi jon boshiga sarflanadigan suv me'yori 330 litrni (6.2-jadval) tashkil etmoqda.

6.2-jadval

Toshkent shahrida suv ta'minoti va oqova-quvur tarmog'i mavjud turarjoylarda suvdan foydalanish me'yorlari

№	Turarjoyning obodonlashganlik darajasi	1 kishi hisobiga suv sarfi me'yori (litrda)	1 kishi hisobiga oqova suv me'yori (litrda)
Oqova quvurlari mavjud bo'lmagan turarjoylarda			
1.	Ko'chadagi suv tarmog'i (kran) dan suv oluvchi	49	-
2.	Hovliga tortilgan suv tarmog'i (kran)dan suv oluvchi	155	-
3.	Ichki suv tarmog'i, rakovina, unitaz va alohida suv isitish usukunasi o'rnatilgan vanna(hammom)ga ega bo'lgan uyda	277	-
Oqova quvurlari mavjud bo'lgan turarjoylarda			
4.	Ichki suv tarmog'i, rakovina, unitazga va alohida suv isitish usukunasi o'rnatilgan vanna(hammom)ga ega bo'lgan uyda	389	389
5.	Suv tarmog'i, oqova quvuri, unitazi mavjud va markazlashgan issiq suv ta'minoti tizimiga ulangan turarjoy binolari, sektsiyali yotoqxonalar	330	429
6.	Suv tarmog'iga, oqova quvurga va markazlashgan issiq suv ta'minoti tizimiga ulangan yotoqxonalar	171	222

Orol dengizining qurishi oqibatida ekologik muhit ta'sirining kuchayib borayotganligi, yer osti suvlari tarkibining yomonlashib borishi respublikamizda aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash masalasida hal qilininshi lozim bo'lgan katta vazifalarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli aholining salomatligini mustahkamlash, sog'lom avlod tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish maqsadida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Bu sohada aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning misoli sifatida respublikamizda oxirgi o'n yillikda ichimlik suvi ta'minoti masalasida amalga oshirilgan ishlarni keltirish mumkin. Shu jumladan, respublikamizdagi 120 shaharda to'liq suv ta'minoti

tizimining shakllantirilganligi va doimiy takomillashtirib borilayotganligini, qishloq joylarining bir tarmoqli quvurlar bilan qamrab olish darajasi 70%dan oshganini keltirish mumkin.

2009-yilda respublikamizda suv tarmoqlari qurilishiga 118,3 mlrd. so'm miqdorda investitsiya kiritilib, shundan 53,9 mlrd. so'm (umumiy insevtitsiyalar hajmiga nisbatan 45,6%) xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan, 40,4 mlrd. so'm davlat budjeti (34,2%) mablag'lari va 11,3 mlrd so'm aholi mablag'lari (9,6%) tashkil etdi.

'2009-yil «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi» yili deb e'lon qilinib, qishloq joylari infratuzilmasini rivojlantirish davlat dasturi qabul qilindi. Dasturda 2009-yilda qishloq aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlash bo'yicha 1836 km uzunlikdaga suv quvurlarini qurib ishga tushurish, yuzlab quduqdari va suv ta'minoti inshootlarini ta'mirlash ishlari rejalashtirildi. Mazkur dasturda qishloq infratuzilmasini 2015-yilgacha bo'lgan davrda rivojlashtirish ishlari rejalashtirilgan bo'lib bu borada katta ishlar amalga oshirilmoqda. 2009-yilda qishloq aholi punktlarida ichimlik suvi ta'minoti masalasida olib borilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumot 6.3-jadvalda keltirildi.

6.3-jadval

«Qishloq taraqqiyoti va farovonligi» Davlat dasturi to'g'risida»gi qishloq aholi punktlari ichimlik suvi tizimini rivojlantirish bo'yicha 2009 yilda Respublika bo'yicha bajarilgan ishlar

№	Bajariladigan ishlar	O'lchov birligi	Yillik reja	Shu jumladan amalda bajarilishi	%
Respublika bo'yicha:					
1	Aholi punktlar soni	dona	304	366	120
2	Aholi soni	kishi	429248.0	494793	115
3	Suv tarmoqlarini qurish	km	354.8	490.2	138
4	Suv tarmoqlarini ta'mirlash	km	254.3	183.4	72
5	Suv quduqlarini qazish	dona	109	63	58
6	Suv quduqlarini ta'mirlash	dona	151	117	77
7	Nasos o'rnatish	dona	301	316	105
8	Suv minorasi va rezervuarlarni ta'mirlash	dona	64	31	48
9	Transformatorlarni o'rnatish	dona	77	40	52

10	Elektr tarmoqlarini qurish	km	37	18.0	49
11	Ajratilgan umumiy mablag'	mln.so'm	20500.0	19019.2	93
	Shu jumladan:				
	mahalliy budjet	mln.so'm	5267.0	4523.7	86
	homiylar hisobidan	mln.so'm	15233.0	14495.5	95
12	O'zlashtirilgan mablag'	mln.so'm	20500.0	19709.3	96

Oqova-quvur tarmog'i ishlab chiqarish korxona va tashkilotlari, uy-joy fondi, kommunal, ijtimoiy va boshqa barcha turdagi binolar, inshootlardan maishiy foydalanilgan oqova suvlarni, shuningdek shahar yuza qatlamidan yog'ingarchilik va boshqa sabablarga ko'ra hosil bo'luvchi suvlarni hududdan chiqarishni ta'minlaydi va ularni tozalash, qayta ishlash vazifasini bajaradi.

Oqova-quvur tarmog'ining ishlashining asosiy ko'rsatkichlari: oqova suvlarni bosh kollektor orqali o'tkazish va ularni tozalovchi inshootlarda qayta ishlashdir. Kollektorlar va tozalovchi inshootlar orqali o'tkazilayotgan oqova suvlar miqdori har bir iste'molchi uchun ular foydalanayotgan suv miqdoriga teng deb qabul qilinadi. Suvdan xomashyo sifatida foydalanayotgan korxonalar uchun yoki suvni aylanish siklida ishlatuvchi korxonalar uchun oqova suvlar miqdori tarmoqqa chiqarilayotgan suv miqdorini hisoblash yo'li bilan aniqlanadi. Aholi turar joylari oqova-quvur tarmoqlari holati ko'rsatkichlariga, ko'chalarda yotqizilgan quvur uzunligiga ko'chalarninig umumiy soniga nisbatan foiz hisobida, suv o'tkazish qobiliyati oqova suv hajmiga nisbatan foiz hisobida, oqova suvlarni mexanik va to'liq biologik tozalanganligi kanalizatsiya tarmog'ining suv o'tkazish qobiliyatiga nisbatan qayta tozalangan suv miqdorining nisbati foiz hisobida belgilanadi.

Oqova-quvur xizmatini tashkil etishning texnik iqtisodiy murakkablik tomonlari shundan iboratki, har bir shaharda oqova quvur tarmog'i tuzilishi oqova suvlarning hosil bo'lish manbalaridan kelib chiqib turlicha bo'ladi.

Oqova suvlar hosil bo'lish manbalaridan kelib chiqib quyidagi guruhlarga bo'linadi:

— Maishiy (xo'jalik) oqova suvlari;

— Ishlab chiqarish jarayoni (texnologik jarayonlarga bog'liq bo'lgan, tarkibi murakkab, zaharli) oqova suvlari;

tizimining shakllantirilganligi va doimiy takomillashtirib borilayotganligini, qishloq joylarining bir tarmoqli quvurlar bilan qamrab olish darajasi 70%dan oshganini keltirish mumkin.

2009-yilda respublikamizda suv tarmoqlari qurilishiga 118,3 mlrd. so'm miqdorda investitsiya kiritilib, shundan 53,9 mlrd. so'm (umumiy insevtitsiyalar hajmiga nisbatan 45,6%) xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan, 40,4 mlrd. so'm davlat budjeti (34,2%) mablag'lari va 11,3 mlrd so'm aholi mablag'lari (9,6%) tashkil etdi.

2009-yil «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi» yili deb e'lon qilinib, qishloq joylari infratuzilmasini rivojlantirish davlat dasturi qabul qilindi. Dasturda 2009-yilda qishloq aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlash bo'yicha 1836 km uzunlikdaga suv quvurlarini qurib ishga tushurish, yuzlab quduqdari va suv ta'minoti inshootlarini ta'mirlash ishlari rejalashtirildi. Mazkur dasturda qishloq infratuzilmasini 2015-yilgacha bo'lgan davrda rivojlashtirish ishlari rejalashtirilgan bo'lib bu borada katta ishlar amalga oshirilmoqda. 2009-yilda qishloq aholi punktlarida ichimlik suvi ta'minoti masalasida olib borilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumot 6.3-jadvalda keltirildi.

6.3-jadval

«Qishloq taraqqiyoti va farovonligi» Davlat dasturi to'g'risida»gi qishloq aholi punktlari ichimlik suvi tizimini rivojlantirish bo'yicha 2009 yilda Respublika bo'yicha bajarilgan ishlar

№	Bajariladigan ishlar	O'lchov birligi	Yillik reja	Shu jumladan amalda bajarilishi	%
Respublika bo'yicha:					
1	Aholi punktlar soni	dona	304	366	120
2	Aholi soni	kishi	429248.0	494793	115
3	Suv tarmoqlarini qurish	km	354.8	490.2	138
4	Suv tarmoqlarini ta`mirlash	km	254.3	183.4	72
5	Suv quduqlarini qazish	dona	109	63	58
6	Suv quduqlarini ta'mirlash	dona	151	117	77
7	Nasos o'rnatish	dona	301	316	105
8	Suv minorasi va rezervuarlarni ta'mirlash	dona	64	31	48
9	Transformatorlarni o'rnatish	dona	77	40	52

— Atmosfera orqali keluvchi oqova suvlar (yog'ingarchiliklar).

Oqova-quvur tarmog'i tizimini tanlashda albatta har bir hududning mahalliy shart-sharoiti (relef tuzilishi va geodezik ko'rsatkichlar) maksimal darajada hisobga olinishi shart. Tizimning samarali faoliyati o'z navbatida, oqova suvlarni tozalash inshootlarini joylashuvi, quvvati, suv havzalarning joylashishi, oqova suvlarni tabiiy kamayish ko'rsatkichi va chiqitga chiqariladigan hajmiga bog'liq. Asosan oqova-quvur tizimi suv ta'minoti tizimiga teskari joylashadi, ya'ni suv ta'minoti tizimi hududning yer relefi baland tomonidan boshlanib pastga tomon yo'naltirilsa, oqova quvur tizimi relefning pastki tomoniga to'planib boradi.

Katta va industrial shaharlarda qo'shimcha oqova-quvur tarmog'i tashkil etiladi. Qo'shimcha oqova quvur tarmog'i to'liq va qisman parallel yoki qisman maxsus (shaharning ishlab chiqarish kuchlari joylashgan qismida) o'tkazilgan bo'lishi mumkin. Pararllel quvur o'tkazishdan maqsad oqova suvlarni murakkablik darajasidan kelib chiqib alohida ajratishdir. Asosan ishlab chiqarish korxonalarining chiqindilari texnologik jihatdan murakkab, ularni qayta ishlash va tozalash alohida murakkab texnologiyalarni talab etadi. O'ta murakkab oqova suvi chiqaruvchi korxonalar alohida yopiq tozalash tizimiga ega bo'lishlari talab etiladi.

Ishlab chiqarish va maishiy oqova suvlarni aralash holda yagona quvurdan chiqarish iqtisodiy jihatdan qulay hisoblanadi. Bunday oqava suvlarni ham biologik ham kimyoviy qayta ishlab, tozalangan suvdan texnik suv sifatida, ishlab chiqarish jarayonida foydalansa bo'ladi.

Hozirgi kunda, dunyodagi ko'pgina mamlakatlarda sanoatning jadal rivojlanib borayotganligi, shaharlar hududining kengayib borayotganligi sababli oqova-quvur xo'jaligining quvvati o'sib borayotgan talabga to'la javob bermayapti. Natijada shaharlar atrofidagi ekologik muhitga sezilarli zarar yetkazilmoqda.

Nazariy qaraganda ichimlik suvi ta'minotini rivojlantirish bilan bir qatorda oqova suvi tarmoqlarini rivojlantirish, mavjud inshootlar quvvatlarini oshirish va ochiq havzalarga tashlanayotgan oqova suvlar sifatini oshirish masalalarini hal etish lozim.

Hozirgi kunda, oqova quvur xizmati ko'rsatuvchi korxonalari hamda atrof muhitni muhofaza qilish organlari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri oqova suvni asosan biologik usulda tozalash mo'ljallangan kommunal oqova suv tozalash inshootlariga sanoat oqova suvlarini tashlagani uchun sanoat korxonalaridan haq olishni joriy etish. Ayni paytda, bir vaqtning o'zida, sanoat oqova suvlarini kommunal oqova suv tozalash inshootlariga tashlash va tozalash ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda mavjud tozalash inshootlarini zamon talablariga moslashtirish masalalarini ham hal qilish zarur.

Respublika bo'yicha oqova suv tozalash inshootlarining quvvati sutkasiga 4493.7 mln m^3 ni tashkil etadi, bundan 94,3 % shaharlarga to'g'ri keladi. Hamon tozalash inshootlarining sutkalik tozalash quvvatlari Jizzax viloyatida 69,2 ming m^3 ni, Qashqadaryoda 59 ming m^3 ni, Surxondaryoda 48,2 ming m^3 ni, Sirdaryoda 71,5 ming m^3 ni va Qoraqalpog'iston Respublikasida 87,6 ming m^3 ni tashkil etib, pastligicha qolmoqda. Tarmoqlarning umumiy uzunligi 4314.7 km ga yetdi. Tozalash inshootlari orqali oqova suvlarning o'rtacha yillik o'tkazilishi 835 mln. m^3 ni tashkil etadi.

Toshkent shahrida oqova quvurlar uzunligi 1539,1 km.dan ortiq bo'lib oqova suvlarni qayta ishlash inshootlari quvvati bir sutkada 1945 ming m^3 ni tashkil etadi. Oqova-quvur tarmoqlarining respublikamiz bo'yicha eskirish darajasi 31 % ni, Toshkent shahrida esa 22 %ni tashkil etadi. Oqova suvlarni qayta ishlash inshootlarining eskirish darajasi quvurlarnikiga nisbatan yuqori bo'lib, yaqin kelajakda mazkur sohaga qo'shimcha investitsiyalar kiritishni talab etadi.

6.3. O'zbekiston Respublikasida energetika tizimi va iste'molchilarga elektr energiyasi yetkazib berish

Respublikamizda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab energetika mustaqilligiga erishish ustuvor vazifalardan biri qilib belgilandi. Mamlakatimizda energiya ishlab chiqarish manbalari faoliyati samaradorligini oshirish, energetika tarmog'i korxonalarini

monopoliyadan chiqarish, xususiylashtirish va aksiyalashtirish jarayonlarini yanada rivojlantirish, elektr energetikasi tizimida boshqaruvni tashkil etishni takomillashtirish, elektr energetikasi va ko'mir sanoati korxonalarini rivojlantirish, texnika bilan qayta jihozlash va zamonaviylashtirish uchun investitsiyalarni, shu jumladan xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish maqsadida respublika hukumatining ko'plab qonuniy-me'yoriy hujjatlari qabul qilindi.

Energetika sohasida bozor islohotlarini chuqurlashtirish, energetika tarmoqlari korxonalarini boshqarishni takomillashtirish va ularning ish samaradorligini oshirish hamda shu asosda mamlakat energetika tizimining barqaror ishlashini ta'minlash, iqtisodiyot va aholining elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 22-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi energetikasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish to'g'risida»gi PF-2812 sonli Farmoniga hamda Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 24-fevrvldagi «O'zbekenergo» davlat-aktsiyadorlik kompaniyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 93-sonli Qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Energetika va elektrlashtirish vazirligi tugatilib, uning tarkibiy bo'linmalari negizida ochiq aksiyadorlik jamiyati shaklidagi «O'zbekenergo» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi «O'zbekenergo» DAK tashkil etildi va uning tarkibiga mustaqil yuridik shaxs huquqlari bilan «Ko'mir» aksiyadorlik birlashmasi kiritildi.

«O'zbekenergo» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi tuzilmasida elektr energiyasi uzatish bo'yicha yuqori kuchlanishli tarmoqlar sho''ba korxonasi «O'zelektrtarmoq» tashkil etildi.

«O'zbekenergo» davlat-aktsiyadorlik kompaniyasining elektr energiyasini taqsimlash va sotish bo'yicha mintaqaviy sho'ba korxonalari tashkil etildi.

Respublikada energetika korxonalarini monopoliyadan va davlat tasarrufidan chiqarish hamda aktsiyalashtirish pirovardida quyidagilar energetika sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlari deb belgilandi:

— energetika tarmoqlarini monopoliyadan chiqarish tadbirlarini izchil amalga oshirish, davlat tomonidan tartibga solish

darajasini pasaytirish, elektr energiyasini sotish sohasida raqobat muhitini yaratish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning elektr uzatish liniyalariga bog'lanishlari uchun teng imkoniyatlar va shart-sharoitlar yaratish;

— energetika tarmog'ining yirik korxonalari — issiqlik elektr stantsiyalari, markazlashtirilgan issiqlik-elektr qurilmalari, elektr tarmoqlari korxonalari va boshqalarni bosqichma-bosqich aksiyalashtirish;

— ijtimoiy infratuzilma obyektlarini, loyihalash, qurilish-montaj va tuzatish ishlarini olib boruvchi korxonalar va tashkilotlarni jadal sur'atlarda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, ular negizida mulkchilikning nodavlat shakllaridagi korxonalar, shu jumladan xususiy korxonalar tashkil etish;

— energetika korxonalarini aksiyalashtirish, ishlab chiqaruvchi quvvatlar va elektr tarmoqlarini rekonstruktsiya qilish, texnika bilan qayta jihozlash va yanada rivojlantirish jarayonlariga chet el investitsiyalarini keng jalb qilish;

— elektr ishlab chiqarish, uni uzatish va sotish bo'yicha boshqaruv tizimiga va xo'jalik aloqalariga bozor tamoyillari va mexanizmlarini joriy etish;

— energetika quvvatlari va ko'mir sanoatining o'zaro bog'liq va mutanosib rivojlanishini ta'minlash maqsad qilib qo'yildi.

Respublikamizdagi issiqliq elektr stantsiyalari, issiqlik elektr markazlari, elektr tarmoqlarining viloyat korxonalari aktsiyalarning nazorat paketini «O'zbekenergo» davlat-aksiyadorlik kompaniyasida saqlagan holda bosqichma-bosqich aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi.

Mamlakatimizning energetika siyosati «O'zbekenergo» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan amalga oshirilib, uning asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari quyidagilardan iborat qilib belgilandi:

— respublika iqtisodiyoti va aholisini elektr energiyasi bilan barqaror ta'minlash, respublika energetika tizimi ish rejimlarini boshqarish va muvofiqlashtirish;

— elektr energetikasi va ko'mir sanoatini rivojlantirishning qisqa muddatli va uzoq muddatli prognozlarini hamda maqsadli

dasturlarini ishlab chiqish, elektr energiyasi va ko'mir ishlab chiqarish va iste'mol qilish balanslarini shakllantirish;

— ishlab chiqaruvchi quvvatlar va elektr tarmoqlarini, ko'mir sanoati korxonalarini zamonaviy asbob-uskunalar va ilg'or texnologiyalar asosida, shu jumladan xorijiy investitsiyalar hisobiga rekonstruktsiya qilish, zamonaviylashtirish, texnika bilan qayta jihozlash va yanada rivojlantirish;

— ko'mir qazib olish bo'yicha geologiya-razvedka ishlarini muvofiqlashtirish, ko'mir konlarini ochish va ko'mir qazib olishning samarali tizimlari va usullarini joriy etish, uni ishlab chiqarishni kengaytirish hamda elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarishda undan ustun darajada foydalanish, energiyaning qayta tiklanadigan, shu jumladan noan'anaviy manbalarini rivojlantirish va joriy etish;

— respublika korxonalari va tashkilotlari bilan birgalikda elektr energiyasi va ko'mirni tejash, ulardan oqilona foydalanish va nobudgarchilikni kamaytirish chora-tadbirlari ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini tashkil etish.

Respublikada energiya ta'minoti va iste'molchilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish va nazorat qilish maqsadida Respublika elektr energetikada nazorat bo'yicha davlat agentligi («O'zdavenergonazorat» agentligi) tashkil etildi va unga quyidagi asosiy vazifalarni bajarish yuklatildi:

— elektr energiyasi va ko'mir ishlab chiqarish, tashish va iste'mol qilish sohasidagi normativ hujjatlar va qoidalarni ishlab chiqish, tasdiqlash hamda ularning bajarilishini nazorat qilish;

— elektr energiyasi va ko'mir ishlab chiqarish, tashishda xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqilishi va ularning amalga oshirilishini tashkil etish;

— loyihalarni ekspertizadan o'tkazishda hamda elektr energiyasi ishlab chiqarish, tashish va iste'mol qilish xavfsizligini ta'minlash bo'yicha yangidan qurilgan ob'yektlarni qabul qilish ishlarida qatnashish;

— yagona elektr tizimiga ulanadigan doimiy elektr stantsiyalarida elektr energiyasi ishlab chiqarishni belgilangan tartibda litsenziyalash ishini tashkil etish.

Respublikamizda yuqori quvvatli elektr energiyasi magistrallari «O'zelektrtarmoq» korxonasi balansida bo'lib, elektr energiyasini taqsimlash quvvati 35—110 kilovoltgacha bo'lgan taqsimlash tarmoqlari mintaqaviy korxonalar balansiga berildi va elektr energiyasini iste'molchilarga shartnomalar asosida sotish ular orqali amalga oshiriladigan bo'ldi.

Respublikamizda uy-joy kommunal xo'jaligi tizimini elektr energiyasi bilan ta'minlash elektr energiyasini taqsimlash mintaqaviy (rayon, shahar) korxonalari tomonidan amalga oshiriladi. Elektr energiyasi bilan ta'minlovchi tashkilotlarning elektr energiyasi iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 16-iyundagi 271-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari»ga asosan tashkil etiladi. Mazkur qoidaga ko'ra iste'molchilarga elektr energiyasi yetkazib berishni tashkil etishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

— Sanoat mahsuloti turi sifatida elektr energiyasi berish energiya bilan ta'minlovchi tashkilot bilan energiya qurilmasi energiya bilan ta'minlovchi tashkilotning tarmoqlariga bevosita ulangan iste'molchi (abonent) o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida «Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari»ga muvofiq amalga oshiriladi. Namunaviy shartnomalar shakllari O'zbekistan Respublikasining amaldagi Qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqiladi va belgilangan tartibda elektr energetikada nazorat bo'yicha davlat agentligi («O'zdavenergonazorat» agentligi) tomonidan tasdiqlanadi.

Subabonentlar abonent bilan elektr energiyasidan foydalanish uchun shartnomani energiya bilan ta'minlovchi tashkilotning roziligiga ko'ra tuzadilar.

— Energiya bilan ta'minlovchi tashkilotlarga, iste'molchida hisobga olishning ko'ptarifli priborlari mavjud bo'lgan taqdirda, elektr energiyasiga tariflarni sutka vaqti zonalari (tig'iz soatlar, yarim tig'iz soatlar, tungi nagruzka) va yil fasllari (yozgi va qishki davr) bo'yicha tabaqalashtirish huquqi beriladi.

Iste'molchi tomonidan foydalanilgan elektr energiyasini hisobga olish uchun «O'zstandart» agentligi yoki uning o'lchov vositasi turini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasining

sertifikatiga ega bo'lgan hududiy bo'linmalari tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan hamda elektr energiyasini har bir sutkaning kamida to'rtta vaqti davri bo'yicha alohida hisobga olish imkonini beradigan ko'p tarifli hisoblashlar yoki hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimlari qo'llanilishi mumkin.

— Energiyaga tarif o'zgargan taqdirda, sanasidan qat'iy nazar, shartnoma o'z kuchida qoladi va iste'molchi olingan energiya uchun yangi tarif joriy etilgan kundan boshlab xaq to'lashga majburdir.

— Tomonlar shartnoma tuzish, uni o'zgartirish, bekor qilish yoki uning muddatini uzaytirish masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlariga va «Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari"ga amal qiladi.

— Yangi energiya qurilmalarini foydalanishga topshirish va yangi subabonentlarni ulash energiya qurilmasini foydalanishga yo'l qo'yish «O'zdavenergonazorat agentligi bilan kelishilgandan keyin energiya bilan ta'minlovchi tashkilot tomonidan amalga oshiriladi.

— Energiyani qayta sotuvchi yoki o'z tarmoqlari orqali beruvchi tashkilotlar (ulgurji iste'molchilar — qayta sotuvchilar, blok-stantsiyalar, abonentlar) oxirgi yillarda energiyaning o'rtacha iste'moli tahlili asosida aniqlanadigan o'z elektr tarmoqlariga ulangan boshqa obyektlarning energiya iste'molini hisobga olgan holda energiyaning umumiy (yig'ma) miqdori yuzasidan energiya bilan ta'minlovchi tashkilot bilan shartnoma tuzadilar.

— Iste'molchi (aholidan tashqari) o'ziga tegishli tarmoqlarga ruxsat berilgan quvvat doirasida 1000 Voltgacha kuchlanishli o'z elektr uskunalarini birlashtirishi mumkin (binoni elektr bilan isitish va reklamadan tashqari).

— Energiyani qayta sotuvchi tashkilotlarning energiya bilan ta'minlovchi tashkilot va qayta sotuvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlari «Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari va ular o'rtasida energiya berish uchun tuzilgan shartnoma bilan tartibga solinadi.

— Energiya bilan ta'minlovchi tashkilot abonentga (aholidan tashqari) energiyani birlashtirilgan tarmoq orqali energiya ta'minoti

shartnomasida nazarda tutilgan miqdorda va tomonlar o'zaro kelishgan energiya berish rejimiga rioya qilgan holda berishga majburdir, Iste'molchi «O'zdavenergonazorat— agentligi tomonidan energiyadan nooqilona foydalangan (imzolangan dalolatnomaga muvofiq), energiyani tejash bo'yicha tashkiliy-texnik tadbirlar rejasini bajarmagan taqdirda, energiya bilan ta'minlovchi tashkilot energiyadan nooqilona foydalanishning aniqlanish holatlaridan kelib chiqib energiya iste'molining shartnomaviy miqdorini kamaytirishga haqlidir.

— Energiya bilan ta'minlovchi tashkilot tizimidagi avariyalarning oldini olish va ularni tugatish yoki odamlarning xavfsizligini ta'minlash ishlari bilan bog'liq kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar ko'rish zarur bo'lganda va foydalanilgan energiya uchun haq to'lanmaganda iste'molchi bilan kelishmasdan va uni ogohlantirmasdan, biroq uni darhol xabardor qilgan holda energiya berishda tanaffusga yoki cheklashga yo'l qo'yiladi.

— Ob'yektning elektr ta'minoti loyihasida nazarda tutilgan elektr ta'minotining o'zaro zahiralanuvchi manbalari ishida yoki asosiy ta'minotni takroran avtomatik ta'minlashda avtomatik ishga tushirish paytida elektr energiyasini uzib qo'yish (sabablaridan qat'i nazar) elektr ta'minotidagi tanaffus hisoblanmaydi.

— Iste'molchilarning elektr qurilmalari ustidan davlat nazorati qonun hujjatlariga muvofiq «O'zdavenergonazorat agentligi tomonidan amalga oshiriladi.

— Elektr energiyasi isrof qilib sarflanganligi va iste'molchining avariya xavfi tug'diradigan yoki odamlarning hayotiga xavf soladigan energiya qurulmalarining qoniqarsiz texnik holati uchun «O'zdavenergonazorat agentligi energiya berishni to'xtatib qo'yish huquqiga ega.

— Maxsus qoidalar bo'yicha foydalaniladigan elektr qurilmalari ustidan energetika nazorati amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tegishli vazirliklar va idoralar tomonidan amalga oshiriladi.

— Davlat energetika nazorati amalga oshirilishi abonentlarni foydalanilayotgan energetika tarmoqlari, jihozlar va asbob-uskunalarning zarur texnik holati va xavfsizligi ta'minlanishi, energiya iste'molining belgilangan rejimiga rioya qilinishi uchun

javobgarlikdan, shuningdek energiyadan foydalanish paytida paydo bo'ladigan avariyalar, yong'inlar, energiyani hisobga olish jihozlarining nosozliklari va boshqa qoidabuzishlar to'g'risida energiya bilan ta'minlovchi tashkilotlarni darhol xabardor qilish majburiyatidan ozod qilmaydi.

— Energetika tarmoqlari, jihozlar va asbob-uskunalarning texnik holatiga va ulardan foydalanishga nisbatan qo'yiladigan talablar, shuningdek, ularga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirish tartibi qonun hujjatlari va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilanadi.

— Ushbu Qoidalar buzilganligi uchun javobgarlik Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasn Qonuniga, Fuqarolik kodeksiga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq energiya bilan ta'minlovchi tashkilot bilan iste'molchi o'rtasida tuziladigan shartnomada belgilanadi.

Uy-joy fondida elektr energiyasini iste'mol qilishning asosiy turlari quyidagilar hisoblanadi:

1. Turar joy binolarini yoritish, mayda maishiy va kichik motorli nagruzkalar, ovqat tayyorlash, turar joylarda havoni konditsionerlashtirish.

2. Uy-joylar, kvartiralarni yoritish.

Turar joylarda, xonadonlarda uy-joylar va qo'shimcha joylarni yoritishga elektr energiyasining yillik sarfi oila hisobiga (kompensatsiyalar uchun) quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

— 1 kv. m. maydonda nur manbaining quvvatiga;

— bir yilda chiroqlarning yonib turish soatlari miqdoriga;

— ular ishining bir vaqtdaligi koeffitsientiga.

3. Mayda maishiy va mayda motorli yuklama.

Iste'molning ushbu turi bo'yicha elektr energiyasining yillik sarfi ro'zg'or elektr priborlari va madaniy-axborot maqsadidagi priborlarning bir oila hisobiga eng kam zarur o'rtacha yillik miqdoridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

4. Elektr energiyasidan imtiyozli tarif bo'yicha foydalanadigan aholi uchun uni iste'mol qilish normasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

6.4. Issiqlik energiyasi ishlab chiqarish va yetkazib berish

Energiya resurslari — issiqlik energiyasi, elektroenergiya va tabiiy gaz qiymati kommunal xizmatlar tannarxining asosiy qismini tashkil etadi. Respublikamizda uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida yetkazib berilayotgan issiqlik energiyasining qiymati umumiy kommunal xizmatlari qiymatining 35-40 foizini tashkil etmoqda.

Issiqlik energiyasi ta'minotida issiqlik ta'minoti tizimini yuqori sifatli qilib loyihalashtirish, qurish va ishlatish orqali ishlab chiqarish xarajatlari va yoqilg'ini maksimal darajada tejashga erishish mumkin. Ammo hozirgi kunda issiqlik energiyasi ishlab chiqarish xarajatlari tizimning texnik iqtisodiy asoslari va loyiha quvvatida belgilangan ko'rsatgichga nisbatan 25-30 % ga ko'p sarflanmoqda. Tizimda me'yordan ortiq sarf-xarajatlarga yo'l qo'yilishning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

— qozonxonalarning foydalilik koeffitsentining belgilanganidan past ko'rsatkichlarda ishlatilmoqda. Bunga asosan tarmoqda eski texnologiyalar asosida, sobiq Ittifoq davrida ishlab chiqarilgan, yoqilg'i iste'mol qilish darajasi yuqori bo'lgan qozonxona uskunalaridan foydalanilayotganligi, ularning eskirish darajasi yuqoriligi va texnik nuqsonlar mavjudligi sabab bo'lmoqda;

— quvur va uzatish jihozlarini himoya qobig'i (izolyatsiya) bilan qoplash ishlarining sifatsiz bajarilganligi va texnologik xatolarga yo'l qo'yilganligi sababli uzatish tarmoqlarida issiqlik energiyasini me'yorga nisbatan ko'p yo'qotilishiga yo'l qo'yilishi;

— isitish tizimida uylarni bir maromda issiqlik bilan ta'minlash balansining buzilishi. Binolarda isitish tizimini kapital va joriy ta'mirlash jarayonlarida loyihada belgilangan quvvatini ta'minlovchi o'tkazgich va jihozlarni kattaroqlariga almashtirish;

— issiq suvdan tejamkorlik bilan foydalanmaslik. Issiq suv haroratining me'yorga nisbatan pastligi, uzatish tizimlarining yetarli darajada issiqlikni chiqarmaydigan himoya qobig'i bilan qoplanmaganligi sababli uzatish tizimidagi suvning sovib qolishi va iste'molchilarning issiq suvdan foydalanishda suvni yetarli haroratga yetgunga qadar oqizib qo'yishlari.

— binolar devorlari hamda jihozlarining (deraza romlari, eshiklar) eskirishi tufayli issiqlikni ushlab qolish qobiliyatining pasayishi;

— shamollatish jihozlarining eskirishi oqibatida xonaga kiruvchi sovuq havoni isitish uchun me'yordan ortiqcha energiya sarflash;

— turarjoy hududida faoliyat ko'rsatayotgan isitish tizimiga yangi qurilgan binolarni ulanishi, tizimning loyiha quvvatidan ortiqcha iste'molchilarga xizmat ko'rsatishi va boshqalar.

O'tgan asrning 90-yillariga qadar markazlashgan qozonxona orqali binolarni isitish tizimi eng samarali texnologiya hisoblangan. Bu tizimning samarali tomonlari: ishlab chiqarilgan issiqlik tannarxining arzonligi, har xil turdagi va turli sifat ko'rsatkichiga ega bo'lgan yoqilg'ilardan foydalanishga moslashganligi, yoqilg'ini markazlashgan holda bir manzilga yetkazib berilishi, ishlab chiqarish va omborxona binolari hajmining chegaralanganligi, ishchi-xodimlar sonining kamligi, yong'in xavfsizligi choralarining yuqoriligi hisoblangan. Ammo markazlashgan qozonxona tizimining o'ziga xos kamchiliklari ham mavjud bo'lib, hozirgi kunda ularni hisobga olmaslikning iloji yo'q. Bunday kamchiliklar qatoriga issiqlik ta'minoti tizimining katta hududni qamrab olishi va o'nlab kilometr uzunlikdagi issiqlik trassalarini ekspluatatsiya qilish xarajatlarining yuqoriligi, issiq suv uzatish tizimida to'rt yo'lakli (isitish tizimi uchun issiqlik uzatuvchi, iste'molchilarga issiq suv uzatuvchi va ulardan qozonxonalarga qaytuvchi) quvurlardan foydalanishda ko'p sonli nasoslardan foydalangan holda katta bosim ostida uzatish, texnik nazorat qilish, uzluksiz faoliyatini ta'minlash va ta'mirlash xarajatlarining kattaligi issiqlik quvvati tannarxining oshib ketishiga olib keladi.

Hozirgi kun amaliyoti katta hajmli qozonxonalardan foydalanish har doim ham samarali emasligini ko'rsatmoqda. Barcha sohalar kabi issiqlik ta'minotida ham zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, uzoq masofada joylashgan turarjoylarni isitishda lokal tarmoqlardan faydalanish katta samara bermoqda.

So'nggi yillarda shaharlardagi xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlariga tegishli bir yoki bir nechta turarjoy binolari uchun alohida kichik qozonxonalardan foydalanish amaliyotga qo'l-

lanilmoqda. Albatta, bunday lokal isitish tizimiga o'tishdan oldin texnik-iqtisodiy imkoniyatlarni tahlil qilib ko'rish va real iqtisodiy samara berishiga ishonch hosil qilish lozim. Maxsus muhandislik-loyihalash xizmati tomonidan tahlil qilinmagan isitish tizimi doimo yuqori iqtisodiy samara beradi degan xulosaga kelish qiyin. Birinchidan, lokal tarmoq asosan gaz va elektr energiyasi quvvatida ishlaydi. Shahar hududidagi barcha turarjoylarda bunday yoqilg'i tarmog'i mavjud emas, ikkinchidan, turarjoy binosining joylashgan hududidan kelib chiqib havoga chiqariladigan tutunlar ekologiyaga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Binolarni isitishda qanday tizimdan foydalanishdan qat'iy nazar yoqilg'ini iqtisod qiluvchi va foydalilik koeffitsenti yuqori bo'lgan (yoqilg'ining yonish jarayonida hosil bo'layotgan issiqlikni maksimal darajada isitish tizimidagi suvga o'tkazib beruvchi) qozonxonalardan foydalanishgina issiqlik quvvati tannarxini arzonlashishiga olib keladi.

Respublika bo'yicha shahar aholisi taxminan 14435,9 ming Gkal issiqlik energiyasini ishlatadi, bu ko'rsatgichning asosiy ulushi Toshkent shahriga 8083,3 ming Gkal.ga to'g'ri keladi. Ishlab chiqariladigan issiqlik energiyasining bir kishi hisobiga to'g'ri keladigan miqdori 1.6 Gkal ga, Toshkent shahri bo'yicha esa 3,8 Gkal ga tengdir.

Kommunal xo'jaligi tizimida energiyadan samarali foydalanishni joriy etish masalasiga Respublikamiz Hukumati tomonidan alohida e'tibor qaratilib kelmoqda va sohaga energiyani tejovchi texnologiyalarni joriy etish maqsadida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 5-noyabrdagi «Kommunal xo'jaligida energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy etish kompleks dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 241-sonli Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 17-yanvardagi «Respublika budjetidan va mahalliy budjetlardan moliyalashtiriladigan korxonalar va tashkilotlarning ma'naviy eskirgan va tejamsiz bug' qozoni agregatlarini 2007-2008-yillarda respublika mintaqalari bo'yicha almashtirish dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi 7-sonli Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 3-yanvardagi «O‘zbekiston Respublikasi uy-joy fondini sovuq va issiq suv hisoblagich asbob-uskunalari bilan jihozlash, investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-553 sonli Qarorlari aynan shu dolzarb masalani hal etishga qaratilgan.

Amalga oshirilayotgan mazkur tadbirlarning pirovard maqsadi uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida energiyani tejash, ya’ni energiya resurslari va suvni ishlab chiqarish, uzatish hamda iste’mol xarajatlarini kamaytirish va shuning hisobiga tarmoqniig zarar ko‘rmasdan ishlashga o‘tish shartlarini aholi uchun yumshatishdir ya’ni narxini arzonlashtirishdir. Ushbu vazifani hal qilish maqsadida Respublikamizda 2010-yilgacha bo‘lgan davrga mo‘ljallangan energiyani tejash dasturi ishlab chiqildi. Dastlabki tadqiqotlar va ayrim mintaqalar monitoringi respublikamizning bir qator mintaqalarida resurslarni tejash imkoniyatlari: issiqlik bo‘yicha 30-60 %, ichimlik suvi bo‘yicha 20-40 %, gaz bo‘yicha 10-30 % ni tashkil etishini ko‘rsatdi.

Energiya resurslarini tejashga oid eng maqbul takliflar quyidagilardan iborat: ishlab turgan qozonxonalar va nasos stantsiyalarini zamonaviylashtirib, ularga foydali ishlash koeffitsienti (FIK) 92 % dan kam bo‘lmagan yuqori unumli uskunalar o‘rnatish; noan’anaviy energiya manbalari (issiqlik nasoslari, biogaz, geotermal suv, quyosh energiyasi, shamol energiyasi va boshqalar)dan foydalanish; uy-joy fondida foydalanilayotgan binolarning devor panellarini penopoliuritan purkash yo‘li bilan sovuq o‘tkazmaydigan qilish; tomlar, yerto‘lalar va zina xonalarining muzlab qolish sabablarini izlab topish hamda sovuq o‘tkazmaydigan qilish; issiqlik nobudgarchiligini 2-3 barobar kamaytirish imkonini beruvchi penopoliuretan qoplamali quvurlardan foydalanib yangi issiqlik magistrallari yotqizish yoki eskilarini to‘liq tamirlash; binolarning tashqi devor to‘sinlarini qattiq plitalar va egiluvchan matolar yordamida sovuq o‘tkazmaydigan qilish; deraza va eshiklarni yangilash, natijada issiqlik energiyasi 20-40 % tejaladi; ichiga metall qoplangan plastmassa quvurlardan foydalanib yangi ichimlik suvi tarmoqlari qurish yoki eskilarini to‘liq tamirlash resurslarni 40 % gacha tejaydi; issiqlik va gazdan foydalanish hisoblagichlarini

o‘rnatish, issiqlik ta’minoti tizimlarini tejamli boshqarish usullariga o‘tkazish, jahon sifat talablariga javob beruvchi zamonaviy gaz uskunalaridan foydalanish, bu esa o‘z navbatida 40 % gacha tabiiy gazni tejash imkonini beradi.

Ushbu energiya resurslarini tejash tadbirlarini mablag‘ bilan ta’minlashni uy-joy egalarining to‘lovlari bilan bir qatorda, kutilayotgan resurslar iqtisodi hisobidan, bevosita chet el sarmoyalari, tijorat banklarining imtiyozli kreditlari evaziga amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Energiyani tejash va energiyani iste’mol qilish jarayonida qatnashuvchi barcha ishtirokchilarning asosiy vazifasi resurslarga bo‘lgan talabni boshqarishning hamma mexanizmlaridan har tomonlama foydalanishdan hamda energiya resurslarining tejalishini rag‘batlantirishdan iborat. Bunda ommaviy axborot vositalari, radio, televidenie, energiya va resurslar iste’molchilari katta rol o‘ynashlari kerak.

Kelgusidagi uy-joy kommunal xizmatlarga bo‘lgan talabni aniqlash uchun mavjud quvvatlar va moddiy bazadan foydalanish samaradorligini, shuningdek, uy-joy kommunal xo‘jalik xizmatlari foydalanuvchilari ehtiyojlariga qanchalik to‘liq javob berishini ko‘rib chiqish zarur.

Har bir tarmoqda o‘zining muammolari bo‘lishiga qaramay, tizimda umumiy tusdagi qiyinchiliklar mavjud — bu qiyinchiliklarga tarmoqda ishning yomon tashkil etilishini, xizmat ko‘rsatish saviyasi pastligini, mablag‘ bilan taminlash manbalaridan o‘ta bog‘liqlikni, iste’molchilar talablari bilan yetarlicha hisoblashmaslikni, shuningdek atrof-muhitga munosabatda ma’suliyatning etarli emasligini keltirish mumkin.

Ko‘rsatkichlardagi farq katta bo‘lgani bois, uy-joy kommunal xo‘jalik xizmatlari samaradorligini oshirish natijasida olinishi mumkin bo‘lgan foyda va naf bir xil bo‘lmaydi. Ammo, umuman tarmoq bo‘yicha katta ijobiy potentsial mavjudligi tufayli islohotlar zarur va o‘zini oqlaydigan qilib qo‘ymoqda. Islohotlar natijasida uch turdagi foydani kutish mumkin: subsidiyalar kamayishi, kommunal xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarning texnik qulayliklarga ega bo‘lishi va istemolchilarga samara keltirishi. Uy-joy kommunal xizmatlarni takomillashtirish natijasida ko‘riladigan foydalar sof

samarasizlik va moliyaviy yo'qotishlarning kamayishi bilangina cheklanib qolmaydi. Unumdorlikning o'sishi va narx belgilashning mukammalroq tizimi mavjud ehtiyojni hisobga olgan holda uy-joy kommunal xo'jaligi samaraliroq ishlashi uchun imkoniyat yaratadi. Bu esa iqtisodiy o'sishga va raqobat rivojlanishiga yordam beradi.

Respublikamizda 2001-yilda aholiga issiqlik energiyasi yetkazib beruvchi markazlashgan 470 ta korxona faoliyat ko'rsatib, yil davomida jami 54,7 mln. Gkal issiqlik yetkazib berilgan bo'lsa, 2006-yilda korxonalar soni 395 taga, yetkazib berilayotgan issiqlik quvvati 47,1 Gkal.ga kamaygan. Buning sababi, birinchidan, issiqlik yetkazib beruvchi korxonalarni birlashtirish va foydalilik koeffitsenti past bo'lgan qozonxonalardan voz kechish bo'lsa, ikkinchidan, yuqori texnologiyalarni qo'llash (quyosh energiyasi va boshqa energiya manbalaridan) va kichik-lokal qozonxonalardan foydalanishdir.

6.4-jadval

O'zbekiston Respublikasida issiqlik energiyasi ta'minoti (yil yakuni bo'yicha)

Yillar	2002	2004	2006	2008
Aholiga issiqlik energiyasi yetkazib beruvchi korxonalar soni	464	395	379	438*
Qozonxonalarning umumiy quvvati (ming Gkal.soat)	28,4	25,4	24,2	29,4
Jami olingan issiqlik energiyasi (mln.Gkal)	46,3	47,1	47,9	55,4
Etkazib berilgan issiqlik energiyasi (mln.Gkal)	43,9	45,9	46,4	52,3
O'z iste'molchilariga yetkazib berilgan issiqlik energiyasi (mln.Gkal)	29,7	31,8	32,4	40,3
Shu jumladan: **Aholiga**	15,3	13,6	13,4	16.4
Kommunal xo'jalik ehtiyojlari uchun	7,5	9,3	9,9	11,6
Ishlab chiqarish korxonalari ehtiyojlari uchun	6,9	8,9	9,1	12,3

* — yuqori unumli kichik lokal qozonxonalar qurib ishga tushirilmoqda.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, respublikamizda yildan yilga issiqlik energiyasi ishlab chiqaruvchi yirik korxonalar sonining qisqarib borishi bilan birga ularning o'rniga yuqori samaradorlikka ega bo'lgan lokal kichik qozonxonalar qurib ishga tushirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 5-noyabrdagi «Kommunal xo'jaligida energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy etish kompleks dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 241-sonli Qarori hamda 2006-yil 17-yanvardagi «Respublika budjetidan va mahalliy budjetlardan moliyalashtiriladigan korxonalar va tashkilotlarning ma'naviy eskirgan va tejamsiz bug' qozonli agregatlarini 2007-2008-yillarda respublika mintaqalari bo'yicha almashtirish dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi 7-sonli Qaroriga muvofiq katta ishlar amalga oshirilmoqda va pirovard natijada yoqilg'ini tejovchi uskunalar o'rnatilib, ishlab chiqarilayotgan issiqlik energiyasidan samaraliroq foydalanishga erishilmoqda.

Masalan: 2002-yilda 464 ta korxona tomonidan jami 46,3 mln. Gkal issiqlik energiyasi olingan bo'lsa, shundan 29,7 mln. Gkal issiqlik o'z iste'molchilariga yetkazib berilgan. 2008-yilda esa 438 ta korxona tomonidan jami 55,4 mln. Gkal issiqlik energiyasi olingan, va shundan 52,3 mln.Gkal issiqlik iste'molchilariga yetkazib berilgan yoki 2002-yilga nisbatan 2008-yilda ishlab chiqarilgan issiqlik energiyasini iste'molchilarga yetkazib berish 32,4 %ga ko'paygan.

6.5. Uy-joy kommunal xo'jaligida tabiiy gazdan foydalanish va gaz ta'minoti tizimi

Dunyoda uy-joy kommunal xo'jaligi tizimida tabiiy gazdan foydalanish masalasini o'rganish natijalari gazdan foydalanish eng avvalo shu mamlakatlar hududida tabiiy gaz zahiralari mavjudligiga bog'liqligini ko'rsatadi. Gazni import qilishda esa mamlakatlar iqtisodiy imkoniyatlaridan va davlatlararo gaz magistrallari mavjudligidan kelib-chiqib yondashadilar. So'nggi yillar tajribasiga ko'ra gaz eksporti masalasida tranzit qiluvchi davlatlar tazyiqi

kuchayganini ham alohida ta'kidlash lozim bo'ladi. Bu masalada misol qilib Yevropa davlatlariga gaz sotish jarayonidagi Rossiya—Ukraina munosabatlarini keltirish mumkin.

Tabiiy gaz zahirasi mavjud bo'lmagan, yoki miqdori cheklangan davlatlarda gaz o'rnida boshqa turdagi energiya manbalaridan (elektr energiyasi, ko'mir, torf, neft mahsulotlari va boshqa energiyaning noan'anaviy turlaridan) foydalanishni yo'lga qo'yish ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida kommunal xo'jaligi tizimida o'tgan asrning 70-yillariga qadar ko'mir, neft va torf mahsulotlaridan keng foydalanilgan. So'nggi yillarda bu yoqilg'i turlaridan asosan elektr energiyasi va issiqlik energiyasi ishlab chiqarishda (qozonxonalarda) foydalanilib, aholi iste'moliga ko'proq elektr energiyasidan foydalanilmoqda. Shu sababli, Yevropa mamlakatarida aholi turarjoylarini gaz bilan ta'minlanishi 20-45% ni tashkil etadi. Statistik ma'lumotlardan esa AQShning Nyu-York shahridagi turarjoy binolarining 11% tabiiy gaz bilan ta'minlanganligini va 80%dan ortiq turarjoy binolarida gaz o'rniga elektr energiyasidan foydalanish yo'lga qo'yilganligini ko'rish mumkin.

Sobiq sovet tuzimida yoqilg'i sanoatining barcha turlari kabi tabiiy gaz ishlab chiqarish sohasi ham strategik ahamiyatga ega bo'lib, bu sohaning faoliyati markazdan turib boshqarilgan. Gaz ishlab chiqarish hajmi va undan foydalanish, shu jumladan aholi yashash joylarini tabiiy gaz bilan ta'minlash rejasi ham markazdan tasdiqlangan. Shu sababli respublikamiz hududidan katta miqdordagi tabiiy gaz qazib olinsa-da, mahalliy aholi turarjoylarini gaz bilan ta'minlashga, ayniqsa qishloq joylariga, imkoniyat berilmagan. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab, Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan respublikamiz iqtisodiyotida bozor munosabatlarini joriy etishda kuchli ijtimoiy himoyaga alohida e'tibor qaratildi. Aholini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash dasturi ishlab chiqildi. Mazkur Dasturda 2010-yilga qadar aholi turar-joylarni tabiiy gaz bilan ta'minlashni asosan yakunlash ko'zda tutilgan.

Gaz ta'minoti yagona tizimga egaligi bilan izohlanadi, uning barcha tarkibiy bo'laklari (konlar, gaz quvurlari, shahar ichidagi

tarmoqlar) bir biri bilan bog'langan va rejalashtirishda shu aloqalarning hisobga olinishi zarur.

O'zbekiston Respublikasida tabiiy gazni qazib olish va uni yirik magistrallar orqali transpartirovka qilish ishlari «O'zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasi tomonidan amalga oshiriladi. Iste'molchilar, shu jumladan, kommunal xo'jaligi tizimi ham mazkur tizim orqali tabiiy gaz bilan ta'minlanadi. 2003-yilga qadar kommunal xo'jaligi tizimida tabiiy gazni sotish va is'temolchilar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish, gaz tarmoqlaridan foydalanishni tashkil etish, ularni ta'mirlash va qurish ishlari «Boshkommungaz» korxonasi tomonidan amalga oshirilib kelgan. To'qsoninchi yillarning oxiriga kelib mamlakatimizda kommunal xo'jaligi sohasiga tabiiy gaz yetkazib berish bo'yicha iqtisodiy munosabatlarni tashkil etishda jiddiy kamchiliklar ko'zga tashlandi. Shu sababli tabiiy gaz yetkazib berishni takomillashtirish, xizmat ko'rsatuvchi va iste'molchilar o'rtasida erkin bozor munosabatlarini joriy etish bo'yicha Respublikamiz Hukumati tomonidan katta ishlar amalga oshirildi. Sohada islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 1-iyundagi «Uy- joy fondini suv va gazni hisobga olish priborlari bilan jihozlash, ularni O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 280-sonli Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 21-sentyabrdagi «Tabiiy gaz yetkazib berish va uning uchun hisob-kitob qilish tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi 439-sonli Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 15-yanvardagi «Xitoy Xalq Respublikasi Hukumatining foizsiz krediti doirasida gazni hisobga olish priborlari sotib olish to'g'risida»gi 21-sonli Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 20-martdagi «Tabiiy gaz yetkazib berish va uning uchun hisob-kitob qilish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi 90-sonli Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 28-martdagi «2002-2004-yillarda uy-joy fondini gazni hisobga

olish priborlari bilan jihozlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi 99-sonli Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘ztransgaz» aksionerlik kompaniyasi faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2006-yil 8-avgustdagi PQ-438-sonli Qarorlari va boshqa me’yoriy hujjatlar chiqarildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 2-oktyabrdagi «Respublika gaz ta’minotini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 421-sonli Qaroriga muvofiq respublikada tabiiy gaz sotishning bozor mexanizmlarini joriy etish, respublika gaz ta’minoti tizimini boshqarish tuzilmasini takomillashtirish, hisob-kitob-to‘lov intizomini yanada mustahkamlash borasida yangi boshqaruv mexanizmini yaratishga asos bo‘ldi. Mazkur Qarorga muvofiq yuqorida keltirilgan vazifalarni bajarib kelgan «Boshkommungaz» korxonasi va uning «O‘ztexgaz» sho‘ba korxonasi tugatildi.

«Boshkommungaz» korxonasi tasarrufida bo‘lib kelgan «Gazta’minot» hududiy sho‘ba korxonalari, «Texgaz» sho‘’ba boshqarmalari yuridik shaxs huquqiga hamda tuman (shahar) filiallariga ega bo‘lgan hududiy gaz ta’minoti korxonalari («Qoraqalpoqgaz», «Andijongaz», «Buxorogaz», «Jizzaxgaz», «Qashqadaryogaz», «Navoiygaz», «Namangangaz», «Samarqandgaz», «Surxondaryogaz», «Sirdaryogaz», Toshkentviloyatgaz», «Farg‘onagaz», «Xorazmgaz» va «Toshkentshahargaz»)ga aylantirildi. «Gazta’minot», «Texgaz» hududiy gaz ta’minoti korxonalari «O‘zkommunxizmat» agentligiga hisobot beruvchi bo‘lib bu korxonalarining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

— gaz tarmoqlari va uskunalaridan foydalanish va ularga xizmat ko‘rsatishni ta’minlash;

— «O‘ztransgaz» aksiyadorlik kompaniyasi bilan tabiiy gaz yetkazib berish yuzasidan shartnomalar tuzish, iste’molchilarni tabiiy va suyultirilgan gaz bilan ta’minlash, sotilayotgan gaz hajmlarining qat’iy hisobini olib borish;

— gaz tarmoqlarini joriy ta’mirlash, shuningdek tasdiqlangan aniq ro‘yxatlarga muvofiq ularni mukammal ta’mirlash;

— sotilgan tabiiy gaz uchun o‘z vaqtida oldindan haq to‘lash hamda mablag‘lar yig‘ib olish ishlarini tashkil etish;

— qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda obyektlarni gaz quvurlari tarmoqlariga ulash uchun texnik shartlarni berish va ulash;

— tasdiqlangan dasturlarga muvofiq iste’molchilarga gazni hisobga olish priborlarini o‘rnatish, ularni hisobga olish va ulardan foydalanilishini nazorat qilish;

— gaz tarmoqlari va uskunalaridan xavf-xatarsiz foydalanish qoidalari normativ talablariga rioya etishni nazorat qilish.

Yetkazib berilayotgan tabiiy gaz uchun hisob-kitob qilish tizimini takomillashtirish va o‘z vaqtida haq to‘lanishi uchun javobgarlikni kuchaytirish maqsadida hududiy gaz ta’minoti korxonalari apparati tuzilmasida sotilgan tabiiy gaz uchun iste’molchilardan mablag‘lar yig‘ilishini nazorat qilish tumanlararo inspektsiyalari tashkil etildi. Inspektsiyaga: sotilgan tabiiy gaz uchun aholidan va iste’molchilarning boshqa toifalaridan mablag‘ to‘planishining to‘liqligi ta’minlanishini nazorat qilish;

— amaldagi gaz tarmoqlariga ruxsatsiz ulanib olish hollarini aniqlash va qonun hujjatlariga muvofiq ularning oldini olish chora-tadbirlarini ko‘rish;

— haqini to‘lamagan va ruxsatsiz ulanib olgan iste’molchilarni gaz tarmoqlaridan uzib qo‘yish to‘g‘risida tuman (shahar) gaz ta’minoti tashkilotlariga yozma ko‘rsatmalar berish vazifalari yuklatildi. Shuningdek, gaz ta’minoti bo‘yicha nazorat-taftish boshqarmasining asosiy vazifalari etib:

— hududiy gaz ta’minoti korxonalari tarkibida tashkil etiladigan inspektsiyalar faoliyatini;

— sotilgan gaz uchun aholidan va ulgurji iste’molchilardan mablag‘lar to‘liq yig‘ilishini;

— hududiy gaz ta’minoti korxonalari tomonidan «O‘ztransgaz» aksiyadorlik kompaniyasi bilan o‘z vaqtida hisob-kitob qilinishini;

— gaz tarmoqlariga ruxsatsiz ulanib olishga yo‘l qo‘yilmasligini doimiy nazorat qilish belgilansin.

— Respublikada 2003-yil 1-noyabrdan boshlab, aholidan tashqari, iste'molchilarning barcha toifalari uchun hududiy gaz ta'minoti korxonalari tomonidan yetkazib beriladigan tabiiy gaz uchun bir oylik iste'mol hajmining 15 foizi haqini majburiy ravishda oldindan to'lash joriy etildi;

— iste'mol qilishning hisob-kitob qilinadigan davri boshlangungacha haqni oldindan to'lamagan yoki yakuniy hisob-kitobni shartnomalarda belgilangan muddatlarda o'z vaqtida amalga oshirmagan ulgurji tabiiy gaz iste'molchilariga tabiiy gaz yetkazib berishni to'xtatish kiritilib, 2004-yil 1-yanvardan boshlab kichik va xususiy biznes korxonalariga tabiiy gaz yetkazib berish iste'mol qilish limiti belgilanmasdan, to'g'ridan-to'g'ri tuziladigan shartnomalar asosida amalga oshiradigan bo'ldi.

Respublikamizda 2004-2005-yillarda hamma joyda tuman (shahar) gaz xo'jaliklarining bo'linish chegaralarida, shuningdek shaharlarning turar joy mavzelaridagi gaz tarmoqlarining kirish joylarida gazni hisobga olish priborlari o'rnatildi, xonadonlarda gazni hisobga olish jihozlari o'rnatish ishlari yakuniga yetkazilmoqda.

Gazni hisobga olish jihozlarini o'rnatish orqali eng avvalo iste'molchilar bilan xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasida erkin shartnomaviy munosabatlarni tashkil etilishiga erishilsa, ikkinchi tomondan, tabiiy gaz sarfi hisobini aniq olib borish va undan tejamkorlik bilan foydalanishga olib keladi.

Gaz xo'jaligi ishining asosiy ko'rsatkichi, aholi va boshqa iste'molchilarga yetkazilayotgan xizmatlar hajmidir. Aholining kommunal-maishiy talablari uchun gaz 1 ta yashovchiga mo'ljallangan o'rtacha me'yor bo'yicha hisoblanadi. Suyultirilgan gaz tarqatuvchi stantsiyalar quvvati gaz to'ldirilgan ballonlar sig'imi bo'yicha aniqlanadi. Stantsiya quvvatini oshirishni rejalashtirilganda aholining suyultirilgan gazga talabi va gazni muddatida yetkazishni hisobga oladi. Qishloqlardagi xonadonlarni gazlashtirishni rejalashtirish gaz ta'minoti muassasasi me'yorlari bo'yicha amalga oshiriladi.

6.7-jadval

O‘zbekiston Respublikasida aholi yashash joylarini tabiiy gaz bilan ta’minlanishi (yil yakuni bo‘yicha)

Yillar	2002	2004	2006	2008
Gaz tarmog‘i va suyultirilgan gaz bilan ta’minlangan aholi turar joylari:				
Shaharlar	120	120	120	120
Shahar tipidagi aholi markazlari	105	105	105	105
Qishloqlar	10438	10911	11129	11424
Gaz tarmog‘iga ulangan va suyultirilgan gaz bilan ta’minlangan xonadonlar jami: (ming ta)	4456,0	4601,6	4726,8	4835,4
Shu jumladan:				
Shaharlarda	2006,7	2046,3	2068,5	2081,1
Qishloq joylarida	2449,3	2555,3	2658,3	2764,4
Bir tarmoqli gaz uzatish quvurlari uzunligi (ming km.)	91,7	96,6	98,0	99,9
Shu jumladan:				
Shaharlarda	22,8	23,2	23,6	24,1
Qishloq joylarida	68,9	73,4	74,4	76,7
Aholiga gaz yetkazib berish:				
gaz uzatish tarmoqlari orqali (mlrd. kub.m.)	17,6	15,5	16,8	18,6
suyultirilgan gaz (ming tonna)	12,2	21,3	24,8	25,4
Kommunal-maishiy ehtiyoj uchun yetkazib berilgan gaz:				
gaz uzatish tarmoqlari orqali (mlrd. kub.m.)	1,1	1,0	1,1	1,2
suyultirilgan gaz (ming tonna)	2,7	2,4	2,4	2,5
Aholiga gaz yetkazib berish o‘rtacha bir shahar aholisi hisobiga				
gaz uzatish tarmoqlari orqali (kub.m.)	851,6	689,0	782,0	864,2
suyultirilgan gaz (kg.)	0,5	0,4	0,5	0,6

Respublikamizda gazlashtirilgan kvartiralar soni jami 4456 mingga yetdi, shundan 2006,7 mingtasi shaharlarga, 2449,3 mingtasi qishloq joylariga to‘g‘ri keladi. Jami respublika bo‘yicha 120 ta shahar va 10438 ta qishloq aholiga uy-joylari gazlashtirilgan.

Tarmoqlarning uzunligi 91653,9 km bo'lib, shuning 22810,8 km dan shaharlarda, 68843,1 km dan qishloqlarda foydalanilmoqda. Aholining o'rtacha yillik foydalanish ko'rsatkichi — tabiiy gazdan 17,5 mlard. m^3 ni va suyultirilgan gazdan — 12 ming tonnani tashkil etadi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2002-yilda gaz uzatish tarmog'i orqali o'rtacha bir shahar aholisi hisobiga 851,6 m^3 tabiiy gaz yetkazib berilgan bo'lsa, 2006-yilda uning hajmi 682,0 m^3 gacha qisqardi. Qishloq aholisi hisobiga esa bu ko'rsatkich 2002-yilda 607,0 m^3 ni 2008-yilda esa 502 m^3 ni tashkil etdi. Isme'molchilarda sarflangan gazni hisobga olish priborlarining o'rnatilishi nafaqat sarflanayotgan yoqilg'i miqdorini kamaytirishga, balki aholi tomonidan sarflangan gaz uchun to'lovni to'lov intizomi yaxshilandi.

Birgina 2009-yilda respublikamizda yangi gaz tarmoqlari qurilishiga 9,1 mlrd.so'm investitsiya kiritildi, shu jumladan mazkur investitsiyalarning 99,98 foyizini aholi mablag'lari tashkil etdi.

6.6. Kommunal xo'jaligi tizimida obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish xizmatlari tarkibi va ularni tashkil etish

Kommunal xo'jalik tizimi korxonalarini faoliyat xarakteridan kelib chiqib asosan uchta guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga uy-joy fondi va ijtimoiy ob'yektlarni boshqarish xizmatlari kirsa, ikkinchi guruh muhandislik qurilmalari, inshootlar va kommunikatsiyalar (shu jumladan ishlab chiqarish korxona va tashkilotlarining ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish) faoliyatini ta'minlash, energiya, gaz, suv ta'minoti, oqovaquvur xizmatlaridan tashkil topadi. Uchunchi guruh obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ish va xizmatlaridan tashkil topadi. Bu guruh faoliyat turlari ko'pligi va xilma-xilligi bilan boshqalaridan ajralib turadi.

Obodonlashtirish ishlari aholi yashash joylarini obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va ekologik musaffoligini ta'minlash bilan bog'liq murakkab va turli-tuman faoliyat turlaridan tashkil

topgan jarayonlarni birlashtiradi. Obodonlashtirish ishlari shahar xo'jaligi uchun o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lib ular asosan besh yo'nalishdagi faoliyat turlariga bo'linadi. Obodonlashtirish ishlari quyidagicha klassifikatsiyalanadi:

1. Qurilish va ta'mirlash ishlari:

— yo'l qurilishi va ta'mirlash;

— ko'prik, tonnellar va yer osti o'tish yo'llar qurilishi va ta'mirlash;

— sun'iy inshootlar arxitektura elementlari qurilishi va ta'mirlash;

— devor, panjara va cho'yan to'siqlar qurish va ta'mirlash;

— yo'lovchi tashish transporti bekatlarini qurish va ta'mirlash;

— irrigatsiya va tabiiy suv ta'minoti shahobchalarini qurish va ta'mirlash;

— fontanlar va suv inshootlarini qurish, ta'mirlash va ishlatish;

— axlat qutilari o'rnatish va maxsus chiqindi tashlash joylarini qurish va ta'mirlash va boshqalar.

2. Hududdan foydalanish va tozalikni ta'minlash ishlari:

— yo'llar va sun'iy qoplamali hududlarni yuvish, tozaligini ta'minlash va ulardan foydalanishni tashkil etish;

— markaziy ko'chalar va yo'laklarni supirish va tozaligini ta'minlash;

— maishiy chiqindilarni tashish va utilizatsiya qilish;

— xiyobon va istirohat bog'lari obodonligini ta'minlash va joriy ta'mirlash;

— tarixiy obidalar, yodgorliklar haykallarni va obodonlashtirish va joriy ta'mirlash;

3. Badiiy bezash va ko'rkamlashtirish ishlari:

— shahar ko'chalarini hamda bino va inshootlarni tashqi bezash;

— rassomchilik mahsulotlari va arxitekturaviy loyihalarni tayyorlash va o'rnatish;

— shaharda toponomik ishlarni amalga oshirish;

— shiorlar, plakatlar va pannolar tayyorlash va joylashtirish;

— shaharni bayram va tadbirlarga tayyorlash va boshqalar;

4. Ijtimoiy soha xizmatlari:

— ziyoratgohlar va qabristonlarni obodonlashtirish ishlari;

— aholiga marosim xizmatlarini tashkil etish;

— dezinfektsiyalash va zararsizlantirish ishlari;

— shahardagi daydi hayvonlarni yo'qoyish kabi faoliyat turlari.

5. Ko'kalamzorlashtirish ishlari:

— manzarali va mevali dov-daraxtlar ko'chatlarini yetishtirish va o'rmonchilik xo'jaligi;

— gullar va manzarali o'simliklar yetishtirish;

— shahar hududida daraxtlar va gullar ekish va parvarishlash;

— shahar yerlarida agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish;

— shaharda bog'dorchilik va gulzorlar yaratish;

— suv quyish shaxobchalari, drenajlar, ariq-zovurlar qurish va ta'mirlash;

— quduqlar va suv ta'minoti inshootlari qurish va ta'mirlash kabi ishlar kiradi.

Shaharlar va yirik aholi yashash markazlarida yuqorida keltirilgan ish va xizmatlar ko'plab shu yo'nalishga ixtisoslashgan mustaqil korxona va tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Ammo, hozirgi kunda sohadagi ish va xizmatlarning barchasida ham ularni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxs o'rtasida sof raqobat muhiti mavjud deb bo'lmaydi. Hozirgi kunda, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshiruvchi korxona va tashkilotlar o'rtasida sof raqobat muhitini shakllantirish, ish va xizmatlarni bajarishda bahosini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish va mahalliy budjetdan ajratilayotgan mablag'lardan samarali foydalanishni tashkil etish hozirgi kunda o'z yechimini kutayotgan muammolardan bo'lib hisoblanadi. Shu sababli shahar hududida obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini tashkil etish, ularni amalga oshiruvchi korxona va tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish, obodonlashtirish ishlarini belgilangan muddatlarda va sifatli qilib bajarilishini ta'minlash mahalliy hokimiyat tomonidan nazorat qilishni va muvofiqlashtirib borishni taqozo etadi. Shu sababli, har bir shahar va aholi yashash markazlarida mahalliy hokimiyat qoshida obodonlashtirish ishlarini boshqarish tuzilmalari faoliyat ko'rsatadi.



6.2-rasm. Toshkent shahar Obodonlashtirish bosh boshqarmasining tashkiliy tuzulmasi.

Respublikamiz poytaxti Toshkent shahrida ham shahar hokimiyati qoshida obodonlashtirish bosh boshqarmasi faoliyat ko'rsatmoqda. Mazkur boshqarma faoliyati bevosita shahar hokimining birinchi o'rinbosari tomonidan nazorat qilib boriladi. Toshkent shahrida obodonlashtirish faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarda 35 mingdan ortiq xodim faoliyat ko'rsatadi.

Respublika kommunal xo'jaligining yana bir muhim tarmog'i shahar; shaharcha va tuman markazlari sanitariya holatini yaxshilash, qattiq va suyuq chiqindilarni o'z vaqtida yig'ish va ularni chiqindi maydonlariga olib borish, zararsizlantirishdir. Bu xizmatlar 115 ta shahar, 100 ta shaharchada yo'lga qo'yilgan. Bugungi kunda respublikamizda umumiy maydoni 1000 gektar bo'lgan 180 ta chiqindi zararsizlantiriladigan maydon mavjud. Yiliga 10-13 mln. m^3 qattiq va 5-7 mln. m^3 suyuq chiqindi yig'iladi va ular 1067 ta, shu jumladan Janubiy Koreyadan olingan zamonaviy mashina va mexanizmlar orqali maxsus joylarga tashiladi. Yirik shaharlar — Toshkent, Samarqand, Andijon, Buxoro, Namangan, Farg'onada maxsus ixtisoslashtirilgan avtokorxonalar bor.

Tayanch iboralar

Muhandislik tizimlari, iqtisodiy faktorlar, ijtimoiy faktorlar, demografik holat, suv xo'jaligi, oqova suvlar, loyiha quvvati, lokal tarmoq, obodonlashtirish, tarkibiy tuzulma, geografik shart-sharoit, ekologik muhit, energiya resurslari, foydalilik koeffitsenti, energiya yo'qotilishi, issiqlik magistrallari, gaz ta'minoti, ko'kalamzorlashtirish.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Kommunal xo'jaligi tizimining tarkibiy tuzilishga ta'sir ko'rsatuvchi ko'rsatkichlarga nimalar kiradi?

2. Shahar uy-joy kommunal xo'jaligi tizimining o'ziga xosligi nimalarda namayon bo'ladi?

3. Respublikamizda kommunal xo'jaligi tizimining faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish qaysi tashkilot tomonidan amalga oshiriladi va u qanday vazifalarni bajaradi?

4. Suv ta'minoti korxonalarining quvvati, joylashuvi va texnologik tarkibi nimalarga bog'liq bo'ladi?

5. Oqova-quvur tarmog'i qanday vazifani bajaradi? Oqova suvlar qanday guruhlarga bo'linadi?

6. Mustaqillik yillarida respublikamiz energetika tizimida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?

7. Energetika sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlari qaysilar?

8. «Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari» nima va u qanday vazifani bajaradi?

9. Issiqlik energiyasi ishlab chiqarish tizimida mavjud kamchiliklar nimalardan iborat?

10. Issiqlik energiyasi ishlab chiqarish tizimida energiyani tejovchi texnologiyalarni joriy etish maqsadida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

11. Issiqlik energetika tizimida amalga oshirilayotgan islohotlardan qanday samara kutilmoqda?

12. Respublikamizda uy-joy xo'jaligini tabiiy gaz bilan ta'minlash bo'yicha qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

13. Gaz ta'minoti tizimini isloh qilishda «Respublika gaz ta'minotini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorning ahamiyati nimadan iborat?

14. «O'ztransgaz» va gaz ta'minoti bo'yicha nazorat-taftish boshqarmalarining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

15. Obodonlashtirish ishlari qanday klassifikatsiyalanadi?

VII BOB. UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGI TIZIMIDA BAHONI SHAKLLANTIRISH VA KOMMUNAL XIZMATLARDAN FOYDALANISH ME'YORLARI

7.1. Kommunal xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalarda uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash xarajatlarining qiymatini shakllantirish

Uy-joy fondidan foydalanish va uni talab darajasida saqlash xarajatlari «Uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash xarajatlarining tarkibi» to'g'risidagi Nizomga asosan shakllantirilib, uy-joy umumiy maydonniing 1 kv. metriga qilinadigan foydalanish xarajatlari tariflarini shakllantirish asosida tuziladi.

Uy-joyga texnikaviy xizmat ko'rsatish va ta'mirlash tarifining miqdori, uy-joy fondining mulk shaklidan qat'iy nazar:

1. **Xarajatlarning ishlab chiqarish tannarxi;**
2. **Davr xarajatlari**;
3. **Moliyaviy faoliyatga oid xarajatlardan tashkil topadi.**

Xarajatlarning ishlab chiqarish tannarxi o'z ichiga:

1. **Uy xo'jaligini saqlash xarajatlari;**
2. **Hamma foydalanadigan joylar** (xonadondan tashqaridagi xonalar, muhandislik tarmoqlari)**ni joriy ta'mirlash, nosozliklarni bartaraf etish va rejalashtirilgan oldini olish ishlarini amalga oshirish xarajatlari;**
3. **Uy-joy fondidan foydalanuvchi yuridik shaxsning asosiy fondlariga** kiruvchi mashinalar, uskunalar, anjomlar va boshqa mulkni to'liq tiklashga **amortizatsiya ajratmalari;**
4. **Uy-joyning hamma foydalanadigan joylarini va uy atrofidagi hududni mukammal ta'mirlash** xarajatlarini oladi.

Davr xarajatlariga esa **xizmatlarni sotish, boshqaruv, boshqa operatsion chiqim va zararlar** kiradi.

Uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash tariflariga kiritilgan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlar turlari xarajatlarining hisobi har bir uy, uy-joydan foydalanish korxonasiga oid shartnomaga, uning umumiy maydonidan hamda amalda bo'lgan uy umumiy maydonining 1 m^2 ga 1 oylik tarifdan kelib chiqqan holda ilova qilinadi.

Turar joy xonalariga texnikaviy xizmat ko'rsatish va ta'mirlash uchun to'lov bo'yicha uzil-kesil hisob-kitob yil oxirida, amalda bajarilgan ishlar hajmi, ularning sifati va bajarish muddatlari asosida amalga oshiriladi. Xarajatlar asoslab berilgan taqdirda to'lovlar qayta hisoblanadi: kamomadlar hisobot yilidan keyingi davrda uy-joy umumiy maydonining 1 m^2 iga tariflarni shakllantirishda hisobga olinadi, aholidan ortiqcha olingan to'lovlar esa kelgusi to'lovlar hisobiga o'tkaziladi.

Xarajatlarning ishlab chiqarish tannarxini hisoblab chiqarish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash tarifini shakllantirishda ishlab chiqarish tannarxining tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan «Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom»ga muvofiq aniqlangan xarajatlar kiritiladi.

2. Ishlar va xizmatlarning ishlab chiqarish tannarxini tashkil etuvchi xarajatlar iqtisodiy tarkibiga qarab quyidagi qismlar bo'yicha guruhlanadi:

— ishlab chiqarish bilan bog'liq moddiy xarajatlar;

— ishlab chiqarish bilan bog'liq mehnatga haq to'lash xarajatlari;

— ishlab chiqarishga taalluqli ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;

— ishlab chiqarish bilan bog'liq asosiy fondlar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;

— ishlab chiqarish bilan bog'liq boshqa xarajatlar.

3. Ishlab chiqariladigan va sotiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish hamda to'lash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga muvofiq (29.12.1997 da 383-son bilan ro'yxatga olingan, Normativ hujjatlar byulleteni, 1998-yil, 3-soni, 1999-yil, 8-soni, 2000-yil, 3-soni, 2001-yil, 1, 2-sonlari) haqini aholining o'zi to'laydigan uy-joy

fondidan foydalanish va saqlash, sanitariya jihatidan tozalashga, lift xo'jaligi, hamma foydalanadigan antennalar o'rnatish xo'jaligiga oid xizmatlar qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladi.

Ushbu imtiyoz fuqarolar nomidan ish ko'radigan va aholiga ko'rsatgan xizmatlari uchun yuqorida keltirilgan xo'jaliklar bilan hisob-kitob qiladigan uy-joydan foydalanish boshqarmalari (UFB) yoki uy-joy mulkdorlari shirkatlariga ham tatbiq etiladi.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilgan uy-joydan foydalanish korxonalari moddiy resurslar (ishlar, xizmatlar)ni qo'shilgan qiymat solig'i bilan sotib oladi. Sotib olingan moddiy resurslar (ishlar, xizmatlar)ga solinadigan qo'shilgan qiymat solig'i ishlab chiqarish xarajatlariga kiritiladi.

Pudrat usulida amalga oshiriluvchi joriy va mukammal ta'mirlash xarajatlari uy-joydan foydalanish tashkilotlarining xarajatlarida qo'shilgan qiymat solig'isiz hisobga olinadi.

Ishlab chiqarish bilan bog'liq moddiy xarajatlar tarkibi quyidagicha shakllantiriladi:

1. Ishlab chiarish bilan bog'liq moddiy xarajatlarga quyidagilar kiradi:

a) uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash ishlarini bajarishda, xizmatlar ko'rsatishda zarur bo'ladigan, chetdan sotib olinadigan materiallar.

Tannarxni xomcho't kalkulyatsiyalashda moddiy xarajatlar materiallar sarflashning belgilangan me'yorlari bo'yicha hisobga olinadi;

b) uy joy fondini yaxshi holatda saqlash va ta'mirlash uchun ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish jarayonida foydalaniladigan, sotib olinadigan materiallar, shuningdek uskunalarni tuzatish uchun ehtiyot qismlar, asosiy fondlarga kirmaydigan asbob-uskunalar, moslamalar, anjomlar va boshqa mehnat vositalarining eskirishi, jomakor hamda o'zga arzonbaho buyumlarning eskirishi;

v) mazkur xo'jalik yurituvchi subyektda keyinchalik montaj qilinadigan yoki qo'shimcha ishlovdan o'tkaziladigan sotib olinuvchi butlash buyumlari va yarim tayyor mahsulotlar;

g) chetdan xarid qilinadigan yoqilg'ining barcha turlari;

d) xo'jalik yurituvchi subyektlarning transporti bilan amalga oshiriluvchi, ishlab chiqarishga ko'rsatiladigan transport xizmatlari;

e) sotib olinadigan energiyaning hamma turlari (uy-joy fondining foydalanadigan joylarini yoritish, lift xo'jaligi hamda uy xo'jaligining uskunalari ishlashini ta'minlash uchun elektr energiyasi), isitish qurilmalarini yuvib tozalash va isitish mavsumiga tayyorlash uchun foydalaniladigan suv;

j) chet yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan, ishlab chiqarish bilan bog'liq ish hamda xizmatlar (ko'chadagi axlatlarni olib ketish, ko'p kvartirali uylarning yerto'lalariga kimyoviy ishlov berish, uy-joy fondini mukammal ta'mirlash va b.);

2. «Moddiy xarajatlar» qismida aks ettiriluvchi moddiy resurslar qiymati xarid narxlaridan, shu jumladan barter bitimlaridagi narxlardan, qo'shimcha narxlar(ustamalar)dan, ta'minlovchi, tashqi iqtisodiy tashkilotlarga to'lanadigan vositachilik haqidan, tovar birjalari xizmatlari, shu jumladan brokkerlik xizmatlari qiymatidan, bojxona bojlaridan, chet yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriluvchi tashish, saqlash va yetkazib berish haqidan tashkil topadi.

Ishlab chiqarish bilan bog'liq mehnatga haq to'lash xarajatlariga:

1. Ishlab chiqarish bilan bog'liq mehnatga haq to'lash xarajatlari uy-joy fondini saqlash va xizmat ko'rsatishda qatnashuvchi ishlab chiqarish xodimlari (ko'cha tozalovchilar, farroshlar, axlat kameralari va axlat quvurlarini tozalovchilar, ta'mirlovchilar brigadalarining ishchilari, liftyorlar hamda liftlarga dispetcherlik xizmatlarini ko'rsatuvchi operatorlar, reja asosida-oldini olish maqsadida joriy ta'mirlovchi ishchilar, chaqiriqlarga ko'ra nosozliklar va ishdan chiqishlarni bartaraf etuvchi ishchilar, yukchilar va hokazo) mehnatiga haq to'lash bilan bog'liq xarajatlar kiradi.

2. Ishlab chiqarish bilan bog'liq amalda bajarilgan ish uchun ishbay narxlar, tarif stavkalari, lavozim maoshlaridan kelib chiqqan holda, korxonada qabul qilingan mehnatga haq to'lash shakllari va tizimlariga muvofiq holda hisoblab chiqilib yozilgan ish haqi, shuningdek bajarilgan ishni hisobga olishga oid birlamchi hujjatlarda ko'zda tutilgan rag'batlantiruvchi to'lovlar;

Ish tartibi va mehnat sharoiti bilan bog‘liq bo‘lgan tovon tarzidagi to‘lovlar, shu jumladan:

a) bir yo‘la bir necha kasbda ishlaganlik, xizmat ko‘rsatish sohalarini kengaytirganlik uchun ustamalar;

b) og‘ir, zararli mehnat sharoitida ishlaganlik uchun ustamalar, xususan:

— mexanizatsiyalashtirilgan asboblar yordamida tosh, beton hamda temir-beton konstruktsiyalarda teshiklar, ariqchalar, tokchalar va shu kabilar ochadigan ishchilarga to‘lanadigan ustamalar;

— yuzaga qorishmani dastaki usulda chaplab va ishqalab suvaydigan, beton yuzalarni dastaki usulda yoki pnevmatik asboblar yordamida o‘yadigan suvoqchilarga to‘lanadigan ustamalar;

v) suvsiz, baland tog‘li, cho‘l joylarda ishlaganlik uchun amaldagi qonun xujjatlariga binoan, shu jumladan mehnatga haq to‘lashni hududiy tartibga solish koeffitsientlari asosida amalga oshiriladigan to‘lovlar;

g) ishlanmagan vaqt uchun to‘lanadigan haq, ya’ni:

— amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq navbatdagi (har yilgi) va qo‘shimcha ta’tillarga to‘lanadigan haq, foydalanilmagan navbatdagi (har yilgi) hamda qo‘shimcha ta’tillar uchun to‘lanadigan haq, o‘smirlarning imtiyozli soatlari, bolani boqish uchun onaning ishidagi tanaffuslarga, shuningdek tibbiy ko‘riklardan o‘tish bilan bog‘liq vaqtga to‘lanadigan haq;

— donor xodimlarga tekshiruvdan o‘tgan, qon topshirilgan kunlar va har bir qon topshirilgan kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun to‘lanadigan haq;

— davlat oldidagi burchlarni bajarganlik (harbiy yig‘inlar, favqulodda vaziyatlar tufayli yig‘inlar va hokazo) uchun to‘lanadigai mehnat haqi.

3. Ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi xodimlarning mehnatiga haq to‘lash fondiga belgilangan tartibda kiritiladigan to‘lovlarning boshqa turlari kiradi.

Ishlab chiqarishga aloqador ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar tarkibiga qonun hujjatlarida belgilangan me’yorlar bo‘yicha, mehnatga haq to‘lash fondiga majburiy tartibdagi ijtimoiy ajratmalarga hisoblangan xarajatlarni o‘z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish bilan bog'liq **asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisoblashda**:

1. Asosiy ishlab chiqarish vositalari, shu jumladan lizing bo'yicha xarid qilingan asosiy vositalarning boshlang'ich (tiklash) qiymatidan hamda belgilangan tartibda tasdiqlangan me'yorlardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan amortizatsiya (eskirish) ajratmalari, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan tezlashtirilgan amortizatsiya.

2. Ishlab chiqarish bilan bog'liq nomoddiy aktivlarning eskirishi (amortizatsiyasi) har oyda, xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblab chiqargan me'yorlarda mahsulotlar (ishlar,xizmatlar) tannarxiga qo'shiladi. Bunda ularning boshlang'ich qiymati va unumli foydalanish muddati (lekin xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyat muddatidan oshib ketmasligi kerak) inobatga olinadi. Agar nomoddiy aktivlarning unumli foydalanish muddatini aniqlashning imkoni bo'lmasa, ularning eskirish me'yorlarini besh yil qilib, ammo ko'pi bilan xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati muddati hisobida belgilanadi.

Ishlab chiqarish bilan bog'liq boshqa xarajatlar jumlasiga yuqoridagi guruhlarga kirmaydigan barcha turdagi ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish xarajatlari kiritiladi va bularga:

a) ishlab chiqarishni xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya, asbob-uskunalar, moslamalar, boshqa mehnat vositalari va qurollari bilan ta'minlash xarajatlari;

b) asosiy ishlab chiqarish vositalarini ishlaydigan holatda saqlash xarajatlari (texnikaviy ko'zdan kechirish va qarov, o'rta, joriy hamda mukammal ta'mirlash, tuzatish xarajatlari). Xo'jalik yurituvchi subyektning o'z kuchi bilan amalga oshiriladigan ta'mirlash-tuzatishning barcha turlari (o'rta, joriy, mukammal) mahsulot (ishlar,xizmatlar) tannarxiga ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli qismlari (moddiy xarajatlar, mehnatga haq to'lash xarajatlari va b.) bo'yicha qo'shiladi;

v) yong'inga qarshi qo'riqlashni ta'minlash va xo'jalik yurituvchi subyektlardan texnikaviy foydalanishning, ularning faoliyatini nazorat qilish qoidalarida nazarda tutilgan boshqa maxsus talablarni bajarish xarajatlari.

Idoradan tashqari qo‘riqlash xarajatlari ana shunday qo‘riqlash shartligini belgilab beruvchi maxsus talablar mavjud bo‘lgandagina mahsulot (ishlar, xizmatlar) ning ishlab chiqarish tannarxiga qo‘shiladi;

g) texnikaviy boshqaruv vositalari, aloqa uzellari, signalizatsiya vositalarini, ishlab chiqarish jarayoniga aloqador boshqa texnikaviy boshqaruv vositalari, hisoblash markazlarini saqlash va xizmat ko‘rsatish xarajatlari;

d) xodimlarni ishlab chiqarish jarayoniga taalluqli belgilangan me’yorlar doirasidagi xizmat safarlariga yuborish xarajatlari;

e) ishlab chiqarishdagi shikastlanish tufayli mehnat qobiliyatini yo‘qotganlik uchun tegishli vakolatli organlarning qarorlari asosida yoki bu qarorlarsiz to‘lanadigan nafaqalar. Kasb kasalliklari munosabati bilan to‘lanadigan nafaqalar;

j) hamma foydalanadigan yo‘lovchi tashish transporti xizmat ko‘rsatmaydigan yo‘nalishlarda xodimlarni ish joyiga transportda olib borish va olib kelish bilan bog‘liq chiqimlar;

z) ishlab chiqarishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan va qonun xujjatlarida nazarda tutilgan yaxshi mehnat sharoiti yaratish hamda xavfsizlik texnikasini ta’minlash xarajatlari;

i) qonun hujjatlariga muvofiq tekinga beriladigan va doimiy shaxsiy foydalanishda qoladigan narsalar (shu jumladan formali kiyim-bosh, kiyim-kechak, maxsus oziq-ovqat mahsulotlari)ning qiymati (yoki ularni arzonlashtirilgan narxlarda sotish bilan bog‘liq imtiyozlar summasi).

Davr xarajatlari ikki guruhga bo‘linadi:

1. Davr xarajatlariga ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan quyidagi xarajat va chiqimlar kiradi:

— xizmatlarni sotish chiqimlari;

— xo‘jalik yurituvchi subyektni boshqarish xarajatlari;

— boshqa umumxo‘jalik chiqimlari.

2. Uy-joy fondidan foydalanish, saqlash va ta’mirlash-tuzatish bilan shug‘ullanuvchi korxonalar xizmatlarining tariflarini shakllantirishda zarur foydani aniqlash uchun «Davr xarajatlari"ning quyidagi moddalari hisobga olinadi.

Xizmatlarni sotish chiqimlariga quyidagilar kiradi:

a) sotish bozorini o‘rganish uchun belgilangan me’yorlar doirasidagi xarajatlar (marketing, reklama xarajatlari);

b) kassa xo‘jaligini yuritish va tushumni inkassatsiya qilish xarajatlari;

v) sotishga oid boshqa chiqimlar.

Ma’muriy chiqimlarga ushbular kiradi:

a) mazkur Nizom II bobining 4-bo‘limida keltirilgan, boshqaruv xodimlariga taalluqli mehnatga haq to‘lash chiqimlari;

b) boshqaruv xodimlarining mehnatiga haq to‘lash fondiga taalluqli bo‘lgan, qonun hujjatlarida belgilangan me’yorlardagi ijtimoiy sug‘urtaga majburiy tartibdagi ajratmalar;

v) xo‘jalik yurituvchi subyektni va uning tarkibiy bo‘linmalarini tashkil qilish hamda boshqarish xarajatlari;

g) xizmat yengil avtotransportini saqlash, yollash va ijaraga olish xarajatlari;

d) hisoblash markazlarini hamda ishlab chiqarishga aloqasi bo‘lmagan boshqa texnikaviy boshqaruv vositalarini saqlash va xizmat ko‘rsatish xarajatlari;

e) ko‘rsatgan xizmatlari uchun aloqa uzellariga to‘lanadigan haq;

j) shaharlararo va xalqaro telefon orqali so‘zlashuvlar uchun belgilangan me’yorlar doirasidagi to‘lovlar;

z) ma’muriy-boshqaruv ehtiyojlari uchun ijaraga olingan bino va xonalar haqi;

i) asosiy ma’muriy vositalarni saqlash va ta’mirlash-tuzatish, shuningdek, ularning eskirishi (amortizatsiyasi) bilan bog‘liq xarajatlar;

k) yuqori tashkilot, birlashma va yuridik shaxslarni saqlashga ajratmalar;

l) belgilangan me’yorlar doirasidagi boshqaruv xodimlarini xizmat safarlariga yuborish xarajatlari;

m) belgilangan me’yorlar doirasidagi taqdimot chiqimlari.

Boshqa operatsion xarajatlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

a) kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash uchun belgilangan me’yorlar doirasidagi xarajatlar. Yangi ishga tushiriladigan xo‘jalik

yurituvchi subyektda ishlash uchun kadrlar tayyorlash hamda qayta tayyorlash bundan mustasnodir;

b) maslahat va axborot xizmatlari haqi;

v) auditor xizmatlari haqi;

g) ishlab chiqarish jarayonida xodimlarning bevosita ishtiroki bilan bog'liq bo'lmagan sog'liqni saqlash va dam olishni tashkil qilish tadbirlari;

d) tovon va rag'batlantiruvchi to'lovlar:

— O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlariga binoan amalga oshiriladigan tovon to'lovlari;

— majburan ishda bo'linmagan (progul) yoki kam haq to'lanadigan ishni bajargan vaqt uchun qonun hujjatlariga yohud xo'jalik yurituvchi subyektning o'zining qaroriga binoan to'lanadigan haq;

— mehnat qobiliyati vaqtincha yo'qotilgan taqdirda qonun hujjatlariga muvofiq haqiqiy ish haqi miqdorigacha qo'shimcha to'lanadigan haq;

— xo'jalik yurituvchi subyektning ishchi va mutaxassislari ishdan ajralgan holda malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash tizimida o'qiyotgan vaqtda ularga asosiy ish joyidan to'lanadigan ish haqi;

12 yoshga to'lmagan ikki va undan ortiq farzandi yoki 16 yoshga to'lmagan nogiron bolasi bo'lgan ayollarning qo'shimcha ta'tiliga qonun hujjatlariga binoan to'lanadigan haq;

e) ish haqi yozishda hisobga olinmaydigan to'lovlar va xarajatlar:

— bola 2 yoshga to'lguncha unga qarash uchun qonun hujjatlariga ko'ra har oyda nafaqa to'lash xarajatlari;

— pensiyaga ustamalar, pensiyaga chiqayotgan mehnat faxriylariga bir marta to'lanadigan nafaqalar;

— xo'jalik yurituvchi subyektlar qayta tashkil etilishi, xodimlar soni va shtatlar qisqartirilishi munosabati bilan ular ishdan bo'shatgan xodimlarga qonun hujjatlariga binoan amalga oshiriladigan to'lovlar;

j) sog'liqni saqlash obyektlari, maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalari, sog'lomlashtirish oromgohlarini, shuningdek turar joy obyektlarini saqlash uchun joylardagi davlat hokimiyati or-

ganlari belgilagan me'yorlar doirasidagi xarajatlar (shu jumladan barcha ta'mirlash turlarini amalga oshirish uchun amortizatsiya ajratmalari va xarajatlari);

z) to'xtatib qo'yilgan ishlab chiqarish quvvatlari va obyektlarini saqlash xarajatlari (boshqa manbalar hisobiga qoplanadigan chiqimlardan tashqari);

i) bank va depozitoriy xizmatlari haqi;

k) amaldagi qonun hujjatlariga binoan amalga oshiriladigan va xo'jalik yurituvchi subyektning xarajatlariga kiritiladigan budjetga majburiy to'lovlar, soliqlar, yig'imlar, budjetdan tashqari maxsus fondlarga ajratmalar.

Kelgusida soliq solinadigan bazadan chiqarib tashlanadigan hisobot davri xarajatlariga quyidagilar kiradi:

— Turkumlab va ko'plab ishlab chiqariladigan yangi mahsulot turlari ishlab chiqarishni hamda texnologik jarayonlarni o'zlashtirishga tayyorlanish va o'zlashtirish xarajatlari:

— ishlab chiqarish jarayonida amalga oshiriladigan ishlab chiqarish texnologiyasi va tashkil etilishni takomillashtirish, mahsulot sifatini yaxshilash, ishonchliligi, uzoqqa chidamliligini va boshqa foydalanish xususiyatlarini oshirish bilan bog'liq nokapital xarajatlar;

— tajriba-eksperimental ishlarni olib borish, ixtirolar va ratsionalizatorlik takliflari asosida model hamda namunalar tayyorlash va sinash, ixtirochilik hamda ratsionalizatorlikka oid ko'rgazma va ko'riklar, tanlovlar, sertifikatlashtirish hamda boshqa tadbirlar uyushtirish, mualliflik haqi to'lash bilan bog'liq ixtirochilik va ratsionalizatorlik uchun qilinadigan ishlab chiqarish xarajatlari va boshqa chiqimlar.

Moliyaviy faoliyatga oid xarajatlar quyidagilardan:

— qisqa muddatli va uzoq muddatli bank kreditlari bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar uchun to'lanadigan haq;

— mulkni uzoq muddatli ijaraga olish (lizing) bo'yicha foyda (foiz) to'lash xarajatlari;

— moliyaviy faoliyatga oid boshqa xarajatlardan tashkil topadi.

Kommunal xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalarning faoliyati bo'yicha **moliyaviy natijalari** quyidagi tartibda shakllantiriladi:

Xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatining moliyaviy natijalari ushbu ko‘rsatkichlar bilan ifodalanadi:

— mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotishdan olingan yalpi foyda (mahsulot sotishdan tushgan pul bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o‘rtasidagi tafovut sifatida aniqlanadi);

— asosiy faoliyatdan olingan foyda (mahsulot sotishdan olingan yalpi foydadan davr xarajatlarini ayirish va boshqa daromadlarni qo‘shish yoki asosiy faoliyatdan ko‘rilgan zararni ayirish yo‘li bilan aniqlanadi);

— umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda (asosiy faoliyatdan olingan foydaga daromadlarini qo‘shish va moliyaviy faoliyatga oid xarajatlarini ayirish orqali hisoblab chiqariladi);

— soliq to‘lanmasdan oldingi foyda umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foydaga favqulodda foydani qo‘shib va favqulodda zararlarni ayirib aniqlanadi;

— sof foyda, u soliq to‘lanmasdan oldingi foydadan daromad (foyda) solig‘ini va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliq hamda to‘lovlarni ayirish yo‘li bilan aniqlanadi;

— asosiy faoliyatning rentabelligi (sof foydani ishlab chiqarish tannarxiga bo‘lish orqali aniqlanadi).

7.2. XUJMShning uy-joy maydoniga qilinadigan foydalanish xarajatlari qiymatini aniqlash tartibi

Turar joy xonasi umumiy maydonining 1 m^2ini saqlash va undan foydalanish xarajatlari xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati tomonidan yig‘ilib, ushbu mablag‘lar shirkat daromadlarining asosiy qismini tashkil etadi. Uy-joy mulkdorlaridan undiriladigan to‘lov shirkatning umumiy yig‘ilishi qaroriga asosan tasdiqlangan daromadlar va xarajatlar smetasi asosida shakllantirilib, uning yig‘indisi smetaning daromad qismida ko‘rsatilgan tushumlari miqdorini hosil qiladi.

Turar joy xonasi umumiy maydonining 1 kv.m maydonini saqlash va foydalanish bilan bog‘lik to‘lovlarni hisoblashda O‘zbekiston Respublikasi «O‘zkommunxizmat» agentligining 2004-yil 9-avgustdagi 86-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan «Uy-

joy mulkdorlari shirkatlari uchun foydalaniladigan 1 m^2 maydonga qilinadigan foydalanish xarajatlari miqdorini aniqlash yuzasidan uslubiy tavsiyalar» asos bo'lib hisoblanadi.

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining turar joy xonasidan foydalanish xarajatlari smetasiga kiritiladigan xarajatlar quyidagi uch qismga ko'ra guruhlanadi:

a) ishlab chiqarish xarajatlari, ular quyidagi besh guruhdan iborat xarajatlarni o'z ichiga oladi:

— ishlab chiqarish bilan bog'liq moddiy xarajatlar;

— ishlab chiqarishga oid mehnatga haq to'lash xarajatlari;

— ishlab chiqarishga taalluqli ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;

— ishlab chiqarish bilan bog'liq asosiy vositalar amortizatsiyasi;

— ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlar.

b) davr xarajatlari:

— boshqaruv xarajatlari (rais, boshqaruv a'zolari, buxgalter);

— boshqa operatsion xarajatlar va zararlar.

v) moliyaviy faoliyatga doir xarajatlar;

— qisqa muddatli va uzoq muddatli kreditlar bo'yicha xizmat ko'rsatish xarajatlari.

Turar joy xonasi umumiy maydonining 1 m^2 ini saqlash va ta'mirlash tariflarini hisoblash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Turar joy fondini saqlash va ta'mirlash tarifini aniqlash uchun ta'mirlash-foydalanish xizmatlarining me'yoriy tannarxi boshlang'ich asos sifatida olinadi.

Tarif miqdorini belgilash uchun xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati muayyan hisobot davrida uy-joy fondining foydalaniladigan jami maydoni bo'yicha oladigan daromadlarini aniqlashi lozim. Bu daromadlar tarkibi xizmatlarning ishlab chiqarish tannarxi (energiya manbalari, materiallarning narxi, lavozim maoshlari va shu kabilar o'zgarishi inobatga olinadi) hamda rejalashtirilgan foydadan tashkil topadi. Bunda xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining xarajatlarini qoplash uchun belgilangan tartibda yo'naltiriladigan boshqa daromad manbalari chiqarib tashlanadi. Tarif miqdori quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$T = \frac{(S+\Phi)-Q}{N} \text{ so'm},$$

Bunda: T — turar joy xonasi umumiy maydonining 1 m² ini saqlash ta'mirlash haqi (tarif);

S — xizmatlarning ishlab chiqarish tannarxi;

F — uy-joy fondidan foydalanish korxonasi (xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati) foyda ko'rib ishlashi uchun zarur bo'lgan foyda (davr xarajatlari va moliyaviy faoliyatga doir xarajatlar);

Q — uy-joy fondidan foydalanish tashkilotlarining xarajatlarini qoplash uchun belgilangan tartibda yo'naltiriladigan boshqa daromad manbalari. Mazkur daromad tarkibiga uy-joy fondiga xizmat ko'rsatish uchun fuqarolar tomonidan to'lanadigan mablag'lar hisobga olinmaydi va uning tarkibiga quyidagilar kiradi:

— O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq fuqarolarning ayrim toifalariga uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash haqida imtiyozlar berilgani munosabati bilan daromadning kamomadini budjetdan qoplash uchun ajratilgan mablag'lar;

— kommunal xizmatlarni sotib daromad oladigan korxonalarga binolar ichidagi suvquvur, oqovaquvur, issiqlik va elektr tarmoqlari hamda qurilmalarga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha kelib tushadigan qoplama mablag'lari;

— turar joy binolaridagi ijaraga olingan noturar joy xonalari ijarachilaridan kelishilgan tariflarda, ammo shirkat a'zolari uchun belgilangan foydalanish xarajatlari tarifidan kam bo'lmagan tariflarda undiriladigan yig'imlar;

— uy-joy mulkdorlari shirkati hududida joylashgan sport-sog'lomlashtirish markazlaridan pullik xizmat ko'rsatish asosida foydalanuvchilardan kelib tushadigan mablag'lar;

— budjetdan tashqari mablag'lar va boshqa manbalardan kelgan mablag'lar, jumladan amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq homiylar tomonidan ajratiladigan mablag'lar;

— kommunal xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalardan xususiy uy-joy mulqdorlari shirkatlariga kelib tushadigan ajratmalar. Bu mablag'lar rejalashtirilgan aholi to'lovlari tushumi 75 foizdan ortiq hajmda bajarilganda 7% miqdorida va 100% bajarilgan taqdirda 15% miqdorida ajratiladi hamda xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatiga biriktirilgan uylarni ta'mirlash va hududlarni obodonlashtirishga yo'naltiriladi;

— xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlariga qarashli hududdagi fuqarolar tomonidan o‘rnatilgan shaxsiy avtomobil garajlari va boshqa imoratlar egalaridan olinadigan foydalanish xarajatlari;

— uylarni mukammal ta’mirlash uchun mahalliy budjetdan ajratilgan mablag‘lar;

N — shirkatga tegishli uy-joy fondining foydalaniladigan umumiy maydoni (noturarjoy fondi sifatida ijaraga beriladigan maydon bu hisobga kirmaydi).

Uy-joy umumiy maydonining 1 m^2 ini tarifini aniqlashda quyidagi koeffitsientlardan foydalaniladi:

1) qulay-shinamlikning barcha turlariga, shu jumladan liftlar, maishiy chiqindi quvurlariga ega bo‘lgan ko‘p qavatli turar joy uylarida	**K1 = 1,2**
2) qulay-shinamlikning hamma turlari mavjud bo‘lgan, ammo liftlar va maishiy chiqindi quvurlari bo‘lmagan uylarda	**K2 = 1,0**
3) markazlashtirilgan tartibda issiq suv bilan ta’minlanmaydigan, liftlar, ma’ishiy chiqindi quvurlari bo‘lmagan uylar	**KZ = 0,9**
4) liftlar bo‘lmagan, issiq suv bilan ta’minlanmaydigan, markazlashtirilgan tartibda isitilmaydigan muhimligi past uylar	**K4 = 0,8**
5) markazlashtirilgan tartibda issiq suv bilan ta’minlanmaydigan, markazlashtirilgan tartibda isitilmaydigan, oqovaquvur, liftlar va maishiy chiqindi quvurlari bo‘lmagan uylar	**K5 = 0,7**

Mazkur koeffitsientlar uy-joyning turi, iste’mol sifatlari va boshqa mahalliy sharoitga bog‘liq ravishda o‘zgartirilishi mumkin.

Iste’mol sifatlari har xil bo‘lgan turar joy uylarida turarjoy xarajatlari tariflarini aniqlash uchun, avvalo turar joy uylari uchun asos qilib olinadigan tarifni aniqlash va umumiy maydonning 1 kv.m sathining tarifi miqdoriga tuzatish kiritish (o‘zgartirish) uchun mazkur koeffitsientlarni qo‘llash lozim.

Turar joy xonasi umumiy maydonining 1 kv.m sathini saqlash va foydalanish tarifini hisoblashga misol:

7.1-jadval

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati tasarrufidagi turarjoy binosi bo'yicha ma'lumotlar

S - ishlab chiqarish tannarxi	- 300 so'm
F - zarur foyda	- 100 so'm
Q - boshqa daromad manbalari:	
a) texnikaviy xizmat ko'rsatishga doir qoplama miqdori	- 500 so'm
b) ijarachilardan undirilgan yig'im	- 500 so'm
v) hududdagi shaxsiy garajlar va bashqa imoratlar egalaridan olinadigan foydalanish xarajatlari	- 200 so'm
N - turar joy fondining kontrakt va shartnomalar asosida foydalaniladigan umumiy maydoni	- 5675 m^2

Berilgan ma'lumotlarga asosan uyning 1 kv.m sathi uchun tarifi miqdorini (T) aniqlaymiz:

$$T = \frac{(S+\Phi)-Q}{N} = \frac{(300+100)-120}{5675} = \frac{280}{5675} = 49,33 \text{ so'm}.$$

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari ixtiyorida foydalanish tavsiflari bir xil bo'lmagan uylar mavjud bo'lganda umumiy maydonning 1 kv.m sathini tarifi miqdoriga tuzatish kiritish uchun tegishli koeffitsentlar qo'llaniladi. Yuqorida aniqlangan tarif miqdori $T = 49,33$ so'm bo'lganda turli toifadagi uy-joy binolari uchun to'lov miqdorini hisoblash tartibi 7.2-jadvalda keltirilgan.

7.2-jadval

Turli toifadagi uy-joy binolari uchun to'lov miqdori hisoblash tartibi

1) qulay-shinamlikning barcha turlariga, shu jumladan liftlar, maishiy chiqindi quvurlariga ega bo'lgan ko'p qavatli uylarda	K1=1,2×49,33= =59,20 so'm
2) qulay-shinamlikning hamma turlari bo'lgan, ammo liftlar va maishiy chiqindi quvurlari bo'lmagan uylarda	K2=1,0×49,33= =49,33 so'm

3) markazlashtirilgan tartibda issiq suv bilan ta'minlanmaydigan, liftlar va maishiy chiqindi quvurlari bo'lmagan uylarda	K_3=0,9×49,33= =44,40 so'm
4) liftlar bo'lmagan, markazlashtirilgan tartibda issiq suv bilan ta'minlanmaydigan, markazlash-tirilgan tartibda muhimligi kam uylarda	K4=0,8×49,33= =39,46 so'm
5) markazlashtirilgan tartibda issiq suv bilan ta'minlanmaydigan, isitilmaydigan oqovaquvur, liftlar va maishiy chiqindi quvurlari bo'lmagan muhimligi kam uylarda	K5=0,7×49,33= =34,53 so'm

7.3. Aholining kommunal xizmatlardan foydalanish me'yorlari va ularni hisoblash uslubi

Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida olib borilayotgan islohotlar bugungi kunda davlatimiz ijtimoiy va iqtisodiy siyosatining ustuvor yonalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Kommunal xo'jaligini isloh qilish jarayonida sohada erkin bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy mexanizmni shakllantirish bo'yicha 1990-2001-yillar davomida me'yoriy-huquqiy jihatdan va xo'jalik yuritishning yangi mexanizmlarini sinovdan o'tkazish bo'yicha yetarli darajada katta hajmdagi ishlar bajarildi. Iqtisodiyotning ushbu sohasidagi o'zgarishlarning asosiy maqsadlari sohada bozor tamoyillariga o'tishning zarur shart-sharoitlarini yaratish, iste'molchi va xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasida shartnomaviy munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan. Kommunal xizmatlar qiymatini sohada ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatini kafolatlangan holda ular tannarxini tashkil etuvchi real sarf-xarajatlar asosida shakllanishiga erishish soha oldida turgan muhim iqtisodiy vazifa hisoblanadi. Ushbu vazifani amalga oshirishda mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, ijtimoiy himoya tamoyillariga amal qilgan holda, kommunal to'lovlar miqdorini aniqlashda fuqarolarning kam daromadli toifalarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalasiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasidagi munosabatlarni erkin bozor tamoyillari asosida tartibga solish va real xarajatlar jam-

lanmasidan iborat bo‘lgan, har tomonlama mukammal me’yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslangan bahoni shakllantirish mexanizmini yaratish quyidagilarni ta’minlaydi:

— fuqarolarga ularning ehtiyojlari va moliyaviy imkoniyatlariga ko‘ra uy-joy qurish, uni xususiy mulk qilib sotib olish, ijaraga olish (aholiga kelgusi sarf-xarajatlarini inobatga olgan holda uy-joy qurish, uy-joyni sotib olish, aholining kam ta’minlangan qatlamlariga ijara shartnomalari asosida uy-joyni ijaraga olish va hokazo);

— fuqarolarning uy-joy fondiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini kafolatlash (uy-joy fondlari texnik holatlariga xizmat ko‘rsatishning davlat standartlarini belgilash, sanitariya, ekologik va yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya qilinishini ta’minlash hamda ularni nazorat qilish);

— kommunal xizmatlarga bo‘lgan zarur ehtiyojlarning qondirilishi va ularni iste’mol qilish xavfsizligi (kommunal xizmatlarni iste’mol qilish me’yorlarini, ular sifati andozalarini va foydalanish qoidalarini belgilash);

— kam daromadli oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash;

— uy-joy, kommunal xizmatlar bozorining rivojlanishi va erkin shartnomaviy munosabatlarni joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish;

— kommunal xo‘jaligi sohasidagi tabiiy monopoliyalar xizmatlari narxlarini tartibga solish va narx-navo asossiz o‘sib ketishining oldini olish va boshqalar.

Kommunal xizmatlardan foydalanish me’yorlarini ishlab chiqish aholining ehtiyojlarini qondirish uchun ularga ko‘rsatilayotgan kommunal xizmatlar hajmini belgilash va ko‘rsatilayotgan xizmatlar bahosini shakllantirish imkonini beradi.

Hozirgi kunda, O‘zbekiston Respublikasida amaliyotda qo‘llanilayotgan aholining kommunal xizmatlardan foydalanish me’yorlarini hisoblashda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 18-apreldagi «Aholiga kommunal xizmatlar ko‘rsatishni takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 178-sonli Qaroriga muvofiq «O‘zkommunxizmat» agentligi tomonidan ishlab chiqilgan hamda 2004-yilning avgust

oyidan buyon amaliyotda qo'llanilib kelinayotgan uslubiy ko'rsatmalarga asoslanadi.

Mazkur ko'rsatmalar asosida ishlab chiqilgan me'yorlar sovuq suv ta'minoti, uy-joyni isitish, issiq suv bilan ta'minlashda ishlatiladigan sarf-xarajatlar miqdori o'lchovi, (asosan issiqlik energiyasini, tabiiy gazni hisobga olish asboblari bo'lmaganda) aholiniig kommunal xizmatlardan foydalanish (iste'mol) me'yorlarini ishlab chiqish va to'lov qiymatini belgilash uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Me'yorlar aholini xizmatlardan foydalanishning eng kam, ammo hayot faoliyatini ta'minlashga yetarli miqdordagi hajmidan tashkil topadi va ular minimal talablarni qondirish uchun zarur bo'lgan tegishli sifatdagi xizmatlarning moddiy manbai quyida keltirilgan miqdorlari bilan o'lchanadi:

— isitish — $1m^2$ turar joy maydoniga sarflanadigan Gkal hisobidagi issiqlik energiyasi;

— sovuq va issiq suv — bir sutkada (oyda) 1 kishi hisobiga sarflangan suv, litr hisobida;

— tabiiy gaz — bir oyda 1 kishi hisobiga sarflangan gaz m^3 hisobida;

— tabiiy gaz bilan ichki tartibda isitish — isitiladigan xonaning 1 m^3 hajmiga m^3 hisobida;

— ovqat tayyorlash uchun suyultirilgan gaz — bir oyda 1 kishiga kg hisobida o'lchanadi.

Uy-joy xo'jaligida ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarning o'sish suratiga, demografik xarakterdagi o'zgarishlarga, resurslarni tejash borasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarga qarab me'yorlarning miqdoriy ko'rsatkichlari o'zgarib turadi (ortadi yoki kamayadi). Respublika miqyosida tasdiqlangan me'yorlar kommunal xizmatlarni ko'rsatuvchilarning yoki iste'molchilarning takliflariga binoan, ammo kamida bir yilda bir marta qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Me'yorlar miqdori muayyan mahalliy sharoitni inobatga olib aniqlanadi. Mahalliy sharoitga iqlim, iqtisodiy shart-sharoit, uy-joy fondining shinamlilik va qulayliklari, muhandislik tizimining holati va boshqa kommunal ko'rsatkichlar kiradi. Shuning uchun kommunal xizmatlardan foydalanish me'yorlarini (gazdan foy-

dalanish me'yori bunga kirmaydi) joylardagi mahalliy hokimiyatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan tasdiqlanadi. Aholi uchun gaz iste'moli me'yorlarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydi.

7.4. Uy-joy xo'jaligida suv iste'moli me'yori va oqovasuvni chetlashtirish

7.4.1. Uy-joy xo'jaligida suv iste'moli me'yorini aniqlash uslubi

Uy-joy xo'jaligida suvni iste'mol qilish (ishlatish) me'yorlari kommunal xo'jaligida suvga bo'lgan amaldagi ehtiyojni hisoblash, suv ta'minoti xarajatlarini shakllantirish va kommunal xo'jaligida suv ta'minotini tashkil etish uchun xizmat qiladi. Uy-joy xo'jaligida suv sarfi aholining fiziologik, sanitariya-gigiyena, xo'jalik ehtiyojlarini qanoatlantirish bilan bog'liq xonadon ichidagi suv sarfini, shuningdek, uy-joy fondidan foydalanishni ta'minlash bilan bog'liq xonadonlardagi suv sarfidan tashqari sarflarni hamda suv ta'minoti tizimdagi ichki santexnika uskunalarining texnik me'yorga muvofiq ruxsat etilgan miqdorda cheklangan suv yo'qotishini o'z ichiga oladi.

Xonadon ichidagi suv sarfining eng kam miqdori — kommunal xo'jaligida foydalaniladigan iqtisodiy kategoriya bo'lib, undan uy-joy xo'jaligida foydalanishning eng ko'p uchraydigan asosiy turlari hisoblanib, u iste'mol qilish, ovqat tayyorlash, yuvinish, kir yuvish va uylarning tozaligini ta'minlash va boshqa xonadondagi eh'tiyojlarni qondirish maqsadida sarflanadigan suv miqdori yig'indisidan tashkil topadi.

Turarjoy binolariga suv yetkazib berish tizimi aholi yashaydigan hududning hamda alohida binoning, obodonlashtirilganlik darajasiga va eng avvalo, aholiga kommunal-maishiy xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanganlik darajasi hamda tabiiy-iqlim sharoitiga bog'liq. Turar joy binolaridagi suv sarfi suvning sarflanish mohiyatidan kelib chiqib bir necha tarkibiy guruhlarga bo'linadi:

Birinchi guruhga suvning foydali sarfi ko‘rsatkichlari kiradi:

Suv iste’molining ikkinchi guruh tarkibiy ko‘rsatkichlarini suvdan nooqilona foydalanish hisobidan yuzaga keluvchi sarf-xarajatlar tashkil etib, u suv ta’minoti tizimida ta’minlanishi zarur bo‘lgan bosimning me’yordan oshib ketishi oqibatida yuzaga keladi;

Suv sarfining uchinchi guruhini turarjoy binolarining suv ta’minoti tizimida foydalaniladigan yuvish bakchalari va boshqa suv ta’minoti santexnika jihozlaridan suv sizishi oqibatida kelib chiqadigan yo‘qotishlar tashkil etadi.

Aholining suv iste’mol qilish me’yorlari monitoring asosida har bir bino bo‘yicha alohida, uning obodonlashtirilganlik, qulay va shinamlik darajasi, binoning qavatlari soni va aholi zichligiga qarab aniqlanadi. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatida turarjoy binolari soni kam bo‘lganligi uchun har bir turarjoy binosi uchun suv sarfi me’yorini alohida hisoblash hamda suvdan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha choralar ko‘rish imkoniyati mavjud.

Suvning iste’mol qilish me’yorlarni suv ta’minoti korxonalari, suvdan foydalanish bo‘yicha ma’sul tashkilotlar va iste’molchilar hamkorlikda ishlab chiqadilar.

Hududda suv sarfi me’yorini aniqlash uchun monitoring o‘tkazilishi lozim bo‘lgan obodonlashtirilganlik darajasi bir xil turarjoy binolarining umumiy soni 30 tadan kam bo‘lmasligi lozim. Bunga sabab har bir ko‘rsatkichni aniqlash uchun shu ko‘rsat-kichni aniqlash maqsadida o‘rganiladigan manbalar soni o‘ntadan kam bo‘lmasligi lozim. Agar, aholi yashaydigan hududdagi obodonlashtirish darajasi bir xil binolarning umumiy soni 30 tadan kam bo‘lsa, o‘lchash ishlari shu hududdagi hamma binolarda amalga oshirilmog‘i lozim.

O‘lchash ishlarini olib borish uchun tanlab olingan binolarda suv ta’minotida uzilishlar bo‘lmasligi, ularda tegishli kalibrlardagi suv sarfini hisobga olish asboblari o‘rnatilgan bo‘lishi kerak. Suv ta’minoti tizimida o‘rnatilgan kalibrning mosligi tungi suv sarfi bo‘yicha tekshirilishi mumkin.

Aholining uy-joy xo‘jaligida suvni oqilona iste’mol qilish darajasi uy ichidagi suv ta’minoti quvurlaridan amalda sarf

bo‘layotgan suvni, suv ta’minoti tizimida suvni kirish joylarida o‘rnatilgan suv sarfini o‘lchash asbobining ko‘rsatgichlari bo‘yicha batafsil o‘rganish va tahlil qilish yo‘li bilan aniqlanadi.

Turarjoy binolarida suv iste’moli hajmining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, ish kunlari, dam olish kunlari hamda yilning turli mavsumlarida aholining uy-joy xo‘jaligida suv ishlatilishida katta tafovut hosil bo‘ladi. Shu sababli o‘lchash ishlari yilning turli mavsumlarida bir oy mobaynida uzluksiz, bino (binolar)dagi suv quvurlarining kirish tarmoqlaridagi suv o‘lchash uzellarida ishlab turgan suvni hisobga olish asboblariga o‘rnatilgan istalgan turdagi o‘zi qayd qiluvchi asboblar (schetchiklar) yordamida amalga oshiriladi.

Monitoring jarayonida suv iste’moli hajmiga ta’sir ko‘rsatuvchi uch omil: tungi suv sarfi, suvni samarali bosim ostida ta’minlanishi va aholi zichligining suv iste’moliga ta’siri baholanadi.

Har bir monitoring o‘tkazish uchun tanlab olingan bino bo‘yicha olingan ma’lumotlar to‘planib, jadval ko‘rinishida bir tizimga keltiriladi.

Shundan so‘ng, vaqt birligi (1 soat) ichida suv sarfi ko‘rsatkichlarining impulslari soni deagrammada hisoblab chiqiladi va belgilangan davr mobaynida suvni hisobga olish jihozlari orqali o‘tgan suv hajmi aniqlanadi.

Suv iste’moli me’yorlarini aniqlashda turli yumushlar bo‘yicha suv sarfini o‘rganish asosida hisoblangan suv sarflari butun bino bo‘yicha suv sarfiga oid ma’lumotlar asosida hisoblab topilgan ko‘rsatkichdan kam bo‘lishini inobatga olish kerak. Turli yumushlar bo‘yicha suv sarfidan binodan noturarjoy fondlari sifatida ijaraga olingan ijarachilar va bino atrofidagi hududlarni sug‘orish uchun sarflangan suv chiqarib tashlanadi. Shuningdek, bu ko‘rsatkichning kam bo‘lishiga texnologik me’yorlar bo‘yicha ruxsat etilgan va bartaraf etib bo‘lmaydigan yo‘qolishlar mavjudligi sabab bo‘ladi.

Shu munosabat bilan, suv iste’moli me’yorlarini ishlab chiqishda binoda amalda sarflagan suv miqdoridan foydalanish hamda suv sizishining aholini suv bilan me’yorida ta’minlangan taqdirda turli tashkiliy-texnik chora-tadbirlar evaziga qisqartirilishi

mumkin bo'lgan qismi chiqarib tashlanadi. Haqiqiy solishtirma suv sarfi miqdorida turli omillarga bog'liq holda katta farq borligini inobatga olinib, me'yorlar har bir shaharda yoki aholining suvdan foydalanish xarakteriga ko'ra o'xshash bo'lgan shaharlar guruhida aniqlanmog'i va belgilanmog'i darkor.

Hozirgi kunda, har bir xonadonda suv sarfini hisobga olish priborlari o'rnatilishi bir tomondan aholida suvdan tejamkorlik bilan foydalanishiga intilish hosil qilsa, ikkinchi tomondan xonadonlarda o'rnatilgan suv sarfini hisobga olish priborlari ma'lum vaqt mobaynidagi ko'rsatkichlari yig'indisi bino bo'yicha foydali suv sarfi yig'indisini tashkil etadi. Bu ko'rsatkichni esa turarjoy binosi bo'yicha umumiy suv sarfi bilan taqqoslash orqali suvdan nooqilona foydalanish Nf ko'rsatkichini aniqlash mumkin.

$$N_f = U_s - F_s.$$

Bunda:

N_f — suvdan nooqilona foydalanish ko'rsatkichi;

U_s — umumiy suv sarfi;

F_s — foydali suv sarfi.

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatida suvdan nooqilona foydalanish ko'rsatkichidan ijaraga berilgan va noturarjoy fondi sifatida foydalanilayotgan xonalarga va bino atrofidagi hududlarni sug'orish uchun sarflangan suv miqdorini ayirish orqali samarasiz suv sarfi Ss aniqlanadi.

$$S_s = N_f - S_{im} - S_{sug}.$$

N_f — suvdan nooqilona foydalanish ko'rsatkichi;

S_{im} — ijaraga berilgan va noturarjoy xonalardagi suv sarfi;

S_{sug} — bino atrofidagi hududlarni sug'orish uchun sarflangan suv miqdori.

Samarasiz suv sarfi texnik me'yor bo'yicha yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar, suv ta'minoti tizimidagi nosozliklar va tizimda me'yordan ortiq bosim hosil qilish natijasida yuzaga keladigan yo'qotishlardan tashkil topib uning miqdori shirkat uchun muhim hisoblanadi. Aynan samarasiz suv sarfi uchun

to‘lov shirkat tomonidan amalga oshiriladi. Shirkat tomonidan noturarjoy fond sifatida foydalaniladigan maydon va bino atrofidagi yerlarni sug‘orish uchun sarflangan suv uchun to‘lov ham amalga oshiriladi. Ammo, noturarjoy fondidan foydalanayotgan ijarachilardan ularga tegishli suv sarfi shirkat tomonidan alohida undiriladi.

Shinamlik darajasi past bo‘lgan uy-joy fondida yashovchi aholi uchun suv iste’moli me’yorlari xonadon ichida suvquvur yoki ko‘cha (hovli) larda kolonkalar (jo‘mraklar) borligi hisobiga kam bo‘ladi.

Aholining suv iste’mol qilish me’yorlari uylarning sanitariya texnikasi bilan jihozlanganlik darajasiga qarab shartli tabaqalashtirilgan tarzda belgilanadi.

Respublikamizda xo‘jalik hamda iste’mol suvi normalari «Kommunal xizmatlardan foydalanish normativlarini aniqlash Metodikasi» asosida shakllantiriladi va u O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 30-iyuldagi 271-son Qaroriga muvofiq amaliyotga joriy etilgan.

Mazkur metodika tavsiyanoma tusida bo‘lib, aholi tomonidan kommunal xizmatlardan foydalanish normativlarining ishlab chiqilishi uchun asos hisoblanadi va hozirgi kunda ham amalda bo‘lgan mazkur Metodikaga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 18-maydagi 127-son Qaroriga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilgan.

Normativlar — hayot faoliyatini ta’minlash uchun aholi tomonidan xizmatlardan foydalanishning eng kam darajasi turlicha qulaylikdagi va tipdagi uy-joy fondi uchun ishlab chiqiladi. Bular uy-joyning umumiy maydoni doirasida aholi uchun zarur bo‘lgan kommunal xizmatlardan foydalanishning joriy davrdagi eng kam hajmini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar guruhi bo‘lib hisoblanadi.

Normativlar darajasi o‘zgaruvchan miqdor bo‘lib, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga, demografik tusdagi o‘zgarishlarga bog‘liq bo‘ladi va vaqti-vaqti bilan, biroq har chorakda ko‘pi bilan bir marta qayta ko‘rib chiqilishi kerak.

Davriy normativlar miqdori Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

7.3-jadval

Uylarning sanitariya texnikasi bilan jihozlanganlik darajasiga qarab suv iste'mol qilish me'yorlarining tabaqalanishi

T.r.	Uylarning sanitariya texnikasi bilan jihozlanish darajasi	Bir sutkada 1 kishi uchun umumiy suv sarfi me'yorlari (litrda)	Bir oyda bir kishi uchun suv iste'moli me'yori (m^3-oy)
1	2	3	4
1	Suvquvur, oqovaquvur, issiq suv bilan ta'minlangan, vannalar bilan jihozlangan uylar		
2	Ichki suvoqava quvuri va rakovinasi bo'lgan oqovaquvurli uylar		
3	Rakovinasi va unitazi bo'lgan oqovaquvurli uylar		
4	Rakovinasi, vannasi (hammomi), yoki dushi, mahalliy suv isitish asboblari bo'lgan oqovaquvurli uylar		
5	Rakovinasi, unitazi, vannasi (hammomi), yoki dushi, mahalliy suv isitish asboblari bo'lgan oqovaquvurli uylar		
6	Markazlashgan issiq suv ta'minoti, oqova quvuri, yuvinish, idish-tovoq yuvish, kir yuvish xonalari bo'lgan yotoqxonalar		
7	Markazlashgan issiq suv ta'minoti, oqovaquvuri, yuvinish, idish-tovoq yuvish, umumiy dushxonalari bo'lgan sektsiyali uylar		
8	Suv hovlidagi kolonkalar (jo'mraklardan olinadigan uylar		
9	Hojatxonasi suv bilan ishlaydigan uylar		
10	Ichki suvquvurli, rakovinali, idish-tovoq yuvish joylari mavjud uylar		
11	Ichki suv quvurli, rakovinali, idish-tovoq yuvish joylari mavjud, unitazli uylar		

12	Ichki suv quvurli, rakovinali, idish-tovoq yuvish joylari mavjud, vannasi yoki dushi, mahalliy suv isitish asboblari bo'lgan uylar		
13	Ichki suv quvurli, rakovinali, idish-tovoq yuvish joylari mavjud, vannasi yoki dushi, unitazli, mahalliy suv isitish asboblari bo'lgan uylar		

Suv iste'mol qilish normativi — aholining fiziologik, sanitariya-gigienik, xo'jalik ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan kvartira ichki suv sarflari, shuningdek, uy-joy fondi doirasida kvartiradan tashqaridagi suv sarflari va ichki sanitariya-texnika asbob-uskunalari tizimlarida isrof bo'ladigan suv miqdori.

Suv iste'mol qilish normativi turmushda suvdan foydalanishning quyidagi asosiy turlari bo'yicha bir kishiga litr/sutka hisobidagi suv sarfidan shakllanadi (taxminiy ma'lumotlar):

7.4-jadval

Xonadonda suvdan foydalanishning asosiy turlari

kir yuvish, dush, vanna	98,4 l/sutka
kunlik tualet (yuvinish, oyoqni yuvish)	28 l/sutka
ovqat tayyorlash va ichimlik sifatida foydalanish	10 l/sutka
pol yuvish va namiqtirib artish	12 l/sutka
unitazlarni yuvish	32 l/sutka
idish-tovoq yuvish	10 l/sutka
hisobga olinmagan sarflar	19,6 l/sutka
santexnika asboblarida isrof bo'lish	60 l/sutka
Jami:	270 l/sutka

Iste'mol qilinadigan suv miqdori Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan tasdiqlangan suv iste'mol qilish normalari bo'yicha, kvartira suv o'lchagichlari mavjud bo'lgan taqdirda esa ularning ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlanadi.

7.5-jadval

O‘zbekiston Respublikasi uy-joy fondida aholining xo‘jalik-ichimlik suv ehtiyojlari uchun suv iste’mol qilishning normativlari

	Turar joylarning sanitariya-texnik jihozlanganlik darajasi	1 sutkada 1 kishi hisobiga umumiy suv sarfi normasi (l/sutka)	Bir oyda bir kishi hisobiga suv iste’mol qilish normativi (kub m/oy)
1.	Vodoprovod, kanalizatsiya o‘tkazilgan, vannali, markaziy issiq suv ta’minotiga ulangan turar joylar	270	8,2
2.	Kanalizatsiya o‘tkazilgan uylarda ichki vodoprovod va rakovina	117	3,5
3.	O‘shaning o‘zi, rakovina va unitazli	147	4,4
4.	O‘shaning o‘zi, rakovina, vanna (hammom) yoki dushli, mahalliy suv isitish priborlari bo‘lgan turar joylar	203	6,1
5.	O‘shaning o‘zi, rakovina, unitaz, vanna (hammom) yoki dushli, mahalliy suv isitish priborlari bo‘lgan turar joylar	233	7,0
6.	Markaziy issiq suv ta’minotiga ulangan, kanalizatsiya o‘tkazilgan, yuz-qo‘l yuvgich, yuvinish, kirxonasi bo‘lgan yotoqxonalarda (yo‘lakli tizim)	140	4,2
7.	Markaziy issiq suv ta’minotiga ulangan, kanalizatsiya o‘tkazilgan, yuz-qo‘l yuvgich, yuvinish, umumiy dushli yotoqxonalarda (sektsiyalar)	230	6,9
8.	Hovlidagi kolonka (krandan suv olinadigan uylar)	77	2,3
9.	O‘shaning o‘zi, yuviladigan hojatxonali	127	3,8
10.	Ichki vodoprovodli, rakovinali, moykali uylar	100	3,0

11.	O‘shaning o‘zi, unitazli	150	4,5
12.	Mahalliy suv isitish priborlari bo‘lgan ichki vodoprovodli, rakovina, moyka, vanna (hammom) yoki dushli uylar	177	5,3
13.	O‘shaning o‘zi, unitazli	227	6,9

Yuqorida keltirilgan normativlar asosida o‘tkazilgan monitoringlar natijasiga ko‘ra hozirgi kunda (2009-yil aprel holatida) Toshkent shahrida turarjoy binolarida aholi jon boshiga sarflanadigan suv me’yori 330 litrni (7.6-jadval) tashkil etmoqda. Jadval ma’lumoti asosida suvdan foydalanish bo‘yicha to‘lov qiymati amalda qo‘llanilmoqda

7.6-jadval

Toshkent shahrida suv ta’minoti va oqova-quvur tarmog‘i mavjud turarjoylarda suvdan foydalanish me’yorlari (2009-yil aprel holatiga)[1]

№	Turarjoyning obodonlashganlik darajasi	1 kishi hisobiga suv sarfi me’yori (litrda)	1 kishi hisobiga oqova suv me’yori (litrda)	Ummumi to‘lov miqdori (so‘mda)
Oqova quvurlari mavjud bo‘lmagan turarjoylarda				
1.	Ko‘chadagi suv tarmog‘i (kran) dan suv oluvchi	49	-	110,29
2.	Hovliga tortilgan suv tarmog‘i (kran)dan suv oluvchi	155	-	348,88
3.	Ichki suv tarmog‘i, rakovina, unitaz va alohida suv isitish uskunasi o‘rnatilgan vanna (hammom)ga ega bo‘lgan uyda	277	-	628,40
Oqova quvurlari mavjud bo‘lgan turarjoylarda				
4.	Ichki suv tarmog‘i, rakovina, unitazga va alohida suv isitish uskunasi o‘rnatilgan vanna (hammom)ga ega bo‘lgan uyda	389	389	1301,53

[1] «Musaffo obi hayot» suv ta’minoti korxonasining 2009-yil 13-martdagi Reestr № TV-08-11-13-2009/1 ma’lumoti asosida.

5.	Suv tarmog'i, oqova quvuri, unitazi mavjud va markazlashgan issiq suv ta'minoti tizimiga ulangan turarjoy binolari, sektsiyali yotoqxonalar	330	429	1212.53
6.	Suv tarmog'iga, oqova quvurga va markazlashgan issiq suv ta'minoti tizimiga ulangan yotoqxonalar	171	222	627,98
7	Ko'p xonadonli kvartiralarda o'lchov schyotchiklari bo'yicha sarflangan 1 m^3 suv uchun	Markaziy issiq suv ta'minoti tizimiga ulangan		120,80
8	Ko'p xonadonli kvartiralarda o'lchov schyotchiklar bo'yicha sarflangan 1 m^3 suv uchun	Markaziy issiq suv ta'minoti tizimiga ulanmagan		110,00
8	Xususiy uy-joylarda	Oqova quvurga ulangan		110,00
9	Xususiy uy-joylarda	Oqova quvur mavjud bo'lmagan		74,00

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 8 avgustdagi 166-sonli Qaroriga muvofiq «Uy-joy fondini (ko'p qavatli uylar va shaxsiy xonadonlarni) sovuq va issiq suv hisoblagich asbob-uskunalari bilan ta'minlash dasturi» qabul qilinib, mazkur Dastur asosida suv iste'moli bo'yicha elektron schetchiklar o'rnatish ishlari olib borildi. Natijada foydalanilayotgan resurslardan, jumlajan suvdan tejamkorlik bilan foydalanishga erishildi. Bunga misol qilib amalda me'yor bo'yicha foydalashish ko'rsatkichi hisoblanganda va hisoblash uskunasi (elektron schyotchik) o'rnatilgan erishilgan natijalar 2,4 martaga kamayganligini ko'rish mumkin (7.1-rasm).

Toshkent shahridagi 3 xonalik, 4 kishi yashaydigan xonadonning suv iste'moli bo'yicha hisobi			
Suv hisoblash uskunasi o'rnatilganga qadar	Narxi (so'm)	Suv hisoblash uskunasi o'rnatilgan so'ng	Narxi (so'm)
Sovuq suv ta'minoti		Sovuq suv ta'minoti	
1 kishiga 1 kunda 330 L × × 30 kun = 1 kishiga 9,9 m^3 oyiga	514,8	1 kishiga 1 kunda 120 L × 30 kun= 3,6 m^3	187,2
9,9 m^3 × 4 kishi = = 39,6 m^3 × 52 so'm	2059,2	3,6 m^3 × 4 kishi = = 14,4 m^3 × 52 so'm	748,8
Oqava suv		**Oqava suv**	
12,6 m^3 × 4 kishi = = 50,4 m^3 × 33 so'm	1663,2	1,56 m^3 × 30 kun = = 4,6 m^3 × 33 so'm × × 4 kishi	607,2
JAMI:	**3722,4**		**1356**

7.1-rasm. Uch xonali xonadonda sarflangan suvning taqqoslama hisobi.

7.4.2. Oqova suvni chetlashtirish xizmatidan foydalanish me'yorlari

Oqovasuv quvuri xizmatidan foydalanish me'yorlari bir yashovchi hisobiga to'g'ri keladigan sutkali o'rtacha oqova suvlar miqdori bilan o'lchanadi.

Oqova suvlarni sutkalik o'rtacha suv chetlatish me'yorlari tajriba o'tkazib aniqlanadi va uylarning qulay-shinamlik darajasiga, shuningdek iqlim, santariya-gigiyena va boshqa mahalliy sharoitga qarab belgilanadi.

Aholi yashaydigan joylarning suv chetlatish me'yorlarini aniqlashda sovuq va issiq suv bilan ta'minlash me'yorlari asos qilib olinadi.

Turar joy binolarining oqova suvlarini sutkalik o'rtacha (bir yil uchun) suv iste'moliga (sug'orishga suv sarfi hisobga olinmaydi) teng qilib olinadi.

Suvni chetlatish me'yorlarini ovqat tayyorlash xona va hududlarni tozalash, dov-daraxtlarni sug'orish va boshqa ishlarda yo'qoladigan, oqovaquvurga tushmaydigan bir kishiga teng suv sarfini, bundan tashqari, aholi tomonidan suv ta'minotidagi suv iste'moli me'yorlarining taxminan 30% iga teng miqdorda iste'mol qilinadigan issiq suvni chiqarib tashlagan holda suv iste'moli me'yori darajasida qabul qilish lozim.

Sutkasiga (oyiga) 1 kishi hisobiga suvni chetlatish me'yorlari (m^3da) uylarning sanitariya texnikasi bilan jihozlanganlik darajasiga qarab tabaqalashtirilgan tarzda belgilanadi. Suvni chetlatish me'yorlarini tabaqalanishi uylarning sanitariya texnikasi bilan jihozlanganlik darajasiga qarab, suv iste'mol qilish me'yorlarining tabaqalanishi bilan bir xilda bo'ladi va u yuqoridagi jadvalda keltirilgan.

«Kommunal xizmatlardan foydalanish normativlarini aniqlash Metodikasi» asosida respublikamiz shaharlarida uy-joy xo'jaligi sohasida suv ajratish normalari 6.5-jadvalda keltiriladi.

7.6-jadval

Uy-joy xo'jaligida oqova suvni chetlashtirish normalari

Turar joylarining sanitariya-texnik jihozlanganlik darajasi		1 sutka 1 kishi hisobiga umuiy suv sarfi normasi (l/sutka)	Bir oyda bir kishi hisobiga suv iste'mol qilish normativi (kub m/oy)
1.	Markaziy issiq suv tarmog'iga ulangan ichki kirishli, rakovina, unitaz, vanna, dushi bor bo'lgan, kanalizatsiya o'tkazilgan uylarda	350	10,64
2.	Ichki vodoprovod va rakovina (moyka) bor bo'lgan, kanalizatsiya o'tkazilgan uylarda	117	3,5
3.	O'shaning o'zi, rakovina va unitazli	147	4,4

4.	O‘shaning o‘zi, rakovina, vanna (hammom) yoki dushli, mahalliy suv isitish priborlari bo‘lgan turar joylar	203	6,1
5.	O‘shaning o‘zi, rakovina, unitaz, vanna (hammom) yoki dushli, mahalliy suv isitish priborlari bo‘lgan	233	7,0
6.	Markaziy issiq suv ta’minotiga ulangan, kanalizatsiya o‘tkazilgan, yuz-qo‘l yuvgich, yuvinish xonasi, kirxonasi bo‘lgan yotoqxonalarda (yo‘lakli tizim)	182	5,53
7.	Markaziy issiq suv ta’minotiga ulangan, kanalizatsiya o‘tkazilgan, yuz-qo‘l yuvgich, yuvinish xonasi, umumiy dushli yotoqxonalarda (sektsiyali)	299	9,09

7.5. Uy-joy xo‘jaligida issiqlik energiyasi iste’moli me’yorini aniqlash uslubi

Issiqlik iste’moli me’yorlari qulay-shinam uy-joy fondini isitish va issiq suv bilan ta’minlash uchun zarur bo‘ladigan issiqlik energiyasi miqdori hisobidan aniqlanadi.

Isitishga ishlatilayotgan issiqlik energiyasi me’yorlari darajasi kommunal xizmatlar ko‘rsatish qoidalarida nazarda tutilgan, uylar ichidagi turli xonalarning harorat rejimini, issiq suv iste’moli me’yorlari esa aholining sanitariya-gigiyena talablari qanoatlantirilishini ta’minlamog‘i lozim.

Issilik energiyasi va issiq suv iste’moli me’yorlari iqlim sharoitiga, uylarning turi va qurilish tuzilmasiga bog‘liq bo‘lib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan tasdiqlanadi.

Issiqlik iste’moli me’yorlarini aniqlash uchun suv iste’molini aniqlash monitoringiga o‘xshash monitoring o‘tkaziladi.

Isitish mavsumining nazorat qilinadigan davrida (kamida bir oy) issiqlik iste'moli me'yorlarini hisoblash ishlari bitta markaziy issiqlik punkti (MIP)dan xizmat ko'rsatiladigan uylar guruhi uchun amalga oshiriladi. Bunda turarjoy binolarining isitiladigan hajmi, shu binolarda yashovchilar soni, issiq suv ta'minoti tizimining hisoblab topilgan quvvati va amaldagi iqlimiy sharoit haqidagi ma'lumotlardan foydalaniladi.

Nazorat qilinayotgan vaqt ichida binolarning amaldagi issiqlik iste'moli uyga kirish tarmog'iga o'rnatilgan issiqlik o'lchagichlarining ko'rsatishlari bo'yicha aniqlanadi. Monitoring o'tkazishdan oldin isitish tizimlari dahalar ichidagi issiqlik tarmoqlari, yakka tartibdagi issiqlik punktlari, binolardagi issiqlik o'tkazmaydigan qoplama (izolyatsiya), ularning to'siq konstruktsiyalari (devorlar, derazalar, parto'sinlar), kirish eshiklari va zina xonalari yaxshilab sozlanmog'i lozim.

Binoni bir oyda isitish uchun ishlatiladigan issiqlik me'yorlarini hisoblab topishda ushbu formuladan foydalanamiz:

$$Q_{oy} = Q_i^s \times \frac{t_{ich} - t_{tash}^{oy}}{t_{ich} - t_{tash}^{xt}} \times n \times 24 \text{ (soat)},$$

bu yerda: Q_i^s — binoni isitish uchun bir soatda sarflanadigan issiqlik (Gkal/soat).

t_{ich} — xonalar ichidagi havo harorati, °S;

t_{tash}^{oy} — tashqi havoning o'rtacha harorati, °S;

t_{tash}^{xt} — tashqi havoning hisobiga topiladigan oylik harorati, °S;

n — oydagi sutkalar soni;

24 — sutkadagi soatlar miqdori.

Misol: Turar joy binosini isitishga issiqlik iste'moli issiqlik o'lchagichlarining ko'rsatishlariga ko'ra isitish mavsumining oylari bo'yicha quyidagilarni tashkil etdi (Gkal/m³):

Yanvar — 804537,792;

Fevral — 41900,095;

Mart — 588927,664;
Noyabr — 658916,452;
Dekabr — 710675,05;
Jami: — 3404051,052.

1. Isitiladigan 1 m² maydonni bir yil mobaynida isitilish solishtirma issiqlik iste'molini ushbu formula orqali aniqlaymiz:

$$Q_{sol}^{oy}(\text{isitish.mavsumi}) = \frac{Q_{yil}}{S_{umum}} = \frac{3404951,052}{23494400,25} =$$

$$= 0,144926 \text{ Gkal.м}^2$$

bu yerda: Q_{yil} — yillik issiqlik iste'moli isitish mavsumi mobaynida turarjoy binosini isitishga — 3404951,052 Gkal;

S_{umum} — isitiladigan uylarning umumiy maydoni — 234494400,25m²:

n — isitish mavsumi — 5 oy.

2. Isitish mavsumining bir oyda 1 m² maydoni isitishga solishtirma issiqlik iste'molini quyidagi formula bilan topamiz:

$$Q_{sol}^{oy} = \frac{Q_{sol}^{yil}}{n} = \frac{0,144926}{5} = 0,028985 \text{ Gkal/м}^2\text{oy}$$

To'lovning yil mobaynida bir tekis taqsimlanishini ta'minlash maqsadida bir oyda 1 m² maydonni isitishga solishtirma issiqlik iste'moli ushbu formuladan aniqlanadi:

$$Q_{sol}^{oy} = \frac{Q_{sol}^{yil}}{12} = \frac{0,144926}{12} = 0,012077 \text{ Гкал/м}^2\text{oy},$$

bu yerda 12 — yildagi oylar soni.

Misol: bir nafar yashovchini issiqlik bilan ta'minlash uchun oylik solishtirma issiqlik iste'molini aniqlaymiz:

Q_{sol}^{yil} — issiq suv bilan ta'minlash uchun bir yilda issiqlikka bo'lgan ehtiyoj bo'lib, 3925814,568 Gkal/yilni tashkil etadi;

m — issiq suv ta'minotidan foydalanadigan yashovchilar soni — 1295004 kishi;

n — yildagi oylar soni (12);

1. Bir kishi hisobiga yillik issiqlik iste'moli quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Q_{ist}^{yil/kishi} = \frac{Q_{ist}^{yil}}{m} = \frac{3925814,568}{1295004} = 3,0315076 \text{ Гкал/yil.kishi}.$$

2. Bir nafar yashovchi hisobiga oylik issiqlik iste'moli quyidagicha hisoblab topiladi:

$$Q_{ist}^{oy/kishi} = \frac{Q_{ist}^{yil}}{n} = \frac{3,0315076}{12} = 0,252625 \text{ Гкал/oy.kishi}.$$

7.6. Uy-joy xo'jaligida tabiiy gaz ta'minoti me'yori

Turar joylarida gazning asosiy istemoliga oshxona ishlari (gaz plitalari), issiq suv ta'minoti (gaz kolonkalari), gaz pechkalar yordamida yakka tartibda isitishga va uy ichidagi alohida (avtonom) isitish asboblari bilan isitish uchun gaz sarfi kiradi.

Ovqat tayyorlash va issiq suv ta'minoti uchun gaz sarfi suv iste'molini o'rganish kabi monitoring o'tkazish orqali o'rganiladi. Aholining gaz iste'mol qilish me'yorlari monitoring asosida har bir bino bo'yicha alohida, uning obodonlashtirilganlik, qulay va shinamlik darajasi, binoning qavatlari soni va aholi zichligiga qarab aniqlanadi. Me'yorlarni gaz ta'minoti korxonalari ulardan foydalanish bo'yicha mas'ul tashkilotlar bilan hamkorlikda aniqlaydi.

Me'yorlarni aniqlash uchun monitoring o'tkazilishi lozim bo'lgan obodonlashtirilganlik darajasi bir xil turarjoy binolarining umumiy soni 30 tadan kam bo'lmasligi lozim. Bunga sabab bir ko'rsatkichni aniqlashga shu ko'rsatkichni aniqlash uchun o'rganiladigan manbalar soni o'ntadan kam bo'lmasligi kerak. Agar, aholi yashaydigan hududdagi obodonlashtirish darajasi bir xil binolarning umumiy soni 30 tadan kam bo'lsa, o'lchash ishlari shu hududdagi hamma binolarda amalga oshirilmog'i lozim.

O‘lchash ishlarini olib borish uchun tanlab olingan binolarda gaz ta’minotida uzilishlar bo‘lmasligi, ularda tegishli kalibrlardagi gaz sarfini hisobga olish asboblari o‘rnatilgan bo‘lishi kerak.

Aholining gazni oqilona iste’mol qilish darajasi uy ichidagi gaz quvurlaridan amalda sarf bo‘layotgan gazni, gaz sarfini o‘lchash asbobining ko‘rsatgichlari bo‘yicha batafsil o‘rganish va tahlil qilish yo‘li bilan aniqlanadi.

Turar joy binolarida gaz iste’moli hajmining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, kun davomida (asosan kechki payt), ish kunlari, dam olish kunlari hamda turli mavsumlarda (yoz, qish va hokazo) aholi tomonidan gaz ishlatilishida katta farq bo‘ladi. Shu sababli o‘lchash ishlari turli mavsumlarda bir oy mobaynida uzluksiz, bino (binolar)dagi gaz quvurlari kirish tarmoqlaridagi gaz o‘lchash uzellarida ishlab turgan gazni hisobga olish asboblariga o‘rnatilgan istalgan turdagi o‘zi qayd qiluvchi asboblar (schetchik) yordamida amalga oshiriladi.

Monitoring jarayonida ushbu uch omil: kechki sarf, samarali bosim va aholi zichligining gaz iste’moliga ta’siri baholanadi.

Har bir tanlab olingan bino bo‘yicha olingan ma’lumotlar to‘planib, jadval ko‘rinishida bir tizimga keltiriladi.

Gazni hisobga olish asboblari bo‘lmaganda kommunal-maishiy ehtiyojlar uchun aholiga beriladigan amaldagi oylik tabiiy gaz sarfi me’yorlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 28-martdagi «2002 - 2004-yillarda uy-joy fondini gazni hisobga olish asboblari bilan ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 99 - sonli Qarori bilan tasdiqlangan. Hozirgi kunda respublikamiz shaharlarida xonadonlar asosan gaz sarfini hisobga olish asboblari bilan ta’minlangan.

Issiq suv ta’minoti uchun tabiiy gazga bo‘lgan yillik ehtiyoj quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$P_{yil}^{i.s.t.} = \frac{Q_{1yil}^{i.s.t.} + Q_{2yil}^{i.s.t.}}{2} = \frac{192+180}{2} = 186 \text{ m}^3 \text{ yil/kishi},$$

bu yerda: 192 m^3 yil/kishi — gaz bilan suv isitish mavjud bo‘lganda;

180 m^3 yil/kishi — gaz bilan suv isitish mavjud bo‘lmaganda.

QMQ 2.04.08.96 «Gaz ta’minoti» loyihalash me’yorlariga ko‘ra bir yilda gazdan foydalanish soatlarining soatlik maksimum

koeffitsenti (Kmax) aniqlangan bo'lib, u 1800 soat/yilga teng isitilmagani.

U holda tabiiy gazga bo'lgan bir soatlik ehtiyoj quyidagini tashkil etadi:

$$\frac{P_{yil}^{i.s.t}}{K_{max}^{n}} = \frac{186}{1800} = 0{,}1033 \text{ м}^3 / \text{kishi}.$$

Isitish uchun tabiiy gazga bo'lgan ehtiyoj ham xonaning isitiladigan hajmining 1 m^3 iga gaz sarfini aniqlash usulida topiladi.

Misol: isitiladigan xonaning 1 m^3 uchun tabiiy gazga bo'lgan ehtiyojni aniqlaymiz:

Tashqi havoning harorati -1°S bo'lganda 1 m^3 maydonni isitishga 68,5 Kkal/soat issiqlik sarflanishi tajriba o'tkazib aniqlangan.

Tabiiy gazning issiqlik hosil qilish xossasi 8700 Kkal/m^3 ga teng.

1. Isitiladigan xonaning 1 m^3 iga bir soatlik tabiiy gaz sarfini aniqlaymiz:

68,5: 8700 = 0,00787 m^3/soat

2. Isitiladigan xonaning 1 m^3 iga bir sutkada (24 soatda) tabiiy gaz sarfi quyidagini tashkil etadi:

0,00787 × 24 = 0,18888 m^3/sutka

3. Oylik gaz sarfi:

0,18888 × 30 = 5,6664 m^3/oy.

4. Isitish davrida (5-oyda) gaz sarfi:

5,6664 × 5 = 28,332 m^3 (isitish davri)

To'lovning yil mobaynida bir tekis taqsimlanishini ta'minlash maqsadida isitishga tabiiy gaz sarfi me'yori taqvimiy yil mobaynida 12 oy hisobiga bir tekis hisoblangan. U holda bir oyda tabiiy gaz sarfi quyidagini tashkil etadi:

28,332: 12 = 2,4 m^3/oy

Respublikada 1 kishi uchun isitiladigan xona me'yori 43 m^3 qilib belgilangan, agar isitiladigan xonaning maydoni 43 m^3 bo'lsa, u holda bir oyda tabiiy gazga bo'lgan ehtiyoj 43 × 2,4 = 103,2 m^3 oy/kishini tashkil etadi.

Markazlashtirilgan tartibda issiq suv bilan ta'minlanmaydigan, balonlardagi gaz ishlatiladigan xonadonlarda yashovchi aholining 1 kishi hisobiga faqat ovqat tayyorlash uchun gazdan foydalanish solishtirma me'yorlari 1240 ming kkalni tashkil qiladi (QMQ 2.04.08-96).

Suyultirilgan gaz (propan) ning issiqlik hosil qilish quvvati 21800 kkal/m^3 ga teng.

Bir kishi hisobiga yillik gaz sarfi quyidagini tashkil etadi:

$$Q = \frac{1240000}{21800} = 57 \text{ m}^3/\text{yil} \text{ yoki } G = Q \times J = 57 \times 2,0 = 114 \text{ kg/yil},$$

bu yerda: J — gaz (propan) ning solishtirma og'irligi = 2,004 l/kg.

Markazlashtirilgan tartibda issiq suv bilan ta'minlanadigan kvartiralarda faqat ovqat pishirish uchun bir yilda bir kishi hisobiga issiqlik sarfi me'yorlari 860 ming Kkalni tashkil etadi (QMQ 2.04.08 - 96).

Demak, bir kishi uchun bir yilda sarflanadigan gaz miqdori 78,0 kg/yilni tashkil etadi. Uy-joy kommunal xo'jaligi tizimiga yetkazib berilayotgan gaz sarflari me'yoriga katta ta'sir ko'rsatuvchi ko'rsatkich bu tizimda gazning yo'qotilishidir. Gaz ta'minoti tizimida yo'qotishlar:

— gaz o'tkazish tarmoqlariga gazni me'yordan ortiq bosim ostida uzatish;

— nosoz gaz asboblari va uskunalaridan foydalanish va gaz uzatish tizimida nosozliklarning yuzaga kelishi;

— iste'molchilarning tabiiy gazdan yashirin foydalanishlari va gaz hisoblagich ko'rsatkichlarini o'zgartirishlari natijasida ro'y beradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 11-fevraldagi «Kommunal xizmat ko'rsatish sohasiga zamonaviy hisobga olish priborlarini va resurslarni tejovchi texnologiyalarni joriy etish dasturi to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq maxsus dastur qabul qilingan. Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 5-noyabridagi «Kommunal xo'jaligida energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy etish kompleks dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlariga muvofiq energiya ta'minoti sohasida resurslardan oqilona foydalanish va energiya yo'qolishlarining oldini olish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi. Hozirgi kunda, uy-

joy xo'jaligida elektr energiyasi, gaz va issiqlik energiyasi sarfini hisoblovchi elektron hisoblagichlarni o'rnatish ishlari yakunlanmoqda.

Tayanch iboralar

Ishlab chiqarish xarajatlari, moliyaviy faoliyat xarajatlari, bahoni shakllantirish, mehnatga haq to'lash, moddiy xarajatlar, tabiiy monopoliyalar, davr xarajatlari, sovuq va issiq suv me'yorlari, oqova suvni chetlatish, issiqlik energiyasi, suv sarfi me'yori, isitish mavsumi, tabiiy gaz sarfi, gaz ta'minoti me'yori, issiq suv iste'moli.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Kommunal xo'jaligida bahoni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

2. Turar joy xonasidan foydalanish xarajatlari smetasiga kiritiladigan xarajatlar qanday guruhlarga bo'linadi?

3. Turar joy xonasi umumiy maydonining 1 kv.m. sahnini saqlash va ta'mirlash tariflari qanday hisoblanadi?

4. O'zbekiston Respublikasida amaliyotda qo'llanilayotgan aholining kommunal xizmatlardan foydalanish me'yorlari qachon va kim tomonidan qabul qilingan?

5. Aholining kommunal xizmatlardan foydalanish me'yorlarini belgilashda qanday asosiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi?

6. Xizmatlardan foydalanish me'yorlarini aniqlashda qanday uslubdan foydalaniladi?

7. Uy-joy xo'jaligida suv iste'moli me'yori qanday aniqlanadi?

8. Oqova suvlarni chetlatish me'yorlari qanday aniqlanadi?

9. Uy-joy xo'jaligida issiqlik energiyasi iste'moli me'yorlari qanday aniqlanadi?

10. Turar joy binolarida gaz iste'moli hajmi qanday o'rganiladi va gazdan oqilona foydalanish nimani anglatadi?

VIII BOB. KOMMUNAL XO‘JALIGI TIZIMIDA ELEKTR ENERGIYASI TA’MINOTI VA FOYDALANILGAN ELEKTR ENERGIYASI UCHUN TO‘LOVLARNI TASHKIL ETISH

8.1. Iste’molchilarga elektr energiyasi yetkazib berishni tashkil etish va shartnomaviy munosabatlar

O‘zbekiston Respublikasida iste’molchilarga elektr energiyasi yetkazib berish Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 22-avgustdagi 245-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari»ga muvofiq tashkil qilinadi.

«Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari» O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga, «Energiyadan oqilona foydalanish to‘g‘risida», «Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida», «Tabiiy monopoliyalar to‘g‘risida», «Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq hududiy elektr tarmoqlari korxonalarining elektr energiyasi iste’molchilari bilan o‘zaro munosabatlarini tartibga soladi hamda barcha hududiy elektr tarmoqlari korxonalari va elektr energiyasi iste’molchilari uchun majburiy hisoblanadi. Shuningdek, qoidalar iste’molchilardan elektr energiyasi uchun to‘lovni yig‘ish funktsiyasini bajaruvchi xususiy operatorlar uchun ham majburiy hisoblanadi.

Mazkur mavzuga asosan **elektr energiyasi iste’molchilari, ya’ni** — elektr ta’minoti shartnomasiga muvofiq ishlab chiqarish va maishiy ehtiyojlar uchun elektr energiyasidan foydalanuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs va **elektr ta’minoti korxonasi, ya’ni** — hududiy elektr tarmoqlari korxonasining tuman, shahar, iqtisodiy zona (sanoat zonasi) doirasida elektr energiyasini taqsimlash va sotishni amalga oshiruvchi bo‘linmasi o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish bilan chegaralaniladi.

Elektr energiyasini yetkazib berish, hududiy elektr tarmoqlari korxonasi va energiya qurilmalari shu tashkilot tarmog'iga bevosita ulangan iste'molchi o'rtasida tuzilgan elektr ta'minoti shartnomasi asosida «Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari» ga muvofiq amalga oshiriladi. Namunaviy shartnoma shakli qonun hujjatlariga muvofiq «O'zbekenergo» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan ishlab chiqiladi va belgilangan tartibda Elektr energetikada nazorat bo'yicha davlat inspektsiyasi (keyingi o'rinlarda «O'zdavenergonazorat» DI deb ataladi) tomonidan tasdiqlanib, so'ngra o'rnatilgan tartibda huquqiy ekspertizadan o'tkaziladi.

Iste'molchi va elektr ta'minoti korxonasi o'rtasidagi shartnomada quyidagilar nazarda tutiladi:

— shartnoma mavzusi;

— iste'mol qilishning belgilangan rejimlariga va elektr energiyasi sifati ko'rsatkichlariga rioya qilish bo'yicha tomonlarning shartlari va majburiyatlari;

— elektr tarmoqlarining balans bo'yicha mansubligi hamda elektr tarmoqlari va elektr qurilmalariga xizmat ko'rsatish chegaralari;

— hisobga olish priborlarining o'rnatilgan joyi;

— iste'molchilarning elektr energiyasi uchun haq to'lash bo'yicha tarif guruhlari;

— foydalanilayotgan elektr tarmoqlari, uskunalar va priborlarning zarur texnik holatini va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha shartlar;

— iste'molchilarni, subiste'molchilarni elektr tarmog'iga ulash tartibi (iste'molchining nomi, quvvati, hisobga olish priborlari, tariflar va boshqa ma'lumotlar);

— elektr energiyasini texnologik yoki avariyaviy bron darajasigacha yetkazib berishning eng kam hajmi (faoliyat xususiyatlari, asosiy mahsulotni ishlab chiqarishning, ko'rsatiladigan xizmatlarning hajmlari va mazkur iste'molchilar tomonidan foydalaniladigan uskunalarning tavsiflaridan kelib chiqib majburiy xizmat ko'rsatilishi kerak bo'lgan iste'molchilar uchun);

— tomonlarning javobgarligi;

— nizolarni hal etish tartibi;

— fors-major holatlari;

— tomonlarning rekvizitlari.

Elektr ta'minoti shartnomasini tuzish, uni o'zgartirish, bekor qilish yoki amal qilish muddatini uzaytirish masalalarini hal etishda tomonlar qonun hujjatlariga, shuningdek mazkur Qoidalarga amal qiladilar.

Subiste'molchilar elektr ta'minoti shartnomasini hududiy elektr tarmoqlari korxonalari roziligiga binoan iste'molchilar bilan tuzadilar.

Iste'molchi tomonidan foydalanilgan elektr energiyasini hisobga olish uchun «O'zstandart» agentligi yoki uning o'lchov vositasi turini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasining sertifikatiga ega bo'lgan hududiy bo'linmalari tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan Elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi bilan birga ishlay oladigan elektron hisobga olish priborlari qo'llanadi.

Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi iste'molchi bilan birgalikda iste'molchilar iste'mol qilgan elektr energiyasining amaldagi miqdorini aniqlash uchun ulardagi hisobga olish priborlarining (maishiy iste'molchilardan tashqari) ko'rsatkichlarini har oyda yozib olishi va zarur bo'lganda hisobga olish priborlarini ulash sxemasini tekshirib ko'rishi kerak.

Aholida elektr energiyasi iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi joriy etilishiga ko'ra maishiy iste'molchilarning hisobga olish priborlari ko'rsatkichlarini birgalikda yozib olish, zaruriyatga qarab, hududiy elektr tarmoqlari korxonalari xohishi yoki iste'molchilar buyurtmanomalari bo'yicha amalga oshiriladi.

Elektr energiyasiga amaldagi tariflar o'zgargan taqdirda, hududiy elektr tarmoqlari korxonasi axborotni ommaviy axborot vositalari orqali o'n kun muddatda iste'molchilarga yetkazadi.

Bunda, elektr energiyasiga tariflar o'zgargan sanadan qat'i nazar, elektr ta'minoti shartnomasi o'z kuchida qoladi va iste'molchi olingan elektr energiyasi va quvvati uchun yangi tarif joriy etilgan kundan boshlab u bo'yicha haq to'lashga majburdir.

Bunda iste'molchi, tarif oshirilgan taqdirda, elektr energiyasining to'lov kunidan boshlab 12 oydan ko'p bo'lmagan vaqt uchun avans tarzida haq to'langan miqdori uchun qo'shimcha to'lovlardan ozod qilinadi.

O'z tarmoqlari orqali subiste'molchilarga elektr energiyasini yetkazib beruvchi iste'molchilar hududiy elektr tarmoqlari korxonasi bilan elektr ta'minoti shartnomasini, subiste'molchilarning elektr energiyasi iste'molini hisobga olgan holda, elektr energiyasining umumiy (yig'ma) miqdori bo'yicha tuzadilar.

Iste'molchi o'ziga tegishli elektr tarmoqlariga, ruxsat etilgan quvvat miqdori darajasida, kuchlanishi 1000 Voltgacha bo'lgan qo'shimcha elektr qurilmalarini ulashi mumkin (elektr energiyasini isitish va issiq suv ta'minoti uchun qo'llanishdan tashqari).

Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi iste'molchiga (maishiy iste'molchilardan tashqari) elektr energiyasini ulangan tarmoq orqali elektr ta'minoti shartnomasida nazarda tutilgan miqdorda va tomonlar o'zaro kelishgan elektr energiyasi yetkazib berish rejimiga rioya qilgan holda yetkazib berishga majburdir.

Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi iste'molchi bilan elektr qurilmalarini ulash uchun texnik shartlar bajarilgandagina shartnoma tuzadi. Elektr qurilmalarini ulash uchun texnik shartlar «Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari"da belgilab berilgan. Mazkur texnik shartlar bajarilganidan so'ng elektr energiyasini istemolchilarga uzatishga ruxsat beriladi.

Iste'molchilarning (oldindan foydalanilayotgan uy-joylarda ulanayotganlaridan tashqari) barcha yangidan ulanayotgan va rekonstruktsiya qilinayotgan elektr qurilmalari Elektr qurilmalarini tuzilishi qoidalariga, shahar qurilishi me'yorlari va qoidalariga, berilgan texnik shartlarga muvofiq bajarilishi va belgilangan tartibda kelishilgan loyiha hujjatlari hamda texnik qabul qilish-topshirish hujjatlari bilan ta'minlangan bo'lishi lozim.

Elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishga ruxsat olish va kuchlanishni iste'molchilarga uzatish tartibi va qoidalari «Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari"da keltirilgan.

Tomonlarning elektr qurilmalari va elektr tarmoqlarining texnik holati yuzasidan javobgarligi ham «Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari» asosida tartibga solinadi.

Elektr uskunalarining holati, foydalanilishi va ularga xizmat ko'rsatilishi yuzasidan iste'molchilar bilan hududiy elektr tarmoqlari korxonasi o'rtasidagi javobgarlik chegarasi elektr uskunalarining balans bo'yicha mansubligi bilan belgilanadi va bu elektr ta'minoti shartnomasiga ilova qilinadigan elektr tarmoqlarining balans bo'yicha mansubligini va tomonlarning ekspluatatsiya qilish bo'yicha javobgarligini chegaralash dalolatnomasida qayd etiladi.

Elektr tarmoqlari va uskunalariga xizmat ko'rsatish chegaralarini va ularning holati uchun javobgarlikni belgilash yuzasidan dalolatnoma hududiy elektr tarmoqlari korxonasining va iste'molchining vakillari tomonidan imzolanadi.

Iste'molchilar tomonidan iste'mol qilingan energiya hajmini aniqlashda elektr energiyasini hisobga olish priborlaridan foydalaniladi va ularni o'rnatish va ularni ekspluatatsiya qilish ishlari «Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari» asosida tartibga solinadi.

Elektr energiyasi uchun hududiy elektr tarmoqlari korxonasi bilan hisob-kitob qilishda iste'molchilar majburiy tartibda Elektr energiyasi iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi bilan birga ishlay oladigan elektron hisobga olish priborlari bilan, 750 kVA va undan yuqori quvvatga ulangan iste'molchilar esa — Elektr energiyasi iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi bilan birga ishlay oladigan ko'p funktsiyali elektron hisobga olish priborlari bilan ta'minlangan bo'lishlari kerak.

Elektr energiyasi iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari ko'rsatkichlarning buzilishidan, inson omilining ta'sirini mumkin qadar kamaytirgan holda axborotlardan ruxsatsiz foydalanilishidan kompleks himoya bilan ta'minlangan bo'lishi lozim.

Elektr energiyasi iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi bilan birga ishlay oladigan elektron hisobga olish priborlari bo'lmaganda hududiy elektr tarmoqlari korxonalarining elektr tarmoqlariga hamda iste'molchilar va subiste'molchilarning elektr tarmoqlariga ulanish taqiqlanadi.

Turli tarif guruhlaridagi bir nechta iste'molchilar elektr ta'minotining bitta manbaidan ta'minlanganda tegishli hisobga olish priborlari har bir tarif guruhi uchun alohida o'rnatilishi lozim.

Hisobga olish priborlari (shu jumladan aktiv va reaktiv quvvat va energiyani o'lchash vositalari, shuningdek jamlovchi qurilmalar hamda iste'molni hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan hisobga olish tizimlari) mazkur Qoidalarga muvofiq o'rnatiladi va elektr uskunalarining tuzilishi qoidalari talablariga javob berishi kerak.

Hisobga olish priborlari, o'lchov transformatorlari, ikkilamchi zanjirlar, shu jumladan aloqa liniyalari, Iste'molni hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlarining saqlanishi va ularning texnik holati uchun hisobga olish priborlari va tizimlari o'z balansida bo'lgan korxona javob beradi.

Elektr energiyasini texnik hisobga olish (elektr energiyasi sarfining belgilangan me'yorlari bajarilishini nazorat qilish) uchun hisobga olish priborlari alohida sexlarda, ko'p energiya sarflaydigan agregatlarda, texnologiya liniyalarida, binolarda, alohida ob'ektlarda o'rnatiladi.

Ko'p xonadonli uy-joylarda elektr energiyasi uchun hisob-kitob qilish maqsadida hisobga olish priborlari har bir xonadon uchun maxsus ajratilgan joylarda o'rnatiladi.

Har bir xonadonga o'rnatishdan tashqari, uy-joylarda uyning umumiy ehtiyojlari (zinapoyalarni yoritish, liftlar, nasoslarning ishlashi va hokazolar) uchun sarflanadigan elektr energiyasi bo'yicha hisob-kitob qilish uchun hisobga olish priborlari o'rnatiladi.

Hisobga olish priborlari, shuningdek hududiy elektr tarmoqlari korxonasi bilan iste'molchilarning hisob-kitob qilishiga mo'ljallangan elektr energiyasi va quvvatini hisobga olishning boshqa vositalari iste'molchining mablag'lari hisobiga sotib olinadi, davlat qiyoslashidan o'tkaziladi va o'rnatiladi hamda hududiy elektr tarmoqlari korxonasining vakili tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi va plombalanadi.

Hisobga olish (tok va kuchlanishni o'lchash transformatorlarining ishdan chiqishi, shuningdek ikkilamchi kommutatsiya,

hisobga olish priborlarining shikastlanishi va ularning yo‘qolishi) iste’molchining aybi bilan buzilgan taqdirda hisobga olish priborlarini almashtirish, ta’mirlash, davlat qiyoslashidan o‘tkazish va o‘rnatish, shu jumladan ulash bo‘yicha hududiy elektr tarmoqlari korxonasining xizmatlariga haq to‘lash iste’molchining mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladi.

Iste’molchi o‘lchov zanjirlarining zarur texnik holatini, xavfsiz ekspluatatsiya qilinishini hamda o‘z balansida bo‘lgan va o‘zi foydalanadigan elektr energiyasini hisobga olish priborlarining sozligini ta’minlashi shart.

Shartnoma bo‘yicha elektr energiyasidan maishiy iste’mol uchun foydalanuvchi iste’molchi sifatida jismoniy shaxs ish ko‘rgan taqdirda, elektr tarmoqlarining, shuningdek elektr energiyasi iste’molini hisobga olish priborlarining zarur texnik holatini va xavfsizligini ta’minlash majburiyati hududiy elektr tarmoqlari korxonasiga yuklanadi.

Hisobga olish priborlarida:

— kojuxlar mahkamlangan joyida, to‘lov hisoblagichlari bilan birgalikda foydalaniladigan o‘lchov transformatorlarida esa — alohida ajratilgan joylarda «O‘zstandart» agentligining yoki uning hududiy bo‘linmasining belgilangan namunadagi plombasi bo‘lishi kerak;

— hisobga olish priborining klemmnik qopqoqlarida, shuningdek sinov bloklarida, o‘tuvchi klemmniklar qopqoqlarida, kuchlanishning ajratuvchi o‘lchov transformatorlari simlarida - hududiy elektr tarmoqlari korxonasining (yoki uning vakolatli xizmatlarining) belgilangan namunadagi plombasi bo‘lishi kerak.

Hisobga olish priborlarini va o‘lchash transformatorlarini vaqti-vaqti bilan qiyoslashdan o‘tkazish «O‘zstandart» agentligi tomonidan belgilangan muddatlarda, hududiy elektr tarmoqlari korxonasi vakili bilan birgalikda iste’molchining mablag‘lari hisobiga amalga oshirilishi kerak.

Hududiy elektr tarmoqlari korxonasining vakili o‘zida tegishli amal qilish muddati ko‘rsatilgan, o‘z nomi yozilgan guvohnomasi bo‘lgan taqdirda, sutkaning istalgan vaqtida, jihozlar ko‘rsatkichlarini yozib olish va ko‘rikdan o‘tkazish uchun iste’mol-

chilarning (maishiy iste'molchilardan tashqari) elektr energiyasini hisobga olish priborlari va sxemalarini to'sqinliksiz borib ko'rish huquqiga ega.

Hisobga olish priborlari bilan birgalikda foydalaniladigan o'lchov transformatorlarini boshqa joyga o'rnatish va almashtirish faqat hududiy elektr tarmoqlari korxonasining roziligi bilan amalga oshiriladi.

Elektr energiyasini hisobga olish sxemasini o'zgartirish yoki uning buzilishi bilan bog'liq bo'lgan har qanday ishlarni bajarish uchun iste'molchi, ishlarni boshlashdan oldin, bu haqda hududiy elektr tarmoqlari korxonasini yozma ravishda xabardor qilishi shart. Ishlarni bajarish davrida elektr energiyasi hisobi hududiy elektr tarmoqlari korxonasi bilan kelishilgan vaqtinchalik sxemalar yoki hisob-kitoblar bo'yicha amalga oshirilishi mumkin.

8.2. Iste'molchilarga elektr energiyasi etkazib berishda tabaqalashtirilgan tariflarni qo'llashning iqtisodiy mohiyati

Bevosita hududiy elektr tarmoqlari korxonalarining elektr tarmoqlaridan hamda iste'molchilar yoki subiste'molchilar elektr tarmoqlari orqali uzatilayotgan elektr energiyasi uchun iste'molchilar bilan hisob-kitoblar elektr energiyasining belgilangan tartibda tasdiqlangan tegishli tariflari bo'yicha elektr ta'minoti shartnomasiga asosan amalga oshiriladi.

Elektr energiyasi uchun hisob-kitob qilish maqsadida iste'molchilarni tarif guruhlari bo'yicha taqsimlanishi Elektr va issiqlik energiyasi iste'molchilarining tarif guruhlari to'g'risidagi Nizomga muvofiq belgilanadi.

Elektr energiyasiga tariflar bir stavkali va ikki stavkaliga bo'linadi. Bunda:

— bir stavkali tarif iste'molchiga yetkazib berilgan har bir kVt soat elektr energiyasi uchun haq to'lashdan;

— ikki stavkali tarif yagona elektr energiyasi tizimining eng katta yuklamasida ishtirok etuvchi, buyurtma berilgan har bir kVt quvvat uchun (asosiy to'lov) va yetkazib berilgan elektr ener-

giyasining har kVt soati uchun iste'molchi tomonidan haq to'lashdan (qo'shimcha to'lov) iborat bo'ladi.

Elektr energiyasi uchun hisob-kitob qilishda, iste'molchida ko'p tarifli hisobga olish pribori mavjud bo'lgan taqdirda, belgilangan tartibda tasdiqlangan tabaqalashtirilgan tarif qo'llanishi mumkin. Tabaqalashtirilgan tarif sutkaning quyidagi davrlarida iste'mol qilingan har bir kVt.soat elektr energiyasi uchun haq to'lashdan iborat bo'ladi:

—,yarim tig'iz davr — asosiy tarif (sutkaning yorug' vaqti);

— tig'iz davr — eng yuqori tarif (yagona energiya tizimining eng katta yuklamali vaqti — ertalabki va kechki «eng katta miqdor»);

— tungi davr — imtiyozli tarif (sutkaning qorong'i vaqti).

Asosiy tarif (T)ning miqdori iste'molchilarning har bir guruhi uchun belgilangan tartibda tasdiqlangan tarifga muvofiq bo'ladi.

Bir necha tarif guruhlariga ega bo'lgan iste'molchilar bilan hisob-kitoblar, har bir tarif guruhiga o'rnatilgan hisobga olish priborlari ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Elektr energiyasi uchun hisob-kitoblar elektr ta'minoti shartnomasiga muvofiq hududiy elektr tarmoqlari korxonasi yoki iste'molchining o'zi tomonidan yoziladigan to'lov hujjatlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Elektr energiyasi iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimiga ulangan iste'molchilarga elektr energiyasi yetkazib berish oldindan to'langan haq doirasida amalga oshiriladi.

Elektr ta'minoti shartnomalarida (maishiy iste'molchilardan tashqari) hisobot davrida elektr ta'minoti shartnomasida ko'rsatilgan miqdorga nisbatan 5 foizdan ko'p elektr energiyasi iste'mol qilinganda, hisob-kitob davri uchun elektr ta'minoti shartnomasida ko'rsatilgandan ortiq iste'mol qilingan jami hajm uchun belgilangan tarifning 50 foizi miqdorida hududiy elektr tarmoqlari korxonasi foydasiga jarima sanktsiyalari to'lanishi ko'zda tutiladi.

Hisobga olish jihozlaridan ko'rsatkichlar yozib olinmagan taqdirda hududiy elektr tarmoqlari korxonasi, keyinchalik hududiy elektr tarmoqlari korxonasi tomonidan iste'molchi bilan birgalikda

aniqlangan amalda iste'mol qilingan elektr energiyasi uchun qayta hisob-kitob qilgan holda, elektr energiyasi iste'molining shartnomadagi miqdori bo'yicha hisob-kitob qiladi.

Elektr ta'minoti shartnomasi bo'yicha iste'molchi sifatida maishiy iste'mol uchun elektr energiyasidan foydalanuvchi jismoniy shaxs ish ko'rganda, hududiy elektr tarmoqlari korxonasi iste'molchi tomonidan u foydalangan elektr energiyasi uchun haq to'lanmagan taqdirda, elektr ta'minoti shartnomasining bajarilishi bekor qilinishi mo'ljallanayotgan kundan kamida bir oy oldin iste'molchini ogohlantirgan holda, elektr ta'minoti shartnomasi bajarilishini bir tomonlama tartibda rad etishga haqlidir.

To'lov hujjatida xatolar yoki hisobga olish priborlari ko'rsatkichida noaniqliklar aniqlangan taqdirda, iste'molchi hududiy elektr tarmoqlari korxonasiga darhol murojaat qilishi kerak.

Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi, iste'molchi murojaat qilgan kundan boshlab o'n sutkadan kechiktirmay, hisob-kitobni tekshirishi, zarurat bo'lganda esa hisobga olish priborini ko'rikdan o'tkazishi kerak.

Hisobga olish priborlarini ko'rikdan o'tkazish yoki to'lov hujjatidagi xatoliklar to'g'risida murojaat qilish iste'molchini to'lov hujjatidagi to'lovni belgilangan muddatda to'lash majburiyatidan ozod qilmaydi.

Agar hisobga olish priborlari ko'rsatkichlaridagi aniqlik chegarasidan og'ishlar mazkur hisobga olish pribori uchun belgilangan aniqlik chegaralaridan ortiq bo'lmasa, bunday chetga chiqishlar yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan chetga chiqishlar deb hisoblanadi.

Agar to'lov hujjatini tekshirish yoki hisobga olish priborini ko'rikdan o'tkazishdan keyin (shu jumladan iste'molchi murojaat qilmasa ham) qayta hisob-kitob qilish zarurligi aniqlansa, bunday qayta hisob-kitob hududiy elektr tarmoqlari korxonasi tomonidan elektr energiyasi uchun navbatdagi to'lov hujjatini yozishda amalga oshiriladi.

Hisobga olish jihozlari iste'molchining aybi bilan buzilgan (plombasi buzilgan, oynasi singan va shu kabilar), hisobga olish

priborini ishga tushirish sxemasi o‘zgargan, hisobga olish priboridan tashqari elektr qabul qilgichlar ulangan yoki elektr energiyasi boshqacha usulda o‘g‘irlangan hollarda, hududiy elektr tarmoqlari korxonasi iste’molchini elektr tarmog‘idan uzib qo‘yishga haqlidir va hisobga olish priborlari oxirgi marta o‘zgartirilgan yoki ularni ulash sxemasi tekshirilgan kundan boshlab butun o‘tgan, ammo da’vo muddatidan ko‘p bo‘lmagan, davr uchun elektr qabul qilgichlarning ulangan quvvati va iste’molchining elektr ta’minoti shartnomasida ko‘rsatilgan ishlash soatlari bo‘yicha energiya sarfini qayta hisoblab chiqishi shart. Bunda hisobga olish pribori ko‘rsatkichini yozib olish ulash sxemasini tekshirish deb hisoblanmaydi.

Elektr energiyasi sarfini qayta hisob-kitob qilish iste’molchini elektr energiyasidan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibdagi javobgarlikdan ozod qilmaydi.

Elektr energiyasini hisobga olish iste’molchining aybisiz vaqtinchalik buzilganda yetkazib berilgan qilingan elektr energiyasi uchun hisob-kitob hududiy elektr tarmoqlari korxonasining qarori bo‘yicha, hisobga olish buzilishiga qadar bo‘lgan oldingi hisob-kitob davridagi yoki hisobga olish tiklangandan keyingi davrdagi o‘rtacha sutkalik sarf bo‘yicha amalga oshiriladi.

Elektr energiyaning o‘rtacha sutkalik sarfi bo‘yicha hisob-kitob qilish davri bir oydan oshmasligi kerak, shu vaqt ichida hisobga olish tiklanishi zarur.

Agar hisobga olish jihozni, ob’yektiv sabablarga ko‘ra, ko‘rsatilgan muddatda (tok transformatorining, hisobga olish jihozlarining yo‘qligi, o‘tib bo‘lmaydigan yo‘llar va shu kabilar tufayli) tiklash imkoniyati bo‘lmasa, iste’molchiga yetkazib berilgan elektr energiyasi uchun hisob-kitob qilish tartibi va hisobga olishni tiklash muddati iste’molchi va hududiy elektr tarmoqlari korxonasining ikki tomonlama bitimi bilan belgilanishi kerak.

Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi va iste’molchi o‘rtasida hisob-kitob qilish uchun aktiv va reaktiv energiyani, shuningdek quvvatni hisobga olish hududiy elektr tarmoqlari korxonasi va

iste'molchi tarmoqlarining balans bo'yicha mansublik chegarasida amalga oshiriladi.

Hisob-kitob davrida iste'molchilarga yetkazib berilgan elektr energiyasi miqdori va xuddi shu davrda hududiy elektr tarmoqlari korxonasi tomonidan qabul qilingan elektr energiyasi miqdori o'rtasidagi tafovut, «O'zdavenergonazorat» DI tasdiqlagan me'yorlar miqyosida ushbu elektr tarmoqlarida uzatish vaqtida ularning isrof bo'lishiga ketgan elektr energiyasi texnologik sarf miqdorini chegirgan holda, hududiy elektr tarmoqlarining davr xarajatlariga o'tkaziladi va yuridik shaxslarning foyda solig'ini hisoblashda chegirilmaydi.

Elektr energiyasi iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi bilan qamrab olinmagan elektr tarmoqlariga nisbatan 2011-yil oxirigacha bo'lgan davrda amal qiladi.

Hisobga olish jihozni elektr tarmog'ining balans bo'yicha mansublik chegarasida o'rnatilmaganda, elektr tarmog'ining chegarasidan hisobga olish pribori o'rnatilgan joyigacha bo'lgan uchastkadagi elektr energiyasining texnologik sarfining hajmi iste'molchi bilan birgalikda hisoblash yo'li orqali aniqlanadi va elektr tarmog'ining balans bo'yicha mansubligiga qarab hududiy elektr tarmoqlari korxonasining va iste'molchining hisobiga o'tkaziladi.

Elektr energiyasi yagona elektr energetika tizimidan tranzit bo'yicha iste'molchining elektr tarmog'i orqali hududiy elektr tarmoqlari korxonasining elektr tarmog'iga uzatilganda, iste'molchi tarmoqlaridagi elektr energiyasi texnologik sarfining bir qismi, iste'molchining elektr tarmog'iga kelib tushgan elektr energiyasining umumiy miqdoriga nisbatan hududiy elektr tarmoqlari korxonasining elektr tarmog'iga iste'molchi tomonidan uzatilgan elektr energiyasi miqdoriga mutanosib ravishda yagona elektr energetikasi tizimining elektr tarmoqlaridagi texnologik sarflarga o'tkaziladi.

Iste'molchining aybi bilan elektr ta'minoti shartnomasida ko'rsatilgan elektr energiyasi hajmi to'liq iste'mol qilinmagan taqdirda, avans tariqasida to'langan mablag'lar qaytarib berilmaydi va elektr energiyasi uchun keyingi hisob-kitoblarda hisobga olinadi.

Iste'molchining elektr energiyasi uchun qarzi bo'lgan taqdirda uning avans to'lovi hisobiga o'tkazilgan mablag'lari qarzni qoplashga yo'naltiriladi va avans to'lovi sifatida hisobga olinmaydi.

Iste'molchi tomonidan foydalanilgan elektr energiyasi uchun hisob-kitob bo'yicha o'zaro hisob-kitoblarni solishtirish dalolatnomasini imzolash rad etilgan taqdirda, qarzni undirish tuzilgan elektr ta'minoti shartnomasiga muvofiq shartnomaviy hajmdan kelib chiqqan holda iste'molchining bankdagi hisob raqamiga to'lov talabnomasi qo'yish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Iste'molchi egallab turgan binosidan uni berish, sotish yoki boshqa sabablarga ko'ra ko'chib ketgan taqdirda, u bu haqda hududiy elektr tarmoqlari korxonasini yozma shaklda xabardor qilishi hamda elektr energiyasi uchun ko'chib ketish kunigacha to'liq hisob-kitob qilishi shart, shundan so'ng hududiy elektr tarmoqlari korxonasi ob'ektga elektr energiyasi etkazib berishni to'xtatadi. Yangi iste'molchini rasmiylashtirish va elektr qurilmalarini elektr tarmog'iga ulash belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Tomonlar, ularning xohish va harakatlariga bog'liq bo'lmagan tabiiy ofatlar yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar sababli ushbu sharoitlarda qaytarib bo'lmaydigan va oldindan bilib bo'lmaydigan favqulodda holatlarni o'z ichiga olgan yengib bo'lmas kuch (fors-major) oqibatida o'z zimmasiga olingan majburiyatlarni bajara olmasa, tomonlardan hech biri o'z majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarmaganligi uchun javob bermaydi.

Agar ko'rsatilgan fors-major holatlari majburiyatlarning shartnomada belgilangan muddatlarda bajarilishiga ta'sir qilsa, u holda ushbu muddatlar fors-major holatlarining amal qilish, ammo elektr ta'minoti shartnomasining amal qilish muddatidan ko'p bo'lmagan vaqtga uzaytiriladi.

Elektr qurilmalari iste'molchilar tomonidan hududiy elektr tarmoqlari korxonasining elektr tarmoqlariga o'zboshimchalik bilan ulangan taqdirda, elektr qurilmalari elektr tarmog'idan darhol uzib qo'yiladi, iste'molchidan esa ruxsatsiz iste'mol qilingan elektr energiyasining qiymati iste'molchi rasmiy ravishda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab o'tgan vaqt mobaynida

(tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lganda) yoki da'vo muddati uchun ulangan elektr uskunalarining belgilangan quvvat bo'yicha sutkasiga 24 soat davomida ishlashi hisobidan undiriladi.

Bunda ruxsatsiz iste'mol qilingan elektr energiyasi qiymatining undirilishi elektr energiyasidan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibdagi javobgarlikdan ozod qilmaydi.

Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi tuman, shahar, iqtisodiy zona (sanoat zonasi) doirasida elektr energiyasi uchun to'lovni yig'ish funktsiyalarini belgilangan tartibda xususiy operatorga o'tkazishi mumkin.

Elektr energiyasi uchun to'lovni yig'ish funktsiyalarini bajaruvchi xususiy operatorlar o'z faoliyatini belgilangan tartibda amalga oshiradilar.

1. Elektr energiyasi uchun ikki stavkali tarif iste'molchilari bilan hisob-kitoblar qilish

Ulangan quvvati 750 kVA va undan yuqori bo'lgan sanoat iste'molchilari va ularga tenglashtirilgan iste'molchilar tomonidan ishlab chiqarish ehtiyojlari, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish, ammo ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan infratuzilma ob'yektlarini: tsexlar, zavod boshqarmalari, omborlar, garajlar va shu kabilar, shuningdek xususiy temir yo'l kirish joylari va korxona hududini yoritish va boshqa ehtiyojlarga, sanoat (zavodning ichki, shaxta, kon va shu kabi) elektr transporti uchun sarflangan elektr energiyasi uchun ikki stavkali tarif bo'yicha haq to'lanadi.

Binolar va xonalarni yoritish uchun hamda ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan uy-joy va ijtimoiy infratuzilmaning boshqa ehtiyojlari uchun sarflanadigan elektr energiyasi uchun sanoat iste'molchilari va ularga tenglashtirilgan iste'molchilar bilan hisob-kitoblar iste'molchilarning tegishli guruhlari uchun belgilangan tariflarga binoan, elektr energiyasini hisobga olish priborlari ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Iste'molchining sexlari yoki ob'yektlari tarqoq joylashgan bo'lsa va umumiy taqsimlash elektr tarmog'iga ega bo'lmasa, bu sexlar yoki boshqa alohida ob'ektlar bilan hisob-kitoblar, iste'molchining

o‘zi bilan hisob-kitob qilishda qo‘llanayotgan tarifdan qat’i nazar, tegishli iste’molchilar guruhlari uchun belgilangan tariflar bo‘yicha amalga oshiriladi.

Iste’molchi tomonidan avvaldan buyurtma berilgan, yagona elektr energetika tizimining eng katta yuklamasida ishtirok etadigan quvvat elektr ta’minoti shartnomasida yilning har oy bo‘yicha qayd etiladi va hududiy elektr tarmoqlari korxonasi tomonidan hisobga olish priborlarining ko‘rsatkichlari bo‘yicha aniqlanadigan iste’molchining amaldagi o‘rtacha yarim soatlik eng katta yuklamasi bo‘yicha vaqti-vaqti bilan nazorat qilinadi.

Yagona elektr energetika tizimining eng katta yuklamali davrida iste’molchining amaldagi yuklamalarini nazorat qilish soatlari hududiy elektr tarmoqlari korxonasi tomonidan oylar bo‘yicha belgilanadi va shartnomada qayd etiladi.

Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi yagona elektr energetika tizimining eng katta yuklamali soatlaridagi yuklamani nazorat qilish huquqiga ega.

Nazorat davrlari ertalab 2 soatdan, kechqurun 3 soatdan oshmasligi kerak. Iste’molchi bilan hududiy elektr tarmoqlari korxonasi o‘rtasidagi o‘zaro kelishuv bo‘yicha nazorat qilish davrlari bir soatga oshirilishi mumkin.

Elektr energiyasi iste’molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi bilan birga ishlay oladigan hisobga olish priborlariga yoki yagona elektr energetika tizimining eng katta yuklamali soatlarida yuklamani qayd etadigan hisobga olish priborlariga ega bo‘lgan iste’molchilar asosiy to‘lovni har oyda, priborlarda qayd etilgan eng katta quvvatning amaldagi miqdori bo‘yicha amalga oshiradilar.

Iste’molchining yagona elektr energetika tizimining eng katta kuchlanishli soatlarida amaldagi yuklamasi elektr ta’minoti shartnomasida nazarda tutilgan ko‘rsatkichdan 5 foizdan ziyod ortiq bo‘lgan taqdirda, hisob-kitob davrining oxirida amaldagi yuklamaning ortiqcha butun qismi uchun qayta hisob-kitob qilinadi va belgilangan tarifning 50 foizi miqdorida qo‘shimcha haq undiriladi.

Qo‘shimcha quvvat haqini to‘lash kelgusida har bir aniq holatda hududiy elektr tarmoqlari korxonasidan tegishli ruxsatnoma

olmasdan elektr ta'minoti shartnomasida ko'rsatilganga nisbatan ortiqcha quvvatdan foydalanish huquqini bermaydi.

Agar Elektr energiyasi iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi bilan birga ishlay oladigan hisobga olish priborlariga yoki yagona elektr energetika tizimining eng katta yuklamali soatlarida yuklamani qayd etadigan hisobga olish priborlariga vaqtincha ega bo'lmagan iste'molchida yagona elektr energetika tizimining eng katta yuklamali soatlarida amaldagi yuklama buyurtma qilingan yuklamadan past bo'lsa, to'lov elektr ta'minoti shartnomasida belgilangan yuklama miqdori bo'yicha amalga oshiriladi.

Iste'molchi sexlarining joylashish sharoitlari va ularning elektr ta'minoti sxemalari bo'yicha eng katta qo'shma yuklamaning jami qiymatini aniqlash mumkin bo'lmasa, hisob-kitoblar iste'molchining har bir ta'minlash manbai bo'yicha alohida, avvaldan buyurtma berilgan quvvat bo'yicha amalga oshiriladi.

Elektr energiyasi uchun ikki stavkali tarif bo'yicha hisob-kitob qiladigan iste'molchi elektr energiyasining bir qismini bir stavkali tarif bo'yicha subiste'molchiga yetkazib bersa, u hududiy elektr tarmoqlari korxonasiga ushbu subiste'molchilarni yagona elektr energetika tizimining eng katta yuklamasida qatnashuvchi yuklamasi qiymatiga kamaytirilgan quvvat miqdori uchun haq to'laydi. Quvvatning kamaytirilishi hisobga olish priborlarining ko'rsatkichlari bo'yicha hisob-kitob qilish yo'li bilan aniqlanadi.

Subiste'molchining katta yuklamasini qayd qiluvchi hisobga olish priborlari mavjud bo'lmagan taqdirda ularning amaldagi yuklamasi yilning tegishli yil davrlari uchun subiste'molchi kuchlanishining sutkalik jadvallari asosida aniqlanishi va elektr ta'minoti shartnomasida qayd etilishi kerak.

2. Elektr energiyasi uchun bir stavkali tarif iste'molchilari bilan hisob-kitoblar qilish 750 kVA quvvatga ulangan sanoat iste'molchilari va ularga tenglashtirilgan iste'molchilardan tashqari barcha iste'molchilar bir stavkali tarif bo'yicha hisob-kitob qilishadi.

Elektr energiyasidan reklama, chiroqlar bilan bezatish, bino va inshootlarni yoritish uchun foydalanuvchi iste'molchilar,

iste'mol quvvatidan qat'i nazar, hududiy elektr tarmoqlari korxonasining ruxsatini olishga va tegishli tarif guruhi bo'yicha hisob-kitob qilishga majburdirlar.

Elektr energiyasidan xonalarni isitish va issiq suv ta'minoti maqsadida foydalanilganda «O'zdavenergonazorat» DIga boshqa turdagi energiya o'rniga elektr energiyasidan foydalanishni kelishish uchun texnik-iqtisodiy asoslar taqdim etilishi zarur, shahar qurilishi me'yorlari va qoidalarida ko'zda tutilgan ovqat tayyorlash va xonalarni isitish uchun elektr energiyasidan foydalanish holatlari bundan mustasno.

Isitish va issiq suv ta'minoti maqsadida elektr energiyasidan foydalanishni kelishish tartibi «O'zdavenergonazorat» DI tomonidan belgilanadi.

8.3. Elektr energiyasi uchun xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari, turar joylar va aholi punktlarining kommunal-ekspluatatsiya tashkilotlari hamda turar joy va noturar joy fondi binolarining egalari bilan hisob-kitoblar

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari va kommunal-ekspluatatsion tashkilotlar umumiy uy-joy ehtiyojlariga foydalaniladigan elektr energiyasi uchun hududiy elektr tarmoqlari korxonasi bilan elektr ta'minoti shartnomasiga asosan elektr tarmog'ining balans bo'yicha mansublik chegarasini hisobga olish nuqtasida o'rnatilgan hisobga olish priborlarining ko'rsatkichlari bo'yicha, belgilangan tarifga muvofiq hisob-kitob qiladilar.

Qabul qilish komissiyasining dalolatnomalariga asosan yangi uy-joylarni o'z balansiga qabul qilib olgan tashkilotlar yohud quruvchilar ushbu uylarni elektr tarmog'iga ulashga ruxsat olish uchun hududiy elektr tarmoqlari korxonasiga har bir uy-joyda o'rnatilgan Elektr energiyasi iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi bilan birga ishlay oladigan hisobga olish priborlari uchun (elektr hisoblagichning tartib raqami, turi, ishlab chiqaruvchi zavod, davlat qiyoslashidan o'tgan yili, hisobga olish priborining ko'rsatkichlari va xonadonning tartib raqami bilan) vedomost taqdim etishi lozim.

Avvaldan foydalanib kelingan uy-joylarda yoki alohida fuqarolarga xususiy mulk huquqi bilan tegishli bo'lgan uylarda hamda bog' uchastkalari, shaxsiy avtomashinalar uchun garajlar va shu kabilarda elektr simini ulashga ruxsat olish uchun iste'molchi hududiy elektr tarmoqlari korxonasiga tegishli ariza berishi shart.

Uy-joylarning elektr uskunalari va elektr tarmoqlarini ekspluatatsiya qilish uchun ijozat berish ular ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot tomonidan belgilangan tartibda qabul qilingandan va tegishli hujjatlar rasmiylashtirilgandan keyin amalga oshiriladi.

Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi turar joy va noturar joy fondi binolarining egalari va ijarachilar (yuridik shaxslar) bilan elektr ta'minoti shartnomasini tuzadi va ularga shaxsiy hisob raqamlari ochadi.

Shaxsiy hisob raqamini boshqa iste'molchiga qayta rasmiylashtirish hamda hisobga olish priborlarini ko'chirish faqat hududiy elektr tarmoqlari korxonasining ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Ilgari elektr tarmog'iga ulangan turar joy va noturar joy fondi binosiga ko'chib kirgan yangi egasi 5 kun davomida hududiy elektr tarmoqlari korxonasi bilan elektr ta'minoti shartnomasini tuzishi va shaxsiy hisob raqamini o'z nomiga rasmiylashtirishi shart. Shaxsiy hisob raqami ko'rsatilgan muddatda rasmiylashtirilmasa to'lov to'lanmaganligi uchun butun javobgarlik turar joy va noturar joy fondi binosining yangi egasi zimmasiga yuklanadi.

Uy-joylarning hamda turar joy va noturar joy fondi binolarining oldi-sotdi shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish faqat elektr energiyasi uchun qarzlar to'liq to'langandan keyin amalga oshiriladi.

Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi turar joy va noturar joy fondi binolarining egalari bilan elektr energiyasi uchun hisob-kitoblarni, turar joy va noturar joy binolarini ijarachilarga (yuridik shaxs bo'lgan ijarachilar bundan mustasno) yoki yollovchilarga topshirishidan qat'iy nazar umumiy hisobga olish pribori bo'yicha amalga oshiradi.

Ijarachilar bilan yollovchilar o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha nizolar belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

Kommunal xonadonda bir nechta oila yashaganda hisob-kitob davrida iste'mol qilingan elektr energiyasini alohida oilalar o'rtasida taqsimlash nazorat hisobga olish priborlarining ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Nazorat hisobga olish priborlarini o'rnatish uchun hududiy elektr tarmoqlari korxonasining ruxsati talab qilinmaydi.

Nazorat hisobga olish priborlarining to'g'ri ishlashini nazorat qilish, ularning ko'rsatkichlarini yozib olish va elektr energiyasi uchun o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish majburiyatlari yashovchilarning zimmasiga yuklanadi.

Umumiy foydalaniladigan joylarda iste'mol qilingan elektr energiyasi miqdori alohida oilalar o'rtasida amalda yashovchilarning soni bo'yicha taqsimlanadi.

Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi elektr energiyasidan umumiy hisobga olish pribori orqali foydalanuvchi fuqarolar o'rtasida hech qanday hisob-kitoblarni amalga oshirmaydi.

Elektr energiyasi uchun to'lov hujjatlari bo'yicha o'z vaqtida haq to'lash, turar joy va noturar joy fondi binosidagi hisobga olish priborining saqlanishi va butligini ta'minlash borasida Qoidalarga rioya qilinishi uchun javobgarlik turar joy va noturar joy fondi binosining egasi zimmasiga yuklanadi.

Hisobga olish priborlari zinapoya maydonchalarida o'rnatilgan taqdirda ularning saqlanishi va butligi uchun xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati hamda uy-joy tasarrufida bo'lgan idora, tashkilot javob beradi.

Zinapoya maydonchalarida o'rnatilgan hisobga olish priborlari shikastlangan yoki o'g'irlangan taqdirda xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati va idora, tashkilot ularni o'z hisobidan tiklashi shart.

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati, uy-joy mulkdorlari va turar joylardagi hamda boshqa binolardagi xonalarni ijarachilarga (yuridik shaxslarga) ijaraga beruvchi boshqa tashkilotlar hududiy elektr tarmoqlari korxonasining ruxsatisiz ijarachilarga tegishli bo'lgan elektr qurilmalarini (elektr energiyasidan foydalanish maqsadlaridan qat'i nazar) uyning ichki elektr tarmoqlariga ulash huquqiga ega emas.

Ijarachilar (yuridik shaxslar) turar joy va noturar joy fondi binosining egasi bilan shartnoma tuzilgandan keyin uch kun muddatda ijaraga olingan binoda elektr energiyasidan foydalanish bilan bog'liq masalalarni hal etish uchun hududiy elektr tarmoqlari korxonasiga murojaat qilishi shart.

Ijarachi binodan ko'chib ketadigan bo'lsa turar joy va noturar joy fondi binosining egasi ijarachidan hududiy elektr tarmoqlari korxonasining u ko'chib ketish kunigacha elektr energiyasi uchun hisob-kitobni amalga oshirganligi haqidagi ma'lumotnomani talab qilishi shart. Ko'chib ketgan ijarachilarning elektr energiyasi uchun qarzlari bo'yicha javobgarlik ijaraga beruvchi zimmasida bo'ladi.

Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi bilan bo'linish chegarasidan iste'molchilargacha bo'lgan umumiy uy-joy elektr tarmoqlarining uzluksiz elektr ta'minoti bilan bog'liq bo'lgan texnik holatini ta'minlash va ularga xizmat ko'rsatish uchun hududiy elektr tarmoqlari korxonasi bilan shartnoma tuzgan xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati va kommunal-ekspluatatsiya tashkilotlari javob beradi.

8.4. Maishiy iste'molchilar (aholi) bilan foydalanilgan elektr energiyasi uchun hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi

Maishiy iste'molchilar (aholi) xonadonlarda, yordamchi xo'jaliklar, shaxsiy foydalaniladigan tomorqa bog' ob'ektlarida maishiy ehtiyojlar uchun foydalanilgan elektr energiyasi uchun, turmushda qo'llaniladigan tok qabul qilgichlarning quvvati va vazifasidan hamda hisobga olish priborlarining o'rnatilgan joyidan qat'i nazar, aholi uchun belgilangan yagona bir stavkali tarif bo'yicha haq to'laydilar.

Elektr energiyasi iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimiga ulangan maishiy iste'molchilarga elektr energiyasi yetkazib berish elektr ta'minoti shartnomasi asosida va oldindan to'langan to'lov miqyosida amalga oshiriladi.

Maishiy iste'molchilardan elektr energiyasi uchun belgilangan tarif qiymatidan ortiqcha biror-bir qo'shimcha mablag' undirish taqiqlanadi.

Elektr tarmoqlariga yangidan ulanadigan uy-joylar va xonadonlarda Elektr energiyasi iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimiga ulanadigan elektr energiyasini hisobga olish priborlari uy-joy egasi tomonidan sotib olinadi, uning hisobiga davlat qiyoslashidan o'tkaziladi va ro'yxatdan o'tkazish uchun elektr tarmoqlari korxonasiga topshiriladi.

Hisobga olish pribori uy-joy yoki xonadon egasining buyurtmanomasiga binoan bir hafta muddatda, uning ishtirokida hududiy elektr tarmoqlari korxonasining vakili tomonidan o'rnatiladi.

Maishiy iste'molchilarda mavjud bo'lgan hisobga olish priborlarini almashtirish hamda Elektr energiyasi iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimiga ulanadigan elektr energiyasini elektron hisobga olish priborlarini o'rnatish (yangidan ulanadigan iste'molchilardagidan tashqari) hududiy elektr tarmoqlari korxonasining mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

Hisobga olish priboriga ega bo'lmagan va biror-bir sababga ko'ra mazkur turar joyda vaqtinchalik yashamayotgan maishiy iste'molchi hududiy elektr tarmoqlari korxonasini bu to'g'rida yozma ravishda xabardor qilishi shart.

Xonadonlar, xususiy uylar, bog' uchastkalari, garajlarda yakka tartibda tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi maishiy iste'molchilar foydalanilgan elektr energiyasi uchun tadbirkorlik faoliyatining (savdo, xizmatlar ko'rsatish, tovarlar ishlab chiqarish va boshqa) turi bo'yicha elektr energiyasi iste'molchilarining tarif guruhiga muvofiq haq to'laydilar.

Bunda tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan elektr energiyasi bo'yicha hisob-kitoblar uchun alohida hisobga olish pribori o'rnatilishi zarur.

Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi har bir maishiy iste'molchi bilan elektr ta'minoti shartnomasini tuzadi va unga belgilangan namunadagi hisob-kitob daftarchasini beradi, u bo'yicha elektr energiyasi uchun haq to'lanadi. Hisob-kitob daftarchasining har bir varag'i kvitantsiya va bildirishnomadan iborat bo'lib, ularda maishiy iste'molchining shaxsiy hisob raqami muhr bilan tushirilgan bo'lishi kerak.

To‘lov hujjatining har ikkala qismi (bildirishnoma va kvitantsiya) bir xilda, aniq, o‘chirib yozishlarsiz to‘ldirilishi kerak. To‘lov hujjatlarida familiya, manzil, to‘lovning joriy va oldingi sanasi hamda hisobga olish priborining ularga muvofiq bo‘lgan ko‘rsatkichlari, ko‘rsatkichlar tafovuti va to‘lov summasi ko‘rsatilishi kerak.

Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi elektr energiyasi iste’molining shartnomadagi miqdori bo‘yicha yoki oldingi davr uchun amaldagi elektr energiyasi iste’molining hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotlarga asosan to‘lov schyotini yozish huquqiga egadir, maishiy iste’molchining hisob raqamida bu haqda tegishli ravishda qayd qilinadi. Bunda hisobga olish priborlaridan ko‘rsatkichlar yozib olingandan keyin amalda iste’mol qilingan elektr energiyasi uchun qayta hisob-kitob qilinadi.

Ovqat tayyorlash uchun markazlashtirilgan tartibda elektr plitalari bilan jihozlangan uylarda yashovchi maishiy iste’molchilar elektr energiyasi uchun tegishli tarif bo‘yicha haq to‘laydilar.

Maishiy iste’molchi tomonidan hisob-kitob davrida amalda iste’mol qilingan elektr energiyasi miqdori iste’molchilardagi hisobga olish priborining ko‘rsatkichlari bo‘yicha aniqlanadi.

Hisobga olish priborlaridan ko‘rsatkichlarni yozib olish va to‘lov hujjatlarini amaldagi tarif bo‘ycha yozib berish hududiy elektr tarmoqlari korxonasining vakili yoki iste’molchining o‘zi tomonidan amalga oshiriladi.

Agar to‘lov hujjati (bildirishnoma) hududiy elektr tarmoqlari korxonasining vakili tomonidan to‘ldirilsa, u maishiy iste’molchiga topshiriladi, u bo‘lmagan taqdirda esa — u bilan birga bir xonadonda (xususiy uyda) yashovchi voyaga yetgan istalgan shaxsga topshiriladi yoki bildirishnoma bilan birga buyurtma xat orqali jo‘natiladi.

Agar navbatdagi aylanib chiqishda hisobga olish pribori o‘rnatilgan xona yopiq bo‘lsa, hududiy elektr tarmoqlari korxonasining vakili to‘lov hujjatini oldingi davr uchun amalda iste’mol qilingan elektr energiyasi hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida yozadi, bu haqda maishiy iste’molchining shaxsiy hisob raqamida tegishli belgi qayd etiladi.

Hududiy elektr tarmoqlari korxonasining vakili, u tegishli amal qilish muddati ko‘rsatilgan, ismi-sharifi yozilgan guvohnomaga ega bo‘lgan taqdirda, xonadondagi hisobga olish priborlarini soat 8.00 dan boshlab soat 20.00 gacha to‘sqinliksiz tekshirib ko‘rish huquqiga egadir.

Elektr energiyasi uchun haq to‘lash maishiy iste’molchi tomonidan aholidan to‘lovlarni qabul qiluvchi punktlar va tashkilotlar orqali har oyning 10-kunigacha amalga oshiriladi.

Elektr energiyasi uchun oldindan haq to‘lash qurilmasiga ega bo‘lgan hisobga olish priborlari o‘rnatilgan maishiy iste’molchilar elektr energiyasi uchun haq to‘lashni oldindan haq to‘lash asosida amalga oshiradilar.

To‘lov hujjatlarini yozish va haq to‘lash paytida yo‘l qo‘yilgan xatolar, ularning aniqlanishiga ko‘ra, hududiy elektr tarmoqlari korxonasi tomonidan da’vo muddati mobaynida hisobga olinadi.

Bank hujjatida ko‘rsatilgan sana to‘lov amalga oshirilgan vaqt bo‘lib deb hisoblanadi.

Agar to‘lov hujjatlarida ko‘rsatilgan summalar o‘rtasida nomuvofiqlik mavjud bo‘lsa, u holda bank hujjatida ko‘rsatilgan (bank shtampi qo‘yilgan) summa qabul qilinadi.

Aholidan to‘lovlarni qabul qiladigan tashkilot (tijorat banklarining bo‘limlari, «O‘zbekiston pochtasi» davlat-aksiyadorlik jamiyatining bo‘limlari va aholidan to‘lovni naqd mablag‘lar bilan qabul qilib olish punktlari) to‘lov hujjatlarini o‘ram, banderollar va elektron reestrlarga jamlaydilar.

Har qaysi banderolda (bank bo‘limi tomonidan ma’lum davrda qabul qilib olingan maishiy iste’molchilarning to‘lov hujjatlari to‘plamida) hududiy elektr tarmoqlari korxonasiga berish vaqtida yorliq bo‘lishi lozim, yorliqda quyidagilar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak:

— banderolni shakllantirish boshlangan va tugallangan sana;

— banderoldagi hujjatlar soni;

— qabul qilib olingan to‘lovlarning umumiy summasi;

— kassa xizmati ko‘rsatilganligi uchun to‘lov sifatida ushlab qolingan summa;

— hududiy elektr tarmoqlari korxonasi hisob raqamiga o‘tkaziladigan summa.

Bunda aholidan to‘lovni qabul qilib oluvchi tashkilotlar, shartnomada belgilangan muddatlarda, elektr energiyasi uchun to‘lov sifatida kelib tushgan pul mablag‘larini hududiy elektr tarmoqlari korxonalariga o‘tkazilishini ta’minlashi shart.

Maishiy iste’molchilar to‘lov bo‘yicha qarzdor bo‘lishganda, to‘lov muddati o‘tgan har bir kun uchun to‘lov muddati o‘tgan summaning 0,1 foizi miqdorida, lekin muddati o‘tgan to‘lov summasining 50 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda penya to‘laydilar.

Arifmetik xatoliklar, tariflarni noto‘g‘ri qo‘llash tufayli paydo bo‘ladigan kam va ortiqcha to‘lovlar tegishli tarif bo‘yicha kVt.soatlarda qayta hisoblab chiqiladi va hududiy elektr tarmoqlari korxonasi tomonidan, ularning aniqlanishiga qarab, da’vo muddati doirasida, ortib boruvchi yakun bo‘yicha, ko‘rsatkichlardagi tafovut yoki qo‘shimchalar bilan hisobga olinadi.

Tarif o‘zgarganda tarif o‘zgargan sanagacha iste’mol qilingan elektr energiyasi hajmi oldingi to‘lov vaqtidan boshlab o‘rtacha sutkalik iste’mol bo‘yicha aniqlanadi va unga eski tarif bo‘yicha haq to‘lanadi. Hisobga olish priborlarining ko‘rsatkichlari to‘lov kunida yozib olingan deb hisoblanadi.

Maishiy iste’molchi, o‘z xohishiga ko‘ra, 12 oydan ko‘p bo‘lmagan muddat uchun elektr energiyasidan foydalanish haqini oldindan to‘lab qo‘yishi mumkin, bu holda tarif o‘zgarsa ham qiymat qayta hisob-kitob qilinmaydi.

Maishiy iste’molchida amaldagi elektr energiyasi iste’moli ko‘rsatkichlarini kamaytirish maqsadida hisobga olish priborini ulash sxemasi o‘zgartirilgani, uning (iste’molchi aybi) bilan buzilgani yoki yo‘qligi, plombalar ko‘chirilgani, elektr qabul qilgichlar hisobga olish priboridan tashqari ulangani va boshqa qoida buzilishlari aniqlangan taqdirda, hududiy elektr tarmoqlari korxonasi oxirgi tekshirish kunidan boshlab o‘tgan (lekin da’vo muddatidan ko‘p bo‘lmagan) davr uchun maishiy iste’molchi tomonidan iste’mol qilingan elektr energiyasi haqini qayta hisob-kitob qilishi shart.

Bunda qayta hisob-kitob qilinishi iste’molchini elektr energiyasidan foydalanish qoidalarini buzganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibdagi javobgarlikdan ozod qilmaydi.

Qayta hisob-kitoblar: yorituvchi tok qabul qilgichlarning quvvati va ularni ishlatish soatlari soni bo‘yicha; iste’molchida shtepsel rozetkalari bo‘lganda (tok qabul qilgichlar va rozetkalar sonidan qat’i nazar) — har sutkada 24 soat davomida soatiga 600 Vt.quvvat foydalanilishi hisobidan; quvvati 600 Vt dan ortiq bo‘lgan isitish priborlari yoki boshqa elektr uskunalaridan foydalanish hollarida — iste’molchi foydalanayotgan uskunalarning amaldagi quvvati bo‘yicha, ularning har sutkada 24 soat ishlatilishi hisobidan amalga oshiriladi.

Elektr energiyasidan foydalanishda iste’molchi tomonidan yo‘l qo‘yilgan qoidabuzishlar hududiy elektr tarmoqlari korxonasining vakillari va maishiy iste’molchi tomonidan imzolangan ikki nusxadagi qo‘shma dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi, uning bir nusxasi maishiy iste’molchiga beriladi va ayni bir vaqtda ushbu Qoidalarni buzgan iste’molchining elektr qurilmalari tarmoqdan uzib qo‘yiladi.

Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi hisobga olinmagan elektr energiyasi miqdorini dalolatnoma asosida aniqlaydi va to‘lash uchun maishiy iste’molchiga qo‘shimcha to‘lov hujjati yozib beradi.

Qoida buzilishi yuzasidan to‘lov hujjatini yozishda, da’vo muddatini hisobga olgan holda, amaldagi tarif qo‘llanadi.

Maishiy iste’molchi hududiy elektr tarmoqlari korxonasining qarori yuzasidan norozilik arizasi berish huquqiga ega, biroq bu iste’molchini qoida buzish dalolatnomasi bo‘yicha yozilgan qo‘shimcha to‘lov hujjatidagi summani belgilangan muddatda to‘lashdan ozod qilmaydi.

Qo‘shimcha to‘lov hujjati bo‘yicha haq 10 kun muddatda to‘lanmaganda hududiy elektr tarmoqlari korxonasi maishiy iste’molchidan ko‘rsatilgan summani majburiy tartibda undirish to‘g‘risida sudga da’vo arizasi beradi.

Maishiy iste’molchi va hududiy elektr tarmoqlari korxonasi o‘rtasida paydo bo‘ladigan nizoli masalalar qonun hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

Tayanch iboralar

Abonent, energiyadan foydalanish, tarif guruhlari, o‘rtacha sutkalik sarf, amaldagi tariflar, elektr energiyasini tejash, elektr energiyasi,

iste'molchilar, maishiy abonent, tabaqalashtirilgan tarif, elektr energiyasi hisobi, elektr hisoblagich, elektr energiyasi uchun to'lovlar.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. O'zbekistonda «Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari» kim tomonidan ishlab chiqilgan va qanday vazifalarni bajaradi?

2. Respublikamizda iste'molchilarga elektr energiyasi yetkazib berish tizimi haqida gapirib bering?

3. Aholini elektr energiyasi bilan ta'minlash qanday tashkil etilgan?

4. Iste'molchilarga elektr energiyasi yetkazib berish va shartnoma munosabatlarini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?

5. Elektr energiyasidan foydalanish uchun foydalanuvchilar zimmasiga qanday ma'suliyatlar qo'yiladi?

6. Elektr energiyasi ta'minoti korxonalari zimmasiga qanday mas'uliyatlar yuklatilgan?

7. Yetkazib berilgan elektr energiyasi uchun uy-joy mulkdorlari shirkatlari va uy-joy kommunal xo'jaligida foydalanuvchi tashkilotlar tomonidan to'lovlarni amalga oshirish mexanizmi haqida aytib bering?

8. Elektr energiyasi uchun aholi punktlari va abonentlar bilan hisob-kitoblar qanday amalga oshiriladi?

4-BO‘LIM. KOMMUNAL XO‘JALIGI KORXONALARI VA ULARNING IQTISODIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

Bo‘limda keltirilgan mavzular talabalarda:

— kommunal xo‘jaligi korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy fondlari to‘g‘risida;

— korxonalarning aylanma mablag‘lari to‘g‘risida;

— kommunal xo‘jaligi korxonalarini hududda joylashtirish va mintaqaviy xususiyatlari to‘g‘risida;

— kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalarining texnologik sarflari to‘g‘risida tasavvur hosil qiladi.

Talabalar:

— asosiy fondlar eskirishini qayta tiklash va kapital ta’mirlash ishlarining tashkil etish;

— kommunal xo‘jaligi korxonalarini ishlab chiqarish quvvatlari bilan ta’minlash va ulardan samarali foydalanishni tashkil etish;

— kommunal xo‘jaligida suv va issiqlik energiyasi ta’minoti tizimlarining texnologik sarflari va yo‘qotishlarini hisoblash to‘g‘risida bilimga ega bo‘ladilar.

Talabalarda:

— kommunal xo‘jaligi korxonalarida asosiy fondlarni kapital ta’mirlash ishlarini moliyalash;

— aylanma mablag‘lardan samarali foydalanishni tashkil etish;

— korxonalarida ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatini rejalashtirish va tashkil etish;

— suv ta’minoti va issiqlik yetkazib beruvchi korxonalarda texnologik sarflar va yo‘qolishlarini hisoblash to‘g‘risida malaka va ko‘nikma shakllanadi.

IX BOB. KOMMUNAL XO'JALIGI KORXONALARINING ISHLAB CHIQARISH QUVVATLARI VA ASOSIY FONDLARI

9.1. Asosiy fondlarning korxona faoliyatidagi o'rni va tarkibiy xususiyatlari

Asosiy fondlar korxonaning ishlab chiqarish salohiyatini belgilovchi ishlab chiqarish quvvatlarining asosini shakllantiradi. Asosiy fondlar korxona ishlab chiqarish vositalarining asosiy qismini tashkil etib, ular ishlab chiqarish jarayonida uzoq vaqt davomida xizmat qiladi. O'z moddiy salohiyatini va o'z qiymatini tayyorlanayotgan mahsulot va ko'rsatilayotgan xizmatlar tannarxiga qismlab o'tkazib boradi. Asosiy fondlarning ishlab chiqarish jarayonida eskirishi hisobidan o'z qiymatining ma'lum bir qismini tayyorlanayotgan mahsulot tannarxiga o'tkazishi amortizatsiya deb atalib, eskirish qiymati yig'indisi **amortizatsiya** ajratmalarini tashkil etadi.

Asosiy fondlar korxona faoliyatidagi ishtirokiga ko'ra **ishlab chiqarish** va **noishlab chiqarish fondlariga** bo'linadi. Ishlab chiqarish asosiy fondlari korxonaning ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida bevosita ishtirok etib, korxonaning ishlab chiqarish salohiyatini tashkil etadi. Kommunal xo'jaligi korxonalarida asosiy fondlarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

— ishlab chiqarish binolari va inshootlari;
— uzatish quvurlari va tizimlari;
— kuch beruvchi mashinalar va mexanizmlar;
— ishlab chiqarish mashinalari va uskunalar;
— transport vositalari;
— o'lchov va hisobga olish asboblari va qurilmalari;
— ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etuvchi, xizmat muddati bir yildan ortiq bo'lgan turli ishlab chiqarish inventarlari va asboblari.

Aholining doimiy yashashi va hayotiy faoliyatini ta'minlash uchun foydalaniladigan uy-joy fondlari kommunal xo'jaligi korxonalari asosiy fondlari tarkibiga kirmaydi va uy-joy fondidan foydalanish, texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash va qayta tiklash bilan bog'liq savollar alohida bobda ko'rib chiqiladi.

Kommunal xo'jaligi korxonalarining asosiy fondlari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish xarakteridan kelib chiqib iqtisodiyotning boshqa sohalaridagidan tubdan farqlanadi. Ularning farqlanuvchi jihatlari asosan quyidagilardan tashkil topadi:

— kommunal xo'jaligi korxonalarida asosiy fondlarning katta qismini uzatish quvurlari va tizimlari tashkil etib, ular maxsus loyiha-smeta hujjatlari asosida uzoq muddat davomida qurib ishga tushiriladi.

— asosiy fondlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida yagona tizim shaklida faoliyat ko'rsatadi va tizimda ishtirok etayotgan asosiy vositalardan biri yoki bir nechtasini to'xtatib qo'yish, chetlashtirish imkoni mavjud emas (avariya holatlar bundan mustasno).

— ishlab chiqarish quvvatlarini bir vaqtning o'zida to'liq almashtirib, yangilab bo'lmaydi va bu jarayon tizimda doimiy ravishda amalga oshirib boriladi.

— asosiy fondlarning eskirish muddatiga va mehnat unumdorligiga tabiiy iqlim va ob-havo katta ta'sir ko'rsatadi.

Kommunal xo'jaligi sohasidagi korxonalarning ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish xususiyatidan kelib chiqib asosiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish fondlarining asosiy qismi tubdan farqlanadi. Masalan:

— elektr energiyasi ta'minoti korxonalarida yuqori kuchlanishli elektr magistrallari, elektr energiyasi uzatuvchi podstantsiyalar taqsimlovchi transformatorlar, elektr uzatish liniyalari;

— issiq suv va issiqlik energiyasi korxonalarida qozonxonalar issiqlik uzatish magistrallari, quvurlar, taqsimlash elevator uzellari;

— suv ta'minoti korxonalarida suv havzalari, suvni tindirish va tozalash inshootlari, nasos stantsiyalari, suv uzatish magistrallari va quvurlari;

— gaz ta'minoti korxonalarida gaz magistrallari, yuqori, o'rta va past bosimli gaz quvurlari, gaz taqsimlash punktlari;

— maishiy chiqindilarni tashish va qayta ishlash korxonalarida maxsus transport vositalari va chiqindini qayta ishlash uskunalari asosiy ishlab chiqarish quvvatlarni tashkil etadi.

Kommunal xo'jaligi korxonalarida asosiy ishlab chiqarish quvvatlarining tarkibiy xususiyatiga ko'ra bunday farqlanishi ushbu korxonalar faoliyatini tashkil etish va rejalashtirishda o'ziga xos yondashishni talab etadi.

Noishlab chiqarish asosiy fondlari korxonaning asosiy ishlab chiqarish faoliyatida bevosita ishtirok etmaydi. Ularning eskirish qiymati ko'rsatilgan xizmat va ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxiga bevosita qo'shilmaydi. Noishlab chiqarish asosiy fondlari tarkibiga korxona balansidagi boshqarish va asosiy ishlab chiqarish jarayoniga, ishchi xodimlarga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy, xo'jalik binolar, oshxona, profilaktoriya, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar uchun xizmat qiluvchi binolar, bolalar bog'chalari, sport-sog'lomlashtirish va boshqa obyektlar va ulardagi asosiy vositalar kiritiladi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari ishlab chiqarish jarayonida ishtirokidan kelib chiqib aktiv va passiv guruhlarga bo'linadi. Kommunal xo'jaligi korxonalarida asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv guruhiga yuqori kuchlanishli elektr magistrallari, elektr energiyasi uzatuvchi podstantsiyalar, taqsimlovchi transformatorlar, elektr uzatish liniyalari, qozonxonalar, issiqlik uzatish magestrallari, quvurlar, suvni tindirish va tozalash inshootlari, nasos stantsiyalari, suv uzatish magistrallari va quvurlari, gaz magistrallari va quvurlari, gaz taqsimlash punktlari, maxsus transport vositalari, kuch beruvchi mashinalar va uskunalari, ishchi mashina va mexanizmlar, transport vositalari, texnologik liniyalar kabi ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etuvchi asosiy vositalar kiradi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlarining passiv guruhiga ishlab chiqarish jarayonida bilvosita ishtirok etuvchi asosiy vositalar, bino va inshootlar, yo'llar, xizmat ko'rsatish maydonchalari va boshqalar kiradi.

Asosiy fondlarning umumiy hajmida aktiv va passiv guruhlarining miqdori bo'yicha o'zaro nisbati asosiy fondlarning turlar

bo'yicha tarkibini ko'rsatib uning ulushi foizlarda o'lchanadi. Asosiy ishlab chiqarish fondlari tuzilmasida, aktiv fondlar muhim ahamiyatga ega bo'lib ular ulushini ko'paytirish va tarkibini yangilab borish korxona faoliyati samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Korxona asosiy fondlarining turlar bo'yicha tuzilmasi, ko'p jihatdan kapital qo'yilmalarning texnologik tuzilmasi orqali, jumladan, ularning yangi qurilish va qayta ta'mirlash, amaldagi ishlab chiqarishni kengaytirish va qayta qurollantirish bilan avvaldan belgilab qo'yilgan bo'ladi. Asosiy fondlarning turlar bo'yicha tuzilmasiga ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va kontsentratsiya qilish darajasi ham katta ta'sir ko'rsatadi. Yirik korxonalar, ishlab chiqarishni fondlar bilan ta'minlashda va fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan keng foydalanishda kichik va o'rta korxonalarga qaraganda ko'proq imkoniyatga ega. Biroq kichik korxonalar harakatchanroq, ularning boshqaruvi moslashuvchanroq bo'lib, natijada ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta qurollantirish osonroq kechadi.

Korxona faoliyatiga asosiy fondlarning ekspluatatsiyasi muddati va eskirish darajasi katta ta'sir ko'rsatadi. Asosiy vositalarning (ayniqsa aktiv guruhdagi) ekspluatatsiya muddati qanchalik katta bo'lsa, korxonaning ishlab chiqarish samaradorligi shunchalik pasayadi. Asosiy fondlar xizmat muddatlarining ortib borishi ularning ekspluatatsiya xarajatlarining ham ortib borishiga olib keladi.

Respublikamizda hozirgi kunda kommunal xo'jaligi tizimida mavjud asosiy fondlarning umumiy qiymati 740 milliard so'mdan ortiqni tashkil etib, ularning eskirish darajasi 41% ni, yangilashish koeffitsenti 6,3 %ni va ularning tugatilish koeffitsenti 3,5 %ni tashkil etmoqda.

9.2. Kommunal xo'jaligi korxonalarini ishlab chiqarish quvvatlari bilan ta'minlash va ulardan foydalanishni tashkil etish

Kommunal xo'jaligi korxonalarida asosiy fondlar tarkibi ishlab chiqarish korxonalarining asosiy ishlab chiqarish fondlaridan keskin farqlanadi. Kommunal xizmatlar ko'rsatishda asosiy fondlarning asosiy, katta qismini uzatuvchi tizimlar (elektr energiyasi,

gaz, suv, issiqlik va boshqa energiya uzatish tizimlari) tashkil etadi. Asosiy fondlarning hajmi va ulardan foydalanish darajasi korxonaning ishlab chiqarish quvvatini belgilaydi. Asosiy fondlar korxona xizmat ko'rsatish faoliyatini asoslashda katta rol o'ynaydi hamda korxonaning belgilangan nomenklaturada va sifatli xizmat ko'rsatishi va mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha potentsial imkoniyatlarini tavsiflaydi.

Ishlab chiqarish quvvatlari bilan ta'minlanish darajasi korxonada ma'lum bir davrda zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni tashkil etish natijasida xizmat ko'rsatish yoki ishlab chiqarish mumkin bo'lgan mahsulotlarning maksimal hajmi bilan belgilanadi. Kommunal xo'jaligi sohasida ma'lum tizimlar (quvurlar, uzatish liniyalari) orqali xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning aksariyati monopol hisoblanadi. Bunga sabab xizmat ko'rsatiladigan hududda xizmat ko'rsatuvchi tarmoq yagona bo'lib undan boshqa korxona yoki tashkilot foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmaydi.

Kommunal xizmatning bunday turlarini ko'rsatuvchi korxonalar belgilangan (ular xizmat ko'rsatayotgan) hududda ko'rsatiladigan xizmatga bo'lgan talabning to'liq qondirishlari zarur bo'ladi. Shundan kelib chiqib, mazkur korxonaning quvvati mazkur xizmatga bo'lgan talabni to'liq qondirish uchun etarli bo'lishi lozim.

Kommunal xo'jaligida korxonaning ishlab chiqarish quvvati yagona tizim quvvati bilan aniqlanadi. Bunda ishlab chiqarish bo'limlari quvvati bosh uchastkalar (qozonxona, nasos stantsiyalari, taqsimlash markazlari va boshqalar) quvvati bilan, uzatish tizimlari quvvati esa o'rnatilgan uskunalar quvvatiga asosan aniqlanadi. Korxona ishlab chiqarish quvvati hajmini belgilab beruvchi ko'rsatkichlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

— inshootlar quvvati va hajmi;

— uskunalar tarkibi va turlar bo'yicha miqdori;

— inshoot, uskuna, agregat va dastgohlardan foydalanishning texnik-iqtisodiy norma (normativ) lari;

— uskunalar ish vaqti fondi (xizmat muddati);

— ishchi va xizmatchilar soni;

— ko'rsatilgan xizmat va ishlab chiqarilayotgan mahsulot nomenklaturasi va assortimenti (turlari va xilma-xilligi).

Shuningdek, kommunal xo'jaligida asosiy hisoblanuvchi barcha turdagi xizmatlar ko'rsatishda (elektr, issiqlik energiya, suv ta'minotida va boshqalar) uzilish bo'lishi mumkin emas. Bu esa o'z navbatida korxonalarda favqulotda holatlarni bartaraf etish va to'xtalishlar bo'lmasligini ta'minlash uchun qo'shimcha, zahira quvvatlar bo'lishini talab etadi.

Korxonalarda ishlab chiqarish quvvatlari tendensiyali ko'rsatkichlarda, ya'ni boshlang'ich (yil boshida) ko'rsatkich, yakuniy (yil oxirida) ko'rsatkich, o'rtacha yillik ko'rsatkich shaklida o'rganiladi. Shuningdek, kommunal xo'jaligida korxonaning absolyut ko'rsatkichi — loyiha quvvati hisoblanadi. Loyiha quvvati qurilish loyihasida ko'zda tutilgan bo'ladi. Ammo loyiha quvvatiga asoslanish uchun korxonada to'liq loyihadagi quvvat ishga tushurilgan bo'lishi shart. Quvvatlarni qayta tiklash, kengaytirish va texnik jihatdan qayta qurollantirish orqali korxonada ishlab chiqarish fondlarining loyiha quvvatini oshirish mumkin. Shu sababli amaliyotda loyiha quvvati ko'pincha korxonaning amaldagi quvvati bilan solishtiriladi. Korxonaning amaldagi quvvati korxona ishlab chiqarish dasturini tayyorlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Korxona ishlab chiqarish quvvatini aniqlashda o'rnatilgan uskunalardan tashqari, zahiradagi uskunalar ham hisobga olinadi. Kommunal xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarish quvvati uzatish tizimi quvvatiga asosan hisoblanadi. Kommunal xo'jaligi korxonasining umumiy quvvati ishlab chiqarish quvvatidan zahira quvvatlar hisobiga farqlanadi.

$$K_{umum} = K_{e.i.ch.} + K_{zax}.$$

K_{umum} — korxonaning umumiy quvvatlari;

$Q_{e.i.ch.}$ — ekspluatatsiyadagi ishlab chiqarish quvvatlari;

Q_{zax} — me'yor bo'yicha zahira quvvatlari.

Suv xo'jaligi, issiqlik ta'minoti korxonalarida zahira fondlari 30%ga qadar bo'lishi mumkin.

Ishlab chiqarish quvvatini aniqlashda yetkazib beriladigan mahsulot birligiga sarflanuvchi vaqt me'yori yoki har bir uskunaning unumdorlik me'yorlari muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Korxonaning xizmat ko‘rsatuvchi bosh bo‘g‘ini (qozonxona, nasos stantsiyasi va boshqalarning) ishlab chiqarish quvvati har bir uskunalar bo‘yicha alohida-alohida, quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_{jami} = K_1 + K_2 + K_3 + ... + K_n,$$

$$K_1 = \frac{n \times T_{maks}}{M_m},$$

Bu yerda:

K_{jami} — xizmat ko‘rsatish tizimining ishlab chiqarish quvvati;

K_1 — 1-guruh uskunalarning qabul qilingan o‘lchov birligidagi quvvati;

n — tizimdagi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish uskunalari soni;

T_{maks} — uskunadan foydalanish mumkin bo‘lgan maksimal muddat, soat;

M_t — uskunada ko‘rsatiladigan xizmat yoki mahsulot birligini tayyorlash uchun progressiv mehnat sig‘imi, soat.

Korxona quvvati asosiy ishlab chiqarish fondlari, yangi texnika va aniqlangan zahiralardan foydalangan holda mahsulot ishlab chiqarishni mumkin bo‘lgan maksimal darajani tavsiflaydi, uskunalarning yuklanishini hisoblash natijalari esa, ushbu quvvatlardan rejadagi davrda foydalanishning darajasini ko‘rsatadi.

Demak, birinchi holatda korxona ishlab chiqarishi mumkin bo‘lgan mahsulotlarning maksimal darajasi aniqlansa, ikkinchi holda mazkur davr mobaynida uskunalardan qanchalik foydalanilishi aniqlanadi.

Ishlab chiqarish uskunalarining korxonada mavjud bo‘lgan quvvatlarga mos kelishini aniqlash uchun, o‘rtacha yillik ishlab chiqarish quvvati hisoblab topiladi. Uni hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$K_{o'rt.yil} = K_{y.b.} + \frac{K_{y.d.k} \times n_1}{12} - \frac{K_{y.d.ch.} \times n_2}{12},$$

Bu yerda:

$K_{o'r.yil}$ — korxonaning o'rtacha yillik quvvati;

$K_{y.b.}$ — korxonaning yil boshidagi quvvati;

$K_{y.d.k.}$ — yil mobaynida kiritilgan quvvatlar;

$K_{y.d.ch.}$ — yil davomida ishlab chiqarishdan chiqarilgan (tugatilgan) quvvatlar;

n_1, n_2 — ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirishdan yoki tugatilgan ishlab chiqarish quvvatlari yo'q qilingandan to yil oxirigacha o'tgan to'liq oylar soni.

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni yaxshilash bilan bog'liq bo'lgan mazkur chora-tadbirlar, ko'pincha ishlab chiqarish quvvatlari balansini tuzish yo'li bilan amalga oshirilib, korxonaning ishlab chiqarish quvvatlari va ularni ta'minlash manbalariga bo'lgan ehtiyoji aniqlanadi.

Kommunal xo'jaligida ko'rsatilayotgan xizmatlarni belgilangan me'yorlarda bo'lishini ta'minlash korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlari balansini o'rganib borishni taqozo etadi. O'rganish jarayonida ba'zis ko'rsatkich bo'lib korxonaning (inshoot, uzatish tizimi, kuch beruvchi uskuna va boshqalarning) loyiha quvvati hisoblanadi. Bunga sabab, istalgan vaqtda xizmat ko'rsatish tizimiga qo'shimcha iste'molchilarning ulanishi bir tomondan xizmat ko'rsatuvchi fondlarga me'yordan ortiq quvvat berishni talab etsa, ikkinchi tomondan ko'rsatilayotgan xizmat sifatining pasayishiga olib keladi. Agar, xizmat ko'rsatish tarmoqlari to'la quvvatda (belgilangan texnik me'yorga nisbatan) ishlayotgan bo'lsa qo'shimcha iste'molchilarning ulanishiga yo'l qo'yilmaydi yoki talab darajasida qo'shimcha quvvatlar ishga tushirilishi zarur bo'ladi.

9.3. Asosiy fondlar eskirishini hisoblash va kapital ta'mirlash ishlarining moliyaviy ta'minoti

Kommunal xo'jaligi korxonlarida asosiy fondlarning hisobi natura va qiymat ko'rinishida olib boriladi.

Asosiy fondlarni natural baholash — reja asosida asosiy fondlarni yangilab borish, korxonani texnik jihatdan qayta qurollantirish va zamonaviylashtirish, asosiy vositalarni joriy va

kapital ta'mirlash ishlarining hisobini olib borish, ularning guruh va turlari bo'yicha grafiklar tuzish, ehtiyot qismlar va ta'mirlash materiallariga ehtiyojni aniqlash kabi vazifalarning yechish imkonini beradi.

Asosiy fondlarning qiymat ko'rinishida baholash — ularni qayta tiklashni rejalashtirish, mavjud hajmini aniqlash, amortizatsiya hajmini belgilash, asosiy fondlar va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini tahlil qilish kabi iqtisodiy ko'rsatkichlarni o'rganish imkonini beradi.

Asosiy fondlar boshlang'ich qiymat bo'yicha, tiklanish qiymati bo'yicha va qoldiq qiymati bo'yicha baholanadi.

Asosiy fondlarning boshlang'ich qiymati — asosiy vositalarni qurish, sotib olish va ishga tushurish xarajatlari qiymati yig'indisidan tashkil topadi. Asosiy fondning boshlang'ich qiymati korxonaning mazkur mashina yoki inshootni ishga tushurgan (sotib olgan) kunda buxgalteriya hujjatlarida qayd qilingan qiymatidir.

Asosiy fondlarning tiklanish qiymati — asosiy fondlarni real vaqtda inflyatsiya, ma'naviy eskirish boshqa omillarni hisobga olgan holda baholash. Tiklash qiymatida baholash ob'yektning real vaqtdagi qayta ishlab chiqarish davrida qancha turishini ko'rsatadi. Korxona asosiy fondlarining tiklanish qiymati moliya vazirligi tomonidan asosiy fondlarni qayta baholash koeffitsentlari e'lon qilinganda, auditorlik tekshiruvi va inventarizatsiya o'tkazish jarayonida amalga oshiriladi.

Asosiy fondlarning qoldiq qiymati — asosiy fondlarning boshlang'ich qiymatidan ularning eskirish summasi ayirmasidan iborat bo'ladi. Asosiy fondlarning qoldiq qiymati ularning ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida boshlang'ich qiymatini mahsulot tannarxiga o'tkazilmagan qismidir.

Asosiy vositalarning korxona balansi va hisobotlarida aks ettiriluvchi (ishga tushurish davridagi boshlang'ich va qayta baholash koeffitsentlari e'lon qilinganda, qayta baholashdan keyingi, tiklanish), qiymati balans qiymati deb ataladi. Asosiy vositalarning qoldiq qiymatini asosiy vositalarning balans qiymatidan eskirish summasini ayirish orqali topiladi.



9.1- rasm. Asosiy fondlarini baholashning turlari.

Buxgalteriya balansida asosiy fondlarning boshlang'ich qiymati bilan birgalikda eskirish qiymati (F-1 shakli 010 qator) aks ettiriladi.

Asosiy fondlarning eskirishi ikki turga: jismoniy va ma'naviy eskirishga bo'linadi.

Asosiy fondlarning jismoniy (mexanik) eskirishi asosiy fondlarning boshlang'ich holatini ishlab chiqarishda foydalanish va mexanik yemirilish natijasida yuzaga keladi. Jismoniy eskirish ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonidagi ko'pgina faktorlarga bog'liq bo'lib, bir xil darajada kechmaydi. Kommunal xo'jaligi korxonalarida asosiy fondlarning eskirishi ko'p jihatdan iqlimning ta'siriga, asosiy fondlarga xizmat ko'rsatishning tashkil

etilganligiga, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning malakasiga va iste'molchilarning ulardan foydalanish munosabatlariga bog'liq bo'ladi.

Jismoniy eskirishni (JE) quyidagi formuladan foydalanib aniqlash mumkin:

$$JE = \frac{T_{afxm}}{T_{afmm}} \times 100,$$

Bu yerda:

T_{afxm} — asosiy fondlarning haqiqiy xizmat qilgan muddati;

T_{afmm} — asosiy fondlar xizmat qilishi kerak bo'lgan me'yoriy muddati;

Shuningdek, asosiy fondlarning jismoniy eskirishi ularning amortizatsiya summasiga nisbatan ham hisoblash mumkin. Bu usulda quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$JE = \frac{AS}{K_b} \times 100.$$

AS — hisoblangan amortizatsiya summasi (eskirish summasi);

Q_b — asosiy fondlarning boshlang'ich (qayta tashkil qilish) qiymati.

Asosiy fondlarning ma'naviy eskirishi ularning qadrsizlanishi yoki texnik jihatdan zamonaviy ishlab chiqarish talablariga javob bera olmasligini bildiradi. Asosiy fondlar ikki shaklda ma'naviy eskiradi:

— birinchi shaklda — asosiy fondlar ko'rsatgan xizmat va ishlab chiqargan mahsulotga iste'molchilarda talab yo'qolishi natijasida ro'y beradi;

— ikkinchi shaklda asosiy fondlarning o'rniga fan-texnika taraqqiyoti natijasida yanada samaraliroq fondlarning paydo bo'lishi natijasida yuzaga keladi.

Asosiy fondlar yuqorida keltirilgan ma'naviy eskirishilari quyidagi formulalar yordamida aniqlanadi:

$$EM_1 = \frac{K_b - TK}{K_b} \times 100;$$

$$EM_2 = \frac{U_{ya} - U_e}{U_{ya}} \times 100.$$

Bu yerda:

Q_b — asosiy fondlarning to'liq boshlang'ich qiymati;

TQ — asosiy fondlarning tiklanish qiymati;

U_{ya} — yangi texnikaning unumdorligi;

U_e — eski texnikaning unumdorligi.

Asosiy fondlarni qayta tiklash, ya'ni jismoniy va ma'naviy eskirgan asosiy fondlarning o'rnini iqtisodiy to'ldirish uchun korxona bu vositalar qiymatidan amortizatsiya ajratmalarni ayirib tashlaydi hamda bu ajratmalar keyinchalik xarajatlar sifatida mahsulot tannarxiga kiritiladi.

Amortizatsiya ajratmalari amortizatsiya me'yorlari asosida hisoblanadi va bu me'yorlar (A_m) quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$A_m = \frac{A}{TBK} \times 100.$$

Bu yerda:

A — amortizatsiya ajratmalari;

TBQ — asosiy fondlarning to'liq boshlang'ich qiymati.

Yillik amortizatsiya ajratmalari (A_{yil}) miqdori quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$A_{yil} = \frac{TBK + X_{kt} + M - K_{qoldiq}}{T}.$$

Bu yerda:

X_{kt} — asosiy fondlar xizmat qilgan muddat davomida kapital ta'mirlashga sarflangan xarajatlar;

M — uskuna, mashina va qurilmalarni, ular xizmat qilgan davr mobaynida modernizatsiya qilishga sarflangan xarajatlar;

K_{qoldiq} — asosiy fondlarning qoldiq (likvidatsion) qiymati;

T — asosiy fondlarning xizmat qilish muddati, yil.

Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida asosiy fondlar asta-sekinlik bilan eskirib boradi va ularning ish qobiliyati ta'-

mirlash orqali qayta tiklanadi. Asosiy fondlarning o'z vaqtida ta'mirlash ularning muddatidan oldin ishdan chiqishining oldini oladi, ularning xizmat qilish muddatini uzaytiradi va unumdorligini oshiradi. Kommunal xo'jaligi korxonalarida asosiy fondlarni ta'-mirlash uch shaklda: **kapital ta'mirlash, qisman kapital ta'mirlash** va joriy ta'mirlash turlarga bo'linadi. Kommunal xo'jaligi inshootlarini ta'mirlash o'z xususiyati, talab qilinuvchi muddat va mablag'larga ko'ra, mashina va uskunalarni ta'mirlashdan farq qiladi.

Masalan, mashina va asbob-uskunalarni kapital ta'mirlashda ular to'liq qismlarga bo'linadi va eskirgan qismlar almashtiriladi. Asosiy vositalarni birinchi kapital ta'mirlash bilan ikkinchi kapital ta'mirlash oralig'idagi muddat ta'mirlash sikli deb ataladi.

Kommunal xo'jaligi inshootlari kattaligi, ma'lum vaqtda to'liq kapital ta'mirlash imkoni mavjud bo'lmaganligi sababli qisman kapital ta'mirlanadi. Qisman ta'mirlashda kommunal xo'jaligi inshooti yoki uskunasining ma'lum bir qismi (reja asosida) kapital ta'mirlanadi. Kapital ta'mirlash ishlarining amalga oshirish muddatlari «Uzkomunxizmat» agentligi tomonidan tasdiqlangan «Uy-joy fondidan texnikaviy foydalanish qoidalari va me'yorlari»ning 1-ilovasi «Bino va ob'yektlardan samarali foydalanishning eng kam muddatlari» va 2-ilova «Bino va obyektlarniig tarkibiy qismlaridan samarali foydalanishning eng kam muddatlari»lariga muvofiq va ta'mirlash jarayonida amalga oshiriladigan ishlar mazkur hujjatning 8-ilovasi «Bino va ob'yektlarni to'liq ta'mirlashda bajariladigan ishlar ro'yxati»ga muvofiq belgilanadi.

Kommunal xo'jaligi korxonalarida asosiy fondlarni kapital ta'mirlash ishlarini amalga oshirishda katta miqdorda moliyaviy mablag' talab etiladi. Kommunal xo'jaligi asosiy fondlarini qurish va kapital ta'mirlash ishlari turli moliyaviy manbalar (korxonalar, budjet, mahalliy budjet, xalqaro moliyaviy tashkilotlar kreditlari, grantlar va boshqalar) tomonidan moliyalashtiriladi. Shu sababli kommunal xo'jaligida yangi inshootlarni qurib ishga tushurish va mavjudlarni kapital ta'mirlash ishlarini moliyalashtirish jarayonini tashkil etishda amalga oshiriladigan ishlar uchun sarflanadigan mablag' miqdorini aniq hisob-kitob qilish muhim ahamiyatga ega.

Navbatdagi kalendar yilida amalga oshiriladigan (davlat kapital qurilish dasturiga kiritilmagan) kapital qurilish va kapital ta'mirlash ishlarini moliyalashtirishni rejalashtirish ishlari hisobot yilining oxirgi kvartalida amalga oshiriladi.

Moliyalashtirish rejasi ikki qismdan, yangi qurilayotgan hamda kapital ta'mirlanadigan bino va inshootlarni moliyalashtirish ko'rsatkichlaridan tashkil topadi.

$$M_{KK} = \sum M_{KK} + M_{KT}.$$

Bu yerda: M_{KK} — davlat kapital qurilishi dasturiga kiritilmagan kapital qurilish ishlari;

M_{KT} — kapital ta'mirlash ishlari.

Kapital qurilish ishlarini amalga oshirishga sarflanadigan moliyaviy mablag'lar hajmi mazkur ob'yektlar loyiha-smeta hujjatlaridan kelib chiqib jamlanadi. Agar, kapital qurilish ishlari uzoq muddat bir necha yil davom etayotgan bo'lsa tugallanmagan qurilishning rejalashtirilayotgan yilga tegishli qismi ajratib olinadi. Bunday obyektlarda joriy yilda amalga oshirilgan ish va uning moliyalashtirish darajasini hisobga olish zarur bo'ladi. Joriy yilda bajarilgan qurilish ishlarini moliyalashtirishdan (*Chm*) chekinishlar quyidagicha aniqlanadi:

$$Ch_M = Ch_U + M_J - Ch_J,$$

bu yerda: Ch_U — o'tgan yilda amalga oshirilgan kapital qurilish ishlarini moliyalashtirishdan yil yakunidagi chekinish miqdori (moliyalashtirilishi rejalashtirilgan ish hajmining to'lanmagan qismi yoki o'tkazilgan avans);

M_J — joriy yilda moliyalashtirilishi rejalashtirilgan kapital qurilish ishlari hajmi;

Ch_J — joriy yilda moliyalashtirishdan chekinish.

Kommunal xo'jaligi tashkilotlarida kapital ta'mirlash va rekonstruktsiya ishlarni moliyalashtirishni rejalashtirish bo'yicha ishlar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1) Asosiy fondlarni texnik holati bo'yicha taftishdan o'tkazish;

2) Ishlab chiqarish jarayonidagi xizmat muddatiga ko'ra jismoniy eskirgan asosiy fondlar ro'yxatini tuzish;

3) Moliyaviy xarajatlar hajmini hisoblash.

Asosiy fondlarni texnik holati bo'yicha ko'rikdan o'tkazish uchun korxona (zarur hollarda yuqori tashkilotlar va tegishli soha vakillari ishtirokida) tomonidan komissiya tuziladi. Mazkur komissiya «O'zkomunxizmat agentligi tomonidan tasdiqlangan «Uy-joy fondidan texnikaviy foydalanish qoidalari va me'yorlari»ga va boshqa tegishli texnologik inshootlar va jihozlardan (qozonxonalar, quvurlar, suv inshootlari va boshqalar) foydalanish to'g'risidagi me'yorlarga asoslanib har bir asosiy vositani ko'rikdan o'tkazadi. Asosiy vositani ko'rikdan o'tkazish jarayonida ishga tushirilganidan buyon o'tgan vaqt davomida amalga oshirilgan ta'mirlash va o'zgartirishlar to'g'risidagi ma'lumotni har bir inshoot va jihozning texnik holatini qayd etish kitobidan o'rganiladi. Shuningdek, asosiy fondni ekspluatatsiya qiluvchi smena navbatchiligi daftarida qayd etilgan texnik nuqsonlar o'rganib chiqiladi.

Mazkur komissiya kapital ta'mirlashni kechiktirib bo'lmaydigan asosiy vositalar ro'yxatini tayyorlaydi va moliyaviy xarajatlar hajmini aniqlash uchun taqdim etadi.

Uzatish quvurlari hamda yirik inshootlar va kommunikatsiyalar texnik holatiga ko'ra qisman (tegishli qismi) kapital ta'mirlanadi. Bunday obyektlarning har bir qismi (bo'limi)ning texnik holati bo'yicha alohida hisobga olib boriladi.

Ishlab chiqarish jarayonidagi xizmat muddatiga ko'ra jismoniy eskirgan asosiy fondlar ro'yxatini korxona buxgalteriyasi tomonidan tayyorlanadi va yuqorida keltirilgan komissiya tomonidan ko'rib chiqiladi. Komissiya texnik tasnifi bo'yicha xizmat muddati tugagan har bir asosiy vositani ko'rikdan o'tkazib, xizmat muddatini uzaytirish, kapital ta'mirlash yoki hisobdan chiqarish va tugatish to'g'risida xulosa chiqaradi. Bunda asosiy fondning ma'naviy eskirishi ham inobatga olinadi. Xizmat muddatiga ko'ra eskirgan asosiy vositalar komissiya xulosasiga ko'ra uch guruhga ajratiladi:

1. Xizmat muddati uzaytirilgan ekspluatatsiyaga yaroqli;
2. Kapital ta'mirlash ro'yxatiga kiritilgan;
3. Hisobdan chiqariladigan va tugatiladigan asosiy vositalar.

Iqtisodiyotning boshqa sohalaridan farqli ravishda kommunal xo'jaligi sohasida asosiy fondlarning texnik holatiga va foydalanish muddatiga alohida e'tibor qaratiladi. Bu asosiy fondlar bevosita uy-joy xo'jaligiga xizmat qilgani sababli ularda ro'y beruvchi nosozliklar bevosita aholining hayotiga xavf soladi. Uy-joy xo'jaligiga tegishli asosiy fondlar (korxonadagilardan tashqari) ro'yxati 1- va 2- ilovalarda keltirilgan.

Komissiya texnik holati va xizmat muddatiga ko'ra kapital ta'mirlash va yangilash zarur deb topilgan asosiy fondlar ro'yxati tuzilganidan so'ng moliyaviy xarajatlar hajmini hisoblash ishlari boshlanadi. Bunda har bir asosiy fondni kapital ta'mirlash bo'yicha smeta-loyiha hujjatlari tayyorlanadi. Har bir asosiy vositani kapital ta'mirlash smeta qiymati, joriy narxlardagi eskirish qiymati, va qoldiq qiymati aniqlanadi.

Korxonada rejalashtirilayotgan yilda kapital ta'mirlashga ajratiladigan mablag' quyidagicha aniqlanadi:

$$M_R = Ch_M + M_{TM},$$

Bunda: Ch_M — joriy yilda bajarilgan qurilish ishlarini moliyalashtirishdan chekinishlar;

M_{TM} — texnik holati va xizmat muddatiga ko'ra rejalashtirilayotgan yilda kapital ta'mirlash ishlarining moliyaviy xarajatlari.

Korxona tomonidan rejalashtirilgan yilda tashqaridan jalb etiladigan (yetishmaydigan) moliyaviy mablag' miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$M_D = M_R + X_{Amort},$$

bunda: M_R — rejalashtirilayotgan yilda kapital ta'mirlashga ajratiladigan mablag';

X_{Amort} — joriy yilga qadar asosiy fondlarga hisoblangan eskirish summasi joriy narxlarda (indeksatsiya qilingan miqdori).

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Asosiy fondlar korxona faoliyatida qanday o'rin egallaydi?

2. Kommunal xo'jaligi korxonalarida asosiy fondlarning o'ziga xos xususiyatlari mavjud va ular korxona faoliyatida qanday rol o'ynaydi?

3. Kommunal xo'jaligi korxonalarida asosiy fondlarni qanday guruhlarga bo'lish mumkin?

4. Korxona ishlab chiqarish quvvatlarini hisoblash usuli, turi va tushunchalari qanday?

5. Korxona ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishni hisoblashning qanday yo'llari mavjud?

6. Asosiy fondlarning eskirishi qanday hisoblanadi va ularni qayta tiklash deganda nimani tushunasiz?

X BOB. KOMMUNAL XO‘JALIGI KORXONALARINING AYLANMA MABLAG‘LARI VA XO‘JALIK FAOLIYATINI BAHOLASHNING SIFAT KO‘RSATKICHLARI

10.1. Kommunal xo‘jaligi korxonalarida aylanma mablag‘larning tarkibiy tuzilishi va ularning korxona faoliyatiga ta’siri

Kommunal xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalar faoliyati xarakteridan kelib chiqib ikki guruhga bo‘linadi. Birinchi guruhga ko‘rsatiladigan xizmatlar turi bo‘yicha monopol hisoblanuvchi (elektr energiyasi, gaz, issiqlik energiyasi, suv ta’minoti) korxonalari kirsa, ikkinchi guruhga erkin raqobat muhitida tashkil etilishi mumkin bo‘lgan xizmatlarni ko‘rsatuvchi korxona va tashkilotlar (qurilish va ta’mirlash, obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish, sanitariya va tozalikni ta’minlash va boshqalar) kiradi.

Ikkinchi guruh korxonalarining iqtisodiy faoliyati, shu jumladan aylanma mablag‘lari tarkibi iqtisodiyotning boshqa tarmoq korxona va tashkilotlaridan deyarli farqlanmaydi. Bunday korxonalarning iqtisodiy faoliyati «Korxona iqtisodi» fanida yoritilgan.

Monopol xizmatlarni ko‘rsatuvchi kommunal xo‘jaligi korxonalarida iqtisodiy mexanizm boshqa tarmoqlar korxonalaridan keskin farqlanadi. Shu jumladan aylanma mablag‘lar tarkibi boshqa korxonalarnikidan farqlanib, ularning hajmi ko‘rsatilayotgan kommunal xizmat turi bilan bog‘liq bo‘ladi. Aylanma mablag‘lar korxonaning aylanma fondlari va muomala fondlarini tashkil etadi, shu sababli faoliyati energiya sotib olish va uni uy-joy xo‘jaligiga yetkazib berish bilan bog‘liq bo‘lgan korxonalarda aylanma mablag‘lar ulushi korxona salohiyatining asosini tashkil etadi. Aylanma mablag‘lar xizmat ko‘rsatish jarayonining uzluksizligini ta’minlashda moddiy asos hisoblanadi.

Aylanma mablag'lar korxona doimiy kapitalining tarkibiy qismi bo'lib, doimiy harakatdagi energiya resurslari, xom ashyo, yoqilg'i, yordamchi va boshqa materiallar shakliga, shuningdek, hisob raqamidagi va g'aznadagi pul mablag'lari shakliga o'tib turadi. Pul mablag'lari korxona faoliyati davomida turli shakllarga aylanib, u tashkilotlar bilan shartnomaviy munosabatlarni amalga oshirish, ishchi-xodimlar mehnatiga haq to'lash va boshqa korxona faoliyati bilan bog'liq xarajatlarni qoplash uchun sarflanadi.

Korxonalarning aylanma mablag'lari aylanma fondlar va muomala fondlariga bo'linadi.

Korxonaning aylanma fondlari korxona ishlab chiqarish fondlarining bir qismi bo'lib, bitta ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sikli davomida sarflanadi hamda natural shaklini o'zgartirib, o'z qiymatini to'lig'icha ko'rsatilgan xizmat tannarxiga o'tkazadi. Aylanma ishlab chiqarish fondlari tarkibiga yoqilg'i va energetika resurslari, xom ashyo va materiallar zahirasi, ehtiyot qismlar, tugallanmagan ishlab chiqarish va kelajakdagi xarajatlarni kiritish mumkin.

Muomala fondlari korxonaning tayyor mahsulot zahirasini yaratish uchun mo'ljallangan pul mablag'lari, shuningdek, aksiyadorlarning qarzlari, turli xil debitorlik qarzlari, bank hisob raqamlaridagi va kassadagi pullar va qimmatli qog'ozlardan iborat bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kommunal xizmati ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatini ta'minlashda aylanma mablag'lardan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

— yetkazib beriladigan elektr energiyasi, gaz, yoqilg'i resurslar uchun haq to'lash;

— xizmat ko'rsatish quvurlari va tizimlari faoliyatini ta'minlash bilan bog'liq xarajatlarni qoplash;

— xom ashyo, material, ehtiyot qismlar hamda xizmat ko'rsatishni tashkil qilishda zarur bo'lgan boshqa mehnat predmetlarini olish;

— ish haqi to'lovlarini amalga oshirish;

— soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash;

Kommunal xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalarning iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari korxona va tashkilotlaridan asosiy farqi aylanma fondlari va ulardan foydalanish bilan bog'liqdir. Aylanma ishlab chiqarish fondlari va muomala fondlari o'rtasidagi nisbat korxona aylanma mablag'larining tuzilmasini ko'rsatadi. Kommunal xo'jaligi korxonalarida aylanma fondlarning asosiy va salmoqli qismi energiya resurslarini sotib olish va ularni aholiga yetkazib berish (sotish) jarayonida band bo'ladi.

Aylanma ishlab chiqarish fondlarining tarkibiy tuzilmasida turli guruhlarning nisbati foizlarda ifodalanadi. 10.1- chizmada korxona aylanma mablag'larining taxminiy (namunaviy) tuzilmasi ko'rsatilgan.

Chizmadan ko'rish mumkinki, kommunal xo'jaligi tashkilotlarida aylanma ishlab chiqarish fondlarining asosiy qismini energiya resurslarini sotib olish va aholiga sotish bilan bog'liq xarajatlar tashkil qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yetkazib berilayotgan energiya resurslari (ko'rsatilayotgan kommunal xizmatlar) uchun to'lovlarning aholi tomonidan o'z vaqtida amalga oshirilishi korxonada aylanma mablag'lar tezroq akkumilyatsiya qilish (yig'ish) va xizmat ko'rsatishning yangi sikliga safarbar etish imkonini beradi va aksincha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarning kechiktirilishi aylanma mablag'larning bir qismini aholida ushlanib qolishi korxona iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatib, resurslarni «bog'lab» qo'yadi. Shu sababli aylanma mablag'larning aylanish tezligi korxona aylanma fondlari hajmiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Aylanma mablag'lar hajmini optimallashtirish mablag'larning aylanish tezligiga bog'liq bo'ladi.

Aylanma fondlar tuzilmasi nafaqat kommunal soha korxonalarida, hattoki bir korxonaning o'zida ham farqlanadi. Bunday farqlanishga xizmat ko'rsatish jarayonida turli xildagi energiya resurslari, xom ashyo va materiallar, xizmat ko'rsatish texnologiyasi va texnikasidagi farqlar, korxonalarning geografik joylashuvi, xizmat ko'rsatishning tashkil etilishi va mehnat taqsimoti, moddiy-texnika ta'minoti sabab bo'lishi mumkin.



10.1-chizma. Korxona aylanma mablag'larining namunaviy tuzilmasi.

Korxonalar aylanma mablag'lari tarkibi va tuzilmasiga xo'jalik yuritish qobiliyati va uning samaradorligiga rioya qilish qoidalari katta ta'sir ko'rsatadi.

Kommunal xizmatlarning uzluksiz amalga oshirilishi sababli korxonalarning aylanma mablag'lari bir vaqtning o'zida turli ko'rinishda ham pul mablag'lari, ishlab chiqarish zahiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulotlar ko'rinishida mavjud bo'ladi. Korxonaning aylanma mablag'lari harakati ma'lum bir iqtisodiy qonunlar asosida ishlashi hamda ulardan ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida oqilona foydalanishni ko'zda tutishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu qonunlardan va aylanma mablag'lardan foydalanish qoidalaridan chetga chiqish aylanma mablag'larning yetishmasligiga yoki samaradorlikning pasayishiga olib kelishi mumkin.

10.2. Kommunal xo'jaligi korxonalarida aylanma mablag'lardan samarali foydalanish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday korxonada moliyaviy salohiyatini mustahkamlash va kerakli daromatga erishishning asosiy yo'li aylanma mablag'lardan samarali foydalanish hisoblanadi.

Korxona aylanma mablag'laridan samarali foydalanish uchta asosiy ko'rsatkichda tavsiflanadi:

1) aylanish koeffitsienti;

2) aylanma mablag'larning yuklanish koeffitsienti;

3) aylanma vositalarning bir marta aylanishi davomiyligi.

Aylanish koeffitsienti korxona aylanma mablag'larining ma'lum bir vaqt (yil, chorak) davomida amalga oshiruvchi aylanishini tavsiflaydi yoki aylanma mablag'larning har 1 so'miga to'g'ri keluvchi ko'rsatilgan xizmatlar miqdorini ko'rsatadi. U quyidagi formula asosida hisoblab topiladi:

$$K_a = X_h : Q_a.$$

Bu yerda:

X_h — ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, pul o'lchovida;

Q_a — aylanma mablag'larning o'rtacha qoldiq hajmi, pul o'lchovida (aylanma mablag'lar normativi).

Misol: korxonaning bir yil mobaynida ko'rsatgan xizmatlari miqdori 1 milliard so'mni tashkil qiladi. Bu holda aylanma mablag'lar normasi 250 mln so'mni tashkil qiladi. Demak $A_k = 4$ (1000:250).

Aylanma mablag'larni yuklanish koeffitsienti aylanish koeffitsientiga teskari bo'lgan qiymatdir. U sotilgan har 1 so'm mahsulotga sarflangan aylanma mablag'larni tavsiflaydi hamda quyidagi formula asosida hisoblab topiladi:

$$Yu_k = K_a : X_h$$

Bir marta aylanish davomiyligi kunlarda o'lchanadi hamda shu davrdagi kunlar sonining aylanish koeffitsientiga nisbati shaklida quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$A_d = D : K_a$$

Bu yerda:

D — shu davrdagi kunlar soni (360, 90).

Aylanma mablag'larning to'liq aylanish muddati qanchalik kichik yoki bu aylanishlar soni qanchalik ko'p bo'lsa, aylanma mablag'lar shunchalik kam talab qilinadi va aksincha, aylanma mablag'lar qanchalik tez aylanishda bo'lsa, shunchalik samarali ishlatiladi.

Aylanma mablag'larning aylanishini tezlashtirish uchun kurashda har bir korxona ularning ishlab chiqarish va muomalada bo'lish muddatini qisqartirishga erishishi zarur. Aylanma mablag'larning muomala sohasida sekin harakatlanishi korxonaning bu vositalardan ishlab chiqarishda foydalanishda erishgan yutuqlarini yo'qqa chiqarishdan tashqari, ularning umumiy aylanishini ham sekinlashtirishi mumkin. Shu sababli ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarning o'z vaqtida amalga oshirilishi aylanma mablag'larning aylanishini tezlashtirishning muhim yo'li hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 18- apreldagi «Aholiga kommunal xizmat ko'rsatishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 178-sonli Qaroriga muvofiq kommunal xizmat ko'rsatish korxonalariga davlat budjetidan dotatsiya ajratish tugatilib, 2006-yilga qadar o'zini o'zi moliyaviy ta'minlashga o'tkazilishi belgilangan. Moliyaviy mustaqillik sharoitida kommunal xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda aylanma mablag'lardan samarali foydalanishni tashkil etish eng avvalo aholining ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishlariga bog'liq. Bunga sabab energiyani sotib olib aholiga yetkazib beruvchi tashkilotlarda aylanma mablag'larining asosiy qismi (elektr energiyasi 95-97%, gazni 80-85%i) bevosita energiya resurslari uchun to'lov sifatida yetkazib beruvchilarga to'lansa, issiqlik energiyasi va suv ta'minoti korxonalarida aylanma mablag'larning asosiy qismi, 60-80% yoqilg'i va xom ashyo resurslarini sotib olish va tayyorlash uchun sarflanadi. Shu sababli aholi tomonidan ko'rsatilgan xizmat haqining

kichik qismini o‘z vaqtida to‘lanmasligi ham korxonalar faoliyatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur masalaning oldini olish va kommunal to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta’minlash masalasi hozirgi kunda tizimda yuzaga kelgan asosiy muammolardan biri hisoblanadi. 2001-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kommunal xizmatlar ko‘rsatish sohasidagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning yangi bosqichi to‘g‘risida»gi PF-2832-sonli Farmoniga muvofiq kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari aholi tomonidan kommunal xizmatlar haqini o‘z vaqtida va to‘liq to‘lanishini ta’minlagani uchun fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va uy-joy mulkdorlari shirkatlari bilan hamkorlikda faoliyat olib bormoqda. Hozirgi kunda, to‘lov intizomini mustahkamlash va aylanma mablag‘lardan samarali foydalanishni tashkil etish maqsadida ko‘plab qonuniy-me’yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan va to‘lov ko‘rsatkichlarini yaxshilash bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda.

10.3. Kommunal xo‘jaligi korxonalarining xo‘jalik faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari

Hozirgi kunga qadar kommunal xo‘jaligi korxonalari faoliyatini baholashda asosiy ko‘rsatkich mahsulot (xizmatlar)ni yetkazib berishdan kelgan daromadlar hisoblangan. Korxonalar iqtisodiy faoliyatini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tajribalar natijasiga ko‘ra bu ko‘rsatkich korxonalarning issiqlik, elektr energiyasi, suv, gaz va boshqa resurslardan tejamli foydalanishlarini va o‘z faoliyatlarini tejamkorlikka intilish asosida tashkil etishlari rag‘batlantirilmagan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tarmoq tasarrufidan qat’iy nazar har bir korxonaning iqtisodiy samara olish bilan birga energiya-resurslardan oqilona foydalanishga intilishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Resurslar tejamkorligiga intilish ayniqsa monopol hisoblanuvchi kommunal xo‘jalik korxonalarning iqtisodiy faoliyatida muhim ko‘rsatkich hisoblanadi.

Kommunal xo‘jaligi korxonalarining moliyaviy xo‘jalik faoliyatini o‘rganishda amaliyotda qo‘llanilayotgan iqtisodiy qonu-

niyatlar va uslublar asosida tahlil etish bilan bir qatorda tarmoq xususiyatiga tegishli ko'rsatkichlarni o'rganishni taqozo etadi.

Quyida ushbu ko'rsatkichlar tizimini o'rganishni amaliyotga bog'lagan holda tushuntirish maqsadida gaz xo'jaligi korxonalari misolida o'rganib chiqamiz. Ushbu tizimdan kommunal xo'jaligi sohasining faoliyatlari o'xshash bo'lgan suv ta'minoti, isitish, elektr energiyasi va boshqa soha korxonalari iqtisodiy faoliyatini o'rganishda foydalanish mumkin.

Gaz xo'jaligi korxonalarida ekspluatatsiya jarayonini ta'minlovchi xodimlarining muhim vazifalari, aholi va korxonalarni gaz bilan muntazam, havfsiz va tejamli ta'minlashdan iborat bo'ladi. Mazkur iste'molchilarga xizmat ko'rsatish ishlari gaz xo'jaligida ekspluatatsiya xarajatlarining asosiy qismini tashkil etadi.

Gaz xo'jaligi korxonalarining muhim vazifalaridan biri nafaqat yoqilg'i bilan uzluksiz ta'minlash, balki gaz resurslaridan tejamli foydalanishga erishishdan iboratdir. Bu o'z navbatida, gaz xo'jaligida ishlab chiqarish jarayonining eng kam ekspluatatsiya xarajatlariga yo'l qo'ygan holda belgilangan maqsadga erishish imkonini beradi.

Shu munosabat bilan ular faoliyatini baholovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri sifatida aholi va kommunal korxonalarga gaz yetkazib berishdan tushgan daromad ko'rsatkichini olish mumkin, u quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$K_1 = D_{amalda} : D_{reja},$$

bunda: D_{amalda} va D_{reja} — mos holda amaldagi va rejadagi aholi va kommunal maishiy korxonalarga gaz yetkazib berishdan tushgan daromadlar miqdori, ming so'm.

Hozirgi vaqtda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish omillaridan asosiysi resurslarni iqtisod qilishdir. Hozirgi kunga qadar gaz ta'minoti korxonalari ko'proq gaz yetkazib berish yo'li bilan katta foyda olish rejasini iqtisod va tejamkorlik uchun kurash bilan bog'lamas edilar. Bunga sobiq tizimdan qolgan taqsimlash mexanizmi — limit ajratish yo'l qo'ymasdi. Korxonada gaz qancha tejalsa, tejalgan ko'rsatkich keyingi yilgi limitdan kesib qolinardi.

Uning ustiga, gazni tejagani uchun rag'batlantirish tizimi mavjud bo'lmay, gaz iste'mol qilishning kamayishi korxona daromadini kamayishiga va o'z navbatida rag'batlantiruvchi fondlarning kamayishiga olib kelardi. Amalda tejash imkoni mavjud bo'lishiga qaramay sarflangan gazning qiymati korxona tomonidan uni sotishdan olgan daromaddan bir necha o'n marta katta summani tashkil etardi.

Shu sababli monopolist hisoblanuvchi gaz ta'minoti korxonasining xo'jalik faoliyatini baholashda asosiy ko'rsatkichlardan biri sifatida gazni iqtisod qilish ko'rsatkichini joriy etish maqsadga muvofiq. Turli energiya ta'minoti xo'jaliklarining faoliyatini baholashda resurslardan tejamli foydalanish darajasi ushbu formula bo'yicha aniqlanishi mumkin:

$$K_2 = S_{REJA(LIMIT)} : S_{AMALDA},$$

bunda: $S_{REJA(LIMIT)}$ — hisobot davrida rejalashtirilgan (limit ajratilgan) gazning miqdori, mln m^3;

S_{AMALDA} — amalda yetkazib berilgan gaz, mln m^3.

Yetkazib berilgan gaz tannarxining katta salmog'ini gaz yetkazib beruvchilarga gaz uchun to'lovlar tashkil etadi, shuning uchun gaz xo'jaligining haqiqiy xizmatlarini ekspluatatsiya xarajatlari belgilaydi, ya'ni sotib olingan gaz uchun gaz ta'minoti korxonasi tomonidan amalga oshirilgan to'lovlardan tashqari, korxonada qolayotgan daromad, gaz xo'jaligi tomonidan bajarilgan ish hajmini tashkil etadi. Korxona faoliyatidagi bu ko'rsatkichni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$K_3 = R_{me'yor} : R_{amalda},$$

bunda: $R_{me'yor}$ va R_{amalda} — mos holda me'yor bo'yicha va amaldagi ekspluatatsiya xarajatlari ko'rsatkichilari, ming so'mda.

Respublika gaz ta'minoti korxonalarining xo'jalik faoliyatlari ma'lumotlarini eng kichik kvadratlar uslubi asosida tahlil qilinib gaz ta'minoti korxonalari ekspluatatsiya xarajatlari me'yoriy bir birligi quyidagini tashkil etishi aniqlandi:

Tabiiy gazda ishlaganda:

$RN_{tabiiy} = 20 + 120 \times V0,95$ ming so'm.

Suyultirilgan gazda ishlaganda:

$RN_{suyul} = 80 + 320 \times V0,95$ ming so'm,

bunda PH — gaz xo'jaligi ish hajmi, ming shartli birlikda.

Olingan ushbu formulalarga 3-5 yilda bir marta gaz xo'jaligi korxonalarida erishilgan amaldagi faoliyati ko'rsatkichlari bo'yicha ularga aniqlik kiritish maqsadida tuzatilishi lozim.

Gaz bilan ta'minlash tizimining mehnat xarajatlari va ekspluatatsiya qilish tannarxini belgilovchi asosiy omillardan biri gaz xo'jaligida ishchilar soni hisoblanadi. Gaz xo'jaliklari faoliyati qiyosiy baholanganda ishchilar sonining har xilligi hisobga olinishi zarur va u quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$K_4 = I_{hisobot} : I_{amalda},$$

bunda: $I_{hisobot}$ va I_{amalda} — mos holda rejaviy hisoblab olinganda chiqqani va amaldagi ishchilar soni.

Ma'lumki, gaz xo'jaligining bosh vazifasi aholi va kommunal maishiy iste'molchilarga gazni uzliksiz etkazib berishdir. Gaz xo'jaliklarining ishini baholash uchun aholini va kommunal-maishiy korxonalarni uzluksiz gaz bilan ta'minlanganlik darajasi ko'rsatkichini hisoblashda qo'yidagi formuladan foydalaniladi:

$$K_5 = 1/2 \left[(1 - Ba / Bd) + (1 - Ra / Rd)\right],$$

bunda: Bd va Rd — mos holda gaz ta'minlanayotgan xonadonlar va kommunal maishiy-korxonalarning yalpi soni, Ba va Ra bir sutkadan ortiq gaz o'chirilgan xonadonlar va kommunal-maishiy korxonalar soni.

Gaz uskunalari va tarmoqlari yong'in havfliligi yuqori bo'lgan manzillar hisoblanadi. Tizimda texnik avariya haqida tushgan buyurtmani bajarish va avariyani bartaraf etish gaz xo'jaligi avariya-dispetcher xizmati xodimlarining asosiy vazifalari hisoblanadi. Gaz tizimini ekspluatatsiya qilishda havfsizlik darajasi gaz xo'jaligi

faoliyatini baholashning muhim ko'rsatkichi bo'lib, u quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$K_6 = A_n/V_n : A_t/V_t = A_n/A_t : V_n/V_t,$$

bunda: A_n va A_t — mos holda joriy va o'tgan yildagi avariyalar soni;

V_n va V_t — mos holda gaz xo'jaligi tomonidan joriy va o'tgan yilda bajarilgan ish hajmi, ming shartli birlikda.

Bunda shuni ta'kidlash zarurki, agar gaz xo'jaligi korxonalarining birida xizmat ko'rilayotgan davrda avariya ro'y berishi oqibatida o'ta katta moddiy zarar ko'rilsa, unda bu korxonani baholanayotgan korxonalar qatoridan chiqarish zarur.

Gaz uskunalari va tarmoqlaridan gaz chiqishi munosabati bilan chaqiruvchi abonentlar soni qancha ko'p bo'lsa, gaz ta'minoti tizimida bu xizmat ko'rsatishlar bo'yicha ishlar sifati shuncha yuqori bo'ladi. Shuning uchun gaz xo'jaliklari ishini ko'rsatuvchi ko'rsatkich sifatida joriy xizmat ko'rsatish sifati darajasi tavsiya etiladi va ushbu formula bo'yicha aniqlanadi:

$$K_7 = Z_n/V_n : Z_t/V_t = Z_n/Z_t : V_n/V_t,$$

bunda: Z_n va Z_t mos holda nosozlikni tuzatish bo'yicha chaqiruvchi abonentlar soni, baholanayotgan (joriy) va o'tgan davrda.

Iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlovchi shartning eng muhimi ish haqi va mehnat unumdorligining o'sish sur'atlari maqbul nisbatiga erishish yoki amal qilishdir. Bunday nisbatning umumiy qonuniyati, unga kommunal xo'jaligi korxonalarida ham amal qilinishi kerak. Mehnat unumdorligining o'sish sur'atlari ish xaqi miqdori o'sishi sur'atlariga nisbatan jadalroq kechishidan iborat.

Gaz xo'jaligining mazkur ko'rsatkichi quyidagi formula orqali hisoblab chiqarilishi mumkin:

$$K_8 = K_{mch.un} \cdot K_{ish.haqi}.$$

Bunda: $K_{mch.un}$ — mehnat unumdorligi darajasi bo'lib, xo'jalikda ishlovchiga to'g'ri keladigan xaqiqiy ish unumining rejadagiga nisbatan sifati hisoblab chiqilgan. Ish unumi yoki yuqoridagi usul

bilan yoki gaz xo'jaligining ma'lum bir vaqtdagi ish hajmini shu muddatga ishlaganlarning o'rtacha ro'yxati soniga bo'lishdan hosil bo'ladigan shartli birligi sifatida hisoblanadi.

$K_{ish.haqi}$ — ish haqining o'rtacha darajasi. U ma'lum davrda bitta ishlovchining o'rtacha amaldagi ish haqining rejaviy ish haqi birligiga nisbati bo'yicha aniqlanadi.

Gaz xo'jaligi korxonasining ishlab chiqarish — xo'jalik faoliyatining yakuniy baholanishi koeffitsientlarning yig'indisi sifatida KE bo'yicha belgilanadi. U esa yuqorida ko'rib o'tilgan sakkiz ta koeffitsientlarni qo'shish yo'li bilan ushbu formula bo'yicha aniqlanadi:

$$K_E = 0{,}2 \times K_1 + 0{,}15 \times (K_2 + K_3) + 0{,}1 \times (K_4 + K_5 + K_6 + K_7 + K_8),$$

bunda: 0.2, 0.15 va 0.1 — har bir ko'rsatkich koeffitsientlarining qiymati. Ular yig'indisi (0,2 + 0,15×2 + 0,1×5) birga tengdir.

Jamlangan koeffitsientlar yig'indisi eng yuqori bo'lgan gaz xo'jaligi korxonasi ish hajmi va gaz ta'minoti bo'yicha eng yaxshi korxona deb hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar tizimi uy-joy kommunal xo'jaligining boshqa soha korxonalaridan foydalanish mumkin. Ular faoliyatining o'ziga xosligini hisobga olgan holda ko'rsatkichlar soni qisqartirilishi, kengaytirilishi yoki ayrim farqlanuvchi ushbu sohalarga taalluqli ko'rsatkichlar boshqa mos ko'rsatkichlar bilan almashtirilishi mumkin. Bunday baholash yil choraklari va bir yillikda o'tkazilishi mumkin. Bu uslubning joriy etilishi respublika uy-joy kommunal xo'jaligi korxonalari ishlab chiqarish faoliyatining haqqoniy miqdori va sifat jihatidan baholash imkonini berib, natijada soha ishlarining samaradorligini oshirishga olib keladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kommunal xizmatlar ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarda o'z-o'zini moliyalashtirish sharoitida ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun qilinayotgan sarf-xarajatlar mazkur xizmatlarga belgilanadigan to'lov tariflari va to'lovlar miqdoriga katta ta'sir ko'rsatadi. Kommunal xizmatlar uchun to'lovlar tariflari davlat mahalliy hokimiyat organlari tomonidan belgilansa-da, ularni shakllantirishda mazkur xizmatlar tannarxi kalkulyatsiyasi asos qilib olinadi. Shu sababli

monopol hisoblanuvchi xizmatlar ko'rsatayotgan korxonalar tomonidan ko'rsatilayotgan kommunal xizmatlar qiymatining asossiz o'sib ketishining oldini olish eng avvalo mazkur korxonalarda aylanma mablag'lardan samarali foydalanishning yo'lga qo'yilishi va xizmatlarning real tannarxini aniqlashga bog'liq.

Kommunal xo'jaligi korxonalarida ko'rsatilayotgan xizmatlar tannarxi kalkulyatsiyasi odatda hisobot davri boshida, rejalashtirilayotgan davr uchun va hisobot davri yakunida hisoblanadi. Mazkur kalkulyatsiyalar ishlab chiqarish faoliyatini tahlil qilish va resurslardan foydalanishni yaxshilash yo'llarini izlab topish uchun xizmat qiladi. Yakuniy kalkulyatsiya bilan rejalashtirilgan kalkulyatsiya o'rtasidagi tafovud aylanma mablag'lardan foydalanish darajasini bildiradi. Taqqoslash jarayonida hisobot davri davomida minimal ish haqi miqdorining oshishi va energiya resurslari narxining qimmatlashgani inobatga olinadi.

Rejalashtirilayotgan davr uchun kalkulyatsiya ko'rsatiladigan xizmat birligi uchun sarf-xarajatlar yig'indisidan tashkil topadi. Bu kalkulyatsiyada barcha resurslar sarfi bir birlik mahsulot va xizmat uchun sarflanadigan me'yor ko'rsatkichidan iborat bo'ladi.

Hisobot davri yakuniy kalkulyatsiyasi tuzilishi jihatidan yuqorida keltirilgan kalkulyatsiyadan farq qilmaydi va undagi ko'rsatkichlar haqiqatda qilingan xarajatlardan tashkil topadi. Yakuniy kalkulyatsiyaning xarajatlar qismida, alohida qatorda, ko'zda tutilmagan zarar va yo'qotishlar qo'shiladi.

Ikkala kalkulyatsiyalarning solishtirma tahlili tannarxni pasaytirish yo'llarini aniqlash, ishlab chiqarish resurslaridan yanada samaraliroq foydalanish yo'llarini o'rganish imkonini beradi.

Tayanch iboralar

Aylanma mablag'lar, aylanish koeffitsienti, aylanish davomiyligi, ta'minlanganlik darajasi, aylanma fondlari, muomala fondlari, yuklanish koeffitsienti, resurslar tejamkorligi, havfsizlik darajasi

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Aylanma mablag'larning korxona faoliyatidagi ahamiyati nimadan iborat?

2. Aylanma mablag'lar qanday manbalardan tashkil topadi?

3. Aylanma mablag'lar aylanma fondlaridan qanday farq qiladi?

4. Kommunal xo'jaligi korxonalari aylanma mablag'lari qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega?

5. Kommunal xo'jaligi korxonalarida aylanma mablag'larning iqtisodiyotning boshqa sohalari korxonalari aylanma mablag'laridan asosiy farqlanuvchi tomonlari nimalardan iborat?

6. Qaysi ko'rsatkichlar ishlab chiqarish aylanma fondlari va aylanma mablag'lardan foydalanish darajasini tavsiflaydi?

7. Qaysi omillar aylanma mablag'larning aylanish darajasiga ta'sir ko'rsatadi?

8. Kommunal xo'jaligida aylanma mablag'lardan samarali foydalanish ko'rsatkichlari qaysilar?

9. Kommunal xo'jaligi korxonalarining ishlab chiqarish xo'jalik faoliyatining sifati qanday ko'rsatkichlarda baholanadi?

XI BOB. KOMMUNAL XO'JALIGI KORXONALARINI HUDUDDA JOYLASHTIRISH VA ULAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

11.1. Kommunal xo'jaligi korxonalarini hududiy joylashtirish va ularning mintaqaviy xususiyatlari

Uy-joy kommunal xo'jaligining rivojlanishi asosan mamlakatning mintaqaviy xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Bunday xususiyatlar hisobini olib borish sohaning rivojlanish sur'atlarini va yo'nalishlarini asoslash uchun zarur bo'ladi. Shuningdek, shahar va qishloq hududlari hamda respublikamizdagi alohida viloyatlar o'rtasidagi uy-joy xo'jaligiga xizmat ko'rsatish sohasida tafovutlarni yo'qotish kabi muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalani yechish uchun zarur bo'ladi.

Uy-joy kommunal xo'jaligining alohida hududlararo tafovutlari (makroiqtisodiy darajadagi tafovutlar) respublika viloyatlari bo'yicha rivojlanishni tavsiflaydi, masalan, viloyatlardagi shahar va qishloq hududlari o'rtasidagi tafovutlar hududning rivojlanish darajasini yaqqol aks ettiradi.

Alohida hududlarda uy-joy kommunal xo'jaligining rivojlanish darajasidagi tafovutlarni belgilab beruvchi barcha omillar 2 guruhga bo'linadi:

Birinchi guruh ijtimoiy-iqtisodiy omillarga: jamiyatdagi ishlab chiqarish tizimining rivojlanishi, sanoat va qishloq xo'jaligi o'rtasidagi nisbat, ijtimoiy tuzilma va aholining turmush tarzi kiradi. Rejalashtirish jarayonida mazkur omillarning hisobga olinishi uy-joy kommunal xo'jaligining rivojlanish darajasini oshirishga ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Masalan, Farg'ona vodiysi bilan Surxon vohasida aholining turmush tarzi keskin farqlanadi.

Ikkinchi guruh tabiiy iqlim bilan bog'liq omillar uy-joy kommunal xo'jaligining rivojlanish darajasiga turli xil omillar bilan

ta'sir etadi. Ularga ko'ra hududda ishchi kuchlarining shakllanishi amalga oshiriladi, natijada hududlar bo'yicha aholi turmush sharoitining moddiy ta'minoti har xil darajada bo'ladi.

Hududlararo uy-joy kommunal xo'jaligining rivojlanish darajasi o'rtasidagi tafovutlar quyidagi xususiyatlar orqali aniqlanadi: hududning tarixiy rivojlanishi, asosiy fondlar zahirasining hajmi, qurilishning zichligi va ko'p qavatligi, aholi punkti hududlarining rejasi, uning konfiguratsiyasi, uy-joy va sanoat zonalarining ketma-ket joylashganligi va boshqalar. Bu omillarning ta'siri birinchi navbatda ishlab chiqarish jarayonida va ishchi kuchiga bo'lgan talabda namoyon bo'ladi. Bunda soha xizmatlariga bo'lgan talabdagi farqlarni aniqlash uchun imkoniyatlar yuzaga keladi. Bu farqlar soha va uning tuzilmasining rivojlanishiga, sur'atlariga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi.

Ko'rib chiqilgan omillar guruhidan har biri ma'lum darajada uy-joy kommunal xo'jaligining rivojlanish darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlarda namoyon bo'ladi. Bu daraja sohaning rivojlanishida va xizmatlariga bo'lgan talabni qondirishda erishilgan darajaning ishlab chiqarish rivojlanishidagi erishilgan darajasi bilan aloqadorligini ko'rsatadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasida uy-joy kommunal xo'jaligi tizimi notekis rivojlangan. Bu holat tarixiy, iqtisodiy, tabiiy, demografik hamda milliy xarakterdagi sabablarga tayanadi. Ammo, tizimdagi ayrim tafovutlarning kelib chiqishiga kommunal sohani rejalashtirlishning notekisligi sabab bo'ladi.

Uy-joy kommunal xo'jaligi rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri aholining uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasidir. Bu ko'rsatkich 2002-2006-yillarda O'zbekistonda, shu jumladan viloyatlarida rivojlanish tendensiyasiga ega. Statistik ma'lumotlarga ko'ra respublika bo'yicha 2006-yilda aholi jon boshiga 14,2 kv. metr uy-joy fondi to'g'ri kelgan (11.1-jadval). Tahlil qilinayotgan davr mobaynida bu ko'rsatkichning 0,5 % ga o'sishiga erishilgan.

Aholining jon boshiga to'g'ri keladigan uy-joy maydoni respublikamiz viloyatlarda ham ko'paydi: Qoraqalpog'iston Respublikasida 1 %, Xorazm viloyatida 1,4 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsat-

kichning faqat Surxondaryo viloyatida pasayishi kuzatildi (-0,2 %). Bu ko'rsatkichning pasayishi aholi demografik o'sishi va eski uy-joylarning buzilishi bilan asoslanadi.

Bu ko'rsatkich bevosita uy-joy fondida xizmat ko'rsatuvchi va mahsulot yetkazib beruvchi kommunal xo'jaligi tarmoqlarining o'sish sur'atlari nisbatlarini aniqlaydi.

Har bir viloyatda kommunal xo'jaligi tarmoqlari rivojlanishining proportsionallik darajasi haqida, tarmoqli yo'nalishda: uy-joy fondining ta'minlanganlik darajasini turli xil kommunal xizmatlar bilan solishtirish asosida xulosa chiqarsa bo'ladi, hududiy yo'nalishda esa respublika bo'yicha har bir tarmoqda kommunal xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasi asosida xulosa chiqarsa bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida uy-joy fondining qulayliklar bilan ta'minlanganlik darajasining tahlili shuni ko'rsatdiki, 2002-2008-yillar mobaynida respublika bo'yicha o'rtacha daraja o'rtasidagi tafovut ancha qisqardi. Lekin, hozirgi paytda uy-joy fondining kommunal xizmatlari bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatkichlarning sekinlik bilan o'zgarishi saqlanib qoldi. (11.1-jadval).

Mamlakatda hududlarda kommunal xizmatlar ko'rsatish darajasi orasidagi tafovutlarni kamaytirish uzoq muddatli va ko'p mablag' talab etuvchi murakkab jarayondir.

Bu jarayon doimo respublikamizning iqtisodiy rivojlanishi va zarur moddiy sharoitlarni yaratish asosida, hamda hududiy rejalashtirishni takomillashtirish asosida amalga oshiriladi. Har qanday respublika, iqtisodiy hudud kommunal xo'jaligining rivojlanishi mintaqaviy xarakterga ega. Respublikamizda mavjud mazkur xususiyatlariga quyidagilar kiradi: aholi zichligining nisbatan yuqoriligi (bir km kv.ga 42,1 kishi), mehnat resurslarining ish joylari bilan ta'minlash doirasini noratsional joylashganligi, tabiiy iqlim sharoitlari va boshqalar.

Bunday holatlarda aholiga kommunal xizmat ko'rsatishning ma'lum darajasiga erishish uchun soha korxonalarning ko'paytirish zarur bo'ladi. Bu esa o'z navbatida kapital qo'yilmalar hajmini oshirishni, moddiy va nomoddiy xarajatlar hajmini oshirishni talab qiladi.

Aholining turmush darajasini oshirishga ta'sir etuvchi mintaqaviy omillar orasida muhim o'rinni quyidagilar egallaydi: respublikaning ixtisosligi, bo'sh mehnat resurslarining mavjudligi, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning xususiyatlari, tabiiy iqlim xususiyatlari.

11.1-jadval

Hududlarda kommunal xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasi

Hududlar nomi	Aholining ta'minlanish darajasi								
	Uy-joy, kv.m./kishi			Tabiiy gaz (%)			Markazlashgan suv ta'minoti, (%)		
	2002	2008	farq (+,-)	2002	2008	farq (+,-)	2002	2008	farq (+,-)
Qoraqalpog'iston Respublikasi	14,2	15,2	+1,0	87,3	90,1	+2,8	62,3	67,7	+5,4
Andijon	9,6	9,6	0	64,6	68,8	+4,2	87,7	90,1	+2,4
Buxoro	13,2	13,4	+0,2	72,6	81,2	+8,6	67,2	68,3	+1,1
Jizzax	12,2.	12,6	+0,4	71,4	70,9	-0,5	75,9	76,4	+0,5
Qashqadaryo	12,6	12,8	+0,2	55,2	64,8	+9,6	80,0	81,0	+1,0
Navoiy	18,7	20,6	+1,3	77,4	75,6	+1,8	64,2	69,3	+5,1
Namangan	11,3	12,9	+1,6	57,0	71,9	+14,9	79,5	81,5	+2,0
Samarqand	13,7	14,0	+0,3	85,6	86,4	+0,8	78,5	73,4	-5,1
Surxondaryo	12,6	12,4	-0,2	55,0	58,1	+3,1	76,0	76,5	+0,5
Sirdaryo	13,6	14,5	+0,9	84,7	87,1	+2,4	93,2	93,9	+0,7
Toshkent	13,4	13,7	+0,3	80,3	82,8	+2,5	91,5	93,0	+1,5
Farg'ona	14,1	14,7	+0,6	76,4	75,7	-0,7	89,4	88,0	-1,4
Xorazm	18,7	20,1	+1,4	91,4	89,9	-1,5	64,1	63,8	-0,3
Toshkent shahri	17,5	17,6	+0,1	97,2	97,4	+0,2	99,2	99,6	+0,4
Respublika bo'yicha	13,7	14,2	+0,5	73,9	77,4	+3,5	81,0	82,5	+1,5

Mamlakatimizdagi demografik holat, aholining tug'ilishi va tabiiy o'sish darajalari, o'rtacha yoshi va jinsiy tarkibining ijtimoiy

taraqqiyot darajasiga ta'siri katta. Respublika aholisining asosiy qismi yoshlar va bolalardir, bu holat kelajakda uy-joy fondiga bo'lgan talabning oshishiga va o'z navbatida kommunal xo'jaligi tizimining rivojlantirish darajasiga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi.

Shu kunga qadar respublikamizda kelajakda kommunal xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning muhim xususiyatlariga yetarlicha e'tibor berilmagan. Bunday xususiyatlar qatorida tabiiy-iqlimning issiq va quruqligi, madaniy dam olish va tabiat maskanlarining ko'pligi, respublikada tarixiy, madaniy yodgorliklarning ko'pligini keltirish mumkin.

Jumladan, respublikamiz qadimiy shaharlaridagi tarixiy va madaniy obidalarni ko'rish uchun har yili 100 mingdan ortiq chet ellik sayyohlar keladi. Sayyohlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash uchun kommunal xo'jaligi rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina islohotlarni amalga oshirish zarur.

O'zbekistonning yana bir xususiyatlaridan biri yer osti suvlarining yer ustki qatlamiga yaqin joylashganligi bo'lib, ular turli xil tuzlarning yuqori kontsentratsiyasi bino va inshootlarning poydevorlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sirni kamaytirish uchun bino va inshootlar joylashgan hududda oqova quvurlari (drenajlar) yotqizish yo'li bilan bino va inshootlarning nurashini kamaytiradi. Aynan shu omil hududni ko'kalamzorlashtirishga, daraxt va ko'chatlarning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuni aytib o'tish kerakki yer osti suvlarini qochirish oqova-quvur xo'jaligi respublika kommunal xo'jaligining yangi va muhim tarmoqlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Kommunal xo'jaligining samaradorlik darajasi milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari kabi, ko'pincha korxonalarning ratsional joylashtirilishiga bog'liq bo'ladi.

Korxonalarning soni doimiy o'sib borishi, ular orasida raqobat muhiti shakllanishi bilan birga, hamkorlikda yaqin aloqaning mavjud bo'lishini taqozo etadi. Bunday masalada korxonalar o'rtasidagi munosabat nafaqat iqtisodiy holatiga, balki kommunal xizmat ko'rsatish tashkilotining hududiy ratsional joylashuviga bog'liq bo'ladi. Korxonalarning ratsional joylashuvi keng ma'nodagi tushuncha bo'lib, u korxonalar orasidagi aloqalarni takomillash-

tirish, ularni muayyan hududda joylashtirishda kompleks yondashish kabi xususiyatlarni inobatga olish zarurligini ko'rsatadi.

Respublika hududida kommunal xo'jaligi korxonalarini joylashtirish tahlili jarayonida birinchi navbatda korxonaning aholi bilan aloqasini, ya'ni aholining kommunal xizmatlarga bo'lgan ehtiyoji va korxonalarning hududiy kontsentratsiyasining bir-biriga to'g'ri kelishini aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Respublikada kommunal xo'jaligi korxonalarini joylashtirishda korxonalarni aholiga maksimal yaqinlashtirish va ularning ehtiyojlarini yaxshiroq qondirishga katta e'tibor qaratish zarur.

Respublika viloyatlari bo'yicha kommunal xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarning to'la qondirilmaganligi hozirgi paytda nafaqat korxonalarning yetishmasligi va ularning xizmat shaklining mukammal emasligi bilan, milliy iqtisodiyotda bu tarmoqning hududiy joylashuvida muayyan darajada kamchiliklar mavjudligi bilan ham bog'liq.

Hudud bo'yicha korxonalarni joylashtirishni o'rganishda ularning aholining mazkur xizmatlarga bo'lgan ehtiyoji va talabalariga to'g'ri kelishi va qulayligini aniqlash lozim. Ammo, respublikamizning u yoki bu viloyatlaridagi mazkur korxonalarning soni kommunal xizmatlari darajasi haqida to'la tavsif bera olmaydigan mavjud emas. Respublikamizda kommunal xo'jaligi korxonalari kattaligi, quvvati va faoliyati bilan bog'liq ilmiy izlanishlar olib borilmagan. Shuning uchun joylashtirishni o'rganish jarayonida har bir korxonaning o'rtacha kattaligi, quvvati kabi ko'rsatkichdan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lardi.

Kommunal xo'jaligi korxonalarini joylashtirishni o'rganish jarayonida respublika viloyatlari bo'yicha kommunal xizmat ko'rsatish darajalari o'rtasida muayyan tafovutlar aniqlandi (11.2 -jadval).

Jadval ma'lumotlarida respublika aholisining 11,4 %i joylashgan Toshkent viloyati suv ta'minotining darajasi respublika ko'rsatkichining 14,8 %ni, oqova quvur xizmati 17,1 %ni, gazlashtirish, jumladan tabiiy gaz 26,2 %, suyultirilgan gaz 14,5 %ni tashkil etadi.

Uy-joy kommunal xizmatlarining ulushi Toshkent shahrida yuqori ko'rsatkichni tashkil etmoqda. Bu yerda aholi ulushi 11,5 %

11.2-jadval

2009-yil boshida respublika viloyatlari bo'yicha kommunal xizmatlarning asosiy turlarining taqdim etish tuzilmasi

Viloyatlar	Aholi soni		Yakuniy xizmatlar turi % da			
	Umumiy ming kishi	Yakuniy % da	Suv ta'mi-noti	Kanali-zatsiya	Tar-moqli gaz	Suyul-tirilgan gaz
Respublika bo'yicha, shu jumladan:	27533,4	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1548,2	5,9	3,9	0,8	5,8	7,3
Andijon viloyati	2282,94	8,7	4,5	3,7	2,6	6,8
Buxoro viloyati	2151,73	8,2	6,1	2,5	21,5	5,6
Jizzax viloyati	892,19	3,4	1,4	0,6	1,7	1,7
Qashqadaryo viloyati	1968,05	7,5	5,2	0,7	0,9	9,4
Namangan viloyati	1889,33	7,2	4,1	6,0	0,9	9,8
Samarqand viloyati	3043,9	11,6	6,7	3,1	4,3	9,4
Surxondaryo viloyati	1548,19	5,9	2,2	0,4	0,1	7,7
Sirdaryo viloyati	760,97	2,9	4,8	1,3	11,5	3,0
Toshkent viloyati	2991,42	11,4	14,8	17,1	26,2	14,5
Farg'ona viloyati	2860,22	10,9	7,4	21,4	9,0	12,4
Xorazm viloyati	1285,7	4,9	2,1	0,7	1,7	6,8
Toshkent shahri	3017,66	11,5	36,8	41,7	13,8	5,9

tashkil etib, suv ta'minoti 36,8 % ni, kanalizatsiya 41,7 %ni tashkil etadi. Shuningdek, gazlashtirish bo'yicha Toshkent shahrida: tabiiy gaz 13,8 %, suyultirilgan gaz 5,6% ni tashkil qiladi. Suyultirilgan gazdan foydalanish asosan qishloq joylarda amalga oshiriladi. Shu sababli u Toshkent shahri bo'yicha past darajada.

11.2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, Toshkent shahar va Toshkent viloyatining kommunal xizmatlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar kommunal xizmatlar ko'rsatish va aholining hududiy kontsentratsiyasini bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Respublikamiz

viloyatlarida bu xususiyat turli darajani tashkil etib, Andijon, Farg'ona, Namangan, Samarqand va Buxoro viloyatlarida aholi zichligi yuqori bo'lsa, Xorazm viloyatida respublika aholisining 4,9 %i joylashgan, ammo viloyatning suv ta'minoti bo'yicha ko'rsatkichi 2,1 %i oqova quvur xizmati 0,7 %ni, tabiiy gaz bilan ta'minlanish 1,7 % ni tashkil etadi. Respublika aholisining 7,5 %ga ega bo'lgan Qashqadaryo viloyatida kanalizatsiya va gaz tarmoqlarining darajasi juda past bo'lib, 0,9 % va 0,7 %ni tashkil etadi. Qashqadaryo viloyatida kommunal xizmatlar ko'rsatish darajasining pastligi viloyatning cho'l zonasida joylashganligi va aholi yashash manzillarining tarqoqligi bilan xarakterlanadi.

Kommunal xizmatlar ko'rsatish darajasining pastligiga yana bir muhim faktor, resurslar bilan ta'minlanganlik katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, tabiiy gaz zahiralari kam bo'lgan Namangan viloyatida gaz tarmoqlarining o'sishi respublika ko'rsatkichiga nisbatan 0,9 %ni tashkil etadi.

Kelajakda kommunal xo'jaligi korxonalarini joylashtirishni rejalashtirishda respublika viloyatlarining kommunal xizmat ko'rsatish ishlari darajasidagi tafovutlarni qisqartirish masalasiga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Soha ko'rsatkichlarining yana bir xususiyati respublika hududlarida kommunal korxonalari joylashuvining notekisligini shahar va qishloq joylarida kommunal xizmatlaridan foydalanish darajasining turli darajada ekanligi bilan bog'lash mumkin. Bunday shahar va qishloq o'rtasidagi tafovutni kamaytirish bilan bog'liq bo'lgan masalalar hozirgi kunga qadar yaxshi o'rganilmagan. Masalan, respublika qishloqlarining 65,0 %ida oilalar soni 100 tadan kam bo'lib, bu aholi punktlarining turmush darajasini oshirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar o'tkazilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, qishloq joylarda uy-joy kommunal sohasidagi kamchiliklar ko'p hollarda xususiy mulkchilik tasarrufida bo'lgan uy-joy fondining eskirganligi, yagona tizimli loyihada qurilmaganligi va qurilish madaniyati rivojlanmaganligi bilan bog'liq.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, respublikaning u yoki bu viloyatida aholining kommunal xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish hajmi ko'p jihatdan bu viloyatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog'liq.

Demak, aholining kommunal xo'jaligi xizmatlari bilan ta'minlash darajasidagi tafovutlarni taqqoslashda eng avvalo viloyatlarni iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqish lozim. Katta shaharlarda ishlab chiqarish kuchlari kontsentratsiyasi darajasining yuqoriligi hisobiga, aholiga ko'rsatiladigan kommunal xizmatlarni rivojlantirish, tarmoq korxonalari soni va quvvatlarining kuchaytirish nisbatan oson kechadi.

Yuqorida tahlil qilingan «O'zkommunxizmat» agentligi ma'lumotlariga asoslangan holda, respublikamizda kommunal xo'jaligi korxonalarini joylashtirish va o'zaro aloqalar tizimini takomillashtirishning asosiy tamoyili bo'lib, kelajakda shahar va qishloq aholisiga bir butun aholi sifatida yondashish lozim degan xulosaga kelish mumkin. Buning uchun kelajakda respublikamiz hududida moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish darajasini keng rivojlantirishiga asoslanuvchi joylashtirishning yagona tizimini yaratish lozim.

Bularning barchasi O'zbekistonning mintaqaviy xususiyatlarini va ularning uy-joy kommunal xo'jaligi korxonalarini joylashtirishda hamda rivojlantirishda kuchli ta'sir ko'rsatib boradi va uni tarmoqni rivojlanishini rejalashtirishda inobatga olish zarurligidan dalolat beradi.

11.3-jadval

2008-yilda O'zbekistonda shahar va qishloq joylarida kommunal xizmatlarning asosiy turlari bilan ta'minlanganlik nisbati (% da)

	Xizmat turlari							
	Suv ta'minoti		Oqova-quvur xo'jaligi		Tarmoqli gaz		Suyultirilgan gaz	
	Shahar	Qishloq	Shahar	Qishloq	Shahar	Qishloq	Shahar	Qishloq
Respublika bo'yicha, shu jumladan:	91,9	8,1	97,9	2,1	86,6	13,4	42,6	57,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	97,4	2,6	100	–	99,9	0,1	51,5	48,5
Andijon viloyati	75,7	24,3	100		84,1	15,9	28,1	71,9

Buxoro viloyati	94,5	5,5	100		99,4	0,6	19,1	80,9
Jizzax viloyati	78,2	21,8	100		76,0	24,0	10,0	80,0
Qashqadaryo viloyati	97,1	2,9	100		100,0		18,1	82,0
Namangan viloyati	86,9	13,1	84,6	15,4	99,6	0,4	45,4	54,6
Samarqand viloyati	94,9	5,1	95,8	4,2	90,7	9,3	20,4	79,6
Surxondaryo viloyati	92,5	7,5	95,0	5,0	98,6	1,4	55,8	44,2
Sirdaryo viloyati	59,4	40,6	53,8	46,2	96,4	3,6	46,9	53,1
Toshkent viloyati	85,4	14,6	95,7	4,3	49,1	50,9	50,0	50.0
Farg'ona viloyati	81,0	19,0	100,0		94,0	6,0	29,9	70,1
Xorazm viloyati	89,2	10,8	92,5	7,5	72,2	27,8	39,7	60,3

11.2. Kommunal xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatini tashkil etish va rejalashtirish

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda kommunal xo'jaligi yirik sohaga aylandi, sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi va aholining tez o'sishiga bog'liq holda ildam sur'atlar bilan rivojlandi. Qishloq joylarda aholi turar joylarini obodonlashtirish bo'yicha loyihalash ishlari yo'lga qo'yildi, shaharchalar, aholi yashash markazlari, eksperimental agroshaharchalar qurildi.

Kommunal xo'jaligi korxonalari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish xarakteridan kelib chiqib ikki guruhga bo'linadi:

1-guruhga korxonalarning faoliyatiga raqobat muhitini yaratib bo'lmaydi. Ular tomonidan ko'rsatilayotgan kommunal xizmatlar moslamali tarmoqlar (elektr uzatish liniyalari, gaz tarmoqlari, issiq va sovuq suv tarmoqlari va hokazo) orqali amalga oshirilib, mazkur tarmoqdan raqobatdosh bo'lgan korxona faoliyat ko'rsata olmaydi. Bunday kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari tabiiy monopol korxonalar hisoblanadi va ular faoliyati va narx-navo siyosati davlat tomonidan tartibga solib turiladi.

2-guruh korxonalarida ko'rsatilayotgan ish va xizmatlar erkin raqobat muhitida amalga oshiriladi. Bunday korxonalarga binolarga texnik xizmat ko'rsatish, liftlarni ekspluatatsiya qilish, qurilish va ta'mirlash, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish xizmatlar ko'rsatish kabi korxonalar kiradi. Xususiy uy-joy mulkdorlari

shirkatlari ular xizmatidan tenderlar o'tkazish orqali ochiq tanlov asosida tanlab foydalanishlari mumkin.

Kommunal xo'jaligi korxonalari ishlab chiqarishni tashkil etish jarayonida boshqa korxonalardan tubdan farqlanadi. Korxonalar faoliyatining bunday farqlanishi ular faoliyatining uzluksiz (sutka davomida) tashkil etilishidan kelib chiqadi. Bunga sabab kommunal xizmatlarning asosiy turlarida (elektr energiyasi, gaz ta'minoti, issiq-sovuq suv ta'minoti) uzilishlarga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bunday, korxonalar ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish qattiq mehnat intizomini yo'lga qo'yishni va o'z navbatida katta miqdordagi ish haqi fondini talab etadi.

Kommunal xo'jaligining mahsulotlari va xizmatlarining umumiy hajmini aniqlashda har bir tarmoqning rejalari yig'indisini olish lozim.

Kommunal xo'jalik korxonalari ekspluatatsiya faoliyatini rejalashtirishning maqsadi shaharlar, shahar tipidagi aholi markazlari, qishloq aholisiga ko'rsatiladigan kommunal xizmatlar darajasini ko'tarish va sifatini davr me'yorlariga mos holda va aholining sanitariya-gigienik sharoitini hisobga olgan holda yaxshilashdan iboratdir. Bunda kommunal xo'jaligining yangi quvvatlarini ishga tushirish va mavjudlarining ish unumdorligini isloh qilish hisobiga orttirish, modernizatsiya qilish, mehnatni yaxshiroq tashkil etish, ko'p mehnat talab qiladigan ishlarni mexanizatsiyalash, o'z ehtiyojlari xarajatlari va qaytmas sarf-xarajatlarni qisqartirish hisobiga olinishi zarur.

Kommunal xo'jaligi korxonalari ishlab chiqargan mahsulot va ko'rsatgan xizmatlari natura va pul ko'rinishida hisoblanadi. Kommunal xizmatlar aholiga va kommunal maishiy ehtiyojlarni qondirish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlardan tashkil topadi.

Kommunal xo'jaligida rejalashtirish korxonani boshqarish jarayoni sifatida o'z texnologiyasiga ega bo'lib, bu texnologiya korxonaning rejalashtirilayotgan davrdagi maqsad va vazifalarini aniqlash, bajaruvchilarga muayyan vazifalarni belgilash, vazifalarni turi, kattaligi va muddatiga ko'ra, aniqlashtirish, shuningdek, ishlab chiqarish faoliyati natijasi — daromad yoki foyda ko'rishni o'z ichiga oladi. Kommunal xo'jaligi sohasidagi kichik korxonalarda

bu vazifalarni bajarish katta korxonalarga nisbatan yengilroq bo'lsada, barcha hollarda quyidagi omillarni hisobga olish talab qilinadi:

— ishlab chiqarish quvvatining mavjudligi va tuzilmasi;

— xodimlar soni, ixtisos tarkibi va malakasi;

— moliyaviy resurslar;

— aylanma mablag'lar mavjudligi va unga bo'lgan ehtiyojlar, jumladan, moddiy-tovar boyliklari zahiralari;

— fan va texnika taraqqiyoti natijalarini tadbiq etish va tayyorlik darajasi;

— ko'rsatilgan xizmat va mahsulotlar uchun to'lovlarni yig'ish kanallari.

Korxona faoliyatini rejalashtirish, reja loyihasini uning xizmat ko'rsatish, mahsulot ishlab chiqarish va sotish rejasi, moddiy-texnika ta'minoti rejasi, kadrlar va oylik maosh bo'yicha reja, yangi texnika va kapital qo'yilmalar rejasi, moliyaviy reja kabi asosiy qismlari doirasida tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan rejadan avvalgi davrni o'z ichiga oladi. Ularning moddiy va moliyaviy resurslar hamda bajarish muddati bo'yicha to'liq o'zaro bog'liqligi va balanslashganligi rejalashtirish jarayoni va korxona faoliyatini tashkil etishning ishonchliligini ta'minlovchi muhim jihatdir. O'z navbatida, kommunal xizmat ko'rsatish ishchi kuchining mavjudligi, shartnomalar bo'yicha xizmat ko'rsatish rejalari va xizmat ko'rsatish quvvatlari bilan, tannarx rejalari esa ishlab chiqarish dasturlari va moliyaviy reja bilan bog'liq bo'ladi.

Rejalarni ishlab chiqishda korxonaning barcha xizmat ko'rsatish va funktsional bo'linmalari, jumladan, moliya va reja bo'limi, mehnat va ish haqi bo'limi, marketing xizmati, buxgalteriya, texnik bo'limi rahbarlari ishtirok etishlari zarur. Korxona faoliyatini tashkil etish rejasi va uning bo'limlari qanchalik sinchkovlik bilan ishlab chiqilgan bo'lsa, uni bajarish shunchalik yengillashadi, resurslar kamroq talab qilinadi hamda ish sifati yuqori darajada bo'ladi. Kommunal xo'jaligi korxonalari faoliyatini tashkil etish rejalarining o'zaro balanslashtirilmaganligi, unda xatolar mavjudligi, shuningdek, rejani bajaruvchilarning intizomsizligi (amalga oshirishni sust nazorat qilish natijasida) ko'p vaqt hamda mablag'lar sarflanishiga, eng asosiysi iste'molchilarning noroziligiga sabab

bo‘ladi. Xuddi shu sababli ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati pasayib, tannarxi oshadi, korxonada daromad olish o‘rniga xarajatlar yuzaga keladi. Bundan kelib chiqqan holda korxona faoliyatini mukammal rejalashtirish uning samaradorligining kafolati hisoblanadi.

Rejalashtirish tizimi quyidagi talablarga javob bergan taqdirdagina samarali va ishonchli hisoblanadi:

1. Rejalashtirishning har bir elementi va bosqichi qat’iy ravishda asoslab berilishi.

2. Rejadagi vazifalarning aniq va o‘z vaqtida bajarilishi, ya’ni rejaning adresliligi.

3. Reja bajarilishini doimiy va uzluksiz ravishda hisobga olish, nazorat qilish va unga zarur hollarda o‘zgartirishlar kiritish.

4. Ichki va tashqi muhitdagi o‘zgarishlarni ijobiy qabul qilish, shuningdek, korxona faoliyatiga ro‘y bergan o‘zgarishlarga mos ravishda, o‘z vaqtida tuzatishlar kiritish.

5. Fan-texnika taraqqiyoti va xo‘jalik yuritishning ilg‘or tajribalariga tayanish. Ish faoliyatida ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash.

Korxona faoliyatini tashkil etishda bugungi kundan tashqari, kelajakni, ertangi kunni ham inobatga olish zarur. Korxona istiqboli va raqobat muhitidagi holatining barqarorligi, ko‘p jihatdan uning o‘z faoliyatini, ko‘rsatilayotgan kommunal xizmatlarni ilg‘or texnika va fan yutuqlari yordamida tashkil etish va xizmat ko‘rsatish uslubini tezlik bilan o‘zlashtirib olish qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli korxonalarda axborot tizimini yaxshi yo‘lga qo‘yish hamda reklama faoliyatini rivojlantirish lozim. Shuningdek, kommunal xizmati ko‘rsatuvchi korxona joylashgan hududida u ko‘rsatayotgan xizmatga bo‘lgan talabni maksimal darajada qamrab olishga intilishi lozim. Korxona hududiga tegishli turarjoy binosida u ko‘rsatayotgan xizmatdan foydalanmayotgan ammo, unga ehtiyoji bor iste’molchining bo‘lishi bu hududga ikkinchi, raqobatdosh korxonaning kirib kelishi uchun imkon qoldiradi.

Korxona faoliyatini rejalashtirishning har bir turi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bu xususiyatlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

— belgilangan rejalashtirish oralig‘ining aniqligi;

— integratsiya va differentsiatsiya darajasi, shuningdek, rejalashtirilayotgan ko'rsatkichlar miqdori;

— ishlab chiqarish xarajatlari va natijalarini hisob-kitob qilish darajasining aniqligi;

— rejani tayyorlovchilar va amalga oshiruvchilar o'rtasida majburiyatlarni taqsimlash tartibi.

Rejalashtirishda «korxona—muhit—holat» munosabatlari asosiy o'ringa ega. Bunda ishlab chiqarish shundan rejalashtiriladiki, natijada korxonaning bozordagi barqarorligini saqlab qolish, yuzaga keladigan holat va tashqi muhitni hisobga olishdan tashqari, ko'rsatilgan xizmatlar narxini optimal belgilashga va ishlab chiqarish rentabelligining o'sishiga imkon yaratiladi. Buning uchun korxona anchadan beri ko'rsatilayotgan xizmatlardan tashqari, yangi xizmat turlarini, jumladan, o'xshashi bo'lmagan servis xizmatlarini tashkil etishi, xizmatlar turini ko'paytirishi zarur.

Hozirgi paytda korxonalarning aksari qismi asosan joriy rejalar (biznes-rejalar) asosida faoliyatini tashkil etmoqda. Biznes-rejalarda eng muhim rejalashtirish ko'rsatkichlari quyida keltirilgan:

— ko'rsatilayotgan xizmatlar (ishlab chiqarilayotgan mahsulot) nomenklaturasi va hajmi (natural ko'rinishda);

— xizmat ko'rsatish hajmi (pul ko'rinishida);

— ko'rsatilgan xizmat birligining tannarxi;

— foyda (daromad);

— kategoriyalar bo'yicha xodimlar soni;

— mehnatga haq to'lash fondi va o'rtacha ish haqi darajasi;

— omborlardagi xomashy— va materiallar, tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulot zahiralari;

— aylanma vositalar hajmi — umumiy va guruhlar bo'yicha;

— kapital qo'yilmalar hajmi, qo'yilma ob'yektlari va yo'nalishlari bo'yicha;

— yangi texnika va texnologiyaga oid chora-tadbirlar;

— boshqa ko'rsatkichlar (zarurligi va aniqlanishiga ko'ra). Yangi mahsulotlar, xizmatlar va texnologiyalarni qo'llash loyihalari, shuningdek, investitsiyalar va qurilish bilan bog'liq bo'lgan chora-tadbirlarning bir qismi alohida rejalarga kiritiladi. Ular chora-tadbirlarni amalga oshirishning butun davriga tuziladi.

Rejalashtirish tizimi maqbul yo'lga qo'yilganda rejada belgilangan ko'rsatkichlarning raqamlarda belgilanishi kiritilgan mutlaq kattalik sifatida ko'rib chiqilishi lozim. Rejalarning bajarilishi ustidan nazorat qilish ko'p hollarda chetga og'ishlarga nisbatan yuritilib, ular tahlil qilinadi, chetga og'ishning sabablari aniqlanadi hamda chetga og'ishlar salbiy xarakterli bo'lsa, ularga nisbatan zaruriy choralar qo'llanadi. Rejalashtirishda mohiyatiga ko'ra, korxona oldida turgan xizmat ko'rsatish vazifalari va korxonaning iste'molchilar talabiga munosabatiga tavsiflovchi buyurtmalar «portfeli"ni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Kommunal xo'jaligi korxonalarining ishlab chiqarish va rivojlantirish dasturining asosiy qismi biznes reja hisoblanadi. Biznes reja bo'limlarning ichida eng asosiysi ishlab chiqarish bo'limidir. Bu bo'limning tarkibiga ishlab chiqarish quvvatlarining hisobkitoblari, ishlab chiqarish faoliyatining sifatini oshirish rejalarini ishlab chiqish dasturi kiradi. Bu dasturda ishlab chiqarishning pirovard natijasi, ya'ni mahsulot va xizmatlarning natura va qiymat ko'rsatkichlardagi hajmi ifodalanadi. Ishlab chiqarish dasturi kommunal xo'jaligi korxonalarining quvvati hamda mavjud mehnat va moddiy resurslar asosida ishlab chiqiladi. Ishlab chiqarish dasturining mukammalligi ishlab chiqarish bo'limi, xo'jalik bo'limlari va boshqaruv tizimi ko'rsatkichlariga ham ta'sir ko'rsatadi.

Tadbirkorlik — korxonalar xo'jalik yuritish faoliyatining uzluksiz qismi bo'lib, foyda (daromad) olish va uni ko'paytirishga qaratilgan bo'ladi. Tadbirkorlik va tashabbuskorlik «ruhiga» ega bo'lgan mutaxassis yoki mansabdor shaxslar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va rivojlantirish, mehnat sifatini ko'tarish va korxonaning oladigan daromadlarini ko'paytirish yo'llarini izlab topadilar.

Biznes-reja yangi korxona tashkil qilish yoki biron-bir tijorat loyihasini amalga oshirish uchun mo'ljallanayotgan asoslangan xatti-harakatlarni o'z ichiga oluvchi hujjat hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi, korxonaga o'z imkoniyatlarini baholash, bozordagi istiqbolini, zaruriy xarajatlarni aniqlash, korxona faoliyatining birinchi yillarida «suv ostidagi toshlar"ni aniqlash hamda mazkur

faoliyat turining foydali yoki zararli ekanligini baholash ko'rsatkichlari yordamida hisoblashga yordam berishda deb belgilanadi.

Biznes-rejani tuzishda quyidagi shartlarga alohida e'tibor qaratish zarur:

— biznes-reja professional va shu bilan bir paytda sodda, bajarish uchun tushunarli va oson bo'lishi lozim;

— biznes-reja investor yoki boshqa manfaatdor shaxs o'ziga kerakli ma'lumotlarni qidirib topishi uchun bo'limlarga (boblarga) bo'linishi lozim;

— biznes-rejani tayyorlashda korxonaning bosh rahbari albatta qatnashishi shart;

— biznes-rejaning obyektiv baholanishiga erishish kerak, ya'ni unda xatolar va noto'g'ri hisob-kitoblar bo'lmasligi lozim;

— biznes-rejaning tarqatib yuborilmasligini nazorat qilish zarur, chunki unda biznes to'g'risidagi maxfiy ma'lumotlar joy olgan bo'ladi.

Rejalarning har bir turi kabi, biznes-reja ham, bo'lim va ko'rsatkichlardan iborat bo'ladi. O'ntagacha bo'limni o'z ichiga oluvchi biznes-reja mazmuni va tuzilishiga ko'ra, eng maqbul hisoblanadi. Mavjud adabiyotlarda quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oluvchi biznes-rejalar taklif qilinadi:

1. Tanlangan biznes kontseptsiyasi.
2. Hozirgi paytdagi holat (maqsad, vazifa va niyatlar).
3. Tashkil qilinayotgan korxona va uning mahsulot hamda xizmatlari tavsifnomasi.
4. Boshqarish (menejment).
5. Bozor tadqiqoti va tahlili.
6. Marketing harakatlari rejasi.
7. Ishlab chiqarish rejasi.
8. Tavakkalchilikni baholash.
9. Moliyaviy reja.
10. Biznes-loyihaning samaradorligi.

Tanlangan biznes yo'nalishining kontseptsiyasini tuzishda uning raqobatbardoshligi (sifat, narx, iste'molchiga yetkazib berish shakli, tayyorlash texnologiyasi va hokazo); mablag'larga bo'lgan ehtiyojlar; o'ziga jalb qilishning asoslanganligi (taklif qilinayotgan

mahsulot va xizmatning boshqalardan afzalliklari va hokazo)ga katta e'tibor qaratish lozim.

Kontseptsiyada tanlangan tovar va xizmatlar bozoridagi ahvol; korxonaning tanlangan biznes sohasidagi kuchli va kuchsiz tomonlari; boshqa bozorga chiqish imkoniyatlari; bozorga ta'sir o'tkazuvchi qonunchilik, siyosat, demografik holat kabi omillar aks ettiriladi. Bundan tashqari kontseptsiya bahoning o'zgarishi, inflyatsiyaning o'sishi, kapital olib chiqish yoki mahsulot olib kirishni cheklovchi qonun hujjatlarini qabul qilinishi kabi sharoitlarda, mahsulotni sotishni ko'paytirish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni ham o'z ichiga oladi. Ushbu bo'lim tanlangan biznes yo'nalishi maqsadlari va niyatlarining shakllanishi bilan yakunlanadi.

Korxona, uning mahsulot va xizmatlari tavsifnomasi bo'limida korxonaning joylashgan manzili, bozorga chiqish shakli, bozordagi ulushi, asosiy raqobatchilari va uning kuchli tomonlari, texnologiya darajasi va xarajatlar tahlili aks ettiriladi.

Mulkchilik shakli, xodimlarning malakasi, tashqi muhit bilan munosabatlar «Boshqaruv» bo'limida ko'rsatiladi.

«Bozor tadqiqoti va tahlili» bo'limida tanlangan bozor asoslab beriladi, xaridorlarni korxona mahsulotlariga jalb etuvchi raqobatchilik usullari hamda bozorda bahoni shakllantirish va hokazolar ko'rib chiqiladi.

Marketing rejasining asosiy vazifasi korxonaning bozordagi imkoniyatlariga baho berishdadir. Marketing rejasining asosiy elementlari sifatida tovarlarni tarqatish tizimi, bahoni shakllantirish, reklama, savdoni rag'batlantirish usullari, sotilgandan keyingi xizmat ko'rsatishni tashkil qilish, korxona (firma) va uning mahsulotlari haqida jamoatchilik fikrini shakllantirish kabilarni ko'rsatib o'tish mumkin.

«Ishlab chiqarish rejasi» salohiyatli xaridorlarga kerakli mahsulotlar hajmini o'z vaqtida ishlab chiqarish imkoniyatining mavjudligini ko'rsatadi. Mazkur bo'limda quyidagilar o'z aksini topadi: yangi tashkil qilingan yoki faoliyat yuritayotgan korxonada tovar ishlab chiqarish joyi; buning uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish quvvatlari va ularning o'sish istiqbollari; xomashyo va

material yetkazib beruvchilar; ishlab chiqarish kooperatsiyasi; ishlab chiqarish oqimlari tizimini tuzish; sifatni nazorat qilish jarayoni; foydalaniladigan standartlar; vujudga kelishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlari.

«Tavakkalchilik va sug'urtalashni baholash» bo'limi ikki qismga bo'linadi. Birinchi qismda tavakkalchilikning barcha turlari (yong'in, zilzila, soliqni boshqarishdagi o'zgarishlar va valyuta kursining tebranishi) oldindan hisoblab chiqiladi. Ikkinchi qismda esa tavakkalchilik xavfining oldini olish, ya'ni tavakkalchilik va zararlarni qisqartirish chora-tadbirlari ko'rsatiladi, shuningdek, tavakkalchilik xavfidan sug'urtalash dasturi amalga oshiriladi.

Moliyaviy reja biznes-rejaning yakunlovchi bo'limi bo'lib, korxona faoliyatining natijalarini tavsiflaydi. U quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

— savdo hajmining bashorati;
— pul daromadlari va xarajatlari balansi;
— foyda va zarar bo'yicha reja.

Mazkur rejaning ko'rsatkichlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

— tovarlarni sotishdan tushgan daromad;
— ishlab chiqarish xarajatlari;
— savdodan tushgan umumiy foyda;
— sof foyda;
— korxona aktiv va passivining solishtirma balansi;
— zararsizlikka erishish grafigi.

Shuningdek, mazkur bo'limda ishlab chiqarishni tashkil qilish yoki kengaytirish uchun mablag' jalb qilish rejalari ham ifodalanadi. Bo'limda korxonaning moliyaviy barqarorligi yoki nochorligini aniqlash imkonini beruvchi maxsus ko'rsatkichlar hisobkitobi ham keltiriladi.

Tayanch iboralar

Mintaqaviy xususiyatlar, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, xizmat ko'rsatishni tashkil etish, korxonalarini joylashtirish, xizmatlar ko'rsatish nomenklaturasi, joriy reja, hududlar, ta'minlanganlik darajasi, samaradorlik darajasi, ishlab chiqarishni rejalashtirish, raqobat, biznes reja.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Kommunal xo'jaligi korxonalari hududiy joylashuvining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

2. Kommunal xo'jaligi korxonalarini joylashtirishda qanday mintaqaviy xususiyatlar mavjud?

3. Kommunal xo'jaligi korxonalarini hududiy joylashtirishda qanday shart-sharoitlarni inobatga olish lozim?

4. Kommunal xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatini tashkil etish qanday asosiy vazifalarni o'z ichiga oladi?

5. Kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatini rejalashtirishning qanday asosiy xususiyatlari mavjud?

6. Kommunal xo'jaligida biznes reja va uning asosiy tafovutlari nimalardan iborat?

XII BOB. XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RESURSLARNING TEXNOLOGIK SARFI VA YO'QOTISHLARNI HISOBLASH

12.1. Suv ta'minoti tizimida texnologik sarflar va yo'qotishlarni hisoblash uslubi

12.1.1. Texnologik sarflar va yo'qotishlar to'g'risida umumiy tushunchalar

Kommunal xo'jaligida suvquvur-oqavaquvur xo'jaliklari faoliyatini tashkil etishda yuzaga keluvchi muayyan texnologik suv sarflari va yuqolishlari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayoniga katta ta'sir ko'rsatadi. Suv bilan ta'minlovchi korxonalarda resurslarni tejash va xizmat ko'rsatishdagi texnologik sarflar va yo'qolishlarni kamaytirish orqali bir tomondan ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga erishilsa, ikkinchi tomondan ko'rsatilayotgan xizmatlar tannarxini arzonlashtirish imkoniga erishiladi.

Respublikamizda suv bilan ta'minlovchi korxonalarda «Suv bilan ta'minlovchi korxonalar tomonidan xizmatlar ko'rsatishdagi texnologik sarflar va yo'qolishlarni hisoblash uslubi» O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 18-apreldagi «Aholiga kommunal xizmat ko'rsatishni takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 178-sonli Qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan va kommunal xo'jaligi korxonalarida amaliyotga qo'llanilmoqda.

Mazkur suv bilan ta'minlovchi korxonlar tomonidan xizmatlar ko'rsatishdagi texnologik sarflar va yo'qotishlarni hisoblash uslubi respublikaning har qaysi alohida suvquvur-oqavaquvur xo'jaligida foydalanish jarayonida yuzaga keluvchi muayyan texnologik suv

sarflari va yo‘qolishlarini aniqlash hamda hisoblash uchun qo‘llaniladi va u to‘liq ilmiy asoslangan holda shakllantirilgan.

Suv sarflari va yo‘qolishlarini aniqlash uslubi dunyoda amaliyotda qo‘llanilib kelayotgan ilmiy jihatdan asoslangan manbalarga tayanilgan holda, respublikamizda amalda bo‘lgan quyidagi me’yoriy hujjatlarga muvofiq tayyorlangan:

2002-yilda ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasida aholi yashaydigan joylarning suv ta’minoti va suv chetlatish tizimlaridan texnikaviy foydalanish qoidalari (STSCHTTFQ);

QMQ 2.04-02-97 «Suv ta’minoti. Tashqi tarmoq va inshootlar»;

QMQ 2.04-01-98 «Binolarning ichki suv quvuri va oqova quvuri»;

QMQ 3.05-04-97 «Tashqi suv ta’minoti va oqovaquvur tarmoqlari va inshootlari»;

O‘zDst «Ichimlik suvi» -davlat standarti;

DH 06-24-22.95. Xlorni ishlab chiqarishda, saqlashda, tashish va ishlatishdagi xavfsizlik qoidalari va boshqalar.

Kommunal xo‘jaligida suv bilan ta’minlovchi korxonalar tomonidan xizmatlar ko‘rsatishdagi texnologik sarflar va yo‘qolishlar har bir korxona uchun alohida hisoblab chiqiladi va texnologik uslubiga muvofiq qayta ko‘rib chiqiladi. Har bir korxona uchun hisoblab chiqilgan texnologik sarflar va yo‘qotishlar ko‘rsatkichlari majburiy tartibda «O‘zkommunxizmat» agentligida ekspertizadan o‘tkaziladi va ekspertlar xulosasining natijalariga ko‘ra yuqori tashkilot tomonidan tasdiqlanadi.

Uy-joy xo‘jaligida suvning sarfi asosan ikki guruhga bo‘linadi:

a) **iste’moldagi sarflar** — aholi va boshqa iste’molchilarning oqilona iste’mol qilishi bo‘lib, me’yorlarga yoki hisoblagich ko‘rsatishlariga binoan aniqlanadi;

b) **texnologik suv sarfi** — ichimlik suvini (xom ashyoni) chiqarib olish, ishlab chiqarish va ist’molchilarga yetkazib berish jarayonidagi yo‘qolishlar bo‘lib, suv olish inshootlarini yuvish hamda dizenfektsiyalashga, suv quvurlari, taqsimlash tarmoqlari va armaturani texnik, oldini olish (profilaktika) maqsadida ta’mirlash, xizmat ko‘rsatishga, suv o‘tkazuvchi quvurlarni gidravlik bosim

ostida sinashga, yangi yotqizilgan quvurlarni ulash va ishga tushurish bilan bog'liq suv sarflaridan iborat.

Suv bilan ta'minlovchi korxona tomonidan uzatilgan suv to'liq iste'molchiga yetib kelmaydi va uning ma'lum qismi suv quvur tizimida yo'qotiladi.

Suvning yo'qolishi — suv manbalaridan olingan suv miqdori bilan unga bo'lgan jami maqbul ehtiyoj miqdori o'rtasidagi farqni tashkil etadi va u ikki guruhga bo'linadi.

a) **iste'moldagi yo'qolishlar** — santexnika tizimining nosozligi, tarmoqdagi bosimning haddan tashqari yuqoriligi, suvning zarur haroratga erishish uchun aralashtirgichlarning uzoq vaqt aralashtirilishi, issiq suv ta'minoti tizimlaridagi sovib qolgan suvni chiqarib tashlash, jihozlarni sovitish uchun suvdan foydalanish tufayli suvning yo'qolishi;

b) **hisobga olinmagan suv sarfi** — suv quvurlari, taqsimlash tarmoqlari va tarmoq armaturasida nosozlik yuz berganda, xlor xo'jaligida hamda nasos stantsiyalaridagi nosozliklarni bartaraf etishda, o'tkazgich quvurlardan va tarmoq tizimidan yashirin suv sizishi natijasida, yong'inni o'chirish hamda o't o'chirish mashg'ulotlarini o'tkazish uchun suv sarfi va boshqalar kiradi.

Suvquvur-oqovaquvur xo'jaliklaridan foydalanish jarayonida yuz beradigan **suv sarflari va yo'qolishlarni** asosan quyidagi turlarga **tavsiflash** mumkin:

— texnologik sarflar;

— hisobga olinmagan yo'qolishlar;

— o'z (ichki) ehtiyojlariga sarflar.

Texnologik sarflar ichimlik suvi ishlab chiqarish uchun zarur bo'ladigan, oldindan nazarda tutilgan suvning talab qilinadigan va o'zgarmas (doimiy) hajmlaridir. Ularga quyidagilar kiradi:

— suv olish inshootlari, suv tayyorlash stantsiyalari, tarmoqdagi taqsimlash uzellarining texnologik ehtiyojlariga bo'ladigan sarflar;

— suv quvurlarining maydoncha ichidagi kommunikatsiyalarini, taqsimlash tarmoqlarini, berkitish armaturasini, o't o'chirish gidrantlarini, suv olish kolonkalarining oldini olish maqsadida, reja bo'yicha va to'liq ta'mirlashga sarflar;

— yangi yotqizilgan quvurlarni ulashdagi sarflar;

— yangi yotqizilgan quvurlarni gidravlik sinashdagi sarflar;

— ulangan choklarining mustahkam emasligi va quvurlar materiallarining suv o'tkazib yuborishi evaziga suv quvurlari hamda taqsimlash tarmoqlaridan ruxsat etilgan darajada suv sizishi.

Hisobga olinmagan yo'qolishlar biron-bir sharoitda nazarda tutilmagan, o'z-o'zidan yuz beradigan suv yo'qolishlari bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

— suv quvurlarining maydoncha ichidagi kommunikatsiyalarda va taqsimlash tarmoqlarida nosozlik yuz berganda suvning yo'qolishi;

— xlor xo'jaligi va nasos stantsiyalaridagi nosozliklarni bartaraf etishda suvning yo'qolishi;

— o'tkazgich quvurlar va tarmoq armaturasidan suvning yashirin sizishi;

— nosoz sanitariya texnikasi jihozlaridan (unitazning yuvish bakchalari va b.) uy ichidagi tizimlardan suvning yo'qolishi;

— yong'inni o'chirishga va o't o'chirish mashg'ulotlarini o'tkazishga suv sarfi.

Suv oqava xo'jaligi korxonasining o'z ehtiyojlariga suv sarfi xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning xo'jalik-maishiy extiyojlariga sarflangan suvdir.

Quvurlar va nosoz sanitariya texnikasi jihozlaridan (asosan unitaz yuvish bakchalaridan) yashirin tarzda suv sizishi bilan bog'liq hisobga olinmagan haqiqiy suv yo'qolishini respublika miqyosida tadqiq qilish ishlari olib borilmaganligi sababli ularni hisoblash uslubi ko'rib chiqilmaydi. Umuman olganda sanitariya texnikasi jihozlarining nosozligi sababli kelib chiquvchi yo'qolishlar eng avvalo is'temolchi, ya'ni uy-joy egalari hisobidan qoplanadi. Har bir xonadonda alohida suv sarfining hisobini olib borish priborlari o'rnatilishi natijasida xonadondagi texnik jihozlar nosozligi tufayli yo'l qo'yilgan suv sarfi faqat xonadon sohibiga ziyon keltiradi va o'z navbatida santexnika jihozlarining texnik sozligini ta'minlashdan uy egalari manfaatdor bo'ladilar.

12.1.2. Texnologik suv sarflari va yo‘qolishlarini hisoblash

Texnologik suv sarflari va yo‘qolishlarini hisoblashda yerosti manbalaridan suv olish va yer usti manbalaridan suv olishdagi yo‘qotishlarni hisoblashga alohida-alohida uslubda yondashiladi.

1. Yerosti manbalaridan suv olish inshootlarida suv sarflari

Yerosti manbalaridan suv olish inshootlarida suv sarflari — texnologik sarflar, hisobga olinmagan yo‘qolishlar, o‘z ehtiyojiga sarflardan tashkil topadi.

a) *texnologik sarflar:*

— quduqlarni profilaktika maqsadida yuvish uchun;

— profilaktik liniyalar, maydoncha ichidagi kommunikatsiyalar, bog‘lash armaturasini oldini olish maqsadida, joriy hamda to‘liq ta’mirlash uchun sarflar;

— toza suv rezervuarlaridan foydalanishda rezervuarlarni bo‘shatib, keyin tozolash, yuvish, dezinfektsiyalash, dezinfektsiyalangandan keyin yuvish uchun;

— suvning bakteriologik va fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari yomonlashganda rezervuarlarni yuvish uchun;

— sizishga sinash uchun rezervuarlarning yo‘l yuzalaridan tabiiy filtrlanishni aniqlash uchun;

— nasos stantsiyalaridan foydalanish chog‘ida nasos podshipniklarini sovitish uchun sarflar;

b) *hisobga olinmagan yo‘qolishlar:*

— yig‘ma liniyalar va maydoncha ichidagi kommunikatsiyalardagi nosozliklar va ularni bartaraf etishdagi yo‘qolishlar;

— nasoslar yoki o‘tkazuvchi quvurlarda nosozliklar yuz berganda mashinalar zalidan suvni nasos yordamida tortib olishdagi yo‘qolishlar;

— xlor xo‘jaligidagi nosozliklarni bartaraf etishdagi yo‘qolishlar.

v) *suv oqova korxonasining o‘z ehtiyojlariga sarflar:*

— xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning xo‘jalik-maishiy ehtiyojlari uchun sarflar.

Texnologik suv sarflari va yo‘qolishlari ushbu formulalar yordamida hisoblanadi:

Quduqlarni profilaktika maqsadida yuvish:

Quduqlarni profilaktika maqsadida yuvish uchun sarflanadigan suv hajmi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$WK = Q_{er} \times TnN\ 3600\ \text{m}^3/\text{yil}, \qquad (1)$$

bu yerda, T — quduqni yuvish vaqti (STSCHTTFQning 116. 117. 125-bandlari), soat;

N — yuviladigan quduqlar soni;

n — quduqlarni bir yilda yuvish soni (kamida yiliga bir marta; STSCHTTFQning 114-bandi);

Q_{er} — yerlit sarfi, m³/sek;

$$Q_{er} = \eta \times \frac{10}{H} \times Q_{a.x.} \ln(0,1Nb + 1)\ \text{m}^3/\text{sek}.$$

Bu yerda: η — erliftning foydali ish koeffitsienti;

N — yerliftning ko'tarilish balandligi, m;

$Q_{a.x.}$ — yerlift uzatadigan atmosfera havosining hajmi, m³/sek;

N_b — forsunkaning botish chuqurligi, m.

Yig'ma liniyalarni, maydoncha ichidagi kommunikatsiyalarni, berkitish armaturasining oldini olish maqsadida, joriy va to'liq ta'mirlash:

a) yig'ma liniyaning bir qismini bo'shatishda yo'qoladigan suvning hajmi ushbu formula yordamida aniqlanadi:

$$W_{bo'sh} = \frac{\pi d^2}{4} L\ \text{m}^3/\text{yil}, \qquad (2)$$

bu yerda: d — bo'shatilayotgan qismning diametri, m;

L — bo'shatilayotgan qismning uzunligi, m;

b) yig'ma liniyaning bir qismini yuvish uchun sarflanadigan suvning hajmi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$W_{yu} = \mu \frac{\pi d^2}{4} \sqrt{2qH}\, 3600T\ \text{m}^3/\text{yil}, \qquad (3)$$

bu yerda: μ — chiqarib tashlash quvurining chiqish teshigiga bog'liq bo'lgan suv sarfi koeffitsienti, 0,97;

d — chiqarib tashlash quvurining diametri, m;

q — og'irlik kuchining tezlanishi, 9,8 m/sek²;

N — yuvilayotgan qismdagi bosim, m;

T — yuvish vaqti, soatda.

v) yig'ma liniyaning bir qismini yuvishga ishlatiladigan suvning hajmi (2)-formuladan topiladi.

g) dezinfektsiyalangandan so'ng yig'ma liniyaning bir qismini yuvishga ketadigan suvning hajmi (3)-formuladan topiladi.

Yig'ma liniyalardagi nosozliklarni bartarf etish.

a) quvur devorida teshik paydo bo'lganda nosoz quvurdan yo'qoladigan suvning hajmi ushbu formuladan aniqlanadi:

$$W_{bo'sh} = \mu \frac{\pi d^2}{4} \sqrt{2qH}\, 3600T \text{ m}^3/\text{yil}, \qquad (4)$$

bu yerda: μ — nosoz quvurdagi teshikka bog'liq bo'lgan suv sarfi koeffitsienti, 0,97;

d — nosoz quvurdagi teshikning diametri, m;

q — og'irlik kuchining tezlanishi 9,8 m/sek^2;

H — nosoz quvurdagi bosim, m;

T — sizishni yo'qotish vaqti, soat (QMQ 2.04.02-97 ning 38- jadvalida ko'rsatilganidan ortiq emas).

b) quvurlar yorilganda va singanda nosoz quvurdan yo'qoluvchi suvning hajmi quyidagi formuladan topiladi:

$$W_{nasoz} = 5358d^2T\sqrt{H} \text{ m}^3/\text{yil}, \qquad (5)$$

bu yerda: d — nosoz quvurning diametri, m;

T — sizishni bartaraf etish vaqti, soat;

N — nosoz quvurdagi bosim, m.

v) quvur devorida yoriq hosil bo'lganda nosoz quvurdan yo'qoladigan suvning hajmi ushbu formuladan aniqlanadi:

$$W_{nosoz} = 383d^2T\sqrt{H} \text{ m}^3/\text{yil} \qquad (6)$$

bu yerda: d — nosoz quvurning diametri, m;

T — sizishni bartaraf etish vaqti, soat;

N — nosoz quvurdagi bosim, m.

g) flanetslari, salniklari buzilganda parron teshiklar paydo bo'lganda nosoz quvurdan yo'qoluvchi suvning hajmi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$W_{nosoz} = 1,9T\sqrt{H} \text{ m}^3/\text{yil}, \qquad (7)$$

bu yerda: T — sizishni bartaraf etish vaqti, soat;

N — nosoz quvurdagi bosim, m.

d) nosozlik tuzatilgandan keyin quvurni yuvishga sarflanadigan suvning hajmi (3)-formula yordamida aniqlanadi.

e) nosozlik tuzatilgandan so'ng quvurni dezinfeksiyalashga ishlatiladigan suvning xajmi (2)-formula yordamida aniqlanadi.

j) dezinfeksiyalangandan keyin quvurni tozalash uchun ketadigan suvning hajmi (3)-formula yordamida topiladi.

Yig'ma liniyalarda va maydoncha ichidagi kommunikatsiyalarda suvning ruxsat etilgan darajada sizishi natijasida yo'qoluvchi suvning hajmi ushbu formula yordamida aniqlanadi:

$$W_{r.e} = 365q\frac{60\times24}{1000}L \ \text{m}^3/\text{yil}, \qquad (7a)$$

bu yerda: q — ulanish choklarining mustahkam emasligi yoki quvur materialining suvni o'tkazib yuborishi tufayli quvurda suvning ruxsat etilgan darajada sizishi, l/min. (QMQ 3.05.04-97ning 6-jadvali);

L — quvurning uzunligi, km.

Toza suv rezervuarlaridan foydalanish.

a) profilaktika maqsadida tozalash uchun rezervuarni bo'shatishda chiqarib tashlanadigan suvning hajmi quyidagi formuladan topiladi:

$$W_{bo'sh} = BLH \ \text{m}^3/\text{yil} \qquad (8)$$

bu yerda: B — rezervuarlarning eni, m;

L — rezervuarlarning uzunligi, m;

H — rezervuarlarning balandligi, m.

b) tozalangandan keyin rezervuarni brandspoyt bilan yuvish uchun sarflanuvchi suvning hajmi ushbu formuladan foydalanib aniqlanadi:

$$W_{br} = \mu\frac{\pi d^2}{4}\sqrt{2gH}\,3600T \ \text{m}^3/\text{yil} \qquad (9)$$

bu yerda: μ — brandspoytning chiqish teshigiga bog'liq bo'lgan sarflanish koeffitsienti, 0.97;

d — brandspoytning diametri, m;

q — og'irlik kuchining tezlanishi 9,8 m/sek²;

H — maydoncha ichidagi suvquvur tarmog'ining bosimi, m;

T — rezervuar yuzlarini yuvish vaqti. soat.

v) tozalangandan so'ng rezervuarni dezinfektsiyalash uchun ishlatiladigan suvning hajmi ushbu formula yordamida aniqlanadi:

$$W_{deh} = \frac{q_{sen} S}{1000} \text{ m}^3/\text{yil}, \qquad (10)$$

bu yerda: $q_{sen.}$ — rezervuarlar yuzalariga sepishga sarflanadigan suv, l/m^2;

S — rezervuarning suv sepiladigan yuzini quyidagi formuladan foydalanib topamiz:

$$S = 2LB + 2H(LKB) \text{ m}^2,$$

bu yerda: B — rezervuarlarning eni, m;

L — rezervuarlarning uzunligi, m;

H — rezervuarlarning balandligi, m.

Kichik sig'imli rezervuarlar uchun suv sarfi (8)- formuladan foydalanib topiladi.

g) dezinfektsiyalangandan keyin rezervuarni yuvishga ketadigan suvning hajmi quyidagi formula orqali topiladi:

$$W_{Yu} = Q_{soat} T \text{ m}^3/\text{yil}, \qquad (11)$$

bu yerda: Q_{soat} — rezervuarga keluvchi hisoblab topiladigan suv sarfi, m³/soat,

T — yuvish vaqti, soat.

d) Suvning bakteriologik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari yomonlashishi oqibatida rezervuarni yuvishga sarflanadigan suvning hajmi (11)- formula yordamida aniqlanadi.

e) Rezervuarni sizishga sinashda yo'qoladigan suvning hajmi ushbu formuladan foydalanib topiladi:

$$W_{siz.} = BL(H_1 - H_2) \text{ m}^3/\text{yil} \qquad (12)$$

bu yerda: B — rezervuarlarning eni, m;

L — rezervuarlarning uzunligi, m;

N_1 — sinovlar boshlanmasdan oldin rezervuardagi suv qatlamining balandligi, m;

N_2 — sinovlar tugagandan keyin suv qatlamining balandligi, m.

j) Rezervuarlarning ochiq yuzalaridan tabiiy filtrlanishda yo'qoladigan suvning hajmi ushbu formuladan foydalanib topiladi:

$$W_{tab} = \frac{365 q_{tab} S}{1000} N \ \text{m}^3/\text{yil}, \qquad (13)$$

bu yerda: q_{tab} — ochiq yuza orqali ruxsat etilgan yoki haqiqiy filtrlanish, sutkasiga, l/m^3 (QMQ 3.05.04-97da ko'rsatilganidan ortiq emas);

N — rezervuarlar soni;

S — rezervuar ochiq yuzasining yuzi, m^2.

365 — yildagi kunlar soni.

Rezervuar ochiq yuzasining yuzi quyidagicha topiladi:

$$S = BL + 2H(B + L) \ \text{m}^2,$$

bu yerda: B — rezervuarlarning eni, m;

L — rezervuarlarning uzunligi, m;

H — rezervuarlarning balandligi, m.

Nasos stantsiyalaridan foydalanishdagi suv sarflari:

a) Nasos podshipniklarini sovitishga sarflanadigan suvning hajmi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$W_{sov} = \frac{3600 q_{sov} T}{1000} 365N \ \text{m}^3/\text{yil} \qquad (14)$$

bu yerda: q_{sov} — bitta nasosni sovitishga suv sarfi, 0,1 l/sek;

T — nasosning ishlash vaqti, soat (konstruktiv talablarga ko'ra podshipniklarga suv doimiy sepib turiladi);

N — nasoslar soni.

b) nosozlik yuz berganda mashinalar zalidan nasos bilan tortib olinadigan suvning hajmi ushbu formuladan foydalanib topiladi:

$$W_{nos} = F_{is} H_{nos} T \ \text{m}^3/\text{yil} \qquad (15)$$

bu yerda: F_{is} — nasos zali polining maydoni m^2;

H_{nos} — nosozlik yuz bergan vaqtda poldagi suv qatlamining qalinligi, ko'pi bilan 0,5 m.

T — nosozlikni tuzatish vaqti, uzog'i bilan 2 soat.

Xlor xo'jaligida nosozlikni tuzatish uchun suv sarfi:

Suyuq xlor sizib chiqayotganda suv pardasi hosil qilishga ishlatiladigan suvning hajmi quyidagi formula yordamida topiladi:

$$W_{s.n} = \frac{Q_{s.n} T 3600}{1000} \text{ m}^3/\text{yil}, \qquad (16)$$

bu yerda: $Q_{s.n}$ — o't o'chirish gidrantlarining suv sarfi, 20l/sek (DH 06-24-22-95).

T — nosozlikni tuzatish vaqti, ko'pi bilan 3 soat (DH 06-24-22-95).

Xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning xo'jalik-maishiy ehtiyojlari.

Xo'jalik-maishiy extiyojlariga sarflanadigan suv hajmi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$W_{X.M} = \frac{Q_1 N_1 + Q_2 N_2}{1000} 365 \text{ m}^3/\text{yil}, \qquad (17)$$

bu yerda: Q_1 — bir kishi uchun xo'jalik-ichimlik suv iste'moli me'yori 25 *l*/sut. (QMQ 2.04.01-98);

Q_2 — dushdan foydalanuvchi bir kishi uchun suv sarfi, 500 *l*/sut (2.04.1-98);

N_1 — ishlovchilar soni, kishi;

N_2 — dushdan foydalanadigan ishlovchilar soni, kishi.

2. Yer yuzidagi manbalardan suv oluvchi inshootlarida suv sarfi

Suv tayyorlash stantsiyalarida suv sarfi

Texnologik sarflar, hisobga olinmagan yo'qolishlar, o'z ehtiyojiga sarflar quyidagi sarflardan tashkil topadi:

a) ***Texnologik sarflar:***

— suv kameralarining filtrlarini yuvishga;

— aralashtirgichlar, ipir-ipir ivindi kameralari, reagent baklarining devor va pardevorlarini yuvishga.

Tindirgichlardan foydalanishda:

— tindirgichlardan cho'kindini chiqarib tashlashda;

— devor va pardevorlardan ifloshliklarni yo'qotish uchun bo'shatishda;

— tindirgichlarni xlorli suv bilan dezinfektsiyalashga;

— dezinfektsiyalagandan so‘ng yuvishda;

filtrlarni ishlatishda:

— filtrlardagi qumni yuvishga, qumni ko‘zdan kechirish uchun filtrlarni bo‘shatishda;

— dezinfektsiyalash uchun filtrlarni bo‘shatishda; qo‘shimcha qum solish; zadvijkalar ishini tekshirishga;

— qumning ustki qatlamini yuvishga;

— filtrni to‘liq ta’mirlashga;

toza suv rezervuarlaridan foydalanishda:

— rezervuarlarni bo‘shatib, keyin tozalash, yuvish, dezinfektsiyalangandan keyin yuvishga;

— suvning baktereologik va fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari yomonlashganda yuvishga;

— sizishga; rezervuarlarning ho‘l yuzalari orqali tabiiy filtrlanishni aniqlashga.

Nasos stantsiyalardan foydalanishda:

— nasos podshipniklarini sovitish ishlariga;

maydoncha ichidagi kommunikatsiyalardan foydalanishda: o‘tkazgich quvurlar, berkitish armaturasini oldini olish maqsadida, joriy va to‘liq ta’mirlashga;

b) ***nisobga olinmagan yo‘qolishlar:***

— nasoslar yoki quvurlarda nosozlik yuz berganda mashinalar zalidan suvni nasos yordamida tortib olishda;

— xlor xo‘jaligida nosozliklarni tuzatishda;

— maydoncha ichidagi kommunikatsiyalardagi nosozliklarni bartaraf qilishda;

v) ***o‘z ehtiyojlariga sarflar:***

— xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning xo‘jalik-maishiy ehtiyojlariga sarflar.

Texnologik suv sarflari va yo‘qolishlari ushbu formuladan hisoblab topiladi:

Suv kameralari devorlarini yuvishga:

Suv kameralari panjaralarini branspoyt bilan yuvishga suv sarfi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$W_{Yu} = 3600\mu \frac{\pi d^2}{4} \sqrt{2qHT_1T_2n} \ \text{m}^3/\text{yil}, \qquad (18)$$

bu yerda: μ — brandspoytning chiqish teshigiga bog'liq bo'lgan suv sarfi koefitsienti, 0.97;

d — branspoytning teshigining diametri, m;

q — og'irlik kuchining tezlanishi 9,8 m/sek²;

H — maydoncha ichidagi suvquvur tarmog'ining bosimi, m;

T_1 — yuvish vaqti, soat (suvning ifloslanish darajasiga bog'liq);

T_2 — bir yilda yuvish kunlari soni;

n — bir sutkada yuvishlar soni.

Aralashtirgichlar, ipir-ipir ivindi hosil qilish kameralari, reagent baklarining brandspoyt bilan sarflanadigan suvning hajmi (9)-formuladan foydalanib aniqlanadi;

Tindirgichlardan foydalanish

a) tindirgichlardan cho'kindi bilan birga chiqarib tashlanadigan suvning hajmi ushbu formulalardan topiladi;

— tuproqdan qilingan tindirgichlardan cho'kindini zemsnyarad bilan chiqarib olishda:

$$W_{T.T} = Q_{z.s} TN \ \text{m}^3/\text{yil} \qquad (19)$$

bu yerda: $Q_{z.s}$ — zemsnyaradning unumdorligi, m³/soat;

T — zemsnyaradning bir sutkada ishlash vaqti, soat;

N — zemsnyaradning bir yilda ishlagan kunlari soni.

Temir-beton tindirgichlardan cho'kindilarni gidravlik usulda yig'ib olishdagi suv sarfi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$W_{T.B.T} = \frac{365 q_{ch}}{T} N \ \text{m}^3/\text{yil}, \qquad (20)$$

bu yerda: N — tindirgichlar soni, dona;

T — tozalashlar oralig'ida tindirgichlarning ishlash vaqti;

q_{ch} — elak (teshik-teshik) quvurlar orqali cho'kindi bilan birga chiqarib tashlanadigan suv hajmi, m³/min.

$$q_s = K_s \frac{P_{ch}}{n} \times \frac{100}{P_k} \times \frac{1}{t} \ \text{m}^3/\text{min}, \qquad (21)$$

bu yerda:

K_s — cho'kindini suyultirish koeffitsienti bo'lib, u cho'kindini vaqti-vaqti bilan chiqarib tashlashda — 1,3 ga; uzluksiz chiqarib tashlashda 1,5 ga teng qilib olinadi,

n — tindirgichlardagi bo'ylama yo'laklar soni;

P_q — cho'kindidagi qattiq moddaning o'rtacha miqdori, % (labaratoriyada tekshirish natijalari asosida aniqlanadi);

t — cho'kindini chiqarib tashlash vaqti, min;

P_{ch} — bir marta tozalashda har bir tindirgichdan chiqarib tashlanishi lozim bo'lgan chiqindining miqdori.

$$P_{ch} = \frac{Q_{soat} T 24 (C_{o'rt} - m)}{N 1000 \times 1000} \text{ tonna,} \qquad (22)$$

bu yerda:

Q_{soat} — hisoblab aniqlanadigan suv sarfi, m^3/soat;

$C_{o'rt}$ — tozalashlar oralig'ida tindirgichga kelgan suvdagi erimagan moddalarning o'rtacha miqdori, g/m^3 (labaratoriyada tekshirish natijalari asosida aniqlanadi);

m — tindirgichdan chiqayotgan suvdagi erimagan moddaning miqdori, mg/l. (8-12 mg/l bo'lishiga ruxsat etiladi);

T — bir sutkada tozalashlar oralig'ida tindirgichning ishlash vaqti;

N — tindirgichlar soni, dona.

b) keyin tindirgichning devorlari va tubidan iflosliklarni brandspoyt bilan yo'qotish uchun tindirgichdan chiqarib tashlanadigan suvning hajmi (8)-formuladan foydalanib topiladi.

v) tindirgichning devorlari va pardevorlarini brandspoyt bilan yuvish uchun ishlatiladigan suvning hajmi (9)-formuladan foydalanib topiladi;

g) tozalangandan so'ng tindirgichni dezinfektsiyalashga sarflanadigan suv hajmi (8)-formuladan foydalanib topiladi;

d) dezinfektsiyalangandan so'ng tindirgichni yuvishga ketdigan suv hajmi (11)-formuladan foydalanib topiladi.

Filtrlardan foydalanish jarayonida suv yo'qotishlari

a) filtrlardagi qumni vaqti-vaqti bilan yuvish uchun ishlatiladigan suvning hajmi ushbu formula yordamida topiladi:

$$W_f = 3,6 w f N n \ 365 \ \text{m}^3/\text{yil} \qquad (23)$$

bu yerda: w — yuvish tezligi, l/sekm^2;

f — bir filtrning yuzi, m^2;

N — bir sutkada yuviladigan filtrlar soni, dona;

n — bir sutkada bitta filtrni yuvishlar soni.

b) Qumni ko'zdan kechirish (STSCHTTFQning 261-bandiga binoan oyiga bir marta) uchun filtrni bo'shatishda chiqarib tashlanadigan suvning hajmini topishda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$W_{f.b.} = 12fN(H + 0,3) \text{ m}^3/\text{yil} \qquad (24)$$

bu yerda: f — bir filtrning yuzi, m²; N — bo'shatiladigan filtrlar soni, dona; N — qum tepasidagi suv qatlamining balandligi, m.

v) dezinfektsiyalash, qo'shimcha qum solish, zadvijkalari ishini tekshirish uchun (STSCHTTFQning 265-bandiga ko'ra kamida yiliga bir marta) filtrlarni bo'shatishda chiqarib tashlanadigan suvning hajmi ushbu formuladan aniqlanadi:

$$W_{bo'sh} = Nf(H_1 + 0,3H_2) \text{ m}^3/\text{yil}, \qquad (25)$$

bu yerda: f — bir filtrning yuzi, m²; N — bo'shatiladigan filtrlar soni, dona; N_1 — qum tepasidagi suv qatlamining qalinligi, m; N_2 — qum qatlamining qalinligi, m; 0,3 — qumning nisbiy kengayishi.

g) filtrlarni dezinfektsiyalashga ishlatiladigan suvning hajmi ushbu formuladan topiladi:

$$W_{yu} = N3,6wfT \text{ m}^3/\text{yil} \qquad (26)$$

bu yerda: w — yuvish tezligi, l/sekm²; f — bir filtrning yuzi, m²; N — bir yilda bo'shatiladigan filtrlar soni, dona; T — suvdagi qoldiq xlor miqdori 0,3—0,5 mg/l bo'lgancha yuvish vaqti.

e) filtr qumining ustki qatlamini brandspoyt bilan yuvishga (STSCHTTFQning 248-bandiga binoan yiliga 2 marta) ishlatiladigan suvning hajmi (9) formuladan foydalanib topiladi.

j) filtrni to'liq ta'mirlashda (STSCHTTFQning 248-bandiga ko'ra 8-10 yilda bir marta) sarflanadigan suvning miqdori quyidagi formulalar orqali topiladi:

— filtrlarni bo'shatishda — (25)-formula;

— devorlar va tubni brandspoyt bilan yuvishda — (9)-formula;

— ta'mirlashdan so'ng filtr qumini yuvishda — (26)-formula;

— qumi yuvilgandan keyin filtrlarni dezinfeksiyalashda — (25)-formula;

— dezinfektsiyalangandan so‘ng filtrni yuvishda — (26)-formula;

Toza suv rezervuarlaridan foydalanishda suv sarflari

Toza suv rezervuarlaridan foydalanishda sarflanadigan suv hajmi (8), (9), (10), (11), (12), (13)- formulalardan foydalanib topiladi.

Nasos stantsiyalaridan foydalanishda suv sarflari

Nasos stantsiyalaridan foydalanishda suv sarflari hajmi (14), (15)-formulalardan foydalanib topiladi.

Xlor xo‘jaliklaridan nosozliklarni tuzatish uchun suv sarflari

Suyuq xlor sizib chiqayotganda suv pardasi hosil qilish uchun sarflanadigan suv hajmi (16)-formuladan topiladi.

Maydoncha ichidagi kommunikatsiyalardan foydalanishda suv sarfi

Maydoncha ichidagi kommunikatsiyalardan foydalanishda ishlatiladigan suvning hajmi (2), (3), (4), (5), (6), (7)-formulalardan foydalanib aniqlanadi.

Xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning xo‘jalik-maishiy ehtiyojlari uchun suv sarflari

Xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning xo‘jalik-maishiy ehtiyojlariga sarflanadigan suv hajmi (17)-formuladan topiladi.

3. Suv quvurlari va taqsimlash tarmoqlarida suv sarfi

Suv quvurlari va taqsimlash tarmoqlaridan foydalanish jarayonida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish vaqtida suv yo‘qolishiga yo‘l qo‘yiladi:

— quvurlarning suvni sarf qilishning oldini olish maqsadida, joriy va to‘liq ta’mirlash (bo‘shatish, yuvish, dezinfektsiyalash, dezinfektsiyalagandan keyin yuvishda);

— berkitish armaturasi, o‘t o‘chirish gidrantlari, suv olish kolonkalarini profilaktika maqsadida, joriy va to‘liq ta’mirlash (bo‘shatishda);

— yangi yotqizilgan o'tkazgich quvurlarini ulash uchun bo'shatishda;

— yangi yotqizilgan o'tkazgich quvurlarni gidravlik sinash (mustahkamligini, zichligini sinash, quvurning haqiqiy o'tkazish imkoniyatini aniqlash, yuvish, dezinfektsiyalash, dezinfektsiyalagandan keyin yuvishda);

— suv quvurlari va taqsimlash tarmoqlari nosozliklarini tuzatish (suv sizishi, yuvish, dezinfektsiyalash, dezinfektsiyalagandan keyin yuvishda).

O't o'chirish va yong'inning oldini olish mashg'ulotlarini o'tkazish maqsadidagi suv sarflari:

O't o'chirish mashg'ulotlarini o'tkazish va yong'inni o'chirishga shahar oqovaquvur tarmoqlaridan sarflanadigan suvning hajmi Yong'in muhofazasi boshqarmasi taqdim etgan suv sarfi to'g'risidagi dalolatnomalar yoki hisoblagichlarning ko'rsatishlari asosida aniqlanadi.

Oqovaquvurning tozalash inshootlari:

Oqovaquvurning tozalash inshootlaridan foydalanishda sarflanadigan ho'jalik-ichimlik sifatidagi suvning hajmi ushbu sarflardan tashkil topadi:

— xlor ho'jaligidagi nosozliklarni bartaraf etish uchun ishlatiladigan suvning hajmi (16)-formuladan foydalanib aniqlanadi;

— nasos podshipniklarini sovitish uchun sarflanadigan suvning hajmi (14)-formuladan foydalanib topiladi;

— xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning xo'jalik-maishiy ehtiyojlari uchun sarflanadigan suvning hajmi (17)-formuladan yoki hisoblagichlarning ko'rsatishlari asosida topiladi.

12.2. Suv ta'minoti korxonalarida texnologik suv sarflari va yo'qolishlarini hisoblash

Respublikamiz kommunal xo'jaligi tizimida faoliyat ko'rsatuvchi har bir suv ta'minoti korxonlari tomonidan suvquvur-oqavaquvur xo'jaligining faoliyati davomida yuzaga keluvchi texnologik suv sarflari va yo'qolishlarini hisoblab chiqish zarur.

Suv bilan ta'minlovchi korxonalar tomonidan xizmat ko'rsatishdagi texnologik sarflar va yo'qolishlar har bir korxona

uchun alohida hisoblab chiqilishidan maqsad, birinchidan korxonada me'yordan ortiq suv sarflariga yo'l qo'yilishining oldini olish orqali energiya va resurslar tejamkorligiga erishish bo'lsa, ikkinchidan yetkazib beriladigan suv tannarxini arzonlashtirish va suvning ishlab chiqarish qiymatini shakllantirishda asoslanmagan ko'rsatkichdan foydalanishni oldini olishdan iborat. Shu sababli bu ko'rsatkichlarning texnologik uslubiga muvofiq to'g'ri hisoblab chiqilganligi yuqori tashkilotlar tomonidan qayta ko'rib chiqiladi.

Suv olish va tayyorlash korxonlarida suv sarfi va texnologik sarflarni hisoblashda yer osti manbalaridan suv oluvchi va yer yuzidagi manbalardan suv oluvchi inshootlarning texnologik sarflariga alohida-alohida yondashiladi.

1. Yer osti manbalaridan suv olish inshootlarida suv sarfini hisoblash

Quduqlarni yerlift bilan yuvishda suv sarfini aniqlashga misol:

Berilgan: Suv olish inshootlarining unumdorligi

$$Q_{s.o.i.} = 3800000 \ \text{m}^3/\text{yil}.$$

Suv olish inshootidagi quduqlar soni $N = 65$ ta.

Har bir quduqni yuvishlar soni $n = 1$ (har bir quduq kamida yiliga bir marta yuviladi).

Yuvish uchun unumdorligi $Q_{s.um.} = 7$ m³/min yoki 0,116 m³/sek bo'lgan ZIF-VKS-6 markali kompressor ishlatiladi.

Yerliftning foydali ish koeffitsienti $\eta = 0,1$.

Yerliftning ko'tarilish balandligi N=15 m.

Forsunkaning botish chuqurligi $H_n = 20$ m.

Har bir quduqni yuvish vaqti $T = 144$ soat (sifatining tahlili O'zDst 950:2000 «ichimlik suvi"talablariga» javob berishi lozim).

U holda yerlift sarfi ushbuni tashkil qiladi

$$Q = 0,1\frac{10}{15}0,116\ln(0,1 \times 20 + 1) = 0,004 \ \text{m}^3/\text{sek}.$$

Quduqlarni yuvishga ishlatiladigan suvning hajmi:

$$W_k = 56 \times 0,004 \times 144 \times 1 \times 3600 = 116122 \ \text{m}^3/\text{yil}. \quad (1)$$

Quduqlarni yuvishga suv sarfining foizi quyidagini tashkil qiladi:

$$\frac{W_k}{Q_{suv}} 100\ \% = \frac{116122}{3800000} \times 100\ \% = 3,06\ \%.$$

Yig'ma liniyani oldini olish maqsadida ta'mirlashda suv sarfini aniqlash:

a) bo'shatishda va dezinfektsiyalashda yo'qoladigan suvning hajmini hisoblash:

Berilgan:

Yig'ma liniyaning diametri $d = 1000$ mm.

Ta'mirlanadigan qismning uzunligi $L = 3000$ m.

Ta'mirlanadigan qismlar soni $n = 4$.

$$W_{bo'sh} + W_{dez} = 2\frac{3,14 \times 1,0^2}{4} 3000 \times 4 = 18840\ \text{m}^3/\text{yil}. \quad (2)$$

b) dezinfektsiyalashdan oldin va keyin yuvish uchun ketadigan suvning hajmini hisoblash:

Berilgan:

Chiqish teshigiga bog'liq bo'lgan sarflanish koeffitsienti $\mu = 0,97$.

Chiqarib tashlash quvurining diametri $d = 9,8$ m/sek^2.

Yuviladigan quvurdagi bosim $N = 30$ m.

Yuvish vaqti $T = 6$ soat (sifatining tahlili O'zDst 950:2000 «Ichimlik suvi» talablariga javob beruvchi suv olingunga qadar).

$$W_{yu} = 2 \times 0,97 \times \frac{3,14 \times 0,3^2}{4} \sqrt{2 \times 9,8 \times 30 \times 3600 \times 6 \times 4} =$$

$$= 287170\ \text{m}^3/\text{yil}. \quad (3)$$

Oldini olish maqsadida yuvishga sarflanadigan suvning umumiy hajmini hisoblash:

$$W_{bo'sh} + W_{dez} + W_{yu} = 18840 + 287170 = 306010\ \text{m}^3/\text{yil}.$$

Oldini olish maqsadida yuvishga suv sarfining foizi:

$$\frac{306010}{3800000} \times 100\ \% = 8,05\ \%.$$

Yig'ma liniyada nosozlik yuz berganda (quvur singanda) suvning yo'qolishini hisoblash:

Berilgan:

Yig'ma liniyaning diametri $d = 1000$ mm.

Ta'mirlanadigan qismning uzunligi $L = 3000$ m.

Nosozlik tufayli paydo bo'ladigan teshikning diametri $d = 200$ mm.

Yig'ma liniyadagi bosim $H = 28$ m.

Sizishni bartaraf etish vaqti $T = 5$ soat.

a) sizishda yo'qoladigan suvning hajmi:

$$W_{nos.} = 5358 \times 1,0^2 5\sqrt{28\kappa} = 141719 \text{ m}^3/\text{yil}. \quad (5)$$

b) nosoz qismini dezinfektsiyalashga ishlatiladigan suvning hajmini hisoblash:

$$W_{dez} = \frac{3,14 \times 1,0^2}{4} 3000 = 2355 \text{ m}^3/\text{yil}. \quad (2)$$

v) nosoz qismini yuvishga ketadigan suvning hajmini hisoblash:

$$W_{yu} = 0,97 \frac{3,14 \times 0,3^2}{4} \sqrt{2 \times 9,8 \times 30 \times 3600 \times 6} = 35896 \text{ m}^3/\text{yil}. \quad (3)$$

Nosozlik tufayli yo'qoladigan suvning umumiy hajmini hisoblash:

$$W_{nos} + W_{dez} + W_{yu} = 141719 + 2355 + 35896 = 179970 \text{ m}^3/\text{yil}.$$

Nosozlik oqibatida suvning yo'qolish foizini hisoblash:

$$\frac{179970}{3800000} 100\ \% = 4,74\ \%.$$

Yig'ma liniyalar va kommunikatsiyalarda suvning ruxsat etilgan sizishi:

Ruxsat etilgan sizish bilan yo'qoladigan suvning hajmi:

Yig'ma liniyaning uzunligi — 12 km.

Yig'ma liniyaning diametri — 1000 mm.

Quvurlar temir-beton qilingan.

Ruxsat etilgan sizish $q_{r.e.} = 4,8$ *l*/min.km.

Sizishda yo'qoladigan suvning hajmini hisoblash:

$$W_{r.e.} = \frac{365 \times 4,8 \times 60 \times 24 \times 12}{1000} = 30274,56 \text{ m}^3/\text{yil} \quad (7a)$$

Suvning sizish foizini hisoblash:

$$\frac{30274,56}{3800000}100\ \% = 0,79\ \%.$$

Toza suv resurslarini iste'molchilarga yetkazib berishda suv yo'qotishlariga misol.

a) ruxsat etilgan tabiiy filtrlanishda yo'qoladigan suvning hajmi:

Berilgan:

Rezervuarlar soni: $n = 2$ dona.

Har bir rezervuarning hajmi 5000 m^3.

Rezervuarning eni $B = 30$ m, uzunligi $L = 50$ m, suv qatlamining balandligi $H_s = 3,5$ m.

Ochiq yuza orqali ruxsat etilgan tabiiy filtrlanish $q_{tab} = 2$ l/m^2sut.

Ochiq yuzaning yuzini hisoblash:

$$S = 30 \times 50 + 2 \times 3,5(30 + 50) = 2060\ \ m^2.$$

Filtrlanishda yo'qoladigan suvning hajmini hisoblash:

$$W_f = \frac{365 \times 2 \times 2060}{1000} \times 2 = 3008\ \ m^3/yil. \qquad (13)$$

b) oldini olish maqsadida kamida bir yilda 2 marta yuvish:

bo'shatishda va hajmiy usul bilan zararsizlantirishda yo'qoluvchi suvning hajmini hisoblash:

$$W_{bo'sh} = 2 \times 30 \times 50 \times 3,5 = 10500\ \ m^3/yil \qquad (8)$$

Oqizib qo'yish usuli bilan zararsizlantirishda yo'qoladigan suvning hajmini hisoblashga misol:

Oqizib qo'yish usuli bilan zararsizlantirishda rezervuarning 1 m^2 yuzasiga suv sarfi $q_{o.q} = 0,5$ l.

Oqizib qo'yish usuli bilan zararsizlantiradigan yuza

$$S = 2 \times 50 \times 30 + 2 \times 3.5(50 + 30) = 3560\ \ m^2.$$

Zararsizlantirishga sarflanuvchi suvning hajmi:

$$W_z = \frac{0,5 \times 3560}{1000} = 1,8\ \ m^3/yil \qquad (9)$$

v) tozalangandan keyin rezervuar yuzalarini brandspoyt bilan yuvishga misol:

Berilgan:

Suv sarfi koeffitsienti $\mu = 0,97$.

Brandspoyt teshigining diametri 13 mm.

Maydoncha ichidagi suvquvur tarmog'ining bosimi $N = 20$ m.

Yuvish vaqti $T = 8$ soat.

Yuzalarini yuvish uchun ishlatiladigan suvning hajmi:

$$W_{yu} = \frac{3600 \times 0,97 \times 3,14 \times 0,013^2}{4} \sqrt{2 \times 9,8 \times 20 \times 8} = 73 \text{ m}^3/\text{yil}. \quad (10)$$

g) zararsizlantirishdan so'ng rezervuarni yuvishga sarflanadigan suvning hajmini hisoblash:

Rezervuarlarga kelib tushuvchi suvning hisoblab topiladigan sarfi $Q_{soat} = 215$ m³/soat.

Yuvish vaqti $T = 24$ soat (suvni kamida ikki marta tekshirish natijalari qoniqarli chiqqunga qadar).

$$W_{yu} = 215 \times 24 = 5160 \text{ m}^3/\text{yil}. \quad (11)$$

d) sizishga sinashda yo'qoladigan suvning hajmini hisoblashga misol:

Rezervuardagi suv qatlamining sinovlar boshlanmasdan oldingi balandligi $N_1 = 3,5$ m.

Rezervuardagi suv qatlamining sinovlardan keyingi balandligi $N_2 = 3,0$ m.

$$W_{yu} = 30 \times 50(3,5 - 3,0) = 750 \text{ m}^3/\text{yil}. \quad (12)$$

Toza suv rezervuarlaridan foydalanishda suvning umumiy suv sarfi hajmi quyidagicha hisoblanadi:

$$W_f + W_{bo'sh} + W_{yu} + W_{ok} + W_{yu} + W_{siz} = 3008 + 10500 +$$

$$+73 + 5160 + 750 = 19491 \text{ m}^3/\text{yil}.$$

Suv sarfi foizi:

$$\frac{19491}{3800000} * 100\ \% = 0,51\ \%.$$

Nasos stantsiyasidan foydalanishda suv sarfini hisoblashga misol:

a) nasos podshipniklarini sovitish:

Berilgan:

Bitta nasosga suv sarfi $q_p = 0,1$ *l*/sek.

Nasoslar soni $n = 3$ sht.

Nasoslarning ishlash vaqti $T =$ soat;

Podshipniklarni sovitishga suv sarfi hajmi:

$$W_{sov} = \frac{3600 \times 0,1 \times 3 \times 24 \times 365}{1000} = 9461 \text{ m}^3/\text{yil}. \quad (14)$$

b) mashinalar zaiida nosozlik yuz berganda nasos bilan tortib olinadigan suvning hajmini hisoblash:

Berilgan:

Mashinalar zali polining yuzi $G_{n.s} = 100$ m²;

Suv qatlamining balandligi $N_{nos} = 0,5$ m;

Nosozliklarni tuzatish vaqti $T = 2$ soat.

$$W_{nos} = 100 \times 0,5 \times 2 = 100 \text{ m}^3/\text{yil} \quad (15)$$

Suv sarfi foizi ushbuga teng:

$$\frac{9461+100}{3800000} 100\ \% = 0,25\ \%.$$

Xlor xo'jaligidagi nosozliklarni bartaraf etish uchun suv sarfini aniqlashga misol:

Berilgan:

O't o'chirish gidrantlari sarflaydigan suv $Q_{s.p.} = 20$ *l*/sek.

Nosozlikni bartaraf etish vaqti $T = 3$ soat.

Suv pardasi hosil qilishga sarflanadigan suvning hajmi:

$$W_{s.p.} = \frac{20 \times 3 \times 3600}{1000} = 216 \text{ m}^3/\text{yil} \quad (16)$$

Suv sarfi foizi ushbuni tashkil etadi:

$$\frac{216}{3800000} 100\ \% = 0,006\ \%.$$

Xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning xo'jalik-maishiy ehtiyojlari uchun sarflanadigan suv sarfini aniqlash.

Berilgan:

Ishlovchilar soni $N_1 = 20$ kishi.

Dushdan foydalanadigan ishlovchilar soni $N_2 = 10$ kishi.

Bir kishi hisobiga suv iste'moli me'yori $Q_1 = 25$ *l*/sut.

Dushdan foydalanuvchi bir kishi hisobiga suv iste'moli me'yori $Q_2 = 500$ *l*/sut.

Xo'jalik-maishiy ehtiyojlarga sarflanadigan suvning hajmi:

$$W_{x.m} = \frac{25\times20+500\times10}{1000} \times 365 = 2008 \text{ m}^3/\text{yil}. \qquad (17)$$

Suv sarfi foizi quyidagiga teng:

$$\frac{2008}{3800000} 100\ \% = 0,05\ \%.$$

Suv olish inshootlaridan foydalanishda suv sarfining umumiy foizi quyidagiga teng:

$$3,06 + 8,05 + 4,74 + 0,51 + 0,25 + ,0006 + 0,05 + 0,79 = 17,456\ \%.$$

2. Yer yuzidagi manbalardan suv olish inshootlarida suv yo'qotishlarini hisoblashga misol:

Suv tayyorlash stantsiyalari:

Berilgan:

Inshootlarning unumdorligi: 240000 m³/sut;
10000 m³/soat;
87600000 m³/yil.

Boshlang'ich suvning sifati:

Loyqaligi 400 mg/*l*;

Ishqorligi 1,29 mg/*l*;

Suv tashlanadigan qurilmaning panjaralarini brandspoyt bilan yuvish:

Brandspoyt teshigining diametri $d = 13$ mm;

Suv sarfi koeffitsienti $\mu = 0,97$;

Maydoncha ichidagi suvquvur tarmog'ining bosimi $H = 20$ m;

Bir sutkada bir marta yuvish vaqti $T_1 = 0,4$ soat;

Bir sutkada yuvishlar soni $n = 2$;

Har kuni yuvish $T_2 = 365$.

a) panjaralarni yuvishga sarflanadigan suvning hajmini aniqlaymiz:

$$W_{yu} = 0,97 \times \frac{3,14 \times 0,013^2}{4} \sqrt{2 \times 9,8 \times 20 \times 2 \times 365} \times 3600 =$$

$$= 6696 \text{ m}^3/\text{yil}. \quad (18)$$

Bunda suv sarfi koeffitsienti ushbuni tashkil etadi:

$$\frac{6696}{87600000} 100\ \% = 0,007\ \%.$$

Reagent banklari, aralashtirgichlarni, ipir-ipir ivindi hosil qilish kameralarini yuvishga sarflanadigan suvning hajmini aniqlash:

Berilgan:

Yuvish muddati n = yiliga 2 marta;

Brandspoytning teshigining diametri d = 13 mm;

Yuvish vaqti T_1 = 12 soat;

Suv sarfi koeffitsienti $\mu = 0,97$

Yuvishga ishlatiladigan suvning hajmi:

$$W_r + W_a + W_k = 3 \times 3600 \times 0,97 \times \frac{3,14 \times 0,013^2}{4} \sqrt{2 \times 9,8 \times 20 \times 12 \times 2} =$$

$$= 660 \text{ m}^3/\text{yil}. \quad (9)$$

Suv sarfi foizi quyidagiga teng

$$\frac{660}{87600000} 100\ \% = 0,0007\ \%.$$

Tindirgichlardan foydalanishda suv sarfi:

Berilgan:

a) tuproqdan qilingan tindirgichlardagi cho'kindini zemsnyarad bilan tortib olishda sarflanadigan suvning hajmi:

Zemsnyaradning unumdorligi $Q_{z.s}$ = 500 m³/soat

Zemsnyaradning bir sutkada ish vaqti T = 8 soat;

Zemsnyaradning bir yilda ishlaydigan kunlari soni N = 200;

Foydalanilgan suvning hajmi

$$W_{z.s} = 200 \times 500 \times 8 = 800000 \text{ m}^3/\text{yil} \quad (19)$$

b) temir-beton tindirgichlardagi cho'kindini chiqarib tashlashda sarflanadigan suvning hajmi:

Berilgan:

Hisoblab topiladigan suv sarfi $Q_{soat} = 10000$ m³/soat;

Tindirgichlar soni $N = 8$ ta;

Tindirgichlardagi yo'laklar soni 3 ta;

Cho'kindidagi qattiq moddaning o'rtacha miqdori $P_k = 5\%$;

Cho'kindini chiqarib tashlash vaqti 10 min;

Tozalashlar oralig'ida kelib tushadigan suvdagi erimagan moddalarning o'rtacha miqdori $S_{o'r} = 400$ g/m³;

Tindirgichdan chiqayotgan suvdagi erimagan moddaning miqdori $m = 10$ mg/*l*;

Tozalashlar oralig'ida tindirgichlarning vaqti $T = 3$ sut;

Cho'kindini suyultirish koeffitsienti $K_s = 1,5$;

Bir marta tozalashda har bir tindirgichdan chiqarib tashlanadigan cho'kindining miqdori:

$$P_{ch} = \frac{10000 \times 3 \times 24(400-10)}{8 \times 1000 \times 1000} = 35,1 \text{ t.} \qquad (20)$$

cho'kindilar bilan birga chiqarib tashlanadigan suv sarfi:

$$q_{ch} = 1,5 \frac{35,1}{3} \times \frac{100}{5} \times \frac{1}{10} = 35,1 \text{ m}^3/\text{min yoki } 585 \text{ } l/\text{sek}; \qquad (21)$$

yil mobaynida cho'kindilar bilan birga chiqarib tashlanadigan suvning hajmi:

$$W_{s.ch.} = \frac{3600 \times 585 \times 365 \times 8}{1000 \times 3} = 2049840 \text{ m}^3/\text{yil}; \qquad (22)$$

tindirgichlardan foydalanishga suv sarfining umumiy hajmi:

$$W = 800000 + 2049840 = 2849840 \text{ m}^3/\text{yil}.$$

Suv sarfi foizi quyidagiga teng:

$$\frac{2849840}{87600000} 100\ \% = 3,25\ \%.$$

Filtrlardan foydalanishda suv sarfini aniqlash:

a) filtrlarni yuvishga sarflanadigan suvning hajmi:

Berilgan:

Bir sutkada yuviladigan filtrlar soni $N = 12$ ta;

Filtrni yuvish jadalligi $W = 12$ *l*/sek.m²;

Bitta filtrning yuzi $f = 50$ m²;
Bir sutkada yuvishlar soni $n = 1$.
Bir yilda filtrlarni yuvishga ishlatiladigan suvning hajmi:

$$W_f = 365 \times 3,6 \times 12 \times 50 \times = 9460800 \text{ m}^3/\text{yil}. \quad (23)$$

b) qumining yuzasini ko'zdan kechirish uchun filtrni bo'shatishda (oyiga bir marta) yo'qoladigan suvning hajmi:
Berilgan:
Qum ustidagi suv qatlamining balandligi $H_1 = 2,4$ m;
Qum qatlamining balandligi $H_2 = 1,6$ m;
Filtrlar soni $N = 12$ sht;
Bitta filtrning yuzi $f = 50$ m².
Tizimdagi suvni bo'shatish va dezinfektsiyalash hajmi

$$W_{op} = 2 \times 12 \times 50(2,4 + 0,3 \times 1,6) = 3456 \text{ m}^3/\text{yil} \quad (25)$$

g) bir yilda bir marta dezinfektsiyalangandan keyin filtrlarni yuvishga (suvni tahlil qilish natijalari qoniqarli chiqquncha) sarflanadign suvning hajmi:
Berilgan:
Yuvish jadalligi $w = 12$ *l*/sek m²;
Yuvish vaqti $T = 1$ soat;
Bir yilda yuviladigan filtrlar soni $N = 12$ ta.

$$W_{yu} = 12 \times 3,6 \times 12 \times 50 \times 1 = 25920 \text{ m}^3/\text{yil} \quad (26)$$

d) filtr qumini bir yilda 2 marta brandspoyt bilan yuvishga sarflanadigan suvning hajmi:
Sarflanish koeffitsienti $\mu = 0,97$
Brandspoytning chiqish teshigi kesimining yuzi $d = 13$ mm

$$S = \frac{3,14 \times 0,013^2}{4} = 0,00013 \text{ m}^2$$

Filtrlar soni $N = 12$ ta;
Maydoncha ichidagi suvquvur tarmog'ining bosimi $H = 20$ m;
Bitta filtrni yuvish vaqti $T = 16$ soat;
Yuvishga ishlatiladigan suvning hajmi:

$$W_{yu} = 2 \times 12 \times 0,97 \times 0,00013\sqrt{2 \times 9,8 \times 20 \times 16 \times 3600} =$$

$$= 3452 \text{ m}^3/\text{yil} \quad (9)$$

e) filtrlarni to'liq ta'mirlashda (8-10 yilda 1 marta) sarflanadigan suvning hajmi:

Bir yilda yuviladigan filtrlar soni — 1 ta;

Bo'shatishda yo'qoladigan suvning hajmi:

$$W_{bo'sh} = 50 \times (2,4 + 0,3 \times 1,6) = 144 \text{ m}^3/\text{yil} \qquad (25)$$

Devorlar va tubni brandspoyt bilan yuvishga sarflanadigan suvning hajmi:

$$W_{br} = 0,97 \times 0,00013\sqrt{2 \times 9,8 \times 20 \times 24 \times 3600} = 216 \text{ m}^3/\text{yil}.$$

Ta'mirlashdan keyin qumni yuvish:

Berilgan:

Filtrning yuzi $f = 50$ m^2;

Yuvish jadalligi 12 l/sek.m^2;

Suvni ikki marta tahlil qilish natijalari qoniqarli chiqqunga qadar filtrni yuvish vaqti $T = 12$ soat.

Qumni yuvishga sarflanadigan suvning hajmi:

$$W_{yu} = 3,6 \times 50 \times 12 \times 12 = 25920 \text{ m}^3/\text{yil}.$$

Filtrni dezinfektsiyalashga ishlatiladigan suvning hajmi

$$W_{dez} = 144 \text{ m}^3/\text{yil}.$$

Dezinfektsiyalagandan so'ng filtrni yuvishga ketadigan suvning hajmi:

$$W_{yu} = 3,6 \times 50 \times 12 \times 10 = 21600 \text{ m}^3/\text{yil} \qquad (26)$$

Filtrlarni ishlatishda sarflanadigan suvning hajmi:

$$W_f = 9460800 + 19440 + 3456 + 25920 + 3452 + 216 +$$

$$+25920 + 144 + 21600 = 9560948 \text{ m}^3/\text{yil}.$$

Suv sarfi foizi ushbuni tashkil etadi:

$$\frac{9560948}{87600000} 100\ \% = 10,91\ \%.$$

Toza suv rezervuarlaridan foydalanishda (yer osti manbalaridan suv olish inshootlaridagi rezervuarlarni hisoblash ma'lumotlari asosida) suv sarfini aniqlash

Rezervuarlardan foydalanishga ishlatiladigan suvning hajmi:

$$W_{rez} = 19491 \text{ m}^3/\text{yil}.$$

Suv sarfi foizi quyidagiga teng:

$$\frac{19491}{87600000} = 100\ \% = 0,02\ \%.$$

Nasos stantsiyalaridan foydalanishda suv sarfini aniqlash:

a) nasos podshipniklarini sovitish:

Berilgan:

Bitta nasosga suv sarfi 0,1 *l*/sek.

Nasoslar soni $n = 26$ ta.

Nasoslarning ishlash vaqti $T = 24$ soat.

Podshipniklarni sovitishga sarflanuvchi suvning hajmi:

$$W_{sov} = \frac{3600 \times 0,1 \times 26 \times 24 \times 365}{1000} = 81994 \text{ m}^3/\text{yil}.$$

b) mashinalar zalida nosozlik yuz berganda nasos bilan tortib olinadigan suvning hajmi:

Berilgan:

Mashinalar zalining polining hajmi $F_{n.s.} = 360$ m²

Poldagi suv qatlamining balandligi $N_{nos.} = 0,5$ m.

Nosozlikni tuzatish vaqti $T = 2$ soat.

$$W_{nos} = 360 \times 0,5 \times 2 = 360 \text{ m}^3/\text{yil}. \qquad (15)$$

Nasos stantsiyasidan foydalanishda ishlatiladigan suvning umumiy hajmi: m³/yil

Suv sarfi foizi quyidagiga teng:

$$\frac{82354}{87600000} 100\ \% = 0,09\ \%.$$

Xlor xo'jaligidagi nosozliklarni tuzatishda sarflanadigan suv:

Xlor sizib chiqayotganda suv pardasi hosil qilish uchun:

Berilgan:

Suv pardasi hosil qilish uchun o't o'chirish gidrantlari sarflaydigan suv $Q_{s.n.} = 20$ *l*/sek.

Nosozliklarni tuzatish vaqti $T = 3$ soat.

Suv pardasi hosil qilishga sarflanadigan suvning hajmi:

$$W_{s.n} = \frac{20 \times 3 \times 3600}{1000} = 216 \text{ m}^3/\text{yil}. \qquad (16)$$

nosozliklarni tuzatishga suv sarfi foizi ushbuni tashkil etadi:

$$\frac{216}{87600000}100\ \% = 0,0002\ \%.$$

Xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning xo'jalik-maishiy ehtiyojlari uchun suv sarfi:

Berilgan:

Bir kishi hisobiga xo'jalik ichimlik suvi iste'moli me'yori $Q_1 = 25 \cdot l$/sut.

Dushdan foydalanadigan bir kishi hisobiga suv iste'moli me'yori $Q_2 = 500\ l$/sut.

Xodimlar soni $N_1 = 232$ kishi;

Dushdan foydalanuvchilar soni $N_2 = 188$ kishi;

Xo'jalik maishiy va dush bilan bog'liq ehtiyojlarga suv sarfi:

$$W_{x.m} = \left(\frac{25\times232+500\times188}{1000}\right)365 = 36427\ \text{m}^3/\text{yil} \qquad (17)$$

suv sarfi foizi quyidagiga teng.

$$\frac{36427}{87600000}100\ \% = 0,04\ \%.$$

Suv sarfining umumiy hajmi ushbuga teng:

$$0,007 + 0,0007 + 3,25 + 10,91 + 0,02 + 0,09 + 0,0002 + 0,55 +$$
$$+0,04 = 14,8679.$$

Suv quvurlari va taqsimlash tarmoqlarida suv yo'qotishlarin hisoblashga misollar

Suv quvurlari, berkitish armaturasi, suv olish kolonkalari, o' o'chirish gidrantlarini oldini olish maqsadida ta'mirlash.

Yil mobaynida quyidagilarni yuvish nazarda tutilgan:

Suv quvurining diametri $d = 1200$ mm, uzunligi $L = 5$ km bo'lgan qismlarni;

Ushbu taqsimlash tarmoqlarini:

$d = 500$ mm, $L = 2,65$ km;

$d = 300$ mm, $L = 2,54$ km;

$d = 100$ mm, $L = 4,57$ km.

a) bo'shatishda yo'qoladigan suvning hajmi quyidagini tashkil etadi:

$$W_{bo'sh} = \frac{3,14}{4} \times (1,2^2 \times 5000 + 0,5^2 \times 2650 + 0,3^2 \times 2540 + 0,1^2 \times$$

$$\times 4570) = 6387 \text{ m}^3/\text{yil}. \quad (2)$$

b) dezinfektsiyalashga sarflanadigan suvning hajmi ushbuni tashkil qiladi:

$$W_{dez} = 6387 \text{ m}^3/\text{yil}.$$

v) dezinfektsiyalashdan oldin va keyin yuvishga ishlatiladigan suvning hajmi quyidagiga teng:

suv quvurining diametri $d = 1200$ mm, chiqarib tashlash quvurining diametri $d = 500$ mm;

Suv sarfi koeffitsienti $\mu = 0,97$.

Suv quvuridagi bosim $N = 45$ m.

Yuvish vaqti $T = 9$ soat.

$$W_{yu} = 2 \times 0,97 \times \frac{3,14 \times 0,5^2}{4} \sqrt{2 \times 9,8 \times 45 \times 3600 \times 9} =$$

$$= 366364 \text{ m}^3/\text{yil}. \quad (3)$$

Tarmoq qismining diametri $d = 500$ mm, chiqarib tashlash quvurining diametri $d = 200$ mm, tarmoqdagi bosim $N = 30$ m, yuvish vaqti 6 soat.

$$W_{yu} = 2 \times 0,97 \times \frac{3,14 \times 0,2^2}{4} \sqrt{2 \times 9,8 \times 30 \times 3600 \times 6} = 31907 \text{ m}^3/\text{yil}.$$

Tarmoq qismining diametri $d = 300$ mm.

Chiqarib tashlash quvurining diametri $d = 150$ mm.

Tarmoqdagi bosim $N = 30$ m.

Yuvish vaqti 6 soat

$$W_{yu} = 2 \times 0,97 \times \frac{3,14 \times 0,15^2}{4} \sqrt{2 \times 9,8 \times 20 \times 3600 \times 3} = 2084 \text{ m}^3/\text{yil}.$$

Oldini olish maqsadida ta'mirlashga sarflanuvchi suvning umumiy hajmi ushbuni tashkil qiladi:

$$W_{yu} = 6387 + 6387 + 366364 + 31907 + 17948 + 2084 = 431077 \text{ 3/yil}.$$

Suv sarfi foizi quyidagiga teng:

$$\frac{431077}{3800000+87600000}100\ \% = 0,47\ \%.$$

Berkitish armaturasi, o't o'chirish gidrantlari va suv olish kolonkalari tarmoqlarini oldini olish maqsadida ta'mirlash bilan bir vaqtda ta'mirlanadi.

Yangi yotqizilgan quvurlarni ulashda suv sarfini aniqlash:

Yil mobaynida mavjud tarmoqlarning quyidagi qismlarini bo'shatib, yangi quvurlarni ulash nazarda tutiladi:

$d = 800$ mm, $L = 3000$ m;
$d = 500$ mm, $L = 2500$ m;
$d = 300$ mm, $L = 2900$ m;
$d = 100$ mm, $L = 4800$ m;

$$W_{bosh} = \frac{3,14}{4} \times (0,8^2 \times 3000 + 0,5^2 \times 2500 + 0,3^2 \times 2900 + 0,1^2 \times$$
$$\times 4800) = 2240\ \text{m}^3/\text{yil}. \qquad (2)$$

Suv sarfi foizdagi ulushi ushbuni tashkil etadi:

$$\frac{2240}{3800000+87600000}100\ \% = 0,002\ \%.$$

Yangi o'tkazgich quvurlarini gidravlik sinashda suv sarfi:

Yil davomida ushbu quvurlar yotqiziladi:

$d = 700$ mm, $L = 1500$ m;
$d = 400$ mm, $L = 250$ m;
$d = 200$ mm, $L = 1250$ m;
$d = 100$ mm, $L = 3000$ m;

a) mustahkamligini, zichligini sinash, dezinfektsiyalash uchun sarflanadigan suvning hajmi:

$$W_{i+T+dez} = 3 \times \frac{3,14}{4}(0,7^2 \times 1500 + 0,4^2 \times 250 + 0,2^2 \times 12500 +$$
$$+0,1^2 \times 3000) = 2014\ \text{m}^3/\text{yil} \qquad (2)$$

b) yuvishga ishlatiladigan suvning hajmi:

Quvur qismining diametri $d = 700$ mm, uzunligi 1500 m, chiqarib tashlash quvurining dimetri $d = 300$ m, quvurdagi bosim $N = 30$ m, yuvish vaqti 18 soat.

$$W_{yu} = 0,97 \times \frac{3,14 \times 0,3^2}{4} \sqrt{2 \times 9,8 \times 30 \times 3600 \times 18} = 107688 \text{ m}^3/\text{yil} \quad (3)$$

Quvur qismining diametri d=400 mm, uzunligi 250 m, chiqarib tashlash quvurining dimetri d=200 m, quvurdagi bosim N=30 m, yuvish vaqti 12 soat.

$$W_{yu} = 0,97 \times \frac{3,14 \times 0,2^2}{4} \sqrt{2 \times 9,8 \times 30 \times 3600 \times 12} = 31907 \text{ m}^3/\text{yil} \quad (3)$$

Quvur qismining diametri d = 200 mm, uzunligi 250 m, chiqarib tashlash quvurining dimetri d = 200 m, quvurdagi bosim N = 20 m, yuvish vaqti 9 soat.

$$W_{yu} = 0,97 \times \frac{3,14 \times 0,2^2}{4} \sqrt{2 \times 9,8 \times 20 \times 3600 \times 9} = 19539 \text{ m}^3/\text{yil} \quad (3)$$

Quvur qismining diametri d = 100 mm, uzunligi 6000 m, chiqarib tashlash quvurining dimetri d = 100 m, quvurdagi bosim N = 20 m, yuvish vaqti 12 soat.

$$W_{pr.} = 0,97 \times \frac{3,14 \times 0,1^2}{4} \sqrt{2 \times 9,8 \times 20 \times 3600 \times 12} = 6513 \text{ m}^3/\text{yil}.$$

Gidravlik sinovlarga sarflanadigan suvning umumiy hajmi ushbuga teng:

$$W_{umum} = 2014 + 107688 + 31907 + 19539 + 6513 = 167661 \text{ m}^3/\text{yil}.$$

Suv sarfi foizi quyidagini tashkil qiladi:

$$\frac{167661}{3800000+87600000} 100\ \% = 0,18\ \%.$$

Suv quvurlari va tarmoqlarida nosozlik yuz berganda suvning yo'qolishi

Yil mobaynida quyidagi nosozliklar yuz berdi:

d = 1200 bo'lgan suv quvurida; ta'mirlanadigan qismning uzunligi L = 3000 m, nosozlik tufayli paydo bo'lgan teshikning diametri d = 200 mm, suv quvuridagi bosim N = 45 m, chiqarib tashlash quvurining diametri 500 mm, suv sizishini to'xtatish vaqti 6 soat.

a) sizish hajmi ushbuni tashkil qiladi:

$$W_{siz} = 0,97 \times \frac{3,14 \times 0,2^2}{4} \sqrt{2 \times 9,8 \times 45 \times 3600 \times} = 19539 \text{ m}^3/\text{yil} \quad (3)$$

b) nosozlikdan so‘ng suv quvurini dezinfektsiyalash hajmi

$$W_{dez} = \frac{3,14 \times 1,2^2}{4} \times 3000 = 3391 \text{ m}^3/\text{soat} \quad (2)$$

v) dezinfektsiyalangandan keyin quvurni yuvish:

Chiqarib tashlash quvurining diametri $d = 500$ mm, yuvish vaqti 9 soat.

$$W_{pr.} = 0,97 \times \frac{3,14 \times 0,5^2}{4} \sqrt{2 \times 9,8 \times 45 \times 3600 \times 9} =$$

$$= 183182 \text{ m}^3/\text{yil}. \quad (3)$$

Diametri $d = 500$ mm bo‘lgan tarmoqda nosozlik yuz berib, quvur singan, ta’mirlanadigan qismning uzunligi 3500 m, tarmoqdagi bosim 25 m, nosozlikni tuzatishga 6 soat vaqt ketgan, chiqarib tashlash quvurining diametri $d = 200$ mm, yuvish vaqti 6 soat.

a) sizishda yo‘qoladigan suv hajmi:

$$W_{siz.} = 5358 \times 0,5^2 \times 6\sqrt{25} = 40185 \text{ m}^3/\text{yil}; \quad (5)$$

b) tarmoqni dezinfektsiyalashga suv sarfi hajmi:

$$W_{dez} = \frac{3,14 \times 0,5^2}{4} \times 3500 = 687 \text{ m}^3/\text{yil};$$

v) yuvishga ketgan suv sarfi hajmi

$$W_{yu} = 0,97 \times \frac{3,14 \times 0,2^2}{4} \sqrt{2 \times 9,8 \times 25 \times 3600 \times 6} = 14559 \text{ m}^3/\text{yil} \quad (3)$$

Diametri $d = 1000$ mm bo‘lgan suv quvurida nosozlik yuz berib, quvur singan, ta’mirlanadigan qismning uzunligi 3000 m, tarmoqdagi bosim 35 m, nosozlikni tuzatishga 6 soat vaqt ketgan, chiqarib tashlash quvurining diametri $d = 400$ mm, yuvish vaqti 6 soat.

a) sizishda yo‘qoladigan suv hajmi:

$$W_{siz.} = 5358 \times 1,0^2 \times 6\sqrt{35} = 190316 \text{ m}^3/\text{yil}; \quad (5)$$

b) tarmoqni dezinfektsiyalashga suv sarfi hajmi:

$$W_{dez} = \frac{3,14 \times 1,0^2}{4} \times 3000 = 2355 \text{ m}^3/\text{yil};$$

v) singan quvur tuzatilgandan keyin yuvishga va dezinfektsiyalashdan so'ng yuvishga suv sarfi hajmi

$$W_{yu} = 2 \times 0,97 \times \frac{3,14 \times 0,4^2}{4} \sqrt{2 \times 9,8 \times 35 \times 3600 \times 6} = 137894 \text{ m}^3/\text{yil}.$$

Diametri d = 1200 mm bo'lgan suv quvurida nosozlik yuz berib, quvur singan, ta'mirlanadigan qismning uzunligi 3000 m, tarmoqdagi bosim 45 m, nosozlikni tuzatishga 6 soat vaqt ketgan, chiqarib tashlash quvurining diametri d = 500 mm, yuvish vaqti 6 soat.

a) sizishda yo'qoladigan suv hajmi:

$$W_{siz.} = 383 \times 1,2^2 \times 6\sqrt{45} = 22204 \text{ m}^3/\text{yil}; \quad (5)$$

b) tarmoqni dezinfektsiyalashga suv sarfi hajmi:

$$W_{dez} = \frac{3,14 \times 1,2^2}{4} \times 3000 = 3391 \text{ m}^3/\text{yil};$$

v) tarmoqda yoriq berkitilgandan keyin uni yuvishga va dezinfektsiyalashdan so'ng yuvishga suv sarfi hajmi

$$W_{yu} = 2 \times 0,97 \times \frac{3,14 \times 0,5^2}{4} \sqrt{2 \times 9,8 \times 45 \times 3600 \times 6} =$$

$$= 244243 \text{ m}^3/\text{yil} \quad (3)$$

Nosozlik tufayli suvning umumiy yo'qolishi ushbuni tashkil qiladi:

$$W_{nos.} = 19539 + 3391 + 183182 + 40185 + 687 + 14559 + 190316 +$$

$$+2355 + 137894 + 22204 + 3391 + 244243 = 861946 \text{ m}^3/\text{yil}$$

Suvning yo'qolishi foizi quyidagiga teng:

$$\frac{861946}{3800000 + 87600000} 100\ \% = 0,94\ \%.$$

Ulanish choklarining nomustahkamligi va quvurlar materiallarining suvni o'tkazib yuborishi tufayli quvurlardan ruxsat etiladigan suv sizishi.

Suv quvurining diametri — 1200 mm;
Materiali — po'lat;
$Q_{r.e}$ = 1,6 *l*/min, km
Uzunligi — 6 km;
Suv sizishi hajmi:

$$W_{r.e} = \frac{65 \times 1{,}6 \times 60 \times 24 \times 6}{1000} = 5045{,}76 \text{ m}^3/\text{yil} \qquad (7a)$$

Shahar tarmog'i: diametri 800 mm, uzunligi 3 km, materiali — po'lat, $Q_{r.e}$ = 1,35 *l*/min, km

$$W_{r.e} = \frac{365 \times 1{,}35 \times 60 \times 24 \times 3}{1000} = 2128{,}68 \text{ m}^3/\text{yil}. \qquad (7a)$$

Nasos stantsiyalaridan foydalanishda suv sarfi:
Nasos podshipniklarini sovitish:
Bitta nasosga suv sarfi 0,1 l/sek.
Nasoslar soni n = 18 ta.
Nasoslarning ishlash vaqti T = 24 soat.

$$W_{sov} = \frac{3600 \times 0{,}1 \times 18 \times 24 \times 365}{1000} = 56765 \text{ m}^3/\text{yil} \qquad (14)$$

Suv sarfi foizi ushbuga teng:

$$\frac{56765}{3800000+87600000} 100\ \% = 0{,}06\ \%.$$

Xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning xo'jalik-maishiy ehtiyojlari.
Bir kishi hisobiga xo'jalik-ichimlik suvi iste'mol me'yori q_1 = 25 *l*/sut.
Dushdan foydalanuvchi bir kishi hisobiga suv iste'moli me'yori q_2 = 500 *l*/sut.
Xodimlar soni N_1 = 80 kishi.
Dushdan foydalanuvchilar soni N_2 = 25 kishi.

$$W_{x.m} = \frac{25 \times 80 + 500 \times 25}{1000} 365 = 5293 \text{ m}^3/\text{yil} \qquad (17)$$

Suv sarfi foizi quyidagini tashkil qiladi:

$$\frac{5293}{3800000+87600000} 100\ \% = 0{,}006\ \%.$$

Tayanch iboralar

Davlat standarti, suv ta'minoti quvuri, iste'moldagi sarflar, iste'moldagi yo'qolishlar, yer ostidan o'tkazilgan quvurlar, issiqlik energiyasi, me'yoriy issiqlik yo'qolishlari, texnologik suv sarfi, havoda o'tkazilgan quvurlar, suv ta'minoti tizimi, suv sarfi, issiqlik tashuvchi, yer yuzidagi manbalardan suv olish, yerosti manbalaridan suv olish, me'yor darajasidagi sizish, tannarxni arzonlashtirish, hisobga olinmagan suv sarfi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Suv ta'minoti korxonalari faoliyatiga texnologik sarflar va yo'qotishlar qanday ta'sir ko'rsatadi?

2. Suv ta'minoti tizimida texnologik sarflar va yo'qotishlar deganda nimani tushunasiz?

3. Suv ta'minoti tizimida texnologik sarflar va yo'qotishlarni hisoblash uslubi nima va u kim tomonidan tasdiqlangan?

4. Texnologik sarflar va yo'qotishlarni hisoblash mexanizmini gapirib bering?

5. Texnologik sarflar va yo'qotishlarni o'rganish monitoringi qanday tashkil etiladi?

6. Suv ta'minoti korxonalarida hisoblab topilgan texnologik sarflar va yo'qotishlar kim tomonidan nazorat qilinadi?

7. Issiqlik ta'minoti korxonalari faoliyatida texnologik sarflar va energiya yo'qotishlari deganda nima tushuniladi?

5-BO‘LIM. XUSUSIY UY-JOY MULKDORLARI SHIRKATLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

Bo‘limda keltirilgan mavzularni o‘zlashtirganlaridan so‘ng talabalarda:

— O‘zbekistonda xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining tashkil etilishi va rivojlanish tarixi.

— uy-joy fondi boshqaruvi tizimi;

— xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining tashkiliy-huquqiy asoslari va vazifalari;

— xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining moliyaviy-iqtisodiy faoliyati;

— uy-joy-kommunal xizmat ko‘rsatishda yagona buyurtmachi xizmati va professional boshqaruv kompaniyasining o‘rni va ahamiyati to‘g‘risida tushuncha va tasavvur hosil bo‘ladi.

Talabalar:

— uy-joy fondiga xizmat ko‘rsatishni tashkil etish;

— xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyatini yanada rivojlantirish va turar joylarga xizmatlar ko‘rsatish bozorini shakllantirish;

— uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish yo‘llari;

— uy-joy-kommunal xizmat ko‘rsatishda yagona buyurtmachi xizmati va professional boshqaruv kompaniyalari va ular faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida bilimga ega bo‘ladilar.

Talabalarda xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari va professional boshqaruv kompaniyalari faoliyatini tashkil etish va boshqarish to‘g‘risida malaka va ko‘nikma shakllanadi.

XIII BOB. XUSUSIY UY-JOY MULKDORLARI SHIRKATI UY-JOY FONDIGA XIZMAT KO'RSATISHNING MUKAMMAL SHAKLI

13.1. O'zbekistonda xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining tashkil etilishi va rivojlanish tarixi

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab respublikamizda davlat uy-joy fondining xususiylashtirilishi ko'p kvartirali uy-joylarda mulkchilik huquqining o'zgarishiga olib keldi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida davlatga tegishli bo'lgan uy-joy fondi xususiylashtirildi, ya'ni uyning yagona egasi — davlat — o'z huquqlarini sobiq kvartira ijarachilariga berdi va ular nafaqat o'z xonadonlarining egasiga, ayni paytda uydagi umumiy mulk egasiga aylandi.

Xususiylashtirish jarayonini tashkil etish va fuqarolarni ortiqcha ovoragarchiliklarsiz o'zlari ijarada turgan uy-joylarini xususiylashtirishlariga shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 1-martdagi 114-sonli Qarori bilan «O'zbekiston Respublikasidagi davlat uy-joy fondini xususiylashtirish, uni saqlash va undan foydalanish to'g'risidagi Nizom» ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. 1993-yil 7-mayda «O'zbekiston Respublikasida davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Mazkur Qonunga muvofiq davlat uy-joy fondini xususiylashtirish 1994-yilning may oyiga qadar deyarli to'liq yakunlandi. Shu davrda respublikadagi davlat ko'p xonadonli uy-joy fondining deyarli 98 %i xususiylashtirildi.

Mulkchilik munosabatlarining o'zgarishi muqarrar ravishda uy-joyni boshqarish va xizmat ko'rsatish tizimini o'zgartirish zaruratini keltirib chiqardi. Ma'muriy markazlashgan davlat tizimi o'rniga boshqaruvning yangi shakllarini tashkil etish va uy-joy

fondidan foydalanish hamda boshqarishning optimal variantlarini izlab topish asosiy masalalardan biriga aylandi.

Uy-joy fondi boshqaruvi tizimini o'zgartirishdan asosiy maqsad - yangi uy-joy mulkdorlariga mulklarini saqlash bo'yicha huquqlar, vazifalari va moliyaviy mas'uliyatini ularning zimmasiga yuklashdan iborat.

Xususiylashtirish va uy-joy fondi boshqaruvi tizimining xususiylashtirilishi va o'zgarishi sobiq sotsialistik lagerning barcha mamlakatlarida ham sodir bo'lgan. Ammo, O'zbekistonda ushbu jarayon o'ziga xos xususiyatlarga ega. Sobiq respublikalardan farqli ravishda bizning respublikamizda asosiy e'tibor aholini ijtimoiy himoyalashga qaratildi. Buning misoli sifatida xususiylashtirish jarayonida kam ta'minlangan, yolg'iz qariyalarga, cheklangan daromadga ega bo'lgan, davlat budjeti hisobidan moliyalashtiriladigan (ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at sohasidagi) korxonalarda ishlayotgan fuqarolarga uy-joylari hech qanday to'lovlarsiz amalga oshirilganini, kommunal xizmatlar va uy-joy fondini saqlash uchun to'lovlar miqdorini to'liq qiymatini yashovchilar tomonidan to'lashga asta-sekinlik bilan o'tilganini va bu xarajatlarga budjet hisobidan mablag' ajratish bosqichma-bosqich kamaytirib borilganini, kommunal to'lovlardan aholining ma'lum qatlamlari uchun imtiyozlar joriy etilganini keltirish mumkin.

To'qsoninchi yillarning oxiriga qadar uy-joy fondini boshqarishda turli boshqaruv mexanizmiga va mulkchilik shakllariga ega bo'lgan korxonalar tashkil etildi va uy-joy fondini boshqarishda ular faoliyati samaradorligi sinovdan o'tkazildi. Tajriba va sinovlar natijasi Respublikada ko'p kvartirali uy-joydan foydalanish va uni saqlashning samarali va maqbul shakli Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati (XUMSH) ekanligini ko'rsatdi. Hozirgi kunda ularning faoliyati O'zbekistonda har to'rtinchi kishi hamda shahar aholisining 70% dan ortig'iga o'z samarasini ko'rsatmoqda.

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati — bu yangi uy-joy mulkdorlarining ixtiyoriy birlashmasi bo'lib, amaliyotda uy-joy fondini boshqarishning eng maqbul shakli ekanligini isbotladi. O'zbe-

kistonda shirkatlar yaratilishi jarayoni tez sur'atlar bilan hamda salmoqli ma'muriy resurslarni jalb qilgan holda davom etdi:

— huquqiy asosga ega bo'lgan dastlabki uy-joy mulkdorlar shirkati 1999-yilning oxirida — aprel oyida O'zbekiston Respublikasining «Uy-joy mulkdorlari shirkati to'g'risida»gi qonun qabul qilinganidan so'ng paydo bo'ldi;

— 2000-yilning iyuniga kelib 360 ta uy-joy mulkdorlari shirkati tashkil etildi va ularga ko'p qavatli uy-joylarning 19,4 foizini boshqarish vazifasi topshirildi;

— 2002-yilning oxirida — 1388 ta uy-joy mulkdorlari shirkati paydo bo'ldi va ularga ko'p qavatli uy-joylarning 98,5 foizini boshqarish topshirildi.

— 2004-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra 1342 ta uy-joy mulkdorlari shirkati ro'yxatga olingan bo'lib, ularga 24630 ta ko'p qavatli uylar boshqaruvi topshirildi.

— 2006-yilnig 22-fevralida yangi tahrirdagi «Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi.

2006-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra respublikada xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining soni 2188 tani tashkil etgan bo'lsa, 2009-yil 1-yanvar holatiga ularning soni 4751 tani tashkil etdi. Bugungi kunda respublikada 4799 xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati faoliyat ko'rsatmoqda, har bir shirkat o'rtacha 6 ta ko'p qavatli uylarga xizmat ko'rsatmoqda. Masalan, Toshkent shahri, hamda Farg'ona va Namangan viloyatlarida bitta shirkatning boshqaruvida o'rtacha 4 ta ko'p qavatli uy va o'rtacha 138-186 ta xonadon bo'lsa, Andijon, Toshkent va Samarqand viloyatlarida 7-8 ta uy va 238-244 ta xonadon, Qaraqolpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida 9 ta uy va 209-215 ta xonadon, Buxoro viloyatida 10 ta uy va 323 ta xonadon, Sirdaryo viloyatida 15 ta uy va 329 ta xonadon to'g'ri kelmoqda. Hozirgi kunda, respublikamizda 1,5 mingdan ortiq bir uyga xizmat ko'rsatuvchi shirkatlar faoliyat ko'rsatmoqda. Respublikamizda uy-joy mulkdorlari shirkatlariga uyushgan ko'p qavatli uylarning umumiy soni 2006-yilda 26548 tani tashkil etgan bo'lsa, 2007-yil 1-may holatiga ko'ra ularning soni 28792 taga etdi. 2009-yil 1-yanvar holatiga kelib esa bu ko'rsatkich 27801 tani tashkil etgan (13.1-jadval).

Ta'mirlash ishlarida boshqaruv kompaniyalar tuzish va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 29-yanvardagi PP-1051 farmoniga asosan maxsus ta'mirlash-qurilish tashkilotlari tuzish ishlari jadal rivojlanmoqda.

Hozirgi kunda, respublika bo'yicha 372 ta boshqaruv kompaniyalari, 254 ta xizmat ko'satuvchi (uy-joyni ta'mirlash va ekspluatatsiya bo'yicha servis) tashkilotlar hamda 216 ta avariya-dispetcherlik xizmati faoliyat ko'rsatmoda. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining faoliyatini muvofiqlashtirish va amaliy yordam ko'rsatish maqsadida joylarda 57 ta xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari uyushmalari tashkil etildi. Uyushmalar tarkibiga kirgan xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqa xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning umumiy soni 4474 ta, shundan 4161 ta xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlaridir. Uyushmalarga zarur xonalar ajratilib, kerakli jihozlar va asbob-anjomlar bilan ta'minlangan. Ularga ajratilgan noturar joylarning umumiy maydoni 8978,4 m² tashkil etadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan uy-joy mulkdorlari shirkatlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida shirkatlarga 2009-yil davomida shirkatlar va shirkatlar uyushmalariga jami 79,04 mln.so'm miqdorida homiylar mablag'lari, 17,2 mln. so'm mahalliy budjetdan mablag'lar ajratildi. Shuningdek, asbob-uskuna, transport vositasi va jihoz sifatida 192,4 mln. so'mlik moddiy-texnik vositalari va 46,9 ming m² noturar joylar ajratildi.

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari to'g'risidagi Qonunning yangi tahriri chiqqandan so'ng respublikada shirkatlar a'zolari ishtirokida jami 3871 ta umumiy yig'ilishlar o'tkazilgan va qonunning yangi tahriridagi o'zgartirishlar, maqbul shirkatlarni tashkil etish borasida tushuntirishlar olib borilgan. Olib borilgan ishlar natijasida respublikada bitta uyga bitta shirkat bo'lgan shirkatlarning soni Respublikada 1530 tani, xuddi shunday ikkita uy bitta shirkatga uyushganlar 604 ta, 3 ta uylik shirkatlar 841 tani tashkil etdi. Qolgan shirkatlarda esa 4 ta va undan ko'p uylar birlashgan.

13.1-jadval

XUJMSHlar tasarrufidagi 27 801 ta ko'p qavatli uylarning 2009-yil 1-yanvar holatiga ko'ra tarkibi

	Hududlar nomi	Mavjud ko'p qavatli uylar soni	Shu jumladan XUJMSHlar boshqaruvidagi uy-joylar soni	XUJMSH soni	Jumladan						Bitta XUJMSH boshqaruvidagi o'rtacha uylar soni	XUJMSH-lar boshqaruvidagi barcha xonadonlar soni	jumladan bitta XUJMSH boshqaruvidagi o'rtacha xonadonlar soni
					1 uyli XUJMSH	2 uyli XUJMSH	3 uyli XUJMSH	4 uyli XUJMSH	5 uyli XUJMSH	6 uyli XUJMSH va undan ortiq			
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	1025	990	110	8	5	3	7	6	81	9	23635	215
2	Andijon viloyati	1426	1182	143	15	10	12	6	17	83	8	34451	241
3	Buxoro viloyati	1257	1249	120	23	2	8	1	3	83	10	38723	323
4	Jizzax viloyati	1130	1130	103	3	5	12	4	12	67	11	20840	202
5	Qashqadaryo viloyati	1722	1516	121	0	2	5	19	62	33	13	31769	263
6	Navoiy viloyati	569	569	25	5	1	0	1	2	16	23	6644	266
7	Namangan viloyati	1008	960	217	48	29	17	31	55	37	4	30827	142
8	Samarqand viloyati	1459	1346	207	31	15	18	19	38	86	7	49369	238
9	Surxondaryo viloyati	998	998	79	0	1	0	15	21	42	13	19077	241
10	Sirdaryo viloyati	1192	1192	77	14	2	3	4	7	47	15	25332	329
11	Toshkent viloyati	4561	3847	516	176	37	17	33	27	226	7	125999	244
12	Farg'ona viloyati	2724	2714	648	319	89	64	50	41	85	4	89117	138
12	Xorazm viloyati	1047	1047	111	17	0	14	9	8	63	9	23180	209
13	Toshkent shahri	9061	9061	2274	841	284	269	258	266	356	4	423881	186
	O'zbekiston Respublikasi	29179	27801	4751	1500	482	442	457	565	1305	6	942844	198

13.2. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining tashkiliy-huquqiy asoslari va vazifalari

Xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkati ko'p kvartirali bitta yoki yaqin, zich joylashgan, obodonlashtirish elementlari bo'lgan umumiy yer uchastkasi bilan qamrab olingan bir nechta uydagi xususiy turar joylar mulkdorlarining birlashmasidir. Shirkat xususiy turar joylar mulkdorlarining tashabbusi bilan tashkil etiladi, u notijorat tashkilot bo'lib, o'z ustaviga muvofiq o'zini o'zi boshqarish asosida faoliyat ko'rsatadi.

Shirkat o'z majburiyatlari bo'yicha o'ziga qarashli barcha mol-mulk bilan javob beradi va o'z a'zolarining majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi. Shirkat a'zosi shirkatning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi.

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkat uy-joy fondini birgalikda boshqarish va uni saqlash, asrash va ta'mirlashni, ko'p kvartirali uydagi turar joylar mulkdorlarining umumiy mol-mulkidan foydalanilishini ta'minlash uchun tashkil etiladi.

Shirkatning faoliyati quyidagi printsiplarga asoslanadi:

— ixtiyoriylik;

— tashkiliy va moliyaviy jihatdan mustaqillik;

— o'zini o'zi boshqarish;

— ochiqlik va oshkoralik;

— o'z ishini bozor mexanizmlariga muvofiq shartnoma asosida tashkil etish;

— kommunal xizmatlar va ta'mirlash xizmatlari bozoridagi raqobat;

— uy-joy mulkdorlari oldida muntazam hisobot berish.

Ko'p kvartirali uydagi turar joyga nisbatan mulk huquqiga ega bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs ko'p kvartirali uydagi turar joy mulkdoridir.

Joy mulkdori umumiy mol-mulkka nisbatan ulushli mulk ishtirokchisidir. Ko'p kvartirali uydagi yashash uchun mo'ljallanmagan joyga nisbatan mulk huquqiga ega bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs ko'p kvartirali uydagi yashash uchun mo'ljallanmagan joy mulkdoridir. Yashash uchun mo'ljallanmagan joy

mulkdori umumiy mol-mulkka nisbatan ulushli mulk ishtirokchisidir.

Ko'p kvartirali uydagi yashash uchun mo'ljallanmagan joy mulkdori umumiy mol-mulkni saqlash va ta'mirlash bo'yicha umumiy xarajatlarni birgalikda zimmasiga olishi shart. Yashash uchun mo'ljallanmagan joy mulkdorining umumiy xarajatlardagi ishtiroki ulushi uyning umumiy maydonidagi mulkdorga qarashli yashash uchun mo'ljallanmagan joy maydoniga mutanosib ravishda belgilanadi.

Shirkatning ko'p kvartirali uydagi yashash uchun mo'ljallanmagan joy mulkdori bilan munosabatlari ular o'rtasida majburiy tartibda tuziladigan shartnoma bilan tartibga solinadi. Ko'p kvartirali uydagi yashash uchun mo'ljallanmagan joy mulkdori shartnoma tuzishdan bo'yin tovlagan takdirda, shirkat shartnoma tuzishga majburlash to'g'risidagi talab bilan sudga murojaat etishga haqli.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining shirkatlar bilan o'zaro munosabatlari shirkatning o'z faoliyatini mustaqil amalga oshiruvchi, uy-joy mulkdorlari o'zini o'zi boshqarishining haqiqiy instituti sifatidagi maqomidan kelib chiqib, ortiqcha yo'l-yo'riqlar ko'rsatmagan holda tashkil etiladi. Shirkatlar hududlarni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarining tashkil etilishi, ko'p kvartirali uylarda yashovchilarning uy-joy fondida yashash qoidalariga rioya etishi masalalari hamda birgalikda hal etishni talab qiladigan boshqa masalalarda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlik qiladi.

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlar o'z faoliyatini muvofiqlashtirib borish, tajriba almashish, umumiy manfaatlarini ifodalash va himoya qilish, shirkatlarning davlat hokimiyati organlari bilan o'zaro hamkorligini ta'minlash hamda faoliyatining boshqa umumiy masalalarini hal etish maqsadida uyushmalarga (ittifoqlarga) birlashishga haqlidir. Ko'p kvartirali uylarni boshqarish, ularga xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlash bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar ham shirkatlarning uyushmalariga (ittifoqlariga) kirishi mumkin.

Shirkatni tashkil etish to‘g‘risidagi qaror ko‘p kvartirali bitta yoki yaqin, zich joylashgan bir nechta uydagi joylar mulkdorlarining ko‘p kvartirali har bir uydagi barcha joy mulkdorlarining yoki ular vakillarining ellik foizidan ko‘pi hozir bo‘lgan umumiy yig‘ilishida qabul qilinadi. Joy mulkdorlarining umumiy yig‘ilishi istalgan joy mulkdorining tashabbusi bilan chaqiriladi.

Shirkatni tashkil etish to‘g‘risidagi qaror, agar barcha joy mulkdorlarining ellik foizidan ko‘pi uni yoqlab ovoz bergan bo‘lsa, qabul qilingan hisoblanadi. Ko‘p kvartirali yaqin, zich joylashgan bir nechta uydagi joy mulkdorlarini birlashtiradigan shirkat tashkil etilayotganda ana shu uylarning har biridagi joy mulkdorlarining ellik foizidan ko‘pining roziligi olingan bo‘lishi kerak. Joy mulkdorlarining umumiy yig‘ilishga yozma shaklda berilgan ovozlari, agar unda shirkatni tashkil etish masalasi bo‘yicha mulkdorning qarori va unga qarashli joy manzili ko‘rsatilgan bo‘lsa, hisobga olinishiga yo‘l qo‘yiladi.

Shirkatni tashkil etish to‘g‘risidagi qaror ko‘p kvartirali uydagi barcha joy mulkdorlari uchun majburiydir. Joy mulkdorlarining tashkiliy umumiy yig‘ilishi, qoida tariqasida, quyidagi kun tartibi bilan o‘tkaziladi:

— shirkatni tashkil etish to‘g‘risida;

— shirkatning ustavini tasdiqlash to‘g‘risida;

— shirkat boshqaruvi raisi va a’zolarini saylash to‘g‘risida;

— shirkatning taftish komissiyasini saylash to‘g‘risida.

Joy mulkdorlarining tashkiliy umumiy yig‘ilishida shirkatni tashkil etish bilan bog‘liq boshqa masalalar ham ko‘rib chiqilishi mumkin. Joy mulkdorlari tashkiliy umumiy yig‘ilishining ovoz berish natijalari hamda yozma shaklda berilgan ovozlar soni ko‘rsatilgan bayonnomasini yig‘ilish raisi va kotibi imzolaydi.

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining ustavida quyidagilar bo‘lishi kerak:

— shirkatning to‘liq nomi, faoliyatining sohasi va maqsadi, joylashgan yeri (pochta manzili);

— joy mulkdorlari shirkatga birlashgan ko‘p kvartirali uyning (uylarning) manzili;

— shirkatning huquq va majburiyatlari;

— shirkat a'zolarining huquq va majburiyatlari;

— majburiy badallarning mikdorlarini belgilash va shirkat a'zolari tomonidan ularni to'lash tartibi;

— umumiy mol-mulkni, shirkatning yer uchastkasini va mol-mulkini hamda boshqa faoliyatini boshqarish tartibi;

— shirkatning boshqarish organlari va taftish komissiyasining miqdor tarkibi hamda saylanish muddati to'g'risidagi ma'lumotlar, ularning vakolatlari, qarorlar qabul qilish tartibi.

Shirkat ustavida shirkat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan, qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa qoidalar ham bo'lishi mumkin. Shirkatning namunaviy ustavi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Shirkat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi.

Joy mulkdorlari — yuridik va jismoniy shaxslar shirkat a'zolari bo'ladi. Joy boshqa shaxsga berilgan taqdirda, uning mulkdori — shirkat a'zosi yangi mulkdorni o'zining shirkat a'zosi ekanligi hamda shirkat ustavida belgilangan huquq va majburiyatlarga egaligi, bu huquq va majburiyatlar yangi mulkdorga o'tishi haqida xabardor qilib qo'yishi shart.

Shirkat tashkil etilgan uydan joy olgan shaxslar o'zlarida shu joyga nisbatan mulk huquqi vujudga kelgan paytdan e'tiboran shirkat a'zosi bo'ladi. Shirkatga a'zolik quyidagi hollarda tugatiladi:

— joyga bo'lgan mulk huquqi bekor qilinganda;

— ayrim ko'p kvartirali uydagi joy mulkdorlarining ko'pchiligi tomonidan shirkatdan chiqish to'g'risida qaror qabul qilinganda;

— shirkat tugatilganda.

Shirkat quyidagi huquqlarga ega:

— umumiy mol-mulkni, shirkatning yer uchastkasini va mol-mulkini saqlash usulini belgilash;

— shirkatning yillik daromadlar va xarajatlar smetasini belgilash;

— shirkat a'zolarining majburiy badallari miqdorlarini belgilash;

— umumiy mol-mulkni va shirkatning mol-mulkini boshqarish, ularga xizmat ko'rsatish hamda ularni ta'mirlash, shuningdek kommunal va boshqa xizmatlar ko'rsatish uchun yuridik hamda

jismoniy shaxslar bilan tanlov asosida qonun hujjatlariga muvofiq shartnomalar tuzish;

— umumiy mol-mulkdan, shirkatning yer uchastkasidan va mol-mulkidan foydalanish qoidalarini ustavda nazarda tutilgan tartibda belgilash;

— banklarning kreditlaridan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va shartlarda foydalanish;

—, o'z mol-mulkini, shu jumladan aylanma mablag'larini qonun hujjatlariga muvofiq mustaqil tasarruf etish;

— yer uchastkalarini doimiy foydalanish uchun belgilangan tartibda olish;

— yer uchastkasida shaharsozlik normalari va qoidalariga muvofiq xo'jalik binolari va boshqa imoratlar qurish;

— mulkdorning joyi ichidagi umumiy mol-mulkning holatini nazorat qilish, unga xizmat ko'rsatish va uni ta'mirlash maqsadida mulkdorni oldindan xabardor qilgach, mulkdorning joyiga uning borligida kirish yoki avariya yuz bergan taqdirda belgilangan tartibda darhol kirish;

— qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mol-mulk olish, shirkatning mol-mulkini sotish, topshirish, ayirboshlash, ijaraga berish, balansdan chegirib tashlash;

— shirkat a'zolariga ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish;

— qonun xujjatlariga muvofiq o'z ustav maqsadlariga mos keladigan doiralarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish;

— mablag'lari shirkat ustavida nazarda tutilgan maqsadlarga sarflanadigan maxsus fondlarni tashkil etish.

Shirkat umumiy mol-mulkni asrashni ta'minlash maqsadida mulkdorlarning joylarini belgilangan tartibda qayta qurish, o'zgartirish, qayta jihozlashni kelishib olishni amalga oshiradi. Shirkat qonun xujjatlariga va shirkatning ustaviga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin. Shirkat:

— umumiy mol-mulk, shirkatning yer uchastkasi va mol-mulki belgilangan qoidalar, normalar hamda standartlarga muvofiq asralishi va saqlanishini ta'minlashi;

— shirkat a'zolari umumiy yig'ilishining va joy mulkdorlari yig'ilishlarining qarorlari bajarilishini ta'minlashi;

— majburiy badallar va to'lovlar o'z vaqtida kelib tushishini ta'minlashi;

— har yili umumiy mol-mulkni saqlash ishlari rejasini, shu jumladan ko'p kvartirali har bir uy uchun shunday rejani belgilashi va uning ijrosiga doir hisobot tuzishi;

— har yili shirkatning daromadlar va xarajatlar smetasi hamda uning ijrosiga doir hisobot tuzishi, shu jumladan ko'p kvartirali har bir uy bo'yicha shunday smeta va hisobot tuzishi;

— umumiy mol-mulkdan foydalanish shartlari va tartibi belgilanayotganda barcha shirkat a'zolarining huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlashi;

— qonun xujjatlarida va shirkat ustavida nazarda tutilgan hollarda, uchinchi shaxslar bilan umumiy mol-mulkni saqlash, unga egalik qilish hamda undan foydalanish, kommunal xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq munosabatlarda shirkat a'zolarining manfaatlarini ifodalashi shart.

Shirkatni qayta tashkil etish qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish va ajratib chiqarish shaklida amalga oshirilishi mumkin. Shirkatni qayta tashkil etish shirkat a'zolari umumiy yig'ilishining shirkat a'zolarining ellik foizidan ko'p ovozi bilan qabul qilgan qaroriga binoan amalga oshiriladi. Qayta tashkil etilayotgan shirkatning mol-mulkini ajratib yoki bo'lib berish shirkat a'zolarining shirkat mol-mulkini shakllantirishdagi ishtirokiga mutanosib tarzda amalga oshiriladi. Shirkat qayta tashkil etilayotganda umumiy mol-mulkka taalluqli texnik va boshqa hujjatlarni qabul qilib olish-topshirish amalga oshiriladi. Shirkatni tugatish qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda amalga oshiriladi.

Shirkat tugatilayotganda shirkatning kreditorlar talablari qanoatlantirilganidan keyin qolgan mol-mulki shirkat a'zolari o'rtasida shirkat a'zolarining shirkat mol-mulkini shakllantirishdagi ishtirokiga mutanosib tarzda taqsimlanadi.

Shirkat a'zolarining umumiy yig'ilishi va shirkat boshqaruvi shirkatning boshqarish organlaridir.

Shirkat a'zolarining umumiy yig'ilishi shirkatning oliy organidir. Boshqaruv shirkatning ijro etuvchi organi bo'lib, shirkat

a'zolarining umumiy yig'ilishiga hisobot berishi shart. Shirkat a'zolari umumiy yig'ilishining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

— shirkat ustavini tasdiqlash hamda unga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;

— shirkatning boshqaruvini, boshqaruv raisini va taftish komissiyasini saylash hamda ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

— umumiy mol-mulkni va shirkat mol-mulkini boshqarish, ularga xizmat ko'rsatish va ularning ta'mirlash usulini tanlash;

— umumiy mol-mulkni, shirkatning yer uchastkasini va mol-mulkini saqlash ishlarining yillik rejasini hamda uning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tasdiqlash;

— shirkatning yillik daromadlar va xarajatlar smetasini hamda uning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tasdiqlash;

— shirkat a'zolari majburiy badallarining miqdorini tasdiqlash;

— boshqaruvchilikka (ijrochi direktorlikka) nomzodni yoki boshqaruvchi tashkilotni tasdiqlash;

— shirkat boshqaruvi raisiga, a'zolariga va taftish komissiyasi a'zolariga to'lanadigan haq miqdorini belgilash;

— shirkat xodimlarining, shu jumladan boshqaruvchining (ijrochi direktorning) ish haqi miqdorini va ularni taqdirlash to'g'risidagi nizomni tasdiqlash;

— shirkatning maxsus fondlarini tuzish va ulardan mablag'lar sarflash tartibini belgilash;

— umumiy mol-mulkdan, shirkatning yer uchastkasidan va mol-mulkidan foydalanish qoidalarini belgilash;

— shirkat a'zolarining shirkat boshqaruvi raisi, a'zolari hamda taftish komissiyasi faoliyatiga taalluqli ariza va shikoyatlarini ko'rib chiqish;

— ko'p kvartirali uydagi joylarni qayta qurish, o'zgartirish va qayta jihozlashni kelishib olish tartibini belgilash;

— umumiy mol-mulkni ijaraga berish to'g'risida qarorlar qabul qilish;

— xo'jalik binolari va boshqa binolarni qurish to'g'risida qarorlar qabul qilish;

— qarz mablag'lari olish, shu jumladan bank kreditlari olish, shuningdek bitta uydagi joy mulkdorlarining mablag'larini shirkatdagi boshqa uyning ehtiyojlari uchun olib turish (qayta taqsimlash) to'g'risida qaror qabul qilish;

— shirkatning tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromaddan (foydadan) foydalanish yo'nalishlarini belgilash;

— shirkatlarning uyushmalariga (ittifoqlariga) va boshqa birlashmalarga kirish hamda ulardan chiqish to'g'risida qarorlar qabul qilish;

— shirkatni qayta tashkil etish va tugatish to'g'risida qarorlar qabul qilish;

— boshqaruv raisi va boshqaruvchi (ijrochi direktor) shirkat a'zolarining xuquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etmagan taqdirda, mahalliy davlat hokimiyati organining boshqaruv raisini chaqirib olish hamda boshqaruvchi (ijrochi direktori)ni lavozimidan ozod qilish to'g'risidagi takliflarini, shuningdek ana shu lavozimlarga nomzodlar bo'yicha tavsiyalarini ko'rib chiqish.

Shirkat a'zolarining umumiy yig'ilishi yiliga kamida bir marta shirkat ustavida belgilangan tartibda chaqiriladi. Shirkat a'zolarining har yilgi umumiy yig'ilishi moliya yili tugaganidan keyin oltmish kundan kechiktirmay chaqiriladi. Shirkat a'zolarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi boshqaruvning, shirkatda kamida o'n foiz ovozga ega bo'lgan shirkat a'zolarining tashabbusiga, shuningdek taftish komissiyasining talabiga binoan chaqirilishi mumkin. Shirkat qonun hujjatlarining buzilishiga yo'l qo'ygan taqdirda shirkat a'zolarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan chaqirilishi mumkin.

Shirkat a'zolarining umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan joy, sana, vaqt, yig'ilish kun tartibi haqida shirkat a'zolarini xabardor qilish shirkat ustavida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Agar, shirkat a'zolarining umumiy yig'ilishi kun tartibiga umumiy mol-mulkni saqlash ishlarining rejalarini, daromadlar va xarajatlar smetalarini, ularning ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni, majburiy badallar miqdorlarini ko'rib chiqish hamda tasdiqlash kiritilgan bo'lsa, shirkat boshqaruvi umumiy yig'ilish o'tkazilguniga qadar shirkat a'zolariga mazkur hujjatlarning loyihalari bilan tanishib chiqish

imkoniyatini ta'minlashi shart. Bunday tanishish tartibi shirkatning ustavida belgilanadi.

Shirkat a'zolarining umumiy yig'ilishi, agar yig'ilishda shirkat a'zolarining yoki ular vakillarining ellik foizidan ko'prog'i hozir bo'lsa, vakolatli hisoblanadi. Bittadan ortiq uydagi joy mulkdorlarini birlashtirgan shirkatlardagi yig'ilishda ko'p kvartirali har bir uydagi joy mulkdorlarining yoki ular vakillarining kamida ellik foizi hozir bo'lishi kerak. Shirkat a'zolarining umumiy yig'ilishini oddiy ko'pchilik ovoz bilan saylanadigan yig'ilish raisi olib boradi.

Shirkatning har bir a'zosi umumiy yig'ilishda bir ovozga ega bo'ladi. Shirkat a'zolarining umumiy yig'ilishi bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnoma yig'ilish raisi va kotibi tomonidan imzolanadi. Shirkat a'zolari umumiy yig'ilishining vakolatiga kiritilgan masalalar bo'yicha qaror, agar shirkat a'zolarining ellik foizidan ko'pi uni yoqlab ovoz bergan bo'lsa, qabul qilingan hisoblanadi. Qaror qabul qilinayotganda yig'ilish kun tartibidagi masalalar bo'yicha shirkat a'zosining qarori ko'rsatilgan va imzosi qo'yilgan holda yig'ilishga yozma shaklda berilgan shirkat a'zolarining ovozlari hisobga olinishi shirkat ustavida belgilab qo'yilishi mumkin.

Shirkat a'zolarining umumiy yig'ilishida qabul qilingan qaror shirkatning barcha a'zolari uchun majburiydir. Shirkat boshqaruvi shirkatning joriy faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi. Shirkat boshqaruvi shirkat a'zolari orasidan shirkat ustavida belgilangan tarkibda va muddatga umumiy yig'ilish tomonidan saylanadi. Shirkat boshqaruvi shirkat boshqaruvi raisi tomonidan shirkat ustavida belgilangan muddatlarda, lekin oyiga kamida bir marta chaqiriladi. Shirkat boshqaruvining majlisi unda boshqaruv a'zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirda vakolatli deb topiladi. Shirkat boshqaruvining a'zosi boshqaruv majlisida bir ovozga ega bo'ladi va uning qarorlari boshqaruv a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Shirkat boshqaruvi shirkat faoliyatining barcha masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilishga haqli, shirkat a'zolarining umumiy yig'ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

Shirkat boshqaruvining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

— shirkat a'zolarining umumiy yig'ilishini hamda joy mulkdorlari yig'ilishini chaqirish va ularning o'tkazilishini tashkil etish;

— umumiy mol-mulkni, shirkatning yer uchastkasini va mol-mulkini saqlash ishlari rejasining loyihasini hamda uning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tuzish;

— shirkatning yillik daromadlar va xarajatlar smetasi loyihasini hamda uning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tuzish;

— shirkat ustavi talablarining va shirkat a'zolari umumiy yig'ilishi qarorlarining bajarilishini ta'minlash;

— boshqaruvchilikka (ijrochi direktorlikka) nomzodlarning yoki boshqaruvchi tashkilotning tanlov asosida tanlab olinishini tashkil etish;

— pudratchilarni tanlov asosida tanlagan holda umumiy mol-mulkka, shirkatning mol-mulkiga xizmat ko'rsatish hamda ularni ta'mirlash uchun buyurtmachi vazifalarini bajarish;

— tanlov g'olibi bilan umumiy mol-mulkni va shirkat mol-mulkini boshqarish, ularga xizmat ko'rsatish hamda ularni ta'mirlash uchun shartnomalar tuzish;

— umumiy mol-mulk, shirkatning yer uchastkasi va mol-mulki asralishi va saqlanishi ustidan nazorat qilish;

— uskunalar, asbob-anjomlar va boshqa moddiy boyliklarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda olish, ularni sotish, topshirish, ayirboshlash, ijaraga berish, shuningdek ularni shirkatning balansidan chegirib tashlash to'g'risida qarorlar qabul qilish;

— ichki mehnat tartibi qoidalarini tasdiqlash;

— shirkat a'zolarining ariza va shikoyatlarini ko'rib chiqish;

— ish yuritish, buxgalteriya hisobi va hisobotini, mablag'lar tushumi hamda ularni sarflash hisobini shirkatdagi ko'p kvartirali har bir uy bo'yicha alohida-alohida yuritish;

— shirkat a'zolari belgilangan majburiy badallar va to'lovlarni o'z vaqtida to'lashlari ustidan nazorat qilish hamda qarzdorlikni tugatish choralarini ko'rish;

— shirkatning mablag'larini shirkat a'zolarining umumiy yig'ilishi tasdiqlagan shirkat daromadlari va xarajatlari smetasiga muvofiq tasarruf etish.

Shirkat boshqaruvi qonun hujjatlariga va shirkat ustaviga muvofiq boshqa vakolatlarga ham ega bo'lishi mumkin. Shirkat a'zolari umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra shirkat boshqaruvining ayrim vakolatlari shartnomaga binoan boshqaruvchiga (ijrochi direktorga) yoki boshqaruvchi tashkilotga o'tkazilishi mumkin.

Shirkat boshqaruvi:

— uy-joy fondiga xizmat ko'rsatish va uni ta'mirlash ishlari tanlov asosida tuzilgan shartnomalarga muvofiq tashkil etilishi;

— muhandislik tarmoqlari va boshqa umumiy mol-mulkka talab darajasida xizmat ko'rsatilishi ta'minlanishi;

— ta'mirlash ishlarining belgilangan normalar va talablarga muvofiq sifatli bo'lishi hamda o'z vaqtida bajarilishi;

— shirkatning mablag'laridan uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash uchun maqsadli foydalanilishi mumkin.

Yer uchastkasining sanitariya holati talab darajasida bo'lishi, obodonlashtirilishi va sug'orish tarmog'ining saqlanishi uchun shirkat a'zolari oldida javobgardir.

Shirkat boshqaruvi umumiy mol-mulkni saqlash ishlari rejalarining bajarilishi, amalga oshirilgan hamda rejalashtirilayotgan xarajatlar, majburiy badallar va to'lovlarning yig'imi, tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar (foyda) haqida shirkat a'zolari oldida muntazam ravishda, uch oyda kamida bir marta hisobot beradi. Hisobot taqdim etish shakli shirkatning barcha a'zolari uchun hisobotdan foydalanish erkinligini ta'minlashi kerak va u shirkat a'zolarining umumiy yig'ilishi qarori bilan belgilanadi. Shirkat boshqaruvi raisi umumiy yig'ilish tomonidan shirkat a'zolari orasidan shirkat Ustavida belgilangan muddatga saylanadi.

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining boshqaruvi raisi:

— shirkat boshqaruvi faoliyatiga rahbarlik qiladi;

— shirkatning manfaatlarini ifodalaydi;

— shirkat a'zolari umumiy yig'ilishining va shirkat boshqaruvining qarorlari bajarilishini ta'minlaydi;

— shirkat a'zolari umumiy yig'ilishining yoki shirkat boshqaruvining qarorlariga muvofiq moliyaviy hujjatlarni, shartnomalarni imzolaydi;

— umumiy mol-mulkni va shirkatning mol-mulkini boshqarish, ularga xizmat ko'rsatish hamda ularni ta'mirlash usullari bo'yicha, boshqaruvchilikka (ijrochi direktorlikka) nomzod yoki boshqaruvchi tashkilot bo'yicha boshqaruv tomonidan tayyorlangan takliflarni shirkat a'zolarining umumiy yig'ilishi muhokamasiga kiritadi;

— shirkat xodimlarining ish haqi miqdori va ularni taqdirlash to'g'risidagi nizom, shirkatning boshqa nizomlari va qoidalari yuzasidan takliflarni shirkat a'zolarining umumiy yig'ilishi muhokamasiga kiritadi;

— qonun hujjatlariga va ichki mehnat tartibi qoidalariga muvofiq shirkat xodimlari bilan mehnat shartnomalari tuzadi hamda ularni bekor qiladi.

Shirkat taftish komissiyasi shirkat a'zolarining umumiy yig'ilishi tomonidan shirkat a'zolari orasidan kamida uch kishidan iborat tarkibda ko'pi bilan ikki yil muddatga saylanadi. Shirkat taftish komissiyasi a'zolari bir vaqtning o'zida shirkat boshqaruvining a'zolari bo'lishi mumkin emas. Shirkat taftish komissiyasi shirkat a'zolarining umumiy yig'ilishiga hisobdordir. Shirkat taftish komissiyasi shirkatning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshiradi. Shirkat taftish komissiyasi shirkat a'zolarining umumiy yig'ilishiga shirkatning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalari to'g'risida har yili hisobot taqdim etishi shart.

Shirkat taftish komissiyasining shirkatning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalari to'g'risidagi hisoboti shirkat a'zolarining umumiy yig'ilishida ko'rib chiqilguniga qadar uchinchi shaxslarga berilishi mumkin emas. Shuningdek, shirkat a'zolarining umumiy yig'ilishi shirkatning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish uchun belgilangan tartibda auditorlik tashkilotini jalb etishi mumkin.

Ko'p kvartirali uyning umumiy joylari, tayanch va to'siq konstruktsiyalar, kvartiralar oralig'idagi ihotalangan (o'ralma) pillapoyalar, zinapoyalar, liftlar, liftning shaxtalari va boshqa

shaxtalar, dahlizlar, texnik qavatlar, yerto'lalar, cherdaklar va tomlar, uy ichidagi muhandislik tarmoqlari va kommunikatsiyalari, joylar tashqarisida yoki ichida joylashgan va bittadan ortiq joyga xizmat ko'rsatadigan mexanik, elektr, sanitariya-texnika uskunalari va qurilmalari hamda boshqa uskunalar va qurilmalar umumiy mol-mulk hisoblanadi.

Umumiy mol-mulk joy mulkdorlariga umumiy ulushli mulk huquqi asosida tegishli bo'ladi. Umumiy mol-mulkdan foydalanish huquqi joy mulkdorining umumiy mol-mulkka bo'lgan mulk huquqidagi ulushiga bog'liq emas. Umumiy mol-mulkning ayrim qismlari shirkat a'zolarining umumiy yig'ilishi belgilagan tartibda shirkat a'zolariga yoki boshqa shaxslarga foydalanishga berilishi mumkin. Umumiy mol-mulkning ayrim qismlaridan faqat o'z manfaatlari uchun foydalanuvchi shirkat a'zosi shirkat a'zolarining umumiy yig'ilishi belgilagan miqdorda shirkatga haq to'lashi shart. Joy mulkdorining umumiy mol-mulkdagi ulushi asl holida ajratib berilishi mumkin emas.

Joy mulkdorlari umumiy mol-mulkni saqlash bo'yicha umumiy xarajatlarni birgalikda zimmalariga olishlari shart. Umumiy xarajatlar shirkat a'zolarining umumiy mol-mulkni, shirkatning yer uchastkasini va mol-mulkini saqlash bilan bog'liq xarajatlaridir.

Joy mulkdorining umumiy xarajatlardagi ishtiroki ulushi uyning umumiy maydonidagi mulkdorga qarashli joy maydoniga mutanosib ravishda belgilanadi. Shirkat a'zolari umumiy xarajatlarni qoplash uchun har oyda, qoida tariqasida, pul shaklida majburiy badallar to'laydilar. Shirkat a'zolarining majburiy badallari miqdori shirkat a'zolarining umumiy yig'ilishi qarori bilan belgilanadi. Ayrim hollarda shirkat a'zolarining umumiy yig'ilishi joy mulkdori tomonidan majburiy badallarning bir qismini to'lashning pul shaklini uning umumiy xarajatlardagi ishtirokining boshqa turlariga almashtirish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. Mulkdorning o'ziga qarashli joydan foydalanmasligi yoxud umumiy mol-mulkdan foydalanishdan voz kechishi uni umumiy xarajatlarda to'liq yoki qisman ishtirok etishdan ozod qilmaydi.

Joy mulkdori o'zining umumiy xarajatlardagi ishtiroki bo'yicha majburiyatini ijara (arenda) shartnomasi asosida joyni ijaraga (arendaga) oluvchiga o'tkazishi mumkin. Joy mulkdori majburiy badallar va to'lovlarni to'lash bo'yicha majburiyatlar ijaraga (arendaga) oluvchiga o'tkazilganligi to'g'risida shirkatni xabardor qilishi shart.

Shirkat a'zolari o'zlariga ko'rsatilayotgan kommunal xizmatlar uchun to'laydigan har oylik to'lovlar majburiy to'lovlar hisoblanadi. Majburiy to'lovlarni to'lash muddati va ularning miqdori belgilangan tartib qoidaga asosan hamda kommunal xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalari (ijrochilar) bilan tuzilgan shartnomalar asosida belgilanadi.

Umumiy mol-mulkni saqlash umumiy mol-mulkning lozim darajadagi texnik va sanitariya holatini ta'minlashga qaratilgandir. Umumiy mol-mulkni saqlash uni boshqarishni, texnik va sanitariya holatini saqlab turishni (xizmat ko'rsatishni), ta'mirlashni hamda bu mol-mulkni asrashga va undan foydalanish bo'yicha zarur sharoitlar yaratishga qaratilgan boshqa faoliyatni qamrab oladi.

Umumiy mol-mulkni boshqarish, shirkatning boshqarish organlari: boshqaruvchi (ijrochi direktor) — jismoniy shaxs, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkor; boshqaruvchi tashkilot — har qanday tashkiliy-huquqiy shakldagi yuridik shaxs tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Boshqaruvchi (ijrochi direktor) yoki boshqaruvchi tashkilot umumiy mol-mulkni shirkat bilan tuzilgan shartnoma asosida berilgan vakolatlar doirasida boshqaradi.

Umumiy mol-mulkka xizmat ko'rsatish va uni ta'mirlash bo'yicha faoliyat shirkat, joy mulkdorlari va pudratchilar (yuridik yoki jismoniy shaxslar) tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Pudratchilar umumiy mol-mulkka xizmat ko'rsatishni va uni ta'mirlashni shirkat, boshqaruvchi (ijrochi direktor) yoki boshqaruvchi tashkilot bilan tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiradi.

Yer uchastkalari shirkatga belgilangan tartibda doimiy foydalanish xuquqi asosida beriladi. Shirkatlar qayta tashkil etilganda, shuningdek joy mulkdorlari shirkat a'zoligidan chiqqanda (shirkatga

a'zo bo'lib kirganda), shirkatlarning yer uchastkalari chegaralari (o'lchamlari) belgilangan tartibda o'zgaradi.

Shirkat tarkibidan uning a'zolari — joy mulkdorlarining bir qismi chiqishi bilan bog'liq bo'lmagan holda yer uchastkasining bir qismi olib qo'yilishi shirkatga yetkazilgan zararning o'rni tegishli ravishda qoplangan holda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan shirkatning roziligi bilan amalga oshiriladi. Shirkatga taalluqli bo'lmagan ob'yektlarni shirkatning yer uchastkasida joylashtirish shirkat a'zolari umumiy yig'ilishining roziligi bilan mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Shirkatning yangi quriladigan ob'yektlari uchun ajratiladigan yer uchastkalarining o'lchamlari mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan shaharsozlik normalari qoidalari talablariga muvofiq belgilanadi. Shirkatning shirkat yer uchastkalarida joylashgan, alohida turgan ob'yektlar mulkdorlari bilan munosabatlar qonun hujjatlari asosida va mazkur mulkdorlar o'rtasidagi kelishuv bilan tartibga solinadi.

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining mol-mulki pul mablag'lari, binolar, inshootlar, uskunalar, asbob-anjomlar, transport vositalari hamda shirkat mablag'lari hisobiga va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa usullarda olingan o'zga mol-mulkdan, shuningdek, shirkatning yer uchastkasidagi ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish elementlaridan iborat bo'ladi.

Shirkatning pul mablag'lari quyidagilardan tarkib topadi:

— shirkat a'zolarining majburiy badallari;

— shirkat a'zolarining ixtiyoriy badallari;

— yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy xayriyalari;

— tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar (foyda);

— boshqa daromadlar va tushumlar.

Alohida ko'p kvartirali uydagi joy mulkdorlar shirkat a'zoligidan chiqqan taqdirda, bu ko'p kvartirali uyni kapital ta'mirlash uchun joy mulkdorlari tomonidan mablag'larni maqsadli jamg'arish hisobiga to'plangan shirkat pul mablag'larining bir qismi yangi tuzilayotgan shirkatga belgilangan tartibda o'tkazilishi kerak.

13.3. Xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlarini yanada rivojlantirish va turar joylarga xizmatlar ko‘rsatish bozori

Iqtisodiy siyosatning asosiy masalasi — halqning moddiy va ma’naviy turmush darajasining o‘sishini ta’minlash hisoblanadi. Bu o‘z navbatida uy-joy kommunal xo‘jaligi korxonalari, jumladan xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyati bilan bog‘liq. Ma’lumki, uy xo‘jaligi insonlarning uy bilan bog‘liq yashash sharoitlarini yaxshilash, uylarning qulayligini va turmush darajasini oshirish, uy fondining ekspluatatsiyasini yaxshilash hamda saqlab qolish bo‘yicha choralarni amalga oshirish, aholiga xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish, shahar va boshqa aholi punktlarini markazlashgan suv hamda gaz, elektr ta’minoti bilan ta’minlash va boshqalardan iboratdir. Shirkatlar faoliyati samarasi o‘laroq, maishiy sharoitlarni ketma-ketlik bilan yaxshilab, aholining moddiy va ma’naviy darajasini ta’minlab turish bilan birga, milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida mehnat samaradorligining o‘sishiga va nihoyat butun ishlab-chiqarish samaradorligining o‘sishiga ko‘maklashadi.

Respublikada uy-joy xo‘jalagi sohasida amalga oshirilayotgan aniq chora-tadbirlar pirovard maqsadi aholi turmush darajsini yaxshilashdir. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 12-apreldagi «Xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlarini yanada rivojlantirish va turar joylarga xizmatlar ko‘rsatishning aniq bozorini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori ko‘p qavatli uylarni boshqarish va ularga xizmat ko‘rsatish, hamda ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishning aniq bozorini shakllantirishni tubdan yaxshilash, aholining ko‘p kvartirali uylarni saqlash va mukammal ta’mirlashdan manfaatdorligini oshirish, uy-joy mulkdorlari shirkatlarining tashkiliy va moliyaviy mustaqilligini va faoliyatining samaradorligini oshirish uchun tadbirlarni amalga oshirishga asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ushbu qarorga asosan «Xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlarini rivojlantirish hamda uy-joylarga xizmatlar ko'rsatishning aniq bozorini shakllantirish chora-tadbirlari» Dasturi ishlab chiqildi. Dastur quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

— xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlarini uy-joy mulkdorlarining haqiqiy o'zini o'zi boshqarish institutlari sifatida rivojlantirish;

— ko'p kvartirali uylarni boshqarish va ularga xizmatlar ko'rsatish sifatini yaxshilash, XUJMSH ishlari samaradorligini oshirish;

— uy-joylarga xizmatlar ko'rsatishda raqobat muhitini shakllantirish.

Shuningdek, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

— uy-joy sohasida normativ huquqiy hujjatlar, shu jumladan standartlar qabul qilish;

— kommunal xizmatlarga haq to'lash tizimini takomillashtirish;

— uy-joy-kommunal sohasida xizmatlar ko'rsatishda raqobatni rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish;

— imtiyozlar va kreditlar berish;

— ta'mirlash-tiklash ishlari uchun budjet ssudalari berish;

— ko'p kvartirali uylarni saqlash va kommunal xizmatlarga haq to'lashda kam ta'minlangan oilalarga yordam ko'rsatish;

— doimiy foydalanish huquqi asosida yer uchastkalari berish;

— alohida dasturlar qabul qilish va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa chora-tadbirlar ko'rish.

Tayanch iboralar

xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari, mukammal boshqaruv tizimi, turar joylar mulkdorlari, shirkat boshqaruvi, joy mulkdorlarining tashkiliy umumiy yig'ilishi, shirkatining ustavi, umumiy mol-mulk, umumiy mol-mulkni boshqarish va saqlash, shirkatlar faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, turar joylarga xizmatlar ko'rsatishning aniq bozori.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Hozirgi kunda respublikamizda xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlariga birlashgan uylar sonini kamaytirishning ahamiyati nimada?

2. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkat faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari nimada?

3. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati uy-joy kommunal xizmat ko'rsatuvchi boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlaridan qaysi xususiyatlari bilan farqlanadi?

4. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining faoliyati qaysi qonun hujjatlariga asoslangan? Shirkatlar faoliyatiga bevosita ta'sir qiluvchi muayyan qonunlarni sanab o'ting.

5. Shirkatning faoliyati qanday printsiplarga asoslanadi ?

7. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining boshqarish organlari qaysilar ?

8. Shirkat taftish komissiyasi tashkil etish va vakolatlarini tushuntirib bering.

9. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining umumiy mol-mulki nimalardan tashkil topadi?

10. Turar joylarga xizmatlar ko'rsatishning aniq bozorini shakllantirish deganda nimani tushunasiz?

XIV BOB. XUSUSIY UY-JOY MULKDORLARI SHIRKATINING MOLIYAVIY-IQTISODIY FAOLIYATI

14.1. Shirkat moliyaviy faoliyatini tashkil etish, daromadlar va xarajatlar smetasi

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati yuridik maqomga ega bo'lgan mustaqil korxona bo'lib, uning moliyaviy xo'jalik faoliyati tegishli uy-joy fondini ekspluatatsiya qilish va undan foydalanishni tashkil etishni ta'minlashga yo'naltiriladi. Shirkatning moliyaviy mablag'lari asosan shirkat a'zolarining majburiy badallari, xonadon egalarining ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'laydigan maqsadli to'lovlari, tadbirkorlik hisobidan daromadlar (ijaraga joy berish, tashqariga xizmat ko'rsatish, tegishli yerdan daromad olish va boshqalar), kommunal to'lovlarni yig'ishda yordam ko'rsatish evaziga kommunal xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalardan olingan daromadlardan, homiylik va vasiylik mablag'laridan tashkil topadi.

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining moliyaviy mablag'lari uy-joy fondini foydalanishga yaroqli holda saqlash, shirkat ishchi -xodimlari mehnatlariga haq to'lash va binoni kapital ta'mirlash va qayta tiklash uchun zahira fondiga mablag' yig'ish uchun sarflanadi. Shirkat moliyaviy xarajatlari asosan ikki guruhga: ishlab chiqarish xarajatlariga va ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlarga bo'linadi.

Shirkatning moliyaviy faoliyatini tashkil etish boshqa korxona va tashkilotlarnikidan keskin farqlanadi. Buning sababi, xususiy mulkdorlar shirkat oldiga ikki muhim vazifani qo'yadilar. Birinchi vazifa, uy-joy fondini talab darajasida ekspluatatsiyaga yaroqli holda saqlash, barcha turdagi bajarilishi lozim bo'lgan joriy ta'mirlash ishlarini sifatli va o'z muddatida bajarilishini ta'minlash bo'lsa, ikkinchisi yashovchilardan yig'iladigan majburiy to'lovlar miqdorini kamaytirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Shu sababli

shirkatning moliyaviy faoliyatini rejalashtirish yillik xarajatlar miqdorini o'rganishdan boshlanadi.

Shirkat xarajatlar smetasining birinchi varianti turarjoy binosining texnik va sanitariya holatini baholash davomida aniqlangan va uy-joy mulkdorlari tomonidan xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha bildirilgan, Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati tomonidan mo'ljallangan barcha ishlar hajmi (to'liq) ro'yxatini (rejaning birinchi loyihasini) bajarish ehtimoliga asoslanadi.

Xizmat ko'rsatish, saqlash, ta'mirlash va ehtiyot qismlarni almashtirishlar bo'yicha ishlarni har xil uslubda baholash (muayyan turdagi ishning qiymati shirkat shtatidagi xodimlar tomonidan bajarilganda, yoki bir martalik shartnoma asosida yollanadigan mutaxassis bajarganda uning qiymati qanday bo'lishini aniqlash), orqali ishlar ijrosi rejalarining turli variantlari xarajatlarini aniqlash turli pudratchilar raqobatlashadigan bozorda bu ishning qiymati qancha turishini bilish tavsiya etiladi.

Ijro turlari bo'yicha bajariladigan ishlarning to'liq ro'yxati va hajmi uchun xarajatlar smetasi.

Rejalashtirilayotgan davrda yirik xarajatlar ko'zda tutilayotgan bo'lsa, bu ishlar uchun xarajatlarning smetasini tayyorlash tavsiya qilinadi va u umumiy yig'ilishda, shirkatning yillik smetasini muhokama qilishda uni asoslashga yordam beradi.

Shirkat a'zolari umumiy yig'ilishi vakolatiga shirkat shtatidagi xodimlarning oylik miqdori va mehnatiga haq to'lash va mukofotlash to'g'risidagi Nizomni qabul qilish kiradi, shuning uchun shtat jadvali va ish haqi hajmi bo'yicha, shuningdek, shirkat xodimlarning har bir toifasi, jumladan, shirkat mulkini malakali boshqarish uchun chetdan yollangan (yoki yollamoqchi) bo'lgan ijrochi direktor (boshqaruvchi)ni mukofotlash bo'yicha alohida takliflar tayyorlash tavsiya etiladi. Smetaning Xususiy uy joy mulkdorlari shirkati xodimlari va jalb qilinadigan mutaxassislar mehnatiga haq to'lashni nazarda tutuvchi qismida maxsus fondlarga chegirmalar bilan bog'liq xarajatlarni ham ko'rsatish lozim.

Agar umumiy yig'ilish qarori bo'yicha saylangan shirkat raisi, boshqaruv va taftish komissiyasi a'zolariga mehnatlari uchun haq

to‘lanadigan bo‘lsa, shu haq miqdori daromadlar va xarajatlar smetasida alohida band bilan aks ettiriladi.

Smeta loyihasida shirkatning ishlab chiqarishga oid bo‘lmagan xarajatlarini ham ko‘zda tutish lozim, shuningdek, kutilmagan xarajatlarga haq to‘lash yoki badallarni vaqtida to‘lanmasligini qoplovchi zahira fondini ko‘zda tutish tavsiya qilinadi.

Ishlar rejasi hamda daromadlar va xarajatlar smetasini tuzishda shirkatning hisobot hujjatlarida foydalanilgan shakllardan foydalanish mumkin. Ishlar rejasining birinchi loyihasi bo‘yicha barcha mo‘ljallanayotgan xarajatlar summasi aniqlangach, shirkat yillik smetasining daromad qismi tuziladi va kelgusi yilga shirkat a’zolari majburiy to‘lovlarining mo‘ljallanayotgan hajmi hisoblab chiqiladi (ularga tegishli bo‘lgan umumiy maydonning 1 kv.m.ga xizmat ko‘rsatish tannarxidan kelib chiqqan holda).

Smetaning daromad qismi uning xarajat qismidan kam bo‘lmasligi kerak. Smetaniig daromad qismi shirkat a’zolarining majburiy badallari (doimiy, oylik badallari), noturarjoylar mulkdorlarining binoni saqlash va ta’mirlashga qaratilgan badallari, shirkatning boshqa daromadlari (masalan, xonalar ijarasi va boshqa turdagi tadbirkorlik faoliyati) va hokazo tushumlar (masalan, homiylik yordami) hisobidan shakllanadi.

Shirkat a’zolarining yashashga mo‘ljallanmagan (noturarjoy) xonalar mulkdorlarining majburiy to‘lovlarini hisoblashda shirkatning qo‘shimcha ravishda jalb qilinadigan daromadlarini e’tiborga olish kerak, ushbu qo‘shimcha daromadlar ko‘p bo‘lsa, a’zolarining majburiy badallari hajmi kamayishi mumkin.

Majburiy badal miqdorini turarjoy binosining 1 kv.m. maydoniga xizmat ko‘rsatish tannarxini aniqlash formulasi asosida hisoblab chiqish mumkin. So‘ngra joriy yilga mo‘ljallangan majburiy to‘lovlar hajmi o‘tgan yilgi badallar miqdori bilan qiyoslanadi va xonalar mulkdorlarining bunday xarajatlarni qoplash uchun to‘lov qobiliyati baholanadi. Agar shirkat boshqaruvi mulkdorlar rejalashtirilayotgan xarajatlarni to‘lashga layoqatli, deb topsa, daromadlar va xarajatlar smetasi loyihasini (va tegishli ishlar rejasini) umumiy yig‘ilish e’tiboriga havola qilish mumkin. Agar shirkat boshqaruvi rejalashtirilayotgan xarajatlarni to‘lashga turar

joylar mulkdorlarining ko'pchiligi layoqatli emas, deb topsa, ishlar rejasi loyihasini takomillashtirish (qisqartirish) ustidagi ish davom ettiriladi. Bunday holda boshqaruv ayrim ish turlarini kechiktirilgan ishlar ro'yxatiga o'tkazishi (ularning muhimlilik darajasini va shirkat a'zolari xohishini e'tiborga olib), yoki ayrim ish turlarini bajarish usullarini o'zgartirish haqida asoslangan qaror qabul qilishi lozim. Shu tarzda ishlar rejasining ikkinchi varianti va tegishli xarajatlar smetasi (ishlar ro'yxati hajmini qisqartirib) ishlab chiqiladi. Rejalar va xarajatlar smetasi ishlar rejasi va xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining moliyaviy resurslari mos kelmaguncha davom ettiriladi.

Smetada albatta kelgusi kapital ta'mirlashlar uchun markaziy fondiga to'lovni (hozirgi kunda umumiy to'lovlar miqdorining 30 %i) ko'zda tutilishi zarur.

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining daromadlar va xarajatlar smetasining namunaviy shakli quyidagi tarkibdagi daromad va xarajatlardan tashkil topadi:

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining daromadlar va xarajatlar smetasi namunasi

№	Moddalar nomlanishi	Bir oy-ga	Bir yilga
1	*2*	*3*	*4*
	Daromadlar		
1	Shirkat a'zolarining majburiy badallari		
2	Noturarjoy maydonlaridan foydalanuvchilarning majburiy badallari		
3	Xonadon egalarining bir vaqtda to'laydigan maqsadli to'lovlari (biror turdagi ta'mirlash va obodonlashtirish ishlarini bajarish uchun alohida yig'iladi)		
4	Umumiy mulkning ayrim qismlaridan alohida foydalanilganligi uchun to'lov *(foydalanish imkoniyati chegaralangan mulkdan tashqari)*		
5	Shirkatga tegishli er maydonining ayrim qismlaridan alohida foydalanilganligi uchun to'lov		

6	Shirkatga tegishli er maydonida joylashgan ob'yektlarning mulkdorlari tomonidan to'lovlar		
7	Umumiy mulk ob'yektlarini (qismini) ijaraga berishdan tushadigan daromadlar		
8	Kommunal to'lovlarni yig'ishda ko'rsatgan xizmatlari evaziga kommunal xo'jaligi korxonalaridan olingan daromad:		
	- issiqlik bilan ta'minlovchi tashkilotdan		
	- suv oqava-quvur korxonasidan		
	- gaz ta'minoti tashkilotidan		
	- sanitar tozalash korxonasidan		
9	Shartnoma asosida xizmatlar ko'rsatish va ishlarni bajarish uchun to'langan haq		
10	Mablag'larni bank hisobida saqlaganligi uchun foiz daromadlari		
11	Boshqa daromadlar (penya va jamg'armalar, metall chiqindilar topshirishdan va h.k.)		
12	Kreditlar, qarz mablag'lari		
13	Homiylik yordamlari		
Jami daromadlar:			
Xarajatlar			
1. Ishlab chiqarish xarajatlari			
1.1	Umumiy mulk va yer uchastkasiga texnik xizmat ko'rsatish va sanitariya holatini saqlash, jami		
	shu jumladan:		
1.1.1.	Ishchilarning ish haqi: ko'cha supuruvchilar, farroshlar va h.k.		
1.1.2.	Ishchilarning ish haqiga hisoblangan yagona to'lov		
1.1.3.	Ishlab chiqarish va xo'jalik uchun mayda inventar, asbob va maxsus kiyim *(chelak, supurgi, belkurak, xaskash, aravacha, zambar, xalat, qo'lqop va h.k.)*lar xarid qilish uchun xarajatlar		
1.1.4.	Umumiy foydalanish joylarini *(kirish joylari, yer to'la, lift, suv ko'tarish nasoslari va h.k.)* yoritish uchun elektr energiyasi xarajatlari		
1.2.	Chetdan yollanuvchi tashkilotlarning xizmatlari, jami:		
	shu jumladan		
1.2.1.	Liftlarga xizmat ko'rsatish		

1.2.2.	Ma'ishiy chiqindilarni tashib ketish		
1.2.3.	Sanitar-epidemilogik ishlov berish (dezinfeksiya, dezinseksiya, deratizatsiya)		
1.3.	Umumiy mulkni joriy ta'mirlash, jami:		
	shu jumladan		
1.3.1.	Pudrat usulida bajariladigan		
1.3.2.	O'z kuchi bilan bajariladigan		
	Shu jumladan:		
1.3.2.1	Ishchilarning *(chilangar, santexnik, tom yopuvchi, duradgor, bo'yoqchi va h.k.)* ish haqi		
1.3.2.2.	Ish haqiga hisoblangan yagona to'lov		
1.3.2.3.	Materiallar		
1.3.2.4.	Boshqa xarajatlar *(jihozlar, asbob-uskunalar, maxsus kiyimlar, texnika xavfsizligi va h.k.lar uchun)*		
1.3.2.5.	Transport xarajatlari		
1.4.	Umumiy mulkni kapital ta'mirlash – jami:		
	shu jumladan		
1.4.1.	Pudrat usuli bilan bajariladigan		
1.4.2.	O'z kuchi bilan hisoblanadigan – jami:		
	ulardan:		
1.4.2.1.	Ishchilarning ish haqi *(chilangar, santexnik, tom yopuvchi, duradgor, bo'yoqchi va h.k.)*		
1.4.2.2.	Ish haqiga hisoblanadigan yagona ijtimoiy to'lov		
1.4.2.3.	Materiallar		
1.4.2.4.	Boshqa xarajatlar *(jihozlar, asbob-uskunalar, maxsus kiyimlar, texnika xavfsizligi va h.k.lar uchun)*		
1.4.2.5.	Transport xarajatlari		
1.5.	XUJMSH amortizatsiyasi		
Ishlab chiqarish xarajatlari – jami:			
2. Ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar			
2.1.	Ma'muriy xarajatlar		
	Shu jumladan:		
2.1.1.	Rais, boshqaruv va taftish komissiyasi a'zolariga to'lanadigan ish haqi		
2.1.2.	Ish haqiga hisoblangan yagona ijtimoiy to'lov		

2.1.3.	Boshqaruvchi, hisoblovchi, ish yurituvchiga to‘lanadigan		
2.1.4.	Ish haqiga hisoblangan yagona ijtimoiy to‘lov		
2.1.5.	Boshqa xarajatlar *(kantselyariya buyumlari, nusha ko‘paytirish, telefon, kompyuter xizmatlari xarajatlari va boshqalar)*		
2.2.	Boshqaruvi tashkilotlarning xizmatlari uchun shartnoma bo‘yicha to‘lanadigan haq		
2.3.	Auditor xizmati		
2.4.	Kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashga xarajatlar		
2.5.	Axborot xizmatlariga haq to‘lash *(gazetalar, maxsus adabiyotlar va h.k.)*		
2.6.	Budjetga majburiy to‘lovlar, soliqlar va boshqa to‘lovlar		
2.7.	Bank xizmatlari uchun to‘lash		
2.8.	Kassa xo‘jaligi va inkassatsiya bo‘yicha ish yuritishdagi xarajatlar		
2.9.	XUMSHlar uyushmasiga to‘lanadigan a’zolik badali		
2.10.	Ta’mirlash jamg‘armasiga ajratma		
2.11.	Zahira jamg‘armasiga ajratma		
2.12.	Kredit, qarzlarni qaytarish bo‘yicha xarajatlar		
Ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar — jami			
Jami xarajatlar			

14.2. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarida buxgalteriya hisobining asosiy vazifalari

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarida buxgalteriya hisobi xo'jalikning moliyaviy xo'jalik faoliyati to'g'risidagi munosabatlarni hujjatlarda aks ettirilishini yo'lga qo'yish, ularni yig'ish, tartibga solish, tahlil qilish va shirkatning xo'jalik faoliyatini ta'minlash vazifasini bajarib, hususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarida soddalashtirilgan shakldagi buxgalteriya hisobi olib boriladi. Buxgalteriya hisobini olib borish orqali quyidagi asosiy vazifalar bajariladi:

— moliyaviy-xo'jalik jarayonlarini hujjatlashtirish;

— inventar hisobini olib borish;

— baholash va xo'jalik vositalari qiymatini aniqlash;

— uy-joy fondiga xizmat ko'rsatish ishlarini kalkulyatsiyalash;

— kommunal xizmatlar uchun to'lovlarning hisobvaraqlar tizimini olib borish;

— ishchi-xodimlar mehnatiga haq to'lashni ta'minlash va hisobini olib borish;

— buxgalteriya hisobi hisob raqamlari bo'yicha hisob-varaqlari olib borish;

— ikki tomonli buxgalteriya yozuvini olib borish;

— buxgalteriya balansi hisobini ta'minlash;

— moliyaviy faoliyat to'g'risidagi hisobotlarni tuzish.

Moliyaviy xo'jalik jarayonlarini hujjatlashtirish — bu amalga oshiriladigan xo'jalik operatsiyasi to'g'risida yozma guvohlik beruvchi hujjat tuzish bo'lib, u buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga yuridik kuch «bag'ishlaydi». Birlamchi hujjatlar, shu jumladan, moliyaviy jarayonni aniq aks ettirgan axborotning umumlashtirish va qayta ishlash mumkin bo'lgan, qog'ozdagi ifodalangan shaklda o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan hujjatlar buxgalteriya hisobini olib borish uchun birlamchi ma'lumot bo'lib hisoblanadi. Hujjatlar shirkatning xo'jalik faoliyatini yalpi va uzluksiz aks ettirishni ta'minlab beradi. Faqat to'g'ri rasmiylashtirilgan, ya'ni belgilangan texnik andozalarda nazarda tutilgan barcha rekvizitlari to'ldirilgan hujjatlargina hisobga qabul qilinadi. Bunday rekvizitlarga quyidagilar kiradi: korxonaning nomi, hujjatning nomi, uning

raqami, sanasi, xo'jalik operatsiyasining qisqacha va aniq mazmuni, uning miqdoriy va pul ifodasi, mazkur xo'jalik operatsiyasi uchun mas'ul shaxslarning imzolari. Hujjatlarga qo'yiladigan birinchi galdagi talab — ularni o'z vaqtida tuzish, undagi ma'lumotlarning ishonchli bo'lishi, to'liq va to'g'ri rasmiylashtirilishi. Bu talablar shirkat xo'jalik faoliyati ustidan dastlabki va joriy nazorat o'rnatish va uning ish natijalariga faol ta'sir ko'rsatish imkoniyatini ta'minlaydi.

Inventar hisobini olib borish — buxgalteriya hisobi oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardan biri bo'lib, inventarlash buxgalteriya hisobida moddiy boyliklar, pul mablag'lari va moliyaviy majburiyatlarni naturada tekshirish orqali ularning shirkatdagi haqiqiy holatini aniqlash imkonini beradi. Inventarlash buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini tasdiqlashi yoxud hisobga olinmagan boyliklar yoki yo'l qo'yilgan yo'qotishlar, o'g'irlik va kamomadlarni aniqlash imkonini beradi. Shu sababli inventarlarning hisobini olib borish yordamida moddiy boyliklar va pul mablag'larining butligi nazorat qilinadi, buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlarining to'liq va ishonchli bo'lishi tekshirib turiladi va nazorat qilinadi.

Baholash va xo'jalik vositalari qiymatini aniqlash — xo'jalik vositalari qiymatini pul ifodasida belgilash imkonini beradi. Shirkatning xo'jalik vositalarini baholash asosan buxgalteriya hisobida buyum yoki uskunalarni xarid qilishning haqiqiy qiymati (tannarxi)ga asoslanadi. Inflyatsiya sharoitida xo'jalik vositalarining haqiqiy (tiklash) qiymati statistika organlari belgilangan va hukumat qarorlari bilan tasdiqlangan inflyatsiya indeksi (ko'rsatkichi) orqali xarid qilishning haqiqiy qiymatini qayta baholash bilan belgilanadi. Masalan, asosiy vositalar buxgalteriya hisobida dastlabki qiymati bo'yicha aks ettiriladi.

Dastlabki qiymat — asosiy vositalar ob'yektlarini barpo etish yoki xarid qilish paytida shirkat amalga oshirgan xarajatlarning pul ifodasidagi qiymatidir, bunga yetkazib berish, montaj qilish va o'rnatish xarajatlari ham kiradi.

Qoldiq qiymati hisoblangan eskirishni dastlabki qiymatdan chiqarib tashlash bilan belgilanadi.

Eskirish Soliq kodeksida belgilangan amortizatsiya ajratmalari asosida aniqlanadi, bundan tashqari erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonada asosiy vositalarga jadallashtirilgan eskirish miqdorini hisoblash imkoniyati beriladi. Hisoblangan amortizatsiya qiymati ulardan foydalanish jarayonida ko'rsatilgan xizmatlar va ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxiga kiritiladi. Eskirish asosiy vositalarning xizmat qilishi davomiyligida xizmat muddati tugagunga qadar bir tekisda hisoblab boriladi.

Uy-joy fondiga xizmat ko'rsatish ishlarini kalkulyatsiyalash — iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagidan tubdan farqlanadi. Shirkat xo'jaliklarida kalkulyatsiyalash turar-joy maydonining 1 m^2 sahnini saqlash va xizmat ko'rsatishda qilingan xarajatlarni yalpi hisoblash orqali binoga ko'rsatilayotgan xizmatning tannarxini belgilash usuli hisoblanadi. Ish va xizmatlarni tannarxini kalkulyatsiyalashda respublika moliya organlari, O'zbekiston «Kommunxizmat» agentligi, va mahalliy hokimliklar tomonidan belgilab berilgan me'yoriy ko'rsatkichlar asos qilib olinadi.

Buxgalteriya hisobida kommunal xizmatlar uchun to'lovlarning hisob-varaqlar tizimi mulkdorlarning ko'rsatilgan xizmatlar uchun amalga oshirgan to'lovlarining hisobini olib borish vazifasini bajaradi. Hisob-varaqalar odatda mulkdorlar shirkatiga tegishli har bir xonadon bo'yicha tuziladi va analitik hisob olib boriladi. Har hisobot oyidan keyingi oyning birinchi sanasida ko'rsatilgan kommunal xizmatlar uchun to'lovlar hisoblanib, hisob-varaqilarida qayd etib boriladi. Shirkat bo'yicha jami hisoblangan kommunal to'lovlar summasi jamlanib tasdiqlangan smeta ko'rsatkichlari bilan solishtirib boriladi. Agar, smetada tasdiqlangan ko'rsatkichdan katta farq yuzaga kelsa, kamomad summani qoplash yo'llari izlanadi. Shu jumladan kommunal to'lovlar miqdorini oshirish yoki kamaytirish to'g'risida taklif kiritiladi.

Shirkatda ishchi-xodimlar mehnatiga haq to'lashni ta'minlash va hisobi tasdiqlangan shtatlar jadvaliga muvofiq belgilangan maoshlar miqdoriga asoslanib olib boriladi. Bunda ma'muriy boshqaruv xodimlari va ishchi xodimlar uchun hisoblangan ish haqi sarfi alohida-alohida olib boriladi. Shirkatda ishbay shaklda xizmat ko'rsatayotgan xodimlar uchun ish haqi to'lovlari ular

tomonidan bajarilgan ish hajmini tasdiqlovchi naryadlar asosida hisoblanadi. Ishbay shaklda maosh hisoblashda smetada ajratilgan ish haqi fondi ko'rsatkichlaridan chetga chiqilmasligi lozim. Agar shirkatda kapital ta'mirlash yoki boshqa turdagi ishlarni bajarish yuzasidan alohida smeta tasdiqlangan bo'lsa, bunday ishlarga jalb etilgan ishchilar maoshlari mazkur smetalarda tasdiqlangan ish haqi fondi hisobidan amalga oshiriladi.

Buxgalteriya hisobi hisob raqamlari bo'yicha hisob-varaqalari buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga muvofiq buxgalteriya schetlarining iqtisodiy belgilariga qarab guruhlashtirishga asoslangan holda olib boriladi. Buxgalteriya hisobi hisob-varaqlari shirkat mol-mulki va mablag'larini hisobga oladigan aktiv hamda mablag'-vositalarning hosil bo'lish manbalarini aks ettiradigan passiv hisobvaraqlarga bo'linadi.

Shirkatda buxgalteriya hisobini o'rnatilgan tartibda tashkil etish uchun shirkatning moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasidan va har bir hisobvaraq tavsiflangan hamda unga doir hisob varaqlarning namunaviy korrespondentsiyasi berilgan.

Hisob varaqlar rejasidan foydalanish bo'yicha yo'riqnomadan to'g'ri foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Barcha xo'jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobi hisob varaqlarida ikki tomonli yozuv usulida, ya'ni bir hisob varaq debetida va ayni vaqtning o'zida boshqa hisob varaq kreditida baravar summada yozish bilan aks ettiriladi.

Ikki tomonli yozuv olib borish tizimi nazorat ahamiyatiga ega, ya'ni hisobot davri uchun barcha hisobvaraqlar debeti bo'yicha oborotlar summasi kredit bo'yicha barcha hisobvaraqlar oborotlari summasiga teng. Istalgan xo'jalik operatsiyasida ikki tomonli yozuv usulidan foydalanish buxgalteriya hisobini yuritishning asosiy qoidasi hisoblanadi.

Buxgalteriya provodkasi amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyasini buxgalteriyada rasmiylashtirish usulidir. Buxgalteriya provodkasini tuzish bajarilgan xo'jalik operatsiyasi natijasida qanday hisobvaraqlar qancha summaga debetlanishi, qaysilari kreditlanishini ko'rsatish demakdir. Buxgalteriya provodkasi birlamchi

rasmiylashtirilgan hujjatlar (yukxatlar, to'lov topshiriqnomalari, hisob varaqlar, talabnomalar, dalolatnomalar va hokazo) asosida tuziladi.

Ikki tomonli yozuv orqali hisob varaqlar o'rtasidagi bog'liqlikni belgilash hisob varaqlar korrespondentsiyasi, hisob varaqlarning o'zi esa korrespondentsiyalanuvchi hisob varaqlar deb ataladi.

Buxgalteriya balansi moliyaviy hisobotning asosiy shakllaridan biri bo'lib, shirkatning muayyan sanadagi moliyaviy holatini, mablag'-vositalarning hosil bo'lish manbalari — balans passivi va ularni joylashtirish manbalari — balans aktivini tavsiflaydi. Balansning aktiv va passiv hisoblari yakunlari teng bo'lishi kerak. Balansda ularning hosil bo'lish vositalari va manbalari haqidagi ma'lumotlar (tegishli hisob varaqlar saldosi) ikki sanada — yil boshi va hisobot davri oxiriga keltiriladi. Buxgalteriya balansi korxonaning moliyaviy ahvolini tahlil qilish manbayi hisoblanadi.

Moliyaviy hisobot buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida tuziladi. Moliyaviy hisobot quyidagilarni o'z ichiga oladi: buxgalteriya balansi; moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot; asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot; pul oqimlari to'g'risidagi hisobot; o'z sarmoyasi to'g'risidagi hisobot; eslatmalar, hisob-kitob va hisobotga tushuntirishlar.

Moliyaviy hisobot tarkibi va mazmunini O'zbekiston Respublikasining Moliya Vazirligi belgilaydi. Moliyaviy hisobotning hisobot davri 1- yanvardan 31-dekabrgacha davom etadigan kalendar yil hisoblanadi.

Yangi tashkil etilgan xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari uchun yuridik shaxs huquqi olingan sanadan boshlab o'sha yilning 31-dekabrigacha bo'lgan davr birinchi hisobot yili hisoblanadi.

Agar, shirkat birinchi oktyabrdan keyin ro'yxatga olingan bo'lsa, birinchi hisobot yili keyingi yilning 31-dekabrida yakunlanadi.

Ro'yxatga olingunga yoki yuridik shaxs huquqlari olingunga qadar amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalari haqidagi ma'lumotlar birinchi hisobot yilining moliyaviy hisobotiga kiritiladi.

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati Statistika boshqarmalariga O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasining 2006-

yil 1- dekabrdagi 12-sonli qarori bilan tasdiqlangan quyidagi hisobot (shakl)larni topshiradi:

— aholiga pullik xizmat ko'rsatish bo'yicha oylik hisobot (1-xizmatlar shakli);

— xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining faoliyati to'g'risida choraklik hisoboti (5-uy-joy fondi shakli);

— mehnat hisoboti (1-T shakli).

Davlat soliq inspektsiyasiga:

— mehnatga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lovlar (oylik, choraklik, yillik);

— budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga badallar, ajratmalar va to'lovlarni hisoblab yozish hamda ularni ishlatish to'g'risidagi hisobot (ma'lumotnoma) (oylik, choraklik, yillik);

— jismoniy shaxslarning daromad solig'i to'lovi to'g'risida ma'lumot (choraklik, yillik);

— maktab ta'limini rivojlantirish uchun majburiy to'lovlar hisobi (oylik, choraklik, yillik);

— O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi qoshidagi respublika yo'l fondiga o'tkazmalari hisobi (oylik, choraklik, yillik);

— qo'shilgan qiymat solig'i hisobi (oylik, choraklik, yillik).

Shuningdek, joylardagi xalq bankiga jamg'arib boriladigan pensiya jamg'armasi oylik reestri topshiriladi.

14.3. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining tijorat banklari tomonidan milliy valyutada kreditlash

Ma'lumki, kredit munosabatlari iqtisodiyotda mavjud aniq uslubiy asoslarga tayanadi. Uning asosiy elementlari bo'lgan ssuda kapitali bozori operatsiyalari ma'lum tamoyillar asosida olib boriladi. Bu tamoyillar kredit rivojlanishining birinchi bosqichida ko'zga tashlangan edi. Keyinchalik esa ular umumdavlat va xalqaro kredit qonunchiligida yaqqol o'z aksini topdi. Iqtisodiy kategoriya sifatida kredit bir necha tamoyillarga ega. Bular kreditning qaytarib berishliligi, kreditning muddatliligi, kreditning ta'minlanganligi, maqsadliligi va to'lovlilik tamoyillaridir. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash ham, kreditning

tamoyillaridan kelib chiqib, quyidagi shartlar asosida amalga oshiriladi:

— kreditning qaytarilishi,
— kreditning to'lovliligi;
— kreditning ta'minlanganligi;
— kreditning muddatliligi;
— kreditlardan maqsadli foydalanish;
— xatarlarni har tomonlama baholash;
— garov qiymatini hisobga olish.

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining tijorat banklari tomonidan milliy valyutada kreditlashda kreditlash subyekt xususiy uy-joy mulkdorlarining uydan foydalanishni ta'minlash, uning saqlanishini birgalikda boshqarish va ta'minlash, umumiy foydalanishdagi ob'yektlarga egalik qilish va ulardan foydalanish shartlari, tartibini aniqlash, umumiy mulkdagi mol-mulkning lozim darajasidagi holatini ta'minlash maqsadidagi birlashmalar — xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari hisoblanadi.

XUJMSHga kreditlar quyidagi maqsadlarga ajratiladi:

— turar-joylarining ichki muhandislik kommunikatsiyalarini va umumiy foydalaniladigan joylarini rekonstruktsiya qilish va kapital ta'mirini amalga oshirishga;

— joriy va kapital ta'mirlashni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik zaxiralarni, jihozlar va uskunalarni sotib olishga.

Kreditlarni berish muddatlari kreditlanadigan tadbirlarning qoplanish muddatlariga bog'liq bo'ladi, jumladan, turar joylarining ichki muhandislik kommunikatsiyalarini va umumiy foydalaniladigan joylarni rekonstruktsiya qilish va kapital ta'mirini amalga oshirishni moliyalashga kreditlar, muddatini uzaytirish huquqisiz, 24 oygacha muddatga berilishi mumkin. Shuningdek, boshqa maqsadlar uchun beriladigan kreditlar muddati, kreditlanayotgan faoliyat turini xususiyatidan kelib chiqqan holda, banklar tomonidan mustaqil belgilanadi.

Respublikada xususiy uy-joy mulkdorlari beriladigan kreditlar bo'yicha foiz stavkalari imtiyozli bo'lib, ular Markaziy bankning

amaldagi qayta moliyalash stavkasidan yuqori darajada belgilanmaydi.

Kreditlar, qarz oluvchining asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobraqami ochilgan bank tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari tomonidan mos ravishda tasdiqlangan ob'yektni kapital ta'mirlashning loyiha-smetasi hujjatlari hamda manzil ro'yxati, uy-joy jamg'armasining kapital ta'mirini moliyalash manbalarini tushuntirgan holda moliyalash rejasi mavjud bo'lganda, amalga oshiriladi.

XUJMSH kreditlarini olish uchun bankka quyidagi hujjatlarini (kredit paketa) taqdim etishi shart:

— kredit buyurtmasi;

— uy-joy mulkdorlari yig'ilishining kredit olish zarurligi haqidagi, belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bayonnomasi;

— qarz oluvchining bank hisobraqamiga pul tushumi (pul oqimi) xomcho'ti albatta ko'rsatilgan biznes-reja;

— mahalliy (tuman) Davlat soliq xizmati organi tasdiqlangan oxirgi hisobot davriga buxgalterlik balansi (1-shakl) va debitorlik va kreditorlik qarzdorlik haqidagi ma'lumotnoma (2a-shakl) hamda 90 kundan oshgan qarzdorlik bo'yicha taqqoslash dalolatnomasi, moliyaviy natijalar haqida hisobot (2-shakl);

Olingan kreditlarni qaytarmaslik xatarining oldini olish maqsadida qarz oluvchi tez va erkin sotilish talablariga javob beradigan ta'minotga ega bo'lishi kerak. Qarz oluvchi bankka quyidagi ta'minot turlaridan birini taqdim etishi mumkin:

— mol-mulk yoki kimmatbaho qog'ozlar garovini;

— uchinchi shaxslarning kafilligini;

— sug'urta kompaniyasining qarzdor tomonidan kreditni qaytarmaslik xatarini sug'urtalanganligi haqida sug'urta polisini;

— Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar Toshkent shahar hokimliklarining kafilligini.

Banklar, o'zlari bilan doimiy aloqaga ega bo'lgan, bank hisob raqamida muntazam pul oqimi mavjud, yaxshi obro' va kredit tarixiga ega qarz oluvchilarga e'timodli (ishonchli) kreditlar berish huquqiga egadirlar.

Kreditni qaytarilish ta'minotining shakllaridan biri sifatida mol-mulk garovi xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasining «Garov haqida»gi Qonuniga muvofiq, har qanday mol-mulk, shu jumladan, buyumlar, mulkiy huquqlar garovga qo'yilishi mumkin.

Banklar tomonidan likvidli mol-mulk, shu jumladan, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma ob'yektlari, transport vositalari va boshqa qarz oluvchining likvidli aktivlari garov sifatida qabul qilinadi.

Bunda, qarz oluvchi oilasining normal hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan uy, kvartira, uy-jixozlari va asbob-anjomlar, kiyim-kechak va boshqa jihozlar garov predmeti bo'la olmaydi.

Kredit berish haqida qaror qabul qilishda bank mijozning kreditni qaytara olish qobiliyati bilan bir qatorda, kredit bitimining boshqa har xil jihatlarini, shu jumladan, taqdim etilgan ta'minotni xaridorgirligini, qarz oluvchining kredit tarixini, uning rahbari obro'sini (oldingi ish joylari, malakasi, ilgari olingan kreditlarni o'z vaqtida qaytarilishining ta'minlanganligini va h.k) e'tiborga oladi.

Kredit berish haqida qaror qabul qilingan vaqtdan boshlab, qarz oluvchiga kredit varaqchasi ochiladi va uning yordamida kredit ustidan nazorat qilish amalga oshiraladi.

Kreditlar alohida ssuda hisobraqami ochish va ushbu hisob raqamidan qarz oluvchining to'lov topshiriqnomasi asosida to'lovni amalga oshirish yo'li bilan beriladi.

Kredit hisobidan to'lanishi lozim bo'lgan to'lov topshiriqnomalariga, ushbu kreditni olib boruvchi kredit xodimi tomonidan rozilik imzosi (viza) qo'yiladi. Bunda u ssuda hisob varag'idan amalga oshiriladigan to'lovlarning maqsadli yo'nalishini qat'iy nazorat qilib borishi lozim.

Kreditni qarz oluvchining talab qilib olinguncha depozit hisobraqamiga o'tkazish qat'iyyan ta'kiqlanadi.

Ssuda xisobraqamidan kapital ta'mirlashni moliyalashtirish XUJMSH tomonidan bankka XUJMSH bilan pudratchi tashkilotlar o'rtasida tuzilgan shartnomadagi manzil dasturida ko'zda

tutilgan barcha ishlar hajmiga hamda ob'yektga ajratilgan mablag'lar yoyilmasi ko'rsatilgan shartnomaning alohida shartlari taqdim etilganidan keyin amalga oshiriladi.

Pudrat tashkilotini tanlash tanlov savdolari (tender) natijalari bo'yicha amalga oshiriladi va bu «Uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash uchun uy-joyni ta'mirlash-ekspluatatsiya tashkilotlarni tanlov asosida aniqlash tartibi to'g'risida»gi Nizom (1999-yil 15-fevralda 637-son bilan ro'yxatga olingan)ga muvofiq rasmiylashtiriladi.

Kreditni qaytarish muddatlari, pul oqimining kelib tushish istiqboliga qarab, bir necha bosqichda qoplashni ko'zda tutuvchi jadval shaklida taqdim etilishi mumkin.

Kreditni qaytarish muddati yetib kelganda va qarz oluvchining talab qilib olinguncha depozit hisobraqamida pul mablag'lari mavjud bo'lmagan taqdirda, kredit muddati o'tgan ssudalar hisobraqami orqali undirib olishga taqdim etiladi, u bo'yicha muddatli majburiyatnomalar esa 2-kartotekaga joylashtiriladi va kalendar navbati tartibida qaytariladi. Bunda, birinchi navbatda, asosiy qarz summasi undirib olinadi.

Tijorat banklari kreditdan foydalanishning butun muddati davomida doimiy monitoringni amalga oshirib boradilar. Monitoring jarayonida mijozning xo'jalik-moliyaviy faoliyati, uning tuzilgan shartnomalar (buyurtmalar)ga muvofiq xizmatlar ko'rsatish bo'yicha majburiyatlarini bajarishini, ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini, ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlari va yo'qotishlarini, muomala xarajatlarini, foydasini, o'z aylanma mablag'larining mavjudligi dinamikasini, tovar-moddiy boyliklari zaxiralari ahvoli, aylanma mablaglarining aylanishi tahlil qilinadi. Bank qarz oluvchining kreditga layoqatligi bo'yicha doimiy monitoringni amalga oshiradi va uning ko'rsatkichlarini kredit yig'ma jildida tizimlab boradi.

Bankka taqdim etilgan garovning holatiga va kreditdan samarali hamda maqsadli foydalanilishi kredit shartnomasida kelishilgan shartlarga muvofiq joyida o'rganiladi.

Kapital ta'mirlash va boshqa obodonlashtirish ishlarini moliyalashtirishga ajratilgan kreditlar bo'yicha, amalga oshiriladigan monitoring jarayonida bank kreditlangan ob'yektda bajarilgan ishlar hajmining nazorat o'lchovini kredit shartnomasida belgilab qo'yilgan shartlar va muddatlarda, amalga oshiradi.

Nazorat o'lchovi natijalari bo'yicha bank tomonidan bajarilgan ishlar hajmi oshirib yozilganligi aniqlangan holda, bu summa bank tomonidan kredit shartnomasida belgilangan tartibda muddati o'tgan ssudalar hisob raqamiga o'tkaziladi va undirib olinadi.

Kredit shartnomasida kreditdan maqsadga muvofiq foydalanmaganlik uchun, shu jumladan, bajarilgan ishlar hajmini oshirib ko'rsatilganligi uchun, jarima sanktsiyalari ko'zda tutilgan bo'lishi kerak.

Berilgan kreditlardan boshqa maqsadlarda foydalanganlik holati aniqlanganda, bank kredit shartnomasida belgilangan tartibda kreditning nomuvofiq ishlatilgan qismini qarz oluvchining talab qilib olinguncha depozit hisob varag'idan muddatidan oldin undirib olish huquqiga ega.

Qarz oluvchi tomonidan asosiy qarz va unga hisoblangan foizlar kredit shartnomasida kelishilgan muddatda qaytarilmasa, garovga qo'yilgan mulk, qarz oluvchining roziligi mavjudligidan qat'i nazar, uni keyinchalik sotish huquqi bilan, bank mulkiga o'tadi.

Qarz oluvchi tomonidan qarz va unga hisoblangan foizlar o'z vaqtida qaytarilmagan holda, bank quyidagi huquqlarga ega:

— qarzdorlarning ikkilamchi hisob raqamlariga, shu jumladan, boshqa bankda ochilganlariga ham, ijro etilishi majburiy bo'lgan, to'lov talabnomalarini qo'yish;

— qarzdor tomonidan kredit bo'yicha asosiy qarzdorlik va unga hisoblangan foizlar kredit shartnomasida kelishilgan muddatda qaytarilmagan takdirda, bank, mazkur qarzlarni qaytarishni qarzdorlarning likvidli mol-mulki, shu jumladan ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma obyektlari, transport vositalari, kompyuter hamda korxona va tashkilotlarning boshqa likvidli aktivlari hisobiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 4-dekabrdagi 422-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Banklarni kreditlari bo'yicha qarzdorlik o'z vaqtida qaytarilmagan taqdirda

undiruvni qarzdorlarning likvidli mol-mulkiga qaratish Tartibi"ga muvofiq qaytarish huquqiga ega.

Tayanch iboralar

Shirkatning moliyaviy faoliyati, daromadlar va xarajatlar smetasi, shirkatining moliyaviy mablag'lari, shirkat a'zolarining majburiy badallari, ishlab chiqarish xarajatlari, ma'muriy xarajatlar, kalkulyatsiyalash, soddalashtirilgan buxgalteriya hisobi, ikki tomonli buxgalteriya yozuvi, moliyaviy hisobot, buxgalteriya balansi, kreditning tamoyillari, kredit paketi, likvidli mol-mulk, ssuda hisobraqami

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Shirkatlar faoliyatini samarali tashkil etishda nimalarga e'tibor berish kerak?

2. Shirkatning moliyaviy faoliyatini tashkil etish boshqa korxona va tashkilotlarnikidan qanday farqlarga ega?

3. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarida buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

4. Shirkat daromadlar va xarajatlar smetasi qanday tuziladi?

5. Shirkatning daromadlar va xarajatlar smetasi daromlar qismi nimalardan tashkil topadi?

6. Chetdan yollanuvchi tashkilotlarning xizmatlari qanday xarajatlarni o'z ichiga oladi?

7. Moliyaviy xo'jalik jarayonlarini hujjatlashtirishni tushuntirib bering.

8. Uy-joy fondiga xizmat ko'rsatish ishlarini kalkulyatsiyalash qanday amalga oshiriladi?

9. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari qanday statistik hisobotlarni topshiradi?

10. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash qanday tamoyillarga asoslanadi?

11. Shirkatlarga kreditlar qanday maqsadlarga ajratiladi?

XV BOB. UY-JOY-KOMMUNAL XIZMAT KO'RSATISHDA «YAGONA BUYURTMACHI XIZMATI» VA PROFESSIONAL BOSHQARUV KOMPANIYASI

15.1. Yagona buyurt machi xizmati va uning vazifalari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Aholiga kommunal xizmat ko'rsatish tizimida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish Kontseptsiyasini tasdiqlash to'grisida» 1998-yil 3-noyabrdagi 461-sonli Qaroriga muvofiq «Uy-joy-kommunal xizmat ko'rsatish bo'yicha Yagona buyurtmachi xizmati to'g'risida»gi Vaqtinchalik Nizom ishlab chiqilgan. Ushbu nizom Uy-joy-kommunal xizmat ko'rsatish bo'yicha Yagona buyurtmachi xizmatining asosiy vazifalari hamda funktsiyalarini, uning huquqiy maqomini, tashkil etilishini, faoliyat ko'rsatishi va tugatilishini belgilab beradi.

Yagona buyurtmachi xizmati uy-joy fondini, turar-joy bo'lmagan binolar va imoratlarni, muhandislik asbob-uskunalarini, uylarga yondosh hududlarni zarur darajada saqlash va tuzatishni, barcha to'lovlarni hisob-kitob qilish va yig'ishni, pudrat tashkilotlari va xizmat ko'rsatuvchilar bilan hisob-kitob qilishni hamda fuqarolarning yashashi uchun shart-sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan uy-joy fondini boshqarishni amalga oshirishga vakolatli tashkilot hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 24-yanvardagi 22-sonli «O'zbekiston Respublikasining uy-joy Kodeksini amalga oshirish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi Qaroriga asosan quyidagi shahar va tumanlarda Yagona buyurtmachi xizmatini tashkil etish bo'yicha eksperimentlar o'tkazildi:

1. Asaka shahri, Andijon viloyati;
2. Buxoro shahri, Buxoro viloyati;
3. Denov shahri, Surxondaryo viloyati;
4. Samarqand shahri, Samarqand viloyati;
5. Qo'qon shahri, Farg'ona viloyati;
6. Sirdaryo shahri, Sirdaryo viloyati;
7. Taxiatosh shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi;
8. Qarshi shahri, Qashqadaryo viloyati;
9. Kosonsoy shahri, Namangan viloyati;
10. Olmaliq shahri, Toshkent viloyati;
11. Xiva shahri, Xorazm viloyati;
12. Yunusobod tumani, Toshkent shahri;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari va Toshkent shahar hududiy kommunal-foydalanish birlashmasi Yagona buyurtmachi xizmatiga uslubiy, texnikaviy va boshqa zarur yordam ko'rsatadi, uni tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ta'minlaydi.

Yagona buyurtmachi xizmati tegishli shahar (tuman) hokimi qarori asosida davlat unitar korxonasi shaklida tashkil etiladi, hokim, shuningdek, Yagona buyurtmachi xizmatining ushbu Nizomga muvofiq ishlab chiqilgan Ustavini ham tasdiqlaydi.

Mulkdorlar, shuningdek, uy-joy ijarachilari va arendachilari uy-joy fondini boshqarish, unga xizmat ko'rsatish va uni ta'mirlash hamda kommunal xizmatlar ko'rsatish yuzasidan pudratchilar bilan o'z munosabatlarini ham Yagona buyurtmachi xizmati orqali, ham bevosita yo'lga qo'yishlari mumkin.

Yagona buyurtmachi xizmati faoliyatini mablag' bilan ta'minlash mahalliy budjet mablag'lari, aholi va korxonalarning uy-joy-kommunal xizmatlar uchun to'lovlari, shuningdek, markazlashtirilgan davlat subsidiyalari hisobiga amalga oshiriladi.

Quyidagilar Yagona buyurtmachi xizmatining asosiy vazifalari hisoblanadi:

— uy-joy fondini boshqarish, unga xizmat ko'rsatish va uni ta'mirlash hamda kommunal xizmatlar ko'rsatish yuzasidan

pudratchilar oldida uy-joy va uy-joy bo'lmagan binolar mulkdorlari (ijarachilar va arendachilar) manfaatlarini ifodalash;

— uy-joy mulkdorlari (ijarachilari va arendachilari)ning uy-joy-kommunal xizmatlar ko'rsatishni hamda ta'mirlash ishlarini pudratchilar bilan tanlov asosida o'tkazishni tashkil etish yuzasidan buyurtmachilarni shakllantirish va umumlashtirish;

— aholidan tushadigan moliyaviy mablag'larni, shuningdek, pudratchi tomonidan bajarilgan ishlarga va ko'rsatilgan xizmatlarga, ularning sifatiga qarab hamda shartnomaga muvofiq, to'lash uchun davlat tomonidan markazlashtirilgan tartibda va mahalliy darajada ajratiladigan subsidiyalarni jamlash va tasarruf etish.

Uy-joylar mulkdorlari, ijarachilari va arendachilarining ixtiyoriy birlashmalari, shu jumladan, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari xam uy-joylarni saqlash bo'yicha davlat tomonidan ajratiladigan subsidiyalarning mustaqil oluvchilari bo'lishi mumkin.

Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari umumiy mulkni boshqarish, ularga xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlash, shuningdek, kommunal va boshqa xizmatlar ko'rsatish yuzasidan yuridik va jismoniy shaxslar bilan mustaqil ravishda shartnomalar tuzishlari mumkin.

Yagona buyurtmachi xizmati foydalanuvchilarga markazlashtirilgan tartibda issiqlik, gaz, elektr energiyasi yetkazib berish bo'yicha tuman va shahar kommunikatsiyalarini boshqarish, ularga xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlash yuzasidan, shuningdek, jamoat hududlari va kommunikatsiyalarida kommunal xizmatlar ko'rsatish va ta'mirlash ishlari yuzasidan pudratchilar bilan ustuvor tartibda shartnomalar tuzadi.

Shahar (tuman) hokimligi davlat uy-joy fondini (uy-joylarni ularga yondosh hududlar, ichki muhandislik kommunikatsiyalari, suv, issiqlik, kanalizatsiya, gaz, elektr energiyasi bilan birga, Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati boshqaruviga berilgan davlat uy-joy fondi bundan mustasno) joylardagi ijro

etuvchi hokimiyat organlaridan xo'jalik yuritish va boshqarish uchun Yagona buyurtmachi xizmati balansiga beradi. Yagona buyurtmachi xizmatiga, shuningdek, ijro etuvchi hokimiyat organlarining davlat uy-joy fondini boshqarish bo'yicha funktsiyalari ham yuklatiladi.

Xususiy mulk bo'lgan ko'p kvartirali uy-joylar, ularga yondosh hududlar va ichki muhandislik kommunikatsiyalari (suv, issiqlik, kanalizatsiya, gaz, elektr energiyasi) ko'chmas mulk butun kompleksidan shartnoma bo'yicha foydalanishni ta'minlash uchun mulkdorlar tomonidan Yagona buyurtmachi xizmati boshqaruviga berilishi mumkin.

Yagona buyurtmachi xizmatiga uy-joy mulkdorlari bilan shartnomaviy shartlarda quyidagi asosiy funktsiyalarni bajarish yuklanadi:

— uy-joy fondini va muhandislik infratuzilmasi ob'yektlarini (suv oqizish-kanalizatsiya xo'jaligi, issiqlik, elektr energiyasi; gaz ta'minoti, tashqi obodonlashtirish obyektlari hamda foydalanuvchilarga kommunal xizmatlar ko'rsatishni bevosita amalga oshiruvchi boshqa obyektlarni) saqlash va ta'mirlash yuzasidan pudrat korxonalari bilan tanlov asosida shartnomalar tuzish;

— aholi va boshqa foydalanuvchilarning uy-joyni saqlash va ta'mirlash hamda uy-joy-kommunal xizmatlar uchun to'lov sifatida tushadigan mablag'larini, shuningdek, mahalliy budjetdan ajratilgan mablag'larni to'plash;

— uy-joy fondi mulkdorlari bilan birgalikda ishlar pudratchisini, uy-joy-kommunal xizmatlar ko'rsatuvchini tanlash, shu jumladan, to'liq ta'mirlash va rekonstruktsiya qilishni amalga oshirish yuzasidan tanlovlar o'tkazishni tashkil etish, ular tugallangach, ishlarni qabul qilib olishda qatnashish;

— bajarilayotgan ishlar va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va puxtaligini nazorat qilish hamda tuzilgan shartnomalarga muvofiq amalga oshirilgan ishlar va xizmatlar uchun haq to'lash;

— kvartiralar ichidagi asbob-uskunalarni ta'mirlash va almashtirish, muhandislik tarmoqlaridagi halokatli holatlarni

va ularning oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan uy-joy fondi mulkdorlaridan, shu jumladan, Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlaridan tushadigan buyurtmanomalarning bajarilishi to'g'risidagi axborotlarni yig'ish va tahlil qilish;

— pudrat tashkilotlari tomonidan Yagona buyurtmachi xizmati mijozlarining tezkor buyurtmalari bo'yicha xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlari, shuningdek kommunal xizmatlarning o'z vaqtida amalga oshirilishini, shu jumladan, tushayotgan shikoyatlarni ro'yxatdan o'tkazish va paydo bo'layotgan muammolarni hal etish yo'li bilan, doimiy nazorat qilish;

— shartnoma shartlarini bajarmagan taqdirda uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash, kommunal xizmatlar ko'rsatish bo'yicha pudrat korxonalarini almashtirish, tanlov asosida yangi korxonalarni tanlash;

— uy-joy fondining, muhandislik infratuzilmasi va tashqi obodonlashtirish obyektlarining texnik holatini rejali nazorat qilish hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun tavsiyalar va texnik yechimlar ishlab chiqish;

— yagona buyurtmachi xizmatiga qarashli hududda foydalanuvchilarga uy-joy-kommunal xizmatlar ko'rsatishni yaxshilash uchun zarur bo'lgan yangi pudrat korxonalari tashkil etishda qatnashish;

— yangi ishga tushirilgan uy-joy-kommunal xo'jaligi obyektlarini qabul qilib olish bo'yicha takliflar tayyorlash;

— pudratchining uy-joyni, yerto'lalarda, shaxtalarda joylashgan muhandislik tarmoqlarini, bittadan ko'p kvartirani birlashtiruvchi tarmoqlarni, texnika asbob-uskunalarini, yondosh hududni zarur darajada saqlash hamda unda yashovchi aholiga shartnomada nazarda tutilgan haq to'lanadigan ish va xizmatlar turlari ro'yxatiga muvofiq xizmat ko'rsatish bo'yicha faoliyatini nazorat qilish, shuningdek, tushayotgan buyurtmanomalar bo'yicha aholiga xizmat ko'rsatish ishlarini tezkorlik bilan tashkil etish.

Yagona buyurtmachi xizmati:

— pudrat korxonalari tomonidan xizmat ko‘rsatish yuzasidan shartnomalar shartlari buzilgan taqdirda ulardan nazarda tutilgan iqtisodiy jarimalar tarzidagi mablag‘larni undirish maqsadida sud organlariga murojaat qilishdan;

— ko‘rsatilgan uy-joy-kommunal xizmatlar uchun mablag‘lar to‘lanmagan taqdirda ularni o‘z mijozlaridan undirish maqsadida sud organlariga murojaat qilishdan iborat.

Yagona buyurtmachi xizmati uy-joy-kommunal xizmatlar ko‘rsatish yuzasidan buyurtmani shakllantirish uchun;

— ta’mirlash-qurish ishlari va uy-joy-kommunal xo‘jaligi xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha bozorlar kon’yunkturasini;

— uy-joy-kommunal xizmatlar hajmlari hamda xizmatlar qiymatining mumkin bo‘lgan o‘zgarishlar prognozini va pudrat shartnomalari tuzishda inflyatsiya omillarini hisobga olishni;

— shartnoma asosida uy-joy-kommunal xizmatlar ko‘rsatish huquqiga tanlovlar tashkil etishni o‘rganish bo‘yicha ishlarni amalga oshiradi.

Ustavga ko‘ra Yagona buyurtmachi xizmatiga uning asosiy vazifalarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa funktsiyalar va huquqlarni amalga oshirish yuklanishi mumkin.

15.2. Davlat uy-joy-fondini yagona buyurtmachi xizmatiga berish tartibi

Shaxar (tuman) hokimligi qabul qilish-berish maxsus dalolatnomasida sanab o‘tilgan va berishning haqiqiy sanasidagi holatiga ko‘ra mulkdor balansida aks ettirilgan ko‘char va ko‘chmas mulkni (asosiy va aylanma mablag‘lar hamda ularning manbalarini) to‘liq xo‘jalik yuritish huquqi bilan Yagona buyurtmachi xizmatiga biriktirib qo‘yadi.

Yagona buyurtmachi xizmati O‘zbekistan Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq unga to‘liq xo‘jalik yuritish huquqi bilan biriktirilgan davlat mulkiga ega bo‘ladi va undan foydalanadi.

Yagona buyurtmachi xizmatiga to‘liq xo‘jalik yuritish huquqi bilan biriktirilgan davlat mulki, shuningdek, u yaratgan va sotib olgan mulk shahar (tuman) mulki hisoblanadi.

Yagona buyurtmachi xizmati, asosiy faoliyat turlariga zarar yetkazmagan holda, jismoniy va yuridik shaxslarga amaldagi qonunchilikka zid bo‘lmagan qo‘shimcha o‘zaro bog‘liq xizmatlar ko‘rsatganlik uchun daromadlar olish huquqiga ega.

Yagona buyurtmachi xizmatiga to‘liq xo‘jalik yuritish huquqi bilan berilgan ko‘chmas mulk, mashina va asbob-uskunalar:

a) faqat O‘zbekistan Respublikasi qonunchiligiga muvofiq mulkdorning qaroriga ko‘ra sotilishi yoki boshqa usulda begonalashtirilishi;

b) mulkdorning roziligi bilan va uning bilan kelishilgan shartlarda garovga berilishi;

v) faqat mulkdorning qaroriga ko‘ra ijaraga topshirilishi mumkin. Yagona buyurtmachi xizmati berilgan davlat uy-joy fondiga nisbatan:

a) to‘liq xo‘jalik yuritish huquqi bilan o‘ziga biriktirilgan davlat mulkidan foydalanish qoidalari buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik va uning saqlanishini ta’minlash hamda uni o‘z mablag‘lari, shu jumladan, amaldagi qonunchilikka muvofiq hisoblanadigan amortizatsiya ajratmalari hisobiga tiklash;

b) to‘liq xo‘jalik yuritish huquqi bilan o‘ziga biriktirilgan davlat mulkini o‘z mablaglari hisobiga kapital va joriy ta’mirlash;

v) o‘z ixtiyoriga topshirilgan uy-joy fondini binolar konstruktsiya bardoshliligini saqlash jihatdan muntazam nazorat qilish;

g) bino konstruktsiyalarining shikastlangani aniqlangan taqdirda shahar (tuman) hokimligini xabardor kilish, konstruktsiyalarning fuqarolar yashashiga va uy-joy fondining bundan keyingi saqlanishiga xavf soluvchi shikastlanishlari darajasini tezkorlik bilan aniqlash uchun loyihalash institutlari mutaxassislarini jalb etish;

d) shahar (tuman) hokimligiga uy-joy fondini saqlash chora-tadbirlarini ko'rish to'grisida takliflar kiritish;

e) har yili fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi bilan birgalikda o'ziga biriktirilgan davlat uy-joy fondi kvartiralarini tekshirib chiqish;

j) o'zboshimchalik bilan xonalar joylashishi o'zgartirilganda, to'siqlar olib tashlanganda, o'yilganda, konstruktsiya elementlari, konstruktsiyalar qisman yoki to'liq ko'chirilganda va foydalanishning texnik normalariga muvofiq bo'lmagan muhandislik kommunikatsiyalari o'rni o'zgartirilganda hamda fuqarolar tomonidan uydagi boshqa yashovchilar yashashiga xavf tug'diruvchi boshqa barcha xatti-harakatlar sodir etilganda ko'rsatib o'tilgan buzilishlar to'grisida darhol dalolatnoma tuzish va konstruktsiyalarni aybdor hisobiga o'tkazish chora-tadbirlarini ko'rish uchun materiallarni shahar(tuman) hokimligiga yoki sud organlariga yetkazish;

z) belgilangan soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni budjetga to'lash majburiyatlarini oladi.

Xo'jalik yuritish huquqi bilan Yagona buyurtmachi xizmatiga biriktirilgan davlat mulki:

a) mulkdorning qaroriga ko'ra:

— Yagona buyurtmachi xizmati qayta tashkil etilganda;

— belgilangan maqsadga ega bo'lgan, o'zining va mahalliy budjet hisobiga barpo etilgan yoki sotib olingan binolar, inshootlar va boshqa mulklar belgilangan maqsad bilan boshqa yuridik shaxsga berilganda;

b) sud qaroriga ko'ra:

— mulkdor Yagona buyurtmachi xizmatidan mulkni undirish to'g'risida murojaat qilganda to'liq yoki qisman olib qo'yilishi mumkin.

15.3. Yagona buyurtmachi xizmatini boshqarish va xo'jalik-moliyaviy faoliyatini tashkil etish

Yagona buyurtmachi xizmatiga viloyat va shahar hokimliklari bilan kelishilgan holda shahar(tuman) hokimi tomonidan lavozimga tayinlanadigan boshliq rahbarlik qiladi. Yagona buyurtmachi xizmati boshligi:

— Yagona buyurtmachi xizmati faoliyatiga rahbarlik qiladi va unga yuklangan funktsiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

— Yagona buyurtmachi xizmatining shtat jadvali yuzasidan shahar (tuman) hokimligiga takliflar kiritadi;

— barcha korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda Yagona buyurtmachi xizmati manfaatlarini qiladi;

— pudrat tashkilotlari, elektr energiyasi va suv bilan ta'minlovchi hamda ixtisoslashtirilgan boshqa tashkilotlar bilan shartnomalar tuzadi, komissiyalar tarkibini tasdiqlaydi, bank muassasalarida hisob-kitob va boshqa hisob raqamlari ochadi;

— xodimlar o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi, xizmat xodimlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimdan bo'shatadi;

— o'z vakolati doirasida buyruqlar va farmoyishlar chiqaradi. Yagona buyurtmachi xizmati faoliyatini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan amalga oshiriladi.

Yagona buyurtmachi xizmati belgilangan tartibda statistika va buxgalteriya hisobotini yuritadi, belgilangan muddatlarda tegishli organlarga balans hisobotlari topshiradi, soliq solish uchun zarur bo'lgan axborotlarni hamda iqtisodiy axborotlarni to'plash va ishlab chiqish umumdavlat tizimi ma'lumotlarini davlat statistika organlariga taqdim etadi.

Mulkdorlar, ya'ni xonadon (kvartira) egasi va ijrochi — yagona byurtmachi xizmati o'rtasidagi moliyaviy-xo'jalik munosabtalarini uy-joy (kvartira)ni boshqarish, unga xizmat ko'rsatish va uni ta'mirlash hamda unga kommunal xizmatlar ko'rsatish bo'yicha shartnoma asosida tartibga solinadi.

Uy-joy mulkdori uy (kvartira)ga texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha yagona byurtmachi tomonidan kommunal xizmatlar va uy-joyni ta’mirlash xizmatlari uchun belgilangan tariflarga muvofiq har oyning 10-kunidan kechiktirmay o‘z vaqtida haq to‘laydi.

Tariflar «1 kv. m. umumiy maydondagi turar joylarni ta’minlash va ishlatish uchun to‘lov tariflarini shakllantirishda xarajatlar tarkibini aniqlash hamda rentabellikning cheklangan darajasini joriy etish bo‘yicha Nizomni tasdiqlash to‘g‘risidagi Qaror» va «Kommunal xizmatlarga tariflarni shakllantirishda xarajatlar tarkibini aniqlash va rentabellikning cheklangan darajasini joriy etish bo‘yicha Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida»gi Qarorga asosan belgilanadi.

Uy-joy (kvartira)ni saqlaganlik, xizmat ko‘rsatganlik va ta’mirlaganlik, kommunal xizmatlar ko‘rsatganlik uchun uy (xonodon) tomonidan har oyda xisob-kitob qilinadi. To‘lovlar o‘tgan oydan keyingi oyning 10 kunigacha to‘lanadi. Kommunal xizmatlar haki belgilangan shakldagi to‘lov hujjati bo‘yicha ijrochi-yagona buyurtmachi xizmati orqali to‘lanadi.

Uy-joy (kvartira)ni boshqarish, unga xizmat ko‘rsatish va uni ta’mirlash hamda unga kommunal xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha haq amaldagi Qonun hujjatlariga muvofiq, mahalliy hokimiyat organlari (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, shahar, tuman va Toshkent shahar hokimliklari) tomonidan tasdiqlangan tariflar bo‘yicha to‘lanadi.

Uy-joy-kommunal xizmatlar haqi o‘z vaqtida to‘lanmagan taqdirda «Mulkdor» «Ijrochiga» muddati o‘tkazib yuborilgan har bir kun uchun 0,1 foiz miqdorida penya to‘laydi (muddati o‘tkazib yuborilgan to‘lov summasining 50 foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorda).

15.4. Professional boshqaruv kompaniyasi belgilari, funktsiyalari va vazifalari

Professional boshqaruv kompaniyasi mas'uliyati cheklangan jamiyati Ta'sis shartnomasi va Ustav asosida hamda Boshqaruv kompaniyasi Ishtirokchilarining mablag'larini birlashtirish asosida ishlab chiqarish, tadbirkorlik, tijorat va boshqa turdagi xo'jalik faoliyatini yuritish maqsadida tashkil etiladi.

O'z faoliyatida Boshqaruv kompaniyasi Fuqarolik kodeksi, Uy-joy kodeksi, O'zbekiston Respublikasining «Uy -joy mulkdorlari shirkatlari to'g'risida»gi Qonuni, «Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida»gi qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-fevraldagi PQ 5-sonli qaroriga hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjatlari, Ta'sis shartnomasi va mazkur Ustavga asoslanadi.

Boshqaruv kompaniyasi faoliyatining asosiy maqsadi uy-joy sohasida ko'chmas mulk mulkdorlariga yoki mulkdorlar tomonidan vakolat berilgan organlar, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatiga, ko'p kvartirali uylardagi turar joy va noturar joy mulkdorlariga va boshqa, tashkilotlar yoki shaxslarga ko'chmas mulkni boshqarish sohasida xizmat ko'rsatish orqali daromad olishdan iborat.

Boshqaruv kompaniyasi faoliyati predmeti quyidagi turdagi xizmatlarni ko'rsatishdan iborat:

Ko'chmas mulkka xizmat ko'rsatilishini boshqarish bo'yicha,

— inventarizatsiya o'tkazish;

— texnik holatni ko'rikdan o'tkazish;

— xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha bajariladigan ishlarning ustuvorligini baholash;

— xizmat ko'rsatish, ta'mirlash, rekonstruktsiya qilish, mulkning ayrim ob'yektlarini (qismlari) modernizatsiya qilish ishlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan nuqsonlar dalolatnomasi va boshqa turdagi texnik hujjatlarni tuzish;

— mulkni saqlash bo‘yicha yillik va istiqbolli rejalar loyihasini ishlab chiqish;

— texnik va sanitariya xizmatlarini ko‘rsatish va ta’mirlash bo‘yicha ishlar rejalari va jadvallarini tayyorlash;

— yangi jihozlar va muhandislik tizimlarini o‘rnatish, mulkni rekonstruktsiya va modernizatsiya qilish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish;

— mulkka avariya-dispetcherlik xizmati ko‘rsatilishini uyushtirish.

Moliyaviy boshqaruv bo‘yicha:

— mulkni saqlash rejalarini amalga oshirish uchun moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojni baholash;

— ayrim ish turlari, ta’mirlash bo‘yicha smetalarni ishlab chiqish;

— daromadlar va xarajatlar smetalari loyihasini ishlab chiqish;

— uy-joy mulkdorlarining (uy-joy mulkdorlari shirkati a’zolarining) mulkni saqlash xarajatlarini qoplash bo‘yicha to‘lovlari (badallari) miqdorini hisoblab chiqish;

— daromadlar smetasi moddalariga mos holda to‘lovlar (badallar) tushumi hisobini yuritish va nazorat qilish;

— uy-joy mulkdorlari shirkatlari, mulkdorlar va ular tomonidan vakolat berilgan organlar, tashkilotlar va shaxslar uchun daromadlar va xarajatlar smetasining ijrosi bo‘yicha hisobotlarni tayyorlash;

— xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash bo‘yicha bajarilgan ishlar uchun to‘lovlarni tasdiqlash bo‘yicha chiqim hujjatlarini tekshirish;

— uy-joy mulkdorlari shirkatlarining buxgalterlik hisobini va hisobotini yuritish;

— uy-joy mulkdorlari va uy-joy mulkdorlari shirkatlari uchun soliqlar, yig‘imlar va majburiy to‘lovlarni hisob-kitob qilish;

— auditorlik tekshiruvlarini tashkil etish.

Ma’muriy boshqaruv bo‘yicha:

— davlat organlari va boshqa organlarda mulkdorlar, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari nomidan ish yuritish;

— xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash bo‘yicha malakali ijrochilar, pudratchilarni izlash;

— mulkdorlar yoki ular tomonidan vakolat berilgan organlar, tashkilotlar yoki shaxslarga ishlarni bajarish (xizmat ko‘rsatish) bo‘yicha tanlovlar (tenderlar) o‘tkazish uchun tanlov hujjatlari to‘plamini ishlab chiqish yoki bu borada yordam berish;

— uy -joy mulkdorlari shirkatlari va boshqa mijozlar uchun lavozim yo‘riqnomalarini va ishlarni bajarish bo‘yicha topshiriqlarni ishlab chiqish;

— mulkdorlar yoki ular tomonidan vakolat berilgan organlar, tashkilotlar yoki shaxslar uchun ishlarni bajarish (xizmat ko‘rsatish) bo‘yicha shartnomalar loyihalarini ishlab chiqish;

— ijrochilar, pudratchilar tomonidan shartnomalarning bajarilishini nazorat qilish, bajarilgan ishlar hajmi va sifatini baholash;

— uy-joy mulkdorlari shirkatida mulkdorlarning to‘lovi (badallari) yig‘imini tashkil etish;

— muddati o‘tgan to‘lovlar va qarzlar tushumini ta’minlash;

— uy-joy mulkdorlari shirkatlari va har bir mulkdor uchun mulkni saqlash hamda daromadlar va xarajatlar smetasi ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni tayyorlash;

— aholi va tashkilotlardan avariya holatlarini bartaraf etish va ta’mirlash-tiklash ishlarini bajarish bo‘yicha buyurtmalar olinishini ta’minlash.

Maxsus xizmatlar ko‘rsatish:

— mulkni rekonstruktsiya va modernizatsiya qilish bo‘yicha, xususan, resurslarni tejash va mulkni saqlash xarajatlarini kamaytirish yuzasidan takliflarni tayyorlash;

— ko‘p kvartirali uylar uchun xonalarni qayta rejalashtirish, qayta jihozlash va rekonstruktsiya qilish bo‘yicha ekspert xulosalarini tayyorlash;

— mulkdan foydalanishda qo‘shimcha daromad olish uchun takliflar ishlab chiqish;

— mulkdorlar yoki ular tomonidan vakolat berilgan organlar, tashkilotlar yoki shaxslar topshirig‘iga ko‘ra ijarachilar (arendatorlar)ni izlash, ijara (arenda) shartnomalarini tayyorlash va ularning ijrosi ustidan nazorat o‘rnatish;

— moliyaviy mablag‘larni saqlash va qo‘shimcha daromad olish uchun bank depozitlarida joylashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish;

— xonalar mulkdorlari va XUJMSHga kapital ta’mirlash, rekonstruktsiya va modernizatsiya ishlari uchun banklardan va boshqa kredit tashkilotlaridan kreditlar olish uchun hujjatlarni rasmiylashtirishga ko‘maklashish;

— sudlarda xonalar mulkdorlari, ijarachilar, yollovchilarga nisbatan uy-joy mulkdorlari shirkati nomidan ish yuritish.

Boshqaruv kompaniyasi asosiy faoliyat turlaridan tashqari faoliyatning quyidagi turlari bilan shug‘ullanishi mumkin:

— ilmiy va loyiha ishlanmalari, ilmiy tadqiqot natijalarini joriy etish;

— vakillik, agentlik, reklama, marketing, maslahat xizmatlarini ko‘rsatish;

— qonunchilikda belgilangan tartibda tashqi iqtisodiy faoliyat yuritish, xom ashyo, materiallar, mahsulotlar, tovarlar, ish va xizmatlar eksporti va importi bo‘yicha amaliyotlarni, savdo-vositachilik amaliyotlarini amalga oshirish;

— O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida tijorat tashkilotlari uchun taqiqlanmagan har qanday boshqa turdagi faoliyat bilan shug‘ullanish.

Mazkur Ustavda ko‘zda tutilgan, litsenziya (ruxsatnoma) talab qilinadigan faoliyat turlari bilan shug‘ullanish Boshqaruv kompaniyasi tomonidan faqat belgilangan tartibda litsenziya (ruxsatnoma) olinganidan so‘ng amalga oshiriladi.

Boshqaruv kompaniyasi alohida mulkka, mustaqil balansga ega, banklarda hisob-kitob, valyuta va boshqa hisob raqamlarni ochadi, o‘z nomidan ish yuritishi, bitimlar, shartnomalar,

kontraktlar tuzishi, mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi, majburiyatlarga ega bo'lishi, sudda, xo'jalik va hakamlik sudlarida da'vogar va javobgar sifatida ishtirok etishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga ko'ra Boshqaruv kompaniyasi o'z majburiyatlari bo'yicha butun mulki va aktivi bilan javobgar bo'lib qarzlar ana shu mulk hisobidan undirilishi mumkin. Boshqaruv kompaniyasi ishtirochilar majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi, ishtirokchilar esa Boshqaruv kompaniyasi majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi. Ishtirokchilar zararlarni qoplashda o'zlarining Boshqaruv kompaniyasi Ustav jamg'armasidagi ulushlari qiymati doirasida javob beradi. O'z ulushini to'liq qo'shmagan ishtirokchilar Boshqaruv kompaniyasi majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi ulushining to'lanmagan qismi doirasida birgalikda javobgardir.

Boshqaruv kompaniyasi o'z nomi bitilgan dumaloq muhrga, tovar belgisiga, to'rtburchak muhrga, blankalarga va yuridik shaxsning boshqa rekvizitlariga ega.

Boshqaruv kompaniyasi o'ziga tegishli mulkka egalik qilish, foydalanish va uni tasarruf etish huquqiga ega. Boshqaruv kompaniyasi o'z mulkiga nisbatan qonunga zid bo'lmagan har qanday harakatlarni amalga oshirishi, mulkidan qonunchilikda taqiqlanmagan va Boshqaruv kompaniyasining Ustav maqsadlari va vazifalariga mos bo'lgan har qanday xo'jalik va boshqa turdagi faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin.

Boshqaruv kompaniyasi qonunchilik talablariga va Ustav moddalariga rioya qilgan holda yirik bitimlar tuzishi va Boshqaruv kompaniyasi mansabdor shaxslari va ayrim Ishtirokchilari manfaatdorligi mavjud bo'lgan har qanday bitimlar tuzishi mumkin.

Boshqaruv kompaniyasi boshqa yuridik shaxslarning muassisi bo'lish yoki boshqa yuridik shaxslarning ustav jamg'armasida boshqa shaklda ishtirok etish, sho'ba korxonalar, vakolatxonalar, filiallar va qonunchilikda belgilangan tartibda

joriy va hisob-kitob hisob raqamini ochish huquqiga ega bo'lgan alohida bo'linmalar tuzish huquqiga ega.

Mazkur Ustavga va boshqa ta'sis hujjatlariga kiritiladigan har qanday o'zgartish va qo'shimchalar ular yozma tarzda rasmiylashtirilgan, ishtirokchilar tomonidan tegishli tartibda imzolangan va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan taqdirda haqiqiy deb hisoblanadi. Ta'sis hujjatlariga o'zgartishlar kiritilishi va ularning davlat ro'yxatidan o'tkazilishi Boshqaruv kompaniyasi umumiy yig'ilishida bunday o'zgartishlar tasdiqlanganidan so'ng bir oydan kechiktirilmagan holda amalga oshirilishi kerak.

Boshqaruv kompaniyasi quyidagi huquqlarga ega:

— yuridik va jismoniy shaxslar bilan ushbu Ustavga muvofiq ravishda, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi tomonidan taqiqlanmagan turli xil xizmatlar ko'rsatilishi bo'yicha xo'jalik shartnomalarini tuzish;

— shartnomaviy asosda u yoki bu turdagi xizmat, yoxud xizmatlar to'plamiga narxlarni mustaqil belgilash;

— mustaqil ravishda bevosita yoki uy-joy mulkdorlari shirkatlari, mulkdorlar topshirig'iga ko'ra kommunal xizmatlar ta'minotchilari bilan shartnomalar tuzish;

— tadbirkorlik faoliyatidan qonunchilikda belgilangan tartibda soliqqa tortiladigan cheklanmagan miqdorda daromad (foyda) olish;

— o'z ixtiyoriga ko'ra olingan daromadni (foydani) tasarruf etish, bankdagi hisob raqamlaridagi pul mablag'larini mustaqil tasarruf etish;

— aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni xarid qilish;

— kreditlar olish, ixtiyoriy tarzda va shartnomaviy asosda boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'larini jalb etish va ularni o'z ixtiyoriga ko'ra yo'naltirish;

— kredit olish maqsadida o'z mulkini garovga qo'yish;

— kichik va xususiy korxonalarga beriladigan barcha turdagi imtiyozlar va afzalliklardan foydalanish;

— qonunchilikda belgilangan tartibda xodimlarni ishga yollash (doimiy va vaqtinchalik asosda) va ular bilan tuzilgan mehnat shartnomalarini bekor qilish;

— zarur asboblar, ishlab chiqarish vositalarini xarid qilish, ijaraga olish, bino va inshootlar qurilishini amalga oshirish, shuningdek ulardan mustaqil foydalanish;

— O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq ravishda mulkni sug'urtalash, tavakkalchilikdan sug'urtalash va boshqa turdagi sug'urtalarni amalga oshirish;

— ixtiyoriy asosda, shu jumladan, ulushbay (hissadorlik) asosda birlashish, hamjamiyatlar, ittifoqlar, assotsiatsiyalar va boshqa birlashmalarga a'zo bo'lish.

Boshqaruv kompaniyasi quyidagi majburiyatlarga ega:

— uy-joy sohasida ko'chmas mulkni boshqarishga oid xizmatlarni ko'rsatishda belgilangan me'yorlar, qoidalar va standartlar, amaldagi moliyaviy va xo'jalik qonunchiligi talbalariga rioya qilish;

— O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq ravishda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'lash.

Boshqaruv kompaniyasining ustav jamg'armasi. Boshqaruv kompaniyasining Ustav jamg'armasi (ustav sarmoyasi) ishtirokchilari ulushlarining nominal qiymatidan tashkil topadi. Ustav jamg'armasini shakllantirish manbalarini ishtirokchilarning pul va moddiy qo'yilmalari, beg'araz va xayriya badallari, yuridik va jismoniy shaxslarning hayriyalari, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar tashkil etadi. Boshqaruv kompaniyasi Ustav jamg'armasi eng kam ish haqining 50 baravari miqdoridan kam bo'lmagan miqdorda tashkil etiladi. Ishtirokchi ulushining haqiqiy qiymati Boshqaruv kompaniyasi sof aktivlarining uning ulushi miqdoriga proportsional bo'lgan miqdoriga teng.

Boshqaruv kompaniyasi davlat ro'yxatidan o'tayotgan paytda ishtirokchilarning har biri o'z ulushining 30 foizdan kam bo'lmagan qismini kiritgan bo'lishi kerak. Boshqaruv

kompaniyasi davlat ro'yxatidan o'tgan paytdan boshlab bir yil ichida har bir ishtirokchi o'z ulushini to'liq kiritishi lozim. Ishtirokchilar tomonidan ulush tariqasida Ustav jamg'armasiga kiritiladigan mulk va mulkiy huquqlarning puldagi qiymati Boshqaruv kompaniyasi ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi qarori bilan bir ovozdan (100%) tasdiqlanadi.

Agar, ishtirokchi ulushi mulkiy huquqlar shaklida kiritilsa, Boshqaruv kompaniyasi tomonidan bunday mulkdan foydalanish huquqi muddatidan avval tugallangan taqdirda, amaldagi qonunchilikka muvofiq avval mulkiy huquqlarni bergan ishtirokchi Boshqaruv kompaniyasi talabiga ko'ra qolgan muddat davomida bunday mulkdan xuddi shu sharoitlarda foydalanganlik uchun to'lov haqqiga teng tovon pulini to'lashi shart.

Boshqaruv kompaniyasi o'zining ustav jamg'armasidagi ulushini ko'paytirishga haqli. Ustav jamg'armasining ko'paytirilishi Boshqaruv kompaniyasi mulki va ishtirokchilarning qo'shimcha qo'yilmalari, va uchinchi shaxslar qo'yilmalari hisobidan amalga oshiriladi.

Boshqaruv kompaniyasi o'z ustav jamg'armasini qisqartirish to'g'risida qaror qabul qilgan paytdan boshlab 30 kun ichida bu haqda o'ziga ma'lum bo'lgan qarzdorlarni yozma ravishda ogohlantirishi, ommaviy axborot vositalarida xabar e'lon qilishi, hamda amaldagi qonunchilikka muvofiq ta'sis hujjatlaridagi bu o'zgarishlarni ro'yxatdan o'tkazishi kerak.

Boshqaruv kompaniyasi ustav jamg'armasidagi ulushi qolgan ishtirokchilarning roziligiga ko'ra jismoniy shaxslarning meros-xo'rlariga va yuridik shaxslarning huquqiy vorislariga o'tadi.

Boshqaruv kompaniyasining mulki. Boshqaruv kompaniyasi mulki binolar, qurilmalar, inventarlar, jihozlar, transport vositalari, pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlar, intellektual mulk obyektlari, shuningdek qonuniy tarzda xarid qilingan boshqa mulklardan tashkil topadi.

Boshqaruv kompaniyasi mulkini shakllantirish manbalari quyidagicha bo'lishi mumkin:

— Ishtirokchilarning pul va moddiy mablag'lari;

— ko'rsatilayotgan xizmatlar va bajarilayotgan ishlar, shuningdek boshqa turdagi xo'jalik faoliyati va boshqa ishlardan olingan daromadlar;

— qimmatli qog'ozlardan olingan daromadlar;

— beg'araz va hayriya badallari, yuridik va jismoniy shaxslar hayriyalari.

Boshqaruv kompaniyasi qonunchilikka va ushbu ustavga muvofiq ravishda o'ziga tegishli mulkka egalik qiladi, foydalanadi va tasarruf etadi.

Boshqaruv kompaniyasi O'zbekiston Respublikasida amal qiladigan me'yorlar va qoidalarga muvofiq ravishda asosiy jamg'armalarni to'liq tiklash ishlariga amortizatsiya chegirmalarini amalga oshiradi.

Bo'lajak zararlarni qoplash, muddatli to'lovlarni amalga oshirish, ishtirokchilar ulushini xarid qilish maqsadida Boshqaruv kompaniyasi ustav jamg'armasining 15 % dan kam bo'lmagan miqdorda zaxira jamg'armasi tuzilishi mumkin. Zaxira jamg'armasi Boshqaruv kompaniyasi sof foydasi hisobidan yillik chegirmalardan Zaxira jamg'armasining belgilangan hajmiga yetguncha shakllantiriladi. Yillik chegirmalar miqdori sof foydaning 5 foizdan kam bo'lmagan qismini tashkil etadi.

Boshqaruv kompaniyasi faoliyati natijasida yuzaga keladigan zararlar zaxira jamg'armasi hisobidan qoplanadi. Ushbu mablag'lar yetarli bo'lmagan taqdirda zararlarni qoplash uchun Boshqaruv kompaniyasining boshqa mulkidan foydalanish mumkin.

Boshqaruv kompaniyasi oliy organi qaroriga ko'ra boshqa jamg'armalar ham tashkil etilishi mumkin. Ularni shakllantirish tartibi Boshqaruv kompaniyasining oliy organi tomonidan belgilanadi Jamg'armalar mablag'lari boshqaruv kompaniyasi to'liq ixtiyorida bo'lib, kompaniya ulardan foydalanish yo'nalishlarini mustaqil belgilaydi.

Soliqlar va boshqa majburiy yig'imlar va to'lovlar to'langanidan so'ng boshqaruv kompaniyasi ixtiyorida qoladigan

foyda (sof foyda) jamg'armalarni tuzish va to'ldirishga yo'naltirilgan mablag'lar chegirib tashlangandan so'ng boshqaruv kompaniyasi ixtiyoriga to'liq o'tib, u mustaqil ravishda o'zining oliy organi orqali undan foydalanish yo'nalishini belgilaydi. Sof foyda Boshqaruv kompaniyasi oliy organi qaroriga ko'ra ishtirokchilar o'rtasida ularning ustav jamg'armasidagi ulushlariga mutanosib tarzda taqsimlanishi yoki boshqa maqsadlarga yo'naltirilishi mumkin.

Boshqaruv kompaniyasi ishtirokchilari quyidagi faoliyatlarni amalga oshiradi:

— qonunchilikda va kompaniya ustavida belgilangan tartibda Boshqaruv kompaniyasini boshqarishda ishtirok etishi;

— Ishtirokchilar umumiy yig'ilishi kun tartibiga masalalarni kiritish bo'yicha takliflarni ilgari surish;

— Boshqaruv kompaniyasi faoliyati to'g'risida to'liq axborot olish, qonunchilikda va Boshqaruv kompaniyasining ta'sis hujjatlarida belgilangan tartibda uning buxgalteriya kitoblari va boshqa hujjatlari bilan tanishish;

— Boshqaruv kompaniyasi moliyaviy-xo'jalik faoliyatining navbatdan tashqari tekshirilishini talab qilish;

— moliyaviy yil yakunlariga ko'ra Boshqaruv kompaniyasi foydasidan o'zlarining ustav jamg'armasidagi ulushiga mutanosib bo'lgan qismini pul shaklida, va (yoki) natural shaklda olish;

— istalgan paytda qonunchilikda va boshqaruv kompaniyasining ta'sis hujjatlarida ko'zda tutilgan tartibda uning boshqa ishtirokchilari xohishidan qat'i nazar Boshqaruv kompaniyasi ishtirokchilari tarkibidan chiqish.

Ishtirokchilardan har biri Boshqaruv kompaniyasi tugatilayotgan paytda yoki uning tarkibidan chiqish vaqtida boshqaruv kompaniyasi ustav jamg'armasidagi o'z ulushini boshqaruv kompaniyasi va kreditorlar qolgan ishtirokchilar oldidagi o'z majburiyatlarini qoplaganidan keyin, qoldiq qiymati bo'yicha pul yoki natural shaklda qaytarib olish huquqiga ega.

Ulushlari birgalikda boshqaruv kompaniyasi ustav jamg'armasining 10 foizidan kam bo'lmagan qismini tashkil etuvchi ishtirokchilar, ishtirokchilarning navbatdan tashqari yig'ilishini chaqirishga, shuningdek sud orqali o'z majburiyatlarini qo'pol ravishda buzayotgan yoki o'zining harakatlari (harakatsizligi) bilan boshqaruv kompaniyasi faoliyatiga yo'l bermayotgan yoki jiddiy ravishda qiyinlashtirayotgan, yoxud boshqaruv kompaniyasi obro'siga putur yetkazayotgan ishtirokchining chiqarib yuborilishini talab qilishga haqli.

Boshqaruv kompaniyasi ishtirokchilari majburiyatlari quyidagilardan iborat:

— boshqaruv kompaniyasi ta'sis hujjatlari va amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan tartibda, miqdorda va usullarda o'z ulushlarini kiritish;

— qonunchilik, ta'sis shartnomasi va ustav talablariga rioya etish;

— boshqaruv kompaniyasiga nisbatan o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini bajarish;

— boshqaruv kompaniyasiga faoliyat yuritishda ko'maklashish;

— boshqaruv kompaniyasi faoliyatiga oid maxfiy tusga ega axborotni oshkor qilmaslik.

Ishtirokchilar ta'sis hujjatlarida va amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan tartibda o'z ulushi (ulushining bir qismi)ni bir yoki bir necha ishtirokchiga, boshqaruv kompaniyasiga yoki, boshqa ishtirokchilar roziligiga ko'ra uchinchi shaxslarga sotish yoki boshqa biron-bir usulda berish huquqiga ega. Ishtirokchilar ustav jamg'armasidagi o'z ulusnlariga mutanosib ravishda va Boshqaruv kompaniyasining o'zi navbatga ko'ra bu ulush (ulushning bir qismini) sotib olishda ustunlik huquqiga ega.

Boshqaruv kompaniyasi ustav jamg'armasidagi o'z ulushini sotish yoki birovga berish niyatida bo'lgan boshqaruv kompaniyasi ishtirokchisi boshqa ishtirokchilarni bu haqda yozma ravishda ogohlantirishi va bunda narxini va sotish yoki birovga

berishdan ko'zlangan maqsadini ko'rsatishi kerak. Agarda ishtirokchilar yoki Boshqaruv kompaniyasining o'zi sotuvga qo'yilayotgan ulushni xarid qilishda ustunlik huquqidan foydalanmasa, bu haqda xabar qilinganidan so'ng 30 kun ichida bunday ulush (ulushning bir qismi) ko'rsatilgan shartlarda uchinchi shaxslarga sotilishi yoki berilishi mumkin. Boshqaruv kompaniyasidagi ulush (ulushning bir qismi) xaridori yoki egasiga ishtirokchining barcha huquq va majburiyatlari ham yuklanadi.

Ulush (ulushning bir qismi) xarid qilishning ustunlik huquqi buzilgan ravishda sotilgan taqdirda boshqa ishtirokchilar yoki Boshqaruv kompaniyasi uch oy davomida sud orqali xaridorning huquq va majburiyatlarining o'ziga o'tkazilishini talab qilishga haqli.

Boshqaruv kompaniyasi ishtirokchilar tarkibidan chiqarib yuborilgan yoki chiqib ketgan ishtirokchiga uning ulushining haqiqiy qiymatini chiqarib yuborish yoki chiqib ketish sanasigacha bo'lgan hisobot davriga oid buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari asosida pul shaklida, yoki ishtirokchining roziligiga ko'ra, natural shaklda ulush (ulushning bir qismi) Boshqaruv kompaniyasiga o'tgan paytdan boshlab bir yil davomida qaytariladi.

Boshqaruv kompaniyasiga tegishli bo'lgan ulush u Boshqaruv kompaniyasi ixtiyoriga o'tgan kundan boshlab bir yil davomida ishtirokchilar umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra barcha ishtirokchilar o'rtasida ularning ustav jamg'armasidagi ulushlariga mutanosib ravishda taqsimlanishi yoki barcha yoxud ayrim ishtirokchilarga yoxud uchinchi shaxslarga sotilishi va qiymati to'liq to'lanishi lozim.

Ishtirokchi o'ziga tegishli ulush (ulushning biri qismi)ni ishtirokchilar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra Boshqaruv kompaniyasi roziligi bilan boshqa Ishtirokchiga yoki uchinchi shaxsga garovga berishi mumkin.

Boshqaruv kompaniyasi organlarining tarkibi va boshqaruv vakolatlari. Boshqaruv kompaniyasining boshqaruv organlariga

ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi (keyingi o'rinlarda — «Umumiy yig'ilish») va yagona (yoki kollegial) ijroiya organi kiradi.

Umumiy yig'ilish Boshqaruv kompaniyasi boshqaruvining oliy organidir. Ishtirokchilar umumiy yig'ilishda o'zlarining ustav jamg'armasidagi ulushlari miqdoriga mutanosib bo'lgan ovozlar soniga ega bo'ladi.

Boshqaruv kompaniyasi ishtirokchisi umumiy yig'ilishda shaxsan yoki notarial tarzda tasdiqlangan ishonchnoma asosida ish yurituvchi vakili orqali ishtrok etadi. Umumiy yig'ilishda boshqa ishtirokchi yoki uchinchi shaxs ishtirokchining vakili bo'lishi mumkin.

Ishtirokchilarning navbatdagi umumiy yig'ilishi kamida yiliga bir marotaba va moliyaviy yil yakunlanganidan so'ng olti oydan kechiktirilmagan holda o'tkaziladi. Qolgan barcha umumiy yig'ilishlar navbatdan tashqari yig'ilish hisoblanadi. Navbatdan tashqari umumiy yig'ilish ijroiya organi tomonidan uning tashabbusiga ko'ra yoki:

— birgalikda ishtirokchilar ovozlarining o'n foizidan kam bo'lmagan miqdorga egalik qiluvchi ishtirokchilarning;

— taftish komissiyasining (taftishchining) talabiga ko'ra chaqiriladi.

Navbatdan tashqari umumiy yig'ilish ijroiya organi tomonidan uni o'tkazish haqida talab olinganidan so'ng 30 kundan kechiktirilmagan holda chaqirilishi kerak.

Ijroiya organi umumiy yig'ilish chaqirilishi to'g'risida barcha ishtirokchilarni 30 kundan kechiktirilmagan muddatda yozma ravishda ogohlantiradi (buyurtma xat shaklida, kurer orqali, telegramma, telefonogramma shaklida, faks, elektron pochta orqali) va ushbu xabarda yig'ilishning kun tartibi, o'tkaziladigan joyi va vaqti ko'rsatiladi.

Umumiy yig'ilish unda Boshqaruv kompaniyasi ishtirokchilari ovozlari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismiga ega bo'lgan ishtirokchilar va ularning vakillari qatnashgan taqdirda vakolatli, deb hisoblanadi.

Barcha ishtirokchilar yoki ularning vakillari qatnashayotgan umumiy yig'ilish uning kun tartibiga kirmagan har qanday qo'shimcha masalani ishtirokchilar yoki ularning vakillaridan biron kishi bunga e'tiroz bildirmagan taqdirda ko'rib chiqishga haqli.

Umumiy yig'ilishni ishirokchilarning umumiy yig'ilishi tomonidan saylangan yig'ilish raisi olib boradi.

Ishtirokchilar umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatiga quyidagilar kiradi:

— Boshqaruv kompaniyasi faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilash;

— boshqa tijorat tashkilotlarida qatnashish to'g'risida qaror qabul qilish;

— ustav jamg'armasining miqdorini o'zgartirish;

— Boshqaruv kompaniyasining ta'sis hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;

— ijrochi organ va taftish komissiyasi (taftishchi)ni tashkil etish va vakolatini muddatidan avval bekor qilish;

— ijrochi organ va taftish komissiyasi (taftishchi) faoliyati to'g'risidagi nizomni tasdiqlash;

— Boshqaruv kompaniyasi faoliyati natijalari, yillik buxgalteriya balansi, shuningdek xulosalar va taftish komissiyasi (taftishchi) xulosalarini tasdiqlash;

— sof foydani taqsimlash, dividendlarni to'lash va zararlarni qoplash to'g'risida qaror qabul qilish;

— Boshqaruv kompaniyasi oblgatsiyalarini joylashtirish to'g'risida qaror qabul qilish;

— auditorlik tekshiruvini o'tkazish, auditorlik tashkilotini va uning xizmatiga to'lanadigan haqning eng yuqori miqdorini belgilash to'g'risida qaror qabul qilish;

— sho''ba korxonalar, filiallar va vakolatxonalarni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugallash to'g'risida qaror qabul qilish, ular to'g'risidagi nizomlar (ustavlarni) tasdiqlash;

— Boshqaruv kompaniyasini qayta tashkil etish va tugallash to'g'risida qaror qabul qilish, tugatish komissiyasini tayinlash, tugallash balansini tasdiqlash.

Umumiy yig'ilish vakolatlariga quyidagilar ham kiradi:

— Boshqaruv kompaniyasi ijroiya organi rahbari mehnatiga haq to'lash shartlarini belgilash;

— Ishtirokchilarning qo'shimcha qo'yilmalar kiritish bo'yicha ularning miqdori, shakli va tartibini tayinlash;

— zaxira jamg'armasi va boshqa jamg'armalar tuzish, ularni shakllantirish va ularning mablag'larini sarflash to'g'risida qarorlar qabul qilish;

— Boshqaruv kompaniyasining mulkini, shu jumladan, pul mablag'larini tasarruf etish bo'yicha Boshqaruv kompaniyasi ijroiya organi vakolatlari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash;

— yirik bitimlar tuzish va qarzlar olinishni tasdiqlash (so'nggi hisobot davri bo'yicha buxgalterlik ma'lumotlariga ko'ra Boshqaruv kompaniyasi mulki qiymatining 25 foizdan ortiq miqdorda);

— shtatlar jadvali va ichki mehnat intizomi qoidalarini tasdiqlash;

— Boshqaruv kompaniyasi ijoriya organi hisobotlari tartibini tasdiqlash;

— qonunchilikda va ustavda ko'zda tutilgan boshqa masalalarni hal etish.

Ta'sis hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, omonatlar qiymatini belgilash, shuningdek Boshqaruv kompaniyasini qayta tashkil etish va tugallashga doir qarorlar bir ovozdan qabul qilinadi, umumiy yig'ilish vakolatiga kiruvchi qolgan boshqa masalalar bo'yicha qarorlar — Boshqaruv kompaniyasi ishtirokchilarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Umumiy yig'ilish vakolatiga kiruvchi masala bo'yicha qaror qabul qilishda umumiy yig'ilishda qatnashmayotgan ishtirokchining yozma tarzda berilgan ovozlari e'tiborga olinadi.

Ishtirokchini Boshqaruv kompaniyasi ishtirokchilari safidan chiqarish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishda mazkur ishtirokchi yoki uning vakili ovoz berishda qatnashmaydi.

Umumiy yig'ilishning mutlaq vakolatiga kirmaydigan masalalar bo'yicha qarorlar yig'ilish o'tkazmasdan sirtdan ovoz berish yo'li bilan (so'rovnoma orqali), xabarlarning berilishi va olinishini hujjatlar bilan tasdiqlovchi shaklda qabul qilinishi mumkin.

Boshqaruv kompaniyasining ijrochi organi **(1-variant)**: Yagona ijrochi organ. Boshqaruv kompaniyasining yagona ijrochi organi direktor bo'lib, u umumiy yig'ilish tomonidan ma'lum muddatga qayta saylanish huquqi bilan saylanadi.

Direktor boshqaruv kompaniyasi rahbari vakolatlaridan foydalanadi, boshqaruv kompaniyasining joriy faoliyatiga rahbarlik qiladi va qonunchilik hamda ushbu ustav shartlariga ko'ra ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi vakolatiga kiritilgan masalalardan tashqari boshqa masalalarni mustaqil hal qiladi.

Boshqaruv kompaniyasining ishonchnomasiz ish yurituvchi direktori:

— Boshqaruv kompaniyasi nomidan ish yuritadi, davlat organlarida va boshqa idoralarda kompaniya manfaatlarini ifodalaydi;

— tijorat banklarida hisob-kitob hisob raqamlarini va boshqa hisob raqamlarni ochadi;

— Boshqaruv kompaniyasi ish rejasi, ishtirokchilar umumiy yig'ilishi qarorlarining amalga oshirilishini tashkil etadi;

— Boshqaruv kompaniyasi mulkini, shu jumladan, pul mablag'larini ustav, ishtirokchilar umumiy yig'ilishi qarorlariga va mulkning qanday maqsadga mo'ljallanganiga ko'ra o'z vakolatlari doirasida tasarruf etadi;

— shartnomalar, shu jumladan, mehnat shartnomalarini tuzadi;

— o'z vakolatlari doirasida bitimlar tuzadi;

— Boshqaruv kompaniyasi shartnomaviy majburiyatlarining bajarilishini ta'minlaydi;

— malakali kadrlar tanlanishini ta'minlaydi, Boshqaruv kompaniyasi xodimlarini ishga qabul qiladi va ishdan bo'shatadi;

— Boshqaruv kompaniyasi xodimlari ishini uyushtiradi va nazorat qiladi;

— Boshqaruv kompaniyasining barcha xodimlari uchun majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;

— Boshqaruv kompaniyasi nomidan hujjatlarni imzolaydi, ishonchnomalar beradi;

— Boshqaruv kompaniyasining buxgalterlik hisoboti va hisobdorligining tashkil etilishi, talab darajasidagi holati va ishonchliligini, moliyaviy hisobotning tegishli idoralarga o'z vaqtida topshirilishini ta'minlaydi;

— Boshqaruv kompaniyasi ishtirokchilarini uning faoliyatidan xabardorligini ta'minlaydi;

— Boshqaruv kompaniyasi faoliyati yakunlari to'g'risidagi yillik hisobotlarni, yillik buxgalteriya balanslarini, umumiy yig'ilish qarorlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlaydi va tasdiqlash uchun umumiy yig'ilish e'tiboriga havola etadi;

— sof foydani taqsimlash, dividendlarni to'lash va xarajatlarni qoplash bo'yicha takliflarni tayyorlaydi va ishtirokchilarning umumiy yig'ilishiga havola etadi;

— taftish komissiyasi (taftishchi) va auditorga zarur ma'lumotlarning berilishini ta'minlaydi, taftish yoki audit o'tkazish uchun sharoit yaratadi;

— boshqaruv kompaniyasi hujjatlarining kerakli holatda saqlanishi va axborot maxfiyligiga rioya qilinishini ta'minlaydi;

— umumiy yig'ilish vakolatiga kirmaydigan boshqa rahbarlik vakolatlarini amalga oshiradi.

Direktor Boshqaruv kompaniyasining rentabelli faoliyatini ta'minlashi, Boshqaruv kompaniyasi manfaatlari yo'lida halol va oqilona ish yuritishi, bunda Boshqaruv kompaniyasi va uning mijozlariga to'liq hayrixohlik bildirishi kerak.

Direktor Boshqaruv kompaniyasi va uning ishtirokchilari oldida o'zining xato xatti-harakatlari (harakatsizligi) oqibatida Boshqaruvchi kompaniyaga yetkazilgan zarar uchun to'liq javobgardir.

2-variant: Kollegial ijrochi organ.

Direktsiya (yoki boshqaruv) — boshqaruv kompaniyasining kollegial ijrochi organi hisoblanadi.

Direksiya yig'ilishlari zaruratga qarab, biroq oyiga bir martadan kam bo'lmagan tarzda o'tkaziladi. Direksiya yig'ilishlari direktor yoki uning o'rinbosari tomonidan chaqiriladi va o'tkaziladi.

Direktsiyaning har bir a'zosi direktsiya yig'ilishida bitta ovozga ega. Direktsiya qarorlari direktsiya a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Direktsiya qarorlari tegishli bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Direktsiya a'zosi bo'lmagan boshqaruv kompaniyasi ishtirokchisi direktsiya yig'ilishlarida ovoz berish huquqisiz ishtirok etishi mumkin.

Direktsiya boshqaruv kompaniyasining joriy faoliyatiga rahbarlik qiladi, ishtirokchilarning umumiy yig'ilishiga hisob beradi va ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadigan direktsiya to'g'risidagi nizom asosida ish yuritadi.

Direktsiya qonunchilik va mazkur ustav tomonidan ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi vakolatiga kiritilgan masalalarni istisno qilgan holda boshqaruv kompaniyasining joriy faoliyatiga tegishli masalalarni mustaqil hal qiladi:

— Boshqaruv kompaniyasi ish rejasi. Ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi qarorlarining ijrosini amalga oshiradi;

— Boshqaruv kompaniyasi faoliyatining rentabelligini ta'minlaydi;

— Boshqaruv kompaniyasi faoliyati yakunlari to'g'risidagi yillik hisobotlarni, yillik buxgalteriya balanslarini, umumiy yig'ilish qarorlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlaydi va tasdiqlash uchun umumiy yig'ilish e'tiboriga havola etadi;

— Sof foydani taqsimlash, dividendlarni to'lash va xarajatlarni qoplash bo'yicha takliflarni tayyorlaydi va ishtirokchilarning umumiy yig'ilishiga havola etadi;

— Boshqaruv kompaniyasining mulkini ustav, umumiy yig'ilish qarorlari va mulkning qanday maqsadga mo'ljallan-

ganligidan kelib chiqqan holda o‘z vakolatlari doirasida tasarruf etadi;

— o‘z vakolatlari doirasida bitimlar tuzish va qarzlar to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi.

Boshqaruv kompaniyasining muhim jihatlaridan biri, direktsiya a’zolari boshqaruv kompaniyasi manfaatlari yo‘lida, halol va oqilona ish yuritishi, bunda Boshqaruv kompaniyasi va uning mijozlariga nisbatan holis ish tutishi kerak.

Direksiya a’zolari boshqaruv kompaniyasi va uning ishtirokchilari oldida o‘zining xato xatti-harakatlari (harakatsizligi) oqibatida boshqaruvchi kompaniyaga yetkazilgan zarar uchun qonun oldida to‘liq javobgardir.

Direktor boshqaruv kompaniyasining faoliyatiga tezkor rahbarlikni amalga oshiradi.

Ishonchnomasiz ish yurituvchi direktor esa:

— Boshqaruv kompaniyasi nomidan ish yuritadi, davlat organlari va boshqa idoralarda uning manfaatlarin ifodalaydi;

— shartnomalar, shu jumladan, mehnat shartnomalarini tuzadi;

— o‘z vakolatlari doirasida bitimlarni amalga oshiradi;

— Boshqaruv kompaniyasining shartnomaviy majburiyatlarining amalga oshirilishini ta’minlaydi;

— tijorat banklarida joriy hisob raqam va boshqa hisob raqamlarni ochadi;

— Boshqaruv kompaniyasi mulkini, shu jumladan, pul mablag‘larini ustav, Ishtirokchilarning umumiy yig‘ilishi, direksiya qarorlari asosida va mulkning qanday maqsadga mo‘ljallanganligidan kelib chiqqan holda o‘z vakolatlari doirasida tasarruf etadi;

— malakali kadrlar tanlovini ta’minlaydi, Boshqaruv kompaniyasi xodimlarini ishga yollaydi va ishdan bo‘shatadi;

— Boshqaruv kompaniyasi xodimlarining ishini tashkillashtiradi va nazorat qiladi;

— Boshqaruv kompaniyasining barcha xodimlari uchun majburiy bo‘lgan buyruqlarni e’lon qiladi va ko‘rsatmalar beradi;

— Boshqaruv kompaniyasi nomidan hujjatlarni imzolaydi, ishonchnomalar beradi;

— Boshqaruv kompaniyasining buxgalterlik hisoboti va hisobdorligining tashkil etilishi, talab darajasidagi holati va ishonchliligini, moliyaviy hisobotning tegishli idoralarga o'z vaqtida topshirilishini ta'minlaydi;

— Boshqaruv kompaniyasi ishtirokchilarining uning faoliyatidan xabardorligini ta'minlaydi;

— taftish komissiyasi (taftishchi) va auditorga zarur ma'lumotlarning berilishi ta'minlaydi, taftish yoki audit o'tkazish uchun sharoit yaratadi;

— Boshqaruv kompaniyasi hujjatlarining kerakli holatda saqlanishi va axborot maxfiyligiga rioya qilinishini ta'minlaydi;

— umumiy yig'ilish vakolatiga kirmaydigan boshqa rahbarlik vakolatlarini amalga oshiradi.

Taftish komissiyasi (taftishchi). Taftish komissiyasi (taftishchi) boshqaruv kompaniyasining moliyaviy va xo'jalik faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Taftish komissiyasi (taftishchi) ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi tomonidan ikki yil muddatga ijrochi organi a'zosi bo'lmagan uch kishidan iborat tarkibda saylanadi.

Taftish komissiyasi (taftishchi) ish tartibi ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadigan, rejali va rejadan tashqari tekshiruvlarni (taftishlarni) o'tkazish tartibini belgilovchi tegishli nizomga ko'ra belgilanadi.

Taftish komissiyasi barcha fikrlar va komissiya a'zolarining bildirilgan alohida fikrlari qayd etilgan batafsil bayonnomalarni yuritishi lozim.

Taftish komissiyasi (taftishchi) boshqaruv kompaniyasi faoliyatini navbatdagi moliyaviy yil yoki boshqa davr yakunlariga ko'ra, boshqaruv kompaniyasi pul mablag'lari va mulki holatiga ko'ra, shuningdek daftarlar, hisob raqamlar va hujjatlar, kompaniyaning butun ish yuritish hujjatlariga ko'ra tekshiradi.

Taftish komissiyasi (taftishchi) majburiy tartibda boshqaruv kompaniyasi yillik hisobotlari va buxgalterlik balanslarini

ularning ishtirokchilarning umumiy yig'ilishida tasdiqlanishidan oldin tekshiruvdan o'tkazadi.

Tekshiruv natijalari taftish komissiyasi (taftishchi) tomonidan ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi muhokamasiga havola etiladi. Boshqaruv kompaniyasi faoliyatining taftish komissiyasi (taftishchi) yoki auditor tomonidan tekshirilishi natijalari uchinchi shaxsga faqat ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra berilishi mumkin.

Taftish komissiyasi (taftishchi) boshqaruv kompaniyasining ijroiya organidan ishtirokchilarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni talab etishga haqli.

Taftish komissiyasi (taftishchi) ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra o'z faoliyatiga mustaqil aduitorlar va mutaxassislarni jalb etishga haqli.

Auditor moliyaviy hisobdorlikning ishonchliligini, buxgalteriya hisobdorligining belgilangan talablarga mos holda yuritilishini tekshiradi.

Xodimlar va mehnat munosabatlari. O'z faoliyat maqsadlariga erishish uchun Boshqaruv kompaniyasi qonunchilikka rioya qilgan holda Boshqaruv kompaniyasi xodimlarini ishga yollaydi.

Boshqaruv kompaniyasining tashkiliy tarkibi, doimiy ishlovchi xodimlar soni boshqaruv kompaniyasi ijrochi organi taklifiga ko'ra Boshqaruv kompaniyasi faoliyatining joriy va istiqbol rejalariga muvofiq holda belgilanadi.

Boshqaruv kompaniyasi mehnatga haq to'lash shakli va miqdori, moddiy rag'batlantirish, ishga yollash va ishdan bo'shatish va mehnatning boshqa shartlarini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan fuqarolarning huquqlari va ijtimoiy kafolatlariga rioya qilgan holda belgilaydi.

Boshqaruv kompaniyasi tugallangan taqdirda ishdan bo'shatilayotgan xodimlarga ularning huquqlari va manfaatlariga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ravishda rioya qilinishi kafolatlanadi.

Har bir ishtirokchi, shuningdek boshqaruv kompaniyasi xodimlari boshqa ishirokchidan olingan butun texnik, moliyaviy,

tijorat tusidagi va boshqa axborotlarning mahfiyligiga rioya etishi kerak, olingan ma'lumotlarni oshkor qilmaslik bo'yicha barcha choralarni amalga oshirishi lozim.

Tayanch iboralar

Yagona buyurtmachi xizmati, yagona buyurtmachi xizmatining moliyaviy mablag'lari, shartnomaviy shartlar, davlat mulki, yagona buyurtmachi xizmati boshligi, professional boshqaruv kompaniyasi, boshqaruv kompaniyasi faoliyati predmeti, moliyaviy boshqaruv, maxsus xizmatlar ko'rsatish, boshqaruv organlari, umumiy yig'ilish, boshqaruv kompaniyasining ijrochi organi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Uy-joy fondiga xizmat ko'rsatishning har xil shakllarini tavsiflab bering.

2. Raqobatchilik xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyatiga qay tarzda ta'sir o'tkazadi?

3. Yagona buyurtmachi xizmatining xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatidan farqlarini sanab bering?

4. Respublikamizning qaysi shahar va tumanlarida Yagona buyurtmachi xizmatini tashkil etish bo'yicha eksperiment o'tkazildi?

5. Davlat uy-joy fondini yagona buyurtmachi xizmatiga berish tartibi qanday?

6. Professional boshqaruv kompaniyasining ustav jamg'armasi nimalardan tashkil topadi?

7. Professional boshqaruv kompaniyalari tomonidan qanday maxsus xizmatlar ko'rsatiladi?

8. Professional boshqaruv kompaniyasi necha xil variantda tashkil etiladi va ularni tavsiflab bering.

9. Boshqaruv kompaniyasi organlarining tarkibi va boshqaruv vakolatlarini sanab bering.

10. Boshqaruv kompaniyasining ijrochi organi vakolatlarini sanab bering.

XULOSA

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va bunyodkorlik ishlari respublikamiz iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish orqali ijtimoiy sohani rivojlantirish va xalqimizning farovon hayot kechirishini ta'minlashga qaratilgan.

Barkamol avlodni tarbiyalash va xalqimizning farovon hayot kechirishlarini ta'minlashda ijtimoiy soha oldiga qo'yiladigan vazifalar ikki guruhga bo'linib, birinchi guruhga inson ongini rivojlantirishga va ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashga qaratilgan: ta'lim, fan, madaniyat, san'at, sport kabi sohalar kirsa, ikkinchi guruh insonlar moddiy ehtiyojlarini qondirishga va yaxshi yashashlari uchun shart-sharoitlar yaratib berishga xizmat qiluvchi: savdo, maishiy xizmat, uy-joy qurilishi, kommunal xo'jaligi sohalaridan tashkil topadi.

Albatta aholining moddiy ehtiyojlari va yashash sharoitlari to'g'risida gapirganda eng avvalo, uy-joy qurilishi va kommunal xo'jaligi tizimining rivojlanish darajasi asosiy ko'rsatkich sifatida o'rganiladi. Aynan uy xo'jaligini, tururjoy binolari va ulardan foydalanishni tashkil etishni, kommunal xo'jaligi tizimi va kommunal xizmatlarni ko'rsatishni tashkil etishni o'rganish va chuqur tahlil qilgan holda, ilmiy asoslangan xulosalarga tayanib rivojlantirish aholiga farovon hayot kechirishlari uchun yetarli sharoit yaratish imkonini beradi.

Shu sababli mazkur darslikda asosiy e'tibor eng avvalo tayyorlanayotgan mutaxassislarga uy-joy kommunal xo'jaligi tizimi va unining faoliyati to'g'risida tizimli va mantiqiy bog'liqlikda bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan.

Darslik «Uy-joy kommunal xo'jaligi iqtisodiyoti» fani dasturi asosida tayyorlangan va unda mavzular mantiqan mujassamlangan beshta bo'limga ajratilgan bo'lib, ularda uy-joy, kommunal xo'jaligi bilan bog'liq barcha masalalarni qamrab olishga harakat qilingan.

Darslikning birinchi bo'limida uy-joy kommunal xo'jaligi tizimining jamiyat taraqqiyotidagi rolini va vazifasini ochib berish bilan bir qatorda mamlakatimizda kommunal xo'jaligini rivojlanish tarixi, hozirgi kunda bu sohada Prezidentimiz I.Karimov tashabbuslari bilan amalga oshirilayotgan islohotlar va davlatimizning uy-joy siyosati keng yoritilgan. Darslikda mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab hozirgi kunga qadar uy-joy xo'jaligi sohasida amalga oshirilgan islohatlarni va ahamiyatga molik ishlarni yoritish barobarida ulardan ko'zlangan maqsadga va tizimning kelajak istiqboliga e'tibor qaratilgan.

Darslikning ikkinchi bo'limida uy-joy fondi, tururjoy binolari klassifikatsiyasi, binolarning tuzilishi, ularning asosiy konstruktiv elementlari va muhandislik jihozlari o'rganilgan. Binolardan foydalanishni samarali tashkil etish va ularda o'z vaqtida ta'mirlash ishlarini amalga oshirish to'g'risida yetarli tushuncha hosil qilish uchun zarur ma'lumotlar berilgan.

Uchinchi bo'limda kommunal xizmatlar va ularning tashkiliy-iqtisodiy asoslari o'rganilgan. Mavzularni shakllantirishda asosiy e'tibor kommunal xo'jaligi tizimining tarkibiy tuzilishi, kommunal xizmatlarni tashkil etish mexanizmlari, uy-joy kommunal xo'jaligi tizimida kommunal xizmatlardan foydalanish me'yorlari va bahoni shakllantirish metodologiyasiga o'rganishga qaratilgan.

To'rtinchi bo'limda asosiy e'tibor kommunal xo'jaligi korxonalari va ularning iqtisodiy faoliyatini tashkil etishni o'rganishga qaratilgan. Bunda kommunal xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlarini, asosiy fondlarni va aylanma mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanishni samarali tashkil etish yo'llarini o'rganilgan.

Shuningdek, kommunal xo'jaligi korxonalarining faoliyatini samarali tashkil etish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan korxonalarni hududda joylashtirish va ular faoliyatini tashkil etish hamda kommunal xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalarda tejamkorlik, resurslarning texnologik sarflarini o'rganish va texnologik yo'qotishlarni hisoblashga alohida e'tibor qaratilgan.

Respublikamizda uy-joy fondini boshqarishda xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega

bo‘lib, darslikda shirkatlar faoliyati va rivojlanishi bilan bog‘liq ma’lumotlar, shirkatlarining tashkiliy-huquqiy asoslari va vazifalari, shirkatlar faoliyatini yanada rivojlantirish va turar joylarga xizmatlar ko‘rsatish ishlari bozorini shakllantirish masalalari o‘rganilgan.

Yangi tashkil etilgan xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining moliyaviy-iqtisodiy faoliyatini tashkil etish, buxgalteriya hisobini olib borish masalalarini mukammal o‘rganish uchun zarur ma’lumotlar keltirilgan. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyatini rivojlantirishda amaldagi kredit siyosati yoritilgan.

Darslikda uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida yangi tashkil etilayotgan «Yagona buyurtmachi xizmati», uning asosiy vazifalari, davlat tasarrufidagi uy-joy fondini yagona buyurtmachi xizmatiga berish tartibi va yagona buyurtmachi xizmatini boshqarish hamda xo‘jalik-moliyaviy faoliyatini tashkil etish masalalari o‘rganilgan.

Mazkur darslik talabalarda respublikamizda ijtimoiy sohani rivojlantirish va aholi turmush farovonligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni, uy-joy xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, ularni kelajakda soha uchun yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishlarni va sohani rivojlantirishda o‘z hissalarini qo‘shishlariga xizmat qiladi.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

1. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish — davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi, 2009-yil 14- fevral.

2. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash — barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2007-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi, 2008-yil 9-fevral.

3. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 16 yilligiga bag'ishlangan yig'ilishda so'zlagan ma'ruzasi. 2008-yil 5-dekabr.

4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. I.A.Karimov. - T.: «O'zbekiston» NMIU, 2009. - 56 b.

5. Karimov I.A. «Demokratik huquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to'liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish — farovon hayotimiz garovidir». T.: «O'zbekiston» NMIU, 2007.

6. Karimov I.A. «Inson, uning huquq va erkinliklari — oliy qadriyat». T.: «O'zbekiston» NMIU, 2007.

7. Karimov I.A. «Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish — barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohatlarimizning pirovard maqsadidir». T.: «O'zbekiston» NMIU, 2007.

8. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, taraqqiyot shartlari va kafolatlari. T., «O'zbekiston», 1997.

9. Karimov I.A. O'zbekiston — XXI asrga intilmoqda. T., «O'zbekiston», 1999.

10. Karimov I.A. «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish — ustuvor maqsadimizdir» Xalq so'zi. 2010-yil 28- yanvar.

11. Karimov I.A. «Asosiy vazifamiz — Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» Xalq so'zi. 2010- yil 29- yanvar.

12. Karimov I.A. «Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish-asosiy vazifamizdir» T.:O'zbekiston ovozi. 13- fevral 2007 yil.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 2006-2010-yillarda O'zbekiston Respublikasida servis va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlanishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2006-yil 17-aprel.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi faoliyatini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida. 2006-yil 26-aprel.

15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 15-noyabrdagi 251-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarni tayyorlash va ularning amalga oshirilishi ustidan davlat monitoringi to'g'risida» gi Nizom.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 6-maydagi «Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida»gi PF-3240-sonli Farmoni.

17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 12-sentyabrdagi 395-sonli «Kapital qurilishda xo'jalik munosabatlari mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Qarori.

18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 11-iyundagi «Markazlashtirilgan kapital qo'yilmalar hisobiga ro'yobga chiqarilayotgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda shartnomaviy joriy narxlarga o'tish to'g'risida» gi 261-sonli Qarori.

19. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 29-dekabrdagi 509-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Qurilish ob'yektlarini ro'yxatdan o'tkazish va qurilish montaj ishlarini boshlashga ruxsatnoma berish tartibi to'g'risida» gi Nizom.

20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 17-apreldagi PF-2832 Farmoni, «Kommunal xizmat ko'rsatish sohasidagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning yangi bosqichi to'g'risida» Qonunlar to'plami.

21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Uy-joy mulkdorlari shirkatlarining faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-3038 sonli Farmoni, Xalq so'zi, 2002 yil 26-fevral.

22. O'zbekiston Respublikasida uy-joy kommunal islohotlarga oid me'yoriy hujjatlarning 11-to'plami. RUMNITS «O'zkommunquv-vatashkilotchi» 2005 y.

23. O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy Kodeksi T: O‘zbekiston, 1998-yil.

24. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 22-avgustdagi 245-sonli qarori («Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari»).

25. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2791-sonli Farmoni «Kommunal xizmatni boshqarish tizimini yanada isloh qilish to‘g‘risida» Xalq so‘zi, 2000 yil 19- dekabr.

26. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 178-sonli Qarori «Aholiga kommunal xizmat ko‘rsatishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida». Moliyaviy qonunlar to‘plami, 2001 yil 18- aprel.

27. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasi «Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir» Xalq so‘zi, 2005 yil 29 -yanvar.

28. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Uy-joy qurilishi va uy-joy bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni. Xalq so‘zi, 2005 yil 16 -fevral.

29. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 24-yanvardagi 22-sonli «O‘zbekiston Respublikasining uy-joy kodeksini amalga oshirish bo‘yicha me’yoriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida»gi Qarori.

30. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 3-noyabrdagi 461-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Uy-joy-kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘yicha Yagona buyurtmachi xizmati to‘g‘risida»gi Vaqtinchalik Nizom.

31. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 29-yanvardagi PP-1051-sonlari «Uy-joy fondini rekonstruktsiya qilish, ta’mirlash va foydalanishga tayyor holda topshirish bo‘yicha pudrat ishlarini rivojlantirishni rag‘batlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni.

32. «Aholiga kommunal xizmat ko‘rsatishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» Moliyaviy qonunlar to‘plami, 2001-yil 18-aprel.

33. «Xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlarini yanada rivojlantirish va turar joylarga xizmatlar ko‘rsatishning aniq bozorini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Xalq so‘zi, 2006 yil 12-aprel.

34. O‘zbekiston Respublikasida uy-joy kommunal islohotlarga oid me’yoriy hujjatlarning 11-to‘plami. RUMNITS «O‘zkommunuquv-tashkilotchi» 2005.

35. Xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlarini yanada rivojlantirish va turar joylarga xizmatlar ko'rsatishning aniq bozorini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida» Xalq so'zi, 2006 yil 12 -aprel.

36. Статистический сборник. Жилищное хозяйство в Республике Узбекистан. Т.: Госкомстат Узбекистана. 2005.

37. Статистический сборник. Жилищное хозяйство в Республике Узбекистан. Т.: Госкомстат Узбекистана. 2008.

381. Статистический сборник. Жилищное хозяйство в Республике Узбекистан. Т.: Госкомстат Узбекистана. 2005-2009 гг.

39. Сборник №10 нормативных актов по жилищно-коммунальной реформе в Республике Узбекистан. Т.: РУМНИТС «Ўзкоммунқувташкилотчи» 2005.

40. Сборник №12 нормативных актов по жилищно-коммунальной реформе в Республике Узбекистан. Т.: РУМНИТС «Ўзкоммунқувташкилотчи» 2005.

41. ШНК 1.04.03-05 Положение об организации, ремонта и технического обслуживания жилих домов, объектов коммунального и социально-культурного назначения.

42. ШНК 3.01.04-04 Примка в эксплуатацию законченных строительством объектов.

43. КМК 3.01.08-99 Организация производства капитального ремонта.

44. КМК 3.01.09-97 Правила приёмки в эксплуатацию законченных капитальным ремонтом жилих и общественных зданий и сооружений.

45. Пособие по комплексной схемы осуществления реализации инвестиционных проектов по капитальному строительству объектов на территории Республики Узбекистан.

46. Правила и нормы технической эксплуатации жилищного фонда. МЖКХ. - М.: Стройиздат, 2006.

47. Правила и нормы технической эксплуатации жилищного фонда. Т.: РУМНИТС «Ўзкоммунқувташкилотчи». 2003.

48. «Положения об оплате расходов, связанных с содержанием и ремонтом жилого фонда и коммунальных услуг в городах и населённых пунктах Республике Узбекистан» РУМНИТС «Ўзкоммунқувташкилотчи», 2002.

49. Методические указания по определению тепловых потерь в паровых сетях. Союзтехэнерго, Москва, 1985.

50. MU-34-70-080-84 Методические указания по определению тепловых потерь в водяных и паровых тепловых сетях. Союзтехэнерго, Москва, 1985.

51. Симёнов Ю.Ф., Дроздь Н.И. Жилищно-коммунальное хозяйство. Справочник. Москва - Ростов-на-Дону. 2004.

52. Жуков Д.М. Экономика и организация жилищно-коммунального хозяйсива города. Уч. пособие для вузов: М., Владоспресс. 2003.

53. Ёдгоров В.У., Шабутаев Б.А., Бутунов Д.Я. Современные проблемы городского хозяйства. Материалы международной научно-практической конф. ЯрГУ., Ярославль. 2006.

54. Кесарева Н., Улюкаева А. Реформа жилищно-коммунального хозяйства: эволюция или революция. Вопросы экономики. М., 1997. № 9.

55. Чистов Л. Экономика строительства, 2-е изд. Учебник для ВУЗов. СПб: Питер, 2003. - 640 с.

56. Н.И. Усикова, Л.А. Немчикова, Технология строительного производства. Новосибирск, НГАСУ, 2004.

57. Акимов В.В., Огай К.А., Мерзляков В.Ф., Макарова Т.Н. Экономика отрасли (строительство). Инфра-М, 2005.

58. Бойко М.Д. Техническое обслуживание и ремонт зданий и соуужений: Справочное пособие. - М; Стройиздат, 2003.

59. Иконникова А.В., Управление проектами в строительстве. Учебное пособие. НГАСУ, 2002.

60. Змеул С.Г., Маханко Б.А. Архитектурное типология зданий и сооружений. - М., 2001.

61. Asomov R,Inog'amova M.M. Turar joy binolari tipologiyasi. - T.,2000.

62. Каменева Э.А. Реформа ЖКХ, или Теперь мы будем жить по новому. Ростов-на-Дону. Феникс. 2006.

63. Файнберг А.И. и др. Экономика, организация и планирование городского хозяйства: 2-е изд., перераб. М., 2001.

64. Жуков Д.М. Региональные проблемы управления в период реформ. М.,1998.

65. Ковалевский В.П. Преоритетные направления научно-технического прогресса в ЖКХ. ЖКХ. 1998.№7.

66. Садыков А.С. Эффективное исползование ресурсов в жилищно-коммунальном хозяйстве. М., 1996.

67. Турчихин Э.Я., Ярошевский Д.А., Тачи-заде Ф.Г. и др. Проектирование городского хозяйства: Уч. пособие для ВУЗ: 3-е изд, перераб. и доп. М., 1991.

68. Голтсман Л.Н., Федулова Л.А. Экономика коммунальных предприятий и расчетные цены. М.1999.

69. Жилищная экономика / Перевод с английского. М., 1996.

70. Экономика предприятия. Под ред. проф. В.П. Грузинова, М., «ЮНИТИ», 1998.

71. Maxmudov E.X. «Korxona iqtisodiyoti» (ma'ruzalar matnlari) - T.: TDIU, 2003 - 176 bet.

Internet manzillar:

1. www.study-law.ru.
2. www.uzkommunhizmat.uz.
3. www.tashkent.uz
4. www.agro.uz.
5. www.cbu.st.uz.
6. www.gkas.uz.
7. www.tsj.ru;
8. www.uzenergy.uz
9. www.mineconomy.uz
10. www.gov.uz

MUNDARIJA

Kirish 3
1-BO'LIM. JAMIYAT TARAQQIYOTIDA UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGI SOHASINING ROLI 6
I BOB. Uy-joy kommunal xo'jaligi tizimi va uning aholi turmush darajasini yaxshilashdagi roli 7
1.1. Kommunal xo'jaligi iqtisodiyoti fanining predmeti va vazifalari 7
1.2. Kommunal xo'jaligi sohasining jamiyatdagi roli va tarixi 10
1.3. O'zbekiston Respublikasida Davlatning uy-joy siyosati 13
1.4. Shahar xo'jaligi infratuzilmasini rivojlantirishda kommunal xo'jaligining o'rni 16
II BOB. O'zbekiston Respublikasida uy-joy kommunal xo'jaligini isloh qilish 21
2.1. O'zbekiston Respublikasida uy-joy kommunal xo'jaligi sohasini isloh qilishning o'ziga xos xususiyatlari 21
2.2. O'zbekistonda uy-joy kommunal xo'jaligi sohasining isloh qilinishi 23
2.3. Kommunal xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning yangi bosqichi 29
2.4. Kommunal xo'jaligi sohasida islohotlarni yanada chuqurlashtirish mamlakatda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy ustivor yo'nalishi 39
2.5. Respublikamizda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va aholining turmush farovonligini oshirish chora-tadbirlari 44
2.6. «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» davlat dasturi va kommunal xo'jaligi sohasidagi asosiy vazifalar 48
2-BO'LIM. UY-JOY FONDI VA TURARJOY BINOLARI TUZILISHI 54
III BOB. Turarjoy binolari va ularning asosiy konstruktiv tuzilishi 55

3.1. Foydalanish maqsadlariga ko'ra binolar va inshootlar klassifikatsiyasi 55
3.2. Binoning konstruktiv elementlari asosida qismlarga ajratish 59
3.3. Binolarning asosiy muhandislik jihozlari 67
3.4. Bino va inshootlardan foydalanish muddatlari va ularning eskirishi 70
IV BOB. Uy-joy fondi va uning klassifikatsiyasi 75
4.1. Bino va inshootlarning iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari faoliyatiga ixtisoslashuvi va tarmoq xususiyati 75
4.2. Turar joylarning tasnifi (klassifikatsiyasi) 80
4.3. Uy-joy qurilishida tejamkorlik va binolardan foydalanishni samarali tashkil etish 86
4.4. Uy-joy fondini texnik ekspluatatsiya qilish 93
V BOB. Uy-joy fondini ta'mirlash ishlarining asosiy turlari 99
5.1. Bino va inshootlarning jismoniy qayta tiklash ishlari tasnifi 99
5.2. Uy-joy fondini joriy ta'mirlash 102
5.3. Bino va inshootlarni kapital ta'mirlash 103
5.4. Bino va inshootlarni rekonstruktsiya qilish, qayta uskunalash va yangidan jihozlash 107
5.5. Ta'mirlash jarayonida bajarilgan ishlar hajmi va pudratchiga to'lanayotgan mablag'lar monitoringini olib borish 110
3-BO'LIM. KOMMUNAL XIZMATLAR VA ULARNI TASHKILIY-IQTISODIY ASOSLARI 116
VI BOB. Kommunal xo'jaligi tarkibi va kommunal xizmatlarni tashkil etish 117
6.1. Kommunal xo'jaligi tizimining tashkiliy tuzilishi va tarkibi 117
6.2. Uy-joy kommunal xo'jaligida suv ta'minoti va oqova quvur xizmati 122
6.3. O'zbekiston Respublikasida energetika tizimi va iste'molchilarga elektr energiyasi yetkazib berish 131
6.4. Issiqlik energiyasi ishlab chiqarish va yetkazib berish 139
6.5. Uy-joy kommunal xo'jaligida tabiiy gazdan foydalanish va gaz ta'minoti tizimi 145

6.6. Kommunal xo'jaligi tizimida obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish xizmatlari tarkibi va ularni tashkil etish 152
VII BOB. Uy-joy kommunal xo'jaligi tizimida bahoni shakllantirish va kommunal xizmatlardan foydalanish me'yorlari 158
7.1. Kommunal xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalarda uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash xarajatlarining qiymatini shakllantirish 158
7.2. XUJMSHning uy-joy maydoniga qilinadigan foydalanish xarajatlari qiymatini aniqlash tartibi 168
7.3. Aholining kommunal xizmatlardan foydalanish me'yorlari va ularni hisoblash uslubi 173
7.4. Uy-joy xo'jaligida suv iste'moli me'yori va oqovasuvni chetlashtirish 176
7.4.1. Uy-joy xo'jaligida suv iste'moli me'yorini aniqlash uslubi 176
7.4.2. Oqova suvni chetlashtirish xizmatidan foydalanish me'yorlari 186
7.5. Uy-joy xo'jaligida issiqlik energiyasi iste'moli me'yorini aniqlash uslubi 188
7.6. Uy-joy xo'jaligida tabiiy gaz ta'minoti me'yori 191
VIII BOB. Kommunal xo'jaligi tizimida elektr energiyasi ta'minoti va foydalanilgan elektr energiyasi uchun to'lovlarni tashkil etish 196
8.1. Iste'molchilarga elektr energiyasi yetkazib berishni tashkil etish va shartnomaviy munosabatlar 196
8.2. Iste'molchilarga elektr energiyasi yetkazib berishda tabaqalashtiril-gan tariflarni qo'llashning iqtisodiy mohiyati 203
8.3. Elektr energiyasi uchun xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari, turar joylar va aholi punktlarining kommunal-ekspluatatsiya tashkilotlari hamda turar joy va noturar joy fondi binolarining egalari bilan hisob-kitoblar 212
8.4. Maishiy iste'molchilar (aholi) bilan foydalanilgan elektr energiyasi uchun hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi 215

4-BO'LIM. KOMMUNAL XO'JALIGI KORXONALARI VA ULARNING IQTISODIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISH 222
IX BOB. Kommunal xo'jaligi korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy fondlari 223
9.1. Asosiy fondlarning korxona faoliyatidagi o'rni va tarkibiy xususiyatlari 223
9.2. Kommunal xo'jaligi korxonalarini ishlab chiqarish quvvatlari bilan ta'minlash va ulardan foydalanishni tashkil etish 226
9.3. Asosiy fondlar eskirishini hisoblash va kapital ta'mirlash ishlarining moliyaviy ta'minoti 230
X BOB. Kommunal xo'jaligi korxonalarining aylanma mablag'lari va xo'jalik faoliyatini baholashning sifat ko'rsatkichlari 240
10.1. Kommunal xo'jaligi korxonalarida aylanma mablag'larning tarkibiy tuzilishi va ularning korxona faoliyatiga ta'siri 240
10.2. Kommunal xo'jaligi korxonalarida aylanma mablag'lardan samarali foydalanish 243
10.3. Kommunal xo'jaligi korxonalarining xo'jalik faoliyati samaradorligini baholash ko'rsatkichlari 246
XI BOB. Kommunal xo'jaligi korxonalarini hududda joylashtirish va ular faoliyatini tashkil etish 253
11.1. Kommunal xo'jaligi korxonalarini hududiy joylashtirish va ularning mintaqaviy xususiyatlari 253
11.2. Kommunal xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatini tashkil etish va rejalashtirish 262
XII BOB. Xizmat ko'rsatish korxonalarida resurslarning texnologik sarfi va yo'qotishlarni hisoblash 272
12.1. Suv ta'minoti tizimida texnologik sarflar va yo'qotishlarni hisoblash uslubi 272
12.1.1. Texnologik sarflar va yo'qotishlar to'g'risida umumiy tushunchalar 272
12.1.2. Texnologik suv sarflari va yo'qolishlarini hisoblash 276
12.2. Suv ta'minoti korxonalrida texnologik suv sarflari va yo'qolishlarini hisoblash 288

5-BO'LIM. XUSUSIY UY-JOY MULKDORLARI SHIRKATLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH 309
XIII BOB. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati uy-joy fondiga xizmat ko'rsatishning mukammal shakli 310
13.1. O'zbekistonda xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining tashkil etilishi va rivojlanish tarixi 310
13.2. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining tashkiliy-huquqiy asoslari va vazifalari 315
13.3. Xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlarini yanada rivojlantirish va turar joylarga xizmatlar ko'rsatish bozori ... 330
XIV BOB. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining moliyaviy-iqtisodiy faoliyati 333
14.1. Shirkat moliyaviy faoliyatini tashkil etish, daromadlar va xarajatlar smetasi 333
14.2. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarida buxgalteriya hisobining asosiy vazifalari 340
14.3. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyatini rivojlantirishda kredit siyosati 345
XV BOB. Uy-joy-kommunal xizmat ko'rsatishda «Yagona buyurtmachi xizmati» va professional boshqaruv kompaniyasi 352
15.1. Yagona buyurtmachi xizmati va uning asosiy vazifalari 352
15.2. Davlat uy-joy-fondini yagona buyurtmachi xizmatiga berish tartibi 357
15.3. Yagona buyurtmachi xizmatini boshqarish va xo'jalik-moliyaviy faoliyatini tashkil etish 360
15.4. Professional boshqaruv kompaniyasi belgilari, funksiyalari va vazifalari 362
Xulosa 384
Tavsiya etiladigan adabiyotlar 387

Yodgarov Vali Umurovich,
Butunov Dilshod Yaxshibayevich

UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGI IQTISODIYOTI VA BOSHQARUVI

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlarining muhandislik-qurilish sohasi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun darslik sifatida tavsiya etilgan

«NOSHIR» — Toshkent — 2012

Muharrir	***M.Ahmedov***
Texnik muharrir	***D.Mamadaliyeva***
Rassom	***Sh.Odilov***
Musahhih	***S.Safayeva***
Sahifalovchi	***S.Po'latov***

65.441
Y-55

Yodgarov, Vali.

Uy-joy kommunal xo'jaligi iqtisodiyoti va boshqaruvi: darslik / V.Yodgarov, D.Butunov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi; Toshkent arxitektura qurilish instituti. — Toshkent: Noshir, 2012. 400 b.

УДК: 903.48:72(075)
ББК: 65.441

Nashriyot litsenziyasi AI № 200, 28.08.2011 y.
Terishga berildi 27.06.2011 y. Bosishga ruxsat etildi 30.07.2012 y.
Bichimi 60×84 $^1/_{16}$. «Times TAD» garniturasi. Ofset qog'ozi. Ofset usulida chop etildi. Hajmi 25,0 b.t. Adadi 500 nusxa. Buyurtma № 42.

«NOSHIR» nashriyoti, Toshkent sh., Langar ko'ch., 78.

«NOSHIR» O'zbekiston-Germaniya qo'shma korxonasi bosmaxonasida chop etildi, Toshkent sh., Langar ko'ch., 78.



ISBN 978-9943-353-86-2